TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH DEPARTAMENT

# “RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI TO‘PLAMI

## FUQAROLAR PLASTIK KARTALARI KIBRXAVFSIZLIGINI TA’MINLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH” (MY CARD MOBIL ILOVASI)

# RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT
## Ilmiy elektron jurnal

*Elektron nashr. 319 sahifa.*
*2026-yil, fevral.*

**Bosh muharrir:**
**Mo‘minov Baxodir Boltaevich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Nasimov Rashid**

**Muharrir:**
**Ulug‘ova Baxtiniso Norpulatovna**

**Musahhih:**
**Ulug‘ova Baxtiniso Norpulatovna**

**Dizayner:**
**Egamberdiyev Elyor**

### Tahrir hay’ati:

1. Mo‘minov Bahodir (hay'at raisi)
2. Rashid Nasimov (hay'at raisi o‘rinbosari)
3. Marat Raxmatullayev (O‘zbekiston)
4. Muxammadjon Musaev (O‘zbekiston)
5. O‘tkir Xamdamov (O‘zbekiston)
6. Ali Xikmet (AQSh)
7. Dmitriy Rodionov (Rossiya)
8. Dilnoza Muhammadieva (O‘zbekiston)
9. Gayrat Ishanxodjaev (O‘zbekiston)
10. Nodir Rahimov (O‘zbekiston)
11. Akmal Abdusalomov (J. Koreya)
12. Xamza Eshankulov (O‘zbekiston)
13. Iles Xujayarov (O‘zbekiston)
14. Mexriddin Raximov (O‘zbekiston)
15. Murodjon Sultanov (O‘zbekiston)
16. Bekmurodov Ulug‘bek (O‘zbekiston)
17. Alisher Qobilov (O‘zbekiston)
18. Iroda Abdullaeva (O‘zbekiston)
19. Burova Ekaterina (Rossiya)
20. Xodiyeva Gulmira (O‘zbekiston)
21. Sultonboyeva Munira (O‘zbekiston)

### Jamoatchilik kengashi:

1. Gul Tokdemir (Turkiya)
2. Umid Axmedov (Daniya)
3. Marko Porta (Italiya)
4. Xristo Beloev (Bolgariya)
5. Muxriddin Muhitdinov (J.Koreya)
6. Boshtyan Brumen (Sloveniya)
7. Bibigul Koshoeva (Qirg‘iziston)
8. Olga Dzyabenko (Ispaniya)
9. Stefani Estlund (Lyuksemburg)
10. Sanjar Iskandavor (O‘zbekiston)
11. Aydos Sarsembayev (Qirg‘iziston)
12. Svetomir Vasilev (Bolgariya)
13. Pap Solt (Vengriya)

# MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIYA SOHASINING INNOVATSION RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI ..... 7
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, Mamadyarovna Go'zal Norboyevna**

MOLIYAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI CHEKKA HUDUDLARDA IQTISODIY FAOLLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI ..... 13
**Eshov Mansur Po'latovich**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURA HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH DEPARTAMENTI FAOLIYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI. ..... 20
**Babadjanov Atxam Axmadjanovich**

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ ..... 26
**Ахмедов Самандар Сайфуллоевич**

IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA XIZMATINING FISKAL FAOLIYATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI ..... 32
**Farxodov Farrux Furqatovich, Toshpo'lotova E'zoza Latifjonovna**

SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISH YO'LLARI ..... 38
**Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich**

IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRISHNI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI ..... 43
**Pardayev To'lqin Nasirovich**

QARZ MUNOSABATLARINI RAQAMLASHTIRISH: IQTISODIY VA HUQUQIY MUNOSABATLARDAGI AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI ..... 47
**Quramboev Jamshid Rashid o'g'li**

EVALUATING THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN USING A MULTIPLE LINEAR REGRESSION MODEL ..... 50
**Rakhimberdiev Kuvonchbek Bakhtiyorovich**

TASHQI SAVDO OPERATSIYALARIDA DEBITOR QARZDORLIKLARNI BOSHQARISHNING RAQAMLI MODELI VA RISK-MONITORING TIZIMI ..... 56
**Tashmuxamedov Dilmurod Mirabzalovich**

WAYS TO REDUCE THE RISK OF DIGITAL ATTACKS IN BANKING AND GOVERNMENT FINANCIAL SYSTEMS ..... 62
**M.N. Umarova**

MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH KICHIK BIZNES IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH OMILI SIFATIDA ..... 69
**Abduxakimov Eldor Djaloliddinovich**

TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY MASALALARI ..... 76
**Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich**

MAHALLIY GILAM ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIY XAVFSIZLIKDA TAHDIDLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI ..... 81
**Arziyeva Sevinch Shomurot qizi**

TASHQI SAVDODA XATARLARNI KAMAYTIRISHDA SAVDONI MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH ..... 85
**Babadjanov Shuhrat Atxamovich**

KORXONALAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL VA METODOLOGIK ASOSLARI ..... 92
**Jamoliddinov Jobirbek Bohodir o'g'li**

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHATLARI ..... 97
**Karimov Alibek Valiyevich**

KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI NOMUTANOSIBLIGINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH VA UNI BARTARAF ETISH MEXANIZMI ..... 102
**Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna**

КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ С ПОМОЩЬЮ SWOT-АНАЛИЗА ..... 108
**Набиев Бехзод Шавкатович**

TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH HAMDA QO'LLAB-QUVVATLASHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI ..... 114
**Tashmuxamedova Yayra Atxamovna, Teshayev Sayimbek**

O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 120
**Toxirova Mushtariybegim Yashnarjon qizi**

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH STRATEGIYASI ..... 124
**Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Umarova Nargiza Xoldarovna**

РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНОЙ СТРАТЕГИИ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ..... 134
**Турсунов Бобир Ортикмирзаевич**

KIMYO SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ..... 141
**Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li**

MAMLAKAT QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI ..... 147
**Umarova Nargiza Xoldarovna**

YENGIL SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ..... 154
**Sadriddinova Nigora**

RAQAMLI MOLIYAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI TUMANLAR O'RTASIDAGI IJTIMOIY FARQNI KAMAYTIRISH MODELI ..... 162
**Xakimov Ziyodulla Ahmadovich, Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li**

O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI ..... 170
**Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li**

YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: O'ZBEKISTON BOJXONA ORGANLARI TAJRIBASI ..... 176
**Makkamov Z.X., Soatov S.S.**

RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI XALQARO SAVDODA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI ..... 182
**Muxtorov Boburmirzo Bahodir o'g'li**

RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI VA ELEKTRON HISOB-KITOBLARNING YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI ..... 188
**Norsafarov Bunyodshoh Muhiddinzoda**

PROSPECTIVE INDICATORS FOR MANAGING THE LEGALIZATION OF THE INFORMAL SECTOR AND INFORMAL EMPLOYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ..... 192
**Qoraboyev Nuriddin Pardaboy o'g'li**

YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO'RSATILAYOTGAN BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING RAQAMLI YO'NALISHLARI 196
**To'patillayeva Gulnoza Sirojiddin qizi**

BIG DATA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA SOLIQ RISKLARINI ANIQLASH VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI ..... 201
**Yakubova Nargiza Tursunbayevna, Maxmudov Jasurbek Ulug'bek o'g'li**

SOLIQLAR YOKI BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLARNI TO'LASHDAN BO'YIN TOVLASH JINOYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI ..... 208
**Axmedov Zafar Bozorboyevich**

DAVLATLARNING IQTISODIY JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDAGI XALQARO HAMKORLIGI: XALQARO TASHKILOTLAR, FATF STANDARTLARI VA AMALIY MEXANIZMLAR ..... 213
**Tashmuxamedova Yayra Atxamovna**

IQTISODIY JINOYATLARNI ANIQLASH VA ULARGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING O'RNI ..... 221
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, Tursunov Bobir Ortiqmirzayevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna**

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI ..... 226
**Azlarova Mushtariybegim Abror qizi**

RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINING ROLI ..... 232
**Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Azlarova Aziza Axrorovna**

MOLIYAVIY SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI ..... 238
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi, Sattorova Nasiba G'anijon qizi**

AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI 244
**Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi**

MAHALLIY OLIMLAR TADQIQOTLARIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA BANK XIZMATLARI MASALALARI ..... 251
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi**

BANK PLASTIK KARTALARI VA SHAXSIY HISOB RAQAMLARINI NAZORAT QILISH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI ..... 258
**Azlarova Aziza Axrarovna, Sattorova Nasiba G'anijon qizi**

AUTENTIFIKATSIYA SXEMALARINI TAHLIL QILISH VA ULARNING AFZALLIKLARI HAMDA KAMCHILIKLARI ..... 265
**Ahmedova Nilufar Shukratovna, Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna**

PLASTIK KARTALAR XAVFSIZLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI MAVJUD KIBERXAVFSIZLIK TAHDIDLARI TAHLILI ..... 272
**Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi**

ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARDA PLASTIK KARTALAR VA RAQAMLI TO'LOVLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TAJRIBALARI: FINTECH PLATFORMALARINING QIYOSIY TAHLILI VA MYCARD MOBIL ILOVASINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR ..... 278
**Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Mashrapova Sabina Turobjonovna**

AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA INDIKATORLARI ..... 285
**Eshpulatova Muazzam Barnoyevna**

AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI ..... 292
**Eshpulatova Muazzam Barnoyevna**

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ЦИФРОВОЙ ЗРЕЛОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ ..... 298
**Назарова Гулчехра Нурмухамбетовна**

ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ЦИФРОВОЙ ЗРЕЛОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА ..... 305
**Назарова Гулчехра Нурмухамбетовна**

MOLIYAVIY INKLUZIYADA KIBERXAVFSIZLIKNING O'RNI VA UNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: BANK MOBIL ILOVALARI MISOLIDA ..... 313
**Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi**

SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATANING FARMATSEVTIKA SOHASIDAGI INSON RESURSLARINI BOSHQARISH JARAYONLARIGA TA'SIRI ..... 317
**Yunusova Nozima Mirkamalovna**

BANK FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYA, TEXNOLOGIK

ARXITEKTURA VA SAMARADORLIK MODELLARI..... 320

**Sagdiyeva Maxbubaxon Rustamovna**

# RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIYA SOHASINING INNOVATSION RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI



**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mehnat iqtisodiyoti kafedrasi professori, Dsc
TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
Email: g.abdurakhmanova@tsue.uz
ORCID:0000-0002-5735-899X

**Mamadyarovna Go'zal Norboyevna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi
Email: guzalmamadiyarova@gmail.com
ORCID: 0009-0000-4822-4044

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot raqamli transformatsiya sharoitida moliya sohasining innovatsion rivojlanish xususiyatlarini kompleks tahlil etadi. Maqolada FinTech startaplari, blokcheyn texnologiyasi, sun'iy intellekt (AI) va Big Data asosida moliyaviy xizmatlar bozori transformatsiyasining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari o'rganiladi. Tadqiqot tizimli tahlil, qiyosiy metodologiya va xalqaro moliya institutlari statistik ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, FinTech innovatsiyalari moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va nazorat samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi, biroq rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu jarayon bir qator tarkibiy va institutsional cheklovlar bilan birga kechadi. Tadqiqot O'zbekiston moliya sektoriga moslashtirilgan amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.
Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, FinTech, moliyaviy inklyuziya, blokcheyn, sun'iy intellekt, raqamli bank xizmatlari, moliyaviy nazorat.

Abstract. This study provides a comprehensive analysis of the features of innovative development in the financial sector under conditions of digital transformation. The article examines quantitative and qualitative indicators of the transformation of the financial services market based on FinTech startups, blockchain technology, artificial intelligence (AI), and Big Data. The research is conducted using a systematic analysis approach, comparative methodology, and statistical data from international financial institutions. The results indicate that FinTech innovations serve as a key driver in expanding financial inclusion and improving regulatory efficiency; however, for developing countries, this process is accompanied by a number of structural and institutional constraints. The study concludes with practical recommendations tailored to the financial sector of Uzbekistan.
Key words: digital transformation, FinTech, financial inclusion, blockchain, artificial intelligence, digital banking services, financial regulation.

Аннотация. В данном исследовании проводится комплексный анализ особенностей инновационного развития финансового сектора в условиях цифровой трансформации. В статье рассматриваются количественные и качественные показатели трансформации рынка финансовых услуг на основе финтех-стартапов, технологии блокчейн, искусственного интеллекта (AI) и Big Data. Исследование выполнено с использованием системного анализа, сравнительной методологии и статистических данных международных финансовых институтов. Результаты показывают, что финтех-инновации являются ключевым фактором расширения финансовой инклюзии и повышения эффективности регулирования, однако для развивающихся стран данный процесс сопровождается рядом структурных и институциональных ограничений. В завершение представлены практические рекомендации, адаптированные к финансовому сектору Узбекистана.
Ключевые слова: цифровая трансформация, финтех, финансовая инклюзия, блокчейн, искусственный интеллект, цифровые банковские услуги, финансовое регулирование.

## KIRISH

XXI asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlab raqamli transformatsiya global iqtisodiyotda tizimli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bu hodisa ayniqsa moliya sektorida yaqqol namoyon bo'lib, an'anaviy bank institutlari, sug'urta kompaniyalari va kapital bozorlarining faoliyat printsiplari tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda. Xalqaro valyuta fondining (IMF) 2023-yil hisobotiga ko'ra, dunyo bo'ylab FinTech investitsiyalari hajmi 2022-yilda 210 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi, bu esa 2017-yildagi ko'rsatkichdan 3,4 marta yuqoridir [1]. Raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2025-yilga kelib 4 milliarddan oshishi prognoz qilinmoqda [2].

Raqamli transformatsiyani faqat texnologik yangilik sifatida talqin qilish noto'g'ri bo'ladi — bu, avvalo, moliyaviy tizimning institutsional me'morchiligini, risk boshqaruvi tizimini va tartibga solish paradigmasini o'zgartiruvchi tarkibiy jarayon hisoblanadi. Ferilli va boshq. (2024) ta'kidlashicha, FinTech firmalarining tarqalishi moliyaviy xizmatlar bozorida an'anaviy banklar ustunligiga sezilarli muqobil taqdim etmoqda, ammo bu jarayon raqamli moliyaviy savodxonlik bo'yicha yangi talablarni ham ilgari surmoqda [3].

Moliya sektoridagi raqamli transformatsiyaning asosiy texnologik harakatlantiruvchi kuchlari sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish lozim: (1) blokcheyn — markazlashtirilmagan tranzaksiya tizimlarini yaratish va nazorat xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi; (2) sun'iy intellekt va mashinali o'qitish — kredit bahosi, firibgarlikni aniqlash va individual moliyaviy xizmatlar personallashuvini ta'minlaydi; (3) Big Data analitikasi — mijozlar xatti-harakatini bashorat qilish va makroiqtisodiy prognozlar ishlab chiqishda qo'llaniladi; (4) mobil texnologiyalar — moliyaviy xizmatlarning geografik izolyatsiyasini yo'q qiladi. Adel (2024) hisobotiga ko'ra, AI va blokcheyn texnologiyalarining birgalikdagi tatbiqi rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy inklyuziya darajasini 22–35% gacha oshirish salohiyatiga ega [4].

Tadqiqot muammosi shundan iboratki, raqamli transformatsiyaning moliya sektoriga ta'siri ko'pincha alohida texnologik aspektlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi, ularning bir tizim sifatidagi o'zaro bog'liqligi va innovatsion rivojlanishga kompleks hissasi yetarlicha o'rganilmagan. Ayniqsa, moliyaviy nazorat tizimlarining raqamli sharoitga moslashuvi masalasi, FinTech va an'anaviy bank institutlari o'rtasidagi raqobat-hamkorlik dinamikasi va bu jarayonlarning O'zbekiston kabi o'tish iqtisodiyotiga ega davlatlar uchun maxsus xususiyatlari kam tadqiq etilgan tadqiqot bo'shliqlarini tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi — raqamli transformatsiya sharoitida moliya sohasining innovatsion rivojlanish tendensiyalarini kompleks tahlil qilish, FinTech, blokcheyn, AI va Big Data texnologiyalarining moliyaviy inklyuziya va nazorat samaradorligiga ta'sirini aniqlash hamda O'zbekiston moliya sektori uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiya tushunchasi moliya sohasida keng muhokama etilayotgan bo'lsa-da, uning aniq ta'rifi va o'lchash metodologiyasi hali ham munozarali masala bo'lib qolmoqda. Ferilli, Palmieri, Miani va Stefanelli (2024) tomonidan «Research in International Business and Finance» jurnalida e'lon qilingan tadqiqotda Yevropa mamlakatlarida FinTech tarqalishining raqamli moliyaviy bo'linish (digital financial divide — DFD) ko'rsatkichiga ta'siri difference-in-difference modeli yordamida tahlil qilingan. Mualliflar FinTech firmalarining sonidagi bir birlik o'sish DFD ni 0,027 punktga kamaytirishi faktini empirik asosda isbotlagan [3]. Ushbu natija FinTech innovatsiyalari moliyaviy inkluziya mexanizmi sifatida ishlaydigan nazariy takliflarni tasdiqlaydi.

Chhillar, Sharma va Arora (2025) tomonidan «Borsa Istanbul Review» jurnalida chop etilgan tadqiqotda raqamli moliyaviy savodxonlik (DFL) va shaxsiy moliyaviy boshqaruv xulq-atvori o'rtasidagi aloqa Hindistonning NCT hududida 499 ishtirokchi asosida PLS-SEM metodi bilan tekshirilgan. Natijalar DFL ning moliyaviy farovonlik o'zgaruvchanligining 50,9% ini tushuntirishini ko'rsatdi [5]. Muhim tanqidiy jihat shundan iboratki, ushbu tadqiqot bir geografik kontekstda o'tkazilganligi uchun natijalar boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri ekstrapolyatsiya qilinishi muammo tug'diradi.

Murinde va boshq. (2022) ta'kidlashicha, bank sektorida raqamli transformatsiya strategiyasi institutlarni ichki jarayonlarni modernizatsiya qilish, mavjud mahsulotlar portfelini mustahkamlash yoki xizmatlar yetkazib berish kanallarini yangilashga yo'naltiradi. Bu uch vektorli transformatsiya FinTech firmalarining tizimli muqobil sifatidagi rolini yanada kuchaytirmoqda [6]. Basnayake, Athula va boshq. (2024) tomonidan «International Review of Financial Analysis» jurnalida chop etilgan tadqiqotda Osiyo-Tinch okeani mintaqasida raqamli moliyaviy inklyuziya indeksining iqtisodiy o'sishga ta'siri 90 ta mamlakat bo'yicha panel ma'lumotlar tahlili orqali tekshirilgan. O'zbekiston ham ushbu tadqiqotning Shimoliy va Markaziy Osiyo klasteriga kiritilgan [7]. Mualliflar raqamli infratuzilma rivojlanganligi va moliyaviy xizmatlar foydalanuvchilari ulushining iqtisodiy o'sish sur'atlariga statistik jihatdan muhim ijobiy ta'siri borligini aniqlagan.

Adel (2024) tomonidan «Heliyon» jurnalida e'lon qilingan kompleks tadqiqotda AI va blokcheyn texnologiyalarining birgalikda qo'llanilishi rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy inklyuziyaga ta'siri mintaqaviy panelar asosida tahlil qilingan. Osiyo mintaqasida blokcheyn tarqalish darajasi va moliyaviy inklyuziya o'rtasida musbat, statistik jihatdan muhim korrelyatsiya aniqlangan, holbuki Lotin Amerikasida ushbu aloqa salbiy bo'lgan — bu regional institutsional omillarning hal qiluvchi rolini ko'rsatmoqda [4].

Fetaji, Fetaji, Hasan, Rexhepi va Armenski (2025) tomonidan «IEEE Access» jurnalida chop etilgan maqolada FRAUD-X deb nomlangan integratsiyalashgan tizim taqdim etilgan. Ushbu tizim AI-asosidagi anomaliya aniqlash, blokcheyn-boshqariladigan tranzaksiya tekshiruvi, kiberxavfsizlik va real vaqtli ogohlantirish mexanizmlarini birlashtirib, F1 ko'rsatkichini yagona AI-ga nisbatan 2–4% ga oshirgan va nol-kun tahdidlari uchun 90% recall darajasiga erishgan [8]. Har bir tranzaksiya taxminan 15–16 ms da qayta ishlanadi, bu real vaqtli BFSI operatsiyalari uchun qabul qilinishi mumkin ko'rsatkich. Ushbu tadqiqot yangi tajriba muhiti bo'lmish Shimoliy Makedoniya bozori asosida o'tkazilganligi uchun uning katta moliya bozorlariga qo'llanilishini tekshirish uchun qo'shimcha validatsiya talab etiladi.

Dastidar, Yelikar, Naredla, Ibrahim va Alazzam (2023) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda raqamli banking tizimlarida tahdidlarni aniqlash uchun AI qo'llanilishi tahlil qilingan. Mualliflar AI-kuchaytirilgan kiberxavfsizlik tizimlari an'anaviy qoida-asosli tizimlar bilan solishtirganda firibgarlikni aniqlash aniqligini 35–45% ga oshirishi mumkinligini ko'rsatgan [9]. Kovacevic, Radenkovic va Nikolic (2024) bank sektorida AI va kiberxavfsizlik muammolari o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, algoritmik qaror qabul qilishning bank nazorati uchun yangi cheklovlar yaratayotganini ta'kidlagan [10].

Broekhoff va boshq. (2024) «Economic Analysis and Policy» jurnalida to'lov tizimlari raqamlashtirish va moliyaviy inklyuziya o'rtasidagi bog'liqlikni ishonch-markaziy yondashuv nuqtai nazaridan o'rganib, raqamli to'lov usullariga o'tish nafaqat xarajatlarni kamaytirish, balki inklyuziya mexanizmi sifatida ham samarali ishlashini ko'rsatgan [11]. Hosen, Siddik va Miah (2025) 142 ta iqtisodiyot bo'yicha o'tkazgan tadqiqotida moliyaviy savodxonlikning moliyaviy barqarorlikka ta'siri mashinali o'qitish yondashuvlari yordamida tahlil qilinib, moliyaviy savodxonlik o'rta va yuqori daromadli davlatlarda moliyaviy barqarorlikni ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan [12].

O'zbekiston kontekstida CERT-CBU (2023) hisoboti to'lov tizimlari kibertahdid landshaftini batafsil tavsiflab, Markaziy bank tomonidan banklar va to'lov muassasalaridan shubhali operatsiyalar rejestrini yuritish, firibgarlikka qarshi avtomatlashtirilgan tizimlardan majburiy foydalanish va 24/7 rejimida faoliyat yuritadigan xavfsizlik guruhlari tashkil etish talab qilinishini belgilab qo'ygan [13]. Ushbu me'yoriy hujjat O'zbekiston moliya sektori uchun tarmoqqa oid muhim me'yoriy asos hisoblanadi.

Mavjud adabiyotlar tahlilidagi uchta asosiy bo'shliq aniqlanishi mumkin. Birinchidan, FinTech va an'anaviy bank institutlari o'rtasidagi raqobat-hamkorlik dinamikasi O'rta Osiyo kontekstida deyarli o'rganilmagan. Ikkinchidan, raqamli transformatsiya sharoitida moliyaviy nazorat tizimlarining adaptatsiya jarayoni empirik asosda kam tadqiq etilgan — mavjud ishlarning aksariyati tavsiflovchi yoki me'yoriy xarakterga ega. Uchinchidan, blokcheyn va AI texnologiyalarining birgalikdagi ta'siri moliyaviy inklyuziyaga ko'pincha alohida tahlil qilinadi, holbuki ularning sinergiyasi kompleks o'rganilishni talab etadi. Ushbu tadqiqot aynan shu bo'shliqlarni to'ldirish maqsadini ko'zda tutadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Adabiyotlar sharhi va tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqib, quyidagi beshta ilmiy gipoteza shakllantirildi (1-jadval):

1-jadval. Raqamli transformatsiya va moliya sektoridagi innovatsiyalar bo'yicha tadqiqot gipotezalari tizimi

| Gipoteza raqami | Gipoteza mazmuni | Asosiy manba |
|---|---|---|
| G1 | Raqamli transformatsiya darajasi (FinTech investitsiyalari hajmi bilan o'lchanganda) va moliyaviy inklyuziya ko'rsatkichlari o'rtasida statistik jihatdan muhim musbat korrelyatsiya mavjud. | Ferilli et al. (2024) [3]; Adel (2024) [4] |
| G2 | AI va mashinali o'qitish texnologiyalarini joriy etish firibgarlikni aniqlash samaradorligini an'anaviy yondashuvlarga nisbatan statistik jihatdan sezilarli darajada oshiradi. | Fetaji et al. (2025) [8]; Dastidar et al. (2023) [9] |
| G3 | Blokcheyn texnologiyasini tatbiq etish moliya sektori operatsion xarajatlarini kamaytirish va tranzaksiya shaffofligini oshirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. | Adel (2024) [4]; Luo (2023) [14] |
| G4 | Raqamli moliyaviy savodxonlik darajasi raqamli bank xizmatlaridan foydalanish intensivligi va moliyaviy farovonlik o'rtasidagi munosabatda vositachilik roli o'ynaydi. | Chhillar et al. (2025) [5]; Ferilli et al. (2024) [3] |
| G5 | RegTech va SupTech asboblari joriy etilishi moliyaviy nazorat samaradorligini oshirib, tartibga solish xarajatlarini kamaytirishda statistik jihatdan muhim natija beradi. | Kovacevic et al. (2024) [10]; CERT-CBU (2023) [13] |

Ushbu gipotezalar keyingi bo'limlarda analitik va statistik dalillar orqali tekshiriladi. Gipotezalarning tuzilishi determinizmdan qochib, empirik tekshirishga ochiq mantiqiy bayonot shaklida ifodalangan.

Tadqiqotda multi-metodik yondashuv qo'llanildi, ya'ni miqdoriy va sifat metodlari birgalikda ishlatildi. Metodologik asosni quyidagi usullar tashkil etadi:

Birinchi usul — tizimli tahlil. Raqamli transformatsiyaning moliya sektoridagi tarkibiy elementlari tizim nazariyasi asosida o'rganildi: kirish omillar (investitsiyalar, texnologiyalar, tartibga solish), jarayonlar (bank innovatsiyasi, xizmat yetkazib berish kanallari) va chiqish natijalari (moliyaviy inklyuziya, nazorat samaradorligi) o'rtasidagi aloqalar kartalashtirilib tahlil qilindi.

Ikkinchi usul — qiyosiy tahlil. Xalqaro tajribani baholashda taqqoslash metodidan foydalanildi. Jumladan, Yevropa Ittifoqi (EI), Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va Markaziy Osiyo mamlakatlari raqamli moliya ko'rsatkichlari solishtirildi. O'zbekiston Basnayake va boshq. (2024) tomonidan tahlil qilingan Shimoliy va Markaziy Osiyo klasteriga kiradi [7], bu esa to'g'ridan-to'g'ri qiyosiy ma'lumotlardan foydalanish imkonini berdi.

Uchinchi usul — statistik ma'lumotlarni tahlil qilish. Quyidagi manbalardan olingan ikkilamchi statistik ma'lumotlar tahlil qilindi: IMF Financial Access Survey (2022), World Bank Global Findex Database (2021), BIS Payment Statistics, European Central Bank (ECB) Digital Finance Report (2023), O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti va CERT-CBU (2023).

To'rtinchi usul — iqtisodiy modellashtirish. Adabiyotlarda tasdiqlangan econometrik modellar asosida FinTech investitsiyalari hajmi, raqamli moliyaviy inklyuziya indeksi va moliyaviy nazorat samaradorligi o'rtasidagi munosabat tahlil qilindi. Xususan, Ferilli va boshq. (2024) difference-in-difference modeli va Adel (2024) panel regression natijalari asosiy iqtisodiy modellashtirish manbalari sifatida ishlatildi.

Beshinchi usul — kontent tahlili. 2020–2026-yillar oralig'ida Scopus, Web of Science va IEEE Xplore bazalarida e'lon qilingan 45 dan ortiq ilmiy maqola tematik kodlash usuli orqali tahlil qilindi. Asosiy tematik yo'nalishlar: FinTech rivojlanishi, blokcheyn moliyada, AI-asosidagi nazorat va raqamli moliyaviy inklyuziya.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Global FinTech investitsiyalari 2015–2022-yillar oralig'idagi evolyutsiyasi keskin o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Quyidagi jadval asosiy ko'rsatkichlarni jamlaydi (2-jadval):

2- jadval. Global FinTech investitsiyalari 2015–2022-yillar oralig'idagi evolyutsiyasi[1]

| Ko'rsatkich | 2018 | 2020 | 2022 | O'sish sur'ati (2018–2022) |
|---|---|---|---|---|
| Global FinTech investitsiyalar (mlrd AQSh $) | 120 | 105* | 210 | +75,0% |
| Raqamli bank foydalanuvchilari (mlrd kishi) | 2,0 | 2,6 | 3,4 | +70,0% |
| Blokcheyn moliya sektori qiymati (mlrd $) | 2,1 | 4,9 | 11,7 | +457% |
| Mobil to'lov tranzaksiyalari (trln $) | 3,7 | 6,1 | 10,8 | +192% |
| RegTech echimlariga investitsiyalar (mlrd $) | 4,5 | 7,6 | 18,2 | +304% |

Izoh: *COVID-19 pandemiyasi tufayli 2020-yilda vaqtincha pasayish kuzatildi.

G1 gipotezasini tekshirish natijasida FinTech investitsiyalari va moliyaviy inklyuziya o'rtasidagi munosabatga doir dalillar yetarlicha mustahkam ekanligini ko'rish mumkin. Ferilli va boshq. (2024) Yevropa 277 ta mintaqasi bo'yicha o'tkazgan difference-in-difference tahlilida FinTech firmalarining sonidagi o'sish DFD ni 0,027 birlikka kamaytirishi qayd etilgan [3]. Adel (2024) Osiyo mintaqasi uchun panel ma'lumotlar tahlilida blokcheyn tarqalish darajasi va moliyaviy inklyuziya o'rtasidagi musbat aloqani (koeffitsient = 0,312, $p < 0,01$) aniqlagan [4]. Ushbu ikki mustaqil tadqiqotning konvergent natijalari G1 gipotezasini tasdiqlovchi mustahkam dalil sifatida xizmat qiladi.

Raqamli bank xizmatlarining kengayishi faqat miqdoriy o'sish emas, balki xizmatlar turini va ularning yetkazib berilish modelini ham tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy bank filiali orqali xizmat ko'rsatish modeli o'rnini platformaviy bank (banking-as-a-platform), ochiq bank (open banking) va integratsiyalashgan moliya (embedded finance) turlari egallamoqda.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida, jumladan, O'zbekiston ham kirgan Shimoliy va Markaziy Osiyo klasterida raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari hali ham past bo'lib, bu iqtisodiy tengsizlik va infratuzilma cheklovlari bilan belgilanadi. Basnayake va boshq. (2024) ta'kidlashicha, mintaqada FinTech ko'rsatkichlari o'rtasidagi tengsizlik onlayn xaridlar, elektron to'lovlar va mobil pul o'tkazmalar sohasida ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi [7]. Bu holat G4 gipotezasi bilan bog'liq muhim kontekstual omil bo'lib, raqamli savodxonlik darajasining past bo'lishi raqamli bank xizmatlarining kengayishini cheklashi mumkinligini ko'rsatadi.

1 IMF (2023), BIS Payment Statistics (2023), Statista (2023).

Firibgarlikni aniqlash — AI texnologiyalari moliyaviy xizmatlarda eng faol qo'llaniladigan yo'nalishlardan biri. Dastidar va boshq. (2023) tahlilida AI-kuchaytirilgan kiberxavfsizlik tizimlari qoida-asosli yondashuvlarga nisbatan firibgarlikni aniqlash aniqligini 35-45% ga oshirishi mumkinligi ko'rsatilgan [9]. Biroq bu ko'rsatkich to'g'ri va soxta ijobiy natijalar balansiga bog'liq ravishda sezilarli farq qilishi mumkin – bu esa G2 gipotezasi uchun muhim taqqoslash o'lchovi hisoblanadi.

Fetaji va boshq. (2025) FRAUD-X tizimida nol-kun tahdidlari uchun ~90% recall ko'rsatkichiga erishilganligi qayd etilgan [8]. Ushbu ko'rsatkich ko'pchilik mavjud tizimlardagi 80–95% diapazoni bilan taqqoslaganda raqobatbardosh. Muhim tanqidiy jihat: FRAUD-X tizimi Shimoliy Makedoniyaning nisbatan kichik BFSI bozorida sinovdan o'tkazilgan, shuning uchun katta moliya bozorlarida skalabillik va performance to'g'risidagi savollar ochiq qolmoqda. G2 gipotezasi ushbu natijalar asosida qisman tasdiqlanadi — AI tizimlari an'anaviy yondashuvlardan ustun, lekin ularning aniq samaradorlik darajasi kontekstga qarab farqlanadi.

Blokcheyn texnologiyasi moliya sektorida asosan uch yo'nalishda qo'llanilmoqda: to'lov va hisob-kitob tizimlari (xususan, transgranit to'lovlar), kredit hisoboti va garov registrlari, hamda qimmatli qog'ozlar savdosi. G3 gipotezasiga nisbatan Adel (2024) ishi asosida Osiyo mintaqasida blokcheyn va moliyaviy inklyuziya o'rtasidagi musbat aloqa tasdiqlanadi. Ammo mintaqaviy farqlar (Lotin Amerikasida salbiy ta'sir) blokcheyn samarasining universal bo'lmasligini, balki qo'llab-quvvatlovchi tartibga solish muhiti va raqamli infratuzilmaga bog'liqligini ko'rsatadi [4].

Moliyaviy nazorat va tartibga solish sohasida raqamli transformatsiya RegTech va SupTech kontseptsiyalarini yuzaga keltirdi. RegTech — moliya institutlari uchun tartibga solish talablariga muvofiqlikni avtomatlashtirishga yo'naltirilgan texnologiyalar; SupTech - nazorat organlari uchun real vaqtli monitoring va tahlil asboblari.

O'zbekiston Markaziy banki va CERT-CBU faoliyatini tahlil qilganda mamlakat moliya sektori nazorat tizimi quyidagi yo'nalishlarda rivojlanayotgani ko'zga tashlanadi: shubhali operatsiyalar rejestrini yuritish majburiyligi, firibgarlikka qarshi avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish talabi va 24/7 moliyaviy xavfsizlik guruhlarini tashkil etish. Biroq RegTech va SupTech echimlarini keng joriy etish uchun zarur bo'lgan texnik kompetensiya va ma'lumotlar infratuzilmasi hali shakllanish bosqichida [13]. G5 gipotezasini to'liq tekshirish uchun O'zbekiston kontekstida RegTech samaradorligini maxsus o'lchaydigan empirik tadqiqot o'tkazilishi zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot raqamli transformatsiyaning moliya sektoriga ta'sirini beshta o'zaro bog'liq gipoteza tizimi orqali tahlil qilib, quyidagi muhim ilmiy xulosalarga erishdi. Birinchidan, FinTech innovatsiyalari moliyaviy inklyuziyani kengaytirishda tizimli mexanizm sifatida ishlaydi — lekin bu mexanizm shartli bo'lib, mavjud raqamli infratuzilma, raqamli moliyaviy savodxonlik darajasi va tartibga solish muhitiga bog'liq. Ikkinchidan, AI va blokcheyn texnologiyalarining birgalikdagi tatbiqi sinergistik effekt yaratadi, biroq bu sinergiya universal bo'lmay, regional va institutsional kontekstga bog'liq farqlanadi.

Uchinchidan, moliyaviy nazorat tizimlarining raqamlashuvi (RegTech va SupTech) tartibga solish xarajatlarini sezilarli kamaytirish va real vaqtli monitoring imkonini beradi, ammo bu yo'nalish hali barcha mamlakatlarda etarlicha rivojlanmagan. To'rtinchidan, raqamli moliyaviy savodxonlik moliyaviy farovonlik ko'rsatkichini oshirishda zaruriy, lekin yetarli shart emas — uni iqtisodiy imkoniyat va infratuzilma bilan birgalikda ko'rib chiqish kerak.

G1 gipotezasi — «FinTech darajasi va moliyaviy inklyuziya o'rtasida musbat korrelyatsiya» — Yevropa (Ferilli et al., 2024) va Osiyo (Adel, 2024) bo'yicha mustaqil tadqiqotlarda tasdiqlandi. G2 gipotezasi — «AI firibgarlikni aniqlashni oshiradi» — Dastidar va boshq. (2023) va Fetaji va boshq. (2025) ishlarida qisman tasdiqlanib, aniq samaradorlik kontekstga bog'liq. G3 gipotezasi — «blokcheyn operatsion xarajatlarni kamaytiradi» — Osiyo mintaqasida tasdiqlanadi, biroq global universallik talab qilinadi. G4 va G5 gipotezalari qisman tasdiqlanib, ularni to'liq tekshirish uchun O'zbekiston-spetsifik empirik tadqiqot zarur.

Tadqiqot xulosalari O'zbekiston moliya sektori uchun quyidagi ilmiy asosli tavsiyalarni yuzaga keltiradi:

Birinchi tavsiya — Raqamli moliyaviy inklyuziya infratuzilmasini rivojlantirish. Raqamli bank xizmatlarining tarqalishi infratuzilmaviy investitsiyalarsiz to'la samarali bo'lmaydi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi tajribasi ko'rsatishicha, mobil aloqa foydalanuvchilari ulushining 1% ga o'sishi DFD ni 0,862 punktga kamaytiradi [3]. O'zbekiston uchun qishloq hududlarini keng polosali internet bilan qoplash va arzon mobil qurilmalarni ommalashtirish strategik ustuvorlik bo'lishi lozim.

Ikkinchi tavsiya — RegTech va SupTech ekotizimini shakllantirish. CERT-CBU tomonidan belgilangan nazorat talablari (shubhali operatsiyalar monitoring, avtomatlashtirilgan firibgarlikka qarshi tizimlar) [13] amaliy joriy etish uchun yetarli normativ asos yaratgan. Endi zarur qadam — moliyaviy nazorat organlari uchun SupTech asboblari joriy etilishi, buning uchun esa xalqaro moliya institutlari (ADB, Jahon banki) texnik yordamidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Uchinchi tavsiya — Raqamli moliyaviy savodxonlik dasturlarini tizimlashtirish. Chhillar va boshq. (2025) tadqiqoti DFL ning moliyaviy farovonlik o'zgaruvchanligining 50,9% ini tushuntirishini ko'rsatdi [5]. O'zbekiston

moliya vazirligi va Markaziy bank birgalikda aholining turli segmentlari uchun moslashtirilgan raqamli moliyaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqishi, ularni maktab ta'limi tizimi va professional malaka oshirish dasturlariga integratsiya qilishi zarur.

To'rtinchi tavsiya — FinTech ekotizimini rivojlantirish uchun tartibga solish sandbox mexanizmini joriy etish. Innovatsion moliyaviy xizmatlar ustidan eksperimental tartibga solish yondashuvlari (regulatory sandbox) FinTech startaplarning rivojlanish muhitini yaxshilaydi. Bu mexanizm EI PSD2 direktivi va Britaniya FCA sandboxi tajribasidan foydalangan holda O'zbekiston kontekstiga moslashtirilib tatbiq etilishi mumkin.

Ushbu tadqiqot bir necha metodologik cheklovga ega. Birinchidan, O'zbekiston bo'yicha ikkilamchi ma'lumotlar to'liqligi past. Ikkinchidan, G4 va G5 gipotezalari o'zbekistonlik foydalanuvchilar bilan amaliy so'rovnoma o'tkazilmagan holda to'liq tekshirilmagan. Kelajakdagi tadqiqotlarda O'zbekiston bank sektori faoliyatini o'rganuvchi birlamchi ma'lumotlar to'plash va panel econometrik tahlil o'tkazish tavsiya etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:


1. IMF (International Monetary Fund). (2023). Global Financial Stability Report: Safeguarding Financial Stability amid High Inflation and Geopolitical Risks. Washington, D.C.: IMF. https://www.imf.org/en/Publications/GFSR
2. Statista. (2023). Number of digital banking users worldwide from 2018 to 2025. Statista Research Department. https://www.statista.com/statistics/1228757/digital-banking-users-worldwide/
3. Ferilli, G.B., Palmieri, E., Miani, S., & Stefanelli, V. (2024). The impact of FinTech innovation on digital financial literacy in Europe: Insights from the banking industry. Research in International Business and Finance, 69, 102218. https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2024.102218
4. Adel, N. (2024). The role of digital literacy, AI and blockchain technology in promoting financial inclusion in emerging countries. Heliyon, 10, e40951. https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2024.e40951
5. Chhillar, N., Sharma, K., & Arora, S. (2025). Exploring the role of digital financial literacy and personal financial behavior in shaping financial stress and well-being in the digital age. Borsa Istanbul Review. https://doi.org/10.1016/j.bir.2025.11.003
6. Murinde, V., Rizopoulos, E., & Zachariadis, M. (2022). The impact of the FinTech revolution on the future of banking: Opportunities and risks. International Review of Financial Analysis, 81, 102103. https://doi.org/10.1016/j.irfa.2022.102103
7. Basnayake, D., Athula, C., & et al. (2024). Digital financial inclusion and economic growth: Evidence from Asia-Pacific. International Review of Financial Analysis, 96, 103596. https://doi.org/10.1016/j.irfa.2024.103596
8. Fetaji, B., Fetaji, M., Hasan, A., Rexhepi, S., & Armenski, G. (2025). FRAUD-X: An Integrated AI, Blockchain, and Cybersecurity Framework with Early Warning Systems for Mitigating Online Financial Fraud. IEEE Access, 13, 48060–48082. https://doi.org/10.1109/ACCESS.2025.3547285
9. Dastidar, S.G., Yelikar, B.V., Naredla, S., Ibrahim, R.K., & Alazzam, M.B. (2023). AI-powered cybersecurity: Identifying threats in digital banking. In Proceedings of ICACITE 2023 (pp. 2614–2619). IEEE. https://doi.org/10.1109/ICACITE57649.2023.10183025
10. Kovacevic, A., Radenkovic, S.D., & Nikolic, D. (2024). Artificial intelligence and cybersecurity in banking sector: Opportunities and risks. arXiv preprint arXiv:2412.04495.
11. Broekhoff, M.-C., Jonker, N., Minne, B., & van der Cruijsen, C. (2024). The digitalisation of payment transactions: Consequences for financial inclusion. Economic Analysis and Policy, 81, 1059–1076. https://doi.org/10.1016/j.eap.2024.02.038
12. Hosen, M.E., Siddik, M.N.A., & Miah, M.F. (2025). Exploring the impact of financial literacy and financial inclusion on financial stability: An analysis using machine learning approaches. Borsa Istanbul Review. https://doi.org/10.1016/j.bir.2025.11.004
13. CERT-CBU (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Kiberxavfsizlik markazi). (2023). To'lov tizimlari kibertahdid landshafti va moliyaviy muassasalar uchun nazorat talablari. Toshkent: O'zbekiston Markaziy banki.
14. Luo, Y. (2023). Research progress on financial innovation based on blockchain technology. Frontiers in Business, Economics and Management, 11(3), 1–8. https://doi.org/10.54097/fbem.v11i3.12942
15. Basar, D., Korkmaz, A., & et al. (2025). FinTech adoption and financial inclusion in emerging markets: A longitudinal analysis. Borsa Istanbul Review, 25, 59–72. https://doi.org/10.1016/j.bir.2025.01.004
16. World Bank. (2022). Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. Washington, D.C.: World Bank. https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1897-4
17. BIS (Bank for International Settlements). (2021). BIS Annual Economic Report 2021: Chapter III — FinTech and digital currencies. Basel: BIS. https://www.bis.org/publ/arpdf/ar2021e.htm
18. OECD. (2022). Financial Consumer Protection and Digital Finance: Emerging Risks, Regulatory and Supervisory Responses. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/b6fa3553-en
19. Lusardi, A., & Mitchell, O.S. (2014). The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. Journal of Economic Literature, 52(1), 5–44. https://doi.org/10.1257/jel.52.1.5
20. Paramesha, M., Rane, N., & Rane, J. (2024). Big data analytics, artificial intelligence, machine learning, internet of things, and blockchain for enhanced business intelligence. Journal of Applied Artificial Intelligence, 6, 1–28. https://doi.org/10.48185/jaai.v6i1.1080

# MOLIYAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI CHEKKA HUDUDLARDA IQTISODIY FAOLLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI



**Eshov Mansur Po'latovich**
«ALFRAGANUS UNIVERSITY»
nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
o`quv ishlari bo`yicha prorektori
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy inklyuziya vositalarining chekka hududlarda iqtisodiy faollikni oshirishdagi roli nazariy jihatdan o'rganildi. Tadqiqotda mobil banking, mikromoliyalash, raqamli to'lov tizimlari va sug'urta xizmatlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri konseptual tahlil qilindi. Chekka hududlardagi moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi kichik biznes rivoji, bandlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi va daromadlar diversifikatsiyasi bilan bevosita bog'liq ekanligi asoslab berildi. Nazariy modellar va xalqaro tajriba asosida moliyaviy inklyuziyaning transmissiya kanallari aniqlandi hamda hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Moliyaviy inklyuziya, chekka hududlar, iqtisodiy faollik, mobil banking, mikromoliyalash, raqamli to'lovlar, kichik biznes.

Abstract. This article theoretically examined the role of financial inclusion instruments in enhancing economic activity in remote areas. A conceptual analysis of the impact of mobile banking, microfinance, digital payment systems, and insurance services on economic growth was conducted. It was substantiated that the expansion of access to financial services in remote regions was directly associated with the development of small businesses, improvement of employment indicators, and income diversification. Based on theoretical models and international experience, the transmission channels of financial inclusion were identified and scientifically grounded recommendations for stimulating regional economic activity were developed.

Key words: financial inclusion, remote areas, economic activity, mobile banking, microfinance, digital payments, small business.

Аннотация. В данной статье теоретически исследована роль инструментов финансовой инклюзии в повышении экономической активности отдалённых территорий. Проведён концептуальный анализ влияния мобильного банкинга, микрофинансирования, цифровых платёжных систем и страховых услуг на экономический рост. Обосновано, что расширение доступа к финансовым услугам в отдалённых районах непосредственно связано с развитием малого бизнеса, улучшением показателей занятости и диверсификацией доходов. На основе теоретических моделей и международного опыта определены трансмиссионные каналы финансовой инклюзии и разработаны научно обоснованные рекомендации по стимулированию региональной экономической активности.

Ключевые слова: финансовая инклюзия, отдалённые территории, экономическая активность, мобильный банкинг, микрофинансирование, цифровые платежи, малый бизнес.

## KIRISH

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi global miqyosda iqtisodiy rivojlanishning asosiy to'siqlaridan biri sifatida tan olingan. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab taxminan 1,4

milliard katta yoshli inson rasmiy moliyaviy tizimdan tashqarida qolgan bo'lib, ularning aksariyati rivojlanayotgan davlatlarning chekka hududlarida yashaydi [1]. Ushbu holat nafaqat individual daromad darajasiga, balki butun hududlarning iqtisodiy dinamikasiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Moliyaviy inklyuziya tushunchasi — aholi va tadbirkorlik subyektlarining sifatli, qulay va arzon moliyaviy xizmatlarga teng darajada kirib borish imkoniyatini ta'minlash — so'nggi o'n yillikda iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishiga aylandi [2]. Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va G20 platformasi moliyaviy inklyuziyani barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning zaruriy sharti sifatida qarab kelgan [3]. Bu borada chekka hududlar alohida e'tiborni talab etadi, chunki geografik masofadorlik, infratuzilma zaifligi va moliyaviy savodxonlikning pastligi ushbu hududlarda moliyaviy xizmatlar bozoridagi nomutanosiblikni yanada chuqurlashtirib kelgan.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, moliyaviy inklyuziya vositalarining chekka hududlardagi iqtisodiy faollikka ta'sir mexanizmlarini tizimli ravishda o'rganish, transmissiya kanallarini aniqlash va ularning samaradorligini baholashning konseptual asoslarini shakllantirish ilmiy adabiyotda hali yetarli darajada qamrab olinmagan. Ko'pchilik tadqiqotlar moliyaviy inklyuziyaning makroiqtisodiy ta'sirini tahlil qilgan bo'lib, hududiy — ayniqsa, chekka mintaqalarga xos — o'ziga xosliklarni inobatga olgan nazariy yondashuvlar kamyob bo'lib qolgan [4].

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — moliyaviy inklyuziya vositalarining chekka hududlarda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish mexanizmlarini nazariy jihatdan tahlil qilish, transmissiya kanallarini konseptual ravishda modellash va ilmiy asoslangan tavsiyalar taklif etishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida mobil banking, mikromoliyalash, raqamli to'lov tizimlari va sug'urta xizmatlariga kirish imkoniyatlari tanlangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy inklyuziya nazariyasi iqtisodiy o'sish va rivojlanish bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu bog'liqlikning nazariy asoslari bir necha o'n yillik davomida shakllangan. Demirguc-Kunt va Klapper o'zlarining fundamental ishlarida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining iqtisodiy o'sish, kambag'allikning qisqarishi va ijtimoiy tengsizlikning kamayishi bilan statistik jihatdan ahamiyatli munosabatda ekanligini isbotlagan [1]. Ushbu tadqiqot Global Findex ma'lumotlar bazasi asosida 148 davlatni qamrab olgan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy inklyuziya ko'rsatkichlarining iqtisodiy faollik darajasi bilan ijobiy korrelyatsiyada turganligini ko'rsatgan.

Beck, Demirguc-Kunt va Levine moliyaviy vositachilik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy hamda empirik jihatdan o'rganib, moliyaviy tizimning chuqurlashishi YaIM o'sish sur'atiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan [5]. Ularning endogen o'sish modeliga asoslangan yondashuvi moliyaviy inklyuziyaning nafaqat natija, balki iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi ekanligini nazariy jihatdan isbotlagan. Ushbu g'oyani Burgess va Pande Hindistonning qishloq hududlaridagi bank filiallarining kengayishi misolida tasdiqlagan bo'lib, ular bank tarmoqlarining kengayishi kamdag'al tabaqalar o'rtasida moliyaviy xizmatlardan foydalanishni sezilarli darajada oshirganligini aniqlagan [6].

Mobil moliyaviy xizmatlarning chekka hududlardagi roli Suri va Jack tomonidan Keniyadagi M-Pesa tajribasi asosida chuqur tahlil qilingan [7]. Ularning tadqiqoti mobil pul o'tkazmalarining xonadonlar daromadiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini, ayniqsa ayollar boshchiligidagi xonadonlarda kambag'allik darajasini pasaytirganligini ko'rsatgan. Ushbu natijalar raqamli moliyaviy texnologiyalarning chekka hududlardagi iqtisodiy faollikni rag'batlantirish salohiyatini ochib bergan.

Mikromoliyalash nazariyasi Yunus tomonidan asoslangan bo'lib, uning nazariy asosida kambag'allar bankka muhtojligi va ularga kredit berish iqtisodiy jihatdan samarali ekanligi yotadi [8]. Armendariz va Morduch bu nazariyani yanada rivojlantirgan holda, mikromoliyaviy institutlarning turli modellarini — guruhiy kreditlash, individual mikrokreditlash va jamg'armaga asoslangan yondashuvlarni — tahlil qilgan hamda ularning chekka hududlardagi samaradorligini qiyosiy baholagan [9].

Raqamli moliyaviy xizmatlar sohasida Manyika va boshqalarning McKinsey Global Institute doirasida amalga oshirgan tadqiqoti alohida ahamiyatga ega [10]. Ushbu ishda raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanayotgan mamlakatlar YaIMiga 6 foizgacha qo'shimcha hissa qo'shishi mumkinligi haqidagi prognoz ilgari surilgan. Ozili raqamli moliyaviy inklyuziyaning rivojlanayotgan davlatlardagi ta'sirini tizimli ravishda o'rganib, raqamli texnologiyalarning moliyaviy xizmatlar narxini sezilarli kamaytirishi va qamrovini kengaytirishini asoslagan [11].

Sahara janubidagi Afrika davlatlari misolida Aker va Mbiti mobil telefonlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'rganib, mobil aloqaning narx ma'lumotlarining tarqalishini tezlashtirganligi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirganligini aniqlagan [12]. Allen va boshqalar esa Afrika davlatlarida moliyaviy inklyuziyaning belgilovchi omillarini o'rganib, bank tarmoqlarining yaqinligi, daromad darajasi va regulyativ muhitning asosiy determinantlar ekanligini ko'rsatgan [13].

Moliyaviy savodxonlikning inklyuziya jarayonidagi rolini Lusardi va Mitchell chuqur tadqiq qilgan [14]. Ularning nazariy modeli moliyaviy bilim va ko'nikmalarning moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanishning

zaruriy sharti ekanligini asoslab bergan. Karlan va Valdivia esa tajriba-tekshiruv metodi asosida moliyaviy ta'lim dasturlarining mikrotadbirkorlar faoliyatiga ijobiy ta'sirini isbotlagan [15].

Sug'urta xizmatlarining chekka hududlardagi roli Cole va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular qishloq hududlarida ob-havo indeksiga asoslangan sug'urta mahsulotlarining fermer xo'jaliklarida risk boshqaruvini yaxshilashga hissa qo'shganligini aniqlagan [16]. Ushbu tadqiqot moliyaviy inklyuziya vositalarining nafaqat kredit va to'lov, balki risk boshqaruvi orqali ham iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashini ko'rsatgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot nazariy-konseptual yondashuvga asoslangan bo'lib, tadqiqot metodologiyasi moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy faollik o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy asoslarini tizimli tahlil qilishga yo'naltirilgan. Metodologik asos sifatida quyidagi ilmiy yondashuvlar qo'llanilgan.

Birinchidan, tizimli adabiyot tahlili (systematic literature review) usuli orqali moliyaviy inklyuziya sohasidagi asosiy nazariy yondashuvlar, konseptual ramkalar va empirik natijalar tanqidiy tahlil qilingan. Tahlilga Scopus, Web of Science va Google Scholar ma'lumotlar bazalarida indekslangan 2000–2024-yillar oralig'idagi ilmiy ishlar jalb etilgan. Kalit so'zlar sifatida "financial inclusion", "remote areas", "economic activity", "mobile banking" va "microfinance" tanlangan [17].

Ikkinchidan, konseptual modellashtirish metodi qo'llanilgan. Moliyaviy inklyuziya vositalarining iqtisodiy faollikka ta'sir mexanizmlarini nazariy jihatdan modellashtirish uchun transmissiya kanallari nazariyasiga tayanilgan. Ushbu yondashuvda moliyaviy inklyuziyaning uch asosiy kanali — kirish (access), foydalanish (usage) va sifat (quality) kanallari farqlangan [3]. Har bir kanal o'ziga xos mexanizmlar orqali chekka hududlardagi iqtisodiy faollikka ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, qiyosiy nazariy tahlil usuli orqali turli davlatlar va mintaqalardagi moliyaviy inklyuziya tajribalari solishtirilib, chekka hududlarga xos umumiy qonuniyatlar ajratib chiqarilgan. Ushbu jarayonda Janubiy Osiyo, Sahara janubidagi Afrika, Lotin Amerikasi va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqalaridagi tajribalar inobatga olingan [18].


Nazariy tahlilning asosiy ramkasi sifatida Jahon bankining moliyaviy inklyuziya indekslari (Global Findex) metodologiyasidan foydalanilgan. Bu indekslar moliyaviy inklyuziyaning uchta o'lchami — hisob raqamga egalik, rasmiy jamg'armalar va rasmiy kreditlar — bo'yicha ma'lumotlarni qamrab oladi [1]. Tadqiqotda ushbu o'lchamlarning chekka hududlardagi iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari bilan nazariy bog'liqligini tahlil qilishda induktiv va deduktiv mantiqiy usullardan foydalanilgan (1-jadval).

1-jadval. Tadqiqot metodologiyasining asosiy elementlari (muallif tomonidan tuzilgan)

| Metod | Maqsad | Ma'lumot manbai | Asosiy natija |
|---|---|---|---|
| Tizimli adabiyot tahlili | Nazariy asoslarni aniqlash | Scopus, WoS, Google Scholar | Asosiy konseptual yondashuvlar tizimlashtrilgan |
| Konseptual modellashtirish | Transmissiya kanallarini aniqlash | Nazariy modellar va ramkalar | Uch kanalli model ishlab chiqilgan |
| Qiyosiy nazariy tahlil | Umumiy qonuniyatlarni ajratish | Xalqaro tajriba va holatlar | Chekka hududlarga xos omillar aniqlangan |
| Induktiv-deduktiv tahlil | Nazariy xulosalar chiqarish | Global Findex indekslari | Ilmiy tavsiyalar asoslangan |

## TAHLIL VA NATIJALAR


Moliyaviy inklyuziya vositalarining chekka hududlardagi iqtisodiy faollikka ta'sir mexanizmlarini nazariy tahlil qilish natijasida bir qator muhim konseptual xulosalarga erishildi. Tahlilning dastlabki bosqichida moliyaviy inklyuziya vositalarining chekka hududlardagi iqtisodiy faollikka ta'sir ko'rsatish konseptual ramkasi ishlab chiqildi (1-rasm).




1- rasm. Chekka hududlarda moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy faollik o'rtasidagi konseptual bog'liqlik modeli

1-rasmda ko'rsatilganidek, moliyaviy inklyuziya vositalari (mobil banking, mikromoliyalash, raqamli to'lovlar va sug'urta xizmatlariga kirish) to'rtta asosiy iqtisodiy natijaga — kambag'allikning qisqarishi, kichik va o'rta biznesning o'sishi, bandlikning yaxshilanishi va daromadlar diversifikatsiyasiga — olib keladi. Ushbu konseptual ramka Demirguc-Kunt va Klapperning moliyaviy inklyuziyaning ko'p o'lchovli ta'siri haqidagi nazariy yondashuvi [1], Suri va Jackning raqamli moliyaviy xizmatlar ta'siri modeli [7] hamda Armendariz va Morduchning mikromoliyaviy vositachilik nazariyasiga [9] tayanadi.

Nazariy tahlilning ikkinchi bosqichida moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy faollikka ta'sir ko'rsatishining transmissiya kanallari tizimli ravishda o'rganildi. Jahon banki va XVF tomonidan ishlab chiqilgan uch kanalli modelga muvofiq [3], moliyaviy inklyuziyaning ta'siri kirish (access), foydalanish (usage) va sifat (quality) kanallari orqali amalga oshadi (2-rasm).




2- rasm. Moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy faollikka ta'sir etuvchi transmissiya kanallari modeli

Kirish kanali moliyaviy xizmatlarning fizik va raqamli infratuzilmasi orqali amalga oshadi. Beck, Demirguc-Kunt va Levine asoslab berganidek, bank filiallarining kengayishi va agent banking tarmoqlarining rivojlanishi moliyaviy xizmatlar bozoriga kirish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi [5]. Burgess va Pande Hindiston tajribasida isbotlaganidek, qishloq hududlarida bank filiallarining ochilishi aholi o'rtasida rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini o'rtacha 10–15 foiz bandga ko'targan [6]. Bu natija chekka hududlarda moliyaviy infratuzilmaning kengayishi iqtisodiy faollikni rag'batlantirish uchun dastlabki va zaruriy shart ekanligini nazariy jihatdan tasdiqlaydi.

Foydalanish kanali kredit resurslarini jalb qilish, jamg'armalarni safarbar etish va to'lov tizimlaridan foydalanish orqali namoyon bo'ladi. Yunus asoslab bergan mikromoliyalash nazariyasiga ko'ra, kichik kredit resurslariga kirish imkoniyati kambag'al tabaqalarning tadbirkorlik faoliyatini boshlashi yoki kengaytirishi uchun asosiy turtki bo'ladi [8]. Manyika va hamkasblarining McKinsey hisobotidagi tahlilga ko'ra, raqamli to'lov tizimlarining joriy etilishi rivojlanayotgan mamlakatlarning YaIMiga 6 foizgacha qo'shimcha hissa qo'shishi mumkin, bunda iqtisodiy samaraning katta qismi kredit resurslarini yanada samarali taqsimlash va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hisobiga yuzaga keladi [10].

Sifat kanali taklif etiladigan moliyaviy mahsulotlarning iste'molchilar ehtiyojlariga muvofiqligi, iste'molchilar huquqlarining himoyalanganligi va moliyaviy savodxonlik darajasi orqali iqtisodiy faollikka ta'sir ko'rsatadi. Lusardi va Mitchell moliyaviy savodxonlikning yuqori darajasi moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanishni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslagan [14]. Karlan va Valdivianing tadqiqotlari esa moliyaviy ta'lim dasturlarining mikrotadbirkorlar tomonidan kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirganligini ko'rsatgan [15] (2-jadval).

2- jadval. Moliyaviy inklyuziya vositalarining chekka hududlardagi iqtisodiy faollikka ta'sir kanallari va mexanizmlari (xalqaro tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtrilgan [1], [5], [7], [8], [10])

| Transmissiya kanali | Asosiy vositalar | Iqtisodiy ta'sir mexanizmi | Nazariy asosi |
|---|---|---|---|
| Kirish kanali | Bank filiallari, agent banking, ATM tarmoqlari | Moliyaviy xizmatlar bozoriga kirib borish imkoniyatini kengaytirish | Burgess, Pande (2005); Allen et al. (2016) |
| Foydalanish kanali | Kredit, jamg`arma, to`lov tizimlari | Kapital taqsimoti samaradorligini oshirish va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish | Yunus (2007); Manyika et al. (2016) |
| Sifat kanali | Mahsulot dizayni, himoya, savodxonlik | Moliyaviy xizmatlardan foydalanish samaradorligini ta'minlash | Lusardi, Mitchell (2014); Karlan, Valdivia (2011) |

Raqamli moliyaviy xizmatlarning chekka hududlardagi roli nazariy tahlilda alohida o'rin tutadi. Aker va Mbitining tadqiqotlariga ko'ra, mobil texnologiyalar narx ma'lumotlarining tarqalish tezligini oshirish va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish orqali bozor samaradorligini yaxshilashga hissa qo'shadi [12]. Ozilining tizimli tahlili esa raqamli moliyaviy xizmatlarning an'anaviy bank xizmatlariga qaraganda 80–90 foiz arzon ekanligini nazariy jihatdan asoslab, ularning chekka hududlarda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish salohiyatini ko'rsatgan [11].

Sug'urta xizmatlarining chekka hududlardagi iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashdagi roli alohida tahlilni talab etadi. Cole va hamkasblarining nazariy va empirik tadqiqotlari shuni ko'rsatganki, ob-havo indeksiga asoslangan sug'urta mahsulotlari qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilarining risk profilini yaxshilash orqali ularning investitsiya faolligini oshiradi [16]. Nazariy jihatdan, sug'urta moliyaviy inklyuziyaning to'rtinchi o'lchovi sifatida qaralishi mumkin bo'lib, u iqtisodiy subyektlarning noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy faollik o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy modeli — bu ko'p bosqichli jarayon bo'lib, unda dastlab moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyati yaratiladi, so'ng ushbu xizmatlardan foydalanish intensivlashadi va nihoyat, foydalanish sifati yaxshilanishi natijasida iqtisodiy faollikning barqaror o'sishi ta'minlanadi. Cihak va boshqalarning empirik tadqiqotlari ushbu ketma-ketlikning moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikning asosiy mexanizmi ekanligini tasdiqlagan [19].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan nazariy tadqiqot natijalari moliyaviy inklyuziya vositalarining chekka hududlarda iqtisodiy faollikni oshirishdagi rolini ko'p qirrali va ko'p kanalli jarayon sifatida tasdiqlaydi. Nazariy tahlil quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Moliyaviy inklyuziyaning chekka hududlardagi iqtisodiy faollikka ta'siri uchta asosiy transmissiya kanali — kirish, foydalanish va sifat kanallari — orqali amalga oshadi. Har bir kanal o'ziga xos mexanizmlarga ega bo'lib, ularning samarali ishlashi moliyaviy infratuzilma, regulyativ muhit va aholi moliyaviy savodxonligi kabi omillar majmuasiga bog'liq. Beck, Demirguc-Kunt va Levinening endogen o'sish modeli [5] va Jahon bankining uch o'lchovli inklyuziya ramkasi [1] ushbu xulosaning nazariy asosini tashkil etadi.

Raqamli moliyaviy texnologiyalar chekka hududlarda moliyaviy inklyuziyani kengaytirishning eng istiqbolli vositasi sifatida namoyon bo'lgan. Suri va Jackning M-Pesa modeli [7], Ozilining raqamli moliyaviy xizmatlar tahlili [11] va Manyika va hamkasblarining McKinsey hisoboti [10] raqamli texnologiyalarning tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirish salohiyatini asoslab bergan.

Mikromoliyalash va sug'urta xizmatlari chekka hududlardagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashning muhim vositalari sifatida qaralishi lozim. Yunus [8], Armendariz va Morduch [9] hamda Cole va hamkasblarining [16] tadqiqotlari mikrokreditlash va sug'urta mexanizmlarining kichik biznes rivojiga va risk boshqaruviga ijobiy ta'sir ko'rsatishini nazariy jihatdan asoslab bergan.

Moliyaviy savodxonlik moliyaviy inklyuziya vositalarining samaradorligini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Lusardi va Mitchell [14] hamda Karlan va Valdivia [15] tomonidan asoslangan nazariy yondashuvlar moliyaviy ta'lim dasturlarining inklyuziya jarayonini tezlashtirishi va sifatini yaxshilashini ko'rsatgan.

Ushbu nazariy tahlil asosida quyidagi ilmiy takliflar ishlab chiqildi:

Chekka hududlarda moliyaviy inklyuziya strategiyasini ishlab chiqishda uch kanalli yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq. Moliyaviy xizmatlarga kirishni ta'minlash, foydalanish intensivligini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash jarayonlari parallel ravishda amalga oshirilganda sinergik samaraga erishilishi mumkin [3].

Raqamli moliyaviy xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratilishi zarur. Mobil banking va raqamli to'lov platformalarining chekka hududlarda joriy etilishi an'anaviy bank infratuzilmasini rivojlantirishga qaraganda kam xarajatli va tez amalga oshiriladigan alternativ sifatida ko'rilishi kerak [10], [11].

Mikromoliyaviy xizmatlar va sug'urta mahsulotlarini chekka hududlarning o'ziga xos sharoitlariga moslashtirish lozim. Mahsulot dizayni, kredit muddatlari va sug'urta shartlari hududiy iqtisodiy faoliyatning mavsumiy xarakterini, aholi daromadlarining tarkibiy xususiyatlarini va mavjud risklar spektrini hisobga olishi kerak [9], [16]

Moliyaviy savodxonlik dasturlarini moliyaviy inklyuziya strategiyasining ajralmas qismi sifatida amalga oshirish zarur. Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, faqat moliyaviy xizmatlarga kirishni ta'minlash yetarli emas — aholi moliyaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgandagina inklyuziya iqtisodiy faollikning barqaror o'sishiga olib keladi [14], [15].

Kelgusida ushbu nazariy xulosalarni aniq hududiy kontekstlarda empirik tekshirish, transmissiya kanallarining nisbiy samaradorligini miqdoriy baholash va moliyaviy inklyuziya strategiyalarining uzoq muddatli ta'sirini o'rganish istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari sifatida belgilanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Demirguc-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S., & Hess, J. (2018). The Global Findex Database 2017: Measuring Financial Inclusion and the Fintech Revolution. World Bank. https://globalfindex.worldbank.org/
2. World Bank. (2022). Financial Inclusion Overview. https://www.worldbank.org/en/topic/financialinclusion/overview
3. G20/OECD. (2023). G20/OECD Policy Guidance on Financial Consumer Protection Approaches in the Digital Age. https://www.oecd.org/en/publications/g20-oecd-policy-guidance-on-financial-consumer-protection-approaches-in-the-digital-age_12b3cb48-en.html
4. Park, C.Y., & Mercado, R. (2018). Financial Inclusion, Poverty, and Income Inequality. The Singapore Economic Review, 63(01), 185-206. https://doi.org/10.1142/S0217590818410059
5. Beck, T., Demirguc-Kunt, A., & Levine, R. (2007). Finance, inequality and the poor. Journal of Economic Growth, 12(1), 27-49. https://doi.org/10.1007/s10887-007-9010-6
6. Burgess, R., & Pande, R. (2005). Do Rural Banks Matter? Evidence from the Indian Social Banking Experiment. American Economic Review, 95(3), 780-795. https://doi.org/10.1257/0002828054201242
7. Suri, T., & Jack, W. (2016). The long-run poverty and gender impacts of mobile money. Science, 354(6317), 1288-1292. https://doi.org/10.1126/science.aah5309
8. Yunus, M. (2007). Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism. PublicAffairs. https://www.publicaffairsbooks.com/titles/muhammad-yunus/creating-a-world-without-poverty/9781586486679
9. Armendariz, B., & Morduch, J. (2010). The Economics of Microfinance (2nd ed.). MIT Press. https://mitpress.mit.edu/9780262513982/the-economics-of-microfinance/
10. Manyika, J., Lund, S., Singer, M., White, O., & Berry, C. (2016). Digital Finance for All: Powering Inclusive Growth in Emerging Economies. McKinsey Global Institute. https://www.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/digital-finance-for-all-powering-inclusive-growth-in-emerging-economies
11. Ozili, P.K. (2018). Impact of digital finance on financial inclusion and stability. Borsa Istanbul Review, 18(4), 329-340. https://doi.org/10.1016/j.bir.2017.12.003

12. Aker, J.C., & Mbiti, I.M. (2010). Mobile Phones and Economic Development in Africa. Journal of Economic Perspectives, 24(3), 207-232. https://doi.org/10.1257/jep.24.3.207
13. Allen, F., Demirguc-Kunt, A., Klapper, L., & Martinez Peria, M.S. (2016). The foundations of financial inclusion: Understanding ownership and use of formal accounts. Journal of Financial Intermediation, 27, 1-30. https://doi.org/10.1016/j.jfi.2015.12.003
14. Lusardi, A., & Mitchell, O.S. (2014). The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. Journal of Economic Literature, 52(1), 5-44. https://doi.org/10.1257/jel.52.1.5
15. Karlan, D., & Valdivia, M. (2011). Teaching Entrepreneurship: Impact of Business Training on Microfinance Clients and Institutions. Review of Economics and Statistics, 93(2), 510-527. https://doi.org/10.1162/REST_a_00074
16. Cole, S., Giné, X., Tobacman, J., Topalova, P., Townsend, R., & Vickery, J. (2013). Barriers to Household Risk Management: Evidence from India. American Economic Journal: Applied Economics, 5(1), 104-135. https://doi.org/10.1257/app.5.1.104
17. Tranfield, D., Denyer, D., & Smart, P. (2003). Towards a Methodology for Developing Evidence-Informed Management Knowledge by Means of Systematic Review. British Journal of Management, 14(3), 207-222. https://doi.org/10.1111/1467-8551.00375
18. Sahay, R., Čihák, M., N'Diaye, P., Barajas, A., Pena, D.B.A., Bi, R., ... & Yousefi, S.R. (2015). Rethinking Financial Deepening: Stability and Growth in Emerging Markets. IMF Staff Discussion Note. https://www.imf.org/external/pubs/ft/sdn/2015/sdn1508.pdf
19. Čihák, M., Mare, D.S., & Melecky, M. (2016). The Nexus of Financial Inclusion and Financial Stability: A Study of Trade-Offs and Synergies. World Bank Policy Research Working Paper No. 7722. https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/24639
20. Bruhn, M., & Love, I. (2014). The Real Impact of Improved Access to Finance: Evidence from Mexico. Journal of Finance, 69(3), 1347-1376. https://doi.org/10.1111/jofi.12091
21. Banerjee, A., Duflo, E., Glennerster, R., & Kinnan, C. (2015). The Miracle of Microfinance? Evidence from a Randomized Evaluation. American Economic Journal: Applied Economics, 7(1), 22-53. https://doi.org/10.1257/app.20130533
22. GSMA. (2023). State of the Industry Report on Mobile Money 2023. https://www.gsma.com/mobilemoneymetrics/the-mobile-money-industry-report-2023/

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURA HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH DEPARTAMENTI FAOLIYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI.

**Babadjanov Atxam Axmadjanovich**
O'zbekiston Respublikasi soliq xizmatining
3-darajali davlat maslahatchisi
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi
Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti adliya maslahatchisi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining faoliyati va uning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda departamentning huquqiy asoslari, asosiy vazifalari, davlat organlari bilan institutsional hamkorligi hamda iqtisodiy jinoyatlar va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, rasmiy statistik ma'lumotlar va xalqaro tajriba asosida iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy jinoyat, korrupsiya, yashirin iqtisodiyot, moliyaviy monitoring, jinoiy daromadlarni legallashtirish, davlat budjeti, institutsional hamkorlik, tezkor-qidiruv faoliyati, tergov, raqamli nazorat, xavf tahlili, huquqiy mexanizm, departament faoliyati, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract. The article analyzes the activities of the Department for Combating Economic Crimes under the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan and its role in ensuring the country's economic security. The study examines the legal foundations of the Department's activity, its main functions, institutional cooperation with state bodies, and its significance in combating economic crimes and the shadow economy. In addition, based on official statistical data and international experience, the paper substantiates key directions for improving the national system of combating economic crimes.

Key words: economic security, economic crime, corruption, shadow economy, financial monitoring, laundering of criminal proceeds, state budget, institutional cooperation, operational-search activity, investigation, digital control, risk analysis, legal mechanism, department activity, economic stability.

Аннотация. В статье проанализированы деятельность Департамента по борьбе с экономическими преступлениями при Генеральной прокуратуре Республики Узбекистан и его роль в обеспечении экономической безопасности страны. В исследовании раскрыты правовые основы деятельности департамента, его основные задачи, институциональное взаимодействие с государственными органами, а также значение в противодействии экономическим преступлениям и теневой экономике. Кроме того, на основе официальных статистических данных и зарубежного опыта обоснованы направления совершенствования системы противодействия экономическим преступлениям.

Ключевые слова: экономическая безопасность, экономическое преступление, коррупция, теневая экономика, финансовый мониторинг, легализация преступных доходов, государственный бюджет, институциональное взаимодействие, оперативно-розыскная деятельность, расследование, цифровой контроль, анализ рисков, правовой механизм, деятельность департамента, экономическая стабильность.

## KIRISH

Global iqtisodiyotning rivojlanishi va moliyaviy munosabatlarning murakkablashuvi iqtisodiy jinoyatlar xavfini oshirmoqda. Iqtisodiy jinoyatlar davlat budjetiga zarar yetkazishi, investitsion muhitni yomonlashtirishi hamda iqtisodiy barqarorlikka tahdid solishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida bir qator institutsional mexanizmlar joriy etilgan. Ularning eng muhimlaridan biri O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hisoblanadi.

2018-yildan boshlab mazkur departament iqtisodiy jinoyatlar va pullarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi vakolatli davlat organi sifatida faoliyat yuritmoqda. U moliyaviy monitoring, tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov funksiyalarini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlar davlat va jamiyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid soladi. Ularning oldini olish davlat siyosatidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi."

O'zbekistonda iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish siyosatining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun, "Prokuratura to'g'risida"gi qonun hamda Prezident farmon va qarorlari tashkil etadi.

Jumladan, 2022-yil 12-apreldagi "Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-204-son qaror[1] bilan departament tizimida alkogol va tamaki mahsulotlari bozorini tartibga solish inspeksiyasi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasiga muvofiq davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bu esa davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish borasidagi institutsional siyosatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy jinoyatlar va iqtisodiy xavfsizlik masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlardan Gary Becker iqtisodiy jinoyatlar nazariyasini ishlab chiqqan bo'lib, u jinoyatlarning iqtisodiy sabablarini tahlil qilgan. Beckerga ko'ra, iqtisodiy jinoyatlar ehtimoli jazo darajasi va nazorat samaradorligi bilan bog'liq.

Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarning davlat boshqaruviga ta'siri Susan Rose-Ackerman tomonidan keng o'rganilgan. Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy va moliyaviy jinoyatlar bo'yicha mashhur kriminolog olim Michael Levi o'z ilmiy izlanishlarida moliyaviy jinoyatlar, pul yuvish va firibgarlik masalalarini tadqiq qilgan.

Mahalliy tadqiqotchilar ham iqtisodiy jinoyatlar va iqtisodiy xavfsizlik masalalarini keng o'rganganlar. Jumladan, B.Yuldashev iqtisodiy xavfsizlikning nazariy asoslarini tahlil qilgan bo'lsa, A.Rasulov iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini tadqiq etgan. Shuningdek, Sh.Rustamov korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarning iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirini tahlil qilgan. N.Nazarov va B.Xolmurodovlar moliyaviy nazorat tizimining iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada quyidagi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi:

1. Qiyosiy tahlil usuli – O'zbekiston va xorijiy davlatlarda iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash tizimini taqqoslash.
2. Statistik tahlil – Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida iqtisodiy jinoyatlar dinamikasini tahlil qilish.
3. Institutsional tahlil – departament faoliyatining huquqiy va tashkiliy asoslarini o'rganish.
4. Sistemali tahlil – iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda turli davlat organlari hamkorligini baholash.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiya holatlari bo'yicha so'nggi yillarda qator ko'rsatkichlar qayd etilgan (1-jadval).

1- jadval. O'zbekistonda korrupsiya jinoyatlari bo'yicha ko'rsatkichlar[2]

| Yil | Jinoyatlar soni | Sudlanganlar soni |
|---|---|---|
| 2022 | 3116 | 7414 |
| 2023 | 3575 | 6535 |
| 2024 | 4906 | 7354 |

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar mamlakatda korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarni aniqlash darajasi so'nggi yillarda muayyan darajada oshganini ko'rsatadi. Bu holat, bir tomondan, iqtisodiy jinoyatlarning mavjudligi va ularning iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sirini namoyon etsa, ikkinchi tomondan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyatlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning faollashganini ham anglatadi.

Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lgani sababli mazkur yo'nalishda bir nechta davlat organlarining o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish tizimida Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti markaziy o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, ushbu sohada Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Markaziy bank, Davlat soliq qo'mitasi hamda Bojxona qo'mitasi kabi davlat organlari ham o'z vakolatlari doirasida ishtirok etadi.

Mazkur davlat organlari o'rtasidagi institutsional hamkorlik iqtisodiy jinoyatlarni barvaqt aniqlash, moliyaviy operatsiyalarni nazorat qilish, soliq va bojxona sohasidagi huquqbuzarliklarni bartaraf etish hamda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu jihatdan, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish tizimining samaradorligi ko'p jihatdan davlat organlari o'rtasidagi axborot almashinuvi va muvofiqlashtirilgan faoliyatga bog'liq hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish maqsadida Davlat soliq qo'mitasi hamda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti o'rtasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Ushbu hamkorlik doirasida iqtisodiy faoliyatning shaffofligini ta'minlash va qonunbuzilishlarni aniqlashga qaratilgan bir qator zamonaviy mexanizmlar joriy etilmoqda. Jumladan, raqamli nazorat tizimlari, elektron hisob-fakturalar, moliyaviy monitoring hamda xavf tahlili asosida nazorat tadbirlarini amalga oshirish amaliyoti keng qo'llanilmoqda.

Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilik holatini tahlil qilish mamlakatdagi huquq-tartibot va iqtisodiy xavfsizlik holatini baholashda muhim ahamiyatga ega. 2024-yil bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda jami 132 298 ta jinoyat ro'yxatga olingan. Bu ko'rsatkich aholi soniga nisbatan hisoblaganda har 100 ming nafar aholiga taxminan 200 ta jinoyat to'g'ri kelganini ko'rsatadi.

Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatda jinoyatchilik holatini baholash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini tahlil qilishda muhim statistik mezon hisoblanadi. Shu bilan birga, jinoyatchilik darajasining mazkur ko'rsatkichlari davlat organlari tomonidan profilaktika chora-tadbirlarini kuchaytirish, iqtisodiy jinoyatlarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha kompleks choralarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu sababli ham mamlakat iqtisodiyotida yashirin iqtisodiyot ulushining so'nggi yillardagi dinamikasini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega (1-rasm).




1- rasm. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot ulushining yillar kesimida o'zgarish dinamikasi[1]

1 Манба: Давлат статистика қўмитаси ҳамда https://www.euronews.com/business/2026/01/23/uzbekistan-sees-lower-shadow-economy-share-as-cashless-payments-rise маълумотлари асосида

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tahlillarga ko'ra, 2025-yil holatiga mamlakat iqtisodiyotida kuzatilmaydigan iqtisodiy faoliyat ulushi taxminan 33 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat.

Jumladan, iqtisodiyotning 25,6 foizi norasmiy iqtisodiy faoliyat hisobiga to'g'ri keladi. Bu asosan rasmiy statistikada qayd etilmaydigan, soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilmaydigan mehnat va xizmatlar bilan bog'liq faoliyatni qamrab oladi. Shuningdek, iqtisodiyotning 7,7 foizi yashirin iqtisodiyot hisobiga to'g'ri keladi. Bunday faoliyat, odatda, qonunchilik talablarini buzish, soliqdan bo'yin tovlash yoki noqonuniy iqtisodiy operatsiyalar bilan bog'liq bo'ladi (2-rasm).




2- rasm. 2024-yil O'zbekistonda iqtisodiy jinoyatlarning jinoyat turiga ko'ra tarkibi (foizi, %)[2]

Mazkur ko'rsatkichlar mamlakat iqtisodiyotida kuzatilmaydigan iqtisodiy faoliyatning muayyan darajada saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Shu sababli davlat organlari tomonidan iqtisodiyotni raqamlashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va moliyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali yashirin iqtisodiyot ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining faoliyati mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim institutsional mexanizm hisoblanadi.

Departamentning asosiy vazifalari[3] quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy va korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va oldini olish;
- jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish;
- iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlari va dastlabki tergov harakatlarini amalga oshirish;
- moliyaviy monitoringni amalga oshirish va shubhali moliyaviy operatsiyalarni tahlil qilish;
- davlat budjetiga yetkazilgan iqtisodiy zararni aniqlash va undirish.

Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, moliyaviy operatsiyalarni tahlil qilishda big data, sun'iy intellekt (AI) va raqamli tahlil tizimlaridan foydalanish orqali shubhali moliyaviy operatsiyalarni barvaqt aniqlash, jinoiy daromadlarni legallashtirish sxemalarini fosh etish hamda iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish imkoniyati kengaymoqda.

Ko'plab rivojlangan davlatlarda iqtisodiy va moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish uchun maxsus vakolatli organlar tashkil etilgan bo'lib, ular zamonaviy axborot texnologiyalari va tahliliy platformalar asosida faoliyat yuritadi. Masalan, AQShda moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish vazifasi Financial Crimes Enforcement Network (FinCEN) agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada mazkur vazifalar National Crime Agency tomonidan bajarilsa, Singapurda iqtisodiy va moliyaviy jinoyatlar bilan kurashish Commercial Affairs Department zimmasiga yuklatilgan. Ushbu organlar moliyaviy monitoring, ma'lumotlar tahlili va xalqaro axborot almashinuvi orqali iqtisodiy jinoyatlarga qarshi samarali kurashish mexanizmlarini shakllantirgan (2-jadval).

2 https://www.uzdaily.uz/en/the-number-of-crimes-in-uzbekistan-in-2024-exceeded-132000-cases
3 https://lex.uz/acts/-3743214

2- jadval. Iqtisodiy va moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha ayrim davlatlardagi institusional mexanizmlar[4]

| Davlat | Asosiy mexanizm |
|---|---|
| AQSH | Financial Crimes Enforcement Network (FinCEN) |
| Buyuk Britaniya | National Crime Agency (NCA) |
| Singapur | Commercial Affairs Department (CAD) |
| Germaniya | Federal Criminal Police Office (BKA) |
| Fransiya | TRACFIN (Financial Intelligence Unit) |

Mazkur xalqaro tajriba iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashishda zamonaviy raqamli texnologiyalar va tahliliy instrumentlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda ham moliyaviy monitoring tizimini yanada takomillashtirish, raqamli tahlil imkoniyatlarini kengaytirish hamda davlat organlari o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, global iqtisodiy munosabatlarning kengayishi va moliyaviy operatsiyalarning murakkablashuvi sharoitida iqtisodiy jinoyatlar davlat iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy tahdid soluvchi omillardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda mazkur tahdidlarga qarshi kurashish maqsadida institutsional va huquqiy mexanizmlar shakllantirilgan bo'lib, ular orasida Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti muhim o'rin tutadi. Departamentning moliyaviy monitoring, tezkor-qidiruv faoliyati va dastlabki tergovni amalga oshirish orqali iqtisodiy va korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash hamda davlat budjetiga yetkazilgan zararlarni undirishdagi roli mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Statistik ma'lumotlar tahlili mamlakatda korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarni aniqlash darajasi so'nggi yillarda muayyan darajada oshganini ko'rsatadi. Bu holat, bir tomondan, iqtisodiy jinoyatlarning mavjudligi va ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirini namoyon etsa, ikkinchi tomondan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshirilayotgan profilaktik va nazorat chora-tadbirlarining faollashganini ham ko'rsatadi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotida yashirin iqtisodiyot ulushining mavjudligi iqtisodiy jinoyatlarning ayrim shakllari bilan bog'liq holda iqtisodiy munosabatlarning muayyan qismi rasmiy hisobotlardan tashqarida qolib ketayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, xalqaro tajriba iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalar va tahliliy instrumentlardan foydalanish samaradorlikni oshirishini ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda ham moliyaviy monitoring tizimini yanada takomillashtirish, raqamli tahlil imkoniyatlarini kengaytirish hamda davlat organlari o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi samarali kurashish davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayonda huquqiy bazani takomillashtirish, institutsional hamkorlikni kuchaytirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish hamda mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**


1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. https://lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти фармонлари. https://president.uz
3. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. https://lex.uz
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори PQ-204 (2024). https://lex.uz
5. Давлат статистика қўмитаси маълумотлари. https://stat.uz
6. Юлдашев Б. Иқтисодий хавфсизлик асослари. – Т.: Иқтисодиёт, 2019.
7. Расулов А. Иқтисодий жиноятларга қарши кураш механизми. – Т.: 2020.
8. Becker G. Crime and Punishment: An Economic Approach.
9. Rose-Ackerman S. Corruption and Government.
10. Levi, M. (2018). Economic Crime and Financial Regulation.
11. OECD. (2024). Anti-Corruption Reforms in Uzbekistan. https://www.oecd.org
12. Department for Combating Economic Crimes under the Prosecutor General's Office of Uzbekistan. https://fiu-cis.org
13. Tracfin. (2024). The French Financial Intelligence Unit. https://www.economie.gouv.fr/tracfin
14. https://www.uzdaily.uz/en/the-number-of-crimes-in-uzbekistan-in-2024-exceeded-132000-cases
15. Tashmuxamedova, Y. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida o 'zbekistonda soliq tizimi xavfsizligini ta'minlash. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(12). https://doi.org/10.5281/zenodo.18266965


4 Tracfin. (2024). The French Financial Intelligence Unit. https://www.economie.gouv.fr/tracfin

# 2-SHO'BA

# ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

**Ахмедов Самандар Сайфуллоевич**
И.о.доцент Ташкентского государственного экономического университета
e-mail: s.axmedov@tsue.uz
https://orcid.org/:0000-0003-0508-6512

Аннотация. В статье исследуются теоретические и методологические аспекты повышения эффективности управления инновационными процессами в коммерческих банках с целью обеспечения их экономической безопасности. Рассматриваются современные подходы к инновационному менеджменту в банковском секторе, анализируется роль цифровых технологий в повышении устойчивости финансовых организаций, а также выявляются основные проблемы управления инновационной деятельностью банков. Особое внимание уделено взаимосвязи инновационного развития и экономической безопасности банковской системы.

Ключевые слова: инновации, инновационный менеджмент, коммерческие банки, экономическая безопасность, цифровизация, финтех, управление рисками, банковская система.

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarida innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirishning nazariy va metodologik jihatlari ularning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Bank sektorida innovatsion menejmentning zamonaviy yondashuvlari ko'rib chiqilgan, moliyaviy tashkilotlar barqarorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning roli tahlil qilingan hamda banklarda innovatsion faoliyatni boshqarish bilan bog'liq asosiy muammolar aniqlangan. Innovatsion rivojlanish va bank tizimining iqtisodiy xavfsizligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiyalar, innovatsion menejment, tijorat banklari, iqtisodiy xavfsizlik, raqamlashtirish, fintex, risklarni boshqarish, bank tizimi.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological aspects of improving the effectiveness of innovation management in commercial banks to ensure their economic security. It examines modern approaches to innovation management in the banking sector, analyzes the role of digital technologies in enhancing the resilience of financial institutions, and identifies key challenges in managing innovation activities in banks. Particular attention is paid to the relationship between innovative development and the economic security of the banking system.

Key words: Innovation, innovation management, commercial banks, economic security, digitalization, fintech, risk management, banking system.

## ВВЕ ДЕН ИЕ

В условиях глобализации финансовых рынков, цифровой трансформации экономики и усиления конкуренции между финансовыми институтами инновации становятся ключевым фактором устойчивого развития коммерческих банков. Внедрение современных технологий, развитие цифровых банковских услуг, автоматизация финансовых процессов и использование больших данных позволяют банкам повышать эффективность своей деятельности, улучшать качество обслуживания клиентов и укреплять свои позиции на рынке.

Вместе с тем активное внедрение инноваций сопровождается появлением новых рисков, связанных с киберугрозами, технологическими сбоями, операционными рисками и изменением регуляторной среды.

В этих условиях особое значение приобретает эффективное управление инновационными процессами, которое должно обеспечивать не только технологическое развитие банков, но и поддержание высокого уровня их экономической безопасности.

Экономическая безопасность коммерческого банка представляет собой состояние защищенности его финансовых, технологических, информационных и управленческих ресурсов от внутренних и внешних угроз, обеспечивающее устойчивость функционирования и долгосрочное развитие финансовой организации. В современной банковской системе инновационные процессы становятся одним из ключевых факторов обеспечения экономической безопасности, поскольку именно инновации позволяют повышать устойчивость банковских операций, снижать риски и адаптироваться к динамичным изменениям внешней среды.

Целью данного исследования является анализ теоретических и практических аспектов повышения эффективности управления инновационными процессами в коммерческих банках и разработка направлений совершенствования инновационного менеджмента в целях укрепления экономической безопасности банковского сектора.

## ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Существует ряд подходов к вопросу определения понятия и сущности кредитного портфеля коммерческого банка, которые в различной экономической литературе по-разному интерпретировались рядом зарубежных ученых, российскими учеными и отечественными экономистами.

Например, американский ученый-экономист Крис Дж. Барлтон описывает кредитный портфель Дианы Мак Нотон как включающий категоризацию кредитов. Это определение представляет собой часть банковского кредитного портфеля.

Российский ученый-экономист Н. Соколинская описывает: «Кредитный портфель состоит из суммы краткосрочных и долгосрочных займов». В данном определении данная ситуация, основное внимание в которой уделяется сроку кредита, не в полной мере раскрывает суть кредитного портфеля. Потому что сроки и соответствие требованиям по кредитам, выданным банком, могут быть только важным фактором при определении качества кредитного портфеля. Значительный вклад в развитие теории инновационного развития внесли такие ученые, как С. Ю. Глазьев, А. Клейнехт, Н. Д. Кондратьев, М. И. Туган-Барановский, Й. Шумпетер, Ю. В. Яковец и другие.

Вопросы развития управления инновационной деятельностью коммерческих банков рассматривались в трудах А. А. Аюпова, И. Т. Балабанова, А. С. Борисова, В. И. Вагизовой, В. С. Викулова, Ю. Н. Захарова, Р. А. Исаева, Л. В. Кох, Л. Р. Курмановой, О. И. Лаврушина, А. В. Муравьевой, Т. В. Никитиной, И. М. Подложенова, Т. Ю. Поповой, И. А. Семагина, Э. А. Уткина и других ученых.

В этой связи И. Т. Балабанов определяет несколько причин возникновения банковских инноваций в современной экономике:

- постоянное предпринимательское мышление с целью победить в конкурентной борьбе;
- периодически возникающие финансовые кризисы, что стимулирует банки проводить жесткую политику, направленную на обеспечение финансовой устойчивости банка;
- международная деятельность, позволяющая получать информацию о банковских инновациях в зарубежных странах.

Ряд ученых выразили свой взгляд на банковские инновации. Так, С. Д. Ильенкова банковские процессы, связанные с инновационной деятельностью, разделила на три группы:

простой внутриорганизационный инновационный процесс, который связан с тем, что инновация разрабатывается и используется в одном банке;

простой межорганизационный процесс, который направлен на создание нового банковского продукта (услуги) для его дальнейшего продвижения на рынок;

расширенный инновационный процесс, который образуется в результате сотрудничества банка с заинтересованными партнерами.

Результатом такого процесса становится комплексный банковский продукт, например, система «банк-клиент».

Другой известный российский ученый-экономист О. И. Лаврушин описывает, что «под понятием кредитного портфеля в банковском бизнесе обычно понимается сумма кредитов того или иного банка». В то же время он считает, что формирование кредитного портфеля в банке и проведение его анализа повысят шансы на кредитование клиентов, что позволит точно разработать стратегию и тактику коммерческого банка [2].

По мнению Л. И. Абалкина, Г. С. Пановых, кредитный портфель коммерческих банков представляет собой классификацию кредитов по качеству и составу. Данное определение, на наш взгляд, имеет позитивный подход к раскрытию сути кредитного портфеля. Положительным моментом является то, что они подчеркивают необходимость категоризации с учетом определенных факторов, в зависимости от качественного состава кредитов. Г. С. Панова предполагает, что появление финансовых инноваций и увеличение новых финансовых продуктов (услуг) обусловили две группы причин:

- внешние, связанные с постоянно меняющейся средой функционирования банков;
- внутренние, связанные с повышенной рискованностью банковского бизнеса по сравнению с другими видами деятельности [3-4].

Местными учеными-экономистами в этой области являются Ш. З. Абдуллаева, Т. С. Маликов, С. Х. Норкобилов, Т. М. Каралиев, З. А. Холмахмадов, М. Б. Нурмуродов, А. К. Кадыров, заслуживают внимания научные исследования Н. Ф. Каримова и других.

Проблемами управления рисками инновационной деятельности банков занимался Т. С. Маликов. По мнению Т. С. Маликова, новый технологический уклад зарождается еще на стадии роста предшествующего уклада и длительное время развивается в ситуации неадекватного окружения. Ухудшение экономической конъюнктуры на стадии спада существующего технико-экономического уклада оказывает значительное влияние на формирование новой конъюнктуры.

По словам Ш. З. Абдуллаевой, кредитный портфель банков — это сумма банковских требований по шкале кредитов, которые классифицируются по определенным критериям, основанным на различных кредитных рисках. В своем определении ученый-экономист специально коснулась классификации кредитов на основе определенных критериев и в то же время кредитных рисков [5]. С. Х. Норкобилов в качестве первой причины банковских инноваций считает тесные связи банков с партнерами, что позволяет проводить выгодную деятельность как банкам, так и клиентам. Клиенты предъявляют все более повышенные требования к банковским продуктам, поэтому банки вынуждены активно искать возможности повышения качества и цены услуг. Вторая причина банковских инноваций, по мнению С. Х. Норкобилова, заключается в конкурентной борьбе между банковскими и финансовыми институтами в условиях децентрализации денежно-кредитного рынка. Конкуренция является мощным стимулом для поиска инноваций, которые способны усилить конкурентные преимущества. По меткому выражению Ш. З. Абдуллаевой, «конкуренция должна быть стилем жизни» [5].

## МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В качестве теоретической и методологической основы данной статьи были взяты выводы, предложения и рекомендации по соответствующим направлениям путем изучения общеэкономической литературы и научных статей, исследований ученых-экономистов по вопросам эффективного управления кредитным портфелем в коммерческих банках, анализа их отзывов, экспертной оценки, наблюдения за процессами, системного подхода к экономическим явлениям и процессам, сравнительного анализа с опытом автора.

## АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В экономической литературе инновации рассматриваются как процесс внедрения новых технологий, продуктов, методов управления и организационных решений, направленных на повышение эффективности деятельности организаций. В банковской сфере инновации проявляются в разработке новых финансовых инструментов, внедрении цифровых платформ, использовании технологий искусственного интеллекта и автоматизации банковских операций.

С точки зрения экономической теории инновации играют важную роль в обеспечении конкурентоспособности финансовых институтов. По мнению Й. Шумпетера, инновации являются основным источником экономического развития и позволяют организациям создавать новые конкурентные преимущества. В банковском секторе инновационные процессы включают внедрение мобильного банкинга, онлайн-кредитования, цифровых платежных систем, блокчейн-технологий и аналитических платформ обработки больших данных.

В современных условиях инновационное развитие банков тесно связано с процессами цифровизации финансовых услуг. Развитие финтех-компаний, электронных платежных систем и цифровых платформ усиливает конкуренцию в банковском секторе и требует от коммерческих банков активного внедрения инновационных решений.

Современныеэкономическиеусловияпредполагаютсозданиебанковскойсистемы,соответствующей международной банковской практике, на основе повышения эффективности банковской деятельности в нашей стране, предотвращения существующих проблем в деятельности коммерческих банков.

Как и в любой деятельности, банковское дело предусматривает возможность получения более высокого дохода путем размещения имеющихся средств на основе наименьшего риска. Более высокая доходность, в свою очередь, повышает уровень риска операций, которые проводят банки, поскольку банки работают в основном с ресурсами, привлекаемыми из-за рубежа. С одной стороны, они несут ответственность перед своими акционерами, а с другой — у них есть обязательства перед клиентами, которые доверили свои средства и пользуются банковскими услугами. По этой причине коммерческие банки работают с рисками, в несколько раз превышающими риски других хозяйствующих субъектов (Таблица 1).

Таблица 1. Валовой внутренний продукт (ВВП) в Республике Узбекистан, объем и уровень кредитов коммерческих банков. [6]

| Название спецификации | 2019г. | 2020 г. | 2021г. | 2022г. |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| ВВП (миллиард сум). | 511 838,10 | 529 391,40 | 602 193,0 | 734 587,7 |
| Банковские активы (милярд сум). | 272 726,90 | 272 726,9 | 366 121,1 | 444 922,5 |
| Отношение активов к ВВП, в процентах | 53,30 | 51,50 | 60,80 | 60,57 |
| Кредитные вложения (милярд сум) | 211 580,50 | 211 580,5 | 276 974,8 | 326 385,6 |
| Отношение кредитных вложений к ВВП под проценты | 41,3 | 40 | 46,0 | 44,4 |

Анализируя специфику рассмотренных выше определений, мы считаем, что кредитный портфель может быть определен следующим образом: кредитный портфель банка — это сумма общего объема выданных банком кредитов, которые считаются необходимыми для осуществления кредитных операций банка.

Из данных, представленных в таблице 1, видно, что в 2018–2021 годах валовой внутренний продукт Республики Узбекистан и коммерческие банки имели тенденцию к росту объема выданных кредитов. Объем кредитных вложений, направленных в реальный сектор экономики по состоянию на 2022-й yilning 1-yanvariga 326 385,6 milliard so'mni tashkil etib, kredit hajmi YaIMga nisbatan 41,4 foizga yetganini ko'rish mumkin.

Несмотря на совокупность исследований различных аспектов инновационной деятельности коммерческих банков, вопросы инструментария управления рисками инновационной деятельности банков являются недостаточно разработанными, что определило выбор темы, цели и задачи диссертационного исследования.

Целью диссертационного исследования является обоснование теоретических аспектов и практических рекомендаций по совершенствованию управления рисками инновационной деятельности коммерческих банков.

В соответствии с поставленной целью выделены следующие задачи исследования:

- выделить наиболее значимые риски инновационной деятельности коммерческих банков;
- разработать методические рекомендации по управлению рисками инновационной деятельности коммерческих банков на основе морфологического метода;
- выделить факторы возникновения рисков инновационной деятельности коммерческих банков;
- обосновать взаимосвязь стратегии инновационного развития коммерческих банков с системой риск-менеджмента;
- разработать методические рекомендации по управлению стратегическим риском инновационной деятельности коммерческого банка.

Предметом данного диссертационного исследования является совокупность экономических отношений, которые формируются на рынке банковских услуг в аспекте управления рисками инновационной деятельности коммерческого банка. Объектом исследования избрана инновационная деятельность коммерческих банков Республики Узбекистан.

Теоретической и методологической основой диссертации послужили труды национальных и зарубежных ученых по вопросам теории инновационного развития экономики, банковского менеджмента и риск-менеджмента, материалы научных семинаров и конференций.

В процессе выполнения диссертационной работы использовались такие общенаучные методы исследования, как системный и морфологический подход к изучению экономических явлений, экспертные оценки, формализация и моделирование.

Информационной базой исследования явились нормативно-правовые акты Центрального банка Республики Узбекистан, научные публикации, материалы периодических изданий и сети Интернет.

Научная новизна исследования состоит в теоретическом и методологическом обосновании и разработке методических и научно-практических рекомендаций по совершенствованию системы управления рисками инновационной деятельности коммерческого банка.

## ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Экономическая безопасность банковской системы является одним из ключевых факторов стабильности финансового рынка. В условиях цифровой экономики инновационные технологии становятся важным инструментом обеспечения финансовой устойчивости банков.

Во-первых, внедрение инновационных технологий способствует повышению эффективности управления банковскими рисками. Использование аналитических систем, искусственного интеллекта и технологий машинного обучения позволяет банкам более точно оценивать кредитоспособность заемщиков, выявлять мошеннические операции и прогнозировать финансовые риски.

Во-вторых, инновационные технологии позволяют повышать уровень информационной безопасности банковских операций. Развитие кибербезопасности, внедрение многофакторной аутентификации и использование криптографических методов защиты данных позволяют снижать риски кибератак и утечек информации.

В-третьих, инновации способствуют повышению устойчивости банковской инфраструктуры. Использование облачных технологий, автоматизация процессов обработки данных и внедрение цифровых платформ позволяют повышать надежность банковских операций и минимизировать операционные риски.

Кроме того, инновационные процессы играют важную роль в повышении прозрачности банковской деятельности. Использование цифровых технологий позволяет улучшать систему внутреннего контроля, повышать эффективность финансового мониторинга и предотвращать незаконные финансовые операции.

Таким образом, инновационное развитие банковской системы напрямую связано с обеспечением экономической безопасности финансовых институтов.

Повышение эффективности управления инновационными процессами в коммерческих банках требует комплексного подхода, включающего организационные, технологические и управленческие меры.

Одним из ключевых направлений является разработка инновационной стратегии развития банка. Такая стратегия должна учитывать современные тенденции цифровизации финансовых услуг и быть направлена на внедрение перспективных технологий.

Важным направлением является развитие цифровой инфраструктуры банковской системы. Внедрение технологий искусственного интеллекта, блокчейна и больших данных позволяет существенно повышать эффективность банковских операций.

Также важным фактором является совершенствование системы управления инновационными рисками. Банки должны внедрять современные методы анализа рисков, использовать аналитические платформы и автоматизированные системы мониторинга.

Особое значение имеет развитие партнерства между банками и финтех-компаниями. Сотрудничество с инновационными технологическими компаниями позволяет банкам быстрее внедрять новые финансовые решения и повышать конкурентоспособность.

Кроме того, необходимо развивать инновационную культуру в банковских организациях. Поддержка инновационных инициатив сотрудников, внедрение программ обучения и создание исследовательских подразделений способствуют активизации инновационной деятельности.

**СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Указ президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 г. ПФ-60
2. О.И. Лаврушин. Управление деятельностью коммерческого банка. Учебник. М. Юрист 2003г.
3. Диана Мак Нотон. Банковские учреждения в развивающихся странах. Я - MBRR.- Вашингтон, округ Колумбия, 2001.- с.75
4. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. - М.: МКС, 1997. - С.464.
5. Абдуллаева Ш.З. Банковские риски и кредитование. Т.: Финансы, 2002. 304 с. Б-166.
6. Alt, R., Beck, R., & Smits, M. (2018). FinTech and the transformation of the financial industry. Electronic Markets, 28(3), 235–243. https://doi.org/10.1007/s12525-018-0310-9
7. Arner, D. W., Barberis, J., & Buckley, R. P. (2017). FinTech, RegTech, and the reconceptualization of financial regulation. Northwestern Journal of International Law & Business, 37(3), 371–413.

8. Basel Committee on Banking Supervision. (2021). Principles for operational resilience. Bank for International Settlements. https://www.bis.org/bcbs/publ/d516.pdf
9. Beck, T., Chen, T., Lin, C., & Song, F. M. (2016). Financial innovation: The bright and the dark sides. Journal of Banking & Finance, 72, 28–51. https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2016.06.012
10. Claessens, S., Frost, J., Turner, G., & Zhu, F. (2018). Fintech credit markets around the world: Size, drivers and policy issues. BIS Quarterly Review, September, 29–49.

# IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA XIZMATINING FISKAL FAOLIYATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI

**Farxodov Farrux Furqatovich**
Bojxona instituti katta o'qituvchisi
Email: farrux.farxodov@gmail.com

**Toshpo'lotova E'zoza Latifjonovna**
Bojxona instituti 3-kurs kursanti
Email: ezozatoshpolotova12@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni guruhlarga bo'lib tahlil qilingan. Shuningdek, import hajmi va bojxona to'lovlari o'rasidagi bog'liqlikni korrelyatsion va regression tahlil usullari orqali o'rganilib taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, bojxona xizmati fiskal faoliyati, davlat budjeti, import hajmi, korrelyatsion tahlil, regression tahlil.

Abstract. This article analyzes the factors influencing the fiscal activity of the customs service by grouping them into categories. In addition, the relationship between import volume and customs payments is examined through correlation and regression analysis methods, and relevant proposals and recommendations are developed.

Key words: economic security, fiscal activity of the customs service, state budget, import volume, correlation analysis, regression analysis.

Аннотация. В данной статье факторы, влияющие на фискальную деятельность таможенной службы, проанализированы по группам. Также на основе корреляционного и регрессионного анализа изучена взаимосвязь между объёмом импорта и таможенными платежами, разработаны соответствующие предложения и рекомендации.

Ключевые слова: экономическая безопасность, фискальная деятельность таможенной службы, государственный бюджет, объём импорта, корреляционный анализ, регрессионный анализ.

## KIRISH

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash har qanday davlatning barqaror rivojlanishida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda bojxona organlari muhim fiskal institut sifatida namoyon bo'ladi. Bojxona to'lovlari — bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i hamda bojxona yig'imlari — mamlakat budjetining sezilarli qismini tashkil etadi. Shu bois bojxona xizmatining fiskal faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni tizimli tahlil qilish iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida "Bojxona organlarining fiskal funksiyasi bojxona to'lovlarining to'g'ri hisoblash va belgilangan vaqtda to'lash, bu yo'nalishda ishlashning yangi usullarini qo'llash hamda ushbu maqsadlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, TIF ishtirokchilari tomonidan bojxona qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga asoslanadi" [1] belgilab berildi.

Bojxona xizmati fiskal faoliyati va bojxona to'lovlarining mazmun-mohiyati bo'yicha bir qator olimlar o'zlarining fikrlarini bildirishgan: M. V. Gorshkov o'zining "Bojxona xizmati va iqtisodiyot" nomli maqolasida bojxona faoliyatining asosiy maqsadi — tashqi savdodan kelayotgan moliyaviy manbalarni maksimal darajada

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.06.2020-yildagi PF-6005-son "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida".https://lex.uz/docs/4844615.

samarali jamlash va ularni davlatning fiskal siyosatiga yo'naltirishdir, deb aytadi. [2] Shuningdek, o'zbek olimlardan Xudoyqulov S. K. va Babayev Sh. B. o'zining "Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilishning xorij tajribasi" [3] [3] maqolasi hamda Soatov S. S. "Tashqi savdo bojxona statistikasida ko'rsatkichlarning korrelyatsion va regression tahlil qilish usullari" [4] nomli maqolalarida davlatning fiskal siyosatiga ta'sir qiluvchi omillar ta'siri va prognoz qilish yo'llari o'rganilgan.


Bojxona organlari fiskal faoliyatini olib borish orqali bojxona to'lovlarini davlat budjetiga o'tkazadi. Bojxona to'lovlarining davlat budjeti daromadlari qismidagi ulushi yildan yilga oshayotgani bu yo'nalish bugungi kunda ahamiyati ortayotganidan dalolatdir. Prezidentimizning 2025-yil 26-yanvar — O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari xodimlari kuni tabriki nutqida "Sohadagi tub islohotlar tufayli keyingi yillarda bojxona rasmiylashtiruvi vaqti 40 foizga qisqartirildi, deklaratsiyalarning 20 foizi inson omilisiz amalga oshirilmoqda. 2025-yilda 76,2 trillion so'm bojxona to'lovlari undirilib, bu ko'rsatkich 21 foizga oshdi va uning davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 25 foizga yetdi", deb ta'kidlandi (1-rasm).[4]




1- rasm. Bojxona to'lovlarining davlat budjeti daromadlari qismidagi ulushi (foizda)[5]

Bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarga import hajmining oshishi, tovarlarning bojxona qiymati to'g'ri belgilanishi, bojxona auditi mexanizmidan samarali foydalanish, bojxona ishida axborot texnologiyalaridan foydalanishni keng joriy etish, imtiyozlarni nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish, valyuta kursining oshishi, xavf guruhiga kiritilgan tovarlar ustidan bojxona nazorati samaradorligining oshirilishi, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligining oshishi, vazirlik va idoralararo ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish, xodimlarning malakasini oshirish, transport tarmoqlari rivojlanishi, bojxona rasmiylashtiruvini to'g'ri va tezkorlik bilan amalga oshirish, xorijiy bojxona xizmatlari bilan hamkorlikning rivojlanishi, bojxona qoidabuzilishi holatlarining oldini olish ishlarini kuchaytirish, bojxona xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar va qarorlar qabul qilinishi, xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish kabi omillar kiradi.

Bizning fikrimizcha, bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni shartli ravishda 5 guruhga bo'lish mumkin (2-rasm).




2- rasm. Bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarning turkumlanishi[6].

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tabrik so'zi nutqidan https://president.uz/oz/lists/view/8878.
3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tabrik so'zi nutqidan https://president.uz/oz/lists/view/8878.
4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tabrik so'zi nutqidan https://president.uz/oz/lists/view/8878.
5 Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
6 Muallif ishlanmasi

Bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta'sir etuvchi omillardan oqilona foydalanish bojxona organlariga belgilangan istiqbol rejaning ortig'i bilan bajarilishiga va davlat budjeti daromadlarining shakllanishiga olib keladi. Tahlilni amalga oshirish uchun so'nggi 15-yillik, ya'ni 2010–2024-yillardagi ma'lumotlar bazasidan foydalanildi. Tadqiqotlardan ko'rish mumkinki, bojxona xizmati fiskal faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarning eng asosiylaridan biri import hajmining oshishi hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, quyida import hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar orasidagi bog'liqlik korrelyatsiya va regressiya tahlil usullari asosida o'rganib chiqiladi.

Bunda faktor belgi: $x_1$ – import hajmi mln. AQSH dollarida, $x_2$ – soliqqa tortilmaydigan import hajmi, $x_3$ – bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyoz hajmi, $x_4$ - bojxona bojining o'rtacha arifmetik stavkasi, hamda natijaviy belgi: y – undirilgan bojxona to'lovlari mlrd. so'mda bo'lsin deb olamiz.

Mazkur ma'lumotlar asosida korrelyatsiya koeffitsiyentini quyidagi formulalar bilan hisoblaymiz[7].

$$r_{(x,y)} = \frac{\sum_{i=1}^{n}(x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{\sqrt{\sum_{i=1}^{n}(x_i - \bar{x})^2} \cdot \sqrt{\sum_{i=1}^{n}(y_i - \bar{y})^2}}$$


Korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash formulasiga asoslanib, manbada keltirilgan mustaqil omillarning korrelyatsiya koeffitsiyentini aniqlaymiz (1-jadval).

1-jadval. Korrelyatsiya jadvali

Pairwise correlations

| Variables | (1) | (2) | (3) | (4) | (5) |
|---|---|---|---|---|---|
| (1) rev | 1.000 | | | | |
| | | | | | |
| (2) imp_vol | 0.981 | 1.000 | | | |
| | (0.000) | | | | |
| (3) nontax_based | 0.343 | 0.476 | 1.000 | | |
| | (0.211) | (0.073) | | | |
| (4) privel | 0.786 | 0.823 | 0.792 | 1.000 | |
| | (0.001) | (0.000) | (0.000) | | |
| (5) mfn | -0.544 | -0.574 | -0.762 | -0.883 | 1.000 |
| | (0.036) | (0.025) | (0.001) | (0.000) | |
| | | | | | |

Yuqoridagi korrelyatsiya jadvaliga ko'ra, "rev" (daromad) o'zgaruvchisi boshqa deyarli barcha o'zgaruvchilar bilan kuchli va ijobiy bog'liqlikka ega, ayniqsa "imp_vol" (r=0.981), "privel" ham "rev" bilan ijobiy bog'liq (r=0.786, p=0.001). Shu bilan birga, "nontax_based" bilan bog'liqlik zaifroq (r=0.343) va statistik jihatdan ahamiyatsiz (p=0.211). «mfn» esa barcha asosiy o'zgaruvchilar bilan salbiy bog'liqlikka ega. Bu natijalar daromad o'zgaruvchisi asosan soliqka asoslangan va import hajmidagi o'zgarishlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi, "mfn" esa bu omillar bilan teskari yo'nalishda harakat qiladi (3-rasm).




3-rasm. Korrelatsiya matritsiyasi

7 Spravochnik po prikladnoy statistike. V 2-x t.T. 1:Per. s angl. Podred. E. Lloyda, U.Ledermana, Yu.N.Tyurina.– M:Finansы i statistika, 1989.–510s.

Yuqoridagi grafikda biz tahlil qilgan korrelyatsiya natijalari vizual ko'rinishda ifodalangan (3-rasm). Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, import hajmi ("imp_vol") bilan bojxona daromadlari ("rev") o'rtasida musbat va juda kuchli korrelyatsion bog'liqlik mavjud (r = 0.981, p = 0.000). Cheddok shkalasiga ko'ra, bu bog'liqlik darajasi juda yuqori, ya'ni import hajmi ortgani sayin daromadlar ham sezilarli darajada ortadi. Korrelyatsion bog'lanishni o'rganishda asosiy maqsad — bir o'zgaruvchining (import hajmi) o'zgarishi ikkinchi o'zgaruvchiga (daromad) qanchalik ta'sir qilishini aniqlashdir. Ushbu natijalar shuni anglatadiki, import hajmidagi o'zgarishlar bojxona daromadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Korrelyatsion tahlil usuli — korrelyatsiya koeffitsiyentlari bu haqida to'liq fikr yuritish imkonini bermaydi. Regressiya tahlil deb nomlanuvchi boshqa usul mazkur maqsad uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, endi regressiya tahlili asosida import hajmi va boshqa omillarning o'zgarishiga qarab, undirilgan bojxona to'lovlari qancha miqdorda o'zgarishini aniqlaymiz. Buning uchun regressiya tenglamasi orqali hisob-kitob amalga oshiriladi. Bu yerda:

$$Y_t = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \varepsilon$$

$\beta_0$ – ozod xad;

$\beta_1, \beta_2, \beta_3$ – regressiya tenglamasining koeffitsentlari hisoblanadi.

ε – xatolik;

Regressiya tenglamasida X-omil belgisi oldidagi $\beta_1$ koeffitsiyenti iqtisodiy tahlil uchun katta ahamiyatga ega. U regressiya koeffitsiyenti deb nomlanadi va X-omilning samaradorligini ko'rsatadi: omil bir birlikka oshganda natija o'rtacha qancha miqdorga oshishi (yoki pasayishi)ni ifodalaydi. $\beta_0$ va $\beta_1$ lar tenglama parametrlari deb ham yuritiladi. Bu parametrlarni aniqlash uchun kichik kvadratlar usuli — OLS (Ordinary Least Squares) metodi orqali model parametrlari minimallashtiriladi va statistik tahlil qilinadi. 1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichning regressiya tenglamasi va uning koeffitsiyenti aniqlanadi (2-jadval).

2-jadval. Import hajmi va undirilgan bojxona to'lovlari o'rtasidagi chiziqli regressiya jadvali

Chiziqli regressiya jadvali

| rev | Coef. | St.Err. | t-value | p-value | [95% Conf | Interval] | Sig |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| imp_vol | 1.999 | 0.109 | 18.38 | 0 | 1.764 | 2.234 | *** |
| Constant | -18408.168 | 2327.39 | -7.91 | 0 | -23436.187 | -13380.149 | *** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Mean dependent var | 19456.485 | SD dependent var | 21000.897 |
| R-squared | 0.963 | Number of obs | 15 |
| F-test | 337.863 | Prob > F | 0.000 |
| Akaike crit. (AIC) | 294.671 | Bayesian crit. (BIC) | 296.087 |

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

OLS (Ordinary Least Squares) metodi orqali hisoblangan bir omilli chiziqli regressiya jadvalidan ko'rinib turibdiki, davlat budjetiga tushadigan to'lovlarga import hajmining sezilarli ijobiy ta'siri mavjud. Asosiy mustaqil o'zgaruvchi — "import hajmi" — koeffitsiyenti 1,999 bo'lib, bu qiymat 1 mln AQSH dollariga oshganda budjet tushumlari o'rtacha 1,999 mlrd so'mga ortishini anglatadi. Ushbu koeffitsiyent yuqori statistik ahamiyatga ega ($p < 0.01$), bu esa modelda import hajmi davlat budjetiga tushadigan tushumlar uchun muhim omil ekanini tasdiqlaydi. Modeldagi R-kvadrat qiymati 0.963 ga teng bo'lib, bu tushuntirilgan dispersiyaning 96% dan ortig'i regressiya modeli orqali izohlanishini anglatadi. Bu juda yuqori aniqlik darajasini ko'rsatadi. Standart xatoliklar ham nisbatan kichik bo'lib, bu koeffitsiyentlarning barqaror va ishonchli ekanligini bildiradi. Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, import hajmining ortishi davlat budjetiga tushadigan tushumlarning oshishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi va bu iqtisodiy siyosat yuritishda inobatga olinishi lozim.

Keyingi qadamda ko'p omilli chiziqli regressiya amalga oshirilib davlat budjetiga tushadigan to'lovlarga (Y) import hajmi($X_1$), imtiyozlar ($X_2$), to'lovga tortilmaydigan import hajmi, ($X_3$), o'rtacha tarif stavkasi ($X_4$) omillar tahlil qilingan (3-jadval).

3-jadval. Davlat budjeti tushumlariga (rev) ta'sir etuvchi omillar bo'yicha ko'p omilli chiziqli regressiya tahlili natijalari

| rev | Coef. | St.Err. | t-value | p-value | [95% Conf | Interval] | Sig |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| imp_vol | 1.716 | .043 | 40.22 | 0 | 1.621 | 1.811 | *** |
| privel | .399 | .042 | 9.41 | 0 | .305 | .494 | *** |
| nontax_based | -2.809 | .13 | -21.61 | 0 | -3.099 | -2.52 | *** |
| mfn | -10.21 | 112.832 | -0.09 | .93 | -261.616 | 241.197 | |
| Constant | -2101.386 | 1882.075 | -1.12 | .29 | -6294.911 | 2092.139 | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Mean dependent var | 19456.485 | SD dependent var | 21000.897 |
| R-squared | 0.92 | Number of obs | 15 |
| F-test | 3373.973 | Prob > F | 0.000 |
| Akaike crit. (AIC) | 241.978 | Bayesian crit. (BIC) | 245.519 |

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

Davlat budjetiga tushadigan tushumlar (rev)ga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida import hajmi, imtiyozlar, to'lovdan ozod etilgan import hajmi hamda o'rtacha tarif stavkasi tanlanib, ularning ta'siri OLS regressiya usuli yordamida baholandi. Tahlil natijalariga ko'ra, import hajmi (coef = 1.716, $p < 0.01$) hamda berilgan imtiyozlar (coef = 0.399, $p < 0.01$) tushumga ijobiy va statistik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, to'lovga tortilmaydigan import hajmining ta'siri salbiy bo'lib (coef = -2.809, $p < 0.01$), u budjet tushumlarini kamaytiradi. O'rtacha tarif stavkasi (mfn – most favored nation) esa bu modelda statistik ahamiyat kasb etmagan ($p = 0.93$). Umuman olganda, modelning R-kvadrati 0.92 bo'lib, bu tushumdagi o'zgarishlarning deyarli to'liq qismi tanlangan omillar orqali izohlanishini ko'rsatadi. Model yuqori darajada ishonchli va izohli hisoblanadi ($F = 3373.973$; $p < 0.01$).

Ushbu model diagnostikasi uchun multikollinearlikni aniqlash maqsadida VIF tahlili o'tkazildi. Modelda homoskedastiklik mavjudligini tekshirish maqsadida Breusch–Pagan/Cook–Weisberg testi o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, modelda homoskedastiklik muammosi aniqlanmadi, ya'ni qoldiq variansining doimiyligi (homoskedastiklik) ehtimoli yuqori. Modelning shakli to'g'riligini (spetsifikatsiyasini) tekshirish maqsadida Ramsey RESET testi o'tkazildi. Test natijalariga ko'ra, $F(3, 7) = 0.30$ va unga mos p-qiymat = 0.8275 ni tashkil etdi. Bu qiymat 0.05 dan katta bo'lgani sababli, nol gipoteza rad etilmaydi, ya'ni modelda muhim omillarni qoldirib ketish holati mavjud emas degan xulosa chiqariladi. Shunday qilib, model spetsifikatsiyasi to'g'ri tanlangan va u statistik jihatdan ishonchli hisoblanadi.

Amalga oshirilgan tahlillardan ma'lum bo'ladiki, import hajmi va bojxona to'lovlari orasida yuqori musbat korrelyatsiya mavjud bo'lib, import hajmi oshgan mamlakatda bojxona to'lovlari ham mos ravishda oshadi degan gipoteza o'z tasdig'ini topdi. Regressiya modeli orqali kelajakdagi import hajmining oshishi bojxona to'lovlarining qanchaga oshishini hisoblash mumkin. Bu, masalan, davlat budjetini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur model bojxona organlariga import hajmining o'sishini kuzatish va u bilan bog'liq tushumlarni samarali nazorat qilish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, import hajmi va bojxona to'lovlari o'rtasidagi korrelyatsion va regressiya tahlillari natijalari ushbu ikki o'zgaruvchi o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Regressiya modeli yordamida bu bog'liqlik matematik jihatdan asoslandi hamda kelajak prognozlarini ishlab chiqish imkoniyati yaratildi. Ushbu natijalar iqtisodiy boshqaruv va bojxona siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "«O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida»gi PF-158 Farmoni. https://lex.uz/docs/6600413
2. Gorshkov M. V., 2012. Bojxona xizmati va iqtisodiyot. Moskva: Ekonomika.
3. Xudoyqulov S. K., Babayev Sh.B. "Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilishning xorij tajribasi" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali №00061. 2022/5.
4. Soatov S. S. "Tashqi savdo bojxona statistikasida ko'rsatkichlarning korrelyatsion va regression tahlil qilish usullari", Iqtisodiyot va ta'lim ilmiy jurnali 2020 № 6.

5. Tolkyn Azatbek and Altay Ramazanov (2016). Assessment of foreign direct investment, export and economic growth on the example of Kazakhstan. Investment Management and Financial Innovations, 13(4), 130-135. DOI:http://dx.doi.org/10.21511/imfi.13(4).2016.11
6. Djeyms, G., 2013. "An Introduction to Statistical Learning: With Applications in R", Springer.
7. Pardayev T.N. Bojxona xizmatining fiskal faoliyati. O'quv qo'llanma. Toshkent -2022-y. 90-95 betlar.

# SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISH YO'LLARI

**Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich**
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti Soliq,
bojxona va tarif siyosatini takomillashtirish loyihasi bo'lim boshlig'i,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada respublikamizda yashirin (soyadagi, xufiyona) iqtisod kuzatilayotgan asosiy sohalarga (qishloq xo'jaligi, qurilish, xizmatlar va sanoat) to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, ushbu maqolada yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligi, biroq mazkur choralar natijasida ma'lum risklar ham paydo bo'lishini inobatga olgan holda ba'zi takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, qurilishda yashirin iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi sohasidagi yashirin iqtisodiyot, naqdsiz to'lovlar, alkogol vositalari, soliq islohoti.

Abstract. The article focuses on the main sectors (agriculture, construction, services, and industry) where the shadow economy is observed in our republic. Also, this article develops some proposals, taking into account the effectiveness of measures taken to combat the shadow economy, but also the emergence of certain risks as a result of these measures.

Key words: shadow economy, shadow economy in construction, shadow economy in agriculture, non-cash payments, alcohol, tax reform.

Аннотация. В статье рассматриваются основные секторы, в которых наблюдается теневая экономика (сельское хозяйство, строительство, услуги и промышленность). Также в данной статье разработаны некоторые предложения, учитывающие эффективность принимаемых мер по борьбе с теневой экономикой, но и определенные риски, возникающие в результате этих мер.

Ключевые слова: теневая экономика, теневая экономика в строительстве, теневая экономика в сельском хозяйстве, безналичные платежи, алкогольные напитки, налоговая реформа.

## KIRISH

Bizga ma'lumki, mamlakat har tomonlama rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri moliyalashtirish manbalari hisoblanadi. Bu xoh iqtisodiy, xoh ijtimoiy soha bo'lishidan qat'iy nazar, moliyaviy tomondan qo'llab-quvvatlash dolzarb masala hisoblanadi. Barcha sohalarning barqaror rivojlanishi uchun mamlakatning iqtisodiy o'sish darajasi yuqori bo'lishi lozimligi barchaga ma'lum. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham iqtisodiy barqarorlikka erishish orqali inflyatsiya darajasini pasaytirish, kambag'allikni va ishsizlar sonini qisqartirish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish hamda biznes yuritishda raqobat muhitini yanada rivojlantirish, mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishning samarali mexanizmlarini joriy etish hamda biznesni soyadan chiqarishni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrdagi PF-246-son Farmoni bilan bir qator yangiliklar joriy etilishining salbiy va ijobiy oqibatlari o'rganildi. Shuningdek, muammolarni bartaraf etish yuzasidan tegishli xulosa va takliflar shakllantirildi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vaziri I. Abdurahmonov "2026-yildan boshlab qishloq xo'jaligi mahsulotlariga QQSning bekor qilinishi respublikadagi barcha fermerlarning yarmiga, ya'ni taxminan 48 ming nafar fermerlarga ta'sir ko'rsatishini ta'kidladi. Bashoratlarga ko'ra, ushbu chora tufayli qishloq xo'jaligidagi rentabellik darajasi hozirgi 5–7 foizdan kelajakda 15 foizgacha ko'tariladi", degan fikrni bildirgan.[1]

Savdo-sanoat palatasi raisi D. Vahobov "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari (paxta va g'alladan tashqari) bo'yicha QQSning hisobga olinmasligi tadbirkorlarni rasmiy iqtisodiyotdan uzib qo'yilishini, yangi o'zgarish esa fermerlarga naqd puldan voz kechib, xufiyona faoliyatdan chiqish va takroriy ekinlar yetishtirish imkonini berishi mumkinligini ta'kidladi".[2]

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan qarorlar natijasida sezilarli darajada iqtisodiy o'sishga erishilmoqda. Misol tariqasida, 2014-yilda ishlab chiqarilgan YAIM hajmi 210,9 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yil yakuni bilan bu ko'rsatkich 1 535,4 trln so'mni tashkil qilib, 1 324,5 trln so'mga yoki etti barobardan oshiqroqqa o'sishga erishilgan.

Biroq har qanday islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishish uchun, avvalo, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bugungi kunda respublikada iqtisodiy rivojlanish jarayonlari kuzatilayotgan bo'lsa-da, mazkur rivojlanishning yanada jadal va barqaror bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillardan biri sifatida yashirin va norasmiy iqtisodiyot ulushining yuqoriligi saqlanib qolmoqda (1-jadval).

1- jadval. 2024-yilda jami kuzatilmaydigan(yashirin) iqtisodiyotning tarmoqlar kesimida ulushi[3]

| Tarmoq nomi | Kuzatilmaydigan hajm (so'm) | YAIMdagi ulushi (%) |
|---|---|---|
| Qishloq xo'jaligi, o'rmon, baliqchilik | 321,58 trln | 63,6 |
| Qurilish | 209,09 trln | 41,3 |
| Xizmat ko'rsatish | 202,99 trln | 40,1 |
| Sanoat | 45,09 trln | 8,9 |
| Jami | 505,65 trln | 34,8 |

Qishloq xo'jaligi, o'rmon, baliqchilik sohasida yashirin iqtisodiyot ulushi eng yuqori bo'lib (63,6 %) yoki 321,6 trln so'mni tashkil qilmoqda. Shu kabi qurilish sohasidagi yashirin iqtisodiyot ulushi (41,3 %) yoki 209,09 trln so'mni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi va qurilish tarmog'ida norasmiy faoliyat hajmi YAIMning deyarli yarmiga yaqin qismini tashkil etmoqda. Bu, xususan, ekinlarni to'liq ko'rsatmaslik, tovarlarni naqd pulda sotish, ruxsatsiz obyektlar, subpudratchilar tarmog'i va naqd pul operatsiyalari orqali yashirilgan ishlarni anglatadi.

Respublikada yashirin va norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartirish yuzasidan ko'plab choralar va qarorlar ishlab chiqilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrdagi "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-246-son Farmoni qabul qilinib, farmonda ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada jadallashtirishga va izchil davom ettirishga doir eng muhim vazifalar belgilab berildi.[4]

Ushbu farmonning qabul qilinishi natijasida 2030-yilga qadar yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilangan:

(a) yalpi ichki mahsulotga nisbatan kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini 1,3 baravarga qisqartirish;

(b) savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida aholi tomonidan to'lovlarni naqdsiz amalga oshirish ulushini 75 foizga yetkazish;

(v) iqtisodiyotning rasmiy sektorida band aholining jami iqtisodiy faol aholiga nisbatan ulushini 64 foizga yetkazish;

1 https://kun.uz/kr/25904887?utm

2 2025 йил июль-август ойларида Савдо саноат палатаси масъул ташкилотлар билан ҳамкорликда Президент билан ўтказиладиган "Очиқ мулоқот" олдидан қишлоқ хўжалиги йўналишидаги тадбиркорлар билан учрашувдаги маърузасидан.

3 https://www.uzdaily.uz/uz/kuzatilmaydigan-iqtisodiyot-hajmi-505-trln-somdan-oshdi/

4 ПФ-246-сон 10.12.2025. Нақдсиз ҳисоб-китобларни оммалаштириш ва яширин иқтисодиёт улушини қисқартиришга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида

(g) Iqtisodiy erkinlik indeksi va Korrupsiyani idrok qilish indeksida O'zbekiston Respublikasining o'rni kamida 30 pog'onaga ko'tarilishiga erishish.

Farmonga asosan 2026-yil 1-apreldan ayrim to'lovlar faqat bank kartalari yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Ular qatoriga davlat xizmatlari uchun to'lovlar, elektr energiyasi, tabiiy gaz va ichimlik suviga to'lovlar (bank kassalaridan tashqari), alkogol va tamaki mahsulotlari xaridi, AYOQSH va elektr transport vositalarini zaryadlash kiradi.

Qiymati 25 million so'mdan oshadigan tovar va xizmatlar (qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan tashqari) faqat naqdsiz shaklda amalga oshiriladi.

Hujjatga muvofiq, ko'chmas mulk obyektlari va M, N, O toifali (ishlab chiqarilganiga 10 yildan oshmagan) avtotransport vositalarini, shu jumladan, maxsus texnika xaridini amalga oshirishda to'lovlar faqat bank o'tkazmalari orqali qabul qilinadi. Bunda:

oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha sotuvchi va xaridor o'rtasidagi hisob-kitoblar bank va notarial organlarning axborot tizimlari o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi orqali amalga oshiriladi (bundan bank kassalari orqali amalga oshiriladigan to'lovlar mustasno);

shartnomalarni notarial tartibda rasmiylashtirish uchun tijorat banklari va to'lov tashkilotlari tomonidan elektron axborot almashinuvi vositasida to'lovni tasdiqlovchi ma'lumotlar asos bo'ladi.

Markaziy bank 2026-yil 1-yanvarga qadar barcha savdo va xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxslar tomonidan elektron to'lovlarni qabul qilish uchun yagona QR-kodni joriy qiladi.

2026-yil 1-iyuldan boshlab:

barcha savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi yuridik shaxslarda yagona QR-kodli to'lov tizimi orqali to'lovlarni qabul qilish ham majburiy etib belgilanadi.

Yagona QR-kodlardan foydalanilmayotganligi savdo qoidalarini buzish deb hisoblanadi.

Shuningdek, 2026-yil 1-yanvardan boshlab:

import qilingan oziq-ovqat mahsulotlarining to'qqiz oy (go'sht va xo'l meva-sabzavotlarning uch oy) davomida sotilmaganligi va qiymati bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravaridan ortiq bo'lgan ushbu mahsulotlar qoldiqda turganligi holati sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish uchun asos hisoblanadi;

ko'chmas mulk obyektlari va qurilish materiallari bo'yicha soliq solish bazasi ushbu tovarlarning bozor bahosidan kelib chiqib aniqlanadi;

qurilish va savdo sohalaridagi yuridik shaxslar tomonidan o'zlarining ustav kapitali va undagi o'zgarishlar, shu jumladan, ustav kapitaliga kiritilgan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlarning hisobi yuritiladi va mazkur turdagi operatsiyalar amalga oshirilgandan so'ng 15 kun muddatda shaxsiy kabinet orqali soliq organlari ma'lumotlar bazasida majburiy aks ettiriladi;

Transport vazirligi tadbirkorlik subyektlarini jalb qilgan holda 2026-yil 1-aprelga qadar yuk tashish va maxsus avtotransport vositalari xizmatlari hisobini onlayn yuritishni nazarda tutuvchi elektron platformaning ishlab chiqilishini belgiladi.

Ushbu qabul qilingan qaror va farmonlarda mamlakatimiz iqtisodiy barqaror rivojlanishi va yashirin iqtisodiyot ko'lamini keskin qisqartirish uchun muhim vazifalar maqsad qilib olingan.

Albatta, to'lovlarning elektronlashuvi, onlayn platformalarning yaratilishi bu biznesga qulay sharoit yaratibgina qolmay, mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda yuqori samara beruvchi tizim bo'lib xizmat qiladi.

To'lovlarning elektronlashuviga to'liq erishish bu mamlakat iqtisodiyotida xufiyona iqtisodiyot deyarli mavjud emas degan xulosani beradi, chunki elektron to'lovlarni bankdan tashqari aylantirish deyarli imkonsiz. Bugungi kunda dunyoning ko'pgina rivojlangan davlatlari yashirin iqtisodiyotdagi muammoni bartaraf etishning samarali yechimi sifatida elektron to'lov va elektron valyuta tizimiga o'tishni ma'qul ko'rmoqda va bu o'z samarasini ham bermoqda, deb aytishimiz mumkin.

Biroq shuni ham unutmaslik lozimki, farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muammolar ham kelib chiqishi ehtimoldan holi emas.

Yuqorida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarga to'xtalib o'tamiz:

1. Naqd pulsiz to'lovlarga to'liq o'tishdagi muammolar

• Qishloq joylarda bank kartalari, internet va smartfonlardan foydalanish darajasi past.

• Yoshi keksa aholi va aholining raqamli savodxonligi past shaxslar elektron to'lovlarga moslasha olmasligi.

• Elektr, gaz, suv uchun bank kassasidan tashqari to'lovlarda texnik uzilishlar aholini qiyin ahvolga solishi mumkin.

• Elektron to'lov tizimlarida komissiyalar aholi noroziligini keltirib chiqarishi mumkin.

• Kichik biznes uchun texnik xizmat va dasturiy ta'minot qimmatligi.

2. Qiymati 25 mln so'mdan yuqori bitimlarni naqdsiz qilish
• Ayrim bozor segmentlari (mebel, qurilish, xizmatlar) naqd pulga o'rganib qolishgan.
• Ayrim tadbirkorlar qiymatni sun'iy ravishda bo'lib ko'rsatish orqali ushbu normadan qochishga urinadi.
3. Ko'chmas mulk va avtotransport to'lovlarini faqat bank orqali amalga oshirish
• Bank – notarius – soliq axborot tizimlari o'rtasida to'liq onlayn integratsiya yo'qligi.
• Texnik nosozliklarda bitimlar to'xtab qolishi ehtimoli mavjud.
• Ayrim hollarda bitim summasini pasaytirib ko'rsatish amaliyoti saqlanib qolishi mumkin.
4. Yagona QR-kod tizimini joriy etishdagi muammolar
• Aholining ko'pchilik qismi va kichik savdo nuqtalarida QR-koddan foydalanishni bilmaslik.
• Internet tezligi past hududlarda QR orqali to'lovlar sekin ishlashi.
5. Soliq nazorati kuchayishi bilan bog'liq muammolar
5.1. Import oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha
• Mavsumiy mahsulotlar uchun saqlanish muddatini sun'iy ravishda hisoblash muammolari.
• Tekshiruvlar korrupsiya xavfini oshirishi mumkin.
• Bozorda narx tushishi natijasida mahsulot sotilmay qolishi tadbirkor aybi emas, bu tekshiruv sababiga aylanib qolmoqda.
5.2. Qurilish va ko'chmas mulkda bozor bahosini belgilash
• Soliq organi va tadbirkor o'rtasida baholash bo'yicha nizolar ko'payishi mumkin.
• Ayrim hududlarda real bozor bahosini aniqlash qiyin.
6. Yuk tashish va maxsus transport hisobini onlayn yuritish
• Noqonuniy yoki yarim qonuniy tashuvchilar tizimdan chetda qolishi mumkin.
• GPS, onlayn hisob, dasturlar uchun qo'shimcha xarajatlar vujudga kelishi mumkin.
7. Jismoniy shaxslar daromad deklaratsiyasi (tajriba-sinov)
• Aholining katta qismi daromad – xarajatlar deklaratsiyasi tushunchasiga tayyor emas.
• Naqd pulda qilingan xarajatlarni aniq hisobga olish qiyin.
• Axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligiga ishonch past.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yashirin iqtisodiyot ulushining yuqoriligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining barqarorligiga, davlat budjeti daromadlarining shakllanishiga hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammoni hal etishda faqat ma'muriy choralar bilan cheklanib qolmasdan, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq tizimini soddalashtirish va uning shaffofligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining huquqiy ongi va iqtisodiy madaniyatini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali hisob-kitoblar shaffofligini ta'minlash, davlat nazorati tizimini samarali tashkil etish yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga xizmat qiladi. Mazkur chora-tadbirlarni kompleks va izchil amalga oshirish orqali iqtisodiyotda rasmiy sektor ulushini kengaytirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagilar taklif qilinadi:

- Qishloq joylarda yoki internet aloqasi yaxshi bo'lmagan joylarda vaqtinchalik "oflayn to'lov" rejimini saqlab qolish.
- Kommunal va davlat xizmatlari bo'yicha elektron to'lov komissiyalarini qonun bilan foizsiz amalga oshirilishini belgilash.
- Umumiy daromadida QR orqali to'lov ulushi 80 foizdan oshgan tadbirkorlik subyektlariga soliq stavkasidan vaqtincha chegirmalar berish.
- Ko'chmas mulk va avtotransport bitimlari bo'yicha integratsiya qilingan onlayn platforma texnik uzilishda yoki tizim ishlamasa, bank kassasi orqali to'lovni amalga oshirganda bitimni tasdiqlashni joriy etish.
- Bozor bahosini hisoblashda har bir hudud uchun ochiq baholar reyestrini joriy etish.
- Import mahsulotlarida ayrim tovarlar uchun saqlanish muddatidan kelib chiqib, bozor konyunkturasini (sotilishi) inobatga olish lozim.
- Bir oy davomida fuqaroning plastik kartochkasidan 30 ta va undan ortiq tranzaksiya amalga oshirilganida yoki 50 mln so'mdan ortiq summa ushbu plastik kartochkaga kelib tushganda plastik kartochka egasi to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni Markaziy bank Soliq qo'mitasiga taqdim etishni joriy etish. Bunda:
- to'lov tashkilotlari (Payme, Click va boshqa mobil ilovalar)ga fuqaro plastik kartochkasidan to'lovni amalga oshirayotganida to'lov maqsadi (xarid yoki xizmat, qarz, xayriya va boshqalar)ni ko'rsatish majburiy katakchasi (polya)ni yaratish vazifasini yuklash;

• to'lov tashkilotlari zimmasiga fuqaro plastik kartochkasidan to'lovni amalga oshirayotganida ko'rsatilgan to'lov maqsadidan faqat xarid yoki xizmat uchun amalga oshirilgan to'lov to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni Soliq qo'mitasiga taqdim etish majburiyatini yuklash.

Soliq qo'mitasi ushbu ma'lumotlarga aniqlik kiritgan holda deklaratsiya asosida soliqqa tortish tizimini yo'lga qo'yishi lozim.

• Bankomatlardan naqd pul yechib olishda bir oy uchun 50 mln so'm miqdorida cheklov belgilash.

• Aholi va tadbirkorlar orasida elektron to'lov tizimlaridan foydalanishning afzalliklari, xususan, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq tushumlarini barqaror oshirishdagi o'rni haqida tizimli tushunchani shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli raqamli moliyaviy savodxonlik dasturlarini joriy etish zarur.

• Xorijiy mamlakatlarda barcha to'ylar mehmonxonalarda o'tkaziladi, mehmonxonalarda esa restoranlar ko'pi bilan 250 odamga mo'ljallangan bo'ladi.

• To'y tadbirlarini tartibga solish bo'yicha hukumat qarori ijrosini ta'minlash maqsadida har bir hududning salohiyatidan hamda to'y xizmatlari o'tkazish uchun mo'ljallangan odam sonidan kelib chiqib, minimal soliqqa tortish minimumini joriy etish;

• nahorgi osh va kechki bazm uchun alohida soliq stavkalarini joriy etish;

tajriba tariqasida Toshkent shahar va viloyat markazlaridagi to'yxonalar uchun qilinadigan to'lovlarni faqat naqdsiz (elektron) shaklda amalga oshirishni joriy etish.

Shuningdek, ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish va dabdababozlikni oldini olish maqsadida to'yxonalardan (supermarket, gipermarket, madaniyat saroyi, konsert yoki kino zallariga aylantirish yoki hudud joylashuvidan kelib chiqib boshqa madaniy xizmat ko'rsatish faoliyatlariga moslashtirish ishlarini bosqichma-bosqich o'tkazish) boshqa tadbirkorlik faoliyatida samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash.

Shu kabi, mahalla markazlarida to'y tadbirlari o'tkazish uchun mo'ljallangan joylarda tashkil etilgan avtoturargohlarni boshqa joylarga ko'chirish orqali to'y tadbirlarini o'tkazish joylarini qayta tiklash.

• Yirik naqd (xorijiy) pul aylanmasi mavjud bo'lib, xizmat ko'rsatishdan tushgan tushumni yashirish holatlari ko'p uchraydigan to'y tadbirlariga taklif etiladigan san'atkorlarga to'lovlarni shartnoma orqali naqdsiz to'lov ko'rinishida hisob-raqamiga amalga oshirishni joriy etish.

Qozog'iston tajribasi misolida O'zbekistonda ham daromadlar va xarajatlarni bosqichma-bosqich umumdeklaratsiyalash mexanizmini joriy etish lozim. Jumladan:

1- bosqichda 2027-yildan boshlab

— davlat xizmatchilari va ularning turmush o'rtoqlari;

2- bosqichda 2028-yildan:

— yuridik shaxslarning rahbarlari, ta'sischilari (ishtirokchilari) va ularning turmush o'rtoqlari;

— yakka tartibdagi tadbirkorlar va ularning turmush o'rtoqlari;

3- bosqichda 2029-yildan

— aholining barcha qatlamini umumdeklaratsiyalash tizimiga o'tkazish mumkin.

Ushbu tizim joriy qilinishi natijasida korrupsiyaviy holatlarning oldi olinishiga, soliq ma'murchiligi xarajatlari tejalishiga hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatida inson omilisiz soliq nazorati qamrovi kengayib, soliq solish bazasi ko'payishiga erishiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 10.12.2025йилдаги "Нақдсиз ҳисоб-китобларни оммалаштириш ва яширин иқтисодиёт улушини қисқартиришга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ПФ-246-сон фармони
2. https://www.uzdaily.uz/uz/kuzatilmaydigan-iqtisodiyot-hajmi-505-trln-somdan-oshdi/
3. Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг расмий сайти маълумотлари
4. Миллий статистика қўмитасининг расмий сайти маълумотлари

# IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRISHNI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

**Pardayev To'lqin Nasirovich**
Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti professori
Iqtisod fanlari doktori
email: tulkinpardayev65@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda bojxona to'lovlarining roli va ahamiyati tahlil qilingan. Bojxona to'lovlarining fiskal, tartibga soluvchi va muhofaza funksiyalari orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida bojxona to'lovlari tizimini takomillashtirish va raqamlashtirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, bojxona to'lovlari, fiskal siyosat, iqtisodiy mustaqillik, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, bojxona siyosati, tashqi iqtisodiy faoliyat.

Abstract. The article analyzes the role and importance of customs payments in ensuring economic security. The role of customs payments in ensuring the stability of the national economy through their fiscal, regulatory and protective functions is revealed. Also, proposals are put forward to strengthen economic security in the Republic of Uzbekistan through the improvement and digitization of the customs payments system.

Key words: economic security, customs dutiyes, fiscal policy, economic independence, digitization, artificial intelligence, customs policy, foreign economic activity.

Аннотация. В статье анализируются роль и значение таможенных платежей в обеспечении экономической безопасности. Раскрывается роль таможенных платежей в обеспечении стабильности национальной экономики посредством их фискальной, регулирующей и защитной функций. Также выдвигаются предложения по укреплению экономической безопасности Республики Узбекистан путем совершенствования и цифровизации системы таможенных платежей.

Ключевые слова: экономическая безопасность, таможенные пошлины, фискальная политика, экономическая независимость, цифровизация, искусственный интеллект, таможенная политика, внешнеэкономическая деятельность.

## KIRISH

Dunyoda iqtisodiy jarayonlar shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Iqtisodiy xavfsizlik – bu mamlakatning iqtisodiy tizimi barqarorligini saqlash, tashqi va ichki tahdidlarga nisbatan bardoshliligini ta'minlash, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Bojxona sohasining maqsadi — mamlakat iqtisodiyoti, xavfsizligi va jamiyat manfaatlarini himoya qilish hamda tashqi savdo jarayonlarini qonuniy va samarali tarzda amalga oshirishdan iborat.

Bojxona organlari o'z faoliyatini amalga oshirishda bojxona siyosatini olib boradi va uni olib borishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- milliy iqtisodiyotning tarkibiy qayta qurilishiga ko'maklashishi;
- mamlakat xalq xo'jaligining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi;
- bozorning mavjud bo'lishi va uning shart-sharoitlarini to'liq yaratish;
- mamlakatning savdo va to'lov balansini mustahkamlash;
- davlat budjeti daromadlarini to'ldirish;
- davlat savdo siyosiy negizlarini mustahkamlash;
- xorijiy davlatlar va ular ittifoqlarining kamsituvchi xatti-harakatlariga qarshilik ko'rsatish;
- korxonalar, tashkilotlar va tadbirkorlarning tashqi bozorga chiqishini ta'minlash.

Bojxona siyosati davlatning milliy iqtisodiyotni chet el raqobatidan, ichki bozorni chet el mollarining asossiz kirib kelishidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosatdir. U eksportni rag'batlantirish, importni cheklash hamda import tovarlaridan olinadigan boj to'lovlari me'yorlarini belgilash va shunga o'xshash boshqa tadbirlarda o'z ifodasini topadi.

Bu jarayonda bojxona organlari va ular orqali amalga oshiriladigan bojxona to'lovlari muhim o'rin tutadi. Bojxona to'lovlari nafaqat davlat budjeti daromadlarini shakllantirish manbai, balki iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va ichki bozorni himoya qilish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bojxona to'lovlari — bu tovarlar va transport vositalari bojxona chegarasi orqali harakatlantirilganda undiriladigan majburiy to'lovlar bo'lib, ular orqali davlatning fiskal va iqtisodiy siyosat vazifalari amalga oshiriladi. Bojxona to'lovlariga O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 289-moddasiga asosan quyidagi bojxona to'lovlari kiradi: bojxona boji, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona yig'imlari va qonunchilikda boshqa bojxona to'lovlari ham belgilanishi mumkin, deb ko'rsatilgan [1].

Bojxona to'lovlarining to'g'ri va samarali tashkil etilishi milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish va tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonida mamlakatimizni rivojlantirishning 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasida maqsadlar va ularning bajarilishi bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari belgilandi. Unda: 46-maqsad. "Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish" — 2030-yilda samaradorlik ko'rsatkichi: konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foizdan va kelgusi yillarda 3 foizdan past bo'lgan miqdorda bo'lishini ta'minlash kabi mamlakatimizda fiskal barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq vazifalar belgilandi [2].

Yuqoridagi taraqqiyot strategiyasida qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, bojxona to'lovlarini undirish mexanizmlarini tadqiq etish va ularni qo'llash samaradorligini oshirish bo'yicha xulosa hamda takliflar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Tarix va tarixiy taraqqiyotning ko'rsatishicha, bojxona to'lovlarining turlari va stavkalari turli davlatlarda ularning rivojlanish darajasiga muvofiq turlicha bo'lgan.

Adabiyotlarda olimlar bojxona to'lovlarining mohiyatiga turlicha ta'rif bergan. Jumladan: V. Yu. Jukovesning fikricha, "Bojxona to'lovlari deganda, tovarlarni bojxona ittifoqining bojxona chegarasi orqali olib o'tishda bojxona organlariga majburiy ravishda shaxs tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan barcha to'lovlarning yig'indisi tushuniladi" [3].

R. Shobanu o'z ilmiy tadqiqotlarida "Bojxona to'lovlari — bu tovarlar import, eksport yoki tranziti uchun chegara orqali olib o'tilganda davlat tomonidan olinadigan mablag'lar", deb fikr bildirgan [4].

O. Yu. Bakayev bojxona to'lovlariga "Belgilangan tartibda bojxona organlari tomonidan undiriladigan va tovarlarni bojxona ittifoqining bojxona chegarasi orqali olib o'tishda to'lanadigan, soliq va budjetga tushadigan soliq va soliqdan tashqari tushumlar vazifasini bajaradigan majburiy to'lovlar", deb o'z ta'rifini bergan [5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar rasmiy statistik manbalar, xususan Davlat bojxona qo'mitasi ma'lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlar asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar dinamik va qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va statistik usullar yordamida qayta ishlanib, bojxona to'lovlarining iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri baholandi hamda mavjud tendensiyalar aniqlanib, xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Shu o'rinda, bizning fikrimizcha, bojxona to'lovlariga nisbatan berilgan ta'riflarni hisobga olgan holda, ularning umumiy kesishuv nuqtalari, umumiy jihatlari, o'ziga xos xususiyatlari va yuqoridagi tarixiy taraqqiyotda o'z o'rniga ega bo'lib borgan bojxona to'lovlariga ularning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ifodalovchi ta'rifni berishga urinish ma'lum bir ahamiyatga ega. Bizningcha, yuqorida qayd etilganlarni inobatga olgan holda bojxona to'lovlariga ularning mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi quyidagi eng sodda ta'rifni berishimiz mumkin: bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovar-moddiy boyliklar uchun davlat budjetining daromadlar qismi uchun undiriladigan to'lovlar bojxona to'lovlari deyiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni bojxona to'lovlari bilan tartibga solish orqali tashqi savdoning samarali tarkibini ta'minlash, ichki tovarlarni ishlab chiqaruvchilarni chet elning nosog'lom raqobatidan himoyalash, davlat budjeti daromadlar qismini shakllantirish kabi vazifalar bajariladi.

Bojxona to'lovlarining davlat budjeti daromadlari qismining asosiy manbasi hisoblanib, uning ulushi yildan-yilga oshib kelmoqda. Bu ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasida 2018-yilda 14,5 foiz bo'lsa, 2025-yilga kelib 25,0 foizni tashkil etgan. Bu davrda ushbu ko'rsatkich 11,5 foizga o'sgan (1-rasm).

O'zbekiston Respublikasida undirilgan bojxona to'lovlarining miqdori ham yildan-yilga oshmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bu ko'rsatkich 2018–2025-yillarda 6,6 martaga oshgan.

O'zbekiston Respublikasida bojxona to'lovlaridan berilayotgan imtiyozlar miqdori ham yildan-yilga oshmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bu ko'rsatkich 2018–2025-yillarda 1,2 martaga oshgan (1-rasm).




1-rasm.Bojxona organlari tomonidan 2018-2025-yillarda undirilgan bojxona to'lovlarining davlat byudjeti daromadlaridagi ulushini o'zgarishi dinamikasi, foizda.

Manba:BQ ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi yillarda hisoblangan bojxona to'lovlarining miqdori 2,2 martaga oshgan. 2018–2025-yillarda jami hisoblangan bojxona to'lovlari tarkibida bojxona to'lovlaridan beriladigan imtiyozlar 81,1 foizdan 44,0 foizga tushganligini yoki 37,1 foizga tushganligini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan 2018-2025-yillarda hisoblangan, undirilgan bojxona to'lovlari va ulardan berilgan imtiyozlarning o'zgarishi. Trln.so'mda

| № | Ko'rsatkichlar | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Jami hisoblangan bojxona to'lovlari | 60,2 | 76,8 | 65,4 | 71,3 | 102,5 | 115,7 | 115,7 | 135,3 |
| 2. | Undirilgan bojxona to'lovlari | 11,5 | 17,1 | 24,7 | 33,2 | 46,0 | 54,4 | 63,1 | 76,2 |
| 3. | Bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlar | 48,7 | 59,7 | 40,7 | 38,1 | 56,5 | 57,3 | 52,6 | 59,1 |

Manba:BQ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Bojxona to'lovlarining o'sishiga: import tovarlarining hajmi ko'payishi, tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashning takomillashayotganligi, bojxona to'lovlari stavkalarining o'zgarishi, erkin almashtiriladigan valyuta

kursining o'zgarishi, bojxona sohasida avtomatlashtirilgan axborot tizimidan samarali foydalanilayotganligi, bojxona sohasi bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazaning takomillashayotganligi kabi asosiy omillar ta'sir etgan.

Xususan, oxirgi yillarda bojxona organlari amaliyotida bojxona to'lovlari qo'shimcha hisoblangan holatlar va ularni keltirib chiqargan omillar tahlil qilinganida, boj va soliqlar stavkalari yuqori bo'lsa, ayrim tadbirkorlik subyektlari tomonidan tovarlarni past stavkali tovarlar nomi bilan noto'g'ri deklaratsiyalash yoki tovarlarning bojxona qiymatini pasaytirib ko'rsatish orqali soliqlardan bo'yin tovlashga moyillik ortishi kuzatilgan.

Tovarlarni erkin muomalaga chiqarilgandan keyin bojxona to'lovlaridan qarzdorlikning kelib chiqish yo'nalishlarining 2019–2025-yillar kesimidagi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlarning bojxona qiymatini noto'g'ri belgilashda qo'shimcha hisoblangan qarzdorlik 6,1 % ga, boshqa holatlarda 28,8 % ko'paygan va aksincha, preferensiyalarni noto'g'ri berish 2,2 % ga, imtiyozlarni noto'g'ri qo'llash 27,2 % ga, TIF TN kod raqamini noto'g'ri aniqlash 5,6 % ga kamaygan (2-jadval).

2-jadval. Bojxona organlarida 2019-2025 yillarda qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini kelib chiqish sabablari tarkibi (%da)

| T/r | Kelib chiqish yo'nalishlari | Yillar | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
| 1. | Imtiyozlar noto'g'ri qo'llanilishi | 56,7 | 63,4 | 25,0 | 44,1 | 40,60 | 30,1 | 29,5 |
| 2. | Bojxona qiymati noto'g'ri belgilanishi | 11,7 | 16,4 | 45,5 | 37,4 | 33,72 | 25,9 | 17,6 |
| 3. | Preferensiyalarni noto'g'ri berish | 5,4 | 7,6 | 8,0 | 4,4 | 9,98 | 15,4 | 3,2 |
| 4. | TIF TN kodi noto'g'ri belgilanishi | 20,2 | 5,2 | 15,5 | 6,6 | 4,85 | 3,4 | 14,6 |
| 5. | Boshqa holatlar | 6,3 | 7,4 | 6,0 | 7,5 | 10,85 | 25,2 | 35,1 |
| Jami | | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |

Manba:BQ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda bojxona to'lovlarini qo'llash samaradorligini yanada oshirish, shuningdek, bojxona organlari fiskal faoliyati yo'nalishida qonunbuzilish holatlarini oldini olish, korrupsiya holatlarini yanada kamaytirish uchun quyidagilar taklif etiladi.

- Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to'lovlarini undirish tizimini takomillashtirish maqsadida bojxona to'lovlarini avtomatik hisoblaydigan, qulay interfeysga ega va foydalanuvchiga tushunarli axborot tizimini yaratish, shuningdek, sun'iy intellekt algoritmlari asosida tovarlarning bojxona qiymatini aniqlovchi "Raqamli bojxona kalkulyatori" tizimini joriy etish tavsiya etiladi.
- Bojxona to'lovlarini hisoblash, undirish va ulardan berilayotgan imtiyozlarni qo'llash bo'yicha sun'iy intellektdan foydalanishni yanada kengaytirish taklif etiladi. Bunda bojxona organlari fiskal faoliyati tizimiga sun'iy intellektni bosqichma-bosqich va uning yo'nalishlari bo'yicha joriy etish, ya'ni birinchi navbatda tovarlar kodlarini sun'iy intellekt asosida tekshirish, ikkinchi navbatda tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish, uchinchi navbatda tovarlarning kelib chiqish mamlakatini sun'iy intellekt asosida tekshirish, to'rtinchi navbatda bojxona to'lovlaridan imtiyoz berishda sun'iy intellektdan foydalanish taklif etiladi. Bu esa bojxona rasmiylashtiruvini tezlashtirib, unga ketadigan sarf-xarajatni qisqartirib, vaqt sarfini kamaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, bojxona to'lovlari iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy vositalaridan biri bo'lib, ular orqali davlat budjeti barqarorligi, milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, tashqi iqtisodiy tahdidlarni kamaytirish va iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash amalga oshiriladi. Shu bois, bojxona to'lovlari tizimini raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish mamlakat iqtisodiy xavfsizligini yanada mustahkamlashga zamin yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. O'zbekiston Respublikasining "Bojxona kodeksi". — T.: 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni. ttrs://lex.uz/doss/6600413
3. Жуковес В.Ю. Таможенное право в вопросах и ответах.М.2005.с 98 (219 с).
4. Siobanu, R. (2015). The National Institutional System with Somretense in Administering Sustoms Dutiyes. Bulletin of the Transilvania University of Braşov, Seriyes VII: Sosial Ssiyenses and Law, (2), 181-188.
5. Бакаева О.Ю. Правовое регулирование финансовой деятельности РФ. Саратов.2005 с28.(194 с)
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi ma'lumotlari. 2024-yil
7. https://new.customs.uz/uz

# QARZ MUNOSABATLARINI RAQAMLASHTIRISH: IQTISODIY VA HUQUQIY MUNOSABATLARDAGI AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI

**Qurambоev Jamshid Rashid o'g'li**
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi
IJQK Departamenti Xorazm viloyati boshqarmasi
TQF hisobi sho'basi katta tezkor vakili, 1-darajali yurist

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi qarz munosabatlarining huquqiy holati, yashirin iqtisodiyotdagi ahamiyati, amaliyotda uchrayotgan tizimli muammolar va ularni bartaraf etishda raqamli texnologiyalarning o'rni tahlil qilingan. Xususan, qarz munosabatlarida Fuqarolik kodeksidagi shartnomaning yozma shakli talabiga rioya etmaslik oqibatlari, "huquqiy nigilizm" fenomeni va qarz munosabatlarining yashirin iqtisodiyotdagi ulushi hamda ta'siri o'rganilgan. Muallif tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi qarz munosabatlarini rasmiylashtirish va tartibga solish platformasini joriy etish va elektron bitimlarni yozma shaklga tenglashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qarz shartnomasi, fuqarolik huquqi, raqamlashtirish, tilxat, yozma shakl, elektron platforma, jismoniy va yuridik shaxslar, yashirin iqtisodiyot, sud.

Abstract. This article analyzes the legal status of loan relations between individuals and legal entities in the Republic of Uzbekistan, its significance in the shadow economy, systemic problems encountered in practice, and the role of digital technologies in addressing them. In particular, the consequences of non-compliance with the written form requirements for loan agreements under the Civil Code, the phenomenon of "legal nihilism," and the share and impact of loan relations on the shadow economy are studied. The author developed proposals for implementing a platform for the formalization and regulation of loan relations between individuals and legal entities, as well as for equalizing electronic transactions with the written form.

Key words: loan agreement, civil law, digitalization, receipt, written form, electronic platform, individuals and legal entities, shadow economy, court.

Аннотация. В данной статье анализируется правовое состояние заемных отношений между физическими и юридическими лицами в Республике Узбекистан, их значение в теневой экономике, системные проблемы, встречающиеся на практике, и роль цифровых технологий в их устранении. В частности, изучены последствия несоблюдения требований Гражданского кодекса к письменной форме договора в заемных отношениях, феномен «правового нигилизма», а также доля и влияние заемных отношений на теневую экономику. Автором разработаны предложения по внедрению платформы для оформления и регулирования заемных отношений между физическими и юридическими лицами, а также по приравниванию электронных сделок к письменной форме.

Ключевые слова: договор займа, гражданское право, цифровизация, расписка, письменная форма, электронная платформа, физические и юридические лица, теневая экономика, суд.

## KIRISH

Raqamli iqtisodiyot davrida iqtisodiy hamda fuqarolik-huquqiy munosabatlarning shakli va mazmuni jiddiy o'zgarishlarga duch kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi barcha sohalarni, jumladan, qarz munosabatlarini ham takomillashtirish va texnologik modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi o'zaro qarz munosabatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirmaslik yashirin iqtisodiyot bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Chunki jismoniy shaxslar, ayniqsa, yuridik shaxslar asosan pul mablag'larining legallashuvi va buning oqibatida soliq oqibatlari kelib chiqishidan xavotir olgan holda qarz munosabatlarini qonuniy rasmiylashtirishdan qochishadi. Natijada, yuridik va jismoniy shaxslarning qarz shaklidagi pul mablag'lari va tovar-moddiy boyliklari iqtisodiyotda yashirin tarzda aylanishda davom etadi, bu esa o'z navbatida yashirin iqtisodiyot ko'lamining ortishiga olib keladi. Eng yomoni, qonuniy tartibda rasmiylashtirilmagan qarz munosabatlarida pul mablag'lari qaytarilmagan taqdirda, qarz beruvchi o'z pulini qaytarib olishda hech qanday huquqiy asosga ega bo'lmaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qarz munosabatlarini tartibga solish va ularni raqamlashtirish masalalari fuqarolik huquqi hamda iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi qarz shartnomalarining huquqiy asoslarini belgilab berib, bitimlarning yozma shaklda rasmiylashtirilishi zarurligini alohida ta'kidlaydi. Kodeksning tegishli moddalarida yozma shaklga rioya qilinmagan taqdirda yuzaga keladigan huquqiy oqibatlar aniq belgilangan bo'lib, bu qarz munosabatlarida huquqiy aniqlik va ishonchlilikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida qarz munosabatlarini modernizatsiya qilish masalasi davlat siyosatida ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamlashtirish, jumladan, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda elektron platformalarni keng joriy etishni nazarda tutadi. Ushbu strategiya doirasida moliyaviy operatsiyalarni raqamlashtirish orqali ularning shaffofligini oshirish, yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish va huquqiy munosabatlarni soddalashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Qarz munosabatlarining amaliy jihatlari sud statistikasi orqali ham o'z ifodasini topadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 2024-yil 5-yanvarda e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda fuqarolik ishlari bo'yicha ko'rib chiqilgan ishlarning salmoqli qismi aynan qarz undirish bilan bog'liq bo'lib, bu jamiyatda qarz munosabatlari yetarli darajada rasmiylashtirilmayotganligini ko'rsatadi. Sud buyruqlari sonining yuqoriligi qarzdorlik bo'yicha ijro intizomi pastligini hamda mavjud huquqiy mexanizmlarning amaliy samaradorligini oshirish zarurligini anglatadi.

Qarz munosabatlarining yashirin iqtisodiyot bilan bog'liqligi xorijiy ilmiy adabiyotlarda ham keng yoritilgan. Xususan, perulik iqtisodchi Hernando de Soto "The Mystery of Capital" asarida norasmiy iqtisodiy munosabatlar doirasida mavjud bo'lgan aktivlarni "o'lik kapital" sifatida talqin qilib, ularning rasmiy iqtisodiyotga jalb etilmasligi iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini cheklashini asoslab beradi. Muallifning fikricha, mulkiy va moliyaviy munosabatlarni huquqiy jihatdan rasmiylashtirish orqali ushbu aktivlarni iqtisodiy aylanishga kiritish mumkin bo'ladi. Bu yondashuv qarz munosabatlarini raqamlashtirish va ularni huquqiy jihatdan mustahkamlash zarurligini ilmiy asoslab beradi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar qarz munosabatlarini rasmiylashtirish, ularni huquqiy va institutsional jihatdan takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy shaffoflikni oshirish muhim ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, elektron platformalar orqali qarz bitimlarini rasmiylashtirish nafaqat huquqiy xavfsizlikni ta'minlaydi, balki yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar normativ-huquqiy hujjatlar, xususan Fuqarolik kodeksi, davlat dasturlari, Oliy sud statistik ma'lumotlari hamda ilmiy adabiyotlar asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullari orqali qayta ishlanib, qarz munosabatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy va huquqiy samaradorligi baholandi hamda asosiy muammolar va tendensiyalar aniqlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining rasmiy ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, sud tizimidagi asosiy yuklama aynan pul majburiyatlarini bajarmaslik bilan bog'liq ishlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Xususan, "2023-yil davomida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rilgan da'vo ishlari 304 962 tani tashkil qilgan bo'lsa, soddalashtirilgan tartibda qarz undirishga qaratilgan sud buyruqlari soni 483 617 ga teng bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, sudlardagi ishlarning 60 foizdan ortig'i aynan qarz undirish bilan bog'liq ishlarga to'g'ri keladi." [1]

1 Ўзбекистон Республикаси Олий суди. «Судлар томонидан 2023 йилда кўриб чиқилган фуқаролик ишлари юзасидан ахборот». – 2024 йил 5 январь. (Электрон манба: https://sud.uz/news-2024-01-05-1/)

Sud buyruqlarining mutlaq ko'pchiligi shartnomaviy va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni undirishga oid ekanligi inobatga olinsa, jamiyatda qarzdorlik bo'yicha ijro intizomi bilan bog'liq tizimli muammolar mavjudligi o'z tasdig'ini topadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 733-moddasiga muvofiq, fuqarolar o'rtasida qarz summasi bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan oshgan taqdirda, shartnoma oddiy yozma shaklda tuzilishi shart. Biroq, huquqni qo'llash amaliyoti va ijtimoiy so'rovlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi yirik miqdordagi qarz munosabatlarining qariyb 70–80 foizi og'zaki kelishuv asosida yoki yuridik jihatdan "nuqsonli tilxat"lar orqali amalga oshirilmoqda.

Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, "huquqiy nigilizm" va mentalitet faktori. Jamiyatimizda yaqin tanish yoki qarindoshga qarz berayotganda tilxat yozib berishni so'rash ishonchsizlik sifatida qabul qilinadi. Natijada, taraflar Fuqarolik kodeksining 109-moddasi (bitimning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik oqibatlari) ta'siriga tushib qoladilar. Ya'ni, nizo kelib chiqqanda, ular guvohlarning ko'rsatmalariga asoslanish huquqidan mahrum bo'ladilar, bu esa qarz beruvchining huquqlarini himoyasiz qoldiradi.

Ikkinchidan, yashirin iqtisodiyot va dollarlashuv. Rasmiylashtirilmagan qarz munosabatlari davlat nazoratidan va bank tizimidan tashqaridagi ulkan pul massasini tashkil etadi. Perulik iqtisodchi Ernando de Sotoning "o'lik kapital" nazariyasiga ko'ra, bu mablag'lar iqtisodiy o'sishga xizmat qilmaydi.[2] Chunki bunday pul mablag'lari yashirin iqtisodiyotda xufyona aylanayotganligi sababli soliq oqibatlari yuzaga kelmaydi va real daromad sifatida aks ettirilmaydi. Bundan tashqari, aholi o'rtasidagi qarzlarning aksariyati AQSH dollarida hisob-kitob qilinishi "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonun talablariga zid bo'lib, sud qarorlari ijrosida kurs tafovuti bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Yuqorida qayd etilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak, qonuniy tartibda rasmiylashtirilmagan qarz munosabatlari pul mablag'larining yashirin iqtisodiyotga ko'chishiga olib keladi, buning natijasida iqtisodiyotning real sektorida o'sish pasayadi, qarz berilganligini tasdiqlovchi hujjat bo'lmaganligi sababli qarzni undirish muammoli vaziyatga aylanadi, bu esa suddagi ish yuklamaning ortishiga olib keladi. Bularning barchasi bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, "zanjir reaksiyasi" asosida biri ikkinchisini yuzaga keltiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun qarz munosabatlarini elektron platforma orqali raqamli rasmiylashtirish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bunda quyidagi amaliy va huquqiy mexanizmlar taklif etiladi:

Elektron platforma: Jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi qarz munosabatlarini rasmiylashtirish va tartibga solish uchun elektron platforma tashkil qilish zarur. Bunda an'anaviy elektron raqamli imzo aholi uchun noqulaylik tug'dirishi mumkinligi sababli shaxsni tasdiqlash uchun mobil telefon raqami va Face-ID texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Elektron platforma va uning mobil ilovasi orqali tasdiqlangan qarz bitimi Fuqarolik kodeksining 108-moddasiga asosan oddiy yozma shaklda tuzilgan shartnomaga tenglashtirilishi kerak.

Shartnoma shaklining standartizatsiyasi: platformada qarz shartlari (summa, muddat, foiz va boshqalar) aniq belgilangan namunaviy elektron shakl bo'lishi shart. Bu "nuqsonli tilxat" muammosini yo'qotadi va shartnomada barcha muhim shartlar aks etishini ta'minlaydi.

Elektron platformani sud va vakolatli organlar bilan integratsiya qilish: buning natijasida qarz beruvchi qarz oluvchidan o'z pulini undirish maqsadida sud yoki boshqa vakolatli organlarga borib sarson bo'lmasdan, elektron platforma orqali onlayn murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, sud elektron platforma orqali kelib tushgan murojaat yuzasidan sud buyrug'i chiqarib, Majburiy ijro byurosi organlariga elektron tartibda ijro uchun yuboradi. Bu orqali qarz beruvchi qarzni undirish uchun qayerga va kimga murojaat qilish muammosidan xalos bo'ladi.

Qarz munosabatlarining raqamlashtirilishi shunchaki texnik qulaylik emas, balki fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyatni oshirishning samarali vositasidir. Elektron platformaning joriy etilishi aholi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni shaffoflashtiradi, yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartiradi va eng muhimi, qarz beruvchilarning huquqlarini ishonchli himoya qilish kafolatini yaratadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-6079-сон «Рақамли Ўзбекистон — 2030» стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди. «Судлар томонидан 2023 йилда кўриб чиқилган фуқаролик ишлари юзасидан ахборот». – 2024 йил 5 январь. (Электрон манба: https://sud.uz/news-2024-01-05-1/)
4. Де Сото Э. Загадка капитала. Почему капитализм торжествует на Западе и терпит поражение во всем остальном мире. – М.: Олимп-Бизнес.

2 Де Сото Э. Загадка капитала. Почему капитализм торжествует на Западе и терпит поражение во всем остальном мире. – М.: Олимп-Бизнес.

# EVALUATING THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN USING A MULTIPLE LINEAR REGRESSION MODEL

**Rakhimberdiev Kuvonchbek Bakhtiyorovich**
Associate Professor of the Department of Econometrics.
Tashkent State University of Economics.
Email: gquuvvoonn94@gmail.com
Orcid: 0000-0003-2290-5786

Abstract. Regarding the bank performance, the bank efficiency of commercial banks is one of the widespread areas of interest for the researchers, regulators, and policymakers. In the same way it is obvious that, the stability and efficiency of the commercial banking sector are essential for the economic development of Uzbekistan, a nation experiencing significant structural reforms. The current study is aimed to evaluate the determinants of efficiency for commercial banks operating in Uzbekistan from 2018 to 2023, a period marked by liberalization and modernization of the financial system. Using a multiple linear regression model, we analysed the impact of key bank-specific factors on profitability, measured by Return on Assets (ROA). The independent variables include the Capital Adequacy Ratio (CAR), Non-Performing Loans (NPL), Cost-to-Income Ratio (CIR), and Loans-to-Deposits Ratio (LDR). Utilizing panel data from the annual reports of 10 systemic Uzbek banks and statistics from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan (CBU), the findings indicate that capital adequacy and cost management are statistically significant positive drivers of bank efficiency, while high levels of non-performing loans exert a significant negative influence. Results of the current study provide valued understandings for bank managers, policymakers, and investors seeking to improve the flexibility and performance of Uzbekistan's banking sector in a developing economic situation.

Key words: Bank Efficiency, Uzbekistan, Multiple Linear Regression, ROA, Commercial Banks, Financial Reform.

Annotatsiya. Regarding the bank performance, the bank efficiency of commercial banks is one of the widespread areas of interest for the researchers, regulators, and policymakers. In the same way it is obvious that, the stability and efficiency of the commercial banking sector are essential for the economic development of Uzbekistan, a nation experiencing significant structural reforms. The current study is aimed to evaluate the determinants of efficiency for commercial banks operating in Uzbekistan from 2018 to 2023, a period marked by liberalization and modernization of the financial system. Using a multiple linear regression model, we analyzed the impact of key bank-specific factors on profitability, measured by Return on Assets (ROA). The independent variables include the Capital Adequacy Ratio (CAR), Non-Performing Loans (NPL), Cost-to-Income Ratio (CIR), and Loans-to-Deposits Ratio (LDR). Utilizing panel data from the annual reports of 10 systemic Uzbek banks and statistics from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan (CBU), the findings indicate that capital adequacy and cost management are statistically significant positive drivers of bank efficiency, while high levels of non-performing loans exert a significant negative influence. Results of the current study provide valuable insights for bank managers, policymakers, and investors seeking to improve the flexibility and performance of Uzbekistan's banking sector in a developing economic situation.

Kalit so'zlar: Bank Efficiency, Uzbekistan, Multiple Linear Regression, ROA, Commercial Banks, Financial Reform.

Аннотация. Что касается эффективности работы банков, то результативность коммерческих банков является одной из наиболее распространенных областей интереса для исследователей, регулирующих органов и политиков. В связи с этим очевидно, что стабильность и эффективность сектора коммерческого банковского дела имеют важное значение для экономического развития Узбекистана, страны, переживающей значительные структурные реформы. Целью данного исследования является оценка факторов, определяющих эффективность коммерческих банков, работающих в Узбекистане в период с 2018 по 2023 год, период, отмеченный либерализацией и модернизацией финансовой системы. С помощью модели множественной линейной регрессии мы проанализировали влияние ключевых банковских факторов на прибыльность, измеряемую показателем рентабельности активов (ROA).

Независимые переменные включают коэффициент достаточности капитала (CAR), неработающие кредиты (NPL), коэффициент затрат к доходам (CIR) и коэффициент кредитов к депозитам (LDR). На основе панельных данных из годовых отчетов 10 системно значимых узбекских банков и статистики Центрального банка Республики Узбекистан (ЦБУ) результаты показывают, что достаточность капитала и управление затратами являются статистически значимыми положительными факторами эффективности банков, в то время как высокий уровень невозвратных кредитов оказывает значительное отрицательное влияние. Результаты данного исследования предоставляют ценную информацию для руководителей банков, политиков и инвесторов, стремящихся повысить гибкость и эффективность банковского сектора Узбекистана в условиях развивающейся экономики.

Ключевые слова: Эффективность банков, Узбекистан, Множественная линейная регрессия, РЕНТАБИЛЬНОСТЬ АКТИВОВ, Коммерческие банки, Финансовая реформа.

## INTRODUCTION

In banking sector, generally efficiency refers to how effectively financial institutions changes its inputs such as labour, capital, and deposits into required outputs like loans, investments, and fee-based services. Through the world, banking sector is considered as the vital sector of any modern economy, channelling funds from savers to borrowers and facilitating economic growth. In the context of Uzbekistan, the role of commercial banks has become increasingly critical following a series of comprehensive economic reforms initiated in 2017. These reforms, aimed at liberalizing the economy, attracting foreign direct investment, and modernizing the financial system, have placed unprecedented demands on the banking sector (Abdurakhmanova & Ahmedov, 2022).

It is a point of prime notice that, for decades, the Uzbek banking system was characterized by state dominance, directed lending, and limited competition. However, after the 2017, time has witnessed a cautious shift towards a more market-oriented model. This transition necessitates a robust evaluation of the efficiency and performance of commercial banks. Understanding the factors that drive their profitability and stability is essential not only for the banks' survival but also for the nation's continued macroeconomic progress.

Among the competitors, technically efficient bank is considered to be that bank who utilize minimum possible inputs to achieve the desired level of output. Efficiency in banking can be measured through various metrics, with profitability being a central indicator. While frontier analysis methods like Data Envelopment Analysis (DEA) and Stochastic Frontier Analysis (SFA) are common, multiple linear regression offers a straightforward and powerful tool to identify the specific financial ratios that significantly impact performance (Gulati, 2018). These are used to measure cost and profit efficiency with greater precision. These methods have gained popularity because they account for environmental factors, noise in the data, and variations in input and output prices, unlike traditional accounting ratios that may overlook such complexities These approaches are particularly suitable for a developing market like Uzbekistan, where data availability, though improving, can still pose challenges for more complex methodologies.

This research paper seeks to fill a gap in the literature by providing a contemporary, empirical analysis of the efficiency drivers of Uzbek commercial banks during a pivotal reform period (2018-2023). The primary research question is: What are the key bank-specific determinants of efficiency in Uzbekistan's commercial banking sector?

The study is structured as follows: Section 2 provides a review of the relevant literature. Section 3 outlines the research methodology, including the model specification, variable description, and data sources. Section 4 presents the empirical results and discussion. Finally, Section 5 concludes with policy implications and suggestions for future research.

## LITERATURE REVIEW

The determinants of bank efficiency and profitability have been extensively studied globally, with a growing body of literature focusing on transition economies and Central Asia.

Global and Theoretical Foundations. Seminal work by Athanasoglou et al. (2008) established a framework for analysing bank-specific, industry-specific, and macroeconomic determinants of profitability. Their study on South-Eastern European banks found that capital strength, operational efficiency, and credit quality are consistently significant. This aligns with the theoretical expectation that well-capitalized banks are perceived as less risky and can operate more efficiently, while poor loan quality erodes profitability. Similarly, Dietrich and Wanzenried (2014), in a cross-country study, confirmed that cost-to-income ratios and loan loss provisions are critical determinants of bank profitability across different economic environments.

Studies in Transition Economies. Research on Commonwealth of Independent States (CIS) countries provides a relevant context for Uzbekistan. A study by Kocisova et al. (2018) on Central and Eastern European

banks highlighted that the positive impact of capital adequacy on profitability is even more pronounced in less developed financial systems. For Kazakhstan, Yemberdiyeva et al. (2019) found that asset size and management efficiency were key drivers of performance, while non-performing loans were a major drag.

Research on the Uzbek Banking Sector. The literature specific to Uzbekistan is evolving. Early studies often focused on the need for reform. More recent work has begun to empirically assess the post-reform landscape. For instance, Isakov (2021) analysed the impact of financial liberalization on bank competitiveness, noting a gradual improvement in efficiency metrics. Another study by Khashimova and Abdullayev (2020) used correlation analysis to examine the relationship between liquidity and profitability, finding a weak but positive link. However, there is a scarcity of studies that employ a comprehensive multivariate regression model to isolate the simultaneous effects of multiple efficiency drivers in the Uzbek context for the most recent and critical reform period.

This study contributes to the literature by applying a well-established multiple linear regression framework to a novel and timely dataset from Uzbekistan, thereby providing an empirical assessment of how internal bank factors are shaping efficiency in the new economic reality.

## METHODOLOGY

3.1. Model Specification

To evaluate the efficiency of commercial banks in Uzbekistan, this study employs a multiple linear regression model. The dependent variable, representing bank efficiency, is Return on Assets (ROA), calculated as Net Income / Total Assets. ROA is a standard measure of how efficiently a bank is using its assets to generate profits.

The model is specified as follows:

$$ROAit = \beta_0 + \beta_1 CARit + \beta_2 NPLit + \beta_3 CIRit + \beta_4 LDRit + \varepsilon it$$

Where:

i denotes the bank (i = 1, 2, ..., 10).

t denotes the year (t = 2018, 2019, ..., 2025).

ROAit is the Return on Assets for bank i in year t.

$\beta_0$ is the constant term (intercept).

CARit is the Capital Adequacy Ratio for bank i in year t.

NPLit is the Non-Performing Loans to Total Loans ratio for bank i in year t.

CIRit is the Cost-to-Income Ratio for bank i in year t.

LDRit is the Loans-to-Deposits Ratio for bank i in year t.

εit is the error term.

3.2. Variable Description and Hypotheses

Dependent Variable. Return on Assets (ROA): Measures profitability per unit of asset. A higher ROA indicates greater efficiency.

Independent Variables. Capital Adequacy Ratio (CAR): (Tier 1 + Tier 2 Capital) / Risk-Weighted Assets. It reflects the bank›s financial cushion and stability. Hypothesis H1: CAR has a positive and significant relationship with ROA.

Non-Performing Loans Ratio (NPL): NPLs / Total Gross Loans. This is an inverse indicator of asset quality. Hypothesis H2: NPL has a negative and significant relationship with ROA.

Cost-to-Income Ratio (CIR): Operating Expenses / Operating Income. A measure of cost management efficiency. Hypothesis H3: CIR has a negative and significant relationship with ROA.

Loans-to-Deposits Ratio (LDR): Total Loans / Total Deposits. Indicates liquidity risk and the ability to transform deposits into income-generating loans. Hypothesis H4: The relationship between LDR and ROA is ambiguous; a very high LDR may indicate profitability but also high liquidity risk, and vice versa.

3.3. Data Collection and Sources. This study uses unbalanced panel data from 10 systemically important commercial banks in Uzbekistan (e.g., National Bank of Uzbekistan, Asaka Bank, Ipoteka Bank, etc.) over the period 2018-2023. The data was manually collected from the following sources:

1. Annual financial reports of individual commercial banks.
2. Bulletins and statistical data published by the Central Bank of the Republic of Uzbekistan (CBU).
3. The unified portal of corporate information of Uzbekistan.

The final dataset comprises 55 bank-year observations after accounting for some missing data points. All analyses were conducted using SPSS Statistics version 28.

4. Results and Discussion. Table 1 presents the descriptive statistics for all variables used in the regression model. The mean ROA for the sample is 1.52%, which is a reasonable level for a developing banking sector. The capital adequacy ratios are comfortably above the regulatory minimum of 13% set by the CBU, indicating

a generally well-capitalized sector. However, the high standard deviation and maximum value for NPL (13.5%) highlight the persistent issue of non-performing loans in the system. The CIR shows significant variation, suggesting differences in operational efficiency across banks.

Table 1. Descriptive Statistics (N=55)

| Variable | Mean | Std. Deviation | Minimum | Maximum |
|---|---|---|---|---|
| **ROA (%)** | 1.52 | 0.85 | -0.20 | 3.50 |
| **CAR (%)** | 16.80 | 3.12 | 11.50 | 24.10 |
| **NPL (%)** | 4.85 | 2.45 | 1.20 | 13.50 |
| **CIR (%)** | 55.30 | 12.75 | 35.10 | 85.60 |
| **LDR (%)** | 78.45 | 15.33 | 50.80 | 115.20 |

4.2. Regression Results. The multiple linear regression model was tested for multicollinearity, heteroscedasticity, and autocorrelation. The Variance Inflation Factor (VIF) for all variables was below 3, indicating no severe multicollinearity. The results of the regression analysis are presented in Table 2.

Table 2. Multiple Linear Regression Results (Dependent Variable: ROA)

| Variable | **Coefficient (β)** | **Standard Error** | **t-statistic** | **p-value** |
|---|---|---|---|---|
| Constant | 2.15 | 0.801 | 2.684 | 0.01 |
| CAR | 0.105 | 0.032 | 3.281 | 0.002* |
| NPL | -0.189 | 0.041 | -4.61 | 0.000* |
| CIR | -0.027 | 0.008 | -3.375 | 0.001* |
| LDR | 0.003 | 0.006 | 0.5 | 0.619 |
| $R^2$ | 0.672 | | | |
| Adjusted $R^2$ | 0.645 | | | |
| F-statistic | 24.85 (p=0.000) | | | |
| *Note: * indicates significance at the 1% level.* | | | | |





Figure 1. Three-Dimensional Scatter Plot Illustrating the Relationship between Capital Adequacy Ratio (CAR), Non-Performing Loans (NPL), and Bank Performance





Figure 2. Three-Dimensional Scatter Plot Showing the Relationship between Capital Adequacy Ratio (CAR), Cost-to-Income Ratio (CIR), and Bank Performance





Figure 3. Regression Function Plot Showing the Effect of Non-Performing Loans (NPL) on Bank Performance





Figure 4. Regression Function Plot Showing the Effect of Cost-to-Income Ratio (CIR) on Bank Performance

The model is statistically significant overall, as shown by the F-statistic ($p < 0.01$). The adjusted $R^2$ of 0.645 indicates that approximately 64.5% of the variation in banks' ROA is explained by the four independent variables in the model.

## DISCUSSION OF FINDINGS

The regression results provide strong evidence to support three of our four hypotheses.

Capital Adequacy (CAR). The coefficient for CAR is positive (0.105) and statistically significant at the 1% level. This strongly supports H1. This finding confirms the global consensus that a strong capital base enhances bank efficiency in Uzbekistan. Higher capital allows banks to pursue profitable opportunities with confidence, reduces funding costs, and signals strength to the market, all of which contribute to higher profitability (Athanasoglou et al., 2008).

Asset Quality (NPL). As hypothesized in H2, the NPL ratio has a strong negative and statistically significant coefficient (-0.189). This is the most potent driver in the model. The high level of NPLs in the Uzbek system, a legacy of directed lending, remains a major impediment to efficiency. Non-performing loans generate no income but require provisioning, which directly erodes profits. This result underscores the critical importance of ongoing efforts by the CBU and individual banks to clean up balance sheets and improve credit risk management.

Cost Efficiency (CIR). The coefficient for CIR is negative (-0.027) and statistically significant, supporting H3. This indicates that banks with lower operational costs relative to their income are more efficient and profitable. In a competitive market, controlling administrative expenses, branch network costs, and personnel costs is a direct path to improving the bottom line.

Liquidity (LDR). The coefficient for LDR is positive but very small and statistically insignificant (p=0.619). Therefore, H4 is not supported. This suggests that, within the observed range, the LDR does not have a systematic, strong impact on profitability in the Uzbek context. It is possible that the trade-off between profitability (from lending) and liquidity risk is being managed within a band that does not drastically affect ROA, or that other factors overshadow its effect.

## CONCLUSION

This study evaluated the efficiency of commercial banks in Uzbekistan using a multiple linear regression model for the period 2018-2023. The findings reveal that internal bank-specific factors are crucial determinants of profitability. Specifically, capital strength, asset quality, and cost management are key levers that bank managers can control to enhance performance. The results lead to several important policy implications. Banks should prioritize strengthening their capital buffers not only for regulatory compliance but also as a strategic tool for enhancing profitability. A relentless focus on improving credit assessment and monitoring systems to reduce NPLs is paramount. Furthermore, implementing digitalization and operational streamlining to lower the Cost-to-Income Ratio will directly boost efficiency.

In conclusion, as Uzbekistan continues its journey toward a market economy, the efficiency of its commercial banking sector will be a critical success factor. The evidence from this study shows that by focusing on core

internal strengths-capital, asset quality, and cost control-Uzbek banks can build a more resilient and profitable future.

**References**


1. Abdurakhmanova, N., & Ahmedov, I. (2022). Banking sector reforms and economic growth in Uzbekistan: An empirical analysis. Journal of Central Asian Economics, 11(3), 45-60.
2. Athanasoglou, P. P., Brissimis, S. N., & Delis, M. D. (2008). Bank-specific, industry-specific and macroeconomic determinants of bank profitability. Journal of International Financial Markets, Institutions and Money, 8(2), 121-136.
3. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Statistical Bulletin: Banking Sector Indicators 2018-2023. Retrieved from https://cbu.uz/en/statistics/banking_statistics/
4. Dietrich, A., & Wanzenried, G. (2014). The determinants of commercial banking profitability in low-, middle-, and high-income countries. The Quarterly Review of Economics and Finance, 54(3), 337-354.
5. Gulati, R. (2018). Evaluating the Performance of Banks: An Empirical Study. Indian Institute of Management.
6. Isakov, B. (2021). The impact of financial liberalization on the competitiveness of banks in Uzbekistan. Problems of Economic Transition, 62(4-6), 288-305.
7. Khashimova, D., & Abdullayev, A. (2020). Analysis of the relationship between liquidity and profitability in the commercial banks of Uzbekistan. Tashkent State University of Economics Journal, 5(2), 78-89.
8. Kocisova, K., Gavurova, B., & Behun, M. (2018). The evaluation of bank efficiency in Central and Eastern European countries using DEA method. Journal of International Studies, 11(4), 257-272.
9. Yemberdiyeva, G., Koval, V., & Platonov, V. (2019). Determinants of bank profitability in Kazakhstan. Journal of Applied Economic Research, 18(4), 639-662.

# TASHQI SAVDO OPERATSIYALARIDA DEBITOR QARZDORLIKLARNI BOSHQARISHNING RAQAMLI MODELI VA RISK-MONITORING TIZIMI

**Tashmuxamedov Dilmurod Mirabzalovich**
O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining "Xalqaro soliqqa tortish ma'muriyatchiligi boshqarmasi"ning davlat soliq bosh inspektori hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: dilmurod3250@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida debitor qarzdorliklarni hisobga olish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda tashqi savdo operatsiyalarining kengayishi debitor qarzdorliklar hajmiga ta'siri hamda ularni monitoring qilishning zamonaviy mexanizmlari tahlil qilindi. Xalqaro tajriba asosida elektron hisob-faktura tizimlari, Big Data va sun'iy intellektga asoslangan risk-monitoring texnologiyalarining moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishdagi ahamiyati o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat organlari axborot tizimlarini integratsiyalash, real vaqt rejimida monitoring mexanizmlarini joriy etish hamda prognozlash modellaridan foydalanish debitor qarzdorliklarni samarali boshqarish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, debitor qarzdorlik, tashqi savdo operatsiyalari, soliq ma'muriyatchiligi, elektron hisob-faktura, moliyaviy monitoring, Big Data, sun'iy intellekt, risk monitoring, raqamli platforma, fiskal nazorat, integratsiyalashgan axborot tizimi.

Abstract. This article examines the issues of improving the accounting and control system of accounts receivable in the context of the digital economy. The study analyzes the impact of expanding foreign trade operations on the growth of accounts receivable and evaluates modern monitoring mechanisms. Based on international experience, the role of electronic invoicing systems, Big Data technologies, and artificial intelligence-based risk monitoring tools in enhancing financial control efficiency is explored. The findings indicate that integrating information systems of government agencies, implementing real-time monitoring mechanisms, and applying forecasting models can significantly improve the management of accounts receivable.

Key words: digital economy, accounts receivable, foreign trade operations, tax administration, electronic invoicing, financial monitoring, Big Data, artificial intelligence, risk monitoring, digital platform, fiscal control, integrated information systems.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы совершенствования системы учета и контроля дебиторской задолженности в условиях цифровой экономики. В исследовании проанализировано влияние расширения внешнеторговых операций на рост дебиторской задолженности, а также современные механизмы ее мониторинга. На основе международного опыта рассмотрена роль электронных счетов-фактур, технологий Big Data и систем анализа на основе искусственного интеллекта в повышении эффективности финансового контроля. Результаты исследования показывают, что интеграция информационных систем государственных органов, внедрение механизмов мониторинга в режиме реального времени и использование прогнозных моделей позволяют повысить эффективность управления дебиторской задолженностью.

Ключевые слова: цифровая экономика, дебиторская задолженность, внешнеторговые операции, налоговое администрирование, электронные счета-фактуры, финансовый мониторинг, Big Data, искусственный интеллект, риск-мониторинг, цифровая платформа, фискальный контроль, интегрированные информационные системы.

## KIRISH

XXI asrda iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi davlat boshqaruvi, moliyaviy nazorat tizimi va soliq ma'muriyatchiligiga tub o'zgarishlar kiritmoqda. Global iqtisodiy tizimda raqamli texnologiyalarni qo'llash natijasida moliyaviy operatsiyalar hajmi keskin ortib, ularning tezligi va murakkabligi oshmoqda. Natijada iqtisodiy operatsiyalarni nazorat qilish va monitoring qilishning an'anaviy usullari samaradorligi pasayib bormoqda.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot hajmi jahon yalpi ichki mahsulotining 15–16 foizini tashkil etadi va bu ko'rsatkich yil sayin oshib bormoqda (UNCTAD, 2023). Shu bilan birga, global savdo operatsiyalarining raqamlashtirilishi debitor qarzdorliklar hajmining ham ortishiga olib kelmoqda.

Debitor qarzdorliklar korxonalar moliyaviy barqarorligiga, davlat byudjeti tushumlariga hamda iqtisodiy xavfsizlikka bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim moliyaviy ko'rsatkichlardan biridir. Ayniqsa tashqi savdo operatsiyalarida kechiktirilgan to'lovlar va muddati o'tgan qarzdorliklar iqtisodiy risklarni yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasida ham tashqi savdo operatsiyalarini monitoring qilish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-maydagi 283-son qarori[1] bilan tashqi savdo operatsiyalari ustidan monitoringni tashkil etish tartibi belgilangan. Ushbu qaror tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shunga qaramay, amaldagi tizimda turli davlat organlari ma'lumotlar bazalarining integratsiyasi yetarli darajada rivojlanmaganligi debitor qarzdorliklarni monitoring qilish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida debitor qarzdorliklarni hisobga olish va nazorat qilish tizimini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq nazorati va moliyaviy monitoring masalalari ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan.

IMF tadqiqotlariga ko'ra, elektron hisob-faktura tizimi joriy etilgan mamlakatlarda soliq tushumlari sezilarli darajada oshgan. Masalan, Peru tajribasi shuni ko'rsatadiki, elektron hisob-faktura tizimi joriy etilgandan keyin qo'shilgan qiymat solig'i yig'imi 10–15 foizga oshgan (Bellon et al., 2022)[2]

OECD ekspertlari elektron hisob-kitob tizimlari soliq ma'lumotlarining aniqligini oshirish bilan birga, davlat organlari o'rtasida axborot almashuvini tezlashtirishini ta'kidlaydi (OECD, 2023).[3]

Jahon banki tadqiqotlarida esa soliq ma'muriyatchiligida riskga asoslangan monitoring tizimlari samaradorligi yuqori ekanligi qayd etilgan (World Bank, 2024).[4]

UNCTAD hisobotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida davlatlar uchun fiskal nazorat tizimlarini modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.[5]

Deloitte va PwC ekspertlari Big Data hamda Machine Learning texnologiyalarining moliyaviy risklarni aniqlashdagi ahamiyatini alohida qayd etadi. Ularning fikriga ko'ra, sun'iy intellekt asosidagi tahlil vositalari moliyaviy intizomni nazorat qilish samaradorligini oshiradi (Deloitte Insights, 2022).

Mahalliy tadqiqotlarda ham raqamli soliq ma'muriyatchiligi masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq debitor qarzdorliklarni raqamli monitoring qilishning kompleks ilmiy modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

## METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi ilmiy usullar asosida shakllantirildi: tizimli tahlil usuli, statistik tahlil usuli, komparativ tahlil, ekonometrik tahlil yordamida o'rganildi va habolandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tashqi savdo operatsiyalarining jadal rivojlanishi debitor qarzdorliklar hajmi va ularni nazorat qilish tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tashqi savdo operatsiyalari orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblarning ko'payishi, xalqaro to'lov tizimlarining rivojlanishi hamda transchegaraviy moliyaviy operatsiyalar hajmining ortishi natijasida debitor qarzdorliklarni samarali monitoring qilish masalasi iqtisodiy boshqaruvning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

1 https://lex.uz/docs/-4812419
2 https://doi.org/10.1016/j.jpubeco.2022.104661
3 https://www.oecd.org/tax/e-invoicing-and-digital-reporting-requirements.pdf
4 https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099530123131949196
5 https://unctad.org/webflyer/digital-economy-report-2023

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ham so'nggi yillarda tashqi savdo operatsiyalari hajmi barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat tashqi savdo aylanmasi 2020-yildagi 36,3 milliard AQSh dollaridan 2023-yilda 62,6 milliard AQSh dollariga yetgan. Bu esa uch yil davomida tashqi savdo hajmi qariyb 1,7 baravar oshganini ko'rsatadi.

1- jadval. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mlrd dollar)[6]

| Yil | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport hajmi | Import hajmi | Savdo balansi | Yillik o'sish (%) |
|---|---|---|---|---|---|
| 2020 | 36.3 | 15.1 | 21.2 | -6.1 | — |
| 2021 | 42.1 | 16.6 | 25.5 | -8.9 | 16.0 |
| 2022 | 50.0 | 19.3 | 30.7 | -11.4 | 18.8 |
| 2023 | 62.6 | 24.4 | 38.2 | -13.8 | 25.2 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari hajmi so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, 2020–2023 yillar oralig'ida tashqi savdo aylanmasi 36,3 milliard AQSh dollaridan 62,6 milliard dollarga yetib, qariyb 72 foizga oshgan. Eksport hajmi ham ushbu davrda 15,1 milliard dollardan 24,4 milliard dollarga yetib, sezilarli o'sish sur'atini namoyon etgan. Shu bilan birga import hajmining ham tez sur'atlarda oshishi natijasida savdo balansida manfiy saldo saqlanib qolmoqda.

Tashqi savdo operatsiyalarining kengayishi korxonalar o'rtasidagi moliyaviy hisob-kitoblar hajmining ortishiga olib keladi. Bu esa debitor qarzdorliklar hajmining oshishi ehtimolini kuchaytiradi. Shu sababli tashqi savdo operatsiyalarini real vaqt rejimida monitoring qilish hamda debitor qarzdorliklarni avtomatlashtirilgan tizimlar orqali nazorat qilish zarurati ortib bormoqda.

Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda savdo operatsiyalarining qariyb 25–30 foizi kechiktirilgan to'lovlar asosida amalga oshiriladi. Bu esa korxonalar moliyaviy barqarorligiga ma'lum darajada xavf tug'diradi hamda davlat moliyaviy nazorat tizimlari oldiga yangi vazifalarni qo'yadi.

Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, debitor qarzdorliklarning o'sishi ko'pincha quyidagi omillar bilan bog'liq:

- hisob-kitob jarayonlarining yetarli darajada avtomatlashtirilmaganligi
- davlat organlari ma'lumotlar bazalarining o'zaro integratsiyasi pastligi
- to'lov intizomining yetarli darajada nazorat qilinmasligi
- risklarni oldindan baholash tizimining rivojlanmaganligi

Mazkur omillar tashqi savdo operatsiyalarida kechiktirilgan to'lovlar sonining ortishiga sabab bo'lishi mumkin.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish ushbu muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, elektron hisob-faktura tizimi, avtomatlashtirilgan moliyaviy monitoring platformalari va sun'iy intellekt asosidagi risk baholash tizimlari debitor qarzdorliklarni samarali boshqarish imkonini beradi.

OECD ma'lumotlariga ko'ra, elektron hisob-faktura tizimini joriy etgan mamlakatlarda soliq tushumlari sezilarli darajada oshgan. Masalan, Peru, Braziliya va Meksika tajribasi shuni ko'rsatadiki, elektron hisob-kitob tizimlari joriy etilgandan so'ng soliq tushumlari o'rtacha 8–12 foizga oshgan.

6 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi https://stat.uz

2- jadval. Elektron hisob-faktura tizimi joriy etilgandan keyin soliq tushumlari va soliq intizomining o'zgarishi

| Mamlakat | Tizim joriy etilgan yil | Elektron hisob-faktura tizimi | Soliq turi | Soliq tushumlari o'sishi | Qo'shimcha natijalar |
|---|---|---|---|---|---|
| Peru | 2014 | Sistema de Facturación Electrónica (SFE) | QQS | +12 % | yashirin iqtisodiyot qisqardi, soliq ma'lumotlari real vaqt rejimida yig'ila boshlandi |
| Braziliya | 2008 | Nota Fiscal Eletrônica (NF-e) | QQS va korporativ soliq | +8 % | noqonuniy savdo operatsiyalari kamaydi, soliq nazorati avtomatlashtirildi |
| Meksika | 2011 | Comprobante Fiscal Digital por Internet (CFDI) | QQS | +10 % | soliq to'lovchilarning hisob-kitoblari to'liq raqamlashtirildi |
| Chili | 2016 | Factura Electrónica | QQS | +9 % | soliq ma'lumotlarining aniqligi oshdi |
| Italiya | 2019 | Sistema di Interscambio | QQS | +7 % | soliqdan bo'yin tovlash holatlari sezilarli kamaydi |

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, elektron hisob-faktura tizimini joriy etish soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirishda muhim instrument hisoblanadi. Bunday natijalar elektron hisob-faktura tizimi orqali moliyaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati yaratilishi bilan izohlanadi. Mazkur tizim yordamida barcha savdo operatsiyalari avtomatik tarzda davlat soliq organlari axborot tizimlarida qayd etiladi. Natijada soliq ma'lumotlarining shaffofligi oshadi va noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni aniqlash imkoniyati kengayadi.

Shuningdek, elektron hisob-faktura tizimi soliq to'lovchilarning hisob-kitob intizomini ham sezilarli darajada yaxshilaydi. Chunki barcha operatsiyalar elektron shaklda rasmiylashtirilgani sababli soliq ma'lumotlarini yashirish yoki o'zgartirish imkoniyati keskin kamayadi.

Xalqaro tajribada raqamli soliq ma'muriyatchiligi tizimlari davlat byudjeti tushumlarini oshirish, soliq ma'lumotlari bazasining aniqligini ta'minlash hamda soliq nazoratining samaradorligini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi nafaqat soliq tushumlarini oshirishga, balki moliyaviy operatsiyalar shaffofligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Elektron hisob-kitob tizimlari yordamida barcha moliyaviy operatsiyalar real vaqt rejimida qayd etiladi va nazorat qilinadi. Bu esa debitor qarzdorliklarning shakllanish jarayonini erta bosqichda aniqlash imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida debitor qarzdorliklarni nazorat qilish tizimida quyidagi muammolar mavjud:

Birinchidan, tashqi savdo operatsiyalariga oid ma'lumotlar turli davlat organlari axborot tizimlarida alohida yuritiladi. Bu esa ma'lumotlar almashinuvi samaradorligini pasaytiradi.

Ikkinchidan, debitor qarzdorliklar bo'yicha risklarni baholash tizimi yetarli darajada avtomatlashtirilmagan.

Uchinchidan, prognozlash va analitik tahlil imkoniyatlari cheklangan.

Mazkur muammolarni hal etish uchun davlat organlari ma'lumotlar bazalarini yagona integratsiyalashgan raqamli platformaga birlashtirish zarur. Bunday platforma orqali tashqi savdo operatsiyalariga oid barcha ma'lumotlar real vaqt rejimida yig'iladi va tahlil qilinadi.

## MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, debitor qarzdorliklarni samarali boshqarish uchun quyidagi mexanizmlarni joriy etish zarur:

Yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tashqi savdo faoliyatida debitor qarzdorlik holatlarini samarali boshqarish, ularning davlat byudjetiga bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirish hamda soliq nazorati tizimining raqamlashtirilgan monitoring mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday ekan, debitor qarzdorlik holatlarini hisobga olish va nazorat qilish jarayonlarini raqamli iqtisodiyot sharoitida takomillashtirishda ilmiy-metodologik yondashuv muhim o'rin tutadi. Zamonaviy soliq nazorati tizimida faqatgina hisobot ma'lumotlariga asoslanish yetarli emas, balki tizimli tahlil, prognozlash va risk-monitoring funksiyalarini qamrab olgan kompleks model yaratish zarur. Bu model "data-driven decision making" (ma'lumotga asoslangan qaror qabul qilish) tamoyili asosida qurilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, debitor qarzdorlik holatlarini boshqarishning metodologik asosi quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq:




1- rasm. Debitor qarzdorlik holatlarini boshqarishning metodologik bosqichlari.[7]

Bunday modelning tashkiliy mexanizmi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Debitor qarzdorlikni raqamli monitoring qilish markazi faoliyati orqali amalga oshirilishi mumkin. Xo'sh ushbu markaz qanday faoliyatni amalga oshiradi degan savol tug'ilishi tabiiy. Markaz tashqi savdo subyektlarining hisob-kitob intizomini real vaqt rejimida kuzatib borish, risk darajasi yuqori bo'lgan subyektlar bo'yicha avtomatik ogohlantirish signallarini ishlab chiqish va tahlil natijalarini vazirlik va idoralar bilan elektron tarzda almashish funksiyalarini bajaradi.[8]

## XULOSA

Debitor qarzdorliklarni hisobga olish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Davlat organlari (Soliq qo'mitasi, Bojxona, Bandlik va tashqi savdo vazirligi, Markaziy bank) ma'lumotlarini yagona raqamli platformaga integratsiya qilish. Davlat soliq qo'mitasi, Markaziy bank, Bandlik va tashqi savdo vazirligi hamda Bojxona qo'mitasi ma'lumotlarini birlashtirgan yagona raqamli platforma yaratilishi debitor qarzdorlik bo'yicha to'liq va ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantiradi. Bu orqali ma'lumotlarning takrorlanishi va manbalar o'rtasidagi nomutanosibliklar bartaraf etiladi, shuningdek, tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha risklar aniqlanadi.

Tashqi savdo operatsiyalarini elektron hisob-fakturalar orqali rasmiylashtirish va ularni avtomatik monitoring tizimi bilan bog'lash. Elektron hisob-fakturalar (E-invoice) orqali hisob-kitob jarayonlari shaffoflashadi, to'lov kechikishlari va noqonuniy amaliyotlar xavfi kamayadi.[9]

Debitor qarzdorlik holatlarini baholashda intellektual tahlil va risk-monitoring algoritmlarini joriy etish. Big Data va Machine Learning asosidagi tahlil vositalari debitor qarzdorlik bo'yicha "vaktida to'lov qilmaydigan" subyektlarni oldindan aniqlash, risk profilini baholash va ular uchun alohida nazorat choralarini ishlab chiqish imkonini yaratadi. Bu soliq nazorati tizimining profilaktik va prognostik funksiyalarini kuchaytiradi.

Muddati o'tgan va shubhali debitorlik holatlarini barvaqt aniqlash uchun prognozlashtirish modellarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. Debitor qarzdorlikning o'sish tendensiyasini oldindan aniqlovchi prognoz modellari (klaster va regressiya tahlillari asosida) ishlab chiqilishi orqali tashqi savdo tashkilotlarining moliyaviy intizomi aniq baholanadi va soliq organlariga tezkor qaror qabul qilish imkoni yaratiladi.[10]

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot sharoitida debitor qarzdorliklarni hisob va nazorat qilishning ilmiy-metodologik va tashkiliy modelini joriy etish nafaqat soliq nazorati tizimini zamonaviy bosqichga olib chiqadi, balki mamlakatning tashqi iqtisodiy barqarorligi va fiskal xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bellon, M., Dabla-Norris, E., Khalid, S., & Lima, F. (2022). Digitalization to improve tax compliance: Evidence from electronic invoicing. International Monetary Fund Working Paper.

7 Муаллиф томонидан маълумотлар таҳлили асосида мустақил тузилган. (IMF (2022). Taxing the Digital Economy, Chapter 1. https://www.elibrary.imf.org/downloadpdf/display/book/9781513511771/ch010.pdf

8 Putri A.F., Prasetyawati T., Mukhtaruddin (2025). Tax in the Digital Age: A Systematic Study on E-commerce and Taxation Policy. https://www.researchgate.net/publication/390129866 хорижлик олимнинг фикри ва таклифи. Сизга маълумот учун ссилкасини кўйдим. Ишда бу ссилкани олиб ташлайман.

9 OECD (2023). E-Invoicing and Digital Reporting Requirements. https://www.oecd.org/tax/e-invoicing-and-digital-reporting-requirements.pdf

10 PwC Global (2024). AI and Machine Learning in Tax Compliance. https://www.pwc.com/gx/en/tax/publications/ai-tax-compliance.html

2. Deloitte. (2022). The future of tax administration: Digital transformation and analytics. Deloitte Insights.
3. OECD. (2023). Tax administration 2023: Comparative information on OECD and other advanced and emerging economies. OECD Publishing.
4. World Bank. (2024). Digital transformation in tax administration and compliance risk management. World Bank Publications.
5. UNCTAD. (2023). Digital economy report 2023. United Nations Conference on Trade and Development.
6. IMF. (2022). Revenue administration: Digital transformation and compliance management. International Monetary Fund.
7. Keen, M., & Slemrod, J. (2021). Rebellion, rascals, and revenue: Tax follies and wisdom through the ages. Princeton University Press.
8. Tanzi, V. (2018). Termites of the state: Why complexity leads to inequality. Cambridge University Press.
9. OECD. (2021). Technology tools to tackle tax evasion and tax fraud. OECD Publishing.
10. World Bank. (2022). GovTech maturity index: The state of public sector digital transformation. World Bank.
11. Vazirlar Mahkamasi. (2020). Tashqi savdo operatsiyalari monitoringini tashkil etish to'g'risida 283-son qaror. Toshkent.
12. Tashmuxamedova, Y. (2024). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ SIYOSATINING ROLI. Modern Science and Research, 3(12), 1115-1121. https://doi.org/10.5281/zenodo.18266965
13. Atkhamovna, T. Y. (2024, December). TAX POLICY IN THE DEVELOPMENT OF BUSINESS ACTIVITY. In Russian-Uzbekistan Conference (pp. 170-173). http://www.wosjournals.com/index.php/ruconf/article/view/396

# WAYS TO REDUCE THE RISK OF DIGITAL ATTACKS IN BANKING AND GOVERNMENT FINANCIAL SYSTEMS

**M.N. Umarova**
Associate Professor,
Department of Economic and Financial Security

Abstract. This article analyzes the increasing types of digital attacks on banking and public financial systems, their impact on economic stability, and advanced approaches to ensuring the security of the financial system. Artificial intelligence-based monitoring systems, international standards, ways to modernize cybersecurity infrastructure, and reduce risks associated with the human factor are substantiated.

Key words: Digital security, banking system, public finance, cyberattacks, financial stability, AI monitoring, cryptography, economic security, financial market, digital banking, e-government, V2S (business-to-customer), V2V (business-to-business), S2V (customer-to-business) business models, e-commerce, physical freedom, cloud computing, hybrid cloud, corporate cloud, internet, digital added value, digital lock-in, self-service, remote use, large data, blockchain.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bank va davlat moliya tizimlariga raqamli hujumlarning tobora ko'payib borayotgan turlari, ularning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri va moliya tizimi xavfsizligini ta'minlashning ilg'or yondashuvlari tahlil qilinadi. Sun'iy intellektga asoslangan monitoring tizimlari, xalqaro standartlar, kiberxavfsizlik infratuzilmasini modernizatsiya qilish va inson omili bilan bog'liq xavflarni kamaytirish usullari asoslanadi.

Kalit so'zlar: Raqamli xavfsizlik, bank tizimi, davlat moliya, kiberhujumlar, moliyaviy barqarorlik, AI monitoringi, kriptografiya, iqtisodiy xavfsizlik, moliya bozori, raqamli bank, elektron hukumat, V2S (biznesdan mijozga), V2V (biznesdan biznesga), S2V (mijozdan biznesga) biznes modellari, elektron tijorat, jismoniy erkinlik, bulutli hisoblash, gibrid bulut, korporativ bulut, internet, raqamli qo'shimcha qiymat, raqamli blokirovka, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, masofadan foydalanish, katta ma'lumotlar, blokcheyn.

Аннотация. В данной статье анализируются растущие виды цифровых атак на банковские и государственные финансовые системы, их влияние на экономическую стабильность и передовые подходы к обеспечению безопасности финансовой системы. Обосновываются системы мониторинга на основе искусственного интеллекта, международные стандарты, способы модернизации инфраструктуры кибербезопасности и снижение рисков, связанных с человеческим фактором.

Ключевые слова: цифровая безопасность, банковская система, государственные финансы, кибератаки, финансовая стабильность, мониторинг ИИ, криптография, экономическая безопасность, финансовый рынок, цифровой банкинг, электронное правительство, бизнес-модели V2S (бизнес-клиент), V2V (бизнес-бизнес), S2V (клиент-бизнес), электронная коммерция, физическая свобода, облачные вычисления, гибридное облако, корпоративное облако, интернет, цифровая добавленная стоимость, цифровая зависимость, самообслуживание, удаленное использование, большие данные, блокчейн.

## INTRODUCTION

The rapid development of digital technologies is leading to fundamental changes not only in the economy, but also in society. By reducing information costs, digital technologies significantly reduce the cost of economic and social transactions for governments, companies, and individuals, foster innovation, and make existing activities and services cheaper, faster, and more accessible. In short, digital technologies allow people to use services that they previously did not have access to.

The acceleration of the digital economy is leading to an increase in the share of online services in banking and public financial systems, as well as an increase in the number of cybercrimes. The financial sector is one of the most targeted areas of cyberattacks in the world. According to the International Monetary Fund and BIS, cyberattacks targeting the financial system have increased by 250% in the past 5 years. Therefore, the

issues of early detection of digital attacks, their elimination and strengthening the stability of the system are of strategic importance for the state and private sectors. In today's globalization and digital economy, the stability of financial systems has become a key component of national security. According to statistics from the World Bank, the International Monetary Fund and other international financial institutions, the number of cyberattacks on banking systems increased by 38% in 2023–2024. In particular, cases of data theft and breach of state budget management information systems have increased sharply. Therefore, improving digital protection strategies is an urgent scientific and practical issue.

The process of digital transformation has fundamentally changed the financial sector. The transition of banking services to online platforms and the digitization of state financial systems, while creating convenience, have also created new types of cyber threats. In particular, attacks such as DDoS, phishing, malware, ransomware, SQL injection, man-in-the-middle pose a significant threat to the security of financial information and transactions. This article provides an in-depth analysis of these processes and presents strategies for mitigating risks.

The rapid shift of consumers to e-commerce, the partial replacement of physical retail by online commerce, and the low level of development of financial institutions and banking infrastructure have contributed to the rapid spread of online financial services.

Table 1. Digital strategies of G20 countries

| Country | Strategy | Key seeds |
|---|---|---|
| USA | Information highway (1992) | Digital communication system. Information telecommunications network. |
| | National Broadband Licensing Plan (2010) | Broadband connection available. High-speed Internet. |
| Japan | e-Japan (2001) | Development of research in the field of information infrastructure and technology. |
| | i-Japan (2004) | Widespread use of digital technologies in industry and services, diversity in practice. |
| | i-Japan (2009) | Public administration - aimed at government, hospitals and schools. |
| EU | i-20l0 (2005) | Open and competitive digital economy. Information and communication technologies. |
| | Digital Agenda Europe Strategy 2020 | Development of a single digital market. |
| Great Britain | Digital Great Britain (2009) | Leadership in the digital economy. |
| | "Digital Economy Law 2010" (2010) | Digital media policy - copyright, Internet domain names, local radio, and video games. |
| | «Strategy for the Development of the Digital Economy in the years2015-2018 » (2015) | Scaling up digital innovators; Enhancing user experience; Digital innovators' tools; Developing infrastructure, platforms, and ecosystems; Ensuring sustainability. |
| France | Digital France 2020 | Development of fixed and mobile broadband |
| | France (2011) | The popularization of digital applications and services, especially e-government or e-commerce. |
| Australia | National Strategy for the Digital Economy (2011) | e-health, e-education, smart grids, e-government, digital economy, digital media. |
| Germany China Internet + (2015) Integration of the Internet and other traditional networks | Industry 4.0 (2013) | Cyber-physical systems Internet of Things Cloud computing. |
| | Digital strategy 2025 (2016) | Digital independence; Digital infrastructure; Information security. |
| Russia | National Technology Plan (2014) | Enerdjinet, Xelsnet, Neuronet, Marinet, Avtonet, Aeronet, Texnet. |

| Country | Strategy | Key seeds |
|---|---|---|
| South Korea | Innovations in Manufacturing 3.0 (2014) Manufacturing Innovations Structure 3.0 (2015) | Information Technology + Development. |
| India | Digital India (2015) | Creating digital infrastructure; Providing digital services; Digital literacy. |
| China | Internt (2015) | Information and communication technologies; Integration of the Internet and other traditional networks. |

Source: Compiled by the author based on UN reports on the digital economy.

All the documents listed in Table 1 are aimed at the development of the digital economy, since in recent years it has become an important factor in the global economy. These data not only show the rapid growth of e-commerce, but also suggest that in the coming years it will significantly contribute to the development of an economy that may not be included in the new system of economic relations. Below is a list of the largest companies in the world by market capitalization:

Table 2. Top 10 largest companies in the world by market capitalization

| The name of the company | The market's place in the world is determined by the market. | Market capitalization, billion, dollars |
|---|---|---|
| Microsoft | 1 | 1000 |
| Arrle | 2 | 946,2 |
| Amazon | 3 | 948,5 |
| Alrhabet (Google) | 4 | 830,7 |
| Facebook | 6 | 552,0 |
| Berkshire Hathawau | 5 | 532,6 |
| Alibaba Grour | 7 | 481,0 |
| Tencent Holdings limited | 8 | 461,5 |
| JR Morgan Chase | 9 | 376,8 |
| Johnson & Johnson | 10 | 375,9 |

Source: Yahoo Finance latest online data.

As can be seen from the table above, only 3 of the 10 largest companies in the world (Berkshire Hathaway, J.R. Morgan Chase, Johnson & Johnson) are not engaged in digital business, while all other companies are leading organizations in integral sectors of the digital economy, such as online commerce, social networking, software, and Internet search services. These statistics also clearly demonstrate the need to focus on the digital economy as a modern way to achieve economic prosperity.

Due to the increasing competitive environment in countries, the number of Internet service perators and providers is constantly increasing.





Figure 1. Analysis of economic indicators of the ICT sector in 2024 (www.mitc.uz)

In Uzbekistan, in 2024, general services provided in the ICT sector amounted to 10.6 trillion soms, and exports of communication and information services amounted to 176.0 million dollars. While employment in the information and communications sector is projected to double in 2024 compared to 2022, the volume of computer and programming services is projected to nearly triple (Figure 1).

Today, the banking industry is in a global digital arms race. This year, global banks are investing $9.7 billion in digital banking capabilities. The US has planned to invest in the amount of US dollars. In many commercial banks, the creation and development of online and mobile banking applications is considered more important than the expansion of traditional bank branches and ATMs.

Banks around the world are already aware of how digital technologies can be used to attract and satisfy customers. The different positions of countries in the global economy, as well as the competitiveness of national economies and enterprises in global markets, can seriously affect the internal and external state of the government, as well as financial security. Therefore, even though the world community seems to be implementing the principles of free trade, almost all countries in the world continue to actively support protectionist measures. As we know, an open economy is an economy that has entered into external economic relations and is developing based on their advantages. The openness of the national economy is one of the main principles of modern market development.

Cyberattacks targeting the financial system are multifaceted, often aiming to steal data, disable the system, disrupt transactions, or cause financial damage.Asosiy hujum turlari:

- DDoS – server overload.
- Phishing – deceiving the user to obtain their data.
- Ransomware – encrypting the system and demanding money.
- MITM – interference in the data transfer process.
- SQl Injection – illegal access to the database.
- Zero-Day – use of undetected vulnerabilities.

These attacks target the most vulnerable parts of the financial system: internet banking, payment systems, state registries, budget payment platforms, central bank networks, etc. Economic losses resulting from cyberattacks are divided into two groups:

Direct losses:

- Theft of client funds.
- Costs of restoring the system and reloading data.
- Costs of updating servers and strengthening cybersecurity.

Indirect losses:

- Loss of customer trust.
- Reduction of the bank's market share.
- Temporary halt to bureaucratic processes in the state system.
- Destabilization of national payment systems.

According to global estimates, a single major cyberattack on the financial system causes an average of $5–40 million in damage.

Digital risks can be divided into two main categories:

l) Internal risks - ignorance or intentional harm from employees.

2) External risks - hacking attacks, malware, attacks based on artificial intelligence.

The financial security model can be estimated using the following formula:

$$H\_x = (T\_h * E\_t) / R\_h$$

where:
H_x – overall risk level,
T_h – number of detected threats,
E_t – threat effectiveness (assessment coefficient),
R_h – available protection level.
If H_x > л, it is indicated that the system is at risk.
The following table shows the types of digital attacks and their impact on financial security:(Table 3-4.)

Table 3. Main cyberattacks on banking and public financial systems

| № | Type of attack | Description | Risk level | Common objects |
|---|---|---|---|---|
| l | **DDoS** | Server overload | High | Banking services, payment systems |
| 2 | **Phishing** | Stealing user information through a fake page | Medium–high | Customers, state portal users |
| 3 | **Malware / Ransomware** | System blocking by malware | Very high | Cash registers, electronic registers |
| 4 | **MITM** | Data retention | Medium | Onlayn to'lovlar |
| 5 | **SQl injection** | Database access | High | Bank databases |
| 6 | **Zero-day exploit** | New undetected vulnerabilities | Very high | Basic infrastructure |

Table 4. Impact of cyberattacks on economic indicators in the banking system

| **Type of consequence** | **Ta'sir ko'lami** | **Impact on continuous operation** | **Economic damage** |
|---|---|---|---|
| System failure | 2–48 hours | High | 5–12% decrease in income |
| Data theft | Medium–large | Medium | 100 thousand – 5 million USD |
| Reputatsion zarar | Wide | High | 8–20% decrease in customer flow |
| Payment system outage | Big | Very high | Damage to the national economy |

Source: Compiled by the author.

Technical protection measures will be aimed at detecting and blocking cyberattacks in real time.
Implementation of Zero Trust Architecture.
Not allowing access to the system until each user and device has been fully identified.
Multi-factor authentication (MFA)
Authentication via SMS token, biometric verification, push notification for bank customers and users of the state system.
Data encryption.
256-bit AES encryption algorithms, modernization of SSL/TLS certificates.
Monitoring based on artificial intelligence.
• Real-time analysis of transactions
• Automatic blocking of suspicious transactions
• Anomaly detection based on typical customer behavior (UEBA)
IDS/IPS systems.
Stopping large-scale attacks before they reach the server.

Based on the above information, when working in the banking sector, it is necessary to take care not only of the protection of corporate and other operational information, but also of the network settings and parameters of network activity on the computer. The issue of data protection in a bank is taken much more seriously than in other organizations. Solving this issue involves organizational, systematic measures that ensure protection.

Thus, it can be said that an important factor stimulating the development of the financial technology market is the development of the Internet and digitalization. If in the early stages of development the financial

technology market was limited to payments and accepting electronic money, today a number of other services are expanding. The prospects for digitizing the financial sector are very high. We can say for sure that in the near future, new products and tools will appear aimed at simplifying financial relations to the maximum.

## CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS:

There are a number of problems in the development of the digital economy in our country, without solving which the competitiveness of the national economy cannot be ensured, especially in the process of globalization based on ICT. For this reason, based on the results of scientific research, the following recommendations have been formulated to reduce the risk of increasing digital attacks on banking and state financial systems.

1. Improve staff skills.

70% of employees in the financial system do not have sufficient knowledge of cybersecurity - which opens the way to phishing attacks.

2. Strengthen national cybersecurity centers.

Expand the capabilities of CERT, SOC centers and cyber threat monitoring laboratories.

3. Implementation of international standards.

• ISO/IEC 2700l
• GDPR (data protection)
• NIST Cybersecurity Framework

4. Cooperation between the public and private sectors.

Creation of platforms for real-time information exchange about threats.

5. For banks:

• Expand biometric authentication systems.
• Manage fraud-detecting AI modules on a single platform.
• Conduct quarterly pentests.

For the public sector:

• Create a "Cyber Shield" - a national cyber defense system.
• Gradually introduce quantum cryptography technologies in public services.
• Establish a single backup center (Backup Data Center).

The level of sophistication of cyberattacks is increasing year by year and poses a direct threat to the stability of banking and state financial systems. The comprehensive implementation of technical, organizational and legal measures significantly reduces the risk of digital attacks. In particular, the use of artificial intelligence, the Zero Trust model, international standards and regular training ensure the stable functioning of the financial system.

It is considered important that an important condition for the development of digital technologies is, first of all, ensuring security in the digital space, forming and developing a regulatory and legal framework that protects the rights of consumers, and introducing mechanisms to combat crime in this area.

**List of used literature.**

1. Resolution of the Board of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan No. 2/4 dated January 25, 2020. Z.R. Fauziuev. "Computerization of workplaces" - educational manual Tashkent-"Uzbekistan". 2010. 70-94 p.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. RF-5992 dated May 12, 2020 "On the Strategy for Reforming the Banking System of the Republic of Uzbekistan" // National Database of Legal Documents, 13.05.2020 No. 06/20/5992/0581.
3. Yeriashvili N.D., Krivorotov V.V., Kalina A.V. Economic security of the state and regions: a textbook. Unity-Dana, 2015. – 4. Ataniyazov Z. X. "International financial security" teaching methodology 2021 edition.
4. Khodiev B. (2017), Uzbekistan: development of the "digital economy". World economy. Russian foreign economic bulletin. No. 12. p. 3-12.
5. Websites
6. www.gov.uz – Government Portal of the Republic of Uzbekistan.
7. www.lex.uz – National Database of Legislative Documents of the Republic of Uzbekistan.
8. www.mf.uz – Official website of the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan. www.cbu.uz – Official website of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan. www.stat.uz – Official website of the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan.

# 3-SHO‘ BA

# MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH KICHIK BIZNES IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH OMILI SIFATIDA

**Abduxakimov Eldor Djaloliddinovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasi assistenti
Email: abduhakimove@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini moliyalashtirish manbalari tarkibi orqali baholash masalasi o'rganilgan. Tadqiqot 2010–2024-yillar oralig'idagi rasmiy statistik ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan bo'lib, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi hamda ularning moliyalashtirish manbalari tarkibi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 14 yil davomida investitsiyalar hajmi 112 barobardan ortiq oshgan va ayniqsa 2018 yildan boshlab o'sish sur'atlari tezlashgan. Dastlabki yillarda investitsiyalar asosan korxonalarning o'z mablag'lari va bank kreditlari hisobiga moliyalashtirilgan bo'lsa, 2019-yildan boshlab chet el investitsiyalari yetakchi manbaga aylangan. 2024-yilga kelib investitsiyalarning 56,8 foizi tashqi investitsiyalar hissasiga to'g'ri kelgan. Tadqiqot natijalari moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi investitsiya faolligini oshirishga xizmat qilganini ko'rsatadi, biroq tashqi kapitalga yuqori darajada qaramlik iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan ma'lum risklarni yuzaga keltirishi mumkinligini ham asoslaydi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy barqarorlik, moliyalashtirish manbalari, investitsiyalar, kapital tuzilmasi, diversifikatsiya.

Abstract. This article examines the assessment of the economic security of small business entities through the structure of financing sources. The study is based on official statistical data for 2010–2024, analyzing the volume of investments in fixed capital made by small enterprises and microfirms, as well as the composition of their financing sources. The results show that over 14 years, the volume of investments increased more than 112 times, with growth accelerating particularly from 2018. In the initial years, investments were mainly financed through enterprises' own funds and bank loans, while since 2019, foreign investments have become the leading source. By 2024, 56.8% of investments were accounted for by external investments. The findings indicate that diversification of financing sources has contributed to increased investment activity; however, a high dependence on external capital may create certain risks from the perspective of economic security.

Key words: small business, economic security, financial stability, financing sources, investments, capital structure, diversification.

Аннотация. В данной статье рассматривается оценка экономической безопасности субъектов малого бизнеса через структуру источников финансирования. Исследование проведено на основе официальных статистических данных за 2010–2024 годы, в рамках которого проанализированы объем инвестиций в основной капитал малых предприятий и микрофирм, а также структура источников их финансирования. Результаты показали, что за 14 лет объем инвестиций увеличился более чем в 112 раз, при этом с 2018 года темпы роста значительно ускорились. В начальный период инвестиции в основном финансировались за счет собственных средств предприятий и банковских кредитов, однако с 2019 года ведущим источником стали иностранные инвестиции. К 2024 году 56,8% инвестиций приходилось на внешние источники. Полученные результаты свидетельствуют о том, что диверсификация источников финансирования способствовала росту инвестиционной активности, однако высокая зависимость от внешнего капитала может создавать определенные риски с точки зрения экономической безопасности.

Ключевые слова: малый бизнес, экономическая безопасность, финансовая устойчивость, источники финансирования, инвестиции, структура капитала, диверсификация.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.[1] Ular bandlikni ta'minlash, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, raqobat muhitini rivojlantirish hamda investitsion faollikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.[2] Shu bilan birga, kichik biznesning barqaror rivojlanishi bevosita uning moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish darajasi va moliyalashtirish manbalari tarkibiga bog'liqdir.

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi korxonalarning ichki va tashqi moliyaviy xatarlarga bardosh bera olish qobiliyati, moliyaviy barqarorlikni saqlash hamda uzluksiz rivojlanishni ta'minlash imkoniyatini anglatadi.[3] Agar investitsiyalar bir yoki ikki manbaga haddan tashqari bog'liq bo'lsa, bu korxonalarning moliyaviy xavf darajasini oshirishi mumkin. Aksincha, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi risklarni taqsimlash va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.[4]

2010–2024-yillar davomida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida keskin o'sish kuzatilgan. Ushbu davrda investitsiyalar hajmi 2 069,4 mlrd so'mdan 231 829,5 mlrd so'mgacha oshgan. Ayniqsa 2018 yildan boshlab investitsion faollikning yangi bosqichi shakllangan. Bunda moliyalashtirish manbalari tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar yuz bergan: dastlabki yillarda ichki moliyalashtirish ustuvor bo'lgan bo'lsa, 2019-yildan boshlab tashqi investitsiyalar yetakchi manbaga aylangan. Mazkur o'zgarishlar kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligi va moliyaviy barqarorligi masalasini dolzarb qilib qo'yadi. Shuning uchun ushbu tadqiqotning maqsadi 2010–2024-yillar ma'lumotlari asosida kichik biznes investitsiyalarining moliyalashtirish manbalari tarkibini tahlil qilish va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirini baholashdan iboratdir. Tadqiqot natijalari moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi investitsion faollikni oshirishga xizmat qilganini ko'rsatadi, biroq tashqi kapitalga yuqori darajada qaramlik uzoq muddatli barqarorlik nuqtai nazaridan ehtiyotkor yondashuvni talab etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim omil sifatida ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, moliyaviy resurslar manbalarining turli-tumanligi korxonalarning tashqi shoklarga nisbatan barqarorligini oshirishi, likvidlik xavflarini kamaytirishi va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Stewart C. Myers moliyalashtirish strukturasini tanlash nazariyasini ishlab chiqib, korxonalar o'z faoliyatini moliyalashtirishda ichki va tashqi manbalar o'rtasida optimal muvozanatni saqlashi zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi kapital qiymatini minimallashtirish va moliyaviy xavflarni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Eugene F. Fama va Kenneth R. French esa kapital tuzilmasi va moliyaviy qarorlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, moliyalashtirish manbalarining turlicha bo'lishi korxonalarning bozor qiymatini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Aswath Damodaran korporativ moliya nazariyasida kapital manbalarini diversifikatsiya qilishni risklarni taqsimlashning samarali mexanizmi sifatida baholaydi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, kreditlar, aksiyadorlik kapitali va boshqa moliyalashtirish shakllarini kombinatsiyalash korxonalarga moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Franklin Allen va Douglas Gale moliyaviy tizimlar tuzilmasini tahlil qilib, bank tizimi va kapital bozorlari o'rtasidagi muvozanatli rivojlanish kichik biznes subyektlari uchun kengroq moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratishini asoslaydi.

Kichik biznesni moliyalashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan ilmiy tadqiqotlarda Thorsten Beck, Asli Demirgüç-Kunt va Vojislav Maksimovic tomonidan olib borilgan izlanishlar muhim ahamiyatga ega. Ular kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy cheklovlarga duch kelishini tahlil qilib, moliyalashtirish manbalarini kengaytirish ushbu cheklovlarni yumshatishda asosiy omil ekanligini ko'rsatadi. Ushbu olimlar 2005-yilda olib borgan empirik tadqiqotlarda bank kreditlari bilan bir qatorda muqobil moliyalashtirish vositalaridan foydalanish korxonalar o'sishini tezlashtirishini aniqlagan.

Ross Levine moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, rivojlangan moliyaviy infratuzilma va diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish manbalari tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Uning 2005-yildagi ishlari moliyaviy tizimning rivojlanganligi kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda muhim omil ekanligini ilmiy asoslaydi.

---

1 OECD. (2022). *Financing SMEs and entrepreneurs 2022: An OECD scoreboard*. OECD Publishing.
2 World Bank. (2023). *Small and medium enterprises (SMEs) finance*. World Bank Group.
3 Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (2005). Financial and legal constraints to growth: Does firm size matter? *The Journal of Finance, 60*(1), 137–177.
4 Myers, S. C. (1984). The capital structure puzzle. *The Journal of Finance, 39*(3), 575–592.

Shuningdek, OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish innovatsion rivojlanish, eksport salohiyatini oshirish va iqtisodiy xavflarni kamaytirishda muhim vosita sifatida baholanadi. OECD hisobotlarida bank kreditlari, venchur kapital, kraudfanding va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini birgalikda qo'llash kichik biznesning moliyaviy barqarorligini oshirishi ta'kidlangan.

Mahalliy tadqiqotlarda ham kichik biznesni moliyalashtirish masalalari dolzarb yo'nalish sifatida o'rganilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh. Shodmonov va U. G'ofurov kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini tahlil qilib, moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi tadbirkorlik faoliyatining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. Ularning fikricha, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish orqali kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mumkin.

Bundan tashqari, N. To'xliyev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznesni rivojlantirishda investitsiya resurslarining turli manbalardan jalb qilinishi zarurligi asoslab berilgan. U moliyalashtirish manbalarini kengaytirish orqali korxonalar faoliyatining uzluksizligini ta'minlash va risklarni kamaytirish mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asoslangan tahlillar ham kichik biznesni moliyalashtirishda bank kreditlari bilan bir qatorda xorijiy investitsiyalar va muqobil moliyaviy instrumentlarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Turli moliyalashtirish manbalarining uyg'un kombinatsiyasi korxonalarni moliyaviy risklardan himoya qilish, investitsion faoliyatni faollashtirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim omil hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda rasmiy statistika ma'lumotlari, Markaziy bank va xalqaro tashkilotlar hisobotlari, shuningdek, kichik biznes subyektlari bo'yicha empirik ma'lumotlar yig'ildi. Olingan ma'lumotlar dinamik, taqqoslama va regressiya tahlili usullari orqali qayta ishlanib, moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasining iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlariga ta'siri baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini moliyalashtirish manbalari tarkibi orqali baholashga qaratilgan. Tahlil 2010–2024-yillar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda iqtisodiy xavfsizlik moliyaviy barqarorlik va investitsiya faolligi orqali baholandi. Tadqiqotda 2010–2024-yillar oralig'ida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hamda ularning moliyalashtirish manbalari tarkibi o'rganildi (1-jadval).

1-jadval. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalari[5]

mlrd. so'm

| Yillar | Asosiy kapitalga investitsiyalar | shu jumladan quyidagilar hisobiga: | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | korxonaning o'z mablag'lari | chet el investorlari mablag'lari, ularning reinvestitsiyalarini qo'shgan holda | chet el kreditlari | banklar kreditlari | boshqalar |
| 2010 | 2069,4 | 1049,9 | 348,7 | 83,0 | 455,9 | 131,9 |
| 2011 | 2470,7 | 1082,0 | 423,6 | 76,6 | 735,5 | 153,0 |
| 2012 | 3620,0 | 1501,7 | 774,2 | 5,9 | 1176,0 | 162,2 |
| 2013 | 4052,2 | 2264,0 | 310,9 | 1,3 | 1236,1 | 239,9 |
| 2014 | 5702,6 | 2942,7 | 564,5 | 27,6 | 1786,2 | 381,6 |

5 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2010–2024.

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2015 | 6523,4 | 3624,7 | 329,8 | 509,9 | 1712,0 | 347,0 |
| 2016 | 8442,4 | 4702,7 | 862,4 | 185,1 | 2159,1 | 533,1 |
| 2017 | 14076,7 | 7358,5 | 886,3 | 497,2 | 4699,2 | 635,5 |
| 2018 | 33111,9 | 14130,5 | 3940,8 | 1657,8 | 12369,3 | 1013,5 |
| 2019 | 70650,2 | 14080,4 | 33641,8 | 10680,2 | 11144,1 | 1103,7 |
| 2020 | 77487,9 | 28572,6 | 19582,8 | 18427,3 | 10411,4 | 493,8 |
| 2021 | 85221,1 | 26130,8 | 26888,0 | 19873,8 | 11700,3 | 628,2 |
| 2022 | 99981,0 | 28011,8 | 31791,6 | 25689,6 | 12401,0 | 2087,0 |
| 2023 | 145842,8 | 35206,3 | 71935,3 | 29662,4 | 7718,6 | 1320,2 |
| 2024 | 231829,5 | 33198,5 | 131732,8 | 56529,1 | 8286,1 | 2083,0 |

2010–2024-yillar oralig'ida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshgan.

- 2010-yilda – 2 069,4 mlrd so'm
- 2024-yilda – 231 829,5 mlrd so'm

Ya'ni 14 yil ichida investitsiyalar hajmi 112 barobardan ortiq oshgan. Bu kichik biznes sektorida kapital qo'yilmalar va iqtisodiy faollikning keskin kengayganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, 2018-yildan boshlab o'sish sur'atlari tezlashgan:

- 2018-yilda – 33 111,9 mlrd so'm
- 2019-yilda – 70 650,2 mlrd so'm
- 2024-yilda – 231 829,5 mlrd so'm

Bu davrda investitsion faollik sifat jihatdan yangi bosqichga o'tganini ko'rsatadi.

Moliyalashtirish manbalari tarkibi bo'yicha tahlil

Korxonaning o'z mablag'lari

2010-yilda o'z mablag'lari 1 049,9 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 33 198,5 mlrd so'mga yetgan.

Dastlabki yillarda o'z mablag'lari asosiy moliyalashtirish manbasi bo'lgan. Masalan, 2010-yilda umumiy investitsiyaning qariyb 50%dan ortig'i o'z mablag'lari hisobiga moliyalashtirilgan. Ammo 2019-yildan boshlab uning ulushi nisbatan kamaygan, chunki tashqi investitsiyalar keskin oshgan.

Chet el investorlari mablag'lari

Eng keskin o'sish aynan ushbu manbada kuzatiladi.

2010-yilda – 348,7 mlrd so'm

2018-yilda – 3 940,8 mlrd so'm

2019-yilda – 33 641,8 mlrd so'm

2024-yilda – 131 732,8 mlrd so'm

2019-yildan boshlab chet el investitsiyalari asosiy kapital qo'yilmalarining yetakchi manbasiga aylangan.

2024-yilda umumiy investitsiyaning yarmidan ko'pi aynan chet el investorlari mablag'lari hisobiga shakllangan. Bu kichik biznesning tashqi kapitalga integratsiyalashuvi kuchayganini ko'rsatadi.


Chet el kreditlari 2010–2014-yillarda juda past bo'lgan. Biroq 2019-yildan boshlab ularning hajmi keskin oshgan:

2019-yilda – 10 680,2 mlrd so'm

2024-yilda – 56 529,1 mlrd so'm

Bu kichik biznesning xalqaro moliya bozorlari bilan aloqasi kengayganini anglatadi.

Bank kreditlari 2010–2017-yillarda barqaror o'sib borgan. 2018-yilda sezilarli sakrash kuzatilgan (12 369,3 mlrd so'm). Biroq 2022–2024-yillarda bank kreditlarining ulushi nisbatan kamaygan. Bu ichki bank kreditlariga nisbatan tashqi investitsiyalar ustunlashganini ko'rsatadi (1-rasm).




1- rasm. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalari ulushi (foizda)[6]

Mazkur grafik 2010–2024-yillar davomida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha ulushini (foizda) aks ettiradi.

2010–2024-yillar davomida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari tarkibida sezilarli strukturaviy o'zgarishlar kuzatilgan. Grafik ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2010–2018-yillar oralig'ida investitsiyalarning asosiy qismi korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan shakllangan. Masalan, 2010-yilda o'z mablag'lari ulushi 50,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013–2016-yillarda bu ko'rsatkich 55–56 foiz darajasigacha ko'tarilgan. Bu davrda kichik biznes subyektlari asosan ichki moliyaviy resurslarga tayangan holda faoliyat yuritganini ko'rish mumkin. Bank kreditlari esa o'rtacha 22–32 foiz oralig'ida bo'lib, muhim, ammo yetakchi bo'lmagan moliyalashtirish manbasi sifatida namoyon bo'lgan. Chet el investitsiyalarining ulushi esa nisbatan past darajada saqlanib, 16–21 foiz atrofida bo'lgan.

Biroq 2019-yildan boshlab moliyalashtirish tarkibida keskin burilish yuz bergan. Aynan shu yilda chet el investorlari mablag'lari ulushi 47,6 foizga yetib, o'z mablag'lari ulushi 19,9 foizgacha pasaygan. Bu kichik biznes investitsiyalarining ichki manbalardan tashqi kapital tomon yo'nalganini anglatadi. 2020–2024-yillarda ushbu tendensiya yanada mustahkamlangan. Xususan, 2023-yilda chet el investitsiyalari ulushi 49,3 foizni, 2024-yilda esa 56,8 foizni tashkil etgan. Natijada 2024-yilga kelib investitsiyalarning yarmidan ko'pi tashqi investitsiyalar hisobiga moliyalashtirilgan. Shu bilan birga, o'z mablag'lari ulushi 14,3 foizgacha kamaygan, bu esa ichki moliyaviy mustaqillik darajasi pasayganini ko'rsatadi.

Chet el kreditlari ulushi ham 2010–2014-yillarda juda past darajada bo'lgan bo'lsa-da, 2020-yildan boshlab sezilarli o'sish kuzatilgan va ayrim yillarda 23–25 foiz darajasiga yetgan. Bank kreditlari esa aksincha, dastlabki yillarda nisbatan yuqori bo'lgan bo'lsa, 2019-yildan keyin keskin qisqargan va 2024-yilga kelib atigi 3,6 foizni tashkil etgan. Bu ichki bank moliyalashtirishining nisbatan kamayib, tashqi moliyaviy oqimlarning ustunlashganini anglatadi. "Boshqa manbalar" ulushi butun davr mobaynida past darajada saqlanib, investitsiya tarkibida hal qiluvchi rol o'ynamagan.

Umuman olganda, 2010–2024-yillar dinamikasi kichik biznes investitsiyalarining moliyalashtirish tarkibi bir manbali tizimdan ko'p manbali tizimga o'tganini ko'rsatadi. Diversifikatsiya darajasi oshgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda tashqi kapitalga yuqori darajada qaramlik shakllangan. Bu holat iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan ikki tomonlama baholanadi: bir tomondan, kapital oqimlarining kengayishi investitsion faollikni rag'batlantiradi; ikkinchi tomondan esa, tashqi moliyalashtirishga haddan tashqari bog'liqlik makroiqtisodiy xavf omillarini kuchaytirishi mumkin. Shunday qilib, moliyalashtirish tarkibidagi o'zgarishlar kichik biznesning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

2010–2024-yillar dinamikasi shuni ko'rsatadiki:


- Dastlabki davrda investitsiyalar asosan ichki manbalar hisobidan moliyalashtirilgan.
- 2019-yildan boshlab moliyalashtirish tarkibida keskin burilish yuz bergan.

6 Муаллиф томонидан тузилди

• So'nggi yillarda chet el investitsiyalari yetakchi manbaga aylangan.
• Bank kreditlarining ulushi sezilarli darajada kamaygan.
• Moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi oshgan bo'lsa-da, tashqi kapitalga qaramlik ham kuchaygan.

Mazkur tendensiyalar kichik biznes iqtisodiy xavfsizligi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega bo'lib, moliyalashtirish tarkibidagi o'zgarishlar barqarorlik va risk darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Tahlilni ikki bosqichga ajratish mumkin:




2- rasm. Tahlilning ikki bosqichi[7]

2010–2024-yillar tahlili shuni ko'rsatadiki:
– Kichik biznes investitsion faolligi keskin oshgan.
– Moliyalashtirish tarkibi bir manbali tizimdan ko'p manbali tizimga o'tgan.
– 2019-yildan boshlab tashqi investitsiyalar ustunlik qila boshlagan.
– Diversifikatsiya darajasi oshgani sari investitsiya hajmi ham sezilarli kengaygan.

Bu esa moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi kichik biznes iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

2010–2024-yillar davomida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va ularning moliyalashtirish manbalari tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Tahlil natijalariga ko'ra, mazkur davrda investitsiyalar umumiy hajmi keskin oshgan bo'lib, ayniqsa, 2018-yildan boshlab yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan. Bu kichik biznes sektorida kapital qo'yilmalar faollashganini va iqtisodiy jarayonlarning kengayganini ko'rsatadi.

Moliyalashtirish manbalari tarkibi dinamikasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2010–2018-yillarda investitsiyalarning asosiy qismi korxonalarning o'z mablag'lari hisobiga moliyalashtirilgan. Ushbu davrda o'z mablag'lari ulushi o'rtacha 50–56 foiz oralig'ida shakllangan. Bank kreditlari esa ikkinchi darajali manba sifatida 22–32 foiz atrofida bo'lgan. Chet el investitsiyalari va chet el kreditlarining ulushi nisbatan past darajada saqlangan.

Biroq 2019-yildan boshlab investitsiya tarkibida tub burilish yuz berdi. Chet el investorlari mablag'lari ulushi keskin oshib, ayrim yillarda 50 foizdan yuqori ko'rsatkichlarga yetdi. 2024-yilga kelib investitsiyalarning 56,8 foizi aynan chet el investitsiyalari hisobiga shakllangan. Shu bilan birga, o'z mablag'lari ulushi 14,3 foizgacha kamaygan, bank kreditlari esa 3,6 foiz darajasigacha qisqargan. Chet el kreditlari ulushi ham 2020-yildan keyin sezilarli darajada oshgan.

Mazkur natijalar kichik biznes investitsiyalarining moliyalashtirish tarkibi ichki manbalardan tashqi kapital tomon siljiganini ko'rsatadi.

Olingan natijalar moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi kichik biznesning iqtisodiy faolligi va investitsiya hajmi bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi. Dastlabki yillarda ichki moliyaviy resurslarga tayangan

7 Муаллиф томонидан тузилди

holda rivojlanish kuzatilgan bo‘lsa, keyingi bosqichda tashqi kapital oqimlarining faollashuvi investitsiya hajmining keskin oshishiga xizmat qilgan.

Biroq bu jarayon ikki tomonlama baholanishi lozim. Bir tomondan, chet el investitsiyalari va kreditlarining ortishi kapital qo‘yilmalar hajmini sezilarli kengaytirgan hamda kichik biznesning xalqaro moliyaviy tizimga integratsiyalashuvini kuchaytirgan. Bu esa texnologik yangilanish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini yaratadi.

Ikkinchi tomondan, tashqi kapital ulushining keskin ortishi iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan ma'lum risklarni yuzaga keltiradi. Tashqi moliyalashtirishga yuqori darajada qaramlik valyuta risklari, tashqi bozor konyunkturasi va global moliyaviy beqarorlik omillariga sezuvchanlikni oshiradi. Shu sababli moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi faqat ko‘p manbali tizim shakllanishi bilangina emas, balki ichki va tashqi manbalar o‘rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlash bilan baholanishi zarur.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari moliyalashtirish tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlar kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Diversifikatsiya darajasi oshishi investitsiya faolligini rag‘batlantirgan bo‘lsa-da, barqaror rivojlanish uchun moliyalashtirish manbalari o‘rtasida muvozanatli nisbatni saqlash muhim strategik omil hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

2010–2024-yillar davomida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi keskin oshgani kuzatildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 14 yil ichida investitsiyalar hajmi 112 barobardan ortiq o‘sib, kichik biznes sektorida investitsion faollikning yangi bosqichi shakllangan. Ayniqsa, 2018-yildan boshlab kapital qo‘yilmalar hajmining tez sur'atlarda kengayishi moliyalashtirish tizimidagi sifat o‘zgarishlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Moliyalashtirish manbalari tarkibining dinamik tahlili shuni ko‘rsatdiki, dastlabki davrda investitsiyalar asosan korxonalarning o‘z mablag‘lari va bank kreditlari hisobiga shakllangan. Biroq 2019-yildan boshlab investitsiya manbalari tarkibida tub burilish yuz berib, chet el investorlari mablag‘lari yetakchi o‘rinni egallagan. 2024-yilga kelib investitsiyalarning 56,8 foizi tashqi investitsiyalar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu kichik biznesning moliyalashtirish tizimi bir manbali modeldan ko‘p manbali va diversifikatsiyalashgan modelga o‘tganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi investitsiya faolligini oshirish va iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishga xizmat qilganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tashqi kapital ulushining keskin ortishi iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan ma'lum tavakkalchiliklarni ham yuzaga keltiradi. Xususan, valyuta risklari, tashqi moliyaviy sharoitlarga bog‘liqlik va global bozor beqarorligi kichik biznesning uzoq muddatli barqarorligiga ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bois kichik biznes iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda moliyalashtirish manbalari o‘rtasida muvozanatli nisbatni shakllantirish, ichki moliyaviy resurslarni mustahkamlash hamda tashqi kapitaldan oqilona foydalanish strategik ahamiyat kasb etadi. Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi barqaror rivojlanishning muhim omili bo‘lib, u investitsion faollikni rag‘batlantirish bilan birga, risklarni boshqarish mexanizmlari bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (2005). Financial and legal constraints to growth: Does firm size matter? The Journal of Finance, 60(1), 137–177.
2. Myers, S. C. (1984). The capital structure puzzle. The Journal of Finance, 39(3), 575–592.
3. OECD. (2022). Financing SMEs and entrepreneurs 2022: An OECD scoreboard. OECD Publishing.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2010–2024).
5. World Bank. (2023). Small and medium enterprises (SMEs) finance. World Bank Group.
6. Myers S.C. Corporate Financing and Investment Decisions. – Journal of Financial Economics, 1977.
7. Fama E.F., French K.R. The Cross-Section of Expected Stock Returns. – Journal of Finance, 1992.
8. Damodaran A. Corporate Finance: Theory and Practice. – Wiley, 2010.
9. Allen F., Gale D. Comparing Financial Systems. – MIT Press, 2000.
10. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Maksimovic V. Financial and Legal Constraints to Growth. – Journal of Finance, 2005.

# TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY MASALALARI

**Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasi,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Email: ya.aliyev@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakat YAIMni shakllantirishda muhim o'rin tutayotgan tadbirkorlik va kichik biznes korxonalarini tashqi hamda ichki tahdidlardan himoya qilish orqali iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, bozor konyunkturasi, qo'shilgan qiymat, soyadagi iqtisodiyot, real daromad, xakerlik hujumlari.

Abstract. This article highlights the scientific issues of ensuring the economic security of entrepreneurship and small business enterprises, which play an important role in the formation of the country's GDP, by protecting them from external and internal threats.

Key words: entrepreneurship, small business, market conjuncture, value added, shadow economy, real income, cyberattacks.

Аннотация. В данной статье освещаются научные вопросы обеспечения экономической безопасности предпринимательства и предприятий малого бизнеса, играющих важную роль в формировании ВВП страны, путем их защиты от внешних и внутренних угроз.

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес, рыночная конъюнктура, добавленная стоимость, теневая экономика, реальные доходы, хакерские атаки.

## KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tadbirkorlik va kichik biznesni o'rni beqiyos hisoblanadi. Sababi, tadbirkorlik oldindan mas'uliyatni bo'yinga olgan holda mustaqil qaror qabul qilish, yangi mahsulot, yangi texnologiya yoki yangi bozor o'zlashtirish hamda shaxsiy tashabbuskorlik ko'rsatish jarayonlarini amalga oshiruvchi subyekt hisoblanadi. Kichik biznes esa ko'pincha tadbirkorlikning tashkiliy shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bunda bozor konyunkturasi o'zgarishiga juda tez moslasha oladigan, ishchilar soni, aktivlar hajmi va tovar aylanmasi bo'yicha qonunchilikda belgilangan me'yorlarga ega hamda mahalliy bozor ehtiyojlarini qondirishga va mijoz bilan yaqin aloqa o'rnatishga xizmat qiladigan subyektdir. Ammo har qanday yangi g'oyaga asoslangan tadbirkorlik faoliyati dastlab kichik biznes shaklida boshlanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik va kichik biznes nazariyasi asrlar davomida shakllanib kelgan bo'lib, g'arb iqtisodiy maktablarida bu soha nafaqat foyda olish, balki iqtisodiy dinamikaning harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etiladi. Masalan, Yo'zef Shumpeter o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" asarida "Tadbirkorlik - bu tizimga yangilik kirituvchi shaxs bo'lib, ishlab chiqarish omillarini shunday birlashtiradiki, natijada iqtisodiyotda sifat va hajm jihatidan o'sish yuz beradi" deb ta'riflaydi[1].

1 Yo'zef Shumpeter - "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" (1911 yil)

Amerika olimi Frenk Nayt esa "Tavakkalchilik, noaniqlik va foyda" asarida "Tadbirkorlikning psixologik va iqtisodiy xavf-xatar bilan bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab, sug'ur talab bo'lmaydigan noaniqlikni o'z zimmasiga olganlik uchun mukofotdir" deb izohlaydi[2].

Angliyalik olim Israel Kirsner o'zining "Raqobat va tadbirkorlik" asarida "Tadbirkor bu bozordagi nomuvozanatlikni birinchi bo'lib sezuvchi, tovarlarni arzon joydan sotib olib, qimmat joyda sotish imkoniyatini harakatga keltiruvchi kuch" sifatida izohlaydi[3].

Devid Byorch "Ish o'rinlarini yaratish jarayoni" ilmiy asar xulosalarida AQSH iqtisodiyotini o'rganib, kichik biznes tomonidan yangi ish o'rinlarining asosiy qismi (80% dan ortig'i) yaratilishi, eng asosiysi iqtisodiyotning moslanuvchanligi va bandlikni ta'minlovchi eng asosiy bo'g'ini ekanligini asoslaydi[4].

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishining eng muhim omillaridan biri ularni iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari hisoblanadi. Ushbu iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari bo'yicha xorijlik olimlar bilan bir qatorda respublikamiz iqtisodchi olimlarining ilmiy asarlarida ham talqin qilingan. Jumladan, H.Abulqosimov o'zing "Iqtisodiy xavfsizlik" o'quv qo'llanmasida "Mamlakatimizda kichik biznesni iqtisodiy xavfsizligi milliy iqtisodiyotning turli ichki va tashqi iqtisodiy tahdidlarga bardoshliligini oshirishga bevosita bog'liq ekanligini" izohlaydi[5].

Ya.E.Aliyev, A.A.Mamatov, M.A.Mamatovlar tomonidan yozilgan "Iqtisodiy xavfsizlik" o'quv qo'llanmasida esa " Tadbirkorlikda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun korxona ichida moliyaviy monitoringni kuchaytirish, kichik biznes subyektlarida "resurs tejamkorligi" va "tezkor boshqaruv" xavfsizlikning asosi bo'lishi kerak" deb ta'kidlashadi[6].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy tahlil, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy maqola natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular respublikamizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik va kichik biznes korxonalarida iqtisodiy xavfsizligini oshirish va mamlakatimiz makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan kichik biznes sohasida maqsadli strategiyalarni shakllantirishga o'z hissasini qo'shish imkonini beradi.

Amaliy jihatdan esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mezonlari bo'yicha fikrlar ishlab chiqilganligi, ushbu sohani rivojlantirishni ta'minlash borasida hamda tarmoq OTMlaridagi tegishli fan yo'nalishi bo'yicha ta'lim jarayonida qisman foydalanishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish bosqichma-bosqich erkin bozor tamoyillari asosida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda tadbirkorlik va kichik biznes bosqichning eng muhim jihatlarini shakllantirish va uning huquqiy himoyasi davlat tomonidan kafolatlanganligidir. Buning natijasida, mamlakat iqtisodiyotini shakllantirishda kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy sohalar bo'yicha rivojlanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1- jadval. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan sohalar kesimidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni (ming birlikda, fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)[7]

| Sohalar | 2015-yil | 2018-yil | 2021-yil | 2024-yil (yanvar) |
|---|---|---|---|---|
| Savdo | 58,1 | 71,2 | 165,3 | 158,4 |
| Sanoat | 43,4 | 51,5 | 89,8 | 66,7 |
| Qurilish | 22,5 | 29,4 | 44,8 | 33,6 |
| Qishloq xo'jaligi | 18,3 | 24,1 | 42,9 | 36,4 |
| Xizmat ko'rsatish va boshqalar | 63,8 | 86,7 | 116,4 | 127,0 |
| JAMI: | 206,1 | 262,9 | 459,2 | 422,1 |

2 Frenk Nayt - "Tavakkalchilik, noaniqlik va foyda" (1921)
3 Israel Kirsner - "Raqobat va tadbirkorlik" (1973)
4 Devid Byorch - "Ish o'rinlarini yaratish jarayoni" (1979)
5 H.Abdulqosimov - "Iqtisodiy xavfsizlik" (2006)
6 Ya.E.Aliyev, A.A.Mamatov, M.A.Mamatov – "Iqtisodiy xavfsizlik" (2021)
7 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida.

1-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2024-yil yanvar oyida respublikamizda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 422,1 mingtani tashkil etgan bo'lib, savdo sohasiga 37,5 foizi, sanoat sohasiga 15,8 foizi, qurilish sohasiga 8,0 foizni, qishloq xo'jaligi sohasiga 8,6 foizi, xizmat ko'rsatish va boshqalar 30,0 foizi to'g'ri kelganligini ko'rishimiz mumkin. Eng yuqori ulush savdo sohasiga to'g'ri kelmoqda. Ayniqsa 2018-2021-yillardagi keskin o'sish keskin o'sish (71,2 dan 165,3 gacha) onlayn savdo va kichik chakana do'konlarning legallashuvi bilan bog'liqdir.

Mamlakatimizda 2015-2024 yillarda kichik biznes subyektlarining tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashuvi holati tahlilini amalga oshiradigan bo'lsak, tarmoqlar tuzilmasida sezilarli darajada strukturaviy o'zgarishlar kuzatiladi (2-jadval).

2- jadval. Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik subyektlarini ixtisososlashuv holati[8]

| Tarmoqlar | 2015-y. | 2018-y. | 2021-y. | 2024-y. (prognoz/fakt) |
|---|---|---|---|---|
| Savdo | 28.5% | 31.2% | 38.6% | 40.2% |
| Sanoat | 24.1% | 21.5% | 19.4% | 17.5% |
| Qishloq xo'jaligi | 12.3% | 13.8% | 15.2% | 14.8% |
| Qurilish | 10.4% | 10.9% | 9.1% | 8.4% |
| Xizmat ko'rsatish va boshqalar | 24.7% | 22.6% | 17.7% | 19.1% |

Eng yuqori tadbirkorlik subyektlarini tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashuvi savdo 40,2% ni tashkil etgan holda yillar davomida barqaror o'sib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bunday holatdan xulosa qilishimiz mumkinki, aholimizni salmog'li hissasi savdo sohasida o'zlari uchun zarur bo'lgan qo'shilgan qiymatni yaratmoqdalar.

O'zbekiston Respublikada 2015-2024 tanlanma yillar oralig'ida YAIM tarkibida kichik biznes va tadbirkorlikni ulushini tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

3- jadval. 2015-2024-yillarda YAIM tarkibida kichik biznesni ulushi[9]

| Ko'rsatkichlar | 2015-y. | 2018-y. | 2021-y. | 2024-y. |
|---|---|---|---|---|
| YAIMdagi ulushi (%) | 50.6 | 59.4 | 54.9 | 52.5 |
| Sanoatdagi ulushi (%) | 34.7 | 37.4 | 27.0 | 25.8 |
| Qurilishdagi ulushi (%) | 66.7 | 73.2 | 72.4 | 71.0 |
| Bandlikdagi ulushi (%) | 77.9 | 76.3 | 74.5 | 74.0 |

3-jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda tahlil qiladigan bo'lsak, 2015-2024-yillar oralig'ida YAIM tarkibida kichik biznesni sanoat, qurilish va bandlikdagi ulushi nobarqaror bo'lib, bunday holatga COVID-19 pandemiyasi o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu davrida turli chyeklovlar tufayli xomashyo va mahsulotlarni yetkazib berish vaqti cho'zildi va narxlar ko'tarildi. Bu esa o'z navbatida daromadning keskin kamayishiga sabab bo'ldi. Lekin, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekistonda aholi daromadlarini shakllantiruvchi eng muhim drayver hisoblanadi. Bu soha nafaqat ish haqi, balki tadbirkorlikdan olingan daromadlar orqali aholi farovonligini ta'minlaydi (4-jadval).

4- jadval. Tadbirkorlik va kichik biznesni aholi daromadlaridagi o'rni[10]

| Ko'rsatkichlar | 2015-yil | 2018-yil | 2021-yil | 2024-yil |
|---|---|---|---|---|
| Aholi umumiy daromadlarida tadbirkorlik ulushi (%) | 52,1% | 54,3% | 52,8% | 46,2% |
| Kichik biznesda band bo'lganlar soni (ming kishi) | 10 230 | 10 380 | 10 200 | 10 500+ |
| Kichik biznesning YAIMdagi ulushi (%) | 56,7% | 59,4% | 54,9% | 53,0% |
| Mehnat faoliyatidan olingan daromadlardagi ulushi (%) | 68,0% | 69,5% | 65,2% | 62,5% |

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida.
9 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida.
10 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda aholi ixtiyoridagi jami daromadlarning yarmidan ko'pi tadbirkorlik faoliyatidan shakllanadi.

Kichik biznes jami band bo'lgan aholining taxminan 74-76 foizini ish bilan ta'minlaydi. Demak, mamlakatdagi har 4 ta oiladan 3 tasining daromadi bevosita yoki bilvosita kichik biznesga bog'liq. Xulosa qilib aytganda, 2018-2021-yillarda "soyadagi iqtisodiyot"ni kamaytirish bo'yicha islohotlar natijasida tadbirkorlarning daromadlarini rasmiylashtirish darajasi oshdi. Bu esa statistik ma'lumotlarda aholi daromadlarining barqaror o'sishi sifatida aks etmoqda.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan jami daromadlar - bu kichik biznes va tadbirkorlik rivojining eng asosiy indikatori hisoblanadi. 2015-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida ushbu ko'rsatkichlar holatini tahlil qiladigan bo'lsak, unda ham nominal (pul ifodasidagi), ham real o'sish sur'atlari aks etgan (5-jadval).

5-jadval. O'zbekistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan jami daromadlar dinamikasi to'g'risida ma'lumot[11]

| Yillar | Daromad miqdori (ming so'mda) | Nominal o'sish sur'ati (o'tgan yilga nisbatan, %) |
|---|---|---|
| 2015 yil | 3 954,4 | 115,8% |
| 2018 yil | 7 132,3 | 125,7% |
| 2021 yil | 12 739,7 | 115,1% |
| 2024 yil | 20 021,5 | 115,0% |

Yuqoridagi jadvalda daromadlarning nominal (raqamdagi) qiymati berilgan. Agar inflyatsiya darajasini inobatga olsak, real daromadlarning o'sishi yiliga o'rtacha 5% dan 11% gacha bo'lgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarning taxminan 45-50 foizi bevosita tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar hissasiga to'g'ri keladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdaga quyidagi muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan:

- biznes jarayonlarini raqamlashtirish natijasida tadbirkorlik korxonalariga xakerlik hujumlari, fishing va bank hisob raqamlaridan mablag'larning o'g'irlanish holatlari yuzaga kelmoqda;
- malakali mutaxassislarni tanqisligi sababli, korxona va mijozlar bazasini raqobatchilarga sotilishi korxona barqarorligiga katta zarba bermoqda;
- tijorat banklari tomonidan qo'yiladigan yuqori foiz stavkalari va garov ta'minoti bo'yicha qattiy talablar kichik biznesni moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatmoqda;
- hamkorlar o'z majburiyatlarini belgilangan vaqtda to'lovlarni kechiktirishi natijasida mablag'larning muzlab qolishi kichik biznesni likvidlik inqiroziga sabab bo'lmoqda;
- inflyatsiya va energiya resurslari (elektr, gaz) narxining tebranishlari sharoitida "moliyaviy yostiqcha"larni yetarli darajada emasligi mahsulot tannarxining oshishiga va raqobatbardoshlik darajasini pasayishiga olib kelmoqda;
- tadbirkorlarda yuridik bilimlarni yetishmasligi sababli, murakkab nizoli vaziyatlarda esa malakali advokat yoki yurist xizmatidan foydalanish imkoniyati cheklanmoqda;

yirik ishlab chiqaruvchilar tomonidan narxlarni sun'iy tushirish (demping) yoki ma'muriy resurslardan foydalangan holda kichik biznesni bozordan siqib chiqarish holatlarini hozirgi kungacha mavjudligi va boshqalar.

Yuqorida ko'rsatilgan muammolardan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- kichik biznes xavfsizligi faqatgina resurslarni asrash emas, balki korxonadagi moliyaviy o'zgarishlarni sezish, imkoniyatlarni aniqlash, mavjud aktivlarni qayta tizimlashtirish talab etiladi;
- tadbirkorlik va kichik biznes korxonalarida xavfsizlikni ta'minlash tizimi shunday qurilishi kerakki, korxona inqirozli zarbadan so'ng nafaqat avvalgi holatiga qaytishi, balki yangi, yuqoriroq sifat bosqichiga chiqish imkoniyatini yuzaga keltirishi lozim;
- iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish uchun korxona ichidagi va tashqi sheriklar bilan bo'ladigan axborot almashinuvida ishonchli kontragentlar tarmog'ini yaratish xavfsizlik xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi;
- kichik biznesning asosiy xavfsizlik drayveri uning intellektual mulki va nou-xaular bo'lib, noyob g'oya va mijozlarga xizmat ko'rsatishning o'ziga xos algoritmi korxonani raqobatchilarning agressiv hujumlaridan himoya qiladi;

11 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida.

- tadbirkorlik subyektining xavfsizligi uning qaysi platformalar (bank, logistika, marketpleys) bilan integratsiyalashganiga bog'liq bo'lib, "Raqamli gigiyena" va ma'lumotlar suverenligi kichik biznes uchun milliy va xalqaro darajadagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bugungi kunda tadbirkorlikda iqtisodiy xavfsizlik eskirgan ma'muriy nazorat usullaridan voz kechib, intellektual va raqamli nazorat tizimlariga o'tish kichik biznes yashovchanligining yagona yo'lidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Йозеф Шумпетер. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982.
2. Фрэнк Найт. Риск, неопределённость и прибыль. – М.: Дело, 2003.
3. Исраэль Кирцнер. Конкуренция и предпринимательство. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001.
4. Дэвид Бёрч. Процесс создания рабочих мест. – Кембридж: MIT Press, 1979.
5. Ҳ. Абдулқосимов. Иқтисодий хавфсизлик. – Т.: 2006.
6. Я.Э. Алиев, А.А. Маматов, М.А. Маматов. Иқтисодий хавфсизлик. – Т.: 2021.

# MAHALLIY GILAM ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIY XAVFSIZLIKDA TAHDIDLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI

**Arziyeva Sevinch Shomurot qizi**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Marketing" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
Email: sevinchkaarziyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalliy gilam ishlab chiqaruvchi korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalarini takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishlari va ularning iqtisodiy xavfsizlikda tahdidlarni kamaytirish yo'llari tahlil qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida marketing strategiyasi korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, mijozlar ehtiyojini chuqur o'rganish va innovatsion mahsulotlarni targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: mahalliy gilam ishlab chiqaruvchi korxona, raqobatbardoshlik, marketing strategiyalari, iqtisodiy xavfsizlik, tahdidlarni kamaytirish, bozor iqtisodiyoti.

Abstract. This article analyzes modern directions for improving marketing strategies aimed at increasing the competitiveness of local carpet manufacturing enterprises, as well as ways to reduce threats to economic security. In a market economy, marketing strategy plays a crucial role in enhancing enterprise competitiveness, conducting in-depth analysis of consumer needs, and promoting innovative products.

Key words: local carpet manufacturing enterprises, competitiveness, marketing strategies, economic security, threat reduction, market economy.

Аннотация. В данной статье анализируются современные направления совершенствования маркетинговых стратегий в повышении конкурентоспособности местных предприятий по производству ковров, а также пути снижения угроз экономической безопасности. В условиях рыночной экономики маркетинговая стратегия играет важную роль в повышении конкурентоспособности предприятия, глубоком изучении потребностей потребителей и продвижении инновационной продукции.

Ключевые слова: местные предприятия по производству ковров, конкурентоспособность, маркетинговые стратегии, экономическая безопасность, снижение угроз, рыночная экономика.

## KIRISH

O'zbekistonning gilam sanoati milliy iqtisodiyot va eksport salohiyati uchun muhim sektor hisoblanadi. Gilam ishlab chiqarish milliy an'analarni saqlash, hunarmandchilikni rivojlantirish va ish o'rinlarini yaratishda katta rol o'ynaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalari faoliyatida eng muhim masalalardan biri bozorda barqaror raqobat ustunligini ta'minlash hamda iste'molchilar talab va ehtiyojlariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish hisoblanadi. Buning uchun esa korxona faoliyatida marketing strategiyasining o'rni beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yilning 23-noyabrdagi 707-sonli "Marketing tadqiqotlari tizimini takomillashtirish va eksport faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ishlab chiqarish korxonalarida zamonaviy marketing strategiyalarini joriy etish, marketing bo'limlari faoliyatini optimallashtirish va raqamli tahlil vositalaridan foydalanish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilab berilgan.

Ushbu qarorlar marketingni korxona boshqaruvining ajralmas qismi sifatida rivojlantirishga, ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqishga va milliy ishlab chiqarishning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda global va ichki bozorlarda raqobat kuchaygan, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha kechikishlar korxonalarning samaradorligiga ta'sir qilmoqda. Shu sababli, gilam ishlab chiqaruvchi korxonalarda marketing strategiyalarini takomillashtirish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash dolzarb masalalardan biridir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ko'plab ta'riflar va yondashuvlar mavjud.

D. M. Dryagunovning fikricha, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi deganda, uning faoliyatini yuritishi va foyda olishi uchun uning moliyaviy, moddiy va boshqa resurslar bilan barqaror ta'minlanishi ta'minlangan ma'lum bir holat tushunilishi kerak[1].

Boshqa bir olim A. D. Sheremet korxonaning iqtisodiy xavfsizligini uning yuzaga kelayotgan tahdidlarni zararsizlantirish, shuningdek uning uzoq vaqt davomida doimiy ishlashini ta'minlash uchun barcha resurslardan eng samarali foydalaniladigan holati deb tushunadi[2].

Marketing strategiyalari esa, M.Porter nazariyasiga ko'ra, korxonaning raqobat ustunligini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir[3].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda gilam ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va iqtisodiy tahdidlarni kamaytirish yo'llari ko'rib chiqildi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- tizimli tahlil
- statistik taqqoslash
- guruhlash usuli
- dinamik qatorlar tahlili
- iqtisodiy modellashtirish

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston hududlarida faoliyat yuritayotgan kichik gilam ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati olindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gilam ishlab chiqarish korxonalari O'zbekiston milliy iqtisodiyotining muhim segmentlaridan biridir. U nafaqat xalq hunarmandchiligi salohiyatini ifodalaydi, balki ish o'rinlari yaratish, mahalliy qo'shimcha qiymat shakllantirish hamda eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, gilam ishlab chiqarish sohasida yaratilgan mahsulotlar milliy brend imidjini kuchaytiradi va turizm hamda madaniy merosni xalqaro miqyosda targ'ib etishda o'ziga xos rol o'ynaydi. Quyidagi tahlil 2020–2024-yillar bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni qamrab oladi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda gilam ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati (2020–2024)[4]

| Yil | Ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm | Yillik o'sish, % | Bozor ulushi (mahalliy / import) |
|---|---|---|---|
| **2020** | 1 250 | — | 65 / 35 |
| **2021** | 1 480 | 18.4 | 62 / 38 |
| **2022** | 1 760 | 18.9 | 60 / 40 |
| **2023** | 2 050 | 16.5 | 58 / 42 |
| **2024** | 2 380 | 16.1 | 55 / 45 |

2020–2024-yillarda gilam ishlab chiqarish hajmi barqaror ravishda o'sdi — 1,25 trln so'mdan 2,38 trln so'mgacha. O'sish sur'ati o'rtacha yillik ≈17%ni tashkil qildi, bu gilam ishlab chiqarish uchun yuqori rentabellikni

1 Dryagunov D.M. Korxona iqtisodiy xavfsizligi nazariyasi. – Moskva, 2018.
2 Sheremet A.D. Finansoviy analiz. – Moskva: INFRA-M, 2017.
3 Porter M. Competitive Strategy. – New York: Free Press, 1985.
4 Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va muallif hisob-kitobi.

anglatadi. Biroq, import mahsulotlar ulushi 2020-yildagi 35%dan 45%gacha ortgan — bu mahalliy ishlab chiqaruvchilarga raqobat bosimini oshirmoqda.


Gilam ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar uchun rentabellik, ish bilan bandlik va qo'shimcha qiymat darajasi asosiy indikatorlardir (2-jadval).

2- jadval. Gilam korxonalarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (2020–2024)[5]

| **Ko'rsatkich** | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|---|---|
| Rentabellik % | 8.2 | 9.5 | 10.1 | 10.8 | 11.5 |
| Ish bilan bandlik (ming kishi) | 24 | 26 | 28 | 31 | 33 |
| Qo'shimcha qiymat hissasi, % | 45.2 | 46.1 | 47.4 | 48.9 | 50.6 |

Rentabellik darajasi 2020-yildagi 8,2%dan 2024-yilda 11,5%ga ko'tarildi — bu samarali ishlab chiqarish va marketing yondashuvining natijasidir. Ish bilan band bo'lganlar soni ham o'smoqda — bu sektor ish o'rinlari yaratishda iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qo'shimcha qiymat hissasining sezilarli darajada oshgani — gilam mahsulotlarini sotishdan kompaniyalar ko'proq foyda olishmoqda.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini boshqarish tizimi tushunchasini aniqlab olishimiz lozim. Bu korxona faoliyatining barcha jabhalarining har tomonlama va sifatli xavfsizligini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir (1-rasm).




1-rasm. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini boshqarish tizimini tashkil etish[6]

5 Manba: Savdo-sanoat palatasi va muallif hisoblanadi.

6 Roxvarger L. A. "Effektivnaya struktura upravleniya ekonomicheskoy bezopasnostyi predpriyatiya" *Muallif tomonidan kiritilgan taklif

Ishning o'rganish obyekti korxona, subyekti esa uning iqtisodiy xavfsizligi hisoblanadi. Korxonaning samaradorligi nafaqat tashqi omillarga, balki eng ko'p ichki omillarga: jamoa, kadrlar siyosati, xodimlar faoliyatiga bog'liq. Ularning muayyan tashkilot faoliyatiga kompleks ta'sirini o'rganish kompaniyaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tashkilotning iqtisodiy xavfsizligini, uning barqaror ishlashini va bozordagi barqaror mavqeini ta'minlash uchun ichki tahdidlarning oldini olishda xodimlar bilan ishlash juda ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, korxona xavf-xatarlardan kelib chiqadigan oqibatlar va yo'qotishlarni kamaytirish bo'yicha majburiy choralar ko'rishi kerak.

ESI (xodimlar qoniqish indeksi) – bu korxonaning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini aks ettiruvchi xodimlar qoniqishining ko'rsatkichidir. Ushbu indikator uchta savolga berilgan javoblar asosida hisoblanadi.

Baholash shkalasi 1 dan 10 gacha. Keyinchalik, individual respondent uchun indeks quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

ESI = ((barcha savollar uchun ballar yig'indisi ÷ 3) – 1) ÷ 9 × 100%

Ruxsat etilgan standartlar yo'q, xodimlarning qoniqish indeksi vaqt o'tishi bilan nazorat qilinadi. Ushbu amaliy tadqiqotni Respublikamizning yirik korxonalarida qo'llash uchun "Employee mood" bo'limi xodimlar sharoiti indeksini o'rganuvchi bo'lim faoliyatini yo'lga qo'yish taklifi ishlab chiqildi. Raqamli vositalar korporativ dasturlar va xizmatlar interfeyslarida bildirishnomalar (xabarlar) yordamida har kuni impulsli so'rovlarni o'tkazishga imkon beradi. Javoblar ballar shaklida bo'lishi mumkin. Xodimlarning qoniqishi – bu xodimning ishining turli tomonlari, jumladan, ish muhiti, ish sharoiti va maosh darajasidan hosil bo'ladigan psixologik holatidir. Bu holat kompaniya qadriyatlariga sodiqlik, uzoq muddatli ish faoliyati va hatto kompaniya doirasidan tashqarida ham sodiq munosabat bilan namoyon bo'ladi.

Ko'rsatkich xodimlarning hissiy reaksiyalari bilan bog'liq bo'lib, turli sharoitlar unga ta'sir qilishi mumkin. Mehnat muhiti esa xodimlar holatiga ta'sir etuvchi turli omillar yig'indisidir.

Ish haqi – mamlakatning iqtisodiy holatiga muvofiq, ish haqi hajmining yetarli darajada va o'z vaqtida oshirilishi, shuningdek, rag'batlantiruvchi to'lovlar va mukofotlar katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy paket – bu mehnat qonunchiligiga amal qilishni ta'minlaydigan tizim bo'lib, unda ish va dam olish vaqtini belgilash, xodimlarga yillik va kasallik ta'tillarini berish hamda boshqa ijtimoiy kafolatlarni taqdim qilish nazarda tutiladi.

Ish joyi – uning texnik jihozlanganligi, qulay sharoitlari, zarur vositalar bilan ta'minlanganligi hamda xavfsizlik va himoya choralarining mavjudligi asosida baholanadi.

Umumiy intizom – bu jamoaning ichki tartib-qoidalariga amal qilish, belgilangan me'yorlarga rioya etish hamda rahbariyatga bo'ysunish majburiyatiga nisbatan munosabatni ifodalaydi.

Xodimlarni qo'llab-quvvatlash – bu xodimlarni innovatsiyalar bilan tanishtirish, ularning fikr-mulohazalarini inobatga olish, axborot sifati va o'qitish jarayonida yordam ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Har qanday sohada inson manfaati va qadri birinchi o'rinda turishi lozim. Bugungi kunda iqtisodiy jarayonlar tez rivojlanayotgan bir davrda korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash asosiy vazifa sifatiga ega bo'lib, uning natijalari nafaqat mikro, balki makrodarajada ham seziladi. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy gilam ishlab chiqaruvchi korxonalar O'zbekiston milliy iqtisodiyotining muhim segmentlaridan biri hisoblanadi. Xodimlarning o'z ishlaridan qanchalik qoniqishlarini tahlil qilish kompaniya siyosati va biznes jarayonlarini o'z vaqtida o'zgartirishga yordam beradi. Umumiy korporativ g'oya bilan birlashtirilgan kuchli, barqaror jamoa yuqori mahsuldorlikni ko'rsatadi va kompaniya daromadining o'sishiga ta'sir qiladi.

So'nggi yillarda global va ichki bozorlarda raqobat kuchayganligi, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi kechikishlar korxonalarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli mahalliy gilam ishlab chiqaruvchi korxonalarda marketing strategiyalarini takomillashtirish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash dolzarb masala hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**


1. D. M. Dryagunov *Ekonomicheskaya bezopasnost predpriyatiya*. – Moskva: Ekonomika, 2018.
2. A. D. Sheremet *Upravlenie ekonomicheskoy bezopasnostyu*. – Sankt-Peterburg: Piter, 2019.
3. P. Kotler, K. L Keller. *Marketing Management*. – Pearson, 2016.
4. G. Armstrong, P. Kotler *Marketing: An Introduction*. – Pearson, 2020.
5. Roxvarger L. A. "Effektivnaya struktura upravleniya ekonomicheskoy bezopasnostyi predpriyatiya"
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Milliy iqtisodiyot ko'rsatkichlari*, 2020–2024.
7. Savdo-sanoat palatasi, *Mahalliy gilam ishlab chiqaruvchi korxonalar iqtisodiy ko'rsatkichlari*, 2020–2024.
8. O'zbekiston Respublikasi Savdo va sanoat vazirligi. *Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha hisobotlar*, 2020–2023.
9. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 2019-yil.

# TASHQI SAVDODA XATARLARNI KAMAYTIRISHDA SAVDONI MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH

**Babadjanov Shuhrat Atxamovich**
"Ipoteka-bank" ATIB,
Savdoni moliyalashtirish departamenti boshlig'i,
TDIU, mustaqil izlanuvchisi,
Email: Shukhrat.Babadjanov@ipotekabank.uz
ORCID: 0009-0004-2591-7189

Annotatsiya. Maqolada tashqi savdo operatsiyalarida yuzaga keladigan tijorat, to'lov, valyuta, mamlakat, siyosiy va logistika xatarlarini kamaytirishda savdoni moliyalashtirish vositalarining o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi savdoni moliyalashtirish instrumentlari — hujjatli akkreditiv, bank kafolati, hujjatli inkasso, faktoring, forfeyting va eksport kreditlarini sug'urtalash — tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi samaradorligini baholashdan iborat. Metodologik jihatdan maqolada qiyosiy-huquqiy, institutsional, deskriptiv-statistik va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda tashqi savdo aylanmasi 2022-yildagi 50,0 mlrd AQSH dollaridan 2024-yilda 65,9 mlrd AQSH dollariga yetgan bo'lsa-da, savdoni moliyalashtirish bo'yicha muntazam milliy statistikaning yo'qligi ushbu mexanizmlarning real qamrovini to'liq baholashni qiyinlashtirmoqda. Ayni paytda xalqaro institutlar ma'lumotlari savdoni moliyalashtirish vositalari global miqyosda nisbatan past xatarli moliyaviy aktivlar sinfi ekanini, ammo moliyalashtirish yetishmovchiligi saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Maqolada O'zbekistonda 2020–2025-yillarda qabul qilingan eksportni qo'llab-quvvatlash va savdoni moliyalashtirishga oid normativ-huquqiy asoslar ham tizimlashtiriladi.

Kalit so'zlar: savdoni moliyalashtirish, tashqi savdo, tashqi iqtisodiy xavfsizlik, akkreditiv, bank kafolati, eksportoldi moliyalashtirish, eksport sug'urtasi, tashqi savdo xatarlari.

Abstract. The article analyzes the role of trade finance instruments in reducing commercial, payment, currency, country, political, and logistics risks arising in foreign trade operations. The aim of the study is to assess the effectiveness of trade finance instruments—documentary letter of credit, bank guarantee, documentary collection, factoring, forfaiting, and export credit insurance—in ensuring external economic security. Methodologically, the study applies comparative legal, institutional, descriptive-statistical, and logical analysis methods. The results indicate that although Uzbekistan's foreign trade turnover increased from USD 50.0 billion in 2022 to USD 65.9 billion in 2024, the absence of systematic national statistics on trade finance complicates the full assessment of the actual coverage of these mechanisms. At the same time, data from international institutions show that trade finance instruments globally represent a relatively low-risk class of financial assets, although a financing gap persists. The article also systematizes the regulatory and legal framework adopted in Uzbekistan in 2020–2025 to support exports and trade finance.

Key words: trade finance, foreign trade, external economic security, letter of credit, bank guarantee, pre-export financing, export insurance, foreign trade risks.

Аннотация. В статье анализируется роль инструментов торгового финансирования в снижении коммерческих, платёжных, валютных, страновых, политических и логистических рисков, возникающих во внешнеторговых операциях. Цель исследования заключается в оценке эффективности инструментов торгового финансирования — документарного аккредитива, банковской гарантии, документарного инкассо, факторинга, форфейтинга и страхования экспортных кредитов — в обеспечении внешнеэкономической безопасности. С методологической точки зрения в статье использованы сравнительно-правовой, институциональный, дескриптивно-статистический и логический методы анализа. Результаты показывают, что несмотря на рост внешнеторгового оборота Узбекистана

с 50,0 млрд долларов США в 2022 году до 65,9 млрд долларов США в 2024 году, отсутствие системной национальной статистики по торговому финансированию затрудняет полную оценку реального охвата этих механизмов. В то же время данные международных институтов свидетельствуют о том, что инструменты торгового финансирования на глобальном уровне относятся к относительно низкорискованному классу финансовых активов, однако дефицит финансирования сохраняется. В статье также систематизирована нормативно-правовая база, принятая в Узбекистане в 2020–2025 годах в целях поддержки экспорта и развития торгового финансирования.

Ключевые слова: торговое финансирование, внешняя торговля, внешнеэкономическая безопасность, аккредитив, банковская гарантия, предэкспортное финансирование, экспортное страхование, риски внешней торговли.

## KIRISH

Tashqi savdo barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim omilidir. Biroq, u tijorat, valyuta va mamlakat xatarlarining yuqori darajasi bilan kechadi. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti odatiy jahon tartibining qayta qurilishi boshlanishi munosabati bilan global iqtisodiyot va xalqaro savdoda noaniqlikning chuqurlashuvi bilan tavsiflanadi. Hozirgi globallashuv jarayonlarining inersiyasi saqlanib qolayotganiga qaramay, xalqaro savdoda sanksiyalar va cheklovlar bilan bog'liq tashqi iqtisodiy xatarlar kuchaymoqda. Bunday sharoitda savdoni moliyalashtirish vositalari tashqi iqtisodiy aloqalar barqarorligini ta'minlashning asosiy mexanizmi hamda savdodagi xatarlarni kamaytirishning muhim vositasiga aylanmoqda.

Xalqaro savdo palatasi (ICC) savdo va zanjirli moliyalashtirish bo'yicha eng muhim global ma'lumotlar registrlaridan birini yuritadi. 2025-yilda ushbu sohadagi xatarlar va boshqa ko'rsatkichlarni baholash uchun 25,7 trillion AQSH dollaridan ortiq jamlangan tranzaksiyalarni to'plagan. Bu ICC ni xavf profillari va savdo moliyalashtirish tendensiyalarini tahlil qilish uchun asosiy manbalardan biriga aylantiradi.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) o'tkazgan Global Trade Finance Gap tadqiqoti ko'rsatishicha, 2025-yilda tashqi savdoni moliyalashtirishning global taqchilligi 2,5 trillion AQSH dollari darajasida saqlanib qolgan.[1] Bu savdoni moliyalashtirishga bo'lgan talab va bunday vositalarning amaldagi mavjudligi o'rtasidagi tafovutni aks ettiradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda tashqi savdo hajmining jadal kengayishi ushbu masalaning amaliy dolzarbligini yanada oshirdi. 2022-yilda respublika tashqi savdo aylanmasi 50,0 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 62,6 mlrd AQSH dollariga, 2024-yilda esa 65,9 mlrd AQSH dollariga yetdi. Shu davrda eksport hajmi 19,3 mlrd dollardan 26,9 mlrd dollargacha oshgan.[2]

Savdoni moliyalashtirish vositalari aynan ana shu xavflarni qayta taqsimlash, bank kafolati bilan mustahkamlash, kontragentlar o'rtasidagi ishonchni oshirish va likvidlik uzilishlarini kamaytirish uchun qo'llanadi. ADBning 2025-yilgi Global Trade Finance Gap Survey hisobotiga ko'ra, global savdo moliyalashtirish bo'shlig'i 2,5 trillion AQSH dollari darajasida saqlanib qolgan.[3] Bu savdo bitimlari ehtiyojlari bilan real moliyalashtirish taklifi o'rtasida jiddiy tafovut mavjudligini ko'rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi savdoda xatarlarni kamaytirish masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, unda savdoni moliyalashtirish vositalarining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, J. Ahn savdo operatsiyalarida to'lov usullari va moliyalashtirish instrumentlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, hujjatli akkreditiv, inkasso va ochiq hisob-kitob kabi vositalar savdo ishtirokchilari o'rtasidagi axborot assimetriyasini kamaytirishini hamda to'lov xatarlarini sezilarli darajada pasaytirishini ta'kidlaydi. Uning nuqtayi nazariga ko'ra, savdo moliyalashtirish vositalari ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda ishonch muhitini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Xalqaro savdoda xatarlarni baholash va boshqarish masalalari International Chamber of Commerce tomonidan tayyorlangan hisobotlarda ham keng yoritilgan. 2024-yilgi ICC Trade Register hisobotida savdo moliyalashtirish operatsiyalari boshqa moliyaviy instrumentlarga nisbatan past risk darajasiga ega ekani, ayniqsa akkreditivlar va bank kafolatlari bo'yicha defolt darajasi minimal ekanligi qayd etilgan. Bu esa savdoni moliyalashtirish vositalarining xavfsizlikni ta'minlashdagi yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Savdo operatsiyalarini qo'llab-quvvatlashda xalqaro moliya institutlarining roli ham muhimdir. European Bank for Reconstruction and Development tomonidan amalga oshirilayotgan Trade Facilitation Programme eksport-import operatsiyalarini sug'urtalash, banklar o'rtasida risklarni taqsimlash va kafolat mexanizmlarini joriy etish orqali savdo xatarlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu dastur orqali ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlarining xalqaro savdoga kirish imkoniyatlari kengaymoqda.

1 https://www.adb.org/publications/adb-global-trade-finance-gap-survey
2 https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/taxlil2023yil-yanvar-dekabr_uzb.pdf
3 https://www.adb.org/publications/adb-global-trade-finance-gap-survey

Global savdo dinamikasi va xatarlar bilan bog'liq statistik ma'lumotlar United Nations Conference on Trade and Development tomonidan muntazam ravishda e'lon qilinadi. UNCTAD Statistical Handbook 2025 ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda global savdo hajmining o'sishi bilan bir qatorda valyuta, logistika va siyosiy xatarlar ham ortib bormoqda. Bu holat savdoni moliyalashtirish instrumentlariga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

Savdo moliyalashtirishning barqaror rivojlanish bilan bog'liqligi K. Megersa tomonidan chuqur o'rganilgan. U savdoni moliyalashtirish vositalarining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi rolini asoslab beradi. Xususan, yashil moliyalashtirish instrumentlari va barqaror savdo kreditlari uzoq muddatli xatarlarni kamaytirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Savdoni moliyalashtirish mexanizmlari va instrumentlarining turlari S. F. Tichinskiy tomonidan tizimli ravishda tasniflangan bo'lib, u savdo tashkilotlari faoliyatida bank kreditlari, faktoring, forfeyting va sug'urta instrumentlarining o'zaro uyg'un qo'llanilishi xatarlarni diversifikatsiya qilish imkonini berishini ko'rsatadi. Bu yondashuv savdo operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mahalliy olimlardan A. Murotov savdo moliyalashtirish vositalarining eksport operatsiyalarini rivojlantirishdagi rolini tahlil qilib, ularning eksportchilar uchun kafolat mexanizmi sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, bank kafolatlari, eksport kreditlarini sug'urtalash va akkreditivlar milliy eksport salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, Y. Aliyev va Y. Tashmuxamedova makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy xavfsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, tashqi savdo operatsiyalarida moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilishini asoslab bergan. Ularning fikricha, moliyaviy vositalar orqali xatarlarni boshqarish tizimini takomillashtirish agroresurslar bozori va umuman iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

1. Qiyosiy-institutsional tahlil usuli asosida savdoni moliyalashtirishning asosiy instrumentlari — hujjatli akkreditiv, bank kafolati, hujjatli inkasso, faktoring, forfeyting va eksport kreditlarini sug'urtalash — funksional vazifasi va xatarni kamaytirish mexanizmi bo'yicha solishtirildi.
2. Deskriptiv-statistik usul orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2022–2024-yillar bo'yicha tashqi savdo ma'lumotlari umumlashtirildi.
3. Huquqiy-doktrinal tahlil asosida 2020–2025-yillarda eksportni qo'llab-quvvatlash, eksportoldi moliyalashtirish, subsidiyalar, jamg'arma mexanizmlari hamda savdoni rivojlantirish institutlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimlashtirildi. Bunda Lex.uz bazasidagi prezident farmonlari va qarorlari asosiy manba sifatida olindi.
4. Xalqaro tashkilotlar — ADB, ICC va EBRD — materiallari asosida savdo moliyalashtirishning global tendensiyalari va xatar profili baholandi.

Tadqiqotning chegarasi shundaki, O'zbekiston kesimida aynan trade finance instrumentlari bo'yicha yagona konsolidatsiyalashgan ochiq statistika mavjud emas; shu bois xulosalar qisman tashqi savdo statistikasi va normativ-huquqiy mexanizmlar asosida chiqarildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) hisobotiga ko'ra, 2025-yilda savdo moliyalashtirishidagi global talab va taklif o'rtasidagi farq 2,5 trillion AQSH dollariga baholangan - bu summa banklar va xalqaro institutlarning moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha sa'y-harakatlariga qaramay, avvalgi yillar darajasida qolgan. Bunday taqchillik kichik va o'rta korxonalar imkoniyatlarini cheklaydi hamda mamlakatlarning global yetkazib berish zanjirlariga qo'shilish qobiliyatiga, ayniqsa iqtisodiy noaniqlik davrida, ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, savdo moliyalashtirish vositalari umuman olganda past kredit xavfiga ega. Xalqaro savdo palatasi (XSP) ma'lumotlari global inqirozlar sharoitida ham savdo moliyalashtirish mahsulotlari bo'yicha to'lovlarni bajarmaslik holatlari barqaror tarzda past ekanligini ko'rsatmoqda, bu esa ularning moliyaviy mexanizm sifatidagi ishonchliligini aks ettiradi. O'zbekistonda savdo moliyalashtirish operatsiyalari bo'yicha tizimli milliy statistika mavjud bo'lmasa-da, xalqaro manbalardan olingan ma'lumotlar asosiy tendensiyalar haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

O'zbekiston eksportni kengaytirish va global ta'minot zanjirlarida ishtirok etishga faol intilayotgan mamlakat sifatida tashqi iqtisodiy xavfsizlik muammolariga duch kelmoqda. Bu muammolar valyuta xatarlaridan to to'lovlar noaniqligigacha bo'lgan turli xil xavflarni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, tashqi savdo operatsiyalari bir qator o'ziga xos xavf-xatarlarga duch keladi. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin (1-rasm):




1- rasm. Tashqi savdo operatsiyalaridagi o'ziga xos xatarlar[4]

Ko'rsatilgan xatarlarni samarali boshqarish tashqi iqtisodiy faoliyatni barqaror rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Ushbu xavflarni aniqlash uchun avvalo O'zbekistondagi tashqi savdo dinamikasini tahlil qilishimiz va yillar kesimida o'rganishimiz zarru. Quyidagi jadval 2022–2024-yillarda O'zbekiston tashqi savdosining asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan (1-jadval).

1- jadval. O'zbekistonda tashqi savdo dinamikasi[5]

| Yil | Tashqi savdo aylanmasi, mlrd $ | Eksport, mlrd $ | Import, mlrd $ | Saldo, mlrd $ |
|---|---|---|---|---|
| 2022 | 50.0 | 19.3 | 30.7 | -11.4 |
| 2023 | 62.6 | 24.4 | 38.1 | -13.7 |
| 2024 | 65.9 | 26.9 | 39.0 | -12.0 |

Ushbu dinamika ikki muhim xulosani beradi. Birinchidan, tashqi savdo hajmi tez kengaymoqda, bu esa savdo operatsiyalarida to'lov va kontragent xatarlarining iqtisodiy ahamiyatini oshiradi. Ikkinchidan, manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda; demak, importni moliyalashtirish va eksport tushumlarini kafolatlash mexanizmlari yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo xatarlarini kamaytirishda instrumentlar vazifasi bir xil emas, balki ular turli xavf segmentlariga xizmat qiladi (2-jadval):

2- jadval. Savdoni moliyalashtirish vositalarining qiyosiy tavsifi

| Vosita | **Asosiy kamaytiradigan xatar** | **Amaliy ustunlik** | **Asosiy cheklov** |
|---|---|---|---|
| Hujjatli akkreditiv | To'lov va kontragent xatari | Bank majburiyati tufayli yuqori ishonchlilik | Narxi nisbatan yuqori, hujjatlashtirish murakkab |
| Bank kafolati | Shartnoma bajarilmasligi xatari | Avans, tender, performance risk'ni qoplaydi | Barcha siyosiy xatarlarni qoplamaydi |
| Hujjatli inkasso | To'lovni kechiktirish yoki rad etish xatari | Xarajat past | Bank to'lovni kafolatlamaydi |
| Faktoring | Debitorlik va likvidlik xatari | Aylanma mablag'ni tezlashtiradi | Komissiya va diskont xarajati mavjud |

4 Muallif ishlanmasi

5 Muallif tomonidan 2022-yil — Statistika agentligi ma'lumoti; 2023-yil — yanvar-dekabr dastlabki ma'lumot; 2024-yil — yanvar-dekabr dastlabki ma'lumotlari asosida mustaqil tuzilgan. https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/taxlil2023yil-yanvar-dekabr_uzb.pdf

| | | | |
|---|---|---|---|
| Forfeyting | Uzoq muddatli kredit va mamlakat xatari | Riskni to'liq o'tkazish imkoni | Barcha bitimlarga mos emas |
| Eksport sug'urtasi | Siyosiy va tijorat xatari | Bank va investor ishonchini oshiradi | Qo'shimcha sug'urta xarajati |

ADB ma'lumotlariga ko'ra, global trade finance gap 2025-yilda ham 2,5 trillion dollar darajasida qolgan.[6] Bu ayniqsa KOBlar uchun savdoni moliyalashtirishga kirish imkoniyati yetarli emasligini anglatadi.

EBRD Trade Facilitation Programme tajribasi esa xalqaro bank kafolatlari va trade loan mexanizmlari rivojlanayotgan bozorlar uchun samarali ekanini ko'rsatadi. 2024-yil oxiri holatiga ko'ra TFP doirasida 130 dan ortiq issuing bank va 800 dan ortiq confirming bank ishtirok etgan, umumiy tranzaksiya qiymati 41 mlrd yevrodan oshgan.[7] ICC materiallari savdo moliyalashtirish mahsulotlari, ayniqsa akkreditiv va kafolatlar, tarixan bank tizimidagi past defoltli aktivlar toifasiga kirishini tasdiqlaydi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va tahlillar natijasida Savdoni moliyalashtirish vositalarining O'zbekistonda qo'llanish darajasi va tashqi savdo xatarlarini kamaytirishdagi samaradorligi tahlil qildik (3-jadval).

3-jadval. Savdoni moliyalashtirish vositalarining O'zbekistonda qo'llanish darajasi va tashqi savdo xatarlarini kamaytirishdagi samaradorligi[8]

| Instrument | O'zbekistonda qo'llanish darajasi | Risk kamaytirish samarasi | Qo'llanish xususiyatlari |
|---|---|---|---|
| **Akkreditiv** | yuqori | juda yuqori | Tashqi savdo operatsiyalarida eng keng qo'llaniladigan vositalardan biri hisoblanadi. Bank eksportyor foydasiga to'lov majburiyatini olgani sababli kontragent va to'lov xatarlarini sezilarli darajada kamaytiradi hamda eksport-import operatsiyalarining xavfsizligini oshiradi. |
| **Bank kafolati** | o'rta | yuqori | Asosan kontrakt majburiyatlari bajarilishini ta'minlash, tenderlarda ishtirok etish va avans to'lovlarini kafolatlashda qo'llaniladi. Ushbu instrument shartnoma bajarilmasligi bilan bog'liq xatarlarni kamaytiradi, biroq to'lov jarayonini to'liq nazorat qilmaydi. |
| **Faktoring** | past | o'rta | Debitorlik qarzlarini moliyalashtirish orqali eksportyor korxonalarning likvidligini oshiradi va aylanma mablag'lar yetishmovchiligi riskini kamaytiradi. Biroq O'zbekistonda ushbu instrument hali keng rivojlanmagan. |
| **Forfeyting** | juda past | yuqori | Uzoq muddatli eksport bitimlarida qarz majburiyatlarini diskont asosida sotish orqali kredit va mamlakat xatarlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Amaliyotda asosan yirik xalqaro savdo operatsiyalarida qo'llaniladi. |

Mazkur jadvaldan ko'rinadiki, O'zbekistonda tashqi savdo operatsiyalarida eng keng qo'llaniladigan savdoni moliyalashtirish vositasi hujjatli akkreditiv hisoblanadi. Bu instrument bank tomonidan to'lov majburiyati kafolatlanishi sababli kontragent va to'lov xatarlarini eng samarali kamaytiruvchi vosita sifatida qaraladi. Faktoring va forfeyting kabi zamonaviy savdoni moliyalashtirish instrumentlari esa hali yetarli darajada rivojlanmagan bo'lib, ularning amaliy qo'llanishi asosan yirik eksport operatsiyalari bilan cheklanib qolmoqda.

So'nggi yillarda qabul qilingan eng muhim normativ-huquqiy hujjatlar ham ushbu yo'nalishda nazorat va takomillashtirishga turtki bo'layotganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.10.2020 yildagi "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6091-son[9], 23.06.2025 yildagi "Mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-97-son[10] Farmoni, 14.03.2024 yildagi "Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-126-son[11] qarori, 27.12.2024 yildagi "Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli

6 https://www.adb.org/publications/adb-global-trade-finance-gap-survey
7 https://chatgpt.com/c/69b428a4-af00-8396-9661-e80bcbabfc90#:~:text=ADB%20ma%E2%80%99lumotlariga%20ko%E2%80%98ra,toifasiga%20kirishini%20tasdiqlaydi.
8 ADB (2025), ICC Trade Register (2024), WTO Trade Finance Reports asosida muallif tomonidan mustaqil tuzilgan
9 https://lex.uz/uz/docs/-5060630
10 https://lex.uz/uz/docs/-7594188
11 https://lex.uz/uz/docs/-6838934

raqobat muhitini ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-229-son[12] Farmoni va boshqa ko'plab qaror va farmonlar buning yaqqol misolidir.

Mazkur hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda 2020-yildan boshlab savdoni moliyalashtirish infratuzilmasi bosqichma-bosqich kuchaytirilgan: avval resurs bazasi kengaytirildi, keyin jamg'arma mexanizmlari chuqurlashtirildi, 2024-yilga kelib esa institutsional konsolidatsiya va JSTga moslashtirish yo'nalishi kuchaydi.

Shu bilan birga, muayyan vositani tanlash tomonlar o'rtasidagi ishonch darajasiga, mamlakat sharoitlariga, bitim summasiga va kompaniyaning xatarlarni boshqarish strategiyasiga bog'liq. Shunday qilib, ushbu vositalardan o'z vaqtida va keng foydalanish tashqi savdo barqarorligini oshirishga, to'lov balansini mustahkamlashga va iqtisodiyotning tashqi zarbalarga nisbatan zaifligini kamaytirishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar savdoni moliyalashtirish vositalarining tashqi iqtisodiy xavfsizlikdagi o'rni uchta yo'nalishda muhim ekanini ko'rsatadi.

birinchidan, bu vositalar mikrodarajada eksportyor va importyor o'rtasidagi ishonch muammosini hal qiladi. Akkreditiv yoki bank kafolati mavjud bo'lganda, kontragent xatari bank tizimiga ko'chadi va bitimning bajarilish ehtimoli oshadi. ICC va EBRD tajribasi ham aynan shuni ko'rsatadi.

ikkinchidan, ular mezodarajada bank tizimi va eksport infratuzilmasi uchun risk-sharing mexanizmini yaratadi. Jamg'arma, sug'urta, subsidiya va refinancing mexanizmlarining mavjudligi banklarni eksport bitimlarini ko'proq moliyalashtirishga undaydi. O'zbekistonning 2020–2024-yillardagi normativ evolyutsiyasi aynan shu modelga yaqinlashayotganini ko'rsatadi.

uchinchidan, ular makrodarajada tashqi zarbalarga nisbatan iqtisodiy chidamlilikni oshiradi. Tashqi savdo aylanmasi o'sayotgan sharoitda to'lov xavfi, kurs xavfi va logistika xavfi ham absolyut hajm jihatidan ortadi. Demak, trade finance vositalarisiz eksport o'sishi barqaror bo'la olmaydi.

Shu bilan birga, O'zbekiston amaliyotida ikki muammo saqlanib qolmoqda. Birinchisi, savdoni moliyalashtirish instrumentlari bo'yicha alohida ochiq statistika yetarli emas. Ikkinchisi, KOBlar uchun ushbu vositalarning narxi, hujjatlashtirish talablari va bank risk-appehtiti hali ham cheklov bo'lib qolmoqda. Bu muammolar ADB qayd etayotgan global moliyalashtirish bo'shlig'i bilan hamohangdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, savdoni moliyalashtirish vositalari tashqi savdo xatarlarini kamaytirishning nafaqat bank texnikasi, balki tashqi iqtisodiy xavfsizlik siyosatining muhim elementi hisoblanadi.

Savdoni moliyalashtirish vositalari tashqi savdo faoliyatidagi xatarlarni kamaytirishda va xalqaro tijorat operatsiyalarining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ularni qo'llash bitim ishtirokchilarining manfaatlarini himoya qilishga, to'lov intizomini yaxshilashga va umuman xalqaro savdoni rivojlantirishga ko'maklashadi. Global xatarlarning ko'payishi sharoitida savdoni moliyalashtirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda, bu esa uni yanada takomillashtirish va o'zgaruvchan jahon iqtisodiyotiga moslashtirishni taqozo etmoqda. Savdoni moliyalashtirish vositalarini qo'llashni kengaytirish tashqi savdo xatarlarini kamaytirish, eksport oqimlarining barqarorligini oshirish va O'zbekistonning tashqi iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Asian Development Bank. (2025). ADB trade finance gap survey 2025: Bridging the global trade finance gap. https://www.adb.org/publications/adb-global-trade-finance-gap-survey
2. Ahn, J. (2021). Trade finance and payment methods in international trade. In Oxford Research Encyclopedia of Economics and Finance. Oxford University Press. https://oxfordre.com/economics/view/10.1093/acrefore/9780190625979.001.0001/acrefore-9780190625979-e-326
3. International Chamber of Commerce. (2024). ICC trade register report: Global risks in trade finance. https://iccwbo.org/business-solutions/incoterms-rules/trade-finance/
4. European Bank for Reconstruction and Development. (2024). Trade facilitation programme: Factsheet. https://www.ebrd.com/home/work-with-us/trade-facilitation-programme/factsheet-about-us.html
5. United Nations Conference on Trade and Development. (2025). UNCTAD statistical handbook 2025. https://unctad.org/system/files/official-document/tdstat50_en.pdf
6. Megersa, K. (2020). Sustainable trade finance and financing instruments (K4D Helpdesk Report No. 821). Institute of Development Studies. https://opendocs.ids.ac.uk/articles/report/Sustainable_Trade_Finance_and_Financing_Instruments/26432887
7. Tichinskiy, S. F. (2024). Mechanisms, types and instruments of financing trade organizations. CyberLeninka. https://cyberleninka.ru/article/n/mehanizm-vidy-i-instrumenty-finansirovaniya-deyatelnosti-torgovyh-organizatsiy
8. Murotov, A. (2025). Trade finance as a guarantee for the development of export operations. Finance and Banking Journal, 11(1), 11–17. https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/285


12 https://lex.uz/uz/docs/-7283088

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2024). O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlar. https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/taxlil2023yil-yanvar-dekabr_uzb.pdf
2. World Trade Organization. (2023). Trade finance and SMEs: Bridging the gap in provision. https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/tradefinsme_e.pdf
3. Aliyev, Y., & Tashmuxamedova, Y. Makroiqtisodiy Barqarorlikni Ta'minlash Orqali Agroresurslar Bozori Iqtisodiy Xavfsizligini Oshirish Masalalari. Green Economy and Development, 3(10), 667313. https://media.neliti.com/media/publications/667313-makroiqtisodiy-barqarorlikni-taminlash-o-152c13a2.pdf

# KORXONALAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL VA METODOLOGIK ASOSLARI

**Jamoliddinov Jobirbek Bohodir o'g'li**
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi katta ofitseri
Email: jobirjamoliddinov61@gmail.com
ORCID: 0009-00081629

Annotatsiya. Maqolada korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning kontseptual va metodologik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida korxona iqtisodiy xavfsizligi tushunchasining nazariy mohiyati, uning tarkibiy elementlari hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar tizimi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, korxonalarda iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholashning zamonaviy yondashuvlari, indikatorlar tizimi va ularni boshqarish mexanizmlarining metodologik asoslari o'rganildi. Tadqiqot natijasida korxonalar faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy xavflarni aniqlash, baholash va ularni minimallashtirishga qaratilgan kontseptual model hamda metodologik yondashuvlar taklif etildi.

Kalit so'zlar: korxona iqtisodiy xavfsizligi, innovatsion boshqaruv, raqamlashtirish, risklarni boshqarish, barqaror rivojlanish.

Abstract. The article studies the conceptual and methodological foundations of ensuring the economic security of enterprises. In the course of the research, the theoretical essence of the concept of economic security of an enterprise, its structural elements, and the system of factors affecting the provision of economic security were scientifically analyzed. Also, modern approaches to assessing the level of economic security at enterprises, a system of indicators and methodological foundations of their management mechanisms were studied. As a result of the research, a conceptual model and methodological approaches were proposed to identify, assess and minimize economic risks that may arise in the activities of enterprises.

Key words: economic security of an enterprise, innovative management, digitalization, risk management, sustainable development.

Аннотация. В статье исследованы концептуальные и методологические основы обеспечения экономической безопасности предприятий. В ходе исследования научно проанализированы теоретическая сущность понятия экономической безопасности предприятия, её структурные элементы, а также система факторов, влияющих на её обеспечение. Кроме того, изучены современные подходы к оценке уровня экономической безопасности на предприятиях, система индикаторов и методологические основы механизмов их управления. В результате исследования предложены концептуальная модель и методологические подходы, направленные на выявление, оценку и минимизацию экономических рисков, которые могут возникнуть в деятельности предприятий.

Ключевые слова: экономическая безопасность предприятия, инновационное управление, цифровизация, управление рисками, устойчивое развитие.

## KIRISH

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, raqobat muhitining kuchayishi, iqtisodiy munosabatlarning raqamlashuvi va tashqi iqtisodiy xatarlarning ortishi sharoitida korxonalar faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy iqtisodiy muhitda korxonalar nafaqat bozorda raqobatbardoshlikni saqlab qolishi, balki turli iqtisodiy, moliyaviy, institutsional va axborot xatarlariga qarshi barqaror faoliyat yuritish imkoniyatini ta'minlashi zarur. Shu nuqtai nazardan korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish hamda uning metodologik asoslarini ishlab chiqish iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Korxona iqtisodiy xavfsizligi tushunchasi korxona resurslari, moliyaviy barqarorligi, bozor pozitsiyasi, innovatsion imkoniyatlari va boshqaruv samaradorligini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan

kompleks tizim sifatida talqin etiladi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalar iqtisodiy xavfsizligi faqatgina moliyaviy barqarorlik bilan cheklanib qolmay, balki strategik boshqaruv, innovatsion rivojlanish, raqamli transformatsiya va korporativ boshqaruv mexanizmlari bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi.

So'nggi yillarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash sohasida ilmiy tadqiqotlar kengayib, uni baholash va boshqarishning turli kontseptual modellari ishlab chiqilmoqda. Xususan, iqtisodiy xavfsizlikni baholashda indikatorlar tizimi, integral indekslar, ekonometrik modellar hamda ko'p mezonli qaror qabul qilish usullaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa korxonalar iqtisodiy xavfsizligini kompleks tahlil qilish va samarali boshqarish imkoniyatini kengaytiradi.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy metodologik yondashuvlarini tizimlashtirish, uning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda iqtisodiy xavfsizlikni baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar iqtisodiy xavfsizligi masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda turli ilmiy maktablar va kontseptsiyalar shakllangan. Ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi korxonaning barqaror rivojlanishi, resurslardan samarali foydalanish va tashqi hamda ichki tahdidlarga qarshi himoyalanganlik darajasi bilan bog'liq holda talqin etiladi.

Iqtisodiy xavfsizlik nazariyasining rivojlanishiga bir qator xorijiy olimlar katta hissa qo'shgan. Xususan, L. Abalkin iqtisodiy xavfsizlikni iqtisodiy tizimning barqarorligi va uning tashqi tahdidlarga qarshi turish qobiliyati bilan bog'liq holda izohlaydi. Olimning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiy tizimning strategik barqarorligi va resurslardan samarali foydalanish darajasi bilan belgilanadi.

A. Tatarkin va V. Senchagov iqtisodiy xavfsizlikni iqtisodiy tizimning barqaror faoliyat yuritishi va uning milliy hamda korporativ manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan institutsional mexanizmlar majmuasi sifatida talqin etadilar. Ularning tadqiqotlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda institutsional muhit, davlat siyosatining samaradorligi va boshqaruv mexanizmlari muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

Xorijiy tadqiqotchilardan Buzan, Vever va Uayld iqtisodiy xavfsizlikni keng qamrovli xavfsizlik kontseptsiyasining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqadilar. Ularning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik davlat, biznes va jamiyat manfaatlarining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ko'p darajali tizimdan iborat.

Zamonaviy tadqiqotlarda korxona iqtisodiy xavfsizligini baholashda integral indikatorlar tizimi va ekonometrik modellardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, iqtisodiy xavfsizlikni baholashda moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari, likvidlik ko'rsatkichlari, rentabellik darajasi, innovatsion faollik va bozor ulushi kabi ko'rsatkichlar asosiy indikatorlar sifatida qo'llaniladi.

Mahlliy tadqiqotchi Sadriddinova N. X. o`z maqolasida korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi va metodologik asoslari tahlil qiladi. Uktamov, X. F. sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolarni o'rgangan. Tadqiqotchi Bayboboeva F. N. (2025). Esa nazariy-metodologik yondashuvlar asosida iqtisodiy xavfsizlik samaradorligini oshirish yo'llari tavsiflangan. Tadqiqotchilar ushbu tushunchani korxonaning ichki va tashqi tahdidlarga qarshi turish qobiliyatini ifodalovchi kompleks tizim sifatida baholaydilar. Primorac, Kozina va Turčić (2018) iqtisodiy xavfsizlikni moliyaviy barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish va strategik boshqaruv bilan integratsiyalashgan holatda izohlab, u moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanmasdan, tashkiliy va texnologik omillarni ham qamrab olishi zarurligini ta'kidlaydilar.

Shynkar, Gontar va Dubyna (2020) iqtisodiy xavfsizlikni baholashda risklarni aniqlash, tahlil qilish va monitoring mexanizmlarining muhimligini asoslab beradilar. Kopylyuk va hammualliflar (2021) esa risk tahlili, strategik rejalashtirish va moliyaviy monitoring tizimlarini joriy etish korxona barqarorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadilar. Raqamlashtirish jarayonlari ham iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim omil bo'lib, raqamli texnologiyalar boshqaruv samaradorligini oshirish va risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimli yondashuv, strategik boshqaruv va raqamli transformatsiyaga asoslanishi lozim.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning uslubiy yondashuvlarini ilmiy asosda o'rganish va tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, funksional va integratsiyalashgan yondashuvlar uyg'unligiga asoslanib, iqtisodiy xavfsizlikni ko'p komponentli va dinamik jarayon sifatida baholash imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus ilmiy usullar, jumladan, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullari orqali iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning tarkibiy elementlari o'rganildi va nazariy xulosalar umumlashtirildi. Taqqoslash

(komparativ) usuli yordamida xorijiy va mahalliy yondashuvlar solishtirilib, ularning ustun va zaif jihatlari aniqlab berildi. Metodologik asos sifatida tizimli yondashuv tanlanib, korxona iqtisodiy xavfsizligining moliyaviy, tashkiliy, texnologik va axborot komponentlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Shuningdek, risk-menejment konsepsiyasi asosida risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish bosqichlari izchil ko'rib chiqilib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda strategik va prognozlash mexanizmlarining ahamiyati asoslab berildi.

## TAH LIL VA NATIJ ALAR


Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi, shuningdek, ularning ichki resurslarini samarali boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, bozor sharoitlariga moslashish va strategik qarorlar qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Bu tushuncha oddiygina moliyaviy natijalarni yaxshilashdan iborat bo'lib qolmay, balki korxonani ushbu natijalarga erishuvchan qilish jarayonini tashkil etadi — ya'ni barqaror o'sish, xavf-xatarlarni oldindan aniqlash, monitoring qilish, baholash va izchil boshqaruv mexanizmlari orqali amalga oshiriladi (Shynkar, Gontar & Dubyna, 2020).

Korxona iqtisodiy xavfsizligi kontseptsiyasi tizimli yondashuv asosida rivojlangan bo'lib, u bir nechta funksional komponentlarni o'z ichiga oladi: moliyaviy barqarorlik, tashqi tahdidlarga tayyorlik va moslashuvchanlik, raqamli infratuzilma xavfsizligi, resurslarni samarali boshqarish va risklarni baholash tizimlari. Bu elementlarning barchasi birgalikda korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

An'anaviy boshqaruv usullari zamonaviy iqtisodiy tahdidlarning murakkab tabiatini to'liq qamrab ololmaydi. Shu bois iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda innovatsion yondashuvlarga asoslangan yangi mexanizmlarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Korxona iqtisodiy xavfsizligi uning moliyaviy holatini, ishlab chiqarish salohiyatini, investitsion imkoniyatlarini va intellektual resurslarini ichki hamda tashqi salbiy omillardan himoyalash darajasini ifodalaydi. Iqtisodiy xavfsizlik darajasining pastligi korxona barqarorligining buzilishiga, moliyaviy yo'qotishlar va raqobatbardoshlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli iqtisodiy xavfsizlik masalasi korxona strategik boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi tahdidlar xilma-xil bo'lib, ular quyidagi jadvalda keltirilgan asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi (1-rasm):




1-rasm. Korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi tahdidlar

Mazkur tahdidlarning korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda yangicha yondashuvlarni talab etadi.

Zamonaviy sharoitda iqtisodiy xavf-xatarlarni oldini olishning muhim omillaridan biri raqamli texnologiyalardan keng formatda foydalanishdir. Analitik axborot tizimlari, katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt asosida iqtisodiy jarayonlarni muntazam nazorat qilish orqali vujudga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarini erta aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

Bundan tashqari, risklarni boshqarishning integratsiyalashgan tizimini tashkil qilish orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning samaradorligini oshirishga keng imkoniyat yaratilgan hisoblanadi. Ushbu tizim korxona faoliyatidagi moliyaviy, operatsion va strategik risklarni kompleks baholashga va bir vaqtning o'zida vujudga kelgan risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash ham iqtisodiy xavfsizlikning muhim innovatsion yo'nalishlardan biri bo'lib, kiberxavflarni kamaytirish va intellektual mulkni himoya qilish orqali iqtisodiy yo'qotishlarning oldi olinadi.

Global iqtisodiyot jadal o'zgarishlar, texnologik innovatsiyalar, bozor beqarorligi, pandemiya ta'siri va siyosiy noaniqliklar kabi omillar sababli juda noaniq bo'lib qoldi. Bu sharoitda korxonalar uchun iqtisodiy xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqish va samarali amalga oshirish juda muhim bo'ldi. Ular o'z faoliyatini xavflardan himoya qilish bilan birga strategik o'sish yo'nalishlarini ham aniqlab oladi. Shu bois, zamonaviy iqtisodiy muhit korxonalarni faqat daromad olish vositasi emas, balki noaniqlik sharoitida barqarorlikni saqlab qolish majburiyati bilan yuzma-yuz qildi (Uktamov, 2023).

Shuningdek, bozor sharoitida korxonalar o'z raqobatbardoshligini saqlab qolish orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash strategiyalarini joriy qiladi. Moliyaviy barqarorlik, bozor talablariga moslashishga qodir tashkiliy struktura, innovatsion yechimlar korxonaning risklarga qarshi chidamliligini oshiradi (Toxirov, 2024).

Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda asosiy uslubiy yo'nalishlardan biri risklarni boshqarish tizimini shakllantirish hisoblanadi. Risklarni aniqlash, tahlil qilish, boshqarish va monitoring qilish bosqichlarining izchil amalga oshirilishi korxona barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega (Shynkar, Gontar & Dubyna, 2020). Ushbu jarayonda diagnostika tizimlaridan foydalanish potentsial xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va profilaktik choralarni ishlab chiqishga imkon beradi (Uktamov, 2024).

Iqtisodiy xavfsizlikning markaziy komponenti sifatida moliyaviy barqarorlik alohida o'rin tutadi. Pul oqimlarini boshqarish, aktivlar va majburiyatlar muvozanatini saqlash hamda moliyaviy monitoring tizimlarini joriy etish moliyaviy risklarni kamaytirishga xizmat qiladi (Kopylyuk et al., 2021). Shu bilan birga, raqamli transformatsiya axborot va kiberxavfsizlikni mustahkamlash, ichki jarayonlarni real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi (Makhmudova & Janizakova, 2025).

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda mehnat, moddiy, moliyaviy, intellektual va axborot resurslari hamda strategik boshqaruvning o'zaro uyg'unligi muhim hisoblanadi (Bayboboeva, 2025). Kompleks yondashuv va SWOT tahlil asosida kuchli va zaif tomonlarni aniqlash korxona iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash uchun zarur ilmiy asos yaratadi (1-jadval).

1- jadval. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda SWOT tahlili

| | |
|---|---|
| **Kuchli jihatlar (Strengths)**<br>- Moliyaviy barqarorlik va likvidlik darajasining nisbatan yuqoriligi;<br>- Malakali kadrlar salohiyati va boshqaruv tajribasining mavjudligi;<br>- Raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari;<br>- Ichki nazorat va rejalashtirish tizimining mavjudligi; | **Zaif tomonlari (Weaknesses)**<br>- Risklarni boshqarish tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi;<br>- Axborot xavfsizligi mexanizmlarining sustligi;<br>- Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining pastligi;<br>- Innovatsion faoliyatga investitsiya hajmining cheklanganligi |
| **Imkoniyatlar (Opportunities)**<br>- Raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi;<br>- Davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab quvvatlash dasturlari;<br>- Investitsion muhitning yaxshilanishi;<br>- Xalqaro bozorlar bilan integratsiya imkoniyatlari. | **Tahdidlar (Theats)**<br>- Bozor konyukturasining beqarorligi;<br>- Raqobat muhitining keskinlashuvi;<br>- Moliyaviy va iqtisodiy inqiroz xavfi;<br>- Kiberxavflar va axborot tahdidlarining ortib borishi |

Zamonaviy bozor sharoitida an'anaviy boshqaruv usullari korxona iqtisodiy xavfsizligini to'liq ta'minlay olmaydi. Shu sababli innovatsion yondashuvlar, jumladan raqamli texnologiyalar, katta ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt, integratsiyalashgan risk-menejment tizimlari va axborot xavfsizligi mexanizmlari iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi.

SWOT tahlil asosida ishlab chiqilgan strategik xulosalar korxona kuchli jihatlari va mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish, zaif tomonlarni bartaraf etish hamda tashqi tahdidlarni minimallashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni oshirish imkonini beradi.

Ushbu yondashuvlar korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, risklarni kamaytirish va uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Tezisda keltirilgan ilmiy tahlillar va tavsiyalar amaliyotda korxona iqtisodiy xavfsizligini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Raqobatbardoshlik — iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas qismidir. Raqobat bardoshliligi yuqori bo'lgan korxonalar bozor sharoitidagi salbiy omillarga tez moslashadi, daromad va bozor ulushini saqlab qoladi va biznes resurslarini optimal darajada foydalanadi. Innovatsiyalarni joriy etish, bozor strategiyalarini yangilash va yanada ilg'or boshqaruv usullarini qo'llash orqali korxonalar raqobatbardoshlikni oshiradi, bu ularning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitlarda korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash — bu murakkab, tizimli va ko'p komponentli jarayondir. Bu jarayon risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, raqamli transformatsiya, strategik rejalashtirish va funktsional elementlarni samarali boshqarishga asoslanadi. Korxonalar o'z resurslarini integratsiyalash orqali ichki va tashqi tahdidlarga tez javob bera oladi, barqaror o'sish strategiyalarini ishlab chiqadi va raqobatbardoshlikni oshiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim boshqaruv vazifalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, bozor raqobatining kuchayishi, iqtisodiy xatarlar va noaniqliklar ortib borayotgan sharoitda korxonalar faoliyatining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun iqtisodiy xavfsizlikni samarali boshqarish mexanizmlarini shakllantirish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy tahlil, ekonometrik modellashtirish, indikatorlar tizimi va ko'p mezonli baholash usullaridan foydalanish korxona faoliyatini har tomonlama baholash va xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash sohasida turli nazariy yondashuvlar shakllangan bo'lsa-da, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida mazkur masalaga integratsiyalashgan va tizimli metodologik yondashuvni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan iqtisodiy xavfsizlikni baholashda moliyaviy, ishlab chiqarish, innovatsion va institutsional omillarni qamrab olgan kompleks indikatorlar tizimini shakllantirish zarur.

Shu bilan birga, korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda raqamli texnologiyalar, axborot-tahlil tizimlari va intellektual boshqaruv instrumentlaridan foydalanish samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiy xavflarni barvaqt aniqlash, strategik qarorlar qabul qilish sifatini yaxshilash va korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Umuman olganda, korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy metodologik yondashuvlarini takomillashtirish korxonalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, ularning raqobatbardoshligini oshirish va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi..

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Bayboboeva, F. (2025). Functional elements and directions of ensuring the economic security of the enterprise. Economics and Innovative Technologies. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss3/i27
2. Kopylyuk, O. I., Tymchyshyn, J. V., Muzychka, O. M., & others (2021). Economic security of enterprises risk analysis and sustainability strategies. Business Inform.https://www.researchgate.net/publication/399078119_ECONOMIC_SECURITY_OF_THE_ENTERPRISE_RISK_ANALYSIS_AND_SUSTAINABILITY_STRATEGIES.
3. Makhmudova, G., & Janizakova, S. (2025). The importance of digitalization in ensuring the economic security of enterprises. Modern Science and Research. https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/73472.
4. Primorac, T., Kozina, T., & Turčić, I. (2018). Economic security of enterprises. Poslovna izvrsnost/Business Excellence. https://ideas.repec.org/a/zag/busexc/v12y2018i2p167-175.html
5. Shynkar, S., Gontar, Z., & Dubyna, M. (2020). Assessment of economic security of enterprises: theoretical and methodological aspects. Econstor. https://www.econstor.eu/bitstream/10419/248026/1/1700203878.pdf.
6. Toxirov, A. (2024). Korxonalarning raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligini bozor sharoitida ta'minlash yo'llari. Ilg'or Iqtisodiyot va Pedagogik Texnologiyalar.
7. Uktamov, K. (2023). The main directions of ensuring the economic security of enterprises. World Bulletin of Management and Law. https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2121.
8. Uktamov, K. (2024). Improving the practice of ensuring the economic security of enterprises. World Bulletin of Management and Law. https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/4388.
9. Sadriddinova, N. X. (2025). Mechanism of ensuring economic security of the enterprise: methodological aspect. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 3(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.15016953
10. Bayboboeva, F. N. (2025). Korxonalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari [Theoretical-methodological bases for increasing the efficiency of ensuring economic security in enterprises]. Innovations in Science and Technologies

# KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHATLARI

**Karimov Alibek Valiyevich**
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
dekan o'rinbosari

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning nazariy va metodologik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kichik biznes faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning ahamiyati, moliyaviy xavfsizlik tushunchasining iqtisodiy mohiyati hamda unga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar tizimli ravishda o'rganilgan. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligini baholash va ta'minlashda risklarni boshqarish tizimining roli asoslab berilgan. Tadqiqot davomida moliyaviy risklarni identifikatsiya qilish, baholash, monitoring qilish hamda ularni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish jarayonlari tahlil qilingan. Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda diversifikatsiya, sug'urtalash, zaxira fondlarini shakllantirish, moliyaviy monitoring va moliyaviy rejalashtirish kabi boshqaruv instrumentlarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash uchun kompleks boshqaruv yondashuvlarini joriy etish hamda moliyaviy risklarni samarali boshqarish tizimini shakllantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, moliyaviy xavfsizlik, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy risklar, risk-menejment, moliyaviy monitoring, diversifikatsiya, moliyaviy rejalashtirish.

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological aspects of ensuring the financial security of small businesses. The study systematically studies the importance of ensuring financial stability in small business activities, the economic essence of the concept of financial security, and the external and internal factors affecting it. It also substantiates the role of the risk management system in assessing and ensuring the financial security of small businesses. The study analyzes the processes of identifying, assessing, monitoring financial risks, and developing strategies to minimize them. The importance of management instruments such as diversification, insurance, the formation of reserve funds, financial monitoring, and financial planning in ensuring financial security is highlighted. According to the results of the study, the need to introduce integrated management approaches and form an effective financial risk management system is justified in order to ensure the financial security of small businesses.

Key words: small business, financial security, financial stability, financial risks, risk management, financial monitoring, diversification, financial planning.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и методологические аспекты обеспечения финансовой безопасности субъектов малого бизнеса. В исследовании системно рассмотрены значение обеспечения финансовой устойчивости в деятельности малого бизнеса, экономическая сущность понятия финансовой безопасности, а также совокупность внешних и внутренних факторов, влияющих на неё. Кроме того, обоснована роль системы управления рисками в оценке и обеспечении финансовой безопасности субъектов малого бизнеса. В ходе исследования проанализированы процессы идентификации, оценки, мониторинга финансовых рисков и разработки стратегий их минимизации. Освещена значимость таких управленческих инструментов, как диверсификация, страхование, формирование резервных фондов, финансовый мониторинг и финансовое планирование в обеспечении финансовой безопасности. По результатам исследования обоснована необходимость внедрения комплексных управленческих подходов и формирования эффективной системы управления финансовыми рисками для обеспечения финансовой безопасности субъектов малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, финансовая безопасность, финансовая устойчивость, финансовые риски, риск-менеджмент, финансовый мониторинг, диверсификация, финансовое планирование.

## KIRISH

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, raqobat muhitining kuchayishi, iqtisodiy munosabatlarning raqamlashuvi va tashqi iqtisodiy xatarlarning ortishi sharoitida korxonalar faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy iqtisodiy muhitda korxonalar nafaqat bozorda raqobatbardoshlikni saqlab qolishi, balki turli iqtisodiy, moliyaviy, institutsional va axborot xatarlariga qarshi barqaror faoliyat yuritish imkoniyatini ta'minlashi zarur. Shu nuqtayi nazardan, korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish hamda uning metodologik asoslarini ishlab chiqish iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Moliyaviy xavfsizlik masalasi korxonalar faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim strategik omil hisoblanadi. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash muammosi yanada dolzarb hisoblanadi, chunki ularning moliyaviy resurslari nisbatan cheklangan bo'lib, tashqi risklarga nisbatan sezgirlik darajasi yuqori bo'ladi. Shu sababli kichik biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash masalasi nafaqat iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri, balki korxona darajasida samarali boshqaruv tizimini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Bugungi kunda global iqtisodiy muhitda yuz berayotgan o'zgarishlar, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, moliyaviy bozorlarda raqobatning kuchayishi hamda iqtisodiy risklarning ortib borishi sharoitida kichik biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning metodologik asoslarini chuqur o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi kichik biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning metodologik jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar iqtisodiy xavfsizligi iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, u korxonaning barqaror rivojlanishi, resurslardan samarali foydalanishi hamda ichki va tashqi tahdidlarga qarshi himoyalanganlik darajasi bilan izohlanadi. Ushbu nazariyaning rivojlanishiga ko'plab xorijiy olimlar hissa qo'shgan. Jumladan, L. Abalkin iqtisodiy xavfsizlikni iqtisodiy tizimning barqarorligi va tashqi tahdidlarga qarshi turish qobiliyati bilan bog'laydi. A. Tatarkin va V. Senchagov esa uni iqtisodiy tizimning barqaror faoliyati hamda milliy va korporativ manfaatlarni himoya qiluvchi institutsional mexanizmlar majmuasi sifatida talqin qiladilar. Buzan, Vever va Uayld iqtisodiy xavfsizlikni keng qamrovli xavfsizlik konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqadilar.

Zamonaviy tadqiqotlarda korxona iqtisodiy xavfsizligini baholashda integral indikatorlar va ekonometrik modellardan foydalanish keng tarqalgan. Bunda moliyaviy barqarorlik, likvidlik, rentabellik, innovatsion faollik va bozor ulushi kabi ko'rsatkichlar asosiy indikatorlar sifatida qo'llaniladi. Mahalliy olimlar Sadriddinova N.X., Uktamov X.F. va Bayboboeva F.N. korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning metodologik asoslari va muammolarini o'rganib, uni ichki va tashqi tahdidlarga qarshi turuvchi kompleks tizim sifatida baholaydilar. Shuningdek, Primorac, Kozina va Turčić, Shynkar va boshqalar iqtisodiy xavfsizlikni moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish va strategik rejalashtirish bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida izohlaydilar. Umuman olganda, korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimli yondashuv, strategik boshqaruv va raqamli texnologiyalarni joriy etishga asoslanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning uslubiy yondashuvlarini ilmiy asosda o'rganish va tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, funksional va integratsiyalashgan yondashuvlar uyg'unligiga asoslanib, iqtisodiy xavfsizlikni ko'p komponentli va dinamik jarayon sifatida baholash imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus ilmiy usullar, jumladan, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullari orqali iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning tarkibiy elementlari o'rganildi va nazariy xulosalar umumlashtirildi. Taqqoslash (komparativ) usuli yordamida xorijiy va mahalliy yondashuvlar solishtirilib, ularning ustun va zaif jihatlari aniqlab berildi. Metodologik asos sifatida tizimli yondashuv tanlanib, korxona iqtisodiy xavfsizligining moliyaviy, tashkiliy, texnologik va axborot komponentlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Shuningdek, risk-menejment konsepsiyasi asosida risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish bosqichlari izchil ko'rib chiqilib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda strategik va prognozlash mexanizmlarining ahamiyati asoslab berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy xavfsizlik iqtisodiy xavfsizlik tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, korxona faoliyatining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy xavfsizlik tushunchasiga turlicha

yondashuvlar mavjud bo'lib, u ko'pincha korxonaning moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda moliyaviy risklarni minimallashtirish qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

Moliyaviy xavfsizlik korxonaning moliyaviy mustaqilligi, to'lovga qobiliyatliligi, likvidliligi hamda rentabellik darajasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kompleks iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. U korxona faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi omillarga qarshi barqarorlikni ta'minlashni nazarda tutadi.

Kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy xavfsizlik quyidagi asosiy jihatlar bilan tavsiflanadi:

moliyaviy resurslarning yetarliligi;

likvidlik va to'lovga qobiliyatlilikning barqarorligi;

moliyaviy risklarni boshqarish imkoniyati;

kapital strukturasining optimal darajada shakllanishi;

daromad va xarajatlar muvozanatining ta'minlanishi (1-rasm).




1-rasm. Kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy xavfsizlik quyidagi asosiy jihatlari

Mazkur omillar kichik biznes subyektlarining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash tizimi korxonaning strategik boshqaruv jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Kichik biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: tashqi va ichki omillar.

Kichik biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda tahlil qilinganda, ularni ikki asosiy guruhga — tashqi va ichki omillarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Ushbu omillar korxonaning moliyaviy barqarorligi, to'lovga qobiliyatliligi hamda uzoq muddatli rivojlanish istiqbollarini belgilovchi muhim determinantlar hisoblanadi.

Tashqi omillar, avvalo, makroiqtisodiy muhit, davlat iqtisodiy siyosati hamda bozor kon'yunkturasiga bog'liq bo'lib, kichik biznes subyektlari faoliyatiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Kichik biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar

| Omillar guruhi | Omil nomi | Mazmuni va moliyaviy xavfsizlikka ta'siri |
|---|---|---|
| Tashqi omillar | Makroiqtisodiy barqarorlik | Inflyatsiya, iqtisodiy o'sish sur'ati va valyuta kursining o'zgarishi korxona moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. |
| Tashqi omillar | Kredit resurslari mavjudligi | Bank kreditlari va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati kichik biznesning investitsion faoliyatini kengaytiradi. |
| Tashqi omillar | Soliq siyosati | Soliq stavkalari va imtiyozlar korxona moliyaviy yukini belgilaydi hamda foyda darajasiga ta'sir qiladi. |
| Tashqi omillar | Raqobat muhiti | Bozor raqobati kuchayishi daromadlar barqarorligiga ta'sir etadi. |
| Tashqi omillar | Davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari | Subsidiyalar, grantlar va imtiyozli kreditlar kichik biznes moliyaviy barqarorligini oshiradi. |
| Tashqi omillar | Moliyaviy infratuzilma rivojlanganligi | Banklar, sug'urta tashkilotlari va moliyaviy xizmatlar mavjudligi moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi. |

| | | |
|---|---|---|
| Tashqi omillar | Bozor kon'yunkturasi | Talab va taklif o'zgarishlari korxonaning daromad barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. |
| Ichki omillar | Moliyaviy menejment sifati | Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish korxona barqarorligini ta'minlaydi. |
| Ichki omillar | Kapital strukturasining optimal darajasi | O'z mablag'lari va qarz kapitali o'rtasidagi muvozanat moliyaviy mustaqillikni belgilaydi. |
| Ichki omillar | Likvidlik darajasi | Korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish qobiliyatini ifodalaydi. |
| Ichki omillar | Xarajatlarni boshqarish tizimi | Xarajatlarni optimallashtirish foyda darajasini oshiradi. |
| Ichki omillar | Rentabellik darajasi | Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi. |
| Ichki omillar | Risk-menejment tizimi | Moliyaviy risklarni aniqlash va minimallashtirish korxona barqarorligini ta'minlaydi. |
| Ichki omillar | Innovatsion faoliyat | Texnologik yangiliklar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. |
| Ichki omillar | Strategik rejalashtirish | Uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlaydi. |

Jumladan, inflyatsiya darajasi, milliy valyuta kursining o'zgarishi, iqtisodiy o'sish sur'atlari hamda kredit resurslariga kirish imkoniyatlari korxonalarning moliyaviy barqarorligini belgilovchi muhim makroiqtisodiy omillar hisoblanadi. Ayniqsa, bank kreditlari va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining kengligi kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Shu bilan birga, soliq siyosati va davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ham moliyaviy xavfsizlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Davlat tomonidan taqdim etiladigan soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar kichik biznes subyektlarining moliyaviy yukini kamaytirib, ularning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ichki omillar esa bevosita korxona boshqaruv tizimi va moliyaviy menejment samaradorligi bilan bog'liq bo'lib, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xususan, kapital strukturasining optimal darajada shakllanishi, likvidlik darajasining barqarorligi, rentabellik ko'rsatkichlarining yuqoriligi hamda xarajatlarni samarali boshqarish tizimi korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, risk-menejment tizimining mavjudligi moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash va ularni minimallashtirish imkonini beradi. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda strategik rejalashtirish jarayonlarini samarali tashkil etish kichik biznes subyektlarining bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshiradi va moliyaviy xavfsizlik darajasini mustahkamlaydi. Umuman olganda, kichik biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligi tashqi va ichki omillarning o'zaro uyg'un ta'siri natijasida shakllanadi. Shu sababli moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash jarayonida makroiqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda, korxona darajasida samarali moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash zamonaviy iqtisodiy sharoitda muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Moliyaviy xavfsizlik korxona faoliyatining barqarorligini ta'minlash, moliyaviy risklarni minimallashtirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligi ko'p omilli tizim bo'lib, u makroiqtisodiy muhit, moliyaviy resurslar mavjudligi, korxona boshqaruv tizimi hamda risklarni boshqarish mexanizmlariga bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash jarayonida kompleks metodologik yondashuvlardan foydalanish zarur.

Kichik biznes subyektlarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- moliyaviy risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
- moliyaviy monitoring va tahlil mexanizmlarini rivojlantirish;
- innovatsion faoliyatni rag'batlantirish;
- davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish.

Natijada kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi oshadi, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi kuchayadi hamda milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga ijobiy hissa qo'shiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Bayboboeva, F. (2025). Functional elements and directions of ensuring the economic security of the enterprise. Economics and Innovative Technologies. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss3/i27
2. Kopylyuk, O. I., Tymchyshyn, J. V., Muzychka, O. M., & others (2021). Economic security of enterprises risk analysis and sustainability strategies. Business Inform.https://www.researchgate.net/publication/399078119_ECONOMIC_SECURITY_OF_THE_ENTERPRISE_RISK_ANALYSIS_AND_SUSTAINABILITY_STRATEGIES.
3. Makhmudova, G., & Janizakova, S. (2025). The importance of digitalization in ensuring the economic security of enterprises. Modern Science and Research. https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/73472.
4. Primorac, T., Kozina, T., & Turčić, I. (2018). Economic security of enterprises. Poslovna izvrsnost/Business Excellence. https://ideas.repec.org/a/zag/busexc/v12y2018i2p167-175.html
5. Shynkar, S., Gontar, Z., & Dubyna, M. (2020). Assessment of economic security of enterprises: theoretical and methodological aspects. Econstor. https://www.econstor.eu/bitstream/10419/248026/1/1700203878.pdf.
6. Toxirov, A. (2024). Korxonalarning raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligini bozor sharoitida ta'minlash yo'llari. Ilg'or Iqtisodiyot va Pedagogik Texnologiyalar.
7. Uktamov, K. (2023). The main directions of ensuring the economic security of enterprises. World Bulletin of Management and Law. https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2121.
8. Uktamov, K. (2024). Improving the practice of ensuring the economic security of enterprises. World Bulletin of Management and Law. https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/4388.
9. Sadriddinova, N. X. (2025). Mechanism of ensuring economic security of the enterprise: methodological aspect. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 3(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.15016953
10. Bayboboeva, F. N. (2025). Korxonalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari [Theoretical-methodological bases for increasing the efficiency of ensuring economic security in enterprises]. Innovations in Science and Technologies.
11. Brigham, E. F., & Ehrhardt, M. C. (2017). Financial management: Theory and practice (15th ed.). Cengage Learning.
12. Abdualimov, A. Q. (2021). Ensuring the economic security of the country is a guarantee of its comprehensive development. International Journal of Academic Management Science Research, 5(1), 83–87.

# KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI NOMUTANOSIBLIGINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH VA UNI BARTARAF ETISH MEXANIZMI

**Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna**
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti
Email: g.kaypnazarova2025@mail.ru
ORCID: 0000-0001-8250-3450

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari mutanosibligini ta'minlash orqali ularning iqtisodiy xavfsizligi va barqaror rivojlanishini mustahkamlashda ma'muriy mexanizmlarning ahamiyati tadqiq etilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalari misolida o'tkazilgan tahlillar ishlab chiqarish resurslari o'rtasidagi nomutanosibliklar korxonalar faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, shu bilan birga ularning iqtisodiy barqarorligi va xavfsizligiga muayyan xavflarni yuzaga keltirishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqarish omillari holatini tizimli monitoring qilish, resurslardan samarali foydalanish va ularni qayta taqsimlash mexanizmlarini joriy etish hamda institutsional qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirishga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etildi. Ushbu mexanizmni amaliyotga joriy etish kichik biznes subyektlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, iqtisodiy xavflarni kamaytirish va korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada kichik biznes faoliyatining barqarorligi va raqobatbardoshligi oshishiga erishish mumkin.

Kalit so'zlar: kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, ishlab chiqarish omillari, optimallashtirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, ishlab chiqarish hajmi.

Abstract. The article examines the importance of administrative mechanisms in strengthening the economic security and sustainable development of small business enterprises by ensuring the proportionality of production factors. The analysis conducted on the example of enterprises of the Republic of Karakalpakstan showed that the imbalances between production resources negatively affect the efficiency of enterprises, and at the same time create certain risks to their economic stability and security. Based on the results of the study, an organizational and economic mechanism was proposed based on systematic monitoring of the state of production factors, the introduction of mechanisms for the effective use and redistribution of resources, and strengthening institutional support measures. The implementation of this mechanism in practice will serve to increase the efficiency of resource use in small business entities, reduce economic risks, and ensure the economic security of enterprises. As a result, it is possible to achieve an increase in the stability and competitiveness of small business activities.

Key words: small business and private entrepreneurship, production factors, optimization, organizational-economic mechanism, production volume.

Аннотация. В статье исследована значимость административных механизмов в укреплении экономической безопасности и устойчивого развития предприятий малого бизнеса посредством обеспечения сбалансированности факторов производства. Проведённый на примере предприятий Республики Каракалпакстан анализ показал, что диспропорции между производственными ресурсами негативно влияют на эффективность деятельности предприятий, а также создают определённые угрозы их экономической устойчивости и безопасности. На основе результатов исследования предложен организационно-экономический механизм, основанный на системном мониторинге состояния факторов производства, эффективном использовании и перераспределении ресурсов, а также усилении институциональной поддержки. Внедрение данного механизма на практике способствует повышению эффективности использования ресурсов в субъектах малого бизнеса, снижению экономических рисков и обеспечению экономической безопасности предприятий. В результате достигается повышение устойчивости и конкурентоспособности деятельности малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес и частное предпринимательство, факторы производства, оптимизация, организационно-экономический механизм, объём производства.

## KIRISH

Jahonda xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshlik xususiyatlarini rivojlantirishda kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblikning samaradorlikka ta'sirini oshirishga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ishlab chiqarish omillarining an'anaviy va zamonaviy turlari o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi, innovatsion tavifdagi omillardan foydalanishni kengaytirish, ishlab chiqarish omillari rivojlanganlik darajasining faoliyat samaradorligiga ta'sirini baholash, omillar samaradorligini oshirishda innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llash, kichik biznes korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish bu boradagi ilmiy-tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda qulay muhit yaratish bilan bog'liq muammolarni hal etish, korxonalarning barqarorligini ta'minlash hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish tadbirlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Korxonalarning barqarorligini ta'minlash hamda iqtisodiy samaradorligini kichik biznes korxonalaridagi iqtisodiy resurs yoki jarayonlarning ishlab chiqarish omili maqomiga muvofiq kelishini baholashning asosiy mezonlarini belgilash, hududdagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi idoralar tomonidan kichik biznes korxonalari o'rtasida resurslarning o'zaro harakatini muvofiqlashtiruvchi guruhlarni shakllantirish orqali ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi nomutanosiblik holatlarining oldini olish va faoliyatga salbiy ta'sir xavfini kamaytirish, korxonalardagi ishlab chiqarish omillari mutanosibligi darajasi, ulardan foydalanish samaradorligining muntazam monitoringi va diagnostikasi, korxonaning joriy va istiqboldagi iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bo'yicha maslahat berish xizmatlarini yo'lga qo'yish, mamlakatdagi kichik biznes korxonalaridagi ishlab chiqarish omillarining soha yalpi ishlab chiqarish hajmiga ta'sirining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni taqozo etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlari faoliyatini samarali tashkil etish, barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish asosiy jihatlarining tadqiqi xorijlik olimlardan V.Gorfinkel, I.Zagoruyko[1], G.Imayeva [2], V.Karpushkin, Ye.Kozma [4], A.Корыsova [3], I.Krotov [5] T.Turenko, I.Ustich, V.Shvandar, G.Sherova, A.Shilkina, A.Soy kabilar tomonidan amalga oshirilgan.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, jumladan, ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish muammolari Yo.Abdullayev [6], U.G'afurov, G.Abdurahmonova [6], H.Abulqosimov [7], O.Aripov [8], I.Bakiyeva, M.Boltabayev, M.Ibragimova [9], F.Karimov, N.Murodova [10], Q.Muftaydinov [11], S.Salayev [12], B.G'oyibnazarov va boshqa qator olimlarning ilmiy tadqiqotlarida tadqiq etilgan. Amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblikning ilmiy-uslubiy va amaliy masalalari tizimli holda tadqiq etilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar rasmiy statistika manbalari, korxonalar moliyaviy hisobotlari hamda so`rovnoma natijalari asosida yig`ildi. Tahlilda taqqoslash, iqtisodiy-statistik va korrelyatsion usullar qo`llanildi. Ishlab chiqarish omillari o`rtasidagi nomutanosiblik darajasi integral ko`rsatkichlar orqali baholanib, ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri regressiya tahlili yordamida aniqlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida ishlab chiqarish omillari va iqtisodiy resurslarning o'zaro farqli jihatlarini quyidagi jadval orqali umumlashtirish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Ishlab chiqarish omillari va iqtisodiy resurslarning o'zaro farqli jihatlari


| Asosiy jihatlar | Ishlab chiqarish omillari | Iqtisodiy resurslar |
|---|---|---|
| Ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish tavsifi | Bevosita | Bilvosita |
| Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonining xususiyatlariga muvofiqligi | Muayyanlik (aniqlik) | Umumiylik |
| Muayyan omilning ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishi natijasi | Omilga xos daromadning yaratilishi | Doimo ham omilga xos daromadning mavjud bo'lmasligi |

| | | |
|---|---|---|
| Ishlab chiqarish imkoniyatlari va natijalariga ta'sir darajasi | Hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi | Doimo ham hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmasligi |
| Ishlab chiqarish jarayonida boshqa turdagi omillar bilan aloqasi | O'zaro bog'liq va o'zaro bir-birini to'ldirish xususiyatiga egaligi | Doimo ham o'zaro bog'liq va o'zaro bir-birini to'ldirmasligi |

Demak, yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo'llaniluvchi barcha resurslar ishlab chiqarish omillari deyiladi. Ishlab chiqarish omillari tushunchasining mazmuni va tarkibi mazkur atamaga klassik va zamonaviy iqtisodiy yo'nalish namoyondalari bo'yicha farqlanadi. Klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan jamiyatda bozor munosabatlari ommaviy tus olgan davrga qadar ishlab chiqarish omillari asosan uchta qismdan, ya'ni ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlaridan iborat bo'lishi ta'kidlab kelingan.

Qoraqalpog'istondagi kichik biznes korxonalaridagi ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik bilan bog'liq holat hamda uni ta'minlash borasidagi muammolarni tadqiq etishda mazkur tadqiqot doirasida qator korxonalar ishtirokida ijtimoiy so'rovnoma hamda monografik tadqiqotlar o'tkazildi.

Bir qator korxonalarda ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik bilan bog'liq muammolarning mavjudligi to'g'risidagi so'rovnoma natijalarini quyidagi diagramma orqali ifodalash mumkin (1-rasm).




1-rasm. Qoraqalpog'iston kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik bilan bog'liq muammolarning mavjudligi, so'ralganlarga nisbatan foizda


Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinadiki, o'zlari faoliyat yuritayotgan korxonada ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik bilan bog'liq muammolar mavjudligini so'ralganlarning "Muratbek mebel" MCHJda 90%, "Kardar" MCHJda 68%, "Jipek joli" MCHJda 43%, "Panamilk" MCHJda 83%, "Iskander - Jansaga" MCHJda 49% qismi tasdiqlagan. Mazkur javob salmoqlaridan quyidagi xulosa va mulohazalarni ilgari surish mumkin:

1) korxonada ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik bilan bog'liq muammolar mavjudligining "Muratbek mebel" MCHJ (90%) va "Panamilk" MCHJ (83%) yuqori darajada qayd etilishining asosiy sababi – mazkur korxonalarning ishlab chiqarish sohasiga ixtisoslashganligidir. Chunki, ishlab chiqarish sohasida asbob-uskunalar, xomashyo va materiallar, bino va inshootlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori darajada namoyon bo'lib, u vaqti-vaqti bilan turli omillar ta'sirida o'zgarib ham turadi;

2) mazkur ko'rsatkichning "Jipek joli" MCHJda past bo'lishi (43%) mazkur korxonaning mehmonxona xizmati ko'rsatishga ixtisoslashganligi bilan izohlanadi;

3) mazkur ko'rsatkichning "Kardar" ko'p tarmoqli MCHJda nisbatan mo'tadil bo'lishi (68%) mazkur korxonaning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, savdo faoliyatlariga ixtisoslashganligi bilan izohlanadi. Agar ushbu korxonada ishlab chiqarish omillari o'rtasida ma'lum darajada nomutanosiblik paydo bo'lsa, ishlab chiqarish omillarini faoliyatning turli yo'nalishlariga qayta taqsimlash (joylashtirish) orqali bartaraf etish imkoni mavjud bo'ladi.

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik bilan bog'liq muammolarni hal etishda mahalliy idoralar tomonidan qo'llab-quvvatlashning zarur deb hisoblovchilarning salmog'i "Muratbek mebel" MCHJda 85%, "Kardar" MCHJda 45%, "Jipek joli" MCHJda 30%, "Panamilk" MCHJda 79%, "Iskander - Jansaga" MCHJda 51%ni tashkil etgan. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, so'ralganlarning asosiy qismi mazkur muammoning ahamiyatini his etgan holda, uni bartaraf etishda mahalliy davlat va jamoatchilik idoralarining ishtirokini yuqori baholaydi (2-rasm).





C

2-rasm. Qoraqalpog'iston kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik bilan bog'liq muammolarni hal etishda mahalliy idoralar tomonidan qo'llab-quvvatlashning zarurligi, so'ralganlarga nisbatan foizda

Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, jumladan ularning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlarni vujudga keltirishda mahalliy davlat va jamoatchilik idoralarining roli ahamiyatli hisoblanadi. Jumladan, mahalliy hokimiyatlar, Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining hududiy vakolatli ofislari, Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari bu borada asosiy mas'ul idoralardan hisoblanadi.

Fikrimizcha, ushbu idoralar oldida turgan muhim vazifalardan biri – kichik biznes korxonalarining samarali faoliyatini ta'minlash ekan, demak, ular ixtiyoridagi ishlab chiqarish omillarining ham yuqori samaradorlik darajasini ta'minlovchi tarkibini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mazkur idoralar tomonidan o'ziga xos mexanizmning ishlab chiqilishi va yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq (3-rasm).




3-rasm. Kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillari bo'yicha nomuvofiqlikni aniqlash va bartaraf etish mexanizmi

Mazkur mexanizmning amal qilish tartibini quyidagi izchillik orqali bayon etish mumkin.

1. Hududdagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi idoralar, jumladan, mahalliy hokimiyat idoralari, Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining hududiy vakolatli ofislari, Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari tomonidan birgalikda ishlab chiqarish omillarining turlari bo'yicha kichik biznes korxonalaridagi o'zaro ichki harakatini ta'minlovchi guruhlar shakllantiriladi.

2. Mazkur guruhlar, masalan, xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar bo'yicha tuzilganda, o'z ishlab chiqarish faoliyatida bir xil yoki nisbatan yaqin bo'lgan xomashyo va materiallardan foydalanib kelayotgan kichik biznes korxonalarining o'z ixtiyorlariga ko'ra elektron shakldagi platforma (ro'yxat) tarzida shakllantiriladi. Bundan maqsad, biron-bir guruh a'zosida muayyan xomashyo yoki material turi bo'yicha yetishmovchilik yoki ehtiyojdan ortiqchalik holati vujudga kelgan holda, u guruhning boshqa a'zolariga bu haqida xabar beradi.

3. Mazkur xabar, o'z navbatida hududdagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi idoralar tomonidan tashkil etilgan birlashgan monitoring markaziga ham kelib tushadi. Agar guruhdagi korxonalar mazkur xomashyo yetishmovchiligi yoki ortiqchaligini o'zaro manfaatli almashinuv orqali hal etsalar, monitoring markazi tomonidan hech qanday xatti-harakat talab etilmaydi.

4. Bunda jarayon amalga oshmagan va guruh a'zosining talabi qondirilmagan holatda, monitoring markazi o'z ma'lumotlari asosida guruh a'zolari o'rtasiga mazkur muammoni hal etish bo'yicha o'zining taklif va tavsiyalarini taqdim etadi. Ushbu taklif va tavsiyalar bu boradagi mutaxassislarning mavjud ma'lumotlar, axborotlar bazasi, maxsus hisob-kitoblar, prognozlar va boshqa puxta ishlab chiqilgan ssenariylariga asoslangan bo'ladi.

5. Kichik biznes korxonalarining o'zaro ichki harakatini ta'minlovchi guruhlarga birlashishini rag'batlantiruvchi dastak – bu muammoning hal etilishida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi idoralar tomonidan taqdim etiluvchi amaliy yordam hisoblanadi. Buning uchun mazkur idoralar tomonidan shakllantirilgan ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlashga mo'ljallangan resurslar zaxirasidan foydalaniladi. Ya'ni, biron-bir korxonada xomashyo yetishmasligi yoki ortiqchaligi vujudga kelgan taqdirda, ushbu nomuvofiqlikni guruhdagi boshqa korxonalar ishtirokida hal etish imkoni topilmasa, u holda birlashgan monitoring markazining qaroriga ko'ra ushbu korxonaga zarur miqdordagi tegishli xomashyo olib berilishi, yoki aksincha, korxonadagi ortiqcha xomashyoni zaxira uchun sotib olinishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish darajasini oshirishda bevosita ishlab chiqarish jarayonining o'ziga e'tibor qaratilib, uning dastlabki, tayyorgarlik bosqichi nazardan chetda qoladi. Shunga ko'ra, ishda biznes-g'oya va biznes-rejani tayyorlash bosqichi tahlil qilinib, aksariyat holatlarda biznes-g'oyaning muvaffaqiyati uni ishlab chiqish va amalga oshirish muddati bilan to'g'ri bog'liqlikda bo'lishi aniqlandi.

Taklif etilgan mexanizmning amalga oshish mazmunidan ko'rinadiki, mazkur chora-tadbirlar kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarish omillarining yetishmasligi yoki ortiqcha qismining muomaladan tashqarida turib qolmasligi, ya'ni nomutanosiblik xavfini pasaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Fikrimizcha, korxonada ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosiblik holati va shundan kelib chiqqan holda, ulardan foydalanish samaradorligini muntazam baholab borilishi lozim. Buning eng maqbul yo'llaridan biri – kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotga ega idoralar salohiyatidan foydalanish hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Загоруйко И.Ю. исследование развития и оптимизации малого предпринимательство в России в условиях мирового кризиса // Вестник Пермского университета. 2012, №3;
2. Имаева Г. Р. Теоретико-методологические аспекты изучения социальной роли малого и среднего предпринимательства // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. 2015. №4. С.141-153;
3. Копысова А.С. Экономическое стимулирование развития малого предпринимательства на сырьевых территориях: автореф. дис. … канд. экон. наук / А.С. Копысова. – Екатеринбург, 2005. - 27 с.;
4. Козьма Е.С. Устойчивое развитие малого предпринимательства как показатель развития ПМР // Инновации в науке: научный журнал. – № 1(77). – Новосибирск., Изд. АНС «СибАК», 2018;
5. Кротов И.И. Развитие малого предпринимательства на основе государственных и муниципальных заказов (на примере регионов Российской Федерации). Дисс...канд.экон.наук. – Пермь. 2015;
6. Абдурахманова Г. К. Кичик бизнесда аҳолини муносиб меҳнат тамойиллари асосида иш билан таъминлашни такомиллаштириш. Авт…..иқт.фан.док. –Т.: 2016. 77 б.;
7. Абулқосимов Ҳ.П., Қулматов А.А. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оилавий тадбиркорликнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари. Монография. – Т.: Университет, 2015. – 126 б.;
8. Арипов О.А. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солиш ва ишбилармонлик муҳитини ривожлантириш. Авт..иқт. фан. док. –Т.: 2020 й. 72 б;

9. Ибрагимова М.М. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятининг таркибий ўзгаришлар асосида самарадорлигини ошириш (Наманган вилояти мисолида). Автореф .....ицт. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). – Т., 2018.;
10. Муродова Н.Қ. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг назарий асосларини такомиллаштириш. Авт.....ицт.фан.док. –Т.: 2016 й. 107 б;
11. Муфтайдинов Қ. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари. Дис. ... иқт. фан. д-ри. – Т., 2004.;
12. Салаев С.К. Кичик бизнес ривожланиш тенденцияларини моделлаштириш ва башоратлаш (Ўзбекистон Республикаси мисолида). Дис. ... иқт. фан. д-ри. – Т., 2008.

# КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ С ПОМОЩЬЮ SWOT-АНАЛИЗА

**Набиев Бехзод Шавкатович**
Высшая школа бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Аннотация. В современных условиях усиления конкуренции, нестабильности внешней среды и ускорения процессов глобализации особую актуальность приобретает проблема обеспечения экономической безопасности субъектов малого бизнеса. Малые предприятия играют важную роль в развитии национальной экономики, однако их деятельность сопровождается повышенной уязвимостью к различным внутренним и внешним угрозам. В связи с этим возникает необходимость разработки эффективных методов оценки уровня экономической безопасности и выявления факторов, влияющих на устойчивость функционирования малого бизнеса.

В данной статье рассматриваются критерии оценки экономической безопасности субъектов малого предпринимательства с использованием инструментария SWOT-анализа. Данный метод позволяет системно исследовать внутренние сильные и слабые стороны предприятия, а также определить внешние возможности и угрозы, оказывающие влияние на его экономическую устойчивость. В работе обоснована целесообразность применения SWOT-анализа как аналитического инструмента, способствующего комплексной диагностике состояния экономической безопасности малого бизнеса.

Ключевые слова: экономическая безопасность, малый бизнес, SWOT-анализ, критерии оценки, внутренние факторы, внешние угрозы, конкурентоспособность, устойчивое развитие, стратегический анализ, предпринимательская деятельность.

Annotatsiya. Zamonaviy sharoitda raqobatning kuchayishi, tashqi muhitning beqarorligi hamda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi sharoitida kichik biznes sub'yektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Kichik korxonalar milliy iqtisodiyot rivojlanishida muhim o'rin tutadi, biroq ularning faoliyati turli ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan yuqori darajadagi zaiflik bilan tavsiflanadi. Shu munosabat bilan kichik biznes faoliyatining barqarorligini ta'minlovchi omillarni aniqlash hamda iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholashning samarali usullarini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Mazkur maqolada kichik biznes sub'yektlarining iqtisodiy xavfsizligini baholash mezonlari SWOT-tahlil instrumentlaridan foydalanish asosida ko'rib chiqiladi. Ushbu metod korxonaning ichki kuchli va zaif tomonlarini tizimli ravishda o'rganish, shuningdek uning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash imkonini beradi. Ishda SWOT-tahlilni kichik biznesning iqtisodiy xavfsizlik holatini kompleks diagnostika qilishga xizmat qiluvchi samarali analitik vosita sifatida qo'llashning maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, kichik biznes, SWOT-tahlil, baholash mezonlari, ichki omillar, tashqi tahdidlar, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish, strategik tahlil, tadbirkorlik faoliyati.

Abstract. In modern conditions characterized by increasing competition, instability of the external environment, and the acceleration of globalization processes, the issue of ensuring the economic security of small business entities has become particularly relevant. Small enterprises play an important role in the development of the national economy; however, their activities are accompanied by increased vulnerability to various internal and external threats. In this regard, there is a need to develop effective methods for assessing the level of economic security and identifying the factors that influence the stability of small business operations.

This article examines the criteria for assessing the economic security of small business entities using the tools of SWOT analysis. This method makes it possible to systematically study the internal strengths and weaknesses of an enterprise, as well as to identify external opportunities and threats that influence its economic stability. The paper substantiates the feasibility of applying SWOT analysis as an analytical tool that contributes to a comprehensive diagnosis of the state of economic security in small businesses.

Key words: economic security, small business, SWOT analysis, assessment criteria, internal factors, external threats, competitiveness, sustainable development, strategic analysis, entrepreneurial activity.

## ВВЕДЕНИЕ

В развитых странах мира многие социально-экономические вопросы развития с помощью малого бизнеса решаются положительно. По данным ООН, около 90 процентов всех предприятий - это малые и средние предприятия, на которые приходится 70 процентов работающего населения и 50 процентов мирового ВВП[1]. Однако сила описания свободы и изменчивости в деятельности малого бизнеса, в свою очередь, увеличивает уровень риска в отрасли. В частности, различные уровни экономических колебаний, чрезвычайных ситуаций и кризисов представляют большую угрозу для устойчивости малого бизнеса.
«В результате пандемии во всем мире многие малые предприятия прекратили свою деятельность, некоторые потеряли ежедневный доход, а некоторые оказались на грани банкротства. По данным Международной организации труда, количество предприятий, находящихся под угрозой банкротства, превышает 436 миллионов, большая часть из которых - малые предприятия. ... По данным портала Business Insider, стихийные бедствия привели к банкротству 40 процентов малых предприятий"[2]. Поэтому на сегодняшний день считается важнейшим вопросом обеспечение экономической безопасности в малом бизнесе и частном предпринимательстве.

Для совершенствования научно-теоретических аспектов развития бизнеса, являющегося экономической и политической опорой страны теоретические и методологические основы нашли свое отражение в исследованиях таких зарубежных ученых как, А.Смит, Ж.Б.Сэй, А.Маршалл, Й.Шумпетер, Ж.Кейнс, Р.Хизрич, М.Питерс, Ф.Хайек, М.Лапуста, К.Макконнелл, С.Брю и другие.

Особенности безопасности малого бизнеса и частного предпринимательства в экономической системе изучали ученые стран СНГ Абалкин М.И., Спанов М.С., Сеалова Г.С., Азарская М.А., Кочергина Т.Е., Рязанова О.А.

## ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Научные исследования выявления особенностей безопасности в экономической системе малого бизнеса провели такие зарубежные ученые как Л.И.Абалкин, Г.С.Сеялова, М.А.Азарская, Т.Е.Кочергина, О.А.Рязанова, И.Г.Борок, А.С.Микуленков, З.Чийкановски.[3]

В Узбекистане исследованием факторов, влияющих на экономическую безопасность, а также значимости и необходимости ее обеспечения в деятельности малого бизнеса занимаются такие ученые как Х.П.Абулкосимов, Ш.Р.Кабилов, Я.Э.Алиев, С.Хасанов, Б.О.Турсунов, И.С.Хотамов, М.К.Олимов, А.Ж.Исмоилов, С.С.Гуломов.[4]

И.С. Хотамов утверждает, что «Экономическая безопасность является одним из основных звеньев, обеспечивающих национальную безопасность государства, представляет собой совокупность взглядов, основанных на способах, средствах и методах гарантированного обеспечения экономических потребностей страны. В концептуальном виде он основан на анализе основных факторов экономического риска, вытекающих из состояния экономического потенциала государства.»[5] С помощью данного теоретического взгляда автор подразумевает, что экономическая безопасность является фактором, удовлетворяющим потребности экономики страны.

О.А. Руазанова в своей исследовательской работе приводит следующее определение: «Экономическая безопасность субъектов малого бизнеса характеризуется наличием потенциала развития, возможностей обеспечения уровня финансовой устойчивости в условиях негативного воздействия внутренних и внешних факторов угрозы для малых предприятий.»[6]

О.И. Васильшук в своей научной теории выдвинул следующий подход: «Экономическая безопасность субъектов малого и среднего бизнеса - это совокупность нормативных и правовых условий, обеспечивающих устойчивое развитие предпринимательства в долгосрочной перспективе.»[7] В данном подходе автор подразумевает, что на экономическую безопасность субъектов малого бизнеса и предпринимательства, помимо экономических факторов, влияют нормативно-правовые отношения.

1 Махмутов Т.А. Как коронавирус меняет работу малого и среднего бизнеса: закрытие магазинов, поддержка государства и время стартапов. - https://ach.gov.ru/news/
2 Соловьева В.Г. Влияние ограничительных мер в связи с новой коронавирусной инфекцией (COVID-19) на малый бизнес. // Journal of Economy and Business, vol. 9-2 (67), 2020. С.69.
3 Абалкин Л.И. Экономической безопасность теории до концепции долгосрочной стратегии // Проблемы современной России. М., 2011, с. 39-47.
4 Ҳ.П.Абулқосимов "Иқтисодий хавфсизлик" ўқув қўлланма. –Т.: "Академия", 2006 й. 7-б.
5 И.С. Хотамов. "Иқтисодий хавфсизлик ва рақамли иқтисодиёт" мақола. "Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни шакллантиришда менежмент ва корпоратив бошқарувнинг аҳамияти" халқаро илмий-амалий конференция. –Т.: "ТДИУ" 2020 й. 376-б.
6 О. А. Рязанова. "Развитие мониторинга факторов экономической безопасности субъектов малого бизнеса на основе риск-ориентированного подхода" дисс. –К.: 2018г. С-17.
7 Васильчук, О.И. Процедуры аудита деятельности предприятий малого и среднего бизнеса, направленные на обеспечение экономической безопасности / О.И. Васильчук // Инновационное развитие экономики. – 2011. – № 3. – С. 17

Вышеперечисленные научные работы посвящены исследованию теоретических основ различных аспектов обеспечения экономической безопасности в деятельности малого бизнеса. Однако, на сегодняшний день недостаточно изучены особенности экономической безопасности в зависимости от сферы и отрасли деятельности малого бизнеса, разработка эффективных механизмов и инструментов обеспечения экономической безопасности в условиях широкомасштабной цифровизации, а также совершенствование ее законодательно-правовой основы.

## МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Данное исследование проводилось в сочетании методов качественного и количественного анализа. В основу методологии исследования положен системный подход, при котором классификация угроз экономической безопасности рассматривалась как составная часть.

Конкретизированы теоретические основы концепции и систематизированы ее основные компоненты. С помощью сравнительного анализа сравнивались экономические последствия оценки экономической безопасности малого бизнеса и частного предпринимательства посредством SWOT-анализа. С помощью экономико-статистического подхода были оценены взаимосвязи.

В ходе исследования были использованы индуктивные и дедуктивные методы, сформулированы общие выводы.

## АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Были проанализированы экономические показатели малого бизнеса ичастного предпринимательства, действующих в Наманганской области. Был проведен SWOT-анализ факторов, влияющих на устойчивость частного предпринимательства и экономическую безопасность, представлена основа для улучшения системы финансовой безопасности.

Понятие экономической безопасности в хозяйствующем субъекте тесно связано с угрозами, возникающими в процессе его деятельности. Сегодня в литературе встречаются разные определения терминов, и их можно по-разному интерпретировать как «угроза экономической безопасности», «угроза безопасности бизнеса», «угроза безопасности предприятия» или воспринимать как синонимы. Если рассортировать термины, то следует отдать приоритет термину «угроза экономической безопасности», что означает негативное влияние на любую экономическую деятельность.

При оценке уровня экономической безопасности малого бизнеса и частного предпринимательства необходимо оценивать его функциональные составляющие. Необходимо использовать метод SWOT-анализа.

SWOT-анализ - удобный инструмент для быстрой оценки стратегической позиции по теме. Стратегия SWOT-анализа - это эффективный метод анализа, позволяющий максимально полно показать лучшие внутренние возможности (сильные и слабые стороны) и внешнюю ситуацию (возможности и угрозы) (таблица 1).

Таблица 1. SWOT-анализ оценки экономической безопасности малого бизнеса и частного предпринимательства[8]

| ВОЗМОЖНОСТИ | РИСКИ |
|---|---|
| · Создание новых малых предприятий.<br>· Наращивание потенциала: природные ресурсы, научные и технические ресурсы, человеческие ресурсы и т. д.<br>· Неправительственные некоммерческие организации, способствующие созданию научно-технических центров и развитию предпринимательства.<br>· Использование энергии, топлива и прочая промышленная деятельность<br>· Государственная поддержка в создании малого бизнеса, мобильность юридических лиц. | · Отсутствие действенного механизма развития бизнеса и экономической безопасности.<br>· Монопольная политика крупных предприятий.<br>· Неадекватная экономическая политика для малого бизнеса.<br>· Финансово-кредитная и налоговая система.. |

8 Соловьева В.Г. Влияние ограничительных мер в связи с новой коронавирусной инфекцией (COVID-19) на малый бизнес. // Journal of Economy and Business, vol. 9-2 (67), 2020. С.69.

| СИЛЬНАЯ СТОРОНА | СЛАБАЯ СТОРОНА |
|---|---|
| 1. Увеличение количества новых рабочих мест.<br>2. Создание малых вспомогательных предприятий.<br>3. Государственная политика в организации и развитии предпринимательской деятельности.<br>4. Удовлетворение спроса<br>5. Свобода ведения бизнеса.<br>6. Льготы, предоставляемые государством при организации предпринимательства и производства.<br>7. Разработка нормативно-правовых документов о предпринимательстве и его эффективности.<br>8. Создание новых механизмов поддержки малого бизнеса. | 1. Низкий уровень или отсутствие использования производственных технологий в регионе.<br>2. Монополия между отдельными видами деятельности.<br>3. Низкое использование достижений науки и техники.<br>4. Низкий уровень квалификации предпринимателей и персонала.<br>5. Вопросы финансовой безопасности<br>6. Отсутствие ресурсов или низкий коэффициент использования<br>7. Высокий уровень налогов.<br>8. Отсутствие естественной конкуренции.<br>9. Высокий уровень затрат. |

Сильные стороны важны для обеспечения экономической безопасности и устойчивого развития отрасли. С этой целью для оценки сильных и слабых сторон SWOT-анализа был проведен опрос среди субъектов предпринимательства, входящих в региональное отделение Торгово-промышленной палаты.

По результатам опроса общий вывод SWOT-анализа можно найти в матричной таблице ниже (таблица 2).

Таблица 2. Анкетные общие результаты SWOT-анализа экономической безопасности малого бизнеса и частного предпринимательства (в процентах)[9]

| | Результаты оценок | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Сильная сторона** | **1** | **2** | **3** | **4** | **5** | **6** | **7** | **8** | |
| Сильные возможности | 28 | 20 | 25 | 30 | 37 | 22 | 25 | 35 | |
| | **Результаты оценок** | | | | | | | | |
| **Слабая сторона** | **1** | **2** | **3** | **4** | **5** | **6** | **7** | **8** | **9** |
| Слабые возможности | 20 | 34 | 30 | 28 | 38 | 25 | 22 | 24 | 32 |

Результаты SWOT-анализа показали, что сильнейшая сторона в системе сильных сторон в обеспечении экономической безопасности малого бизнеса и частного предпринимательства (в процентах) «Сильная сторона» -1. «Увеличение количества новых рабочих мест», 4. «Удовлетворение спроса», 5. «Свобода ведения бизнеса», 8. «Создание новых механизмов поддержки малого бизнеса» , «Слабые стороны» - 2. «Монополия между отдельными видами деятельности», 3. «Низкое использование достижений науки и техники», 4. «Низкий уровень квалификации предпринимателей и персонала», 5. «Проблемы финансовой безопасности», 9. «Факторы затрат», такие как отсутствие высоких зарплат По результатам SWOT-анализа необходимо уделять больше внимания финансовым вопросам, повышать рациональное использование финансовых или иных ресурсов, а также повышать уровень квалифицированного персонала в развитии устойчивости и экономической безопасности малого бизнеса и частного сектора.

На сегодняшний день считается важным предотвращать различные угрозы, затрагивающие малый бизнес и частное предпринимательство. В современном деловом мире экономическая безопасность становится все более важным и многоцелевым компонентом административного управления. Понятие «угроза безопасности» меняется из года в год, и в список угроз постоянно добавляются новые факторы и элементы.

В своем исследовании Ю.А. Бурцев считает[10] существенным влияние внешних факторов, влияющих на экономическую безопасность малого бизнеса и частного предпринимательства, и в качестве основных внешних факторов, влияющих на него, называет:

9 Источник авторская разработка

10 Ю.А.Бурцев. Экономическая безопасность малогопредпринимательства в России. Научный журнал "Мир новой экономики".: №1/2016. С-90

• экономическое положение страны;
• страхование высокой стоимости;
• высокий уровень налогов;
• отсутствие квалифицированного персонала.

Повышение эффективности экономической безопасности в малом бизнесе и частном предпринимательстве достигается за счет классификации угроз и оценки экономической безопасности, а также повышения эффективности производственных и сервисных систем в малых предприятиях. Для этого необходимо обосновать классификацию основных угроз экономической безопасности малого бизнеса и частного предпринимательства (рисунок 1).





Рисунок 1. Основы классификации угроз, влияющих на экономическую безопасность малого бизнеса и частного предпринимательства[11]

В данном рисунке включены нейтрализованные основы угроз экономической безопасности малого бизнеса и частного предпринимательства, основные факторы, буквально влияющие на экономическую безопасность хозяйствующего субъекта. К ненейтрализованным базам относятся факторы, частично влияющие на экономическую безопасность хозяйствующих субъектов.

Классификация угроз экономической безопасности показывает, во-первых, что угрозы сегодня имеют теоретическую основу и, во-вторых, имеют практическое значение. Это, в свою очередь, позволяет разделить угрозы на малые, средние и большие классы.

Классификации можно считать теоретически важными при проведении будущих анализов экономической безопасности, особенно при выполнении STEP или SWOT-анализа (таблица 3).

Таблица 3. Классификация угроз экономической безопасности[12]

| № | Характерная черта | Содержание |
|---|---|---|
| 1 | Угрозы объекту | Внутренние и внешние |
| 2 | Наличие | Текущее и потенциальное |
| 3 | Время, в которое это может произойти | Постоянный или случайный |
| 4 | Уровень | Явный или неявный |
| 5 | Объективное присутствие | Истинный или четкий фокус |
| 6 | Воздействие на объект | Бывает активным или пассивным |
| 7 | Уровень происхождения | Правовой, экономический, экологический, технический, социальный |

11 Источник авторская разработка
12 Источник авторская разработка

Эти классификации были разработаны с учетом ключевых элементов, которые влияют на уровень экономической безопасности малого бизнеса и частного предпринимательства, а также на способность предотвращать и оценивать его, а также теоретические основы ученых по данной теме.

## ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

По результатам исследования в данной статье были сделаны следующие выводы:

1. Активизация хозяйственной деятельности субъектов малого предпринимательства на основе обеспечения экономической безопасности при государственном регулировании малого бизнеса и предпринимательства. Такая среда называется бизнес средой, которая обеспечивает определенную экономическую свободу, наличие предпринимательского сообщества, наличие рыночных приоритетов в экономических отношениях, формирование предпринимательского капитала и предотвращение различных угроз в использовании необходимых ресурсов.

2. Признание малого бизнеса и частного предпринимательства теми, кто осуществляет свою деятельность в условиях неопределенности и риска - это независимый субъект, который преследует свои цели с риском для получения прибыли. В этом контексте экономическая безопасность посредством выявления и оценки факторов риска и угроз, влияющих на бизнес, должна рассматриваться как важный элемент.

3. Анализ правовых норм и мнений различных ученых позволил выявить важные особенности и роли экономической безопасности. Основные понятия и категории, теоретические взгляды, высказанные авторами, логически связаны в концептуальной модели экономической безопасности: стратегия, государственная политика, экономическая безопасность, основные и частные принципы экономической безопасности, безопасность экономической деятельности. Это, в свою очередь, позволяет на основе концептуальных подходов обеспечить теоретические и методологические основы экономической безопасности малого бизнеса и предпринимательства. Это также повышает эффективность экономической безопасности, что является одним из ключевых условий развития.

4. Повышает возможность обеспечения экономической безопасности деятельности за счет учета общих характеристик, влияющих на финансовую безопасность малого бизнеса и частного предпринимательства. В связи с этим внедрение SWOT-анализа эффективно при оценке финансовой устойчивости на основе обеспечения экономической безопасности малого бизнеса и частного предпринимательства. В результате SWOT-анализа и опроса исследование показало, что финансовая безопасность является важным фактором обеспечения экономической безопасности малого бизнеса и частного предпринимательства.

Это, в свою очередь, увеличивает способность предприятий теоретически выявлять и предотвращать решения проблем безопасности в отрасли.

**Список использованной литературы:**


1. Махмутов Т.А. Как коронавирус меняет работу малого и среднего бизнеса: закрытие магазинов, поддержка государства и время стартапов. - https://ach.gov.ru/news/
2. Соловьева В.Г. Влияние ограничительных мер в связи с новой коронавирусной инфекцией (COVID-19) на малый бизнес. // Journal of Economy and Business, vol. 9-2 (67), 2020. С.69.
3. Абалкин Л.И. Экономической безопасность теории до концепции долгосрочной стратегии // Проблемы современной России. М., 2011, с. 39-47.
4. Абалкин Л.И. Экономической безопасность теории до концепции долгосрочной стратегии // Проблемы современной России. М., 2011, с. 39-47.
5. Ҳ.П.Абулқосимов "Иқтисодий хавфсизлик" ўқув қўлланма. –Т.: "Академия", 2006 й. 7-б.
6. И.С. Хотамов. "Иқтисодий хавфсизлик ва рақамли иқтисодиёт" мақола. "Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни шакллантиришда менежмент ва корпоратив бошқарувнинг аҳамияти" халқаро илмий-амалий конференция. –Т.: "ТДИУ" 2020 й. 376-б.
7. О. А. Рязанова. "Развитие мониторинга факторов экономической безопасности субъектов малого бизнеса на основе риск-ориентированного подхода" дисс. –К.: 2018г. С-17.
8. Васильчук, О.И. Процедуры аудита деятельности предприятий малого и среднего бизнеса, направленные на обеспечение экономической безопасности / О.И. Васильчук // Инновационное развитие экономики. – 2011. – № 3. – С. 17
9. Ю.А.Бурцев. Экономическая безопасность малогопредпринимательства в России. Научный журнал "Мир новой экономики".: №1/2016. С-90

# TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH HAMDA QO'LLAB-QUVVATLASHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI

**Tashmuxamedova Yayra Atxamovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasi katta o'qituvchi, PhD.
Email: yayrusha@tsue.uz
ORCID: 0009-0002-0826-3991

**Teshayev Sayimbek**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiy xavfsizlik yo'nalishi 3-bosqich IX-75 guruh talabasi
Email: s.teshayev@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ilmiy-amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot 2020–2024-yillarni qamrab olib, kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va davlat qo'llab-quvvatlash siyosatining samaradorligini statistik ma'lumotlar asosida baholaydi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2020-yilda 56,7 foizni, 2024-yilda 53,5 foizni tashkil etgan. Tadqiqotda moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, kredit stavkalari, institutsional muhit barqarorligi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlarining kichik biznes iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri o'rganildi. Amaliy misol sifatida Uzum Market platformasining rivojlanish tajribasi tahlil qilindi. Natijalar institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, risklarni boshqarish tizimini rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatini yanada samarali shakllantirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, kichik biznes, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, institutsional muhit, risklarni boshqarish, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract. This article examines the scientific and practical aspects of ensuring the economic security of entrepreneurship and small business entities, as well as the mechanisms of state support for them in Uzbekistan. The study covers 2020–2024 and, based on statistical data, evaluates the role of small business in the national economy and the effectiveness of state support policy. The share of small business entities in gross domestic product amounted to 56.7 percent in 2020 and 53.5 percent in 2024. The research analyzes the impact of access to financial resources, lending rates, the stability of the institutional environment, and financial support instruments on the economic security of small business. As a practical case, the development experience of the Uzum Market platform is examined. The findings provide a scientific basis for improving institutional mechanisms, developing risk management systems, and enhancing the effectiveness of entrepreneurship support policy.

Key words: economic security, small business, entrepreneurship support, institutional environment, risk management, economic stability.

Аннотация. В данной статье анализируются научно-практические аспекты обеспечения экономической безопасности субъектов предпринимательства и малого бизнеса, а также механизмы их государственной поддержки в Узбекистане. Исследование охватывает 2020–2024 годы и на основе статистических данных оценивает роль малого бизнеса в национальной экономике и эффективность государственной политики его поддержки. Доля субъектов малого предпринимательства в валовом внутреннем продукте составила 56,7 процента в 2020 году и 53,5 процента в 2024 году. В исследовании рассмотрено влияние доступа к финансовым ресурсам, уровня кредитных ставок, устойчивости институциональной среды и инструментов финансовой поддержки на экономическую безопасность малого бизнеса. В качестве практического примера проанализирован опыт развития платформы Uzum Market. Полученные результаты служат научной основой для совершенствования институциональных механизмов, развития системы управления рисками и повышения эффективности политики поддержки предпринимательства.

Ключевые слова: экономическая безопасность, малый бизнес, поддержка предпринимательства, институциональная среда, управление рисками, экономическая устойчивость.

## KIRISH

O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi bugungi bosqichda faqat iqtisodiy faollikni kengaytirish vositasi sifatida emas, balki milliy iqtisodiyotning barqarorligi, bandlikning uzluksizligi, hududiy rivojlanishning muvozanatliligi va xususiy tashabbusning institutsional himoyasini ta'minlovchi strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Kichik biznes bozor talabiga tez moslasha olishi, nisbatan kam kapital bilan ish o'rinlari yaratishi, xizmatlar va savdo segmentida yuqori harakatchanlikni ta'minlashi hamda innovatsion yechimlarni amaliyotga tezroq joriy etishi bilan iqtisodiyotning muhim tayanch qatlamini shakllantiradi. Shu sababli uning iqtisodiy xavfsizligi masalasi alohida korxona darajasidagi barqarorlik muammosi bilan cheklanmay, balki makroiqtisodiy barqarorlik, tadbirkorlik muhitining sifati va davlatning rivojlantiruvchi siyosati samaradorligi bilan bevosita bog'liq ilmiy kategoriya sifatida qaralishi lozim. Mazkur yondashuvning huquqiy asosi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunda belgilangan bo'lib, unda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular uchun erkin faoliyat yuritish sharoitlarini yaratish davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida mustahkamlangan.

So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining institutsional va moliyaviy qamrovi sezilarli darajada kengaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-306-son[1] qarori qarori bilan kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlashning yangi bosqichi boshlab berildi, "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi joriy etildi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ushbu dastur doirasidagi moliyaviy resurslarni rejalashtirish va muvofiqlashtirish bilan bog'liq muhim vazifalar yuklatildi [1]. Keyingi bosqichda Prezidentning 2024-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-132-son[2] Farmoni bilan mazkur tizimning moliyaviy sig'imi yanada kengaytirilib, dastur doirasida "300 mln so'mlik mikrokredit" mahsulotini joriy etish va kichik tadbirkorlik subyektlariga katta hajmda mikrokreditlar yo'naltirish mexanizmlari nazarda tutildi [2].

Davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan subsidiya, imtiyozli kredit, kafillik va boshqa preferensiyalar amaliyotda keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ularning kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi, bozor xatarlariga chidamliligi, investitsion faolligi va daromadlilik darajasiga ta'sirini ilmiy asosda baholash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, kredit resurslari qiymatining yuqoriligi, institutsional to'siqlar hamda bozor konyunkturasining o'zgaruvchanligi kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan, mazkur maqolada qo'llab-quvvatlash choralarining hajmi emas, balki ularning natijadorligi va amaliy samarasi tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik va kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi xalqaro va milliy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xalqaro tadqiqotlarda ushbu masala, asosan, raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish, moliyaviy cheklovlar va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi bilan bog'liq holda o'rganiladi. Xususan, Harvard Business School professori Michael E. Porter "The Competitive Advantage of Nations" va "Clusters and the New Economics of Competition" asarlarida innovatsiyalar, klasterlashuv va davlatning rag'batlantiruvchi roli kichik biznes barqarorligi hamda raqobat ustunligini shakllantirishda muhim ekanini asoslaydi [3]. Harvard Business School professori Josh Lerner esa tadbirkorlikni moliyaviy rag'batlantirishga qaratilgan davlat dasturlari faqat institutlar sifati, to'g'ri tanlov mexanizmi va monitoring tizimi mavjud bo'lgandagina kutilgan natija berishini ko'rsatadi [4]. Lernerning "The Government as Venture Capitalist" ishida esa davlatning erta bosqich moliyalashtirish dasturlari ayniqsa xususiy investitsiya infratuzilmasi mavjud hududlarda firmalar o'sishini tezlashtirishi aniqlangan [5].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar orasida H.P. Abulqosimov iqtisodiy xavfsizlikni tizimli o'rgangan mualliflardan biri bo'lib, u xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida baholaydi hamda tadbirkorlik subyektlarining manfaatlari huquqiy, tashkiliy va moliyaviy choralar orqali himoyalanishi lozimligini ta'kidlaydi [6]. B.O. Tursunov o'zining "Iqtisodiy xavfsizlik" fanidan o'quv qo'lanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim "lokomotiv" sifatida baholab, ushbu sohani qo'llab-quvvatlash tadbirkorlik muhitini yaxshilash, xususiy mulk himoyasini kuchaytirish, investitsion va innovatsion faollikni rag'batlantirish hamda eksport salohiyatini oshirish bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi [7]. D.I. Ruzmetov "Solutions for Boosting Management Effectiveness in the Small Business Sector" maqolasida kichik biznes barqaror rivojlanishi uchun boshqaruv samaradorligi, strategik

1 https://lex.uz/uz/docs/-6609110
2 https://lex.uz/uz/docs/-7089547

rejalashtirish va moliyaviy boshqaruv tizimini kuchaytirish zarurligini asoslab beradi [8]. Abdulhamid Akbarov "Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish" nomli tadqiqotida kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda moliyaviy barqarorlik, infratuzilma, raqamli texnologiyalar va xavf-hatarlarni boshqarish omillarini tahlil qilgan [9].


## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy tahlil, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda ilmiy adabiyotlar sharhi usullaridan foydalanildi. Empirik ma'lumotlar bazasi O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Jahon banki hamda IHTT (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) hisobotlari asosida shakllantirildi. Tahlil doirasida 2020–2024-yillarda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlikdagi o'rni, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, kreditlash ko'rsatkichlari va davlat tomonidan ajratilgan qo'llab-quvvatlash instrumentlarining amaliy natijalari o'rganildi.

Shuningdek, Prezident farmonlari, qarorlari, amaldagi qonunchilik hujjatlari hamda soha bo'yicha rasmiy dasturlar asosida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning institutsional va moliyaviy mexanizmlari baholandi. Olingan natijalar xalqaro yondashuvlar bilan qiyoslanib, kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda ularni kuchaytirishga xizmat qiluvchi amaliy mexanizmlar aniqlab berildi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror faoliyati mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi, ichki bozor muvozanati va bandlik tizimining muhim tayanchlaridan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarni o'rganish natijasida aniqlanishicha, 2020–2024-yillar davomida kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 56,7 foizdan 53,5 foizgacha tushgan. Shu bilan birga, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 257 993,6 mlrd so'm miqdorida qo'shilgan qiymat yaratilgan bo'lib, bu iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning 47,5 foiziga teng bo'lgan. Mazkur ko'rsatkich kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi roli faqat son jihatdan emas, balki real qo'shilgan qiymat yaratish nuqtayi nazaridan ham muhimligini tasdiqlaydi (1-rasm).




1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi (foiz ko'rsatkichda) [10]

Xalqaro taqqoslashlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda ko'plab davlatlar faqat kredit ajratish bilan cheklanmay, balki kafillik, foiz yukini kamaytirish, eksportni rag'batlantirish va texnologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlash instrumentlarini birgalikda qo'llaydi. Masalan, Qozog'istonda 2025-yilda "Baiterek" xoldingi huzurida Damu negizida KOB subyektlari uchun Garantiya fondi ishga tushirilib, yetarli garovi bo'lmagan tadbirkorlarga 7 mlrd tengegacha kreditlar bo'yicha kafolat berish

mexanizmi joriy etildi [11]. Janubiy Koreyada esa 2025-yil uchun 26,5 trln vonlik siyosiy moliyalashtirish paketi tasdiqlanib, uning tarkibida 12,2 trln von yangi kafolatlar, 6 trln von texnologik kafolatlar hamda tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz yukini kamaytirishga qaratilgan alohida kompensatsiya vositalari nazarda tutilgan.

Tarmoqlar kesimida tahlil qilinganda, kichik biznesning iqtisodiy xavfsizlikdagi roli ayniqsa qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmatlar sohasida yaqqol namoyon bo'ladi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 96,7 foizni, qurilishda 74,8 foizni, xizmatlar sohasida 40,1 foizni va sanoatda 21,9 foizni tashkil etgan. Bu holat kichik biznesning, avvalo, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan ta'minlash, hududiy iqtisodiy faollikni saqlash va ishbilarmonlik muhitini kengaytirishda ustuvor o'rin tutayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, sanoatdagi ulush nisbatan past bo'lsa-da, xizmatlar va qurilish sohalaridagi yuqori faollik kichik biznesning moslashuvchanligi va bozor kon'yunkturasiga tez javob bera olish xususiyatini tasdiqlaydi [12].

Kichik biznesning amaliy iqtisodiy salohiyati chakana savdo, eksport va investitsiya jarayonlarida ham yaqqol ko'rinadi. O'zbekiston Respublikasida 2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi 82 foizni tashkil etgan bo'lib, chakana savdo hajmi 126 823,5 mlrd so'mga yetgan va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,2 foizga oshgan. Shu bilan birga, 2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmi 3,8 mlrd AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 28,9 foizini tashkil etgan. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy hajmida kichik biznes ulushining 48,7 foizga yetgani esa bu sektor faqat iste'mol bozorida emas, balki investitsion faollik va kapital shakllanishi jarayonida ham muhim ishtirokchi ekanini ko'rsatadi [13].

Hududiy kesimdagi ko'rsatkichlar ham kichik biznesning iqtisodiy xavfsizlikdagi o'rni bir tekis emasligini ko'rsatadi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIM tarkibidagi eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida 77,9 foizni, Samarqand viloyatida 69,8 foizni, Buxoro viloyatida 69,5 foizni va Jizzax viloyatida 68,3 foizni tashkil etgan. Bu holat hududlar kesimida kichik biznesning iqtisodiy tayanch sifatidagi o'rni turlicha ekanini, demak, uni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ham hududiy xususiyatlar, tarmoq tarkibi va bozor infratuzilmasi darajasidan kelib chiqib shakllantirilishi lozimligini bildiradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligi faqat kredit yoki subsidiya bilan emas, balki moliyaviy resurslarga kirish, ichki bozor hajmi, logistika, xizmatlar infratuzilmasi, investitsion faollik va hududiy raqobat muhitining birgalikdagi ta'siri orqali shakllanadi (1-jadval).

1- jadval. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi (foiz ko'rsatkichda)[14]

| Hududlar | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|---|---|
| Surxondaryo viloyati | 77.9 | 78 | 77.3 | 76.6 | 77.9 |
| Samarqand viloyati | 75.2 | 74.3 | 70.8 | 72 | 72.4 |
| Buxoro viloyati | 77 | 77.4 | 74.4 | 72.5 | 72.4 |
| Jizzax viloyati | 83.8 | 80.6 | 78.3 | 74.8 | 74.7 |
| Navoiy viloyati | 25.3 | 27 | 26.8 | 27.6 | 23.5 |
| Sirdaryo viloyati | 72.9 | 71.2 | 67.8 | 65 | 68.5 |
| Xorazm viloyati | 77.7 | 75.9 | 72 | 72.4 | 72.8 |
| Namangan viloyati | 76.4 | 76.1 | 74.6 | 74 | 73.9 |

Uzum ekotizimining ochiq e'lon qilingan ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, 2023-yil uning birinchi to'liq faoliyat yili bo'lib, yil yakunida oylik foydalanuvchilar soni 10 millionga, sof foyda qariyb 100 million AQSH dollariga, elektron tijorat aylanmasi esa taxminan 150 million AQSH dollariga yetgan. 2024-yil yakunida esa foydalanuvchilar bazasi 16 millionga, sof foyda 150 million AQSH dollariga, umumiy GMV 345 million AQSH dollariga, BNPL va mikroqarzlar hajmi 421 million AQSH dollariga, kredit portfeli esa 226 million AQSH dollariga yetgan. Demak, 2023-yildan 2024-yilga o'tishda sof foyda 50% ga, foydalanuvchilar soni 60% dan ortiqqa, elektron tijorat aylanmasi esa 2,4 baravarga oshgan. Bu natijalar kompaniyaning qisqa muddatda bozor qamrovi, monetizatsiya va operatsion samaradorlikni sezilarli kengaytirganini ko'rsatadi[14]. Uzum Market'ning tez o'sishida davlat yaratgan institutsional muhit muhim rol o'ynagan. Kompaniya 2022-yil 15-martda ro'yxatdan o'tgan, Uzum Market servisi esa 2022-yil oktabrida ishga tushirilgan. Eng muhim omillardan biri — uning IT Park rezidenti ekani bo'lib, bu rejim korporativ soliqning 0%, ijtimoiy soliqning 0%, jismoniy shaxslar daromad solig'ining 7,5% etib belgilanishini, ayrim bojxona to'lovlari va import qilinadigan xizmatlar bo'yicha QQSdan ozod etishni nazarda tutadi. Mazkur preferensiyalar startap va platforma biznesi uchun juda qulay hisoblanadi, chunki ular fiskal yukni kamaytirib, mablag'larni logistika, texnologiya va bozor kengayishiga qayta yo'naltirish imkonini beradi[15].

Bozor va makroiqtisodiy natijalar nuqtayi nazaridan Uzum ekotizimi 2024-yilda O'zbekiston budjetiga qariyb 1,2 trillion so'm o'tkazgan, soliq to'lovlari bir yilda 28% ga oshgan, ekotizimda 11 mingdan ortiq xodim ishlagan va bir yilning o'zida qariyb 3 mingta yangi ish o'rni yaratilgan. Bu ko'rsatkichlar berilgan imtiyozlar iqtisodiy jihatdan samara berganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan Uzumning kuchli tomonlari yuqori foyda dinamikasi, katta foydalanuvchi bazasi, tez kengayayotgan logistika tarmog'i va yirik soliq qaytimida namoyon bo'ladi. Nozik jihati esa fintech yo'nalishidagi kredit portfelining tez o'sishi bilan bog'liq kredit va likvidlik risklaridir[16].

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Uzum Market misolida davlat tomonidan yaratilgan institutsional sharoitlar va soliq preferensiyalari tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyat yuritishi uchun muhim iqtisodiy omil bo'lib xizmat qilgan. Platformaning qisqa muddat ichida foydalanuvchilar soni, savdo aylanmasi va moliyaviy natijalarining sezilarli o'sishi kichik biznes uchun raqamli savdo infratuzilmasi shakllanganini ko'rsatadi. Natijada Uzum Market nafaqat yirik elektron savdo platformasi sifatida rivojlandi, balki minglab kichik tadbirkorlik subyektlari uchun barqaror savdo kanali, logistika tizimi va to'lov infratuzilmasini ta'minlovchi iqtisodiy ekotizimga aylandi.

Mazkur jarayon kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli platforma orqali tadbirkorlar uchun bozor infratuzilmasiga kirish imkoniyati kengaydi, savdo jarayonlarining shaffofligi oshdi hamda operatsion risklar sezilarli darajada kamaydi. Shu bilan birga, platforma orqali yaratilgan yangi ish o'rinlari, budjetga tushayotgan soliq to'lovlari va kichik biznes subyektlarining yagona savdo tizimiga integratsiyalashuvi iqtisodiy faoliyat barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, 2020–2024-yillarda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim tayanchlaridan biri bo'lib qoldi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 56,7 foizdan 53,5 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, ular ichki bozorni ta'minlash, bandlikni qo'llab-quvvatlash va hududiy iqtisodiy faollikni saqlashda muhim o'rin tutdi. Tadqiqot natijalari kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligi moliyaviy resurslarga kirish, institutsional muhit, logistika va bozor infratuzilmasi bilan bevosita bog'liq ekanini tasdiqladi. Uzum Market misolida davlat tomonidan yaratilgan institutsional imtiyozlar va raqamli infratuzilma savdo aylanmasi, foydalanuvchilar soni hamda soliq qaytimining o'sishiga xizmat qilgani, natijada platforma kichik tadbirkorlik subyektlari uchun barqaror savdo maydoniga aylangani aniqlandi.

Shundan kelib chiqib, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatini ajratilgan mablag'lar hajmi bo'yicha emas, balki uning bandlik, daromadlilik, eksport va bozor barqarorligiga ko'rsatgan natijasi asosida baholash zarur. Hududiy tafovutlarni hisobga olgan holda qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini differensial shakllantirish, raqamli savdo platformalariga integratsiyani kengaytirish hamda iqtisodiy xavfsizlikni baholovchi yagona indikatorlar tizimini ishlab chiqish ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-306-sonli qarori. https://lex.uz/uz/docs/-6609110
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-132-sonli farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-7089547
3. The Compititive Advantage of Nations by Michael E. Porter. https://hbr.org/1990/03/the-competitive-advantage-of-nations
4. Government Incentives for Entrepreneurship by Josh Lerner. March 2020. https://www.nber.org/papers/w26884
5. The Government as Venture Capitalist by Josh Lerner. The Journal of Private Equity Vol 3 Issue 2. https://www.pm-research.com/content/iijpriveq/3/2/55
6. Abulqosimov H.P. (2006) Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 111 – bet
7. B.O.Tursunov. Iqtisodiy xavfsizlik o'quv qo'llanmasi. Toshkent – 2021
8. Ruzmetov D.Ibrogimovich SOLUTIONS FOR BOOSTING MANAGEMENT EFFECTIVENESS IN THE SMALL BUSINESS SECTOR. https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/657
9. Abdulhamid Akbarov "Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish" – Vol. 3 No. 4 (2025): «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali
10. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2
11. Baiterek Holding and its subsidiaries receive KASE awards. https://baiterek.gov.kz/en/pr/news/guarantee-funds-launched-in-kazakhstan-to-finance-smes-and-large-investment-projects
12. 2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qanday? https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/56297-2024-yilning-yanvar-iyun-oylarida-kichik-tadbirkorlik-biznes-ning-yalpi-ichki-mahsulotdagi-ulushi-qanday?

13. Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/55576-kichik-tadbirkorlik-subyektlarining-chakana-savdo-aylanmasidagi-ulushi-3
14. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi (Hududlar kesimida). https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2
15. Uzum becomes first tech unicorn in Uzbekistan after raising over $100 mln in funding. https://uzum.com/en/press-center/news-and-press-releases/uzum-becomes-first-tech-unicorn-in-uzbekistan-after-raising-over-100-mln-in-funding/
16. Uzum has become the first unicorn in Uzbekistan — a company with a valuation exceeding $1 billion. https://www. it-park.uz/en/itpark/news/uzum-has-become-the-first-unicorn-in-uzbekistan-a-company-with-a-valuation-exceeding-1-billion
17. Tashmuxamedova, Y. (2024). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ SIYOSATINING ROLI. Modern Science and Research, 3(12), 1115-1121. https://doi.org/10.5281/zenodo.18266965

# O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

**Toxirova Mushtariybegim Yashnarjon qizi**
O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi "Xalqaro bank ishi" fakulteti
BI – 01 guruh tinglovchisi
O'zbekiston, Toshkent shahri
E-mail: mushtariy999@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda mehnat resurslarini tez o'sishi sharoitida mehnat bozorida ish o'rinlarini yaratish imkoniyatini cheklanganligi sababli, bank kreditlari orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida aholi bandligini ta'minlash masalalari nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: kichik sanoat zonalari, qiymat zanjiri, kredit resurslari, Mushoraka, Murobaha, autsorsing, moliyaviy savodxonlik, biznes-rejalashtirish, bank kreditlari.

Abstract. This article theoretically examines the issues of ensuring employment of the population through the development of small business and private entrepreneurship via bank lending in the context of rapid growth of labor resources and limited opportunities for job creation in the labor market in our country.

Key words: small industrial zones, value chain, credit resources, Musharaka, Murabaha, outsourcing, financial literacy, business planning, bank loans.

Аннотация. В данной статье теоретически освещаются вопросы обеспечения занятости населения посредством развития малого бизнеса и частного предпринимательства через банковское кредитование в условиях быстрого роста трудовых ресурсов и ограниченных возможностей создания рабочих мест на рынке труда в нашей стране.

Ключевые слова: малые промышленные зоны, цепочка создания стоимости, кредитные ресурсы, мушарака, мурабаха, аутсорсинг, финансовая грамотность, бизнес-планирование, банковские кредиты.

## KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash va ijtimoiy muammolarni hal etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik eng muhim bo'g'in hisoblanadi. Sababi, O'zbekiston aholisi yiliga o'rtacha 700–800 ming kishiga ko'payishi natijasida mehnat bozoriga kirib kelayotgan 600 mingdan ziyod yoshlarni ish bilan ta'minlash davlat islohotlarini bosh mezoniga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan davlat korxonalarini xususiylashtirish va transformatsiya qilish natijasida bo'shayotgan ishchi kuchini kichik biznes subyektlariga yo'naltirish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Jumladan, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish, aholi jon boshiga daromadni oshirishning eng qulay yo'li ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish va buning uchun moliyaviy imkoniyatlar yaratishdir.

O'zbekistonda so'nggi yillarda kichik biznesni moliyalashtirish tizimi tubdan isloh qilindi. Ayniqsa, "Mahallabay" ishlash tizimi va hokim yordamchilari institutining joriy etilishi moliyaviy resurslarning manzilliligini ta'minladi va o'zining ijobiy natijasini amaliyotda ko'rsatmoqda. Jami band aholining 70–75% dan ortig'i aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mehnat qilmoqda. Bu sohaning moliyaviy barqarorligi bevosita milliy bandlik ko'rsatkichiga o'zining ijobiy ta'sir etayotganligini ko'rishimiz mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesni moliyalashtirish va bandlik mavzusida bir qator xorijlik olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, Beck va Demirguc-Kunt o'zlarining "Small and medium-size enterprises: Access to finance as a growth constraint" nomli maqolalarida rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesning o'sishiga to'sqinlik

qiluvchi eng katta omil "moliyaviy cheklovlar" ekanini empirik tahlillar bilan isbotlagan. Ularning fikricha, kichik biznesga berilgan har bir dollar kredit yirik biznesga berilgandan ko'ra ko'proq ish o'rni yaratadi, deb ta'kidlaydilar. Bizning fikrimizcha ham bugungi kunda kichik biznesga ajratilgan sarmoyalarning samaradorligi yuqori ekanligini o'z tadqiqotlarimiz orqali kuzatmoqdamiz.

Nobel mukofoti sovrindori Muhammad Yunus o'zining "Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism" risolasida mikromoliyalash modeli orqali aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularni tadbirkorlikka jalb etishni bayon etgan. Bizning fikrimizcha ham bu O'zbekistondagi "Oilaviy tadbirkorlik" dasturlarining nazariy asosini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xorijiy iqtisodchilardan Ayyagari, M., Juras, A. va boshqalar o'zlarining "Finance and Small Business Growth in Dynamic Contexts" risolalarida kichik biznesning nafaqat ish o'rinlari sonini oshirishi, balki innovatsion bandlikni (yuqori malakali ish o'rinlari) yaratishdagi roli xalqaro miqyosda solishtirilgan. Bizning fikrimizcha ham kichik biznes uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi nafaqat korxona o'sishini, balki mamlakatdagi umumiy bandlik darajasining pasayishiga ham olib keladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy tahlil kabi statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALARI

Ilmiy maqola natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ilmiy maqolani tayyorlash natijasida iqtisodchi olimlarni kichik biznesni banklar tomonidan samarali kreditlash orqali aholi bandligini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda ilmiy-nazariy manbaalardan keng foydalanganligi bilan izohlanadi.

O'zbekistonda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning eng moslanuvchan va aholi daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. 2023-2025-yillar oralig'ida kichik biznes subyektlari miqdoriy o'sishdan sifat o'zgarishiga o'tish davri kuzatilmoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2023-2025-yillarda kichik biznes korxonalarini asosiy ko'rsatkichlari

| Kўpsatkichlar nomi | 2023-yil | 2024-yil | 2025-yil |
|---|---|---|---|
| Ro'yxatdan o'tgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (ming birlik) | 545.8 | 582.4 | 625.0 |
| Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari (ming birlik) | 430.5 | 468.0 | 510.0 |
| Kichik biznesning YaIMdagi ulushi (%) | 53.4 | 54.6 | 56.0 |
| Kichik biznesning sanoatdagi ulushi (%) | 26.5 | 28.2 | 30.5 |
| Kichik biznesning eksportdagi ulushi (%) | 21.0 | 23.5 | 26.0 |

2023–2025-yillarda ro'yxatdan o'tgan kichik biznes korxonalari sonining ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday holat yuzaga kelishiga asosiy omillardan biri davlat tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlari va "tadbirkorlikka ko'maklashish" markazlari faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Agar tarmoqlar kesimidagi tarkibiy o'zgarish holatini tahlil qiladigan bo'lsak, asosan savdo va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritilgan bo'lsa, endilikda sanoat va qurilish sohasidagi ulush ortib bormoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda kichik biznesning sanoatdagi ulushining o'sib borishi prognoz qilinmoqda. Bu jarayon asosan to'qimachilik, oziq-ovqat va qurilish materiallari tayyorlash sohalarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Iqtisodiyotda kichik biznesning eksportdagi ulushi 21% dan 26% gacha ko'tarilishi muhim iqtisodiy trenddir. Kichik korxonalar endilikda faqat ichki bozor bilan cheklanmay, balki xalqaro bozorlarda ham ishtirok etmoqda. Buning asosiy omillaridan biri sifatida banklar tomonidan eksport oldi moliyalashtirish tizimining yo'lga qo'yilgani va bojxona imtiyozlarining berilishi asosiy sabab bo'lmoqda.

O'zbekistonda 2023–2025-yillar oralig'ida kichik biznesga ajratilayotgan bank kreditlari hajmi o'rtacha 18–22% yillik o'sish sur'atini ko'rsatmoqda. Bu o'sishning asosiy drayveri sifatida bank tizimining liberallashuvi va xalqaro moliya institutlarining maqsadli kredit liniyalarining jalb qilinishini ko'rish mumkin. 2025-yilga kelib jami kredit qo'yilmalarining ortib borishi natijasida iqtisodiyotda xususiy sektorning investitsion faolligi oshayotganini ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda 2023-2025-yillarda kichik biznesni bank kreditlari orqali moliyalashtirish va uning bandlikka ta'siri

| Ko'rsatkichlar nomi | 2023-yil | 2024-yil | 2025-yil |
|---|---|---|---|
| Kichik tadbirkorlikka ajratilgan jami kreditlar (trln. so'm) | 110.5 | 134.0 | 162.0 |
| Shundan: Oilaviy tadbirkorlik dasturlariga (trln. so'm) | 13.1 | 15.8 | 19.5 |
| Kredit olgan kichik biznes subyektlari soni (ming birlik) | 480 | 545 | 620 |

Mamlakatimizda 2023-yildan boshlab banklar tomonidan kreditlash tizimi "bank-mijoz" formatidan "mahallabay" tizimiga to'liq o'tdi. 2024–2025-yillarda oilaviy tadbirkorlikka ajratilayotgan mablag'larning 19,5 trln so'mga yetishi aholini kambag'allikdan chiqarishning eng samarali yo'li sifatida xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu kreditlarning 60% dan ortig'i qishloq joylarda yangi ish o'rinlari yaratilishiga sabab bo'lgan.

Bank kreditlari orqali 2025-yilda 610 ming nafar aholini band qilish rejalashtirilgan. Bu yerda muhim jihat shundaki, kreditlar nafaqat savdo va xizmat ko'rsatishga, balki kichik ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatiga yo'naltirilmoqda. Bu esa yaratilayotgan ish o'rinlarining barqarorligini va ish haqi miqdorining yuqoriligini ta'minlaydi.

O'zbekistonda mehnat resurslari va bandlik masalasi demografik o'sish sur'atlari yuqoriligi sababli doimiy ravishda davlat siyosatining diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

O'zbekistonda mehnat resurslarining dinamik o'sish holati yiliga o'rtacha 400–500 ming kishiga ko'paymoqda. Bu "demografik dividend" deb ataluvchi jarayon bo'lib, iqtisodiyot uchun ham imkoniyat, ham mas'uliyat yuklaydi. 2025-yilga kelib mehnat resurslari sonining 20,6 mln kishidan oshishi mamlakatning ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik darajasi Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng yuqori ekanini tasdiqlaydi (3-jadval).

3-jadval. 2023-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari

| Ko'rsatkichlar nomi | 2023 yil | 2024 yil | 2025 yil |
|---|---|---|---|
| Mehnat resurslari soni (mln kishi) | 19.72 | 20.15 | 20.60 |
| Iqtisodiy faol aholi (mln kishi) | 15.04 | 15.40 | 15.57 |
| Band aholi soni (mln kishi) | 14.02 | 14.60 | 14.81 |
| Ishsizlar soni (ming kishi) | 1,024 | 800 | 760 |
| Ishsizlik darajasi (%) | 6.8 | 5.2 | 4.9 |
| Bandlik darajasi (iqt. faol aholiga nisbatan, %) | 68.0 | 68.3 | 69.1 |

Eng e'tiborli ko'rsatkich ishsizlik darajasining 2023-yildagi 6,8% dan 2025-yil yakuniga ko'ra 4,9% gacha tushishidir. Bu ijobiy o'zgarishning asosiy omillari xususiy sektor ulushining o'sishi natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari hisobiga yangi ish o'rinlarining 75–80 foizi shu sektorga to'g'ri kelmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda kichik biznesni moliyalashtirish orqali aholi bandligini oshirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

bugungi kunda kichik biznesni moliyalashtirish jarayonlarida rivojlangan davlatlarda bank kreditlaridan samarali foydalanishda qo'llaniladigan tajribalarni o'rganish;

kichik loyihalarni aholining bo'sh mablag'lari hisobidan moliyalashtirish uchun qonuniy bazani kengaytirish;

banklar tomonidan moliyaviy mablag'ni kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga berishdan oldin tadbirkorlarni biznes-rejalashtirish va moliyaviy savodxonlikka o'qitish ishlarini amalga oshirish;

yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar atrofida kichik biznes subyektlarini "autsorsing" asosida moliyalashtirish;

O'zbekiston aholisining diniy qarashlarini inobatga olgan holda, "Murobaha" (bo'lib to'lash) va "Mushoraka" (sheriklik) asosidagi moliyaviy mablag'larni biznesga jalb qilish;

banklar tomonidan kredit resurslari bilan moliyalashtirishda qiymat zanjirini yaratuvchi kichik biznes va tadbirkorlikni ishlab chiqarishga yo'naltirish;

har bir mahallaning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, "Kichik sanoat zonalari"ni banklar tomonidan samarali kreditlash tizimini tashkil etish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ayyagari, M., Juras, A., et al. Finance and Small Business Growth in Dynamic Contexts. The Journal of Finance. Vol. 71, Issue 3. 2016.
2. Yunus, Muhammad. Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism. PublicAffairs Publishing, New York. 2007.
3. Journal of Banking & Finance. Small and medium-size enterprises: Access to finance as a growth constraint. Vol. 30, Issue 11. 2006.
4. Aliyev Y.E. (2020). Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishlari. Arxiv nauchnых issledovaniy, (23). https://scholar.google.com/scholar?cluster=5882306098223300894&hl=en&oi=scholarr

# QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH STRATEGIYASI

**Tursunov Bobir Ortikmirzayevich**
i.f.d.(DSc), professorToshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasi mudiri

**Umarova Nargiza Xoldarovna**
i.f.f.d(PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasi kata o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida tarmoq korxonalarining moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinib, moliyaviy xavfsizlik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi strategik yo'nalishlar aniqlangan. Shuningdek, korxonalarda moliyaviy risklarni kamaytirish, investitsion faoliyatni rag'batlantirish, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish hamda moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy strategiya, moliyaviy risklar, qurilish sanoati korxonalari, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy xavfsizlik.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of the formation of a strategy for ensuring financial security at enterprises in the building materials industry. In the course of the research, the main factors affecting the financial stability and economic security of enterprises in the sector were analyzed, and strategic directions were identified that serve to increase the level of financial security. Also, issues of reducing financial risks at enterprises, stimulating investment activity, effective use of production resources, and improving the financial management system were considered.

Key words: financial strategy, financial risks, enterprises of the construction industry, financial stability, financial security.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты формирования стратегии обеспечения финансовой безопасности предприятий промышленности строительных материалов. В процессе исследования проанализированы основные факторы, влияющие на обеспечение финансовой устойчивости и экономической безопасности отраслевых предприятий, а также определены стратегические направления, способствующие повышению уровня финансовой безопасности. Кроме того, рассмотрены вопросы снижения финансовых рисков на предприятиях, стимулирования инвестиционной деятельности, эффективного использования производственных ресурсов и совершенствования системы финансового управления.

Ключевые слова: финансовая стратегия, финансовые риски, предприятия промышленности строительных материалов, финансовая устойчивость, финансовая безопасность.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyoti integratsiyalashuvi jarayonlarining keskin jadallashuvi o'z navbatida global iqtisodiy beqarorlikning kuchayishi, iqtisodiy faollikning pasayishi holatlarini keltirib chiqarmoqda. Jumladan, "global inflyatsiya bir necha o'n yilliklardagidan yuqori bo'lib, 2021-yildagi 4,7 foizdan 2023-yilda 6,5 foizga ko'tarilishi

prognoz qilingan. Aksariyat mintaqalarda moliyaviy sharoitlarning keskinlashishi, Ukrainadagi urush va natijada oziq-ovqat va energetika inqirozlari, inflyatsiyaning o'sishi, qarzlarning keskinlashishi va boshqa omillar ta'sirida global o'sish 2021-yildagi 6,0 foizdan 2022-yilda 3,2 foizga va 2023-yilda 2,7 foizga sekinlashdi" [1]. Ma'lumotlarga ko'ra, "Buyuk Britaniyada 2022-yil yakuniga ko'ra 77077 ta kichik biznes subyektlari jiddiy moliyaviy tanglikda bo'lgan". Bu kabi salbiy holatlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, jumladan, qurilish materiallari sanoati korxonalarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirishning dolzarbligini namoyon etadi [2].

Jahondagi nufuzli Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Fondi, BMT, XVJ kabi xalqaro tashkilotlar va tadqiqot institutlari tomonidan global keskinlashuv oqibatlarini yumshatish, qurilish sanoatida innovatsiyalarni joriy etish, sof aktivlar hajmini oshirish, fond bozoridagi kapitallashuv, korxonalarda risklarni boshqarish yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Qurilish materiallari sanoatidagi risklarni baholash va minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik modellarini tadqiq etish, moliyaviy auditorlik va ichki nazorat tizimlarini takomillashtirish, debitorlik va kreditorlik qarzlarini samarali boshqarish, moliyaviy likvidlikni ta'minlash, makroiqtisodiy o'zgarishlarning qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatiga ta'sirini prognoz qilish, yashil moliyalashtirish (green finance) usullarini joriy etish va ekologiyaga doir moliyaviy instrumentlarni qo'llash, ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) mezonlari bo'yicha moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi [2].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarda moliyaviy risklarni baholash hamda korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ilmiy asoslari A. Smit, D. Rikardo [4], A. Marshall [3], J. Mill, S.M. Amade [5], S. Axmad [6], de Goede, Santyago Moral-Garsiya, V.Zeng va boshqa xorijiy olimlarning ilmiy asarlarida keng tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari iqtisodchi-olimlari L.I. Abalkin, V.K. Senchagov [7], I. Lebedev [8], G. Kroxicheva [9], E. Arxipov, K. Zensova, Ye. Novikova, A.D. Sheremet, M.Yu. Kussiy, N. Yakushina [10] va boshqalar tomonidan korxonalar iqtisodiy hamda moliyaviy xavfsizlik muammolari turli darajalarda o'rganilgan.

Korxonalarda moliyaviy menejment, riskologiya va korxonalar moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning metodologik jihatlari mahalliy iqtisodchi-olimlar N. Jumaev, D. Raxmonov, A. Burxanov [11], X. Abulqosimov [12], I.T. Abdukarimov, M.K. Pardaev, T.S. Malikov, N.G'. Karimov, F. Xamidova, D. Ortiqova [13], D.I. Istamov [14], M.M. Muxammedov, E.N. Xodjaev A.E. Ishmuxammedov [15], D.K. Narzullaeva, A.E. Parmonov, A.I. Igamberdiev, G'. Dadaev, M. Qodirov, D.R. Rustamov, B. Tursunov va boshqalarning ilmiy ishlarida ham o'z aksini topgan.

Biroq, yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy asarlarida global keskinlashuv sharoitida qurilish korxonalari moliyaviy xavfsizligini baholash va ta'minlash masalalari ko'rib chiqilmagan. Global o'zgarishlar sharoitida qurilish sanoati korxonalari moliyaviy xavfsizligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirish tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda chuqur tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar rasmiy statistik hisobotlar, korxonalar moliyaviy ko'rsatkichlari va soha bo'yicha ekspert so'rovlari asosida yig'ildi. Tahlil jarayonida iqtisodiy-statistik, dinamik va taqqoslash usullari qo'llanildi. Moliyaviy xavfsizlik darajasi koeffitsiyentlar tizimi orqali baholanib, omillar ta'siri korrelyatsion va regressiya tahlili yordamida aniqlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi moliyaviy risklar to'plamini ularni bartaraf etish va ularni amalga oshirishning noqulay natijalarini yumshatish uchun boshqarishdir. Ushbu maqsadga erishish korxonaning maqsadli rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish uchun ko'plab muammolarni hal qilish orqali ta'minlanadi; operatsion faoliyatning o'sish sur'atlarini saqlab qolish; korxonaning barqaror raqobatbardoshligini ta'minlash; asosiy ishlab chiqarish fondlarining innovatsion yangilanishini joriy etish; to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlikni saqlash; samarali faoliyatni amalga oshirish; moliyaviy risklarni boshqarish [16].

Moliyaviy xavfsizlik strategiyasini tanlashga bir qator omillar ta'sir qiladi. Shunday qilib, korxonaning moliyaviy xavfsizligi strategiyasi umumiy rivojlanish strategiyasining maqsad va vazifalari bilan belgilanadi. Misol uchun, agar korxona innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan bo'lsa, u investitsiyalarni jalb qilishga intiladi va shuning uchun moliyaviy hisobotni eng "shaffof" qiladi hamda moliyaviy intizomga rioya qiladi. Ammo agar tashkilotning maqsadlari "soya" iqtisodiyoti tekisligida bo'lsa, moliyaviy strategiya butunlay teskari bo'ladi. Shunday qilib,

korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasining o'rni to'lovga layoqatsizlik paydo bo'lishining oldini olish va iqtisodiy faoliyatning uzluksizligini ta'minlashdan iborat.

Korxonaning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash strategiyasi uning rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt duch keladigan ikkita asosiy muammoni hal qilish mexanizmidir, ya'ni kapitalning optimal tuzilmasini topish va moliyaviy boshqaruv tizimini qurish. Muvozanatli sifatida shakllangan korxona kapitalining optimal tarkibi qiymati faoliyatning barcha turlaridan pul oqimi moliyaviy mustaqillik xavfini minimallashtirish imkoniyatlariga bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerakki, globallashuv jarayoni moliyaviy sektorni rivojlantirish va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun murakkab sharoitlarda qurilish sanoati korxonalarining menejerlarini yanada ko'proq ishlashga undadi. Moliyaviy xavfsizlik tizimini takomillashtirishning mumkin bo'lgan usullarini yaqindan tahlil qilish zarur, chunki tijorat tashkilotining moliyaviy xavfsizligi tizimini takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish jarayoni tashkilotning moliyaviy resurslaridan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi.

Финансовая безопасность представляет собой систему взаимосвязанных элементов, основанную на динамике и дифференциации показателей оценки состояния, защиты от угроз и рисков, обеспечивающую устойчивое развитие. Она формируется на различных уровнях: государственном, региональном, отраслевом, уровне предприятия, малого бизнеса, индивидуального предпринимателя и физического лица. На каждом уровне финансовая безопасность подразумевает защиту от внутренних и внешних угроз и требует применения системы показателей и организационно-методического инструментария для эффективного управления. Основными критериями обеспечения финансовой безопасности предприятий являются объем и источники финансовых ресурсов, соотношение доходов и расходов, стратегическая модель финансирования активов, уровень финансового риска, достаточность прибыли для самофинансирования, доля и качество заемных средств, возможность мобилизации внутренних ресурсов, гибкость финансового планирования, соответствие стратегии развития целям финансовой безопасности и мониторинг ключевых показателей. Управление финансовой безопасностью текстильных предприятий должно основываться на качественных и количественных показателях. В ходе исследования оценивалась эффективность управления на трех предприятиях: ООО «BETLIS TEKSTIL», ООО «SIRDARYA BEST FASHION» и ООО «Наманганский текстиль», выявлены недостатки и предложен комплекс мероприятий по повышению эффективности управления. Механизм управления включает разработку финансовой стратегии на основе иерархического анализа альтернатив, создание службы финансовой безопасности с подчинением генеральному директору, определение пороговых значений и критериев для своевременного выявления внутренних и внешних угроз.

**Список использованной литературы:**

1. Amadae, S.M. (2017) Perpetual anarchy: From economic security to financial insecurity. Finance and Society, 3(2): 188-96.;
2. Amicelle, A. (2017) When finance met security: Back to the War on Drugs and the problem of dirty money. Finance and Society, 3(2): 106-23.

3. Amoore, L. (2011) Data derivatives: On the emergence of a security risk calculus for our times. Theory, Culture & Society, 28(6): 24-43.;
4. Ahmad S., Ng Ch., McManusc L. Enterprise risk management (ERM) implementation: Some empirical evidence from large Australian companies. Procedia - Social and Behavioral Sciences 164 ( 2014 ) 541 – 547;
5. Arrieta-Paredes M., Hallsworth A., Coca-Stefaniak J. Small shop survival – The financial response to a global financial crisis. Journal of Retailing and Consumer Services 53 (2020) 101984. pp.;
6. Yildirim E., Akalp G., Aytac S., Bayram N. Factors influencing information security management in small- and medium-sized enterprises: A case study from Turkey. International Journal of Information Management 31 (2011) 360–365;
7. Zhang W., Jiang H. Application of Copula function in financial risk analysis. Computers and Electrical Engineering 77 (2019) 376–388.
8. Анциборко К. Математические модели управления производственной и финансовой безопасностью промышленного предприятия. Дис. на соиск. уч. ст. к.э.н. ГОУ ВПО «Российская экономическая академия им Г.В. Плеханова. Москва. 2007.;
9. Лебедев И. Методы минимизации финансовых рисков при обеспечении экономической безопасности предприятий металлургии. Дис. на соиск. уч. ст. к.э.н. Федеральное государственное образовательное учреждение высшего профессионального образования «Финансовая академия при правительстве Российской федерации» (Финакадемия). Москва. 2008.;
10. Иванова JI.K. Экономическая безопасность предприятия / JI.K. Иванова // Вестник Уфимского государственного авиационного техническою университета. - 2013. - '1. 17. № 7 (60). - С.30-33.;
11. Крохичева Г., Архипов Э., Зенцова К., Новикова Е. Финансовая безопасность в системе экономической безопасности. KANT. №3 (20). 2016. С.107-111.;
12. Крохичева Г.Е., Архипов Э.Л., Баздикян М.Ю., Истомин А.В. Идентификация рисковых ситуаций в системе экономической безопасности // Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ» Том 9, №4 (2017);
13. Семенов А. Обеспечение финансовой безопасности в управлении обязательствами организаций химической промышленности. Дис. на соиск. уч. ст. к.э.н.. Федеральное государственное бюджетное образовательное учереждение высшего образования «Поволжский государственный технологический университет». Йошкар-Ола, 2018.;
14. Якушина Н. Финансовая безопасность предприятия. Вестник Университета. №11. 2013. С. 132-135.;
15. Кузнецова Е., Лаптев Д. Финансовая безопасность предприятия как предмет финансового планирования. Вестник Московского университета МВД России. №5. 2011. С. 52-57.
16. Бурханов А.У. Молиявий хавфсизлик.Ўқув қўлланма.Иқтисодиёт. 2019, 164 б.; Абулқосимов Х.П. Иқтисодий хавфсизлик. Т.: Академия, 2006, 111 – б.;
17. Пардаев М.К., Аминов З.Ю. Корхонанинг иктисодий хавфсизлиги ва уни таъминлаш йўллари. Рисола. Самарканд: Зарафшон, 2008.- 47 бет.;
18. Ortiqova D. «Iqtisodiy xavfsizlik» (O'quv qo'llanma). –T.: TDIU, 2010. 150 bet.;
19. Истамов Д.И., Ю.А.Гранаткин, М.М.Мухаммедов, Э.Н.Ходжаев. Экономическая безопасность предприятия и защита коммерческой тайны. Самарканд. 1995.- 152 бет.; Ишмухаммедов А.Э. Иқтисодий хавфсизлик. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ , 2004. – 176 б.

# KIMYO SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li**
PhD, Toshkent davlat iqtisodiy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda marketing vositalaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Unda raqobat razvedkasi, bozor monitoringi, marketing axborot tizimi va strategik tahlil orqali tahdidlarni erta aniqlash hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqobat razvedkasi, korxonalar, korxonalarning iqtisodiy va moliyaviy xavfsizligi, xavf-xatarlar, strategik barqarorlikni.

Abstract. This article discusses the issues of effective use of marketing tools in ensuring the economic security of industrial enterprises. It substantiates the possibilities of early detection of threats and increasing the effectiveness of management decisions through competitive intelligence, market monitoring, marketing information systems, and strategic analysis.

Key words: competitive intelligence, enterprises, economic and financial security of enterprises, risks, strategic stability.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования маркетинговых инструментов для обеспечения экономической безопасности промышленных предприятий. Обосновываются возможности раннего выявления угроз и повышения эффективности управленческих решений посредством конкурентной разведки, мониторинга рынка, маркетинговых информационных систем и стратегического анализа.

Ключевые слова: конкурентная разведка, предприятия, экономическая и финансовая безопасность предприятий, риски, стратегическая стабильность.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqobatning kuchayishi hamda bozor konyunkturasining tez o'zgarib borishi sanoat korxonalaridan faoliyatni samarali tashkil etish bilan bir qatorda ularning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Ayniqsa, kimyo sanoati korxonalari yuqori kapital sig'imi, xomashyo resurslariga bog'liqligi, ekologik talablarning kuchayishi hamda tashqi bozorlardagi keskin raqobat sharoitida faoliyat yuritayotganligi sababli ularning iqtisodiy barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois, korxonalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tashqi va ichki tahdidlarni oldindan aniqlash, ularga moslashuvchan boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish va bozor talablariga tezkor javob berish dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda marketing faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki marketing vositalari orqali bozor konyunkturasini o'rganish, iste'molchilar ehtiyojlarini aniqlash, raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish hamda korxonaning raqobatbardosh strategiyasini shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Xususan, marketing tadqiqotlari, bozor monitoringi, segmentatsiya, raqobat razvedkasi, marketing axborot tizimi hamda strategik marketing tahlili kabi vositalar korxonada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim instrumentlari sifatida xizmat qiladi. Ushbu vositalar yordamida korxona bozor muhitidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlashi, potensial xavf-xatarlarni baholashi hamda resurslardan samarali foydalanish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotida kimyo sanoati muhim strategik tarmoqlardan biri bo'lib, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish hamda qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda tarmoqni modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga

tushirish va mahsulotlar assortimentini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, bozor talabining o'zgaruvchanligi, logistika muammolari, global narx tebranishlari va raqobatning ortib borishi kimyo sanoati korxonalarida marketing faoliyatini yanada takomillashtirish hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, kimyo sanoati korxonalarida marketing vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda marketing vositalaridan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslarini tahlil qilish hamda ularning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqobat razvedkasi muammosining nazariy asoslari, uning iqtisodiy mohiyati hamda ilmiy-metodologik jihatlari xorijiy iqtisodiy maktablar doirasida keng o'rganilgan. Xususan, hududiy joylashuv nazariyasi, bozor makoni va ishlab chiqarishni optimallashtirish masalalari Talaoui Y. [2], Nyanga C. [3] kabi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Keyinchalik raqobat muhiti, transmilliy biznes faoliyati va ishlab chiqarish tarmoqlarining global integratsiyasiga doir masalalar Fahey L. [4], Dun Markusen, Jon Danning va boshqa tadqiqotchilar ishlarida rivojlantirilgan. Ushbu yondashuvlar raqobat muhitini tizimli tahlil qilish hamda korxonalarning strategik qarorlarini axborot asosida shakllantirishga xizmat qiladigan ilmiy zaminni yaratdi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida Beshmkov M.A. [6], Isayeva N.A. [7], Serebryakova T.Yu. [8], Doronin A. [9], Lemke G.E. [10], Satler V.V. [11] esa korxonalarning iqtisodiy va moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar alohida yo'nalish sifatida shakllangan. Ushbu doirada qator rus va mintaqaviy olimlar tomonidan iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari, korporativ himoya tizimlari hamda tahliliy-axborot mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda raqobat razvedkasining tashkiliy-uslubiy jihatlari, axborot to'plash va qayta ishlash jarayonlari, shuningdek, strategik monitoring usullari ham yoritilgan. Mahalliy olimlar — Burxanov A.U. [12], Abulqosimov X.P. [13], Pardayev M.K., Aminov Z.Yu. [14] va boshqalar — sanoat korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirish masalalarini tadqiq qilgan. Biroq, mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqobat razvedkasi instrumentlarini sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi sifatida kompleks qo'llash, shuningdek, uning metodologik va tashkiliy modellarini ishlab chiqish masalalari yetarlicha chuqur o'rganilmagan.

Shu bois, sanoat korxonalari faoliyatida raqobat razvedkasi vositalaridan tizimli foydalanish, axborot-tahliliy ta'minotni kuchaytirish va xavf-xatarlarni prognoz qilish imkonini beruvchi ilmiy asoslangan metodologiyani takomillashtirish hozirgi sharoitda dolzarb vazifa sifatida ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, strategik barqarorlikni ta'minlash va milliy sanoatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar kimyo sanoati korxonalarining moliyaviy hisobotlari, marketing faoliyati bo'yicha ichki ko'rsatkichlar, rasmiy statistika hamda soha mutaxassislari bilan o'tkazilgan so'rovnomalar asosida shakllantirildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, iqtisodiy-statistik, korrelyatsion-regression va faktor tahlili usullari yordamida qayta ishlanib, marketing vositalarining iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning iqtisodiy xavfsizlik darajasi bilan belgilanadi. Iqtisodiy xavfsizlik korxonaning ishlab chiqarish, moliyaviy, marketing va boshqaruv faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi tahdidlarga qarshi barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini saqlab qolish jarayonini anglatadi. Ayniqsa, kimyo sanoati korxonalari uchun iqtisodiy xavfsizlik masalasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu tarmoqda ishlab chiqarish jarayonlarining murakkabligi, xomashyo resurslariga yuqori darajada bog'liqlik hamda global bozordagi keskin raqobat muhitining mavjudligi ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshiradi.

Korxonalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri marketing faoliyatini samarali tashkil etish hisoblanadi. Marketing vositalari korxonaning tashqi bozor muhitini tahlil qilish, iste'molchilar ehtiyojlarini aniqlash hamda raqobatchilar faoliyatini o'rganish orqali xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan marketing faoliyati iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi (1-rasm).




1- rasm. Iqtisodiy xavfsizlik darajalari

Kimyo sanoati korxonalarida marketing vositalaridan foydalanish birinchi navbatda bozor kon'yunkturasini chuqur o'rganish orqali amalga oshiriladi. Bozor monitoringi yordamida mahsulotga bo'lgan talabning o'zgarishi, narx dinamikasi, iste'molchilar xulq-atvori hamda raqobatchilar strategiyalari muntazam ravishda tahlil qilinadi. Bu esa korxonalarga ishlab chiqarish hajmini optimallashtirish, mahsulot assortimentini moslashtirish hamda marketing strategiyalarini o'z vaqtida yangilash imkonini beradi. Natijada korxona faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan iqtisodiy tahdidlarning oldini olish mumkin bo'ladi.

Fikrimizcha, raqobat razvedkasi faoliyati samaradorligi sarflangan investitsiyalar hajmi bilan emas, balki qo'yilgan strategik vazifalarga qay darajada mos kelishi bilan belgilanadi. Agar razvedka natijalari boshqaruv qarorlarini qabul qilishga amaliy qiymat bersa va belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qilsa, uning korxona uchun ahamiyati sezilarli darajada ortadi. Aks holda, katta moliyaviy xarajatlar amalga oshirilgan taqdirda ham, natijalarning foydalilik darajasi past bo'lib qoladi.


Raqobat muhiti kuchayib borayotgan sharoitda, ayniqsa sanoat va elektro-texnika korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda menejerlar to'liq, ishonchli va tezkor axborot bilan ta'minlanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunday axborot tarkibi har bir korxonaning faoliyat xususiyatlariga ko'ra individual shakllanadi. Raqobatchilar haqidagi marketing axborotini tizimlashtirish maqsadida uni bir necha yo'nalishlar bo'yicha tasniflash mumkin: bozordagi faoliyat va ishlab chiqarish salohiyati. Birinchi guruhga narx siyosati, chegirmalar, shartnoma shartlari, sotuv hajmi, taqsimot kanallari va sertifikatlashtirish holati haqidagi ma'lumotlar kiradi. Ikkinchi guruh esa mahsulot sifati, qadoqlash texnologiyalari, tovar nomenklaturasi, ishlab chiqarish quvvati va texnologik imkoniyatlarni tahlil qilish orqali shakllantiriladi. Mazkur axborotlar raqobat muhitini chuqur baholash va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi.

Kichik va o'rta firmalar uchun bunday tarkibiy bo'linma endi faoliyatini boshlayotganda 1-2-ta odam yetarli bo'ladi. Xodimlarning yetishmasligi raqobat razvedkasi guruhini tashkil qilish bilan qoplanadi, unga joriy loyihaning xususiyatlariga qarab firmaning har qanday xodimi kiritilishi mumkin. Bu holda unga raqobat razvedkasi guruhi a'zosi vakolatlari beriladi.

Raqobat sharoitida sanoat korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda marketing vositalaridan samarali foydalanishning asosiy sharti korxona ichidagi bo'limlararo integratsiyalashgan axborot tizimining mavjudligidir. Chizmada ko'rsatilganidek, rahbariyat markaziy rol o'ynab, turli bo'limlar — ishlab chiqarish, moliyaviy ishlar, marketing, sotuv va xarid bo'limlari hamda raqobat razvedkasi xizmati faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ishlab chiqarish va moliyaviy bo'limlar korxona resurslaridan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha axborot taqdim etadi, marketing va sotuv bo'limlari esa bozor, raqobatchilar faoliyati va xaridorlar xatti-harakatini kuzatish orqali tahliliy ma'lumotlarni yig'adi. Raqobat razvedkasi bo'limi esa ushbu axborotni tizimli ravishda qayta ishlab, rahbariyatga strategik qarorlar qabul qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar oqimini taqdim etadi. Shu bilan birga, iqtisodiy xavfsizlik bo'limi korxona faoliyatidagi risklarni aniqlash va prognozlash, ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish vazifasini bajaradi. Marketing vositalari orqali raqobatchilar narxi, mahsulot sifati, tarqatish kanallari, reklama va sotuv strategiyalari doimiy monitoring qilinadi, bu esa korxona rahbariyatiga tezkor va asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bo'limlararo samarali hamkorlik natijasida raqobat razvedkasi va marketing vositalari bir-birini to'ldiradi, axborot oqimi tezkor va aniq bo'lib, korxonaning strategik barqarorligini ta'minlaydi. Shu tarzda integratsiyalashgan marketing va raqobat razvedkasi tizimi nafaqat iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, balki sanoat korxonasining bozor pozitsiyasini mustahkamlash va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada raqobat razvedkasi vositalaridan foydalanish asosida sanoat korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash modeli taklif etiladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni baholash muhimligini alohida o'rnini o'z ishida Shashlo N.V. aks ettirgan. U korxonaning iqtisodiy xavfsizligini baholash algoritmini ishlab chiqdi. Algoritm tahdidlar yaqinlashish ehtimolini baholashning sifat va miqdoriy mezonlari, natijada ta'sirni (yo'qotuvlarni) barqarorlikni buzuvchi qiluvchi kattaliklar, iqtisodiy xavfsizlikka tahdid qiluvchi kutilayotgan jamlangan mezon uchun sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarni qamrab olgan. Ishlab chiqilgan model "xo'jalik faoliyatni amalga oshirayotgan tizimlarni himoyalanganlik holatini; korxona resurslari va imkoniyatlari holatini; tashkiliy-huquqiy, tartibli va soqchili, texnik, texnologik, iqtisodiy, moliyaviy va axborot-tahliliy turdagi usullar jamlamasini; tashkilotning boshqaruvi tuzilmaviy bog'lanishlari orqali tahdidlar qochish va barqarorlikni buzishga qarshi omillarga bardoshlilikka imkon beruvchi ijtimoiy va texnologik tizimni holatini aniqlashga" imkon beradi (2-rasm).




2- rasm. "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati tomonidan raqobatchi bo'lgan "Kvarts" AJga nisbatan raqobat razvedkasini o'tkazish metodologiyasi

Undan keyin «O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining raqobatchi "Kvarts" AJ bo'yicha raqobat razvedkasini o'tkazish uslubiyatini ishlab chiqamiz (3-rasm).

"Kvarts" AJni afzalligi shundaki, u to'qqiz yil mobaynida iqtisodiy xavfsizlikning musbat darajasiga ega bo'ldi, 2011 yilda daraja yuqori bo'lgan, sakkiz yil mobaynida daraja faqat o'rta me'yorgacha pasaydi, 2020 yil ichida iqtisodiy xavfsizlik darajasi manfiy bo'lgan, chunki koronavirus pandemiyasi sababli cheklanishlar kiritilgan va bu sharoitda iqtisodiyot ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari bo'yicha pasayib ketdi.

Raqobat razvedkasi modeli amalga oshirishning ikki yo'nalishiga ega: birinchi yo'nalish axborot ma'lumotlar izlashni, ikkinchi yo'nalish esa – tahlillash ishlarini, ya'ni axborot resurslarini baholashni, nazarda tutadi.

Raqobat razvedkasini joriy etish harakatlari algoritmi quyidagilarga asoslangan: makromuhitni tahlil etish (foydali strategik sheriklarni izlash, bozor rivojlanishini prognozlash, strategik investitsiya qarorlari bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish); raqobatchi korxonani mikromuhitini tahlil etish (raqobatchining asosiy kontragentlarini aniqlash, raqobatchilarni qo'llab-quvvatlaydigan tashqi obyektlarni va ularning aloqalarini aniqlash, raqobatchilarning joriy moliyalashtirishni aniqlash); tovar siyosatini ishlab chiqish (raqobatchining istiqbol investitsiya resurslarni baholash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimenti bo'yicha daromad va xarajatlarni aniqlash, yakuniy faoliyat rentabelligini aniqlash); bozor muhitini segmentlanishini baholash (segmentlanishining deskriptiv o'zgaruvchanlarini aniqlash, raqobatchilar bozori, maqsadli segmentlarini qamrab olish strategiyalarni aniqlash); raqobatchilarning bozordagi joyini aniqlash (raqobatchilar afzalliklarini, raqobat qiluvchi tovarlarni bozordagi joyini aniqlash) va narx siyosati (raqobatchi korxonani narx siyosatini monitoring qilish, raqobatchi korxonaning iste'molchiga xayrixohligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan dasturlarini aniqlash).

Raqobat razvedkasini amalga oshirish har bir algoritmini tajribali mutaxassislar olib borishi kerak. Raqobatchi korxona to'g'risida axborot olishning bu usuli bilan asosan maxsus tashkil etilgan bo'linma yoki kerakli ma'lumotlarni yig'ishga va raqobatchilarni tahlil qilishga qodir marketing xizmati shug'ullanadi.

Raqobatchi korxonani ma'lumotlari asosida korxonaning keyinchalik rivojlanishining, moliyaviy ko'rsatkichlarni prognozlash va rejalashtirishning to'g'ri ishlab chiqilgan strategiyasi korxona moliyaviy va xo'jalik faoliyati samaradorligini 20,5 % oshirishi mumkin. Mazkur metodologiya samaradorligini tasdiqlovchi raqobatchi ""Kvarts" AJga nisbatan raqobat razvedkasini olib borgan «O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatini ma'lumotlarini hisoblanishini taqdim etamiz.

Ko'rinib turibdiki, tomonidan ishlab chiqilgan model bo'yicha amalga oshirilgan raqobat razvedkasi natijasida «O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati iqtisodiy xavfsizligi 2021 yil 0,074% tashkil etgan, 2022 yilda esa 0,262% va v 2023 yilda 0,919% darajada bo'lishi kutilmoqda. Ya'ni bizning shkalamiz bo'yicha iqtisodiy xavfsizlik 0,919 miqdoridagi yuqori darajada bo'lishi kutilmoqda.

«O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatini moliyaviy va xo'jalik faoliyati koeffisientlari sezilarli darajada oshishi kuzatilmoqda, korxona pul tushumlari ko'rsatkichi oshmoqda, o'z kapitali va pul mablag'lari ko'rsatkichi oshmoqda, valyuta balansi ko'tarilmoqda, korxona foydasi ko'paymoqda, natijada korxona iqtisodiy xavfsizligi darajasi ko'tarilmoqda. Shunday qilib, ta'kidlash joizki, raqobat razvedkasi vositalaridan foydalanish asosida korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimi samaradorligini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan model samaralidir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqobat razvedkasi korxona faoliyatida qo'shimcha axborot yig'ish vositasi emas, balki strategik boshqaruvni qo'llab-quvvatlovchi tizimli va kompleks mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Uning samaradorligi sarflangan mablag'lar miqdori bilan emas, balki boshqaruv qarorlariga amaliy qiymat berishi, risklarni kamaytirishi hamda korxonaning uzoq muddatli maqsadlariga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Kimyo sanoati korxonalarida marketing vositalarining samaradorligini oshirishda segmentatsiya va maqsadli bozorlarni aniqlash ham muhim o'rin tutadi. Bozorni segmentatsiya qilish orqali iste'molchilar ehtiyojlari, talab darajasi hamda hududiy xususiyatlari asosida turli guruhlarga ajratish mumkin bo'ladi. Bu esa korxonalarga o'z mahsulotlarini aniq maqsadli segmentlarga yo'naltirish, marketing xarajatlarini optimallashtirish hamda savdo hajmini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, narx va tovar siyosatini to'g'ri shakllantirish ham korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim omillardan biridir. Kimyo sanoatida narx siyosati xomashyo narxlari, transport xarajatlari, ishlab chiqarish tannarxi hamda bozor talabiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Shu sababli narx siyosatini ilmiy asosda shakllantirish korxonaga bozorda raqobatbardosh bo'lish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda foyda darajasini oshirish imkonini beradi.

Marketing vositalaridan samarali foydalanish korxonaning strategik rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Strategik marketing tahlili yordamida korxona o'zining ichki imkoniyatlari va tashqi muhit omillarini kompleks

baholaydi. Bunda SWOT-tahlil, PEST-tahlil hamda raqobat muhitini baholash usullaridan keng foydalaniladi. Ushbu tahlillar asosida korxona rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilanadi.

Umuman olganda, kimyo sanoati korxonalarida marketing vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bozor monitoringi, marketing axborot tizimi, raqobat razvedkasi, segmentatsiya hamda strategik marketing tahlili kabi vositalardan kompleks foydalanish korxonaga bozor muhitidagi o'zgarishlarga tezkor moslashish, xavf-xatarlarni kamaytirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/chemicals-global-market-report
2. Talaoui, Y. and Kohtamäki, M. (2020), «35 years of research on business intelligence process: a synthesis of a fragmented literature», Management Research Review, Vol. ahead-of-print No. ahead-ofprint. DOI: https://doi.org/10.1108/MRR-07-2020-0386;
3. Nyanga, C., Pansiri, J. and Chatibura, D. (2019), «Enhancing competitiveness in the tourism industry through the use of business intelligence: a literature review» // Journal of Tourism Futures. Vol. 6 No. 2, pp. 139-151. DOI: https://doi.org/10.1108/JTF-11-2018- 0069;
4. Fahey, L. (2007), «Connecting strategy and competitive intelligence: refocusing intelligence to produce critical strategy inputs», Strategic Direction, Vol. 23 No. 4. DOI: https://doi.org/10.1108/ sd.2007.05623dad.003;
5. Platt, W. Strategic Intelligence Production. Basic Principles. – New York: Frederic A. Praeger, 1957.
6. Бещмков М.А. "Экономическая безопасность промышленного предприятия в условиях кризисного развития." Менеджмент в России и за рубежом, 2000, №2, 7–17;
7. Исаева Н.А. "Экономическая безопасность предприятия." Вестник Екатерининского института, 2009; Устинова Л.Н. "Экономическая безопасность предприятия: анализ, структура, модель." Национальные интересы: приоритеты и безопасность, 2011, №45(138), 67–71;
8. Серебрякова Т.Ю. "Сущность и подходы к определению экономической безопасности предприятий." Вестник НГУЭУ, 2015; Корелин В.В. "Инструменты обеспечения экономической безопасности промышленного предприятия." 2016;
9. Доронин А. И. Бизнес-разведка. – М.: Ось-89, 2010. – 704 с.;
10. Лемке Г.Э. Коммерческая разведка для конкурентного превосходства. – М.: Московская Финансово-Промышленная Академия, 2011. – 352 с.;
11. Сатлер В.В. Использование конкурентной разведки для повышения конкурентоспособности предприятия [Электронный ресурс] // Актуальные вопросы экономических наук. – 2009. – С. 170-175.;
12. Бурханов А.У. Молиявий хавфсизлик.Ўқув қўлланма.Иқтисодиёт. 2019, 164 б.;
13. Абулқосимов Х.П. Иқтисодий хавфсизлик. Т.: Академия, 2006, 111 – б.;
14. Пардаев М.К., Аминов З.Ю. Корхонанинг иктисодий хавфсизлиги ва уни таъминлаш йўллари. Рисола. Самарканд: Зарафшон, 2008.- 47 бет.

# MAMLAKAT QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI

**Umarova Nargiza Xoldarovna**
i.f.f.d.(PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasi kata o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakat qurilish materiallari sanoati korxonalarining moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ekonometrik usullar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida tarmoq korxonalarining moliyaviy barqarorligi va xavfsizligini belgilovchi muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimlashtirilib, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik korrelyatsiya-regressiya tahlili yordamida o'rganildi. Shuningdek, moliyaviy xavfsizlik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida ko'p omilli ekonometrik model ishlab chiqildi hamda model parametrlarining statistik ahamiyati tegishli testlar orqali baholandi. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarining moliyaviy xavfsizligiga ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar miqdori, asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi hamda korxonalarning moliyaviy natijalari sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini berdi.

Kalit so'zlar: korxonalarning moliyaviy natijalari, moliyaviy risklar, qurilish sanoati korxonalari, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy xavfsizlik.

Abstract. This article analyzes the main factors affecting the financial security of enterprises in the country's building materials industry based on econometric methods. In the course of the research, important economic indicators that determine the financial stability and security of enterprises in the sector were systematized, and the relationship between them was studied using correlation-regression analysis. Also, a multifactor econometric model was developed to identify factors affecting the level of financial security, and the statistical significance of the model parameters was assessed through appropriate tests. The results of the study made it possible to determine that the financial security of industrial enterprises is significantly affected by the volume of production, the amount of investment, the efficiency of the use of fixed capital, and the financial results of enterprises.

Key words: financial results of enterprises, financial risks, enterprises of the construction industry, financial stability, financial security.

Аннотация. В данной статье на основе эконометрических методов проанализированы основные факторы, влияющие на финансовую безопасность предприятий промышленности строительных материалов страны. В ходе исследования систематизированы ключевые экономические показатели, определяющие финансовую устойчивость и безопасность предприятий отрасли, а также изучена их взаимосвязь с использованием корреляционно-регрессионного анализа. Кроме того, с целью выявления факторов, влияющих на уровень финансовой безопасности, разработана многофакторная эконометрическая модель, а статистическая значимость параметров модели оценена с применением соответствующих тестов. Результаты исследования позволили установить, что на финансовую безопасность промышленных предприятий существенное влияние оказывают объем производства, объем инвестиций, эффективность использования основного капитала, а также финансовые результаты предприятий.

Ключевые слова: финансовые результаты предприятий, финансовые риски, предприятия строительной промышленности, финансовая устойчивость, финансовая безопасность.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyoti integratsiyalashuvi jarayonlarining keskin jadallashuvi o'z navbatida global iqtisodiy beqarorlikning kuchayishi, iqtisodiy faollikning pasayishi holatlarini keltirib chiqarmoqda. Jumladan, "global

inflyatsiya bir necha o'n yilliklardagidan yuqori bo'lib, 2021-yildagi 4,7 foizdan 2023-yilda 6,5 foizga ko'tarilishi prognoz qilingan. Aksariyat mintaqalarda moliyaviy sharoitlarning keskinlashishi, Ukrainadagi urush va natijada oziq-ovqat va energetika inqirozlari, inflyatsiyaning o'sishi, qarzlarning keskinlashishi va boshqa omillar ta'sirida global o'sish 2021-yildagi 6,0 foizdan 2022-yilda 3,2 foizga va 2023-yilda 2,7 foizga sekinlashdi". [1] Ma'lumotlarga ko'ra "Buyuk Britaniyada 2022-yil yakuniga ko'ra 77077 ta kichik biznes sub'ektlari jiddiy moliyaviy tanglikda bo'lgan". Bu kabi salbiy holatlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, jumladan, qurilish materiallari sanoati korxonalarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirishning dolzarbligini namoyon etadi.[2]

Jahondagi nufuzli Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Fondi, BMT, XVJ kabi halqaro tashkilotlar va tadqiqot institutlari tomonidan global keskinlashuv oqibatlarini yumshatish, qurilish sanoatida innovasiyalarni joriy etish, sof aktivlar hajmini oshirish, fond bozoridagi kapitallashuv, korxonalarda risklarni boshqarish yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Qurilish materiallari sanoatidagi risklarni baholash va minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik modellarini tadqiq etish, moliyaviy auditorlik va ichki nazorat tizimlarini takomillashtirish, debitorlik va kreditorlik qarzlarini samarali boshqarish, moliyaviy likvidlikni ta'minlash, makroiqtisodiy o'zgarishlarning qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatiga ta'sirini prognoz qilish, yashil moliyalashtirish (green finance) usullarini joriy etish va ekologiyaga doir moliyaviy instrumentlarni qo'llash, ESG (ecologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) mezonlari bo'yicha moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.[2]

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarda moliyaviy risklarni baholash hamda korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ilmiy asoslari A. Smit, D. Rikardo [4], A. Marshall [3], J. Mill, S.M. Amade [5], S. Axmad [6], de Goede, Santyago Moral-Garsiya, V.Zeng va boshqa xorijiy olimlarning ilmiy asarlarida keng tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari iqtisodchi-olimlari L.I. Abalkin, V.K. Senchagov [7], I. Lebedev [8], G. Kroxicheva [9], E. Arxipov, K. Zensova, Ye. Novikova, A.D. Sheremet, M.Yu. Kussiy, N. Yakushina [10] va boshqalar tomonidan korxonalar iqtisodiy hamda moliyaviy xavfsizlik muammolari turli darajalarda o'rganilgan.

Korxonalarda moliyaviy menejment, riskologiya va korxonalar moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning metodologik jihatlari mahalliy iqtisodchi-olimlar N. Jumaev, D. Raxmonov, A. Burxanov [11], X. Abulqosimov [12], I.T. Abdukarimov, M.K. Pardaev, T.S. Malikov, N.G'. Karimov, F. Xamidova, D. Ortiqova [13], D.I. Istamov [14], M.M. Muxammedov, E.N. Xodjaev A.E. Ishmuxammedov [15], D.K. Narzullaeva, A.E. Parmonov, A.I. Igamberdiev, G'. Dadaev, M. Qodirov, D.R. Rustamov, B. Tursunov va boshqalarning ilmiy ishlarida ham o'z aksini topgan.

Biroq, yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy asarlarida global keskinlashuv sharoitida qurilish korxonalari moliyaviy xavfsizligini baholash va ta'minlash masalalari ko'rib chiqilmagan. Global o'zgarishlar sharoitida qurilish sanoati korxonalari moliyaviy xavfsizligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirish tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda chuqur tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar qurilish materiallari sanoati korxonalarining moliyaviy hisobotlari, davlat statistika ma'lumotlari hamda ochiq iqtisodiy bazalar asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar ekonometrik modellashtirish, xususan, regressiya tahlili, korrelyatsiya va dispersion tahlil usullari orqali qayta ishlanib, moliyaviy xavfsizlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning o'zaro bog'liqligi baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Muayyan korxonaning moliyaviy xavfsizligi holatiga tashqi omillarning ta'sir darajasi nafaqat mamlakat iqtisodiyotining umumiy holatiga, balki rivojlanishning mintaqa va soha bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlariga ham bog'liq va buni albatta hisobga olish zarur. Ya'ni, bevosita O'zbekiston Respublikasida moliyaviy xavfsizlik darajasining siyosiy va iqtisodiy jihatlarining tahlil qilingan holatidan kelib chiqqan holda, o'ylaymizki, sanoat korxonalari faoliyat yuritadigan umumiy muhitni qoniqarli deb hisoblash mumkin, chunki mamlakatda siyosiy vaziyat barqaror va iqtisodiy ko'rsatkichlar ijobiy dinamikaga egadir. Korxonalarning moliyaviy xavfsizligi darajasiga ichki muhit ta'sirini baholashni keyingi paragrafda ko'rib chiqamiz.


LnY- Qurilish materiallari sanoati tarmog'i bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, mln. so'mda

$LnX_1$ - AQSh dollari kursi;

$LnX_2$ - milliy valyutadagi pul massasi (mlrd.sum);

$LnX_3$ - milliy valyutadagi boshqa depozitlar (mlrd.sum);
$LnX_4$ - chet el valyutasidagi depozitlar milliy valyuta ekvivalentida (mlrd.so'm);
$LnX_5$ - asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari importi, mln.AQSh doll.;
$LnX_6$ - kichik biznes sohasidagi qurilish hajmi (mlrd.so'm);
$LnX_7$ - axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori (mlrd.so'm).

Tanlab olingan omillar asosida ularning bir-biri bilan bog'liqlik darajasini korrelyatsiya kroeffitsienti orqali Stata 14 dasturida aniqlanadi. Jadval ma'lumotlarida keltirilishicha, natijaviy omil bilan tanlangan omillar o'rtasida kuchli bog'lanish bo'lib, omillar o'rtasida o'zaro bog'lanish zich va shartlari $|r_{x_1,x_2}| < 0,8$ bajarilganligidan, omillar o'rtasida multikollenearlik mavjud emasligi aniqlanib, regressiya tenglamasini tuzish mumkin. Regressiya tenglamasi natijaviy omil bilan tanlangan omillar o'rtasida qanday funksional bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi (1-rasm).




1-rasm. Tanlab olingan omillarning korrelyatsiya diagrammasi

Regressiya tenglamasini tuzish uchun hozirgi kunda eng qulay bo'lgan Stata 14 dasturidan foydalanish o'rinli. Bunda albatta aniqlangan regressiya tenglamalarini ishonchliligini va adekvatligini ma'lum mezonlar asosida tekshirish lozim. Modelni baholashda aniqlangan «Akaike», «Schwarz» va «Hannan-Quinn» ma'lumot o'lchamlaridan «Eng kichik kvadratlar (Least Squares (Gauss-Newton / Marquardt steps) usullari qo'llanildi.

Model natijalarini tekshirish maqsadida F-test o'tkazildi, F-testning mohiyati oddiy determinatsiya koeffitsiyenti $R^2=0$ degan gipotezani tekshirishdan iboart. Chunki bu ko'rsatkich Yning regressiya tenglamasi orqali tushuntirilishi mumkin bo'lgan qismini ko'rsatadi. Agar u nolga teng bo'ladigan bo'lsa Y ni X orqali tushuntirib bo'lmasligi ma'lum bo'ladi.

Nolinchi va bir yoqlama alternativ gipotezalarni quyidagicha quramiz:
$H_0$: $\rho^2=0$
$H_1$: $\rho^2>0$
$\alpha=0,05$ ahamiyatlilik darajasi uchun F ning kritik qiymatini topamiz:
$F_{cr}=F_{\alpha}(k-1; n-k) = F_{0,05}(5;5) = 68.76$
F tanlanmaning hisoblangan qiymati:

$$F_{stat} = \frac{SST/(k-1)}{SSE(n-k)} = 240,88 \quad (2.1)$$

Bunda,

SST – umumiy kvadratlar yig'indisi,
SSE – qoldiq kvadratlar yig'indisi.
Hal qiluvchi qoida: $F_{cr}=68.76 < F=240,88$
bo'lgani uchun $H_0$ gipoteza inkor etiladi.

Demak, $F_{stat} > F_{cr}$ bo'lgani uchun $H_0$ gipoteza inkor etiladi. Demak, regressiya tenglamasi yordamida Y, ya'ni YaIM o'zgarishining noldan ahamiyati farq qiladigan qismini tushuntirib beradi, degan xulosaga kelish mumkin.

Modelda t-test o'tkazishdan maqsad, bosh to'plamning taxmin qilingan chiziqli regressiya tenglamasi koeffitsiyentlarining noldan ahamiyatli farq qilishini, ya'ni ularning tasodifiy emasligini tekshirishdan iboratdir. Mos nolinchi va bir yoqlama gipotezalarni quyidagicha qurish mumkin:

$H_0: \beta_1 = 0$
$H_1: \beta_1 \neq 0$

Barcha koeffitsiyentlar uchun t-testda zarur bo'ladigan p-qiymat 0.05dan kichik. Ya'ni barcha koeffitsiyentlar kamida 94%lik ishonch bilan YaIMga omillar ta'sirini to'g'ri ifodalab beradi.

Hal qiluvchi qoidani qo'llagan holda, p-qiymat < 0.005 bo'lgani uchun $H_0$ gipoteza inkor etiladi. Demak, bosh to'plam regressiya koeffitsiyenti noldan ahamiyatli farq qilar ekan va tasodifiy emas. Bundan esa omillarning o'zgarishi YaIMning o'zgarishiga olib kelar ekan (to'g'ri proporsional ravishda).

Determinatsiya koeffitsiyenti (ta'rifi, formulasi va ularga sharh berish). Masala bo'yicha xulosalar. Ko'p o'zgaruvchili regressiyadagi determinatsiya koeffitsiyenti – $R^2$ miqdor Y o'zgaruvchanligining bashorat qiluvchi o'zgaruvchilar tomonidan topilgan regressiya tenglamasi yordamida tushuntirilishi mumkin bo'lgan qismini bildiradi.

Qurilish sanoati korxonalarida moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili 1-jadvalda berilgan (1-jadval).

1- jadval. Qurilish sanoati korxonalarida moliyaviy xavfsizligiga tasir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili

Dependent Variable: LNY

Method: Least Squares

Date: 02/04/24 Time: 11:54

Sample: 2013 2023

Included observations: 11

| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
|---|---|---|---|---|
| LNX1 | 0.519721 | 0.208048 | 2.498087 | 0.0411 |
| LNX6 | 2.083209 | 0.308236 | 6.758477 | 0.0003 |
| LNX7 | -0.526414 | 0.228909 | -2.299667 | 0.0550 |
| C | -6.714945 | 0.943521 | -7.116902 | 0.0002 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| R-squared | 0.991518 | Mean dependent var | 14.92463 |
| Adjusted R-squared | 0.987883 | S.D. dependent var | 1.579357 |
| S.E. of regression | 0.173852 | Akaike info criterion | -0.385940 |
| Sum squared resid | 0.211571 | Schwarz criterion | -0.241251 |
| Log likelihood | 6.122669 | Hannan-Quinn criter. | -0.477146 |
| F-statistic | 272.7607 | Durbin-Watson stat | 2.919223 |
| Prob(F-statistic) | 0.000000 | | |

$$LnY = 0{,}51LnX_1 + 2{,}08LnX_6 - 0{,}52LnX_7 - 6{,}714$$

AQSh dollari kursi bilan qurilish materiallari sanoati tarmog'i bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi o'rtasidagi musbat bog'lanish bo'lib, kursning 1 birlikka oshishi 0.51 birlikka oshishiga olib kelishi aniqlandi. Kichik biznes sohasidagi qurilish hajmini 1 birlikka oshishi 2.08 birlikka oshishiga olib kelishi, shuningdek, axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektoridagi ish hajmini oshishi esa investitsiyalar hajmini pasayishiga olib kelishi regression tenglama asosida aniqlandi. Qurilish sanoati korxonalarida moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarning regression tenglamasining Breusch-Pagan-Godfrey testi natijalariga ko'ra modelda avtokorrelyatsiya aniqlanmadi (2-jadval).

2- jadval. Qurilish sanoati korxonalarida moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarning regression tenglamasining avtokorrelyatsiya (Breusch-Pagan-Godfrey) testi natijalari

Heteroskedasticity Test: Breusch-Pagan-Godfrey

| | | | |
|---|---|---|---|
| F-statistic | 0.856191 | Prob. F(3,7) | 0.5065 |
| Obs*R-squared | 2.952823 | Prob. Chi-Square(3) | 0.3990 |
| Scaled explained SS | 0.409790 | Prob. Chi-Square(3) | 0.9382 |

Test Equation:
Dependent Variable: RESID^2
Method: Least Squares
Date: 02/04/24 Time: 11:55
Sample: 2013 2023
Included observations: 11

| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
|---|---|---|---|---|
| C | -0.095503 | 0.092658 | -1.030709 | 0.3370 |
| LNX1 | 0.009699 | 0.020431 | 0.474728 | 0.6494 |
| LNX6 | 0.031862 | 0.030270 | 1.052581 | 0.3275 |
| LNX7 | -0.033938 | 0.022480 | -1.509705 | 0.1749 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| R-squared | 0.268438 | Mean dependent var | 0.019234 |
| Adjusted R-squared | -0.045088 | S.D. dependent var | 0.016701 |
| S.E. of regression | 0.017073 | Akaike info criterion | -5.027357 |
| Sum squared resid | 0.002040 | Schwarz criterion | -4.882667 |
| Log likelihood | 31.65046 | Hannan-Quinn criter. | -5.118563 |
| F-statistic | 0.856191 | Durbin-Watson stat | 2.721979 |
| Prob(F-statistic) | 0.506492 | | |

Vaqtli qatorlarda regressiya modelida qoldiqlarning avtokorrelyatsiyasi gipotezasini tekshirish hisoblanadi. Vaqtli qatorlarda cov ($u_1, u_2$) = 0 ($u_2$ $u_1$ ga teng emas) sharti bajarilmasa, tasodifiy komponent avtokorrelyatsiya yoki ketma-ket korrelyatsiyaga bog'liq deyiladi. Ko'pincha bu $x_i$, $y_i$ dastlabki statistik ma'lumotlar o'z vaqtida qayd etilganda, jarayonni tavsiflash uchun model noto'g'ri tanlanganda yoki kerakli o'zgaruvchilar modelga kiritilmaganda sodir bo'ladi.

Avtokorrelyatsiyaning oqibatlari geteroskedastiklik oqibatlariga o'xshaydi:

1. Hisob-kitoblar xolis bo'lib qolsa-da, ular samarasiz, chunki xolis hisob-kitoblarga ega bo'lgan, ammo farqi kamroq bo'lgan boshqa modelni topish mumkin.
2. Standart xatolar noto'g'ri baholanadi - ular odatda kam baholanadi va pastga siljiydi.

Avtokorrelyatsiyani aniqlashning eng keng tarqalgan usuli bu Darbin- Uotson testidir. Sinov o'rganilayotgan qatorda avtokorrelyatsiyaning yo'qligi to'g'risida nol gipotezani ilgari surishdan, Darbin-Uotson mezonini hisoblashdan va keyin olingan qiymatni kritik qiymat bilan taqqoslashdan iborat.

O'rganilayotgan modelning tasodifiy komponentining avtokorrelyatsiyasi yo'qligi haqida gipoteza ilgari suriladi. Muqobil gipoteza ijobiy avtokorrelyatsiya mavjud bo'lishi mumkin.

Keyingi qadamda esa Darbin-Uotson statistikasi hisoblanadi.

$$d = \frac{\sum_{t=2}^{n} \left[ e(t) - e[t-1] \right]^2}{\sum_{t=1}^{n} et^2}$$

yoki
$d = 2 * (1 - r_1)$

Agar d ≈ 0 bo'lsa, u holda gipoteza ijobiy avtokorrelyatsiya mavjudligi haqidagi gipoteza foydasiga rad etiladi (chunki $r_1$ 1 ga yaqin); agar ≈ 4 bo'lsa, bu yuqori manfiy avtokorrelyatsiya ($r_1$ ≈ -1) mavjudligini ko'rsatadi,

d ning 2 ga yaqinligi nol gipotezaning tasdiqlanishini bildiradi ($r_1 \approx 0$).

Darbin-Uotson mezonini qo'llashda olingan qiymatini $d_u$ va $d_l$ chegara qiymatlari bilan solishtirishni o'z ichiga oladi. Ushbu ikki koeffitsiyentning qiymatlari kuzatuvlar soniga, alfa ahamiyatlilik darajasiga va tushuntiruvchi o'zgaruvchilar soniga bog'liq.

1) $d < d_l$ – gipoteza ijobiy avtokorrelyatsiya mavjudligi haqidagi gipoteza foydasiga rad etiladi;
2) $d > d_u$ – gipoteza rad etilmaydi;
3) d bu ikki qiymat o'rtasida joylashgan - bu noaniqlik chegarasi.

Qurilish sanoati korxonalarida moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi boshqa omillarning regression tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi qurilish sanoatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modelini avtokorrelyatsiyaga tekshirish testi (White) natijalari ushbu jadvalda keltirilgan (3-jadval).

3- jadval. Qurilish sanoati korxonalarida moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili

Dependent Variable: LNY
Method: Least Squares
Date: 02/04/24 Time: 11:57
Sample: 2013 2023
Included observations: 11

| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
|---|---|---|---|---|
| LNX4 | 0.367988 | 0.196277 | 1.874841 | 0.1029 |
| LNX6 | 2.134465 | 0.349310 | 6.110524 | 0.0005 |
| LNX7 | -0.538195 | 0.256939 | -2.094640 | 0.0745 |
| C | -6.233572 | 1.051953 | -5.925717 | 0.0006 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| R-squared | 0.989320 | Mean dependent var | 14.92463 |
| Adjusted R-squared | 0.984742 | S.D. dependent var | 1.579357 |
| S.E. of regression | 0.195086 | Akaike info criterion | -0.155470 |
| Sum squared resid | 0.266409 | Schwarz criterion | -0.010780 |
| Log likelihood | 4.855083 | Hannan-Quinn criter. | -0.246676 |
| F-statistic | 216.1354 | Durbin-Watson stat | 2.412333 |
| Prob(F-statistic) | 0.000000 | | |

$$LnY = 0{,}37LnX_4 + 2{,}13LnX_6 - 0{,}53LnX_7 - 6{,}233$$

Bundan tashqari, boshqa omillar o'zgarmagan holatda, chet el valyutasidagi depozitlar hajmining 1 birlikka oshishi qurilish materiallari sanoati tarmog'i bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini 0.37 birlikka oshishiga xizmat qilishi aniqlandi.

Regression tenglamaga ko'ra kichik biznes sohasidagi qurilish hajmini 1 birlikka oshishi 2.13 birlikka oshishiga, axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektoridagi ish hajmini oshishi esa investitsiyalar hajmini pasayishiga olib kelishi ko'rinmoqda. Biroq axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori o'rtasidagi multikolleniarlik muammosi bo'lganligi sababli ushbu oxirgi xulosani statistik jihatdan ahamiyatli emas deb hisoblash mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish sanoati korxonalari moliyaviy xavfsizligini taminlashda quyidagicha xulosalar qilindi:

1. Jahondagi mavjud bo'lgan korxonalar moliyaviy xavfsizligini baholash usullarining aksariyati yakuniy integral indeksini hisoblashga asoslanadi. Bunda umumiqtisodiy normativ va mezonlardan foydalanadigan usullar, moliyaviy koeffitsiyent va ko'rsatkichlarga asoslangan usullar, tadbirkorlik risklari va biznes rivojlanishining o'ziga xos ko'rsatkichlarini baholashga asoslangan usullar, iqtisodiy-matematik modellashtirish va ekspert baholash usullarini keltirish mumkin. Ularning barchasi ixtisoslashgan kompleks iqtisodiy yoki moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilishga asoslangan.

2. Moliyaviy xavfsizlik darajasi faoliyatining tashqi omillari tayyorini hisobga olgan holda baholanishi kerak. Buning uchun biznes jarayonlariga asosiy tahdidlarni aniqlash zarur. Fikrimizcha, ushbu tahdidlarni quyidagi guruhlarga ajratish kerak:

-siyosiy omillar: davlat siyosatining barqarorligini, davlat rivojlanishi iqtisodiy strategiyasining o'ziga xos xususiyatlari, mamlakatning xalqaro maydondagi siyosiy - iqtisodiy obro'si va boshqalar;

- iqtisodiy omillar: mamlakatning soliq tizimi, bozor va tadbirkorlik erkinligi, raqobat darajasi va iqtisodiyot sohasi va alohida mahsulot raqobatbardoshliligi.

3. Sanoat korxonasining moliyaviy xavfsizligini baholashning quyidagi asosiy vazifalarini ajratish mumkin: korxonaning ichki va tashqi muhitini tahlil qilish; inqiroz muhitini belgilash va muhim risklarni ajratish; risklarni va inqiroz yuz berishi ehtimolini baholash; o'tkazilgan tahlil ma'lumotlari asosida faoliyatidagi muammoli nuqtalarini aniqlash; korxona faoliyatini samaradorligini baholash; korxonaning moliyaviy xavfsizligi darajasi to'g'risida umumiy xulosalarni shakllantirish. Bizningcha, moliyaviy xavfsizlikni diagnostika qilish usulini yaratishda ko'p o'lchovli statistik usuldan foydalanish asosida olingan integral baholardan foydalanishga e'tibor qaratish lozim. Tadqiq qilinayotgan ob'ektning xavfsizligi darajasini tahlil qilinar ekan, moliyaviy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillar identifikatsiya qilinishi lozim. Aks holda, korxonaning moliyaviy xavfsizligi darajasining haqiqiy holati to'g'ri aniqlanmaydi. Shu sabab ushbu bobda korxonalar moliyaviy xavfsizligini baholash uslubiyoti makro va mikro muhitlardagi omillarni aniqlash asosida takomillashtirildi.

4. Taklif etilgan uslub aynan qurilish materiallari sanoatinig o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan bo'lib, uning aprobatsiyasi, samaradorligi va foydalanish qulayligini namoyish etishga imkon berdi. Shuningdek, uslub davlat moliyaviy hisobotlari ko'rsatkichlaridan foydalanishga asoslangan va shuning uchun metodologiyani nafaqat ma'lum bir korxonaning top-menejerlariga, balki ularning raqobatbardosh mavqeini va umuman sohani baholashda ham qo'llash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2022/10/11/world-economic-outlook-october-2022
2. https://www.constructionnews.co.uk/financial/growing-number-of-construction-companies-in-critical-financial-distress-25-01-2023.
3. Маршалл А. Принципы экономической науки. Т. 1. и 2. - М.: Издание РОО, 1996; Милль Дж. Основы политической экономии. Пер. с анг. – Т. 1-3. – М.: Прогресс, 1980-1981.;
4. Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Том 1. Пер. с анг. – М.: Госполитиздат, 1955.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, 2007. – Серия: Антология экономической мысли – 960 с.;
5. Amadae, S.M. (2017) Perpetual anarchy: From economic security to financial insecurity. Finance and Society, 3(2): 188-96.; Amicelle, A. (2017) When finance met security: Back to the War on Drugs and the problem of dirty money. Finance and Society, 3(2): 106-23.
6. Ahmad S., Ng Ch., McManusc L. Enterprise risk management (ERM) implementation: Some empirical evidence from large Australian companies. Procedia - Social and Behavioral Sciences 164 ( 2014 ) 541 – 547;
7. Анциборко К. Математические модели управления производственной и финансовой безопасностью промышленного предприятия. Дис. на соиск. уч. ст. к.э.н. ГОУ ВПО «Российская экономическая академия им Г.В. Плеханова. Москва. 2007.;
8. Лебедев И. Методы минимизации финансовых рисков при обеспечении экономической безопасности предприятий металлургии. Дис. на соиск. уч. ст. к.э.н. Федеральное государственное образовательное учреждение высшего профессионального образования «Финансовая академия при правительстве Российской федерации» (Финакадемия). Москва. 2008.;
9. Крохичева Г., Архипов Э., Зенцова К., Новикова Е. Финансовая безопасность в системе экономической безопасности. KANT. №3 (20). 2016. С.107-111.;
10. Якушина Н. Финансовая безопасность предприятия. Вестник Университета. №11. 2013. С. 132-135.; Кузнецова Е., Лаптев Д. Финансовая безопасность предприятия как предмет финансового планирования. Вестник Московского университета МВД России. №5. 2011. С. 52-57.
11. Бурханов А.У. Молиявий хавфсизлик.Ўқув қўлланма.Иқтисодиёт. 2019, 164 б.;
12. Абулқосимов Х.П. Иқтисодий хавфсизлик. Т.: Академия, 2006, 111 – б.; Пардаев М.К., Аминов З.Ю. Корхонанинг иктисодий хавфсизлиги ва уни таъминлаш йўллари. Рисола. Самарканд: Зарафшон, 2008.- 47 бет.;
13. Ortiqova D. «Iqtisodiy xavfsizlik» (O'quv qo'llanma). –T.: TDIU, 2010. 150 bet.;
14. Истамов Д.И., Ю.А.Гранаткин, М.М.Мухаммедов, Э.Н.Ходжаев. Экономическая безопасность предприятия и защита коммерческой тайны. Самарканд. 1995.- 152 бет.;
15. Ишмухаммедов А.Э. Иқтисодий хавфсизлик. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ , 2004. – 176 б.; Нарзуллаева Д.К. Учебно-методический комплекс по дисциплине «Безопасность в индустрии – сервиса». – Т.: ТГЭУ.- 434 с.

# YENGIL SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

**Sadriddinova Nigora**
i.f.f.d.(PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot unviyersiteti
Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada yengil sanoat korxonalari iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar iqtisodiy-matematik modellashtirish va korrelyatsiya-regressiya tahlili asosida tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida O'zbekiston to'qimachilik sanoatining 2010–2021-yillardagi rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilinib, tarmoq eksport salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi, sohada band bo'lganlar soni, tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi hamda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ko'rsatkichlari o'rganildi. Korrelyatsiya matritsasi tahlili tarmoq eksport salohiyati bilan investitsiyalar va ishlab chiqarish hajmi o'rtasida yuqori bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Ekonometrik tahlillar asosida ko'p omilli regressiya modeli shakllantirilib, modelning statistik ahamiyatliligi Fisher mezoni va determinatsiya koeffitsiyentlari orqali baholandi. Shuningdek, panel ma'lumotlar asosida Pooled OLS, Fixed Effects va Random Effects modellari qurilib, Xausman testi natijalariga ko'ra eng maqbul model sifatida Fixed Effects modeli tanlandi. Tadqiqot natijalari to'qimachilik sanoatida investitsiyalar va ishlab chiqarish hajmining oshishi eksport salohiyatini kengaytirish orqali korxonalar iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: yengil sanoat, klaster, iqtisodiy xavfsizlik, panel ma'lumotlar, Pooled OLS, Fixed Effects, Random Effects, Xausman testi,maqbul model, Fixed Effects modeli.

Abstract. The article studies the main factors affecting the economic security of light industry enterprises based on economic and mathematical modeling and correlation-regression analysis. As part of the study, the development indicators of the textile industry of Uzbekistan for 2010–2021 were analyzed, and the export volume of textile products, the number of people employed in the industry, the volume of production of finished textile products, and the indicators of investments in fixed capital were studied as factors affecting the export potential of the sector. Correlation matrix analysis showed that there is a high correlation between the export potential of the sector and the volume of investments and production. Based on econometric analyses, a multifactor regression model was formed, and the statistical significance of the model was assessed using the Fisher criterion and determination coefficients. Also, Pooled OLS, Fixed Effects, and Random Effects models were built based on panel data, and the Fixed Effects model was selected as the most suitable model according to the results of the Hausman test. The results of the study showed that increasing investment and production volumes in the textile industry serve to strengthen the economic security of enterprises by expanding their export potential.

Key words: light industry, cluster, economic security, panel data, Pooled OLS, Fixed Effects, Random Effects, Hausman test, optimal model, Fixed Effects model.

Аннотация. В статье на основе экономико-математического моделирования и корреляционно-регрессионного анализа исследованы основные факторы, влияющие на экономическую безопасность предприятий лёгкой промышленности. В рамках исследования проанализированы показатели развития текстильной промышленности Узбекистана за 2010–2021-годы, при этом в качестве факторов, влияющих на экспортный потенциал отрасли, изучены объём экспорта текстильной продукции, численность занятых в отрасли, объём производства готовой текстильной продукции и объём инвестиций в основной капитал. Анализ корреляционной матрицы показал наличие высокой взаимосвязи между экспортным потенциалом отрасли, инвестициями и объёмом производства. На основе эконометрического анализа сформирована многофакторная регрессионная модель, статистическая значимость которой оценена с использованием критерия Фишера и коэффициентов детерминации. Кроме того, на основе панельных данных построены модели Pooled OLS, Fixed Effects и Random Effects, и по результатам теста Хаусмана в качестве наиболее предпочтительной модели выбрана модель Fixed Effects. Результаты исследования показали, что рост инвестиций и объёма производства в текстильной промышленности способствует расширению экспортного потенциала и укреплению экономической безопасности предприятий.

Ключевые слова: лёгкая промышленность, кластер, экономическая безопасность, панельные данные, Pooled OLS, Fixed Effects, Random Effects, тест Хаусмана, оптимальная модель, модель Fixed Effects.

## KIRISH

Jahon amaliyotida to'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini boshqarish usul va mexanizmlari keng qo'llaniladi. Jahon amaliyoti so'nggi yigirma yil davomida tashkilotlarning klasterli uyushmalarini yaratish jarayonlari faollashganidan dalolat beradi. Rivojlangan mamlakatlarda korxonalarning 50 %dan ortig'i klasterlar ichida ishlaydi va ularda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning ulushi 60 %dan ortadi. Jahon tajribasi ko'rsatadiki, aynan milliy iqtisodiyot, shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy tizimlarni tuzishda klasterli yondashuv ishlab chiqarish samaradorligini, raqobatbardoshligini va aholining farovonligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu esa tanlangan tadqiqot mavzusining ahamiyatini tasdiqlaydi.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan to'qimachilik klasterlari tizimlarining iqtisodiy faoliyati samaradorligini baholash uchun mavjud innovatsion usullar va uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishni taklif qilinadi. To'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy yo'nalishlari, "xarajatlarni boshqarish" paradigmasidan "natijalarni boshqarish" paradigmasiga o'tish, iqtisodiy-matematik modellashtirish va keng prognozlash usullaridan foydalanish, to'qimachilik klasterlarini boshqarish samaradorligini oshirish, to'qimachilik sanoatida yaxlit axborot muhitini yaratish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotda klaster yondashuvining asoslari P.Maskell [1], M.Lorenzen, M.Porter [2], M.Storper, M.Enrayt, S.Resenfeld, T.Andersen, S.Breschi, P.Druker, M.Castells, K.Ketels, E.Canari, Yu.Kimura, P.Krugman, K.Kutsun, A.Kuchiki, B.Lundval, R.M.Marsh, G.Mensch, U.Migari, O.Solvela, G.Uayt, K.Freeman, S.Xarrison, J.Xenderson, D.Xiljers, J.Shumpeter va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

To'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning klaster shakllari bilan shug'ullangan zamonaviy olimlar orasida D.P.Barsukov [3], D.M.Begov, V.I.Vagizova, V.V.Ilin, Yu.A.Axenbax, N.N.Shutko, G.D.Boush [4], L.L.Butuzova, R.R.Toxchukov, E.V.Chemodanov, A.Fridman, A.A.Migranyan, T.V.Uskova, Ye.V.Volkodavova, T.I.Maksimova, L.I.Pronyayeva, O.A.Fedotenkova, A.V.Pavlova, V.V.Pechatkin, M.A.Nikolayev va boshqalarni alohida aytib o'tish mumkin.

Mahalliy olimlar orasida to'qimachilik klasterlari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari M.R.Boltabayev [5], Z.A.Xakimov [6], S.Sh.Yusupov [7], X.Kodirov, [9] K.R.Xonkeldiyeva, F.P.Azimova, I.A.Toshpulatov [8] va boshqalar tomonidan bevosita yoki bilvosita o'rganilgan.

Shu bilan birga, bu sohada mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ko'plab tadqiqotlari mavjud bo'lishiga qaramay, to'qimachilik klasterlarini takomillashtirish va to'qimachilik mahsulotlari eksportini optimallashtirish masalalari qo'shimcha tadqiqotlarni talab etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar yengil sanoat korxonalarining moliyaviy hisobotlari, rasmiy statistika bazalari, tarmoq hisobotlari hamda ekspert so`rovnomalari asosida shakllantirildi. Olingan ma'lumotlar iqtisodiy-statistik usullar, taqqoslash, korrelyatsion-regression va faktor tahlili yordamida qayta ishlanib, iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda ularning o`zaro bog`liqligi aniqlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston to'qimachilik sanoatining eksport salohiyati oshishi yoki pasayishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash maqsadida korrelyatsiya-regressiya tahlili va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullari qo'llangan. Tahlil quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshirildi: mutlaq qiymat ifodasida to'qimachilik mahsulotlarining eksport hajmi (Exp), tarmoqda ish bilan bandlar soni (Emp), tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (Textprod), to'qimachilik sanoatining asosiy fondlariga investitsiyalar hajmi (Inv).

6-ilovada korrelyatsiya-regressiya tahlilini o'tkazish, iqtisodiy-matematik modelni yaratish va O'zbekistonda to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini prognozlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan (xarajat ko'rsatkichlari 2021-yildagi solishtirma narxlarda keltirilgan). 2010-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning yuqoridagi ko'rsatkichlari asosida ko'p omilli model yaratilgan (1-jadval).

1- jadval. Correlation matrix

| | Y (Exp) | X3 (Inv) | X2 (Textprod) | X1 (Emp) |
|---|---|---|---|---|
| Y (Exp) | 1.000000 | 0.926180 | 0.904302 | 0.729624 |
| X3 (Inv) | 0.926180 | 1.000000 | 0.649736 | 0.727801 |
| X2 (Textprod) | 0.904302 | 0.649736 | 1.000000 | 0.853397 |
| X1 (Emp) | 0.729624 | 0.727801 | 0.853397 | 1.000000 |

3.2-jadvalda ma'lumotlar juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi asosida guruhlandi va tahlil qilindi. Mazkur koeffitsiyentlarni tahlil qilish korxonalarning eksport salohiyati va milliy bozor holatining o'zgarish tendensiyalari qanchalik yaqin ekanligini ko'rsatadi.

Ekonometrik tahlillarga ko'ra, ko'rib chiqilayotgan davrda to'qimachilik korxonalarining eksport salohiyatiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi ikkita omil – sohaga kiritilayotgan investitsiyalar, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi, ya'ni investisiya va ishlab chiqarish salohiyati aniqlandi. Bundan tashqari, izohlovchi (ekzogen) o'zgaruvchilar (xususan, $x_1$ va $x_3$ o'rtasidagi) o'rtasidagi korrelyatsiya mavjudligini ham qayd etish mumkin.

Regressiya tahlili uchun to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi izohlanuvchi o'zgaruvchisi sifatida qabul qilindi, izohlovchi sifatida – sanoatda band bo'lganlar soni, tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik sanoatining asosiy kapitaliga qo'yilgan investitsiyalar hajmi.

Kengaytirilgan Dikki-Fuller testi nol gipotezani qabul qilish ehtimoli 0,36 % ekanligini ko'rsatdi, bu birlik ildizning mavjud emasligi va qatorning statsionarligini ko'rsatadi (2-jadval).

2- jadval. Augmented Dickey-Fuller test statistic

| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
|---|---|---|---|---|
| D(Y(-1),2) | -5.609773 | 0.712311 | -7.875453 | 0.0157 |
| D(Y(-1),3) | 2.473267 | 0.489922 | 5.048292 | 0.0371 |
| D(Y(-2),3) | 1.586809 | 0.285551 | 5.556999 | 0.0309 |
| C | -889699.8 | 126000.3 | -7.061094 | 0.0195 |
| @TREND(«1») | 142255.2 | 16922.60 | 8.406230 | 0.0139 |
| R-squared | 0.985917 | Mean dependent var | | 116813.4 |
| Adjusted R-squared | 0.957751 | S.D. dependent var | | 318818.5 |
| S.E. of regression | 65531.45 | Akaike info criterion | | 25.19426 |
| Sum squared resid | 8.59E+09 | Schwarz criterion | | 25.15562 |
| Log likelihood | -83.17990 | Hannan-Quinn criter. | | 24.71673 |
| F-statistic | 35.00411 | Durbin-Watson stat | | 2.099090 |
| Prob(F-statistic) | 0.027967 | | | |

Ko'p omilli regressiya modeli tuzamiz, unda Y o'zgaruvchi ko'rsatkich – 2010-2021-yillar uchun O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarining eksport hajmi (3-jadval).

3- jadval. Multiple regression metrics

| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
|---|---|---|---|---|
| X3 | 0.105775 | 0.067996 | 1.555607 | 0.1584 |
| X2 | 6.795824 | 32.79164 | 0.207243 | 0.8410 |
| X1 | 884.8556 | 3509.125 | 0.252158 | 0.8073 |
| C | 454021.4 | 627100.1 | 0.724002 | 0.4897 |
| R-squared | 0.865094 | Mean dependent var | | 1206790. |
| Adjusted R-squared | 0.814505 | S.D. dependent var | | 670189.5 |
| S.E. of regression | 288645.0 | Akaike info criterion | | 28.24498 |
| Sum squared resid | 6.67E+11 | Schwarz criterion | | 28.40662 |
| Log likelihood | -165.4699 | Hannan-Quinn criter. | | 28.18514 |
| F-statistic | 17.10023 | Durbin-Watson stat | | 1.357301 |
| Prob(F-statistic) | 0.000770 | | | |

Determinatsiya koeffitsiyenti R-square = 0,87. Erkinlik darajalarini yo'qotish hisobga olinib tuzatish kiritilgan ko'plik determinatsiya koeffitsiyenti Adjusted $R^2$ = 87.

Fisher mezoni $F_{\text{расч}} = 17{,}1\, F_{\text{табл}} = 4{,}07$. Fisher mezoniga muvofiq, mazkur model mos keladi.

Butun model bo'yicha $H_0$ nolinchi gipoteza qabul qilish ehtimoli 0,000770 ni tashkil qiladi, bu esa muqobil gipotezani va modelning muhimligini qabul qilish zaruratidan darak beradi.

Eviews dasturi yordamida eng kichik kvadratlar usulida olingan ma'lumotlarga ko'ra, hosil bo'lgan ko'p o'lchovli model quyidagicha ko'rinishga ega:

$$Y = 454021{,}4 + 884{,}9 \cdot X_1 + 6{,}8 \cdot X_2 + 0{,}1 \cdot X_3 \qquad (3.1)$$

(t) (0,72) (0,25) (0,21) (1,56)

(3.1) tenglama to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining (Y) tarmoqda band bo'lgan aholi soniga ($X_1$), tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ($X_2$) va to'qimachilik sanoatiga investitsiyalar hajmi ($X_3$) bog'liqligini ifodalaydi. Tenglama koeffitsiyentlari har bir omilning boshqalari esa o'zgarishsiz qolganda samarali ko'rsatkichga miqdoriy ta'sirini ko'rsatadi.

Ishonch ehtimoli γ = 0,95 va erkinlik darajalari soni v = n - m - 1 = 12-1=8; $t_{kr.} = t_{0,05;11} = 2{,}201$. bo'lgan Styudent mezonining jadvalli qiymati. Tenglama koeffitsiyentlarining hisoblangan t-statistikasini jadvalli qiymat bilan taqqoslab, regressiya tenglamasining faqat $X_2$ dagi (to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari) koeffitsiyenti statistik ahamiyatga ega emas degan xulosaga kelamiz, shu munosabat bilan biz boshqa modelni hosil qilamiz, bu safar panel ma'lumotlariga asoslanadi (ma'lumotlar 7-ilovada keltirilgan).

Natijada, longityud ma'lumotlar modeli uchun to'qimachilik sanoati eksporti ming AQSH dollarida omil-ko'rsatkichlar sifatida tanlandi:

$x_1$ – sanoat ishlab chiqarishidagi to'qimachilik mahsulotlarining ulushi, %

$x_2$ – to'qimachilik mahsulotlarining asosiy kapitaliga investitsiyalar, million so'm (2021-yil narxlarida)

$x_3$ – to'qimachilik sohasida xodimlarning o'rtacha yillik soni.

Panel ma'lumotlarini o'rganish uchun uchta model yaratilgan: umumiy regressiya modeli (POLS bilan birlashtirilgan), natijasi belgilangan (FE) model va tasodifiy natijali (RE) model (4-jadval).

4- jadval. Pooled OLS regression model [1]

| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
|---|---|---|---|---|
| X1 | -2344.442 | 458.4904 | -5.113393 | 0.0000 |
| X2 | 0.016245 | 0.015088 | 1.076641 | 0.2844 |
| X3 | 17.20726 | 1.349397 | 12.75181 | 0.0000 |
| R-squared | 0.636058 | Mean dependent var | | 103553.7 |
| Adjusted R-squared | 0.628396 | S.D. dependent var | | 99823.06 |
| S.E. of regression | 60851.45 | Akaike info criterion | | 24.90039 |
| Sum squared resid | 3.52E+11 | Schwarz criterion | | 24.97952 |
| Log likelihood | -1217.119 | Hannan-Quinn criter. | | 24.93240 |
| Durbin-Watson stat | 0.509265 | | | |

FE modeli obyektlarning (natijalarning) o'lchamsiz individual farqlarini hisobga olmaydi, ular halaqit beruvchi parametr sifatida talqin qilinadi va baholash ularni istisno qilishga qaratiladi (5-jadval).

5- jadval. Fixed effects panel regression model

| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
|---|---|---|---|---|
| C | -62012.69 | 38983.12 | -1.590758 | 0.1156 |
| X1 | 2079.863 | 1383.367 | 1.503480 | 0.1366 |
| X2 | 0.036052 | 0.013568 | 2.657103 | 0.0095 |
| X3 | 12.90880 | 3.581902 | 3.603894 | 0.0005 |
| | Effects Specification | | | |
| Cross-section fixed (dummy variables) | | | | |
| R-squared | 0.820284 | Mean dependent var | | 103553.7 |
| Adjusted R-squared | 0.784785 | S.D. dependent var | | 99823.06 |
| S.E. of regression | 46309.19 | Akaike info criterion | | 24.48049 |
| Sum squared resid | 1.74E+11 | Schwarz criterion | | 24.92890 |
| Log likelihood | -1182.544 | Hannan-Quinn criter. | | 24.66186 |
| F-statistic | 23.10699 | Durbin-Watson stat | | 0.939818 |
| Prob(F-statistic) | 0.000000 | | | |

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

RE modelida obyektlarning (natijalarning) o'lchamsiz individual farqlari hisobga olinadi va individual tafovutlar tasodifiy xarakterga ega hisoblanadi (6-jadval).

6- jadval. Random effects panel regression model

| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
|---|---|---|---|---|
| C | -24492.58 | 28572.76 | -0.857200 | 0.3935 |
| X1 | -669.5052 | 925.0309 | -0.723765 | 0.4710 |
| X2 | 0.028181 | 0.012582 | 2.239861 | 0.0275 |
| X3 | 15.46162 | 2.436404 | 6.346082 | 0.0000 |
| | Effects Specification | | | |
| Cross-section random | | | 40452.80 | 0.4328 |
| Idiosyncratic random | | | 46309.19 | 0.5672 |
| | Weighted Statistics | | | |
| R-squared | 0.442746 | Mean dependent var | | 41121.67 |
| Adjusted R-squared | 0.424961 | S.D. dependent var | | 63029.85 |
| S.E. of regression | 47796.38 | Sum squared resid | | 2.15E+11 |
| F-statistic | 24.89472 | Durbin-Watson stat | | 0.781942 |
| Prob(F-statistic) | 0.000000 | | | |
| | Unweighted Statistics | | | |
| R-squared | 0.603397 | Mean dependent var | | 103553.7 |
| Sum squared resid | 3.83E+11 | Durbin-Watson stat | | 0.438029 |

Tuzilgan modellar $x_1$ o'zgaruvchisi (to'qimachilik mahsulotlarining sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi) ahamiyatsiz ekanligini ko'rsatdi. Hosil qilingan modellardan eng mosini tanlash uchun Xausman testini o'tkazamiz (7-jadval).

7- jadval. Correlated Random Effects - Hausman Test

| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
|---|---|---|---|---|
| C | -24492.58 | 28572.76 | -0.857200 | 0.3935 |
| X1 | -669.5052 | 925.0309 | -0.723765 | 0.4710 |
| X2 | 0.028181 | 0.012582 | 2.239861 | 0.0275 |
| X3 | 15.46162 | 2.436404 | 6.346082 | 0.0000 |
| | Effects Specification | | | |
| Cross-section random | | | 40452.80 | 0.4328 |
| Idiosyncratic random | | | 46309.19 | 0.5672 |
| | Weighted Statistics | | | |
| R-squared | 0.442746 | Mean dependent var | | 41121.67 |
| Adjusted R-squared | 0.424961 | S.D. dependent var | | 63029.85 |
| S.E. of regression | 47796.38 | Sum squared resid | | 2.15E+11 |
| F-statistic | 24.89472 | Durbin-Watson stat | | 0.781942 |
| Prob(F-statistic) | 0.000000 | | | |
| | Unweighted Statistics | | | |
| R-squared | 0.603397 | Mean dependent var | | 103553.7 |
| Sum squared resid | 3.83E+11 | Durbin-Watson stat | | 0.438029 |

p-daraja <0,01 ekanligi sababli nolinchi gipotezani inkor qilamiz. Hannan-Quinn va Akaike axborot mezonlari, shuningdek, tuzatish kiritilgan Adjusted R-squared determinatsiya koeffitsiyenti qiymati ikki model orasida natijalari belgilangan model ko'proq to'g'ri kelishi haqidagi xulosani tasdiqlaydi (3.6-jadval).

Hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu modelning ko'plik korrelyatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,82$ bo'lib, bu u va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi juda yaqin munosabatni ko'rsatadi va qaram o'zgaruvchi o'zgarishining 82 % modelga kiritilgan uchta tushuntirish o'zgaruvchisi bilan izohlanadi va qariyb 18 % modelda hisobga olinmagan omillar yoki tasodifiy omillar ta'siriga bog'liq ekanligidan dalolat beradi

Fisher-Snedekor mezoni $F_{набл} \succ F_{крит}$ ($F_{\text{набл}} = 23,11;\ F_{\text{крит}} = F(3;3) = 5,39$) nol gipotezani rad etish imkoniyati, shu bilan regressiya modelining ishonchliligini tasdiqlaydi. Izohlovchi o'zgaruvchilari bo'lgan koeffitsiyentlar uchun standart og'ishlar ma'lumotlarning variantlar soni kamligini

ko'rsatadi. Umuman, olingan regressiya koeffitsiyentlari statistik jihatdan ahamiyatli, shuning uchun ular chiziqli regressiya tenglamasida keyingi tahlil va prognozlash uchun qo'llanishi mumkin deb ta'kidlash mumkin.

FE model koeffitsiyentlariga ko'ra, barcha izohlovchi o'zgaruvchilar izohlanadigan o'zgaruvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, tuzilgan model to'qimachilik sanoati eksporti hajmining yuqori darajada oshishi sanoat ishlab chiqarishida to'qimachilik mahsulotlari ulushi ko'payishi hisobiga kuzatilishini ta'kidlashga asos bo'ladi: mahsulot ishlab chiqarishning 1 foizga ortishi (boshqa ko'rsatkichlar o'zgarmasa) to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining 2 ming AQSH dollariga oshishi haqida taxmin qilish imkonini beradi.

Agar to'qimachilik sanoatining asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi 1 mln. so'mga oshsa, eksport 0,04 ming AQSH dollariga oshadi. Nihoyat, agar to'qimachilik sanoati korxonalarida band bo'lganlar o'rtacha yillik soni 1 kishiga ko'paysa, eksport 0,29 AQSH dollariga oshadi.

Natijada belgilangan model quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$y = -62012{,}69 + 2079{,}86 \cdot x_1 + 0{,}04 \cdot x_2 + 12{,}91 \cdot x_3 \quad (3.2)$$

Tadqiqot ko'rsatdiki, ko'rib chiqilayotgan omillar-belgilarning ta'sir darajasi har xil, ammo bog'liqlishi to'g'ri chiziqli: ishlab chiqarish, investitsiya va kadrlar salohiyati oshishi eksport salohiyati oshishiga olib keladi. To'qimachilik sanoati korxonalarining eksport oqimlarini ko'paytirish uchun ishlab chiqarish hajmi oshishi va investitsion salohiyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu O'zbekistonda to'qimachilik korxonalari tayyor mahsulotni ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchilarga yetkazib berishning logistika zanjirlarini takomillashtirishga yetarli e'tibor berilmasligi hamda ularning patent faolligi pastligi bilan bog'liq.

Panel ma'lumotlar modeliga asoslanib, har bir alohida mintaqa uchun to'qimachilik sanoati eksportining prognoz qiymatlarini hisoblab chiqish mumkin. Qolaversa, qolgan barcha holatlar teng bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoatida eksport salohiyati yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga qaysi yilga kelib qo'shilishini kuzatish uchun uzoq muddatli prognozni amalga oshirish mumkin.

Prognoz modeli yordamida olingan natijalarga asoslanib, 82 % ehtimollik bilan 2026-yilga kelib, Toshkent to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilish 740,0 mln. AQSH dollariga yetishi, joriy ko'rsatkichlardan 25 %ga oshishi O'zbekiston poytaxtida sanoatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkinligi aniqlandi.

Biroq bu to'qimachilik bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni yumshatish bo'yicha strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Davlat hududida samarali to'qimachilik bozorini shakllantirish maqsadlari davlat siyosatiga xizmat qilishga chaqirilib, uning muhim yo'nalishlaridan biri klasterlarni samarali boshqarish bo'lishi kerak. Tuzilgan ekonometrik model to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini yanada rivojlantirish va oshirish maqsadida to'qimachilik korxonalarining ilmiy tadqiqot ishlariga yirik investitsiyalarni jalb etish va strategik innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligini ko'rsatdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlarning raqobatbardoshligi, iqtisodiyot tarmoqlarining investitsion va eksport salohiyati milliy iqtisodiyotda yangi yuqori sifatli sanoat rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Modelda to'qimachilik sanoatining asosiy kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi va ishlab chiqarish hajmlari singari omillarning ahamiyati ko'rsatilganidan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, O'zbekiston to'qimachilik sanoati korxonalarining eksport salohiyatini oshirish maqsadida investitsion va ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlash bilan birga salohiyatni oshirish muhim ahamiyatga ega.

Olingan natijalar yordamida O'zbekiston to'qimachilik klasterlari eksport salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari ajratib ko'rsatildi:

klasterning ichki va tashqi eksport salohiyatini hisobga oluvchi ko'rsatkichlarni integral baholash asosida to'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini monitoring qilish bo'yicha aniq tizimni joriy etish;

ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or AKT, innovatsion texnologiyalar, nou-xau, dizayn ishlanmalarini keng joriy etish;

to'qimachilik sanoati uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;

aholi bandligini ta'minlashda mazkur tarmoqning mehnat sig'imi va uning salohiyatini hisobga olgan holda yangi ish o'rinlari yaratish;

to'qimachilik klasterlarining eksport salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlashning ilmiy usullarini keng qo'llash.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Maskell P., Larenzen M. The Cluster as Market Organization// DRUID Working Paper. 2003. No 14. 2003.
2. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition / M.E. Porter. // Harvard Business Review. – 2018. – Vol.76 (6). – P.77–90.

3. Барсуков Д.П. Формирование промышленного кластера: теоретические и методические аспекты: монография. / Д.П. Барсуков, В.С. Кудряшов: под общ. ред. Д.П. Барсукова. – СПб.: СПбГУКиТ, 2014. - 170 с.
4. Боуш Г.Д. Формирование и развитие промышленных кластеров: теория и методология. Диссертация на соискание учёной степени доктора экономических наук. Бутузова Л.Л. Формирование производственно-инновационных кластеров промышленных предприятий. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук.
5. Болтабаев М.Р. Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноати экспорт имкониятларини ривожлантиришда маркетинг стратегияси: докторлик диссертацияси. – Т.: ТДИУ, 2005. – 242 б.;
6. Хакимов З.А. Енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини маркетинг стратегиялари асосида ошириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2017. – 141 б.;
7. Юсупов С.Ш. Кучли рақобат шароитида Ўзбекистон тўқимачилик саноати корхоналарини ривожлантириш стратегиялари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2018. – 144 б.;
8. Тошпулатов И.А. Тўқимачилик корхоналарининг рақобатбардошлигини бошқариш тизимини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: ТДИУ, 2019. –137 б.
9. Кадиров Х. Тикув-трикотаж корхоналарининг экспорт салоҳиятини халқаро маркетинг стратегиялари асосида ошириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.

# 4-SHO'BA

# RAQAMLI MOLIYAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI TUMANLAR O'RTASIDAGI IJTIMOIY FARQNI KAMAYTIRISH MODELI

**Xakimov Ziyodulla Ahmadovich**
Alfraganus university
"Menejment" kafedasi mudiri, i.f.d.(DSc), dotsent

**Tursunov Bobir Ortikmirzayevich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasi
mudiri, i.f.d. (DSc), professor

**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasi
katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Tadqiqotda raqamli moliyaviy inklyuziya vositalarining tumanlar o'rtasidagi ijtimoiy farqni kamaytirish mexanizmlari nazariy jihatdan o'rganildi. Amartya Senning imkoniyatlar yondashuvi, texnologiyani qabul qilish modeli va moliyaviy inklyuziya nazariyalari asosida konseptual model taklif etildi. Xalqaro ilmiy adabiyotlar, Jahon banki va BMT ma'lumotlari tahlil qilindi. Raqamli to'lov tizimlari, mobil banking va onlayn kredit xizmatlari orqali qishloq aholi qatlamlarining moliyaviy xizmatlarga kirishini kengaytirish imkoniyatlari baholandi.

Kalit so'zlar: raqamli moliyaviy inklyuziya, ijtimoiy farq, tumanlararo tengsizlik, mobil banking, imkoniyatlar yondashuvi, moliyaviy xizmatlar, O'zbekiston.

Abstract. The study theoretically examined the mechanisms of reducing inter-district social disparities through digital financial inclusion tools. A conceptual model was proposed based on Amartya Sen's capability approach, technology acceptance model, and financial inclusion theories. International scientific literature, World Bank and UN data were analyzed. The potential for expanding rural populations' access to financial services through digital payment systems, mobile banking, and online lending was assessed.

Key words: digital financial inclusion, social gap, inter-district inequality, mobile banking, opportunity approach, financial services, Uzbekistan.

Аннотация. В исследовании были теоретически изучены механизмы сокращения социального разрыва между районами посредством инструментов цифровой финансовой инклюзии. На основе подхода возможностей Амартии Сена, модели принятия технологий и теорий финансовой инклюзии была предложена концептуальная модель. Проанализированы международные научные источники, данные Всемирного банка и ООН. Оценены возможности расширения доступа сельского населения к финансовым услугам через цифровые платёжные системы, мобильный банкинг и онлайн-кредитование.

Ключевые слова: Цифровая финансовая доступность, социальный разрыв, межрайонное неравенство, мобильный банкинг, подход, основанный на возможностях, финансовые услуги, Узбекистан.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy tizimda hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlanish ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tizimli muammo sifatida qaralmoqda. Xususan, tumanlar darajasidagi notengllik nafaqat aholining moddiy farovonligida, balki ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarida ham

namoyon bo'ladi [1]. Bu farqlanish ko'pincha markaziy va chekkadagi hududlar o'rtasida aniq kuzatiladi, bunda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi asosiy sabablardan biri hisoblanadi [2].

Raqamli moliyaviy inklyuziya — bu raqamli texnologiyalar yordamida aholi qatlamlarining rasmiy moliyaviy tizimga qo'shilishini ta'minlovchi jarayon bo'lib, u an'anaviy bank filiallariga bog'liq bo'lmagan holda moliyaviy xizmatlarni yetkazish imkonini beradi [3]. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2011-yildan 2021-yilgacha rasmiy moliyaviy hisobga ega bo'lmagan kattalar ulushi 48 foizdan 24 foizga tushgan, bu natijada raqamli to'lov tizimlari va mobil pul o'tkazmalari muhim rol o'ynagan [4].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy inklyuziya tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda uzoq tarixga ega bo'lib, dastlab aholi qatlamlarining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liq tadqiqotlarda o'rganilgan. Beck, Demirgüç-Kunt va Levine (2007) moliyaviy inklyuziyaning kambag'allik bilan bog'liqligini tahlil etib, moliyaviy xizmatlarga kirishning kengayishi past daromadli qatlamlar uchun ta'lim va tadbirkorlik imkoniyatlarini oshirishini isbotlagan [7]. Ushbu nazariy yondashuv keyinchalik ko'plab empirik tadqiqotlar uchun asos bo'lgan.

Amartya Senning imkoniyatlar yondashuvi (Capability Approach) moliyaviy inklyuziyani inson rivojlanishining ajralmas qismi sifatida talqin etishda muhim nazariy asos yaratgan. Sen ta'kidlashicha, qashshoqlik nafaqat daromad yetishmasligi, balki shaxsning asosiy imkoniyatlaridan mahrum bo'lishi demakdir [8]. Ushbu nuqtai nazardan, raqamli moliyaviy xizmatlarga kirish shaxsning iqtisodiy faoliyat yuritish, sog'liqni saqlash va ta'lim olish kabi hayotiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Nussbaum va Sen (1993) birgalikda ishlab chiqqan yondashuvda inson rivojlanishi shaxsning moddiy resurslardan tashqari ijtimoiy va iqtisodiy tranzaksiyalarda faol ishtirok etish erkinligi orqali baholanishi kerakligi asoslanadi [9].

Texnologiyani qabul qilish modeli (Technology Acceptance Model — TAM) raqamli moliyaviy vositalarning aholi tomonidan qabul qilinishi jarayonini tushunishda muhim nazariy asos sifatida xizmat qilgan. Davis (1989) tomonidan ishlab chiqilgan ushbu model texnologiyaning foydaliligini his etish va foydalanish qulayligini anglash foydalanuvchining texnologiyani qabul qilish niyatini belgilovchi asosiy omillar ekanligini ko'rsatadi [10]. Raqamli moliyaviy inklyuziya kontekstida TAM modeli mobil banking va raqamli to'lov tizimlarining foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinishini bashorat qilishda keng qo'llanilmoqda.

Diffuziya nazariyasi (Diffusion of Innovation Theory) ham ushbu sohada o'z o'rniga ega. Rogers (1962) tomonidan asoslangan ushbu nazariya yangiliklar — jumladan, raqamli moliyaviy xizmatlar — jamiyatda qanday tarqalishini, turli ijtimoiy qatlamlar orasidagi qabul qilish tezligi va omillarini tushuntiradi [11]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli moliyaviy xizmatlarning diffuziyasi odatda shahar hududlaridan boshlanib, keyinchalik qishloq va chekkadagi tumanlarga yoyilishi kuzatilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot nazariy-konseptual tahlil usuliga asoslangan bo'lib, uning asosiy maqsadi raqamli moliyaviy inklyuziya vositalarining tumanlararo ijtimoiy farqni kamaytirish mexanizmlarini nazariy modellashtirish va tushuntirishdan iborat. Tadqiqotda empirik ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri to'plash va qayta ishlash amalga oshirilmagan; buning o'rniga mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va statistik ma'lumotlar bazalarining ikkilamchi tahlili asosida konseptual model ishlab chiqilgan.

Nazariy asos sifatida uchta asosiy yondashuv tanlangan: birinchisi — Amartya Senning imkoniyatlar yondashuvi (Capability Approach) bo'lib, u shaxsning moliyaviy xizmatlarga kirishini iqtisodiy erkinlik va ijtimoiy rivojlanish nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi [8]; ikkinchisi — texnologiyani qabul qilish modeli (TAM) bo'lib, u raqamli moliyaviy vositalarning aholi tomonidan qabul qilinishi omillarini tushuntiradi [10]; uchinchisi — innovatsiyalar diffuziyasi nazariyasi bo'lib, u raqamli xizmatlarning turli hududiy darajadagi qatlamlarga tarqalish qonuniyatlarini tavsiflaydi [11].

Ikkilamchi ma'lumotlar manbalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: Jahon bankining Global Findex Database (2024) ma'lumotlari, xususan moliyaviy hisobga egalik, raqamli to'lovlar va rasmiy qarz olish ko'rsatkichlari [4]; O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari [19]; Jahon bankining qashshoqlik va tengsizlik platformasi (Poverty and Inequality Platform) ma'lumotlari, xususan Gini koeffitsientining davr ichidagi o'zgarish dinamikasi [20]; Xalqaro valyuta fondi (XVF) va Osiyo taraqqiyot bankining O'zbekiston bo'yicha moliyaviy sektor hisobotlari [21].

Konseptual model qurish jarayonida deduktiv yondashuv qo'llanilgan: avval yuqorida qayd etilgan uchta nazariy ramka tahlil qilingan, so'ngra ularning raqamli moliyaviy inklyuziya va tumanlararo ijtimoiy farq kontekstiga mosligi baholangan, nihoyat, ushbu nazariy asoslar integratsiya qilinib, yagona konseptual model shaklida ifodalangan. Model to'rtta asosiy blokdan tashkil topgan: kirish vositalari (raqamli moliyaviy xizmatlar turlari), vositachilik mexanizmlari (mediatorlar), kutilayotgan natijalar va tashqi muhit omillari.

Tahlil usuli sifatida tizimli adabiyotlar sharhi (systematic literature review) va qiyosiy nazariy tahlil (comparative theoretical analysis) qo'llanilgan. Tanlangan manbalarning ishonchliligi Scopus, Web of Science va RePEc bazalarida indekslangan jurnallardagi nashrlar bilan ta'minlangan. Nazariy modelning ichki izchilligi mantiqiy mustaqillik va empirik adabiyotlarda mavjud dalillar bilan mos kelishi mezoni asosida tekshirilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli moliyaviy inklyuziya vositalari tumanlararo ijtimoiy farqlanishga kamida to'rtta asosiy kanal orqali ta'sir ko'rsatadi. Birinchi kanal — bu moliyaviy xizmatlarga geografik jihatdan cheklovlarni bartaraf etish bo'lib, mobil banking va raqamli to'lov tizimlari an'anaviy bank infrastrukturasidan uzoqdagi tumanlar aholisiga ham moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkonini yaratadi [3]. Jahon bankining 2024-yildagi Global Findex ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli moliyaviy hisobga ega kattalarning ulushi 2014-yildagi 28 foizdan 2024-yilga kelib 57 foizga oshgan [4].

Ikkinchi kanal — tranzaksiya xarajatlarining kamayishi orqali kichik hajmli iqtisodiy faoliyat uchun imkoniyatlar yaratilishi. Senning imkoniyatlar yondashuvi nuqtai nazaridan, tranzaksiya xarajatlarining pasayishi shaxsning iqtisodiy tranzaksiyalarda ishtirok etish erkinligini bevosita kengaytiradi [8]. Jack va Suri (2014) Keniyada mobil pul o'tkazmalari orqali pul jo'natish xarajatlarining kamayishi xonadonlarning iqtisodiy zarbalarga chidamliligini sezilarli oshirganini isbotlagan [22].

Uchinchi kanal — raqamli kreditlash va jamg'arma xizmatlarining kengayishi orqali tadbirkorlik faolligining oshishi. Past daromadli tumanlarda yashaydigon kichik tadbirkorlar uchun an'anaviy kredit olish jarayoni ko'pincha murakkab va qimmat bo'lib, raqamli platformalar bu to'siqni sezilarli darajada pasaytiradi [7]. To'rtinchi kanal — ma'lumot assimetriyasining kamayishi bo'lib, raqamli moliyaviy tizimlar moliyaviy tranzaksiyalar bo'yicha shaffoflikni oshiradi va norasmiy iqtisodiyotdan rasmiy sektorga o'tishni rag'batlantiradi (1-jadval).

1-jadval. Raqamli moliyaviy inklyuziyaning tumanlararo ijtimoiy farqqa ta'sir kanallari[1]

| № | Ta'sir kanali | Nazariy asosi | Kutilayotgan natija |
|---|---|---|---|
| 1 | Geografik to'siqlarni bartaraf etish | Innovatsiyalar diffuziyasi nazariyasi (Rogers, 1962) | Chekkadagi tumanlar aholisining moliyaviy xizmatlarga kirishining kengayishi |
| 2 | Tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish | Imkoniyatlar yondashuvi (Sen, 1999) | Kichik hajmli iqtisodiy operatsiyalar uchun samaradorlik oshishi |
| 3 | Raqamli kredit va jamg'arma | Moliyaviy inklyuziya nazariyasi (Beck et al., 2007) | Kichik tadbirkorlik faolligining intensivlashishi |
| 4 | Ma'lumot assimetriyasini kamaytirish | TAM modeli (Davis, 1989) | Moliyaviy shaffoflik va rasmiy sektorga integratsiya |

O'zbekistonda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovut muammosi statistik ma'lumotlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari platformasi ma'lumotlariga ko'ra, aholi daromadlarining tabaqalanish ko'rsatkichi — Gini indeksi — 2001-yildan 2020-yilgacha 0,395 dan 0,276 ga tushgan [19]. Biroq, Jahon bankining 2024-yildagi hisobotida bu ko'rsatkich 2022-yildagi 0,31 dan 2023-yilda 0,35 ga ko'tarilgani qayd etilgan [20]. Bu tendentsiya iqtisodiy o'sish sharoitida ham tengsizlikning chuqurlashish xavfini ko'rsatadi.

Ayniqsa e'tiborga loyiq jihati shundaki, aholi daromadlarining o'sishi notekis taqsimlangan: eng kam ta'minlangan 10 foiz aholi daromadi atigi 6 foizga oshgan, eng ko'p ta'minlangan 10 foiz daromadi esa 30 foizdan ortiq o'sgan [20]. Bu farq tumanlar darajasida yanada aniqroq namoyon bo'ladi, chunki iqtisodiy faoliyatning markazlashishi va moliyaviy infrastrukturaning notekis taqsimlanishi shahar va qishloq tumanlari o'rtasidagi tafovutni kuchaytiradi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda daromadlar tabaqalanishi ko'rsatkichlari dinamikasi[2]

| Ko'rsatkich | 2001-yil | 2020-yil | 2023-yil |
|---|---|---|---|
| Gini indeksi | 0,395 | 0,276 | 0,35 |
| Detsil koeffitsient | marta 21,1 | marta 6,9 | — |
| Kvintil koeffitsient | marta 9,9 | marta 4,5 | — |
| Milliy qashshoqlik darajasi | — | (2022) 17% | — |

1 Manba: Mualliflar tomonidan nazariy adabiyotlar asosida tuzilgan
2 Manba: O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi (nsdg.stat.uz, 2024); Jahon banki (2024)

O'zbekistonda raqamli moliyaviy ekotizim oxirgi besh yil ichida sezilarli rivojlanish bosqichini bosib o'tgan. «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi doirasida internet infratuzilmasi kengaytirilgan, fintek imkoniyatlari oshirilgan va moliyaviy inklyuziya, xususan qishloq va kam xizmat ko'rsatilgan hududlarda targ'ib qilingan [15]. Faol raqamli banking foydalanuvchilari soni 2019-yilda 3,8 milliondan 2024-yilga kelib 13 milliondan oshgani bu jarayonning sur'atini yaqqol ko'rsatadi.


Mamlakatda Uzcard va HUMO milliy to'lov tizimlari API-ochiq platformalar sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, 35 milliondan ortiq karta va 184 mingdan ortiq terminal ushbu ekotizimning tarkibiy qismi hisoblanadi [5]. Uzum, Click va Payme kabi platformalar maxsus xizmatlardan ko'p funksiyali raqamli ekosistemalarga aylanib, to'lovlar, elektron tijorat, banking va boshqa xizmatlarni yagona muhitda birlashtirgan.

TAM modelining nazariy tamoyillaridan kelib chiqib, O'zbekistondagi raqamli moliyaviy vositalarning keng tarqalishini ikkita asosiy omil bilan tushuntirish mumkin: birinchisi — foydalanishning his etiladigan qulayligi (perceived ease of use) bo'lib, mobil ilovalarning soddaligi va foydalanuvchiga yo'naltirilganligi buni ta'minlagan; ikkinchisi — foydalilikni his etish (perceived usefulness) bo'lib, vaqt va xarajat jihatidan samaradorlik foydalanuvchilarning qabul qilish niyatini oshirgan [10]. Biroq, bu jarayonning tumanlar darajasidagi notekis tarqalishi — ya'ni shahar tumanlarida yuqori, qishloq tumanlarida past penetratsiya — TAM modelidagi tashqi omillar (raqamli savodxonlik, infrastruktura mavjudligi) ta'sirini ko'rsatadi (3-jadval).

3- jadval. O'zbekistonda raqamli moliyaviy inklyuziya ko'rsatkichlari (2019–2024)[3]

| Ko'rsatkich | 2019-yil | 2024-yil |
|---|---|---|
| Faol raqamli banking foydalanuvchilari | mln 3,8 | mln 13+ |
| Milliy to'lov tizimlari kartalari | — | mln 35+ |
| POS-terminallar soni | — | 000+ 184 |
| (Bank depozitlari hajmi (trln so'm | (2018) 85,3 | 245,1 |

Yuqorida bayon etilgan nazariy asoslar va tahlil natijalarini integratsiyalash orqali quyidagi konseptual model taklif etiladi. Ushbu model raqamli moliyaviy inklyuziya vositalarining tumanlararo ijtimoiy farqni kamaytirish mexanizmlarini tizimli ravishda ifodalaydi (1-rasm).




1- rasm. Raqamli moliyaviy inklyuziya orqali tumanlararo ijtimoiy farqni kamaytirish nazariy modeli[4]


Model uchta asosiy komponentdan tashkil topgan: kirish bloki — raqamli moliyaviy vositalar (mobil banking, raqamli to'lovlar, onlayn kredit, e-hamyon); vositachilik (mediator) bloki — moliyaviy savodxonlik, raqamli infratuzilma va institutsional muhit; chiqish bloki — kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar (daromad tengligi, ijtimoiy mobillik, tadbirkorlik faolligi, iqtisodiy barqarorlik).

3 Manba: O'zbekiston Raqamli texnologiyalar vazirligi (2024); O'zbekiston Markaziy banki (2024).
4 Manba: Mualliflar tomonidan nazariy adabiyotlar asosida tuzilgan.

Modelning nazariy mantig'i quyidagicha ifodalanadi: raqamli moliyaviy vositalar (kirish bloki) to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi bilan birga, ularning samaradorligi uchta vositachilik omilining holatiga bog'liq. Moliyaviy savodxonlikning darajasi foydalanuvchilarning raqamli vositalarni samarali qo'llash qobiliyatini belgilaydi — bu TAM modelidagi «foydalanishning his etiladigan qulayligi» tushunchasi bilan bevosita bog'liq [10]. Raqamli infratuzilma — internet qamrovi, mobil aloqa sifati, qurilmalar mavjudligi — Rogers nazariyasidagi diffuziya tezligini belgilovchi asosiy texnologik omildir [11]. Institutsional muhit esa davlatning tartibga solish siyosati, huquqiy himoya mexanizmlari va moliyaviy tizimga ishonch darajasini o'z ichiga oladi.

Senning imkoniyatlar yondashuvi nuqtai nazaridan, ushbu modelning yakuniy maqsadi — shaxsning real erkinligini kengaytirish, ya'ni past daromadli tumanlar aholisining moliyaviy xizmatlarga kirish, tadbirkorlik faoliyati yuritish va ijtimoiy mobillik imkoniyatlarini oshirishdir [8]. Model shuni nazariy jihatdan asoslaydiki, raqamli moliyaviy inklyuziya vositalari faqat texnologik yechim emas, balki ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish uchun tizimli strategik instrumentdir.

Raqamli moliyaviy inklyuziya vositalarining an'anaviy moliyaviy xizmatlarga nisbatan afzalliklarini tushunish uchun ularning asosiy parametrlar bo'yicha qiyosiy tahlili muhim ahamiyatga ega. Quyidagi tahlil olti asosiy mezon bo'yicha — xizmat qamrovi, tranzaksiya xarajati, tezkorlik, geografik qulaylik, moliyaviy savodxonlik talabi va shaffoflik — ikkala yondashuvning samaradorligini baholaydi (2-rasm).




2- rasm. An'anaviy va raqamli moliyaviy inklyuziya vositalarining qiyosiy samaradorligi[5]

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli moliyaviy vositalar deyarli barcha mezonlar bo'yicha an'anaviy moliyaviy xizmatlarga nisbatan ustunlikka ega, ayniqsa geografik qulaylik (2 ga qarshi 9) va tezkorlik (3 ga qarshi 9) bo'yicha farq eng yuqori darajada namoyon bo'ladi. Bu holat chekkadagi tumanlar uchun alohida ahamiyatga ega, chunki an'anaviy bank infrastrukturasi bunday hududlarda ko'pincha yetarli emas [7]. Yagona mezon — moliyaviy savodxonlik talabi — bo'yicha raqamli vositalarning ustunligi nisbatan past (3 ga qarshi 6), bu esa raqamli savodxonlikni oshirish zaruratini ko'rsatadi (4-jadval).

4- jadval. Raqamli moliyaviy inklyuziyaning hududlararo tengsizlikka ta'siri: xalqaro tajriba[6]

| Mamlakat | Asosiy vosita | Natija | Manba |
|---|---|---|---|
| Keniya | M-Pesa mobil pul | Qashshoqlik 2% ga kamaygan, ayollar uchun ijobiy ta'sir | Suri va Jack, 2016 [14] |
| Xitoy | Alipay, WeChat Pay | Shaharlardagi iqtisodiy tengsizlik kamaygan | IMF, 2025 [12] |
| Hindiston | UPI tizimi | Moliyaviy hisobga egalik 80%+ ga yetgan | Demirgüç-Kunt et al., 2022 [3] |
| BRICS | Turli raqamli xizmatlar | Daromadlar tengsizligi Gini bo'yicha kamaygan | Suhrab et al., 2024 [17] |

5 Manba: Mualliflar tomonidan nazariy adabiyotlar asosida tuzilgan
6 Manba: Mualliflar tomonidan xalqaro ilmiy manbalar asosida tuzilgan

Taklif etilgan modelning nazariy validatsiyasi uchta mezon asosida amalga oshirilgan. Birinchidan, modelning ichki mantiqiy izchilligi: har bir ta'sir kanali — geografik to'siqlarni bartaraf etish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, raqamli kreditlash va ma'lumot assimetriyasini pasaytirish — o'zaro mustaqil, lekin bir-birini to'ldiruvchi mexanizmlar sifatida ifodalangan. Ushbu yondashuv Demirgüç-Kunt va hamkasblar (2022) tomonidan taklif etilgan moliyaviy inklyuziyaning ko'p o'lchovli tushunilishi bilan mos keladi [3].

Ikkinchidan, modelning empirik adabiyotlarga mosligi: yuqoridagi 4-jadvalda keltirilgan xalqaro tajriba ko'rsatadiki, har bir ta'sir kanalining o'ziga xos empirik dalili mavjud. Keniya, Xitoy, Hindiston va BRICS mamlakatlari misolida raqamli moliyaviy inklyuziyaning hududlararo tengsizlikni kamaytirish ta'siri turli kontekstlarda tasdiqlangan (5-jadval) [12, 14, 17].

5- jadval. Raqamli moliyaviy inklyuziyaning tumanlararo farqni kamaytirish bo'yicha SWOT-tahlili[7]

| (Kuchli tomonlar (Strengths | (Zaif tomonlar (Weaknesses |
|---|---|
| Geografik cheklovlardan mu2aqillik; pa2 tranzaksiya xarajatlari; keng qamrovli xizmat imkoniyati; shaffoflikni oshirish potentsiali | Raqamli savodxonlikning pa2ligi; internet infratuzilmasining notekis taqsimlanishi; kibertahdidlar xavfi; texnologik qaramlik |
| **(Imkoniyatlar (Opportunities** | **(Tahdidlar (Threats** |
| Raqamli O'zbeki2on-2030» 2rategiyasi; fintek sektorning» jadal o'sishi; xalqaro hamkorlik; yosh aholi demografiyasi | Raqamli bo'linish chuqurlashishi; norasmiy sektorda raqamli vositalardan chetlanish; tartibga solish bo'shliklari |

Uchinchidan, modelning O'zbekiston kontekstiga mosligi: mamlakatda raqamli moliyaviy ekotizimning jadal rivojlanishi, «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi va Gini koeffitsientining oxirgi yillardagi dinamikasi modelda taklif etilgan mexanizmlarning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi [5, 19, 20]. Biroq, modelning ayrim chegaralari ham mavjud: u hozircha nazariy darajada bo'lib, empirik sinovdan o'tmagan; tumanlar darajasidagi disaggregirlangan ma'lumotlarning cheklanganligi modelning to'liq empirik tekshiruvini qiyinlashtiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda raqamli moliyaviy inklyuziya vositalarining tumanlar o'rtasidagi ijtimoiy farqni kamaytirish mexanizmlari nazariy jihatdan tahlil qilindi va konseptual model taklif etildi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirishga imkon berdi.

Birinchidan, Amartya Senning imkoniyatlar yondashuvi, texnologiyani qabul qilish modeli va innovatsiyalar diffuziyasi nazariyasini integratsiyalash orqali raqamli moliyaviy inklyuziyaning tumanlararo ijtimoiy farqqa ta'sir mexanizmlarini tushuntirish mumkin. Ushbu nazariy sintez to'rtta asosiy ta'sir kanalini aniqlashga — geografik to'siqlarni bartaraf etish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, raqamli kreditlashni kengaytirish va ma'lumot assimetriyasini pasaytirish — imkon berdi.

Ikkinchidan, O'zbekistondagi raqamli moliyaviy ekotizimning jadal rivojlanishi — faol foydalanuvchilar sonining 3,8 milliondan 13 millionga oshishi, milliy to'lov tizimlarining kengayishi — tumanlararo ijtimoiy farqni kamaytirish uchun zarur texnologik bazaning shakllanganligini ko'rsatadi [5, 15]. Biroq, Gini koeffitsientining 2022-yildagi 0,31 dan 2023-yilda 0,35 ga ko'tarilganligi ushbu potentsialning to'liq amalga oshirilmaganligiga dalolat beradi [20].

Uchinchidan, taklif etilgan nazariy model uchta vositachilik omilining — moliyaviy savodxonlik, raqamli infratuzilma va institutsional muhit — raqamli moliyaviy inklyuziyaning samaradorligini belgilovchi muhim shartlar ekanligini nazariy jihatdan asoslaydi. Xalqaro tajriba — Keniya, Xitoy, Hindiston va BRICS mamlakatlari misoli — ushbu modelning empirik asoslarini kuchli ko'rsatdi [12, 14, 17].

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar ilgari suriladi (6-jadval):

7 Manba: Mualliflar tomonidan nazariy tahlil asosida tuzilgan

6- jadval. Amaliy takliflar tizimi[8]

| № | Taklif yo'nalishi | Nazariy asosi | Kutilayotgan samara |
|---|---|---|---|
| 1 | Qishloq tumanlarida raqamli moliyaviy savodxonlik da2urlarini kengaytirish | TAM modeli: foydalanish qulayligini anglash | Raqamli vositalarning qabul qilinish darajasini oshirish |
| 2 | Chekkadagi tumanlarda internet infratuzilmasini mu2ahkamlash | Diffuziya nazariyasi: texnologik omillar | Geografik raqamli bo'linishni kamaytirish |
| 3 | Kichik tadbirkorlar uchun raqamli kredit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish | Imkoniyatlar yondashuvi: iqtisodiy erkinlik | Pa2 daromadli tumanlarda tadbirkorlik faolligini oshirish |
| 4 | Tumanlar darajasida raqamli moliyaviy inklyuziya monitoringi tizimini joriy etish | Nazariy modelning amaliy tatbiqi | Manzilli va differentsiallashgan siyosat shakllantirilishi |
| 5 | Raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishda ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash | Senning imkoniyatlar tengligi prinsipi | Ijtimoiy inklyuzivlikning kuchayishi |

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun taklif etilgan nazariy modelni O'zbekistonning muayyan viloyatlari va tumanlari misolida empirik sinovdan o'tkazish, tumanlar darajasidagi disaggregirlangan ma'lumotlar asosida ekonometrik tahlil o'tkazish va raqamli moliyaviy inklyuziya indeksini tumanlar darajasida hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish zarur. Ushbu yo'nalishlar modelning amaliy qo'llanilishini kengaytiradi va hududiy siyosat shakllantirishga aniq empirik asos yaratadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**


1. World Bank. (2024). Financial Inclusion Overview. Washington, DC: World Bank Group. https://www.worldbank.org/en/topic/financialinclusion/overview
2. Čihák, M., & Sahay, R. (2020). Finance and Inequality. IMF Staff Discussion Note, SDN/20/01. https://www.imf.org/en/Publications/Staff-Discussion-Notes/Issues/2020/01/16/Finance-and-Inequality-45129
3. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., & Ansar, S. (2022). The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. Washington, DC: World Bank. https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex
4. J-PAL. (2024). Digital Financial Services to Improve Formalized Access and Inclusion. Abdul Latif Jameel Poverty Action Lab. https://www.povertyactionlab.org/policy-insight/digital-financial-services-improve-formalized-access-and-inclusion
5. Saidmurodova, F. (2025). The Role of Digital Payment Systems in Promoting Financial Inclusion: The Case of Uzbekistan and International Practices. SSRN Electronic Journal. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=5297328
6. Sha, Y., et al. (2024). What is the Role of Digital Divide Between Digital Inclusive Finance and Common Prosperity? Evidence from 245 Cities in China. Humanities and Social Sciences Communications, 12, Article 1764. https://www.nature.com/articles/s41599-025-06053-7
7. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2007). Finance, Inequality and the Poor. Journal of Economic Growth, 12(1), 27–49. https://link.springer.com/article/10.1007/s10887-007-9010-6
8. Sen, A. (1999). Development as Freedom. Oxford: Oxford University Press. https://global.oup.com/academic/product/development-as-freedom-9780198297581
9. Nussbaum, M., & Sen, A. (1993). The Quality of Life. Oxford: Clarendon Press. https://global.oup.com/academic/product/the-quality-of-life-9780198287971
10. Davis, F. D. (1989). Perceived Usefulness, Perceived Ease of Use, and User Acceptance of Information Technology. MIS Quarterly, 13(3), 319–340. https://www.jstor.org/stable/249008
11. Rogers, E. M. (1962). Diffusion of Innovations. New York: Free Press. https://teddykw2.files.wordpress.com/2012/07/everett-m-rogers-diffusion-of-innovations.pdf
12. IMF. (2025). Digital Financial Inclusion and Income Inequality in China. IMF Working Paper WP/25/71. https://www.imf.org/-/media/Files/Publications/WP/2025/English/wpiea2025071-print-pdf.ashx
13. Koomson, I., Villano, R. A., & Hadley, D. (2020). Effect of Financial Inclusion on Poverty and Vulnerability to Poverty: Evidence Using a Multidimensional Measure of Financial Inclusion. Social Indicators Research, 149, 613–639. https://link.springer.com/article/10.1007/s11205-019-02263-0
14. Suri, T., & Jack, W. (2016). The Long-Run Poverty and Gender Impacts of Mobile Money. Science, 354(6317), 1288–1292. https://www.science.org/doi/10.1126/science.aah5309
15. The European. (2025). Uzbekistan Digital Banking and Financial Inclusion: Preparing for WTO Membership. https://the-european.eu/story-52022/digitalization-financial-inclusion-and-a-new-era-of-banking-services-uzbekistans-road-to-wto-membership.html


8 Manba: Mualliflar tomonidan nazariy tahlil natijalari asosida tuzilgan

16. Okiljonova, M. (2025). The Rise of Digital Finance in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Uzum, Payme, and Click. SHOKH Library. https://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/6471
17. Suhrab, M., Chen, P., & Ullah, A. (2024). Digital Financial Inclusion and Income Inequality Nexus: Can Technology Innovation and Infrastructure Development Help in Achieving Sustainable Development Goals? Technology in Society, 76, 102466. https://ideas.repec.org/a/eee/teinso/v76y2024ics0160791x23002166.html
18. Lee, C.-C., Lou, R., & Wang, F. (2023). Digital Financial Inclusion and Poverty Alleviation: Evidence from the Sustainable Development of China. Economic Analysis and Policy, 77, 418–434. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0313592622002120
19. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2024). Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari: Tengsizlikni kamaytirish. https://nsdg.stat.uz/en/goal/13
20. Kun.uz. (2024). World Bank Reports Increasing Economic Disparity in Uzbekistan. https://kun.uz/en/news/2024/05/13/world-bank-reports-increasing-economic-disparity-in-uzbekistan
21. Asian Development Bank. (2022). Financial Sector Reform in Uzbekistan: Pathways and Risks. Manila: ADB. https://www.adb.org/countries/uzbekistan/economy
22. Jack, W., & Suri, T. (2014). Risk Sharing and Transactions Costs: Evidence from Kenya's Mobile Money Revolution. American Economic Review, 104(1), 183–223. https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/aer.104.1.183

# O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI

**Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasi katta o'qituvchisi
ORCID: 0009-0009-8620-4701

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda raqamli iqtisodiyotning o'rni tahlil qilinadi. Soliq va bojxona ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, elektron hisob-kitob tizimlari, onlayn-nazorat-kassa mashinalari hamda naqd pulsiz to'lovlarni kengaytirish orqali iqtisodiy jarayonlarning shaffofligi oshayotgani asoslab beriladi. Shuningdek, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish mexanizmlari va mavjud muammolar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, yashirin iqtisodiyot, soliq ma'muriyatchiligi, naqd pulsiz to'lovlar, legallashtirish, iqtisodiy shaffoflik.

Abstract. This article analyzes the role of the digital economy in reducing the scale of the shadow economy in Uzbekistan. It substantiates that the transparency of economic processes is increasing through the digitalization of tax and customs administration, electronic payment systems, online cash registers, and the expansion of cashless payments. The study also examines the mechanisms for reducing the share of the shadow economy and identifies existing challenges.

Key words: digital economy, shadow economy, tax administration, cashless payments, legalization, economic transparency.

Аннотация. В данной статье анализируется роль цифровой экономики в сокращении масштабов теневой экономики в Узбекистане. Обосновывается, что цифровизация налогового и таможенного администрирования, внедрение электронных расчетных систем, онлайн-кассовых аппаратов, а также расширение безналичных платежей способствуют повышению прозрачности экономических процессов. Также рассматриваются механизмы снижения доли теневой экономики и существующие проблемы.

Ключевые слова: цифровая экономика, теневая экономика, налоговое администрирование, безналичные платежи, легализация, экономическая прозрачность.

## KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahonda postindustrial jamiyat shakllandi va iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida intellektual kapital hamda innovatsiyalar maydonga chiqdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida iqtisodiyotning yangi modeli — raqamli iqtisodiyot shakllandi. Raqamli platformalar, sun'iy intellekt, Big Data, bulutli texnologiyalar va fintex xizmatlari ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarini tubdan o'zgartirdi.

1992-yilda global Internet protokoli (IP) trafigi kuniga taxminan 100 gigabaytni tashkil etgan. 2019-yilga kelib bu ko'rsatkich soniyasiga 89 000 gigabaytga (ya'ni 89 terabayt/sekund) yetdi. Bu raqamlar global axborot almashinuvi hajmining eksponensial (bunday o'sish shaklida dinamika har bir keyingi davrda avvalgi davrga nisbatan kattaroq hajmda namoyon bo'ladi va natijada qisqa vaqt ichida juda yuqori ko'rsatkichlarga erishiladi) sur'atlarda oshganini ko'rsatadi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ish, onlayn ta'lim, elektron savdo va raqamli xizmatlarning kengayishi natijasida raqamli transformatsiya jarayoni sezilarli darajada tezlashdi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyotning yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishdagi roli zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda keng yoritilgan bo'lib, ushbu yo'nalish institutsional iqtisodiyot, soliq siyosati va axborot texnologiyalari integratsiyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Yashirin iqtisodiyot tushunchasining nazariy asoslari Friedrich

Schneider tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, u o'z tadqiqotlarida naqd pul muomalasi, soliq yukining yuqoriligi va institutsional zaifliklar yashirin iqtisodiyotning asosiy drayverlari ekanligini asoslab bergan. Schneider 2015-yildagi tadqiqotida global miqyosda yashirin iqtisodiyot ulushi sezilarli darajada yuqori ekanligini, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 30–40 foizgacha yetishini qayd etadi.

Raqamli texnologiyalar va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan yana bir muhim olim Leandro Medina va Friedrich Schneider hisoblanadi. Ular 2018-yilda olib borgan empirik tadqiqotida raqamli to'lov tizimlarining kengayishi, bank operatsiyalarining shaffofligi va elektron hisob-kitoblarning joriy etilishi yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga xizmat qilishini statistik asosda ko'rsatib beradi. Ushbu tadqiqotda ayniqsa elektron to'lovlar ulushining oshishi bilan norasmiy iqtisodiy faoliyat qisqarishi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudligi aniqlangan.

Raqamli iqtisodiyotning institutsional samaradorlikka ta'siri bo'yicha Daron Acemoglu va James A. Robinsonning ishlari alohida ahamiyatga ega. Ular 2012-yilda chop etilgan asarida iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida inkluziv institutlarni ko'rsatadi. Raqamlashtirish jarayoni aynan shunday institutlarni mustahkamlash, korrupsiyani kamaytirish va davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish orqali yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Jahon banki ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli moliyaviy xizmatlar, xususan mobil banking va elektron hamyonlar, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish orqali yashirin iqtisodiyotga qarshi samarali vosita sifatida baholanadi. Asli Demirgüç-Kunt boshchiligidagi tadqiqotlarda 2017-yilda global moliyaviy inklyuziya darajasining oshishi norasmiy iqtisodiy faoliyatni qisqartirishga yordam berishi empirik jihatdan asoslangan.

Raqamli davlat boshqaruvi va soliq ma'murchiligi samaradorligi bo'yicha OECD tashkilotining 2020-yildagi hisobotlarida elektron soliq tizimlari, onlayn kassa apparatlari va real vaqt monitoringi mexanizmlarining joriy etilishi soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda muhim rol o'ynashi ta'kidlangan. Ayniqsa, Estoniya va Janubiy Koreya tajribasi misolida raqamli hukumat infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan davlatlarda yashirin iqtisodiyot ulushi sezilarli darajada past ekanligi ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, Andrei Shleifer va Robert W. Vishny tomonidan ilgari surilgan davlat boshqaruvi va korrupsiya nazariyalarida raqamlashtirish korrupsion imkoniyatlarni kamaytiruvchi omil sifatida ko'riladi. Ularning 1993-yildagi tadqiqoti davlat apparatidagi ortiqcha byurokratiya va nazoratning sustligi yashirin iqtisodiyot kengayishiga olib kelishini ko'rsatadi. Zamonaviy sharoitda esa raqamli platformalar ushbu muammolarni minimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq yana bir muhim yo'nalish bu Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali soliqdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlashdir. Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee 2014-yilda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha segmentlariga chuqur kirib borishini ta'kidlab, bu jarayon iqtisodiy faoliyatni yanada shaffof va nazorat qilinadigan holatga olib kelishini qayd etadi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda ko'p qirrali institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat moliyaviy operatsiyalarni rasmiylashtirish, balki davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, korrupsiyani kamaytirish va iqtisodiy faoliyatni monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ushbu jarayonga kompleks ta'sir ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar Jahon banki, IMF, OECD va milliy statistika bazalaridan, shuningdek so'rovnoma va ekspert intervyulari orqali yig'ildi. Tahlilda deskriptiv va taqqoslama usullar, korrelyatsion va regressiya modellari qo'llanildi. Raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlari bilan yashirin iqtisodiyot ulushi o'rtasidagi bog'liqlik empirik baholandi hamda natijalar grafik va jadval ko'rinishida umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyotning mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi (YAIM) ulushi ham izchil o'sib bormoqda. 2021-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 2,5 foizni tashkil etdi. Taqqoslash uchun, bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada 12,4 foiz, AQShda 10,9 foiz, Janubiy Koreyada 8 foiz, Xitoyda 9 foiz va Hindistonda 5,5 foiz atrofida bo'lgan.

Xitoy misolida raqamli iqtisodiyot yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda. China Academy of Information and Communications Technology ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda Xitoyning raqamli iqtisodiyoti 10,3 foizga o'sib, 50,2 trillion yuanga (taxminan 7,25 trillion AQSh dollari) yetgan. Bu davrda raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 41–42 foiz atrofida shakllangan.


2025-yil yakunlari bo'yicha baholashlarga ko'ra, Xitoyda raqamli iqtisodiyot hajmi 60 trillion yuandan oshgani va YAIMdagi ulushi taxminan 46–48 foiz oralig'iga yaqinlashgani qayd etilmoqda. Ayrim prognozlarga ko'ra, bu ko'rsatkich 48 foizdan yuqori darajaga chiqishi mumkin.

Shu tariqa, global miqyosda ham, Xitoy tajribasida ham raqamli iqtisodiyot YAIM tarkibida tobora ustuvor segmentga aylanib bormoqda hamda iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida shakllanmoqda (1-jadval).

1-jadval. Raqamli iqtisodiyot ulushining xalqaro kesimda dinamikasi va prognozi (2021–2025-yillar)

| Mamlakat | 2021 yil % | 2025 yil % (baholash/prognoz) | O'sish dinamikasi (2021–2025) |
|---|---|---|---|
| O'zbekiston | 2,5 % | 5–6 % | 2 baravar yaqin o'sish |
| Buyuk Britaniya | 12,4 % | 14–15 % | Barqaror o'sish |
| AQSh | 10,9 % | 12–13 % | Sekin, barqaror o'sish |
| Janubiy Koreya | 8 % | 10–11 % | Texnologik kengayish |
| Xitoy | 9 % | 46–48 %* | Strukturaviy transformatsiya |
| Hindiston | 5,5 % | 8–9 % | Tez rivojlanish bosqichi |

Xitoyda 2021-yildagi 9 % ko'rsatkichi an'anaviy tor metodologiya asosida hisoblangan ulushni bildiradi. 2024–2025-yillarda kengroq metodologiya asosida raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 46–48 % diapazonga yetgani qayd etiladi (1-rasm).




1- rasm. Raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda iqtisodiyotni raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi tizimi, soliq ma'murchiligi, bank-moliya sektori, bojxona va savdo sohalarida keng ko'lamli raqamli transformatsiya jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Elektron hukumat platformalarining joriy etilishi, onlayn nazorat-kassa mashinalari, elektron hisob-fakturalar, bank to'lovlarining raqamlashtirilishi hamda davlat xizmatlarining interaktiv shaklga o'tkazilishi iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Raqamlashtirish jarayonlari, avvalo, iqtisodiy operatsiyalarni real vaqt rejimida monitoring qilish, ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash hamda moliyaviy oqimlarni kuzatish imkonini yaratadi. Bu esa nazariy jihatdan yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va fiskal intizomni mustahkamlash uchun muhim institutsional omil hisoblanadi.

Biroq, shunga qaramay, iqtisodiyotda yashirin sektor ulushi ma'lum darajada saqlanib qolmoqda. Yashirin iqtisodiyot — rasmiy hisob-kitob va soliq tizimidan tashqarida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyat bo'lib, u budjet daromadlarining kamayishi, sog'lom raqobat muhitining buzilishi, resurslar taqsimotining nomutanosibligi hamda fiskal barqarorlikka tahdid solishi bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari, yashirin sektor ijtimoiy himoya

tizimining zaiflashuviga, mehnat munosabatlarining norasmiylashuviga va investitsion muhitning pasayishiga ham olib keladi.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli transformatsiya jarayonlari va yashirin iqtisodiyot o'rtasida bevosita o'zaro bog'liqlik mavjud. Bir tomondan, raqamlashtirish iqtisodiy faoliyatni legallashtirish va shaffoflikni ta'minlash vositasi sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, institutsional muhit, soliq yukining darajasi, tadbirkorlik sharoitlari va ma'muriy tartib-taomillarning murakkabligi yashirin sektor ulushiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli yashirin iqtisodiyotni qisqartirish masalasi faqat nazorat choralarini kuchaytirish bilangina emas, balki raqamli infratuzilmani rivojlantirish, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda "keng qamrov — past stavka" tamoyili asosida soliqqa tortish tizimini optimallashtirish orqali hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb iqtisodiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning holati 2005–2022-yillar davomida yashirin iqtisodiyot ulushi nisbatan yuqori darajada saqlanib kelgan. Ayrim baholashlarga ko'ra, 2018-yilga kelib uning ulushi YAIMga nisbatan 40–45 foiz atrofida bo'lgan. So'nggi yillarda iqtisodiyotni legallashtirish va raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ushbu ko'rsatkich pasayish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot (non-observed economy) tushunchasi va metodologiyasi — statistika kuzatuvlarida to'liq yoki qisman aks ettirilmaydigan, rasmiy statistik ma'lumotlarga kirmaydigan iqtisodiy faoliyatdir. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Norasmiy bozor faoliyati: ro'yxatdan o'tmagan uy xo'jaliklari yoki jismoniy shaxslar faoliyati.

Yashirin iqtisodiyot: rasmiy subyektlar tomonidan soliqdan yashirish, daromadlarni to'liq ko'rsatmaslik, noqonuniy operatsiyalar.

Respublika statistika qo'mitasi "kuzatilmaydigan iqtisodiyot"ni tahliliy hisobotlarda alohida ko'rsatkich sifatida baholab, YAIMga nisbatan foizlarda ifodalaydi. O'zbekistonda kuzatilmaydigan iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi rasmiy statistiklar tomonidan to'liq ketma-ketlikda har yili e'lon qilinmasa ham, mamlakatda kuzatilmaydigan iqtisodiyot o'zgarish tendensiyalarining so'nggi yillarda pasayish jarayonida ekanligini kuzatishimiz mumkin (2-jadval; 2-rasm).

2- jadval. O'zbekistonda kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushining kamayish dinamikasi (2017–2025-yillar)

| Yil | Kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi (YAIMga nisbatan) | Izoh / Manba |
|---|---|---|
| 2017 | ~50 % | Norasmiy baholashlar (xalqaro ekspertlar) (Kun.uz) |
| 2023 | 35,5 % | Norasmiy+yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi (rasmiy oldindan hisobot) (Statistikauz) |
| 2024 | 34,8 % | Kuzatilmaydigan iqtisodiyot (505 trln so'm) (UzDaily.uz) |
| 2025 | 26,9 % | Milliy statistika qo'mitasi 2025 y. yakuni holati (Spot – Деловые новости Узбекистана) |




2-rasm. O'zbekistonda kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushining o'zgarish tendensiyasi (2005–2025-yillar)

Bu jarayonda maxsus respublika va hududiy komissiyalar tashkil etilib, iqtisodiyotni shaffoflashtirish bo'yicha "yo'l xaritalari" ishlab chiqildi. Soliq va bojxona ma'muriyatchiligini modernizatsiya qilish hamda raqamli nazorat mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Raqamli iqtisodiyot instrumentlari va ularning yashirin iqtisodiyotga ta'siri:

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda raqamli iqtisodiyot quyidagi asosiy mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatmoqda:

- Soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish. Elektron hisob-fakturalar, onlayn-nazorat-kassa mashinalari va avtomatlashtirilgan soliq tizimlari real vaqt rejimida iqtisodiy operatsiyalarni monitoring qilish imkonini bermoqda. Bu esa tushumlarni yashirish holatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.
- Naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish. Bank kartalari, mobil ilovalar va to'lov tizimlari orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar ulushi oshib bormoqda. Naqd pul muomalasining qisqarishi moliyaviy oqimlarning shaffofligini ta'minlaydi.
- Idoralararo ma'lumotlar integratsiyasi. Soliq, bojxona, bank va boshqa davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashinuvi yo'lga qo'yilishi yashirin faoliyatni aniqlash imkoniyatlarini kengaytirdi.
- Soliq yukini optimallashtirish. Soliq stavkalarining maqbullashtirilishi va soliq to'lash jarayonlarining soddalashtirilishi tadbirkorlik subyektlarini rasmiy sektorda faoliyat yuritishga rag'batlantirmoqda. "Keng qamrov — past stavka" tamoyili asosida soliq bazasini kengaytirish, kichik biznes va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun soddalashtirilgan tartiblarni joriy etish yashirin faoliyatni legallashtirishga xizmat qilmoqda. Soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish, avtomatik hisob-kitob tizimlari va shaxsiy kabinetlar orqali byurokratik to'siqlarning qisqarishi ham iqtisodiy faollikni rasmiy maydonga olib chiqmoqda.
- Raqamli platformalar va agregatorlar faoliyati. Savdo, transport, yetkazib berish va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritayotgan raqamli platformalar barcha operatsiyalarni elektron qayd etish imkonini bermoqda. Bu esa daromadlarni yashirish imkoniyatini cheklab, real aylanmani aniqlashni osonlashtiradi. Masalan, onlayn savdo maydonchalari, taksi agregatorlari va to'lov tizimlari orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar avtomatik ravishda hisobot tizimlariga integratsiya qilinmoqda.
- Fintex. Fintex (Financial Technology) — moliyaviy xizmatlarni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida ko'rsatish tizimidir. Ya'ni, bank va moliya sohasida an'anaviy jarayonlarni onlayn, tezkor va avtomatlashtirilgan shaklga o'tkazuvchi texnologiyalar majmuasi. Ya'ni, telefon orqali pul o'tkazish, QR to'lov qilish, onlayn kredit olish — bularning barchasi fintex xizmatlariga kiradi. Moliyaviy operatsiyalarning bank tizimi orqali o'tishi iqtisodiy oqimlarning shaffofligini oshirib, yashirin aylanmani qisqartirishga yordam bermoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda naqd pulsiz to'lovlar ulushi sezilarli darajada oshdi. Onlayn-nazorat-kassa mashinalari joriy etilishi natijasida chakana savdo aylanmasi bo'yicha real tushumlar ko'rsatkichlari oshgani kuzatildi. Elektron hisob-fakturalar tizimi orqali korxonalar o'rtasidagi operatsiyalar monitoringi kuchaydi. Natijada soliq tushumlari bazasi kengaydi va fiskal barqarorlik mustahkamlandi.

Raqamli nazorat mexanizmlarining kuchayishi nafaqat budjet daromadlarini oshirdi, balki sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda. Chunki rasmiy faoliyat yuritayotgan subyektlar uchun teng sharoitlar yaratilmoqda va yashirin sektorning ustunliklari kamaymoqda (3-rasm).




3- rasm. O'zbekistonda naqd pulsiz to'lovlar ulushining o'sish dinamikasi (2020–2025-yillar)

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayangan holda yashirin iqtisodiyot ulushi kamayib borayotganini kuzatishimiz mumkin, ammo bir qator tizimli muammolar saqlanib qolayotganini yoddan chiqarmaganimiz ma'qul. Ya'ni:

- Aholining ayrim qatlamlarida raqamli savodxonlik darajasi pastligi;
- Hududlar kesimida internet infratuzilmasining yetarli emasligi;
- Naqd pulga bo'lgan psixologik moyillik;
- Norasmiy bandlikning yuqori ulushi;
- Ma'lumotlar xavfsizligi va kiberxavfsizlik bilan bog'liq xavflar.

Mazkur omillar raqamlashtirish jarayonining to'liq samaradorligini cheklashi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda raqamli iqtisodiyot muhim institutsional instrument sifatida namoyon bo'lmoqda. Soliq va bojxona ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, elektron to'lovlar tizimini kengaytirish hamda ma'lumotlar bazalari integratsiyasini chuqurlashtirish iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini oshirmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, yashirin iqtisodiy faoliyatni kamaytirish uchun kelgusida quyidagi yo'nalishlarda ishlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq:

- Raqamli infratuzilmani hududlar kesimida kengaytirish;
- Aholining raqamli savodxonligini oshirish;
- Kichik biznes uchun yanada qulay va soddalashtirilgan soliq mexanizmlarini joriy etish;
- Idoralararo ma'lumot almashinuvini to'liq integratsiyalash;

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot yashirin sektorni qisqartirish, fiskal barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishning muhim omili sifatida shakllanmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-5030957
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida norasmiy va yashirin iqtisodiyot ko'rsatkichlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar. – Toshkent, 2024–2025. www.stat.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To'lov tizimlari rivojlanishi va naqd pulsiz hisob-kitoblar statistikasi bo'yicha hisobot. – Toshkent, 2024–2025. www.cbu.uz
4. Schneider, F., & Medina, L. (2018). Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years? International Monetary Fund Working Paper No. 18/17. Washington, DC: IMF.
5. Medina, L., & Schneider, F. (2019). Shedding Light on the Shadow Economy: A Global Database and the Interaction with the Official One. CESifo Working Paper No. 7981.
6. China Academy of Information and Communications Technology (CAICT). (2023). China Digital Economy Development Report. Beijing.
7. World Bank. (2021). Digital Development Overview Report. Washington, DC: World Bank Group.
8. OECD. (2020). The Digital Transformation of SMEs. Paris: OECD Publishing.

# YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: O'ZBEKISTON BOJXONA ORGANLARI TAJRIBASI

**Makkamov Z.X**
Bojxona qo'mitasi Ilmiy markazi boshlig'i, i.f.f.d. (PhD), dotsent

**Soatov S.S.**
Bojxona qo'mitasi Ilmiy markazi yetakchi ilmiy xodimi, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish bo'yicha erishilgan natijalar tahlil qilingan. Sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili va avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining bojxona nazorati samaradorligiga ta'siri, shuningdek, raqamlashtirish jarayonlarining iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi roli ilmiy dalillar asosida ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida bojxona tushumlari sezilarli oshgan, noqonuniy tovar aylanmasiga qarshi samarali choralar ko'rilgan va davlat budjeti manfaatlari himoya qilingan.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, bojxona nazorati, sun'iy intellekt, iqtisodiy xavfsizlik, avtomatlashtirish, TIF TN kod, xavfni boshqarish, bojxona tushumlari.

Abstract. This article analyzes the results achieved in reducing the scale of the shadow economy through the introduction of digital technologies in the activities of the customs authorities of the Republic of Uzbekistan. The impact of artificial intelligence, data analytics, and automated information systems on the efficiency of customs control, as well as the role of digitalization in ensuring economic security, is substantiated with scientific evidence. The findings indicate that the widespread implementation of digital technologies has led to a significant increase in customs revenues, effective measures against illegal trade, and enhanced protection of state budget interests.

Key words: shadow economy, customs control, artificial intelligence, economic security, automation, HS code, risk management, customs revenues.

Аннотация. В данной статье проанализированы результаты сокращения масштабов теневой экономики за счёт внедрения цифровых технологий в деятельность таможенных органов Республики Узбекистан. На основе научных данных показано влияние искусственного интеллекта, анализа данных и автоматизированных информационных систем на эффективность таможенного контроля, а также роль цифровизации в обеспечении экономической безопасности. Результаты исследования свидетельствуют о том, что широкое внедрение цифровых технологий способствовало значительному росту таможенных поступлений, эффективной борьбе с незаконным товарооборотом и защите интересов государственного бюджета.

Ключевые слова: теневая экономика, таможенный контроль, искусственный интеллект, экономическая безопасность, автоматизация, код ТН ВЭД, управление рисками, таможенные поступления.

## KIRISH

Global iqtisodiy integratsiya sharoitida yashirin iqtisodiyot har bir davlat uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. Yashirin iqtisodiyot nafaqat davlat budjetiga tushadigan daromadlarni kamaytiradi, balki adolatli raqobat muhitini buzadi, investitsion jozibadorlikni pasaytiradi va umumiy iqtisodiy xavfsizlikka putur yetkazadi. Shu bois, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish va uni qisqartirish ko'plab davlatlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–6098-son[1] Farmoni hamda 2025-yil 10-dekabrdagi "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–246-son[2] Farmoni yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab, mazkur sohadagi huquqiy-me'yoriy asoslarni yanada mustahkamladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston bojxona organlarida raqamli texnologiyalarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi rolini yoritish, shuningdek sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va raqamli nazorat vositalari joriy etilishi natijasida nazorat jarayonlarining tezkorligi va aniqligi oshgani, inson omili kamaygani hamda shaffoflik va samaradorlik ta'minlangani bo'yicha erishilgan amaliy natijalarni tizimli bayon etishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilmoqda va ayniqsa bojxona ma'murchiligi doirasida bu yo'nalish alohida ahamiyat kasb etadi. Yashirin iqtisodiyotning nazariy asoslari Friedrich Schneider tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u iqtisodiy faoliyatning norasmiy sektorini kengaytiruvchi omillar sifatida institutsional zaifliklar, yuqori tranzaksiya xarajatlari va nazoratning yetarli emasligini ko'rsatadi. Schneider 2015-yildagi tadqiqotida davlat nazorati va raqamli monitoring vositalarining kengayishi yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Bojxona tizimida raqamli texnologiyalarning ahamiyati Jahon bojxona tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlarda ham keng yoritilgan. Kunio Mikuriya rahbarligida ishlab chiqilgan "Smart Customs" konsepsiyasida bojxona jarayonlarini raqamlashtirish, risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish va real vaqt rejimida ma'lumotlar almashinuvi noqonuniy savdo operatsiyalarini qisqartirishda muhim vosita sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv bojxona organlarining samaradorligini oshirish bilan birga, yashirin iqtisodiyot kanallarini toraytirishga xizmat qiladi.

Raqamli bojxona tizimlarining samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar orasida Luc De Wulf va José B. Sokol tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar muhim o'rin tutadi. Ular bojxona ma'murchiligini modernizatsiya qilish orqali savdo xarajatlarini kamaytirish va noqonuniy iqtisodiy faoliyatni cheklash mumkinligini asoslab beradi. De Wulf va Sokol 2005-yilda e'lon qilingan tadqiqotida bojxona tizimida axborot texnologiyalarini joriy etish tranzaksiya shaffofligini oshirib, yashirin iqtisodiyot imkoniyatlarini qisqartirishini ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalarning bojxona sohasidagi qo'llanilishi bo'yicha OECD va Jahon banki ekspertlari tomonidan ham qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. OECD 2021-yildagi hisobotida elektron deklaratsiya, avtomatlashtirilgan risk tahlili va "yagona darcha" tizimlarining joriy etilishi bojxona jarayonlarida inson omilini kamaytirib, korrupsion xavflarni pasaytirishini ta'kidlaydi. Jahon banki ekspertlari, xususan Bernard Hoekman va Aaditya Mattoo tadqiqotlarida savdoni soddalashtirish va raqamlashtirish iqtisodiy faollikni rasmiylashtirishga xizmat qilishi empirik jihatdan asoslab beriladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali bojxona nazoratini kuchaytirish masalasi James E. Rauch va Joel Watson tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular norasmiy savdo tarmoqlarini kamaytirishda shaffof axborot tizimlarining rolini alohida qayd etadi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, bojxona operatsiyalarida ma'lumotlar almashinuvi va monitoring tizimlarining rivojlanishi yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston sharoitida bojxona tizimini raqamlashtirish jarayonlari so'nggi yillarda jadallashgan bo'lib, bu yo'nalish milliy va xalqaro tadqiqotlarda ham aks etmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida savdo va bojxona islohotlarini o'rgangan Richard Pomfret 2019-yilda mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va raqamli savdo infratuzilmasining rivojlanishi noqonuniy savdo hajmini kamaytirishga xizmat qilishini qayd etadi. Shu bilan birga, raqamli bojxona platformalari orqali ma'lumotlarning markazlashuvi va avtomatik tahlili bojxona nazoratining sifatini oshiradi.

1 https://lex.uz/docs/-5073459
2 https://lex.uz/uz/docs/-7897630

Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarining bojxona sohasiga integratsiyasi Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee tomonidan ham keng yoritilgan. Ular 2014-yildagi tadqiqotida raqamli texnologiyalar iqtisodiy jarayonlarni shaffoflashtirish va nazoratni kuchaytirish orqali noqonuniy faoliyatlarni qisqartirishini ta'kidlaydi. Ayniqsa, Big Data va analitik tizimlar yordamida bojxona risklarini aniqlash samaradorligi sezilarli darajada oshishi qayd etiladi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bojxona organlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Raqamlashtirish jarayonlari orqali bojxona operatsiyalarining shaffofligi oshadi, inson omili kamayadi, nazorat tizimlari takomillashadi va natijada noqonuniy iqtisodiy faoliyatni qisqartirish uchun mustahkam institutsional asos yaratiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston bojxona qo'mitasi hisobotlari, Jahon banki va WCO ma'lumotlari, shuningdek ekspert intervyulari asosida yig'ildi. Tahlilda deskriptiv va qiyosiy yondashuvlar, risk indikatorlari asosida tahlil hamda regressiya usullari qo'llanildi. Raqamlashtirish darajasi bilan yashirin iqtisodiyot ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik empirik baholanib, natijalar tizimli ravishda umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bojxona sohasida yashirin iqtisodiyot quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo'ladi: kontrabanda yo'li bilan tovarlarni noqonuniy olib kirish va olib chiqish, tovar qiymatini sun'iy pasaytirish yoki oshirish, TIF TN kodlarini noto'g'ri belgilash, bojxona imtiyozlaridan noqonuniy foydalanish va boshqa usullar. Ushbu holatlar davlat budjetiga jiddiy zarar yetkazib, sog'lom raqobat muhitiga salbiy tasir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonning tashqi savdo ko'rsatkichlari va bojxona tushumlarining keskin o'sishi — bojxona tizimida yashirin iqtisodiyotga qarshi keng islohotlarning ijobiy natijasi sifatida baholanmoqda. Xususan, 2021–2025-yillar davomida tashqi savdo ko'rsatkichlarida sezilarli o'sish kuzatilgan. Xususan, tashqi savdo aylanmasi 2021-yildagi 32,9 mlrd AQSH dollaridan 2025-yilda 55,4 mlrd AQSH dollariga yetgan bo'lib, 22,5 mlrd dollarga yoki 68 foizga oshgan. Shu davrda eksport hajmi 9,2 mlrd dollardan 13,3 mlrd dollarga ko'tarilib, 4,1 mlrd dollarga (45 foiz) o'sgan; import esa 23,7 mlrd dollardan 42,1 mlrd dollargacha ortib, 18,4 mlrd dollarga (78 foiz) ko'paygan (1-rasm).




1- rasm. Tashqi savdo aylanmasi va budjet tushumlari ko'rsatkichlarining solishtirma tahlili

Budjet tushumlari ham sezilarli dinamika namoyon etgan: 2021-yilda 33,2 trln so'm bo'lgan tushumlar 2025-yilda 76,2 trln so'mni tashkil etib, 43 trln so'mga oshgan (ya'ni 2,3 barobar). Shu bilan birga, bojxona imtiyozlari hajmi 38,2 trln so'mdan 59,1 trln so'mga yetgan bo'lib, farq 20,9 trln so'mni tashkil etgan va umumiy o'sish 55 foizga teng bo'lgan (1-rasm).

Yuqorida keltirilgan tashqi savdoning rasmiy ko'rsatkichlaridan tashqari, bojxona organlari tomonidan tovar yuk-kuzatuv hujjatlarida aks ettirilmagan 1,8 trln so'mlik noqonuniy import aniqlanib, uning mamlakat hududiga kiritilishiga chek qo'yildi. Shuningdek, 3,2 mln dona aksiz markasining noqonuniy savdosiga barham berildi. Natijada davlat budjetiga 34,2 mlrd so'm miqdorida zarar yetkazilishiga yo'l qo'yilmay, moliyaviy yo'qotishlar bartaraf etildi.

Bojxona qiymatini sun'iy ravishda pasaytirish holatlari davlat budjeti barqarorligiga jiddiy tahdid soladi. Importyorlar tomonidan tovarlar qiymatini past ko'rsatish orqali bojxona to'lovlarini kamaytirishga qaratilgan urinishlar muntazam ravishda aniqlanmoqda. Mazkur xavf-xatarlarni bartaraf etish maqsadida doimiy monitoring choralari kuchaytirilgan bo'lib, 2025-yil davomida 1,5 trln so'm miqdorida qo'shimcha bojxona to'lovlari hisoblandi. Shuningdek, qiymat modullari orqali 512 mlrd so'm qo'shimcha tushum ta'minlandi.

Bundan tashqari, bojxona sohasida yashirin iqtisodiyot ko'rinishlaridan biri bo'lgan tovar qiymatini sun'iy ravishda past ko'rsatish holatlarining oldini olish va uni qisqartirish maqsadida 8 ta davlat bilan elektron axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi. Xalqaro so'rovnomalar mexanizmi orqali 25 ta holatda tovar qiymati past baholangani aniqlanib, natijada davlat budjeti foydasiga 13,2 mlrd so'm mablag' undirilishi ta'minlandi. Mazkur chora-tadbirlar yashirin iqtisodiyotga xos qonunbuzarliklarni barvaqt aniqlash, bojxona to'lovlarining to'liq undirilishini ta'minlash hamda budjet daromadlarini mustahkamlashga qaratilgan tizimli mexanizm sifatida xizmat qilmoqda.


Raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt (SI) bojxona organlari faoliyatida yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishning eng samarali vositalaridan biriga aylanmoqda. O'zbekiston bojxona organlarida SIning bir necha yo'nalishlarda muvaffaqiyatli qo'llanilishi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga sezilarli hissa qo'shmoqda.

TIF TN kodini to'g'ri belgilashda sun'iy intellekt. Tovarlarning Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bo'yicha to'g'ri tasniflanishi bojxona tushumlarini to'liq undirishning asosiy sharti hisoblanadi. Noto'g'ri TIF TN kodi belgilanishi bojxona to'lovlarining past undirilishiga olib keladi.

Ushbu muammoni hal etish uchun sun'iy intellekt asosida TIF TN kodini aniqlash tizimi ishlab chiqildi. Tizim 13 138 ta TIF TN koddan foydalanib, tovarlarning to'g'ri tasniflanishini ta'minlaydi. Rasmiylashtiruvdan keyin SI yordamida aniqlanadigan kamchiliklar to'rt bosqichda amalga oshiriladi: kunlik bojxona yuk deklaratsiyalari tahlil qilinadi, 3 yillik ma'lumotlar bazasi asosida qiyoslash o'tkaziladi, SI modeli avtomat ravishda kamchilikni aniqlaydi va natijada xatolik aniqlanib qo'shimcha to'lov undiriladi.


Shunga ko'ra, yuqoridagi bosqichlar asosida 2025 -yilda SI modelini qo'llash natijasida xavfi yuqori 530 ta kod bo'yicha 169 mlrd so'm, xavfi past 2009 ta kod bo'yicha 14 mlrd so'm qo'shimcha tushum aniqlandi. Masalan, monitorni "televizion uzatgichli monitor" sifatida tasniflash bo'yicha tizim tomonidan 79% ehtimollik bilan o'zgartirish tavsiyasi berilgan. Natijada import bojxona boji stavkasi 0%dan 10%ga, to'lov summasi 72 mln so'mdan 180 mln so'mga oshishi hisoblangan bo'lib, farq 108 mln so'mni tashkil etgan. Mazkur natijalar sun'iy intellekt yechimlari tovarlarning tasniflanishidagi xatoliklarni kamaytirish, to'lovlarning to'liq undirilishini ta'minlash va budjet tushumlarini oshirishga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

Rentgen va inspeksiya tizimlari. "Elektron bojxona rasmiylashtiruvi" axborot tizimida IKMdan o'tgan transport vositalari rentgen tasvirlari sun'iy intellektga o'qitilib, bir chegara o'tkazish punktidan kirgan yukli avtotransport vositasini, ikkinchi postdan chiqish vaqtida yukli yoki yuksiz holatda ekanligi hamda ulardagi farqlar bo'yicha SI asosida solishtirib, tahlil qilish imkoniyati ishlab chiqildi. Xususan, 2025-yilda rentgen tasvirlarida SI elementlarini qo'llash orqali 489 gramm zargarlik buyumlari aniqlangan (2-rasm).



2- rasm. Rentgen tasvirni sun'iy intellektga asoslangan tahlil tasviri

Shu bilan birga, IKMdan o'tgan transport vositalari rentgen tasvirlari sun'iy intellektga o'qitilib, 1,4 mlrd so'mlik hujjatlarda ko'rsatilmagan 1,4 mlrd so'mlik ortiqcha shinalar mavjudligi aniqlangan (3-rasm).



3- rasm. Rentgen tasvirni sun'iy intellektga asoslangan tahlil tasviri

Bojxona qiymatini nazorat qilishda sun'iy intellekt. Import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini nazorat qilish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim yo'nalishidir. Bu borada bir nechta SIga asoslangan tizimlar joriy qilingan:

Birinchidan, OpenAI kompaniyasining GPT-4o modelini qo'llash orqali Xitoy Xalq Respublikasidagi yuk jo'natuvchining nomi asosida uning joylashgan hududini aniqlash va ushbu hududdan eksport qilingan tovarlarning narx ma'lumotlari asosida bojxona qiymatining sun'iy pasaytirilishini oldini olish imkoniyati yaratildi.

Ikkinchidan, "Ye-Tijorat" dasturida xalqaro elektron do'konlardagi (Amazon, Newegg, eBay, Texnomart, Zoodmall, Uzum) narxlarni o'rtachasini aniqlash orqali tovar narxlarini o'rganish imkoniyati yaratildi.

Uchinchidan, import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymati tarkibiga kiritilgan tashish (transport) xarajatlari haqqoniy va yetarli miqdorda aks ettirilganligini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida monitoring qilish yo'lga qo'yildi.

To'rtinchidan, bojxona rasmiylashtiruvi axborot tizimlarida tasniflash qarorlari asosida tovar nomi o'xshash lekin TIF TN kodi farq qiladigan holatlarni sun'iy intellekt yordamida aniqlash imkoniyati yaratildi.

Transport nazorati va ARA tizimlari. Chegara bojxona postlarida raqamli nazorat tizimlarining joriy etilishi yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishga katta hissa qo'shmoqda. "Transport nazorati" tizimi orqali avtotransport vositalarining davlat raqami hamda og'irlik ko'rsatkichlarini aniqlashda inson omili to'liq chiqarib tashlandi.

Avtomatik raqam aniqlash (ARA) tizimi 34 ta chegara bojxona postlariga jami 100 dan ortiq kameralar o'rnatilib ishga tushirilgan. Bundan tashqari, 107 ta avtotarozi va 42 ta inspeksiya-ko'rik markazi (IKM) qurilmalari bojxona nazoratining samaradorligini oshirmoqda. Bu tizim chegara bojxona postlaridagi korrupsiya xavflarini kamaytirish va yuk harakatini real vaqtda nazorat qilish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.03.2025-yildagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-son[3] qarori asosida 6 ta "Z-Portal" rusumli IKM, 5 ta bodi skaner, 10 ta rentgen va 1 ta avtotarozi xarid qilindi. Bojxona qo'mitasining Targetlash markazida "CIM Server" tizimi o'rnatilib, 10 ta "Z-Portal" IKM rentgen tasvirlarini markazlashtirilgan holda chuqur tahlil qilish va boshqarish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi.

Noqonuniy tovarlarni rasmiy importga jalb etishning amaliy natijalari. "UZIMEI" axborot tizimi bilan integratsiyani joriy etish mobil qurilmalarning noqonuniy aylanmasini cheklash, rasmiy importni oshirish hamda bojxona to'lovlarini to'liq undirish samaradorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Xususan, mazkur integratsiya natijasida mobil qurilmalar importi hajmi sezilarli darajada o'sib, 2019-yilda 541 ming dona bo'lgan ko'rsatkich 2025-yilda 4,5 mln donaga yetdi. 2025-yilda esa ushbu ko'rsatkich 3,5 mlndan ortiqni tashkil etdi.

Shu bilan birga, bojxona to'lovlari bo'yicha tushumlar dinamikasi ham ijobiy o'sishni namoyon etmoqda: 2019-yilda 37 mlrd so'mni tashkil etgan tushumlar 2024-yilda 842 mlrd so'mga, 2025-yilda esa 1,2 trln so'mga

3 https://lex.uz/uz/docs/-7452043

yetdi. Keltirilgan natijalar "UZIMEI" integratsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish chora-tadbirlari bozorda qonuniy aylanmani kengaytirish, shaffoflikni ta'minlash va davlat budjeti daromadlarini mustahkamlashga qaratilgan muhim mexanizm ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Prezidentimizning 2024-yildagi PF-84-son Farmoni tamaki bozorini tartibga solib, rasmiy import ortishi hisobiga noqonuniy aylanmani 55 foizga kamaytirdi. 2023-yilda budjetga 305,4 mlrd so'm undirilgan bo'lsa, 2025-yilda 1 trln so'mdan ortiq undirildi – bu 2023-yilga nisbatan 3 barobarga oshganligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi PQ–393-son qarori asosida xalqaro brend tovarlarining rasmiy importini tashkil etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib, budjet tushumlarining sezilarli oshishi ta'minlandi. Xususan, 2023-yilda mazkur toifadagi tovarlar importi 2,5 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 100 mln AQSH dollardan oshdi. Natijada, budjet tushumlari 6,2 mlrd so'mdan 259,7 mlrd so'mgacha o'sib, 42 barobarga ko'paydi.

Shu bilan birga, tovarlar brendini muhofaza qilish hamda bojxona nazoratini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar natijasida milliy qonunchilik Jahon savdo tashkiloti (JST) talablariga muvofiqlashtirildi va kontrafakt tovarlar importini to'xtatish mexanizmi joriy etildi. Mazkur chora-tadbirlar samarasi o'laroq, O'zbekiston AQSHning 301-maxsus hisobotida "intellektual mulk huquqiy muhofazasi bo'yicha kuzatuv ostidagi davlatlar" ro'yxatidan chiqarildi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston bojxona organlarida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda sezilarli natijalarga erishish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Birinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalarining bojxona nazoratiga joriy etilishi TIF TN kodlarini to'g'ri belgilash, bojxona qiymatini nazorat qilish va kontrabandaga qarshi kurashish sohalarida yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda.

Ikkinchidan, raqamli nazorat tizimlari ("Transport nazorati" , ARA, IKM) inson omilini minimallashtirish orqali korrupsiya xavflarini kamaytirmoqda va tovarlar harakatini real vaqtda kuzatish imkonini bermoqda.

Uchinchidan, noqonuniy tovar aylanmasini cheklashga qaratilgan raqamli tizimlar (UZIMEI, elektron axborot almashinuvi) natijasida mobil qurilmalar, tamaki mahsulotlari va xalqaro brend tovarlar yo'nalishida budjet tushumlari sezilarli oshdi.

Kelgusida quyidagi ustuvor yo'nalishlarni rivojlantirish taklif etiladi:

joriy etilgan axborot tizimlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada kengroq tatbiq qilish;

chegara o'tkazish punktlarini zamonaviy texnika vositalari bilan to'liq ta'minlash;

axborot tizimlarining himoyalanganlik darajasini oshirish va yuqori quvvatli server qurilmalari bilan ta'minlash;

import boji stavkalarini optimallashtirish orqali rasmiy importni rag'batlantirish;

xalqaro bojxona tashkilotlari va xorijiy davlatlar bilan axborot almashinuvini kengaytirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020-yildagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-son Farmoni // https://lex.uz/ docs/-5073459
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.03.2025-yildagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-son qarori // https://lex.uz/uz/docs/-7452043
4. Friedrich Schneider. Shadow Economy Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years? – IMF, 2015.
5. Kunio Mikuriya. Smart Customs: Customs in the 21st Century. – World Customs Organization, 2019.
6. Luc De Wulf, José B. Sokol. Customs Modernization Handbook. – World Bank, 2005.
7. OECD. Digital Transformation of Customs Administration. – OECD Publishing, 2021.
8. Bernard Hoekman, Aaditya Mattoo. Trade in Services, Development and Policy. – World Bank, 2019.
9. James E. Rauch, Joel Watson. Networks and Markets in International Trade. – Journal of International Economics, 2001.
10. Richard Pomfret. The Economies of Central Asia. – Princeton University Press, 2019.
11. Erik Brynjolfsson, Andrew McAfee. The Second Machine Age. – W.W. Norton & Company, 2014.
12. WCO. (2006). International Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures (Revised Kyoto Convention).
13. WCO. (2005). SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade.

# RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI XALQARO SAVDODA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI

**Muxtorov Boburmirzo Bahodir o'g'li**
O'zbekistor Respublikasi Markaziy banki Buxoro viloyati bosh boshqarmasi
Rahbar yordamchsi
Email: boburmirzoko@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammolari va ularni bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik va o'rta korxonalarning global bozorlarga kirishi bilan birga kiberxavfsizlik, tranzaksiya xavfsizligi va regulyativ muammolar dolzarb masala sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda taqqoslash va statistik tahlil usullari qo'llanib, O'zbekiston va boshqa rivojlangan mamlakatlardagi tajribalar o'rganildi. Muallif maqolada ilmiy va amaliy nuqtai nazardan raqamli platformalarni samarali boshqarish va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha takliflar keltiradi.

Kalit so'zlar: Raqamli platformalar, xalqaro savdo, iqtisodiy xavfsizlik, kiberxavfsizlik, tranzaksiya xavfsizligi, regulyativ mexanizm, raqamli iqtisodiyot.

Abstract. This article analyzes the challenges of ensuring economic security in international trade through digital platforms and the mechanisms for their mitigation. In the context of the digital economy, as small and medium-sized enterprises enter global markets, cybersecurity, transaction security, and regulatory issues become critical. The study employs comparative and statistical analysis methods, examining the experience of Uzbekistan and other developed countries. The author provides scientific and practical recommendations for effective management of digital platforms and ensuring economic security.

Key words: Digital platforms, international trade, economic security, cybersecurity, transaction security, regulatory mechanisms, digital economy.

Аннотация. В данной статье анализируются проблемы обеспечения экономической безопасности в международной торговле через цифровые платформы и механизмы их преодоления. В условиях цифровой экономики, при выходе малых и средних предприятий на глобальные рынки, острыми становятся вопросы кибербезопасности, безопасности транзакций и регулирования. В исследовании использованы методы сравнительного и статистического анализа, изучен опыт Узбекистана и других развитых стран. Автор представляет научные и практические рекомендации по эффективному управлению цифровыми платформами и обеспечению безопасности.

Ключевые слова: Цифровые платформы, международная торговля, экономическая безопасность, кибербезопасность, безопасность транзакций, регуляторные механизмы, цифровая экономика.

## KIRISH

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan chuqur transformatsion jarayonlar, xususan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi xalqaro savdo tizimining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyotning kengayishi natijasida an'anaviy savdo shakllari o'rnini elektron savdo va raqamli platformalar asosidagi savdo mexanizmlari egallamoqda. Xususan, Amazon, Alibaba, eBay, OLX, ZoodMall va Uzum Market kabi raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan xalqaro savdo hajmi yil sayin ortib bormoqda. Ushbu platformalar nafaqat yirik korxonalar, balki kichik va o'rta biznes subyektlari uchun ham global bozorlarga kirish imkoniyatini yaratmoqda.

Shu bilan birga, raqamli platformalar orqali xalqaro savdoni kengaytirish jarayonida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli savdo jarayonlarida yuzaga kelayotgan

kiberxavfsizlik tahdidlari, moliyaviy firibgarlik, ma'lumotlar xavfsizligi, to'lov tizimlaridagi nosozliklar hamda tartibga solish mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi xalqaro savdoda yangi xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va institutsional mexanizmlarning zaifligi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan xalqaro savdo jarayonlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammolari nafaqat alohida korxonalar, balki milliy iqtisodiyotlar darajasida ham muhim strategik masalaga aylanmoqda. Xususan, noqonuniy tranzaksiyalar, kiberhujumlar, shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi va noqonuniy tovarlar aylanmasi kabi holatlar davlatlarning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, raqamli platformalar faoliyatini samarali tartibga solish, xavfsizlik mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekiston sharoitida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va elektron savdo hajmini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda Uzum Market, OLX, ZoodMall, E-auksion, Uztrade kabi raqamli platformalar orqali ichki va tashqi savdo operatsiyalari kengayib bormoqda. Shu bilan birga, xalqaro savdoda raqamli platformalardan foydalanish jarayonida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, kiberxavfsizlikni mustahkamlash va tranzaksiya xavfsizligini oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'rish zarurati mavjud.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada quyidagi vazifalar belgilandi:

- raqamli platformalar orqali xalqaro savdoning iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirini tahlil qilish;
- raqamli savdo jarayonida yuzaga keladigan asosiy xavfsizlik muammolarini aniqlash;
- xalqaro tajriba asosida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini o'rganish;
- O'zbekiston sharoitida raqamli platformalar orqali savdoda xavfsizlikni oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning zamonaviy muammolari tizimli ravishda tahlil qilinib, ularni bartaraf etishning institutsional, texnologik va innovatsion mexanizmlari kompleks yondashuv asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash va xalqaro savdoni samarali tashkil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1- jadval. Global raqamli platformalar orqali xalqaro savdoning o'sish dinamikasi va iqtisodiy xavfsizlik omillari[1]

| Ko'rsatkichlar | 2019 | 2021 | 2023 | 2026 (prognoz) |
|---|---|---|---|---|
| Global e-commerce savdo hajmi (trln. USD) | 3.4 | 4.9 | 6.3 | 7.5 |
| Raqamli platformalar ulushi (%) | 52 | 60 | 68 | 75 |
| Xalqaro savdoda SME ishtiroki (%) | 23 | 30 | 37 | 45 |
| Kiberxavfsizlik tahdidlari soni (mingta) | 650 | 920 | 1200 | 1500 |
| Onlayn tranzaksiya firibgarligi ulushi (%) | 1.8 | 2.3 | 3.1 | 3.8 |

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda globalizatsiya, raqamli transformatsiya va institutsional rivojlanish kesishmasida keng o'rganilmoqda. Ushbu yo'nalishda iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining nazariy asoslari Dani Rodrik tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u global savdo erkinlashuvi bilan bir qatorda milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish zarurligini asoslaydi. Rodrik 2011-yilda xalqaro savdoda tartibga solish mexanizmlarining yetarli darajada moslashuvchan bo'lmasligi iqtisodiy xavfsizlikka tahdid solishini ta'kidlaydi.

Raqamli platformalar iqtisodiyotining rivojlanishini tahlil qilgan Geoffrey G. Parker, Marshall W. Van Alstyne va Sangeet Paul Choudary platforma iqtisodiyotini ikki tomonlama bozorlar va tarmoqli effektlar asosida izohlaydi. Ular 2016-yilda chop etilgan tadqiqotida platformalar orqali amalga oshiriladigan transchegaraviy savdo hajmining keskin oshishi bilan birga, ma'lumotlar xavfsizligi, monopoliyalashuv va bozor konsentratsiyasi kabi yangi xavflar yuzaga kelayotganini qayd etadi.

Xalqaro savdoda raqamli texnologiyalar va iqtisodiy xavfsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan Richard Baldwin 2016-yilda "globallashuvning yangi to'lqini" konsepsiyasini ilgari surib, raqamli platformalar ishlab chiqarish va savdo jarayonlarini fragmentatsiyalash orqali global qiymat zanjirlarini tubdan o'zgartirayotganini

1 Manba: World Bank, UNCTAD Digital Economy Report, Statista ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ko'rsatadi. Baldwinning fikricha, ushbu jarayon iqtisodiy samaradorlikni oshirishi bilan birga, davlatlar uchun yangi xavfsizlik chaqiriqlarini ham yuzaga keltiradi.

Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda ma'lumotlar boshqaruvi va raqamli suverenitet masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shoshana Zuboff 2019-yilda raqamli platformalar faoliyatini "nazorat kapitalizmi" konsepsiyasi orqali izohlab, foydalanuvchi ma'lumotlarining markazlashuvi iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikka tahdid tug'dirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu esa xalqaro savdoda ma'lumotlar oqimini tartibga solish zaruratini kuchaytiradi.

Raqamli savdo va iqtisodiy xavfsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni Jahon savdo tashkiloti ekspertlari ham keng o'rganmoqda. Bernard Hoekman va Petros C. Mavroidis tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli savdo qoidalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi davlatlar o'rtasida tartibga solish nomuvofiqliklarini keltirib chiqarishi va bu holat iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. Ular 2021-yilda raqamli savdoni tartibga soluvchi xalqaro me'yorlarni ishlab chiqish zarurligini asoslab beradi.

Bundan tashqari, raqamli platformalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini o'rganishda Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Ular 2014-yilda raqamli texnologiyalar iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirish bilan birga, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar himoyasi va algoritmik boshqaruv bilan bog'liq xavflarni ham kuchaytirishini ta'kidlaydi.

Raqamli savdoda risklarni boshqarish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari OECD hamda UNCTAD hisobotlarida ham keng yoritilgan. OECD 2020-yilda raqamli savdo infratuzilmasining rivojlanishi bilan birga kiberxavfsizlik standartlarini kuchaytirish, ma'lumotlarni himoya qilish va elektron tijoratni tartibga solish zarurligini qayd etadi. UNCTAD esa 2021-yildagi hisobotida rivojlanayotgan davlatlar uchun raqamli platformalar orqali savdoda qatnashish imkoniyatlari kengaygani bilan birga, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda institutsional tayyorgarlik yetarli emasligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda ikki tomonlama ta'sirga ega. Bir tomondan, ular savdo samaradorligini oshiradi va bozorga kirishni osonlashtiradi, ikkinchi tomondan esa ma'lumotlar xavfsizligi, kiberxavfsizlik, bozor konsentratsiyasi va tartibga solish bilan bog'liq yangi xavflarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, samarali institutsional mexanizmlar va xalqaro hamkorlik ushbu xavflarni bartaraf etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammolari va ularni bartaraf etish mexanizmlarini kompleks o'rganish maqsadida zamonaviy ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuvga asoslangan bo'lib, unda nazariy va empirik tahlil usullarining uyg'unligi ta'minlandi.

Tadqiqotning metodologik asosini xalqaro savdo nazariyasi, raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional yondashuvlari tashkil etadi. Raqamli platformalar faoliyati va ularning xalqaro savdoga ta'sirini baholashda tizimli tahlil, taqqoslash, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy metodlar qo'llanildi:

Birinchidan, tizimli tahlil usuli orqali raqamli platformalar faoliyatining xalqaro savdoga ta'siri va iqtisodiy xavfsizlik bilan bog'liq jihatlari kompleks tarzda o'rganildi. Ushbu yondashuv raqamli savdo jarayonlarining o'zaro bog'liq elementlarini aniqlash va ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirini baholash imkonini berdi.

Ikkinchidan, taqqoslash tahlili asosida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli platformalar orqali savdo jarayonlarining xavfsizlik darajasi o'rganildi. Xususan, AQSh, Xitoy, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda O'zbekiston tajribasi solishtirilib, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha amaliy yondashuvlar tahlil qilindi.

Uchinchidan, statistik tahlil usuli yordamida xalqaro tashkilotlar (World Bank, UNCTAD, WTO, IMF) ma'lumotlari asosida raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan savdo hajmi, tranzaksiya xavfsizligi va kiberxavfsizlik tahdidlari dinamikasi o'rganildi. Statistik ma'lumotlar asosida raqamli savdo rivojlanishining iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri baholandi.

To'rtinchidan, case study (amaliy holatlarni o'rganish) usuli orqali O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan Uzum Market, OLX, ZoodMall, E-auksion va Uztrade platformalarining faoliyati tahlil qilindi. Mazkur platformalarda to'lov xavfsizligi, foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish, logistika jarayonlari va tranzaksiya monitoringi tizimi o'rganilib, mavjud muammolar aniqlandi.

Beshinchidan, ekspert baholash usuli asosida raqamli savdo sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar va ilmiy tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari umumlashtirildi. Ushbu yondashuv raqamli platformalar orqali savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar, milliy statistik ma'lumotlar va raqamli platformalar faoliyatiga oid ochiq ma'lumotlar tashkil etdi. Olingan ma'lumotlar iqtisodiy-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, umumlashtirildi (2-jadval).

2- jadval. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar va ularning maqsadi[2]

| Tadqiqot usuli | Qo'llanish yo'nalishi | Tadqiqotdagi maqsadi |
|---|---|---|
| Tizimli tahlil | Raqamli platformalar va xalqaro savdo tizimi | Xavfsizlik omillarini kompleks o'rganish |
| Taqqoslash tahlili | Xalqaro va milliy tajriba | Rivojlangan davlatlar tajribasini aniqlash |
| Statistik tahlil | Global savdo va xavfsizlik ko'rsatkichlari | Tendensiyalarni aniqlash |
| Case study | Uzum Market, OLX, ZoodMall | Amaliy muammolarni aniqlash |
| Ekspert baholash | Mutaxassislar fikri | Taklif va tavsiyalar ishlab chiqish |

Mazkur metodologiya tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Tanlangan metodlar natijalarni ishonchli va amaliy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli platformalar orqali xalqaro savdoning rivojlanishi global iqtisodiyotda yangi imkoniyatlar bilan birga iqtisodiy xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli savdo jarayonlarining kengayishi kichik va o'rta biznes subyektlarining xalqaro bozorlarga kirishini osonlashtirgan bo'lsa-da, tranzaksiya xavfsizligi, kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi bilan bog'liq tahdidlar ortib bormoqda.

Statistik tahlillar asosida aniqlanishicha, so'nggi besh yil davomida global elektron savdo hajmi o'rtacha 12–15 foizga o'sib borgan. Ushbu o'sishda raqamli platformalarning ulushi keskin ortgan. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda onlayn savdo operatsiyalarining ko'payishi natijasida tranzaksiya xavfsizligi va ma'lumotlar himoyasi masalalari dolzarb ahamiyat kasb etgan (3-jadval).

3- jadval. Global raqamli platformalar orqali xalqaro savdo hajmi va o'sish sur'ati[3]

| Yillar | Global e-commerce hajmi (trln. USD) | Raqamli platformalar ulushi (%) | Yillik o'sish (%) |
|---|---|---|---|
| 2019 | 3.4 | 52 | 10 |
| 2020 | 4.2 | 57 | 18 |
| 2021 | 4.9 | 60 | 16 |
| 2022 | 5.8 | 65 | 14 |
| 2023 | 6.3 | 68 | 12 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, global savdoda raqamli platformalarning ulushi 2019–2023-yillar davomida 52 foizdan 68 foizgacha oshgan. Bu esa xalqaro savdo operatsiyalarida raqamli texnologiyalarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, savdo hajmining ortishi tranzaksiya xavfsizligi va kiberxavfsizlik bilan bog'liq tahdidlarning ham ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston misolida ham raqamli platformalar orqali savdo operatsiyalarining hajmi sezilarli darajada oshmoqda. Milliy platformalar orqali amalga oshirilayotgan savdo operatsiyalari nafaqat ichki bozorni, balki xalqaro savdoni ham rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Biroq, mazkur jarayonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda (4-jadval).

2 Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
3 Manba: UNCTAD, World Bank va Statista ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

4- jadval. O'zbekistonda raqamli platformalar orqali savdo operatsiyalari va xavfsizlik ko'rsatkichlari[4]

| Platforma | Foydalanuvchilar soni (mln) | Yillik savdo hajmi (mln USD) | Firibgarlik holatlari (%) |
|---|---|---|---|
| Uzum Market | 3.5 | 150 | 2.8 |
| OLX | 2.8 | 90 | 3.2 |
| ZoodMall | 1.6 | 75 | 2.1 |
| E-auksion | 0.9 | 60 | 2.5 |
| Uztrade | 0.5 | 110 | 1.9 |

Mazkur jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli platformalar orqali savdo hajmi ortib borayotganiga qaramay, tranzaksiya xavfsizligi bilan bog'liq muammolar mavjud. Ayniqsa, firibgarlik holatlari va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq risklar iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar orqali savdo jarayonlarida iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat: kiberxavfsizlik darajasi, to'lov tizimlarining ishonchliligi, logistika va monitoring tizimlari, hamda normativ-huquqiy tartibga solish darajasi (5-jadval).

5- jadval. Raqamli platformalar orqali savdoda iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillar (baholash natijalari)[5]

| Omillar | Ta'sir darajasi (%) | Xavf darajasi | Izoh |
|---|---|---|---|
| Kiberxavfsizlik | 30 | Yuqori | Ma'lumotlar o'g'irlanishi xavfi |
| To'lov tizimlari | 25 | O'rta | Tranzaksiya firibgarligi |
| Logistika tizimi | 15 | O'rta | Yetkazib berish nazorati |
| Normativ baza | 20 | Yuqori | Tartibga solish yetarli emas |
| Platforma monitoringi | 10 | Past | Nazorat tizimi rivojlanmoqda |

Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash ko'p omilli jarayon bo'lib, u texnologik, institutsional va huquqiy mexanizmlarning o'zaro uyg'unligini talab etadi. Ayniqsa, kiberxavfsizlik va to'lov tizimlarining barqarorligi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli, raqamli platformalar faoliyatini samarali tartibga solish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarurati ortib bormoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib, xalqaro savdo jarayonlarining tezlashishi, tranzaksiya xarajatlarining kamayishi hamda bozorlar o'rtasidagi integratsiyaning kuchayishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, elektron savdo platformalari, raqamli to'lov tizimlari va logistika platformalarining rivojlanishi kichik va o'rta biznes subyektlariga xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Biroq, raqamli platformalar orqali xalqaro savdoning rivojlanishi bilan bir qatorda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kiberxavfsizlik tahdidlari, ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq xatarlar, noqonuniy moliyaviy operatsiyalar, raqamli platformalarda monopoliyalashuv tendensiyalari hamda normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada takomillashmaganligi iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston sharoitida raqamli platformalar orqali xalqaro savdoning rivojlanishi iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil bo'lsa-da, ularni tartibga solish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish va xavfsizlik mexanizmlarini kuchaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Shu sababli raqamli platformalar orqali xalqaro savdoda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan xalqaro savdo operatsiyalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida milliy darajada yagona raqamli monitoring tizimini joriy etish zarur. Mazkur tizim eksport-import operatsiyalarini real vaqt rejimida kuzatish, shubhali tranzaksiyalarni aniqlash va noqonuniy moliyaviy oqimlarning oldini olish imkonini beradi.

4 Manba: Ochiq ma'lumotlar va ekspert baholari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
5 Manba: Muallif tomonidan ekspert baholash asosida tuzilgan.

Ikkinchidan, kiberxavfsizlikni kuchaytirish maqsadida raqamli platformalar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlar asosida takomillashtirish lozim. Xususan, ma'lumotlarni himoya qilish, elektron tijoratda iste'molchilar huquqlarini ta'minlash hamda raqamli identifikatsiya tizimlarini rivojlantirish bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilishi kerak.

Uchinchidan, raqamli platformalarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun raqamli savdo, kiberxavfsizlik va moliyaviy texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish dasturlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu esa tadbirkorlarning raqamli muhitdagi xavfsizlik risklarini boshqarish imkoniyatlarini oshiradi.

To'rtinchidan, xalqaro tajribani inobatga olgan holda raqamli platformalar faoliyatini tartibga solishda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarur. Bu borada transchegaraviy ma'lumot almashinuvi, elektron tijorat standartlarini uyg'unlashtirish va raqamli savdoni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, O'zbekiston bank-moliya tizimida raqamli to'lov platformalari xavfsizligini ta'minlash hamda xalqaro moliyaviy operatsiyalarni shaffoflashtirish maqsadida sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish tavsiya etiladi. Mazkur texnologiyalar tranzaksiyalarni monitoring qilish, firibgarlik holatlarini aniqlash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli platformalar orqali xalqaro savdoning rivojlanishi iqtisodiy o'sish va innovatsion taraqqiyot uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, ushbu jarayonlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun kompleks yondashuv, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda samarali institutsional mexanizmlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Taklif etilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni amaliyotga joriy etish raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro savdo barqarorligini ta'minlash hamda milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**


1. World Bank. World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains. – Washington DC: World Bank Publications, 2020. – pp. 1–250.
2. UNCTAD. Digital Economy Report 2021: Cross-border Data Flows and Development. – Geneva: United Nations Publications, 2021. – pp. 15–180.
3. OECD. Digital Trade and Economic Security. – Paris: OECD Publishing, 2022. – pp. 10–145.
4. WTO. World Trade Report 2022: Climate Change and International Trade. – Geneva: World Trade Organization, 2022. – pp. 50–210.
5. Kshetri N. E-commerce and International Trade: Policy and Economic Implications. – New York: Springer, 2018. – pp. 25–160.
6. Bukht R., Heeks R. Digital Economy Policy in Developing Countries. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – pp. 40–170.
7. Tapscott D. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World. – New York: Penguin, 2019. – pp. 35–210.
8. Mesenbourg T. Measuring the Digital Economy. – Washington DC: U.S. Bureau of the Census, 2019. – pp. 5–90.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston to'lov tizimlari rivojlanishi bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2024.
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha statistik ma'lumotlar to'plami. – Toshkent, 2023.
11. Asian Development Bank. Asian Economic Integration Report 2023: Trade and Digitalization. – Manila: ADB Publications, 2023. – pp. 60–200.
12. UNESCAP. Digital Trade Facilitation in Asia and the Pacific 2022. – Bangkok: United Nations ESCAP, 2022. – pp. 20–150.
13. Porter M. Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 2018. – pp. 100–350.

# RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI VA ELEKTRON HISOB-KITOBLARNING YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI

**Norsafarov Bunyodshoh Muhiddinzoda**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
Email: norsafarovbunyod@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli to'lov tizimlari va elektron hisob-kitoblarning yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil va statistik ma'lumotlarni interpretatsiya qilish usullaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli to'lov tizimlarining joriy etilishi naqd pul muomalasini sezilarli darajada kamaytiradi, soliq tushumlarini oshiradi va iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini ta'minlaydi. Tadqiqot yakunida O'zbekiston sharoitida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli to'lov tizimlari, elektron hisob-kitoblar, yashirin iqtisodiyot, naqd pulsiz muomala, soliq tushumlari, moliyaviy shaffoflik.

Abstract. This article examines the mechanisms of digital payment systems and electronic settlements in reducing the share of the shadow economy. The research methodology employed literature analysis, comparative analysis, and statistical data interpretation methods. The results demonstrate that the implementation of digital payment systems significantly reduces cash circulation, increases tax revenues, and ensures transparency of economic operations. The study concludes with practical recommendations for reducing the shadow economy in the context of Uzbekistan.

Key words: digital payment systems, electronic settlements, shadow economy, cashless transactions, tax revenues, financial transparency.

Аннотация. В данной статье исследованы механизмы снижения доли теневой экономики посредством цифровых платёжных систем и электронных расчётов. В качестве методологии исследования использованы анализ литературы, сравнительный анализ и методы интерпретации статистических данных. Результаты показывают, что внедрение цифровых платёжных систем значительно сокращает наличный денежный оборот, увеличивает налоговые поступления и обеспечивает прозрачность экономических операций. В заключение исследования разработаны практические рекомендации по сокращению теневой экономики в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: цифровые платёжные системы, электронные расчёты, теневая экономика, безналичный оборот, налоговые поступления, финансовая прозрачность.

## KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida yashirin iqtisodiyot muammosi davlatlar uchun eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yashirin iqtisodiyot tushunchasi rasmiy statistikada hisobga olinmaydigan, soliqqa tortilmaydigan va davlat nazoratidan tashqarida amalga oshiriladigan barcha iqtisodiy faoliyatni o'z ichiga oladi [1]. Schneider va Enste tadqiqotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot ulushi yalpi ichki mahsulotning 25-40 foizini tashkil etishi mumkin, bu esa davlat byudjetiga sezilarli zarar yetkazadi va iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi [2]. O'zbekiston Respublikasida ham ushbu muammo dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, so'nggi yillarda hukumat tomonidan yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli to'lov tizimlari va elektron hisob-kitoblarning rivojlanishi yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Naqd pulsiz to'lovlarning kengayishi iqtisodiy operatsiyalarning

kuzatilishi va hisobga olinishini osonlashtiradi, soliq bazasini kengaytiradi hamda korrupsiyaga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Shu bois, ushbu tadqiqotning maqsadi raqamli to`lov tizimlari va elektron hisob-kitoblarning yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash va O`zbekiston sharoitida ularni takomillashtirish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, birinchi marta O`zbekiston misolida raqamli to`lov tizimlari va yashirin iqtisodiyot o`rtasidagi bog`liqlik kompleks tarzda tahlil qilingan hamda milliy iqtisodiyotning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amaliy tavsiyalar shakllantrilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashirin iqtisodiyot nazariyasi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan olimlardan F. Schneider yashirin iqtisodiyotning asosiy sabablarini soliq yuki, davlat tartibga solishining murakkabligi va ish bozori qoidalari bilan bog'lagan [2]. Uning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, naqd pul muomalasining yuqori darajasi yashirin iqtisodiyotning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratadi, chunki naqd operatsiyalarni kuzatish va nazorat qilish qiyin. Rogoff o'zining tadqiqotlarida naqd pulning iqtisodiy jinoyatchilik va soliqlardan qochishdagi rolini chuqur tahlil qilib, naqd pul muomalasini cheklash yashirin iqtisodiyotni kamaytirish uchun samarali vosita ekanligini isbotlagan [4]. Ushbu nazariy yondashuv raqamli to'lov tizimlarini rivojlantirish siyosatining ilmiy asosini tashkil etadi.

Rus olimlaridan Karatayev M.V. va Karatayeva O.G. o'zlarining tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida to'lov tizimlarining transformatsiyasini o'rganib, elektron to'lovlarning kengayishi davlat nazorati samaradorligini oshirishini ta'kidlaganlar [5]. Ularning fikriga ko'ra, raqamli to'lov platformalari transaksiyalar haqida to'liq ma'lumot to'plash imkoniyatini beradi, bu esa soliq organlariga iqtisodiy subyektlarning faoliyatini samarali nazorat qilish uchun zarur axborotni taqdim etadi. Shuningdek, Zubkov V.A. elektron hisob-kitoblarning pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashda muhim ahamiyatini ko'rsatib bergan [6].

O'zbek olimlari ham ushbu masalani o'rganishga sezilarli hissa qo'shganlar. Eshov M.P. o'zining tadqiqotlarida O'zbekistonda naqd pulsiz to'lovlar tizimining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilib, davlat siyosatining ushbu sohadagi ustuvor yo'nalishlarini belgilagan [7]. Tadqiqotchi ta'kidlashicha, O'zbekistonda naqd pulsiz to'lovlar ulushining ortishi bevosita yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishiga olib kelmoqda. Xalqaro tajribani tahlil qilgan holda, Hindiston, Shvetsiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning raqamli to'lov tizimlarini rivojlantirish bo'yicha tajribasi alohida e'tiborga molik. Ushbu mamlakatlarda naqd pulsiz to'lovlar ulushining keskin oshishi yashirin iqtisodiyot ulushining sezilarli kamayishiga olib kelganligi ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan [8].

Raqamli to'lov tizimlarining yashirin iqtisodiyotga ta'sir mexanizmlari bir nechta yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, elektron to'lovlar barcha transaksiyalarning raqamli izini qoldiradi, bu esa soliq organlariga iqtisodiy operatsiyalarni kuzatish imkonini beradi. Ikkinchidan, naqd pulsiz to'lovlar korrupsiyaviy operatsiyalarni amalga oshirishni qiyinlashtiradi, chunki pul mablag'larining harakati shaffof tarzda qayd etiladi. Uchinchidan, raqamli to'lov platformalari ma'lumotlar tahlili (big data analytics) texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradi, bu esa soliq qochishining murakkab sxemalarini aniqlash uchun muhim [9]. Ayni paytda, raqamli to'lov tizimlarining samaradorligi bir qator omillarga bog'liq ekanligi ham e'tirof etilishi lozim. Bular qatoriga aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligi, raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, huquqiy bazaning mukammalligi va aholi o'rtasida raqamli to'lovlarga ishonch darajasi kiradi [10].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni sintez qilish va interpretatsiya usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot obyekti sifatida raqamli to`lov tizimlari va yashirin iqtisodiyot o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik tanlangan. Ma'lumotlar manbai sifatida xalqaro moliya institutlari hisobotlari, ilmiy jurnallardagi maqolalar, O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistikasi hamda milliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tanlab olindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili va statistik ma'lumotlarni o`rganish natijasida raqamli to`lov tizimlari va yashirin iqtisodiyot o`rtasidagi bog`liqlikning bir qator muhim qonuniyatlari aniqlandi. Tahlil natijalariga ko`ra, naqd pulsiz to`lovlar ulushining oshishi va yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishi o`rtasida teskari korrelyatsiya mavjud ekanligi tasdiqlandi. Xalqaro tajriba shuni ko`rsatadiki, naqd pulsiz to`lovlar ulushi 70 foizdan oshgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot ulushi o`rtacha 15-20 foizni tashkil etadi, holbuki naqd pul muomalasi ustunlik qiladigan mamlakatlarda bu ko`rsatkich 30-40 foizga yetadi (1-jadval) [2].

1- jadval. Ayrim mamlakatlarda naqd pulsiz to'lovlar ulushi va yashirin iqtisodiyot ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili

| Mamlakatlar | Naqd pulsiz to'lovlar ulushi (%) | Yashirin iqtisodiyot ulushi (YalM %) | Raqamli infratuzilma darajasi |
|---|---|---|---|
| Shvetsiya | 93 | 12,8 | Juda yuqori |
| Janubiy Koreya | 89 | 19,8 | Juda yuqori |
| Buyuk Britaniya | 78 | 9,4 | Yuqori |
| Rossiya | 68 | 33,7 | O'rtacha |
| Qozog'iston | 62 | 26,2 | O'rtacha |
| O'zbekiston | 54 | 42,3 | O'rtacha past |
| Hindiston | 45 | 52,4 | Past |
| Pokiston | 28 | 56,1 | Past |

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli infratuzilma rivojlangan va naqd pulsiz to'lovlar ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot ulushi sezilarli darajada past. Shvetsiya misoli alohida e'tiborga molik bo'lib, ushbu mamlakatda naqd pulsiz to'lovlar ulushi 93 foizni tashkil etadi va yashirin iqtisodiyot ulushi atigi 12,8 foizdir. Aksincha, naqd pul muomalasi ustunlik qiladigan Pokistonda yashirin iqtisodiyot ulushi 56 foizdan oshadi. O'zbekiston ko'rsatkichlarini tahlil qilganda, mamlakatimizda naqd pulsiz to'lovlar ulushi 54 foizni tashkil etishi va yashirin iqtisodiyot ulushining 42,3 foiz darajasida bo'lishi kuzatiladi, bu esa raqamli to'lov tizimlarini yanada rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi.

Raqamli to'lov tizimlarining yashirin iqtisodiyotni kamaytirish mexanizmlarini chuqurroq tushunish uchun ularning ta'sir kanallari alohida tahlil qilindi. Birinchi va eng muhim kanal transaksiyalarning shaffofligi hisoblanadi. Elektron to'lov tizimlarida har bir operatsiya raqamli shaklda qayd etiladi va ma'lum vaqt davomida saqlanadi. Bu ma'lumotlar soliq organlariga iqtisodiy subyektlarning daromadlari va xarajatlarini taqqoslash, soliq bazasini aniq hisoblash imkonini beradi [4]. Ikkinchi muhim kanal avtomatlashtirilgan soliqqa tortish mexanizmlaridir. Zamonaviy raqamli platformalar soliqlarni avtomatik hisoblash va undirish imkoniyatini beradi, bu esa soliq ma'muriyatining samaradorligini oshiradi va soliqlardan qochish holatlarini kamaytiradi. Uchinchi kanal big data tahlilidan foydalanish bo'lib, raqamli to'lov tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish imkonini beradi, bu esa yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlash uchun muhim vosita hisoblanadi (2-jadval) [9].

2- jadval. Raqamli to'lov tizimlarining yashirin iqtisodiyotni kamaytirish mexanizmlari va ularning samaradorlik darajasi

| Mexanizm | Ta'sir yo'nalishi | Samaradorlik darajasi | Amalga oshirish murakkabligi |
|---|---|---|---|
| Transaksiyalar shaffofligi | Barcha operatsiyalarning raqamli qayd etilishi | Yuqori | O'rtacha |
| Avtomatik soliq hisoblash | Soliq bazasining aniq belgilanishi | Yuqori | Yuqori |
| Big data tahlili | Yashirin operatsiyalarni aniqlash | Juda yuqori | Juda yuqori |
| Naqd pulni cheklash | Yashirin operatsiyalar uchun vositani qisqartirish | O'rtacha | Past |
| Moliyaviy inklyuziya | Norasmiy sektorni rasmiylashtirish | Yuqori | O'rtacha |
| Raqamli identifikatsiya | Iqtisodiy subyektlarni aniq aniqlash | Yuqori | Yuqori |

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, big data tahlili eng samarali mexanizm hisoblanadi, biroq uning amalga oshirilishi eng murakkab. Naqd pulni cheklash mexanizmi nisbatan oson amalga oshiriladi, ammo uning samaradorligi o'rtacha darajada. O'zbekiston sharoitida moliyaviy inklyuziya mexanizmiga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki mamlakatda norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyektlar ulushi yuqori va ularni rasmiy moliyaviy tizimga jalb qilish yashirin iqtisodiyotni sezilarli darajada qisqartirishi mumkin.

O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamli to'lov tizimlarini rivojlantirish bo'yicha muhim qadamlar tashlangan. «Humo», «UzCard», «CLICK», «Payme» kabi milliy to'lov tizimlari keng tarqalgan va aholining aksariyat qismi ulardan foydalanmoqda. Markaziy bank statistikasiga ko'ra, naqd pulsiz to'lovlar hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda [7]. Biroq, raqamli to'lov tizimlarining to'liq salohiyatini amalga oshirish uchun bir qator chora-tadbirlarni ko'rish zarur. Birinchidan, raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish, ayniqsa qishloq joylarda internet

va mobil aloqa qamrovini kengaytirish lozim. Ikkinchidan, aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli dasturlarni amalga oshirish zarur. Uchinchidan, soliq organlarining analitik imkoniyatlarini kuchaytirish, big data texnologiyalarini joriy etish lozim. To'rtinchidan, elektron hisob-kitoblarni rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari va preferensiyalar tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Raqamli to'lov tizimlarining yashirin iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilishda yana bir muhim jihat shundaki, elektron to'lovlar nafaqat soliq organlariga nazoratni osonlashtiradi, balki iqtisodiy subyektlarning o'zlarida ham rasmiy faoliyat yuritishga undaydigan motivatsiya yaratadi. Tadbirkorlar raqamli to'lov tizimlaridan foydalanganda, ularning moliyaviy tarixi shakllanadi, bu esa bank kreditlaridan foydalanish, davlat tender va grantlarida ishtirok etish, xalqaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish uchun muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, iste'molchilar tomonidan naqd pulsiz to'lovlarni afzal ko'rish tendensiyasining kuchayishi tadbirkorlarni rasmiy hisob-kitoblarni yuritishga majbur qiladi, chunki faqat naqd pulda ishlash mijozlar bazasining qisqarishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida, bozorda raqobat muhitini o'zgartiradi va rasmiy sektorda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun qulayroq sharoit yaratadi.

O'zbekistonda raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi bilan bog'liq yana bir muhim tendensiya shundaki, mobil to'lov ilovalari orqali amalga oshirilayotgan transaksiyalar hajmining keskin o'sishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida kontaktsiz to'lovlarga bo'lgan talab sezilarli darajada oshdi va bu tendensiya pandemiyadan keyingi davrda ham saqlanib qoldi. Mobil to'lov ilovalarining qulayligi, tezkorligi va xavfsizligi aholi o'rtasida ularning ommalashuviga sabab bo'lmoqda. Biroq, raqamli to'lov tizimlarining to'liq salohiyatini amalga oshirish uchun qishloq joylarda internet infrastrukturasini rivojlantirish, keksa yoshdagi aholi o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirish va kichik biznes subyektlarini raqamli to'lov terminallarini o'rnatishga rag'batlantirish kabi masalalar hal etilishi lozim. Shuningdek, raqamli to'lovlar xavfsizligini ta'minlash, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha huquqiy bazani yanada mustahkamlash zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib aytganda, raqamli to'lov tizimlari va elektron hisob-kitoblar yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish uchun samarali vosita ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, naqd pulsiz to'lovlar ulushining oshishi va yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Raqamli to'lov tizimlarining asosiy ta'sir mexanizmlari sifatida transaksiyalar shaffofligi, avtomatlashtirilgan soliqqa tortish, big data tahlili va moliyaviy inklyuziya alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish, aholi moliyaviy savodxonligini oshirish, soliq organlarining analitik imkoniyatlarini kuchaytirish va elektron to'lovlarni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish zarur. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan tavsiyalar O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatini takomillashtirishda foydalanilishi mumkin. Kelgusida raqamli to'lov tizimlarining alohida tarmoqlar va mintaqalar kesimida yashirin iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Tanzi V. The underground economy in the United States: annual estimates, 1930-1980 // IMF Staff Papers. – 1983. – Vol. 30. – No. 2. – P. 283-305.
2. Schneider F., Enste D.H. Shadow economies: size, causes, and consequences // Journal of Economic Literature. – 2000. – Vol. 38. – No. 1. – P. 77-114.
3. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. – Тошкент, 2017.
4. Rogoff K.S. The curse of cash: how large-denomination bills aid crime and tax evasion and constrain monetary policy. – Princeton University Press, 2016. – 283 p.
5. Каратаев М.В., Каратаева О.Г. Трансформация платежных систем в условиях цифровой экономики // Финансы и кредит. – 2019. – Т. 25. – № 7. – С. 1589-1601.
6. Зубков В.А. Противодействие легализации доходов и финансированию терроризма. – М.: Юристъ, 2020. – 240 с.
7. Эшов М.П. Ўзбекистонда нақд пулсиз тўловлар тизимини ривожлантириш истиқболлари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2021. – № 3. – Б. 45-56.
8. World Bank Group. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. – Washington, DC: World Bank, 2022.
9. Manyika J., Chui M., Brown B. Big data: the next frontier for innovation, competition, and productivity. – McKinsey Global Institute, 2011. – 156 p.
10. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Тўлов тизимлари ва рақамли молиявий хизматлар бўйича йиллик ҳисобот. – Тошкент, 2023.

# PROSPECTIVE INDICATORS FOR MANAGING THE LEGALIZATION OF THE INFORMAL SECTOR AND INFORMAL EMPLOYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Qoraboyev Nuriddin Pardaboy o'g'li**
Tashkent International University of Financial Management and Technologies
Senior Lecturer of "Economics and Management"
Independent Researcher at the International Nordic University
Email: qoraboyev.nuriddin@mail.ru

Abstract. This article presents prospective indicators and research findings on managing the informal sector and legalizing informal employment in the Republic of Uzbekistan. It also includes proposals and conclusions on these topics.

Key words: Labor market, informal sector, informal employment, taxation, newly established enterprises, volume of consumer goods production.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida norasmiy sektorni boshqarish va norasmiy bandlikni legallashtirish bo'yicha istiqbolli ko'rsatkichlar hamda tadqiqot natijalari keltirilgan. Shuningdek, mazkur masalalar yuzasidan takliflar va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, norasmiy sektor, norasmiy bandlik, soliqqa tortish, yangi tashkil etilgan korxonalar, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi.

Аннотация. В статье представлены перспективные показатели и результаты исследований по управлению неформальным сектором и легализации неформальной занятости в Республике Узбекистан. Также приведены предложения и выводы по данным вопросам.

Ключевые слова: рынок труда, неформальный сектор, неформальная занятость, налогообложение, вновь созданные предприятия, объём производства потребительских товаров.

## INTRODUCTION

In the economy of the Republic of Uzbekistan, the informal economy, shadow economy, hidden economy, and population employed in the informal sector are considered important, meaning we can observe economic trends for which exact figures are not available. The goal is to achieve a growth trend in self-employment and the scale of the formal sector by managing the legalization of the informal sector in our country. Managing the legalization of the informal sector helps increase the country's economic efficiency, enforce legislation, as well as improve law enforcement systems and measures. However, misunderstanding the management system may negatively affect the current state of the informal sector.

The Law of the Republic of Uzbekistan No. 847 "On Amendments and Additions to Certain Legislative Acts of the Republic of Uzbekistan Aimed at Reducing Informal Employment," signed by President Sh. Mirziyoyev on June 16, 2023, establishes the implementation of large-scale reforms as one of the priority tasks. These reforms aim to ensure employment and further strengthen social protection for the country's population, reduce the share of informal employment, and provide comprehensive support for self-employed individuals. This article serves, to a certain extent, to facilitate the implementation of the tasks defined in this law.

Despite the high rates of economic growth in our country, the impact of employment in the informal sector and the shadow economy on various economic sectors persists. There are factors influencing the level of the informal sector in the labor market, and an econometric analysis of these influencing factors was developed using statistical data.

Summarizing the results, we can conclude that by increasing the number of enterprises and organizations in the Republic, it is possible to increase the number of economically active population, thereby reducing the number of people employed in the informal sector.

## REVIEW OF LITERATURE ON THE SUBJECT

The issue of informal sector management and the legalization of informal employment has been extensively examined in international economic literature, particularly within the context of developing and transition economies. International Labour Organization has played a central role in conceptualizing informal employment and developing policy frameworks for its formalization. In its analytical reports, the organization emphasizes that informality is not merely a labor market anomaly but a structural feature linked to institutional weaknesses, regulatory burdens, and limited access to formal economic opportunities.

The theoretical foundations of the informal sector were significantly shaped by the work of Hernando de Soto, who argued that excessive regulation and weak property rights systems are key drivers of informality. In his research, particularly highlighted in 1989, he demonstrated that informal economic activities often emerge as rational responses of individuals to inefficient institutional environments. This perspective is further supported by Friedrich Schneider, whose empirical studies on the shadow economy across multiple countries reveal that high tax burdens, overregulation, and corruption significantly expand the size of informal activities.

From a labor market perspective, Guy Standing emphasizes the growing prevalence of precarious employment and its connection to informal labor structures. His research underscores that informal employment is closely associated with income insecurity, lack of social protection, and limited labor rights. Similarly, Janine Berg highlights the importance of institutional reforms and labor market policies in transitioning workers from informal to formal employment, stressing the role of social protection systems and inclusive labor regulations.

The macroeconomic implications of informality have also been widely explored. World Bank studies indicate that a large informal sector constrains fiscal capacity, reduces tax revenues, and weakens public service delivery. According to analytical reports published in 2019, reducing informality requires a comprehensive approach that combines regulatory simplification, improved governance, and incentives for formal business activity. In addition, International Monetary Fund research demonstrates that digitalization and financial inclusion are critical tools for formalizing economic activities, particularly in emerging economies.

In recent years, the role of digital technologies in reducing informality has gained increasing attention. Andrei Shleifer and Rafael La Porta, in their institutional economics research, argue that strengthening formal institutions and improving transparency are essential for reducing informal practices. Their findings suggest that legal enforcement mechanisms and simplified business registration processes significantly contribute to the expansion of the formal sector.

In the context of Uzbekistan, recent studies by international organizations and national researchers emphasize the importance of institutional reforms, tax policy modernization, and digital governance in managing the informal sector. The integration of electronic tax systems, online registration platforms, and digital payment infrastructures has been identified as a key factor in encouraging the transition from informal to formal employment. These approaches align with global best practices and demonstrate the growing role of prospective indicators in forecasting and managing the dynamics of informal sector legalization.

Overall, the literature suggests that effective management of informal sector legalization requires a multidimensional approach that combines institutional reforms, labor market policies, digital transformation, and economic incentives. The use of prospective indicators allows policymakers to anticipate trends in informal employment and design targeted interventions aimed at its gradual formalization.

## RESEARCH METHODOLOGY

The study relies on secondary data obtained from official statistics of Uzbekistan, as well as reports from the International Labour Organization, World Bank, and national agencies. Quantitative indicators of informal employment are analyzed using comparative, trend, and econometric methods, including correlation and regression analysis. Additionally, qualitative assessment is applied to evaluate institutional factors influencing the legalization of the informal sector.

## ANALYSIS AND RESULTS

To reduce informal employment in the Republic of Uzbekistan, we will implement a multi-factor forecast of the volume of consumer goods production per capita, the average annual rate of personal income tax, and the number of newly established enterprises and organizations. For this purpose, we will first analyze the change in informal employment based on the following multifactorial regression equation:

$$Y = \frac{X1^{0,0084} * X2^{0,105} * e^{9,8}}{X3^{0,13}} \quad (2^*)$$

and from the system of equations for each factor involved in this equation, depending on the time t=15:

- volume of consumer goods production per capita

$$X1 = -141 + 353,3 * t;$$

- average annual rate of personal income tax

$$X2 = 106,65 + 0,396 * t;$$

- number of newly established enterprises and organizations

$$X3 = 9227 + 5991 * t.$$

Using their calculations as inputs for the main regression equation, multifactorial forecast indicators of informal employment are determined (Table 1).

Table 1. Projections for 2025–2030 of the number of people employed in the informal sector of the labor market in the Republic of Uzbekistan and indicators of influencing factors

| Years | Y | $X_1$ | $X_2$ | $X_3$ |
|---|---|---|---|---|
| 2025 | 5522 | 5797 | 10,4852 | 105083 |
| 2026 | 5462 | 6150,5 | 10,0874 | 111074 |
| 2027 | 5405 | 6504 | 9,6896 | 117065 |
| 2028 | 5349 | 6857,5 | 9,2918 | 123056 |
| 2029 | 5294 | 7211 | 8,894 | 129047 |
| 2030 | 5239 | 7564,5 | 8,4962 | 135038 |

According to the table data, by 2030, the number of informal workers is expected to decrease by 23 percent compared to 2024. This can be achieved by increasing the production volume of consumer goods per capita by 67 percent compared to the base year and increasing the number of newly established enterprises and organizations by 55,371. Based on the research results, the average annual rate of personal income tax is projected to decrease by 29.1 percent (Figure 1).





Figure 1. Projections for 2025–2030 of informal sector employment in the labor market of the Republic of Uzbekistan and indicators of influencing factors

## CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS

1. It is expected that the production volume of consumer goods per capita in the Republic of Uzbekistan will increase by 67 percent, reaching 7,564,500 soums. This will significantly boost the production volume in the country and substantially increase the demand for labor resources. As a result, informal employment in

the unofficial sector of the republic will decrease, and the share of revenue from value-added tax will increase considerably.

2. It is expected that the number of newly established enterprises and organizations in our republic will reach 135,038 by 2030, increasing by 69.5% compared to 2024. This, in turn, will lead to the creation of new jobs and a significant increase in average monthly wages. As a result, the informal sector will shrink, and informal employment will decrease as workers transition to formal jobs. According to the model we propose, due to the increase in the number of newly established enterprises and organizations, the number of people employed in the informal sector in our republic will decrease by 882,778.

3. Informal employment in the informal sector is expected to decrease by 23% by 2030 compared to 2024. Such a result can be achieved by creating new jobs in the republic, further supporting entrepreneurs, and removing obstacles to the formalization of the informal sector operating in the republic. With a 1% reduction in personal income tax, 713,013 informal workers are expected to transition to formal employment. This, in turn, is explained by the fact that the increase in additional income tax revenues to the state budget from these 713,013 workers will be greater than the amount that decreased by 1%.

4. Increasing the level of economic activity of the population by 1 percent will enable a reduction in informal employment by 251 thousand people. This, in turn, will lead to an increase in tax revenues and a clearer view of the population's real incomes. Therefore, we believe it is necessary to develop measures to increase the economic activity of the population in the republic.

5. According to our calculations, a 1% increase in the number of enterprises and organizations operating in our republic would lead to a reduction of more than 10,000 informal payments. In recent years, significant attention has been given to supporting entrepreneurship in our country. As a result, the number of business entities has increased substantially. It is necessary to further intensify measures to create an even more favorable environment for entrepreneurs and alleviate their tax burden.

6. The reduction of informal employment in the republic is implemented based on the results of developed unofficial projections. The obtained results indicate that by 2030, the number of people employed in the informal sector in Uzbekistan is expected to decrease by 2,254,780 compared to 2024, totaling 4,535,817 individuals.

**List of used literature:**

1. https://www.uzdaily.uz/ World Economic Forum (WEF).
2. National Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. www.stat.uz.
3. Ministry of Employment and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. www.mehnat.uz
4. International Labour Organization. Women and Men in the Informal Economy: A Statistical Picture. Geneva. 2018.
5. Hernando de Soto. The Other Path: The Invisible Revolution in the Third World. New York: Harper & Row. 1989.
6. Friedrich Schneider. Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years? IMF Working Paper. 2012.
7. Guy Standing. The Precariat: The New Dangerous Class. London: Bloomsbury Academic. 2011.
8. Janine Berg. Labour Market Institutions and Informality. International Labour Review. 2010.
9. World Bank. Informality: Why Is It So Widespread and How Can It Be Reduced? Washington, D.C. 2019.
10. International Monetary Fund. Digitalization and Informality. Washington, D.C. 2018.
11. Rafael La Porta, Andrei Shleifer. Informality and Development. Journal of Economic Perspectives. 2014.

# YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO'RSATILAYOTGAN BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING RAQAMLI YO'NALISHLARI

**To'patillayeva Gulnoza Sirojiddin qizi**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Moliya, pul muomalasi va kredit" tayanch doktoranti
Email: gulnozatupatillayeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda tijorat banklari tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini takomillashtirishning raqamli yo'nalishlari statistik va institutsional tahlil asosida o'rganildi. 2025-yil 1-iyun holatiga ko'ra mamlakatda 63,8 million dona, 1-noyabr holatiga esa 65,04 million dona bank kartasi muomalada ekani qayd etilgan. Bank kartalari sonining ortishi, to'lov terminallari tarmog'ining kengayishi hamda mobil bank xizmatlarining rivojlanishi iqtisodiy operatsiyalarni rasmiy sektorga olib chiqishda muhim omil sifatida baholandi. Tadqiqot davomida tijorat banklari xizmatlarini raqamlashtirish, masofaviy identifikatsiya tizimlari, tranzaksiyalar monitoringi va normativ-huquqiy mexanizmlar yashirin iqtisodiyotni qisqartirish vositasi sifatida tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim institutsional yo'nalishi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, bank xizmatlari, yashirin iqtisodiyot, raqamli to'lovlar, iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy inklyuziya, bank kartalari.

Abstract. This scientific article examines the digital directions for improving banking services provided by commercial banks to the population in reducing the scale of the shadow economy in Uzbekistan, based on statistical and institutional analysis. As of June 1, 2025, the number of bank cards in circulation amounted to 63.8 million, while by November 1 it reached 65.04 million. The growth in the number of bank cards, the expansion of the payment terminal network, and the development of mobile banking services are assessed as significant factors in integrating economic transactions into the formal sector. The study analyzes the digitalization of banking services, remote identification systems, transaction monitoring mechanisms, and regulatory frameworks as effective tools for reducing the shadow economy. The results demonstrate that the modernization of banking services represents an important institutional direction for ensuring economic security.

Key words: commercial banks, banking services, shadow economy, digital payments, economic security, financial inclusion, bank cards.

Аннотация. В данной научной статье на основе статистического и институционального анализа рассматриваются цифровые направления совершенствования банковских услуг, предоставляемых коммерческими банками населению, в целях сокращения масштабов теневой экономики в Узбекистане. По состоянию на 1 июня 2025 года количество банковских карт в обращении составило 63,8 млн единиц, а к 1 ноябрю — 65,04 млн. Рост числа банковских карт, расширение сети платежных терминалов и развитие мобильных банковских услуг оцениваются как важные факторы перевода экономических операций в официальный сектор. В ходе исследования цифровизация банковских услуг, системы дистанционной идентификации, мониторинг транзакций и нормативно-правовые механизмы рассматриваются как инструменты сокращения теневой экономики. Полученные результаты показывают, что модернизация банковских услуг является важным институциональным направлением обеспечения экономической безопасности.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковские услуги, теневая экономика, цифровые платежи, экономическая безопасность, финансовая инклюзия, банковские карты.

## KIRISH

Yashirin iqtisodiyot har qanday davlat iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa hisoblanadi. Rasmiy statistikada aks etmaydigan daromadlar, soliqqa tortilmaydigan operatsiyalar va naqd pul aylanmasining yuqori ulushi davlat byudjeti barqarorligiga, soliq siyosati samaradorligiga va makroiqtisodiy muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois zamonaviy iqtisodiy siyosatda yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va naqdsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-noyabr holatiga bank kartalari soni 65,04 million donani tashkil etgan. [1]Ushbu ko'rsatkich aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati va ko'lami nafaqat bank tizimining raqobatbardoshligini belgilaydi, balki iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, mobil bank xizmatlari, onlayn to'lovlar, QR to'lov tizimlari va masofaviy identifikatsiya texnologiyalari naqd pul aylanmasini qisqartirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – tijorat banklari tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish mexanizmlarini ilmiy asoslashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish va uni legallashtirish masalasi iqtisodiy fanlarda keng o'rganilgan bo'lib, ayniqsa moliyaviy tizim va bank xizmatlarining rivojlanishi ushbu jarayonda muhim institutsional omil sifatida qaraladi. Friedrich Schneider yashirin iqtisodiyot hajmini aniqlash va uning determinantlarini tahlil qilish bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan bo'lib, u soliq yukining yuqoriligi, institutsional ishonchning pastligi hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi yashirin iqtisodiyotning kengayishiga olib kelishini ta'kidlaydi 2015. Uning ilmiy ishlari yashirin iqtisodiyot va rasmiy moliya tizimi o'rtasidagi teskari bog'liqlik mavjudligini asoslab beradi.

Medina va Schneider tomonidan 2018-yilda olib borilgan tadqiqotlarda esa dunyoning turli mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot ulushi va unga ta'sir etuvchi omillar kompleks baholangan. Ular bank tizimining rivojlanishi va raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi yashirin iqtisodiyot hajmini sezilarli darajada qisqartirishini empirik jihatdan isbotlaydi. Ayniqsa, naqd pulsiz hisob-kitoblarning kengayishi iqtisodiy operatsiyalar shaffofligini oshiradi va soliq bazasini kengaytiradi.

Raqamli moliyaviy xizmatlarning aholi tomonidan qabul qilinishi va foydalanilishi masalasi bo'yicha Demirgüç-Kunt, Klapper va Singer tomonidan Global Findex ma'lumotlari asosida olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Ular 2021-yilda moliyaviy inklyuziya darajasining oshishi nafaqat iqtisodiy faollikni kengaytirishini, balki norasmiy iqtisodiyot ulushini kamaytirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Mualliflarning fikricha, mobil banking, elektron hamyonlar va onlayn to'lov tizimlari orqali aholining moliyaviy xizmatlarga kirishi osonlashadi va bu rasmiy iqtisodiyotga integratsiyani tezlashtiradi.

Shuningdek, Beck, Demirgüç-Kunt va Levine tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinib, bank tizimi orqali resurslarning samarali taqsimlanishi iqtisodiyotning rasmiy sektorini kengaytirishga xizmat qilishi ta'kidlangan 2007. Ularning ilmiy ishlari bank xizmatlari sifatining oshishi va kreditlash imkoniyatlarining kengayishi kichik biznes va aholi daromadlarining legallashtirilishiga olib kelishini asoslaydi.

Raqamli transformatsiya va bank xizmatlari integratsiyasi masalasi Arner, Barberis va Buckley tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, ular FinTech texnologiyalarining rivojlanishi moliyaviy xizmatlarni demokratlashtirishi va norasmiy iqtisodiy faoliyatni qisqartirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi 2016. Ularning tadqiqotlarida raqamli identifikatsiya, blokcheyn va sun'iy intellekt asosidagi moliyaviy xizmatlar iqtisodiy operatsiyalarni nazorat qilish va monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirishi qayd etilgan.

O'zbekiston sharoitida ham ushbu yo'nalish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Tashmuxamedova Y. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimi xavfsizligini ta'minlash va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda bank xizmatlarining roli yoritilgan 2024. Muallif raqamli to'lov tizimlari va bank xizmatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy operatsiyalarni rasmiylashtirish jarayonini tezlashtirish mumkinligini asoslaydi.

Bundan tashqari, Jahon banki tomonidan e'lon qilingan tadqiqotlarda raqamli moliyaviy xizmatlar va iqtisodiy shaffoflik o'rtasidagi bog'liqlik alohida ta'kidlanadi 2023. Ushbu tadqiqotlarga ko'ra, raqamli bank xizmatlari, ayniqsa, elektron to'lov tizimlari va masofaviy bank xizmatlari aholining rasmiy moliyaviy tizimga jalb etilishini kuchaytiradi va yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirishga xizmat qiladi.

1 Markaziy bank O'zbekiston. (2025). Bank kartalari va to'lov infratuzilmasi statistikasi (1-noyabr holati).

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqamli yo'nalishda takomillashtirilishi yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda muhim vosita hisoblanadi. Xususan, mobil banking, masofaviy identifikatsiya, elektron to'lov tizimlari va raqamli kreditlash mexanizmlarining rivojlanishi iqtisodiy operatsiyalarni shaffoflashtirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hamda aholi va biznes subyektlarini rasmiy iqtisodiyotga jalb etishda muhim rol o'ynaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tijorat banklari xizmatlarining raqamlashtirilishi va yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishga ta'siri statistik va institutsional tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar va yondashuvlarni o'z ichiga oladi:

1. Statistik tahlil metodlari – O'zbekiston Markaziy banki va tijorat banklarining 2025-yil iyun va noyabr holatiga oid bank kartalari, to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar asosida bank kartalari sonining dinamikasi, ulushlarni aniqlash va xizmatlar taqsimotini o'rganish imkoniyati yaratildi. Masalan, bank ulushi quyidagi formula orqali hisoblandi:

Ulush (%)=(Umumiy kartalar soni/Bank kartalari soni)×100(%)

Bu usul orqali davlat va tijorat banklari segmentidagi ulushlarni aniqlash va bozor strukturasini tahlil qilish amalga oshirildi.

2. Solishtirma tahlil – 2025-yil 1-iyun va 1-noyabr holatlaridagi bank kartalari soni, terminallar va boshqa infratuzilma ko'rsatkichlari solishtirildi. Bu metod yordamida tijorat banklari xizmatlarining o'sish sur'atlari va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga ta'siri aniqlandi.
3. Institutsional tahlil – Bank xizmatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy mexanizmlar, jumladan:
   - bitta shaxsga to'g'ri keladigan bank kartalari sonini cheklash;
   - virtual va cobrending kartalarni monitoring qilish;
   - tranzaksiyalarni shaffoflashtirish mexanizmlari;
   - mobil va onlayn bank xizmatlarini joriy etish;

   tahlil qilindi. Ushbu yondashuv tijorat banklarining yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional samaradorligini baholash imkonini berdi.
4. Korrelyatsion va dinamik tahlil – Bank kartalari soni, terminallar va tushum ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Bu usul yordamida tijorat banklari xizmatlarining raqamlashtirilishi va iqtisodiy operatsiyalarni rasmiy sektorga chiqarish jarayonidagi samaradorlik aniqlangan.
5. Ekspert va komparativ baholash – Moliyaviy ekspertlarning tajribasi va xalqaro moliya institutlari (World Bank, OECD) tavsiyalari asosida O'zbekiston bank tizimidagi raqamli xizmatlarni takomillashtirish imkoniyatlari baholandi. Shuningdek, tadqiqotda quyidagi integratsion metodologik printsiplar qo'llanildi: sistemali yondashuv, indikatorlar monitoringi, ekonometrik prognozlash, va normativ-huquqiy solishtirma tahlil. Ushbu metodlar birgalikda tijorat banklarining xizmatlarini modernizatsiya qilish, raqamli to'lov tizimlarini kengaytirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish mexanizmlarini tizimli o'rganish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida O'zbekiston tijorat banklari tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari va bank kartalari soni, shuningdek, to'lov infratuzilmasi ko'rsatkichlari tizimli tarzda o'rganildi. 2025-yil 1-iyun holatiga mamlakatda muomalada 63,8 mln dona bank kartasi mavjud bo'lgan bo'lsa, 1-noyabr holatiga bu ko'rsatkich 65,04 mln donaga yetdi[2]. Ushbu ortish, asosan, davlat banklari (Xalq banki, Agrobank) va yirik tijorat banklarida kuzatildi.Bank kartalari soni bo'yicha yetakchi banklar ro'yxati va ularning umumiy bozor ulushi quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval):

1- jadval. 2025-yil 1-iyun holatiga O'zbekistondagi bank kartalari taqsimoti (mln dona va ulush %)[3]

| Bank nomi | Kartalar soni (mln) | Ulushi (%) | Izoh |
|---|---|---|---|
| Xalq banki | 9,98 | 15,6 | Davlat banki, ijtimoiy to'lovlar uchun asosiy platforma |
| Agrobank | 6,5 | 10,2 | Davlat banki, barcha to'lov tizimlaridagi kartalar |
| Ipoteka bank | 4,98 | 7,8 | OTP Groupga sotilgan tijorat banki |
| TBC Bank | 4,89 | 7,6 | Raqamli xizmatlar tez rivojlanmoqda |

2 Pinkod.uz (2025, 12-noyabr). *O'zbekistonda bank kartalari soni 65 milliondan oshdi*.
3 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 1-iyun holatiga bank kartalari bo'yicha statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

| Bank nomi | Kartalar soni (mln) | Ulushi (%) | Izoh |
|---|---|---|---|
| Octobank | 4,69 | 7,3 | Kobrending kartalar bilan ishlash to'xtagan |
| O'zmilliybank (NBU) | 4,15 | 6,5 | Katta korporativ mijozlar bilan ishlaydi |
| Hamkorbank | 3,4 | 5,3 | Humo, Uzcard va Visa kartalarini bepul chiqaradi |
| Ipak yo'li banki | 3,3 | 5,2 | Bepul bank kartalari, yoshlar va ayollar uchun maxsus kartalar |
| Anorbank | 3,14 | 4,9 | Raqamli xizmatlarga urg'u, onlayn yetkazib berish |
| O'zsanoatqurilishbank (SQB) | 2,8 | 4,4 | Barqaror davlat banki, barcha asosiy to'lov tizimlarida kartalar |
| Boshqa banklar | 14,96 | 23,5 | Kichik va o'rta tijorat banklari |

Tahlil shuni ko'rsatadiki, davlat banklari va yirik tijorat banklari bozorning qariyb 40 foizini egallaydi. Bu esa ularning yashirin iqtisodiyotga ta'sirini sezilarli darajada oshiradi.

Bank kartalari sonining dinamikasi. 2025-yil 1-iyun va 1-noyabr holatidagi ma'lumotlar solishtirilganda, bank kartalari sonining o'sish sur'atlari turlicha bo'lgan (2-jadval):

2- jadval. 2025-yil iyun–noyabr oylari bo'yicha bank kartalari sonining o'zgarishi (mln dona)[4]

| Bank nomi | 1-iyun (mln) | 1-noyabr (mln) | O'zgarish (mln) | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| Xalq banki | 9,98 | 9,7 | -0,28 | Ijtimoiy to'lovlar jarayonidagi optimizatsiya |
| Agrobank | 6,5 | 6,6 | +0,1 | Davlat va onlayn xizmatlar kengayishi |
| Ipoteka bank | 4,98 | 5,2 | +0,22 | Tijorat banki sifatida o'sish sur'atlari |
| Milliy bank | 4,15 | 4,3 | +0,15 | Korporativ mijozlar sonining oshishi |
| TBC Bank | 4,89 | 4,2 | -0,69 | Raqamli platformalarga o'tish jarayoni |
| Uzum Bank | 3,7 | 3,7 | 0 | Stabil o'sish |
| Hamkorbank | 3,4 | 3,6 | +0,2 | Humo va Visa xizmatlarining kengayishi |
| Boshqa banklar | 24,3 | 26,34 | +2,04 | Kichik va o'rta tijorat banklarining faoliyati |

Natijalardan ko'rinib turibdiki, bank kartalari sonining o'sishi ayniqsa, Agrobank, Ipoteka bank va Hamkorbankda yuqori. Xalq bankida esa ijtimoiy to'lovlarni optimallashtirish natijasida biroz kamayish kuzatilgan.

To'lov terminallari va bankomatlar

Tijorat banklari xizmatlarining yashirin iqtisodiyotga ta'sirini aniqlashda, to'lov terminallari va bankomatlar tarmog'i asosiy ko'rsatkich sifatida olingan (3-jadval).

3- jadval. To'lov infratuzilmasi (2025-yil)[5]

| Ko'rsatkich | Miqdor | Yetakchi bank |
|---|---|---|
| To'lov terminallari soni | 51 346 | Hamkorbank |
| Terminallar orqali tushum | 359,9 trln so'm | Aloqabank |
| Bankomat va infokiosklar | 22 708 | To'lov tashkilotlari |
| Bir kishiga to'g'ri keladigan karta | 1,5 | O'rtacha mamlakat bo'yicha |

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, to'lov terminallari va bankomatlar tarmog'ining kengayishi nafaqat xizmatlar ko'lamini oshiradi, balki iqtisodiy operatsiyalarni rasmiylashtirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish imkoniyatini yaratadi.

Davlat banklari va yirik tijorat banklari bozorning asosiy qismini egallab, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda strategik rol o'ynaydi.

Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi, shuningdek, kartalar sonini va tranzaksiyalarni monitoring qilish mexanizmlari yashirin iqtisodiyot ko'lamini

4 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 1-iyun va 1-noyabr holatiga rasmiy statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan solishtirma tahlil natijalari

5 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda tijorat banklarining yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan

Natijalar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston tijorat banklari xizmatlarining raqamlashtirilishi yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda muhim vosita hisoblanadi. Bank kartalari sonining 2025-yil iyunidan noyabrigacha ortishi, ayniqsa, Agrobank, Ipoteka bank va Hamkorbankdagi o'sish bilan bog'liq bo'lib, bu banklarning xizmatlar tarmog'ini kengaytirgani va mijozlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Xalq bankidagi biroz kamayish ijtimoiy to'lovlar tizimining optimallashtirilishi bilan bog'liq bo'lib, bu davlat bankining resurslarni samarali boshqarish strategiyasini aks ettiradi.

To'lov terminallari va bankomatlar tarmog'ining kengayishi ham iqtisodiy operatsiyalarni rasmiylashtirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Hamkorbank va Aloqabank terminallar orqali tushum hajmini oshirganligi mijozlarning pul oqimini raqamli kanallar orqali amalga oshirishini ta'minlagan. Bu esa nafaqat yashirin iqtisodiyotni kamaytiradi, balki iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali tranzaksiyalar monitoringi va firibgarlikning oldini olish imkoniyati ortadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan mobil va onlayn bank xizmatlari, raqamli identifikatsiya tizimlari va virtual kartalar aholi tomonidan keng qabul qilinmoqda. Bu banklar xizmatlarini modernizatsiya qilayotganini va iqtisodiy faoliyatni rasmiy sektor tomon yo'naltirayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bitta shaxsga bir bankdagi va umuman barcha banklardagi kartalar sonini cheklash tartibi moliyaviy inklyuziya bilan birga xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli bank xizmatlari yoshlarga, ayollarga va kichik tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa iqtisodiyotning rasmiy sektorini kengaytiradi va yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartiradi. Shu bilan birga, davlat va tijorat banklari o'rtasida raqamlashtirish bo'yicha hamkorlik va tajriba almashish yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, bank xizmatlarini raqamlashtirish va modernizatsiya qilish faqat texnologik jarayon emas, balki iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, moliyaviy inklyuziya va yashirin iqtisodiyot ko'lamini kamaytirishning institutsional strategiyasi sifatida ko'rilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining innovatsion xizmatlari, elektron to'lov tizimlari va monitoring mexanizmlari iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va moliyaviy tizimning shaffofligini oshirishda strategik ahamiyatga ega.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda bank kartalari sonining 65 million donadan oshishi moliyaviy inklyuziyaning sezilarli darajada kengayganini bildiradi. Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqamlashtirilishi iqtisodiy operatsiyalar shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Naqdsiz to'lovlar infratuzilmasining rivojlanishi, mobil bank xizmatlarining kengayishi va normativ cheklovlarning joriy etilishi yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tijorat banklari xizmatlarini yanada takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va moliyaviy monitoring tizimlarini kuchaytirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. Markaziy bank O'zbekiston. (2025). O'zbekistonda bank kartalari va to'lov infratuzilmasi bo'yicha statistika (1-iyun, 1-noyabr holati). Tashkent: Markaziy bank.
2. Pinkod.uz. (2025, November 12). O'zbekistonda bank kartalari soni 65 milliondan oshdi. Retrieved from https://www.pinkod.uz
3. Gazeta.uz. (2025, February 20). Endilikda bank kartalarini 14 yoshdan mustaqil olishga ruxsat beriladi. Retrieved from https://www.gazeta.uz
4. Karimov, B., & Tursunov, A. (2021). Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va moliyaviy inklyuziya O'zbekistonda. Tashkent: TDIU Press.
5. Abdullayev, S. (2020). Yashirin iqtisodiyot va raqamli to'lov tizimlari: O'zbekiston tajribasi. Tashkent: Economics Today Journal, 12(3), 45–60.
6. World Bank. (2023). Digital financial services and financial inclusion in developing economies. Washington, DC: World Bank Publications.
7. OECD. (2022). Digital payments and economic security in emerging markets. Paris: OECD Publishing.
8. IMF. (2022). Reducing shadow economy risks through banking sector modernization. Washington, DC: International Monetary Fund.
9. World Economic Forum. (2021). Digital transformation in banking: Lessons for Central Asia. Geneva: WEF Publications.
10. Xalq banki O'zbekiston. (2025). Bank xizmatlarini modernizatsiya qilish va mijozlarga ko'rsatiladigan raqamli xizmatlar bo'yicha yillik hisobot. Tashkent: Xalq banki.

# BIG DATA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA SOLIQ RISKLARINI ANIQLASH VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI

**Yakubova Nargiza Tursunbayevna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Sug'urta ishi kafedrasi dotsenti

**Maxmudov Jasurbek Ulug'bek o'g'li**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xalqaro qo'shma ta'lim fakulteti magistratura talabasi

Annotatsiya. Maqolada soliq tizimida Big Data texnologiyalaridan foydalanish orqali soliq xavflarini aniqlash va yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot raqamli ma'lumotlar asosida riskga yo'naltirilgan nazoratni rivojlantirish va mashinaviy o'rganish usullarini qo'llashga qaratilgan. Soliq to'lovchilarni guruhlarga ajratish va prognozlash orqali nazorat resurslaridan samarali foydalanish asoslanadi. Natijalar Big Data vositalarining byudjet daromadlari va iqtisodiy xavfsizlikni oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatib, O'zbekiston sharoitida ularni joriy etish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Big Data, soliq xavflari, yashirin iqtisodiyot, raqamli soliq ma'murchiligi, iqtisodiy xavfsizlik, risk-tahlil, sun'iy intellekt.

Abstract. The article examines the possibilities of identifying tax risks and reducing the size of the shadow economy through the use of Big Data technologies in the tax system. The study focuses on developing risk-based control based on digital data and applying machine learning methods. The effective use of control resources is justified through the classification of taxpayers into groups and forecasting. The results demonstrate the importance of Big Data tools in increasing budget revenues and economic security, and provide recommendations for their implementation in the context of Uzbekistan.

Key words: Big Data, tax risks, shadow economy, digital tax administration, economic security, risk analysis, artificial intelligence.

Аннотация. В статье рассматриваются возможности выявления налоговых рисков и сокращения масштабов теневой экономики посредством использования технологий Big Data в налоговой системе. Исследование направлено на развитие риск-ориентированного контроля на основе цифровых данных и применение методов машинного обучения. Обоснована эффективная использование контрольных ресурсов через классификацию налогоплательщиков и прогнозирование. Результаты показывают значимость инструментов Big Data для увеличения бюджетных доходов и обеспечения экономической безопасности, а также предлагают рекомендации по их внедрению в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: Big Data, налоговые риски, теневая экономика, цифровое налоговое администрирование, экономическая безопасность, риск-анализ, искусственный интеллект.

## KIRISH

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi davlat moliya boshqaruvi va soliq ma'murchiligini tubdan o'zgartirmoqda. Elektron savdo, raqamli to'lovlar va xalqaro operatsiyalar hajmining ortishi an'anaviy nazorat mexanizmlarining yetarli emasligini ko'rsatib, fiskal barqarorlik va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda Big Data texnologiyalaridan foydalanishni dolzarb qilmoqda.

Iqtisodiy xavfsizlik mamlakat barqarorligi bilan bog'liq bo'lib, soliq tushumlarining barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Biroq daromadlarni yashirish, soxta hisob-fakturalar va noqonuniy operatsiyalar fiskal tizimga jiddiy tahdid solmoqda.

Mazkur sharoitda Big Data, sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganishga asoslangan raqamli tahlil vositalari soliq xavflarini aniqlash va riskga asoslangan tekshiruvlarni rejalashtirishda ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish bo'yicha islohotlar elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari va idoralararo integratsiya orqali Big Data joriy etish uchun asos yaratmoqda, biroq risk modellarini rivojlantirish va huquqiy bazani mustahkamlash dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqola Big Data yordamida soliq xavflarini aniqlash va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish imkoniyatlarini ilmiy asoslashga qaratilib, risk modellarini tahlil qilish hamda O'zbekiston sharoitida amaliy takliflar ishlab chiqishni maqsad qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq risklarini aniqlash va yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda Big Data texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy ishlarda ma'lumotlar hajmining keskin ortishi va ularni qayta ishlash imkoniyatlarining kengayishi davlat fiskal siyosati samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Viktor Mayer-Schönberger va Kenneth Cukier Big Data konsepsiyasini chuqur tahlil qilib, katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash orqali iqtisodiy jarayonlarni aniqlik bilan prognoz qilish va nazorat qilish mumkinligini asoslab beradi. Ularning fikricha, aynan ma'lumotlarning keng qamrovli tahlili yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlashda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Soliq ma'murchiligi va Big Data integratsiyasi masalasi OECD tomonidan ham keng o'rganilgan bo'lib, tashkilotning 2016-yilda e'lon qilingan tadqiqotlarida soliq organlari tomonidan katta ma'lumotlar tahlilidan foydalanish soliqdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlashda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. OECD ekspertlari soliq risklarini baholashda an'anaviy usullarga nisbatan Big Data asosidagi analitik modellar yuqori aniqlik va tezkorlikni ta'minlashini ta'kidlaydi.

Brynjolfsson va McAfee tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar va ma'lumotlar iqtisodiyoti sharoitida samaradorlikning yangi omillari tahlil qilinib, katta ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish tizimlari iqtisodiy shaffoflikni oshirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan. Mualliflar Big Data texnologiyalari orqali iqtisodiy subyektlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish va ularning yashirin faoliyatini aniqlash imkoniyatlari kengayishini asoslab beradi.

Soliq risklarini modellashtirish va prognozlash masalalari James Alm va Benno Torgler tomonidan ham chuqur o'rganilgan bo'lib, ular soliq intizomi va soliqdan bo'yin tovlash omillarini iqtisodiy va xulq-atvor nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilishda katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish soliq nazoratining samaradorligini oshiradi va risklarni aniqlashda yangi yondashuvlarni shakllantiradi.

Shuningdek, Athey tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalarining iqtisodiy tadqiqotlardagi roli yoritilib, katta ma'lumotlar asosida qurilgan analitik modellar davlat boshqaruvi va fiskal nazorat tizimlarini modernizatsiya qilishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Muallif Big Data texnologiyalarining asosiy ustunligi sifatida katta hajmdagi heterogen ma'lumotlarni birlashtirish va chuqur tahlil qilish imkoniyatini ko'rsatadi.

Yashirin iqtisodiyot muammosi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan Friedrich Schneider esa yashirin iqtisodiyot hajmini aniqlash va uni kamaytirish mexanizmlarini tahlil qilib, zamonaviy texnologiyalar, xususan raqamli monitoring va ma'lumotlar tahlili vositalari ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Uning ilmiy ishlari Big Data texnologiyalarining yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlashdagi nazariy asoslarini mustahkamlaydi.

O'zbekiston sharoitida ham raqamli texnologiyalar va soliq tizimini modernizatsiya qilish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Tashmuxamedova Y. tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq xavfsizligini ta'minlash va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda zamonaviy axborot texnologiyalarining roli asoslab berilgan. Muallif Big Data, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari soliq risklarini aniqlashda muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi.

Shu bilan birga, Jahon banki tomonidan e'lon qilingan tadqiqotlarda raqamli boshqaruv va ma'lumotlar tahlili vositalari orqali davlat organlari faoliyatining shaffofligini oshirish mumkinligi qayd etilgan. Ushbu tadqiqotlar Big Data texnologiyalarining soliq ma'murchiligida qo'llanilishi yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda muhim institutsional mexanizm ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Big Data texnologiyalaridan foydalanish soliq risklarini aniqlash, soliqdan bo'yin tovlash holatlarini oldini olish hamda iqtisodiy faoliyatni shaffoflashtirishda yuqori samaradorlikka ega. Bu esa o'z navbatida yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishga xizmat qiluvchi muhim raqamli yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda soliq xavflarini aniqlash va yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda Big Data texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash maqsadida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, induktiv va deduktiv fikrlash, taqqoslash, mantiqiy umumlashtirish hamda iqtisodiy-statistik usullardan foydalanildi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida nazariy tahlil amalga oshirildi.

Empirik qismda ochiq manbalar va rasmiy statistik axborotlarga tayangan holda soliq ma'murchiligida qo'llanilayotgan raqamli platformalar o'rganildi. Elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, bank to'lovlari, bojxona statistikasi hamda idoralararo axborot almashinuvi Big Data muhitining asosiy manbalari sifatida tahlil qilindi va soliq xavflarini aniqlashda qo'llaniladigan analitik mexanizmlar tavsiflandi.

Big Data asosidagi tahlillarda mashinaviy o'rganish algoritmlaridan foydalanish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Xususan, klassifikatsiya va klasterlash usullari orqali soliq to'lovchilarni risk darajasi bo'yicha guruhlash, regressiya modellaridan foydalangan holda soliq tushumlarini prognozlash hamda anomaliyalarni aniqlash orqali shubhali operatsiyalarni erta bosqichda aniqlash imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Soliq xavfini baholashning umumiy konseptual modeli quyidagi funksional bog'lanish orqali ifodalandi:

$$R_i = f(X_1, X_2, \ldots, X_n)$$ [1],

bu yerda $R_i$ — soliq to'lovchining umumiy risk darajasi, f( ) — xavfni hisoblaydigan analitik yoki matematik model, $X_1$, $X_2$, …, Xn — soliq xavfiga ta'sir qiluvchi omillar to'plami, masalan:

Tadqiqotning metodologik asosini xalqaro tajribada qo'llanilayotgan riskga asoslangan nazorat konsepsiyasi tashkil etib, u soliq tekshiruvlarini maqsadli rejalashtirish, resurslardan samarali foydalanish va fiskal xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Olingan nazariy va konseptual natijalar asosida O'zbekiston sharoitida Big Data texnologiyalarini soliq ma'murchiligiga joriy etishning institutsional va tashkiliy mexanizmlari bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Empirik tahlil: onlayn nazorat-kassa mashinalari joriy etilishining fiskal samarasi

Empirik tahlil O'zbekiston Respublikasining rasmiy ochiq statistik ma'lumotlari va Soliq qo'mitasi hamda iqtisodiy axborot manbalari asosida amalga oshirildi. 2019–2021 yillar davomida onlayn nazorat-kassa mashinalari (ONKM) tizimi bosqichma-bosqich joriy etildi, natijada 2021-yil boshida respublika bo'yicha jami 106 366 dona ONKM va virtual kassa o'rnatilgani qayd etildi[2]. Bu raqam tizimning dastlabki keng tatbiq etilishi bosqichini ifodalaydi.

Keyingi yillarda raqamli fiskal monitoring vositalarining qo'llanilishi kengaydi. Masalan, 2023-yilda statistik ma'lumotlarga ko'ra onlayn kassalar orqali jami 405,6 milliondan ortiq chek chiqarilgan va chakana savdo orqali 103,6 trillion so'mlik savdo aylanmasi shakllanganligi ma'lum bo'ldi[3]. Ushbu o'sish sur'atlari ONKM qamrovi kengayishi bilan soliq bazasining ham sezilarli darajada o'sishini ko'rsatadi, bu esa soliq tushumlarining oshishiga to'g'ridan-to'g'ri ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlil davomida ONKM tizimining qamrov darajasi bilan soliq tushumlari o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish uchun statistik model soddalashtirilgan shaklda quyidagicha ifodalandi:


$$TR_t = \alpha + \beta * ONKM_t + \varepsilon_t$$

bu yerda $TR_t$ — t-davrdagi soliq tushumlari hajmi, $ONKM_t$ — faol onlayn nazorat-kassa mashinalari ulushi, β — raqamlashtirishning soliq tushumlariga ta'sir koeffitsienti, $\varepsilon_t$ — tasodifiy xatolik. Baholash natijalari β koeffitsienti musbat va statistik jihatdan ahamiyatli ekanini ko'rsatdi, ya'ni ONKM qamrovi kengayganda soliq tushumlari hajmi ham oshgan.


Ushbu empirik kuzatuvlar Big Data infratuzilmasi va real vaqt rejimidagi fiskal monitoring vositalari tatbiq etilayotgan sohalarda soliq tushumlarini oshirish, rasmiy savdo aylanmasini kengaytirish hamda yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish imkoniyatlarini mustahkamlovchi jiddiy dalil sifatida xizmat qiladi.

Mazkur bog'liqlikning dinamik ko'rinishi 1-rasmda keltirilgan bo'lib, unda ONKM qamrovining yillar kesimidagi o'sishi va soliq tushumlari hajmining bir vaqtda ortib borayotgani yaqqol aks etadi. Chizmadan ko'rinadiki, raqamlashtirish darajasi oshgani sari fiskal ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati ham tezlashmoqda. Shuningdek, 2-rasmda ONKM qamrovi bilan soliq tushumlari o'rtasidagi regressiyaviy bog'liqlik tasvirlanib, empirik baholash natijalarini vizual jihatdan tasdiqlaydi (1, 2-rasmlar).

1 Janssen, M., van der Voort, H., & Wahyudi, A. (2017). Factors influencing big data decision-making quality. Journal of Business Research, 70, 338–345.
2 Soliq qo'mitasi ma'lumotlari, 2021
3 Soliq qo'mitasi, 2023




Manba: rasmiy statistik axborotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan empirik model.





Manba: rasmiy statistik axborotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan diagramma.

1- rasm. ONKM qamrovi va soliq tushumlari dinamikasi (2021–2023 yy.)[4]
2- rasm. ONKM qamrovi va soliq tushumlari o'rtasidagi regressiyaviy bog'liqlik

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq ma'murchiligida Big Data texnologiyalaridan foydalanish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning strategik instrumentlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Katta hajmdagi moliyaviy va tranzaksion ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash imkoniyati soliq xavflarini erta aniqlash, byudjet yo'qotishlarini minimallashtirish hamda yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, turli axborot tizimlaridan kelayotgan ma'lumotlarning integratsiyasi fiskal nazoratning aniqligi va tezkorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi[5].

Tahlillar asosida Big Data asosidagi soliq xavflarini baholash tizimi bir nechta asosiy axborot segmentlari orqali shakllanishi aniqlashtirildi: byudjet va soliq bazalari, bank va to'lov tizimlari, bojxona statistikasi hamda elektron hisob-faktura va korporativ hisobotlar platformalari. Ushbu integratsiyalashgan arxitektura 3-rasmda[6] sxematik tarzda aks ettirilgan (3-rasm).




**1-rasm. Big Data asosida soliq xavflarini aniqlash modeli**
Manba: muallif ishlanmasi.


3- rasm. Big Data asosida soliq xavflarini aniqlash modeli

3-rasmda ko'rsatilganidek, turli manbalardan kelib tushayotgan ma'lumotlar yagona Big Data platformasida jamlanib, mashinaviy o'rganish algoritmlari orqali qayta ishlanadi. Natijada soliq to'lovchilarning individual risk profillari shakllantiriladi hamda davlat darajasi, hududiy kesim va alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'yicha

4 Manba: O'zbekiston Soliq qo'mitasi ochiq ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.
5 OECD. (2020). Tax Administration 3.0. Paris: OECD Publishing.
6 Muallif ishlanmasi

tahliliy xulosalar ishlab chiqiladi[7]. Mazkur ko'p bosqichli yondashuv nazorat tadbirlarini selektiv rejalashtirish imkonini berib, tekshiruv resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida Big Data asosida joriy etilayotgan analitik mexanizmlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini oshirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlashtirildi. Operatsiyalar monitoringi, real vaqt rejimidagi savdo aylanmasi tahlili hamda prognozlash modellarining qo'llanishi yashirin faoliyat ehtimolini kamaytirib, soliq intizomini kuchaytiradi. Ushbu jarayonlarning mantiqiy zanjiri 4-rasmda[8] ifodalangan (4-rasm).




**2-rasm. Raqamli tahlil orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash mexanizmi**
Manba: muallif ishlanmasi.

4- rasm. Raqamli tahlil orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash mexanizmi[9]

4- rasmda aks etganidek, raqamli monitoring va chuqur analitika dastlab soliq intizomini kuchaytiradi, keyinchalik esa umumiy iqtisodiy xavfsizlik darajasining oshishiga olib keladi. Natijada yashirin iqtisodiyot hajmining qisqarishi uchun institutsional asoslar shakllanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, soliq xavflariga ta'sir etuvchi omillar quyidagi guruhlarga ajratildi: moliyaviy oqimlarning shaffof emasligi, naqd pul aylanmasining yuqori ulushi, soxta bitimlar va hisob-fakturalar, transfer narxlashdagi og'ishlar hamda noqonuniy transchegaraviy operatsiyalar. Ushbu xavflarni kamaytirishda quyidagi ustuvor yo'nalishlar samarali deb topildi:

- soliq to'lovchilarning raqamli faoliyatini uzluksiz monitoring qilish;
- anomaliyalarni aniqlovchi algoritmlarni keng joriy etish;
- riskga asoslangan tekshiruv tizimini rivojlantirish;
- soliq siyosati rag'batlarining shaffofligini oshirish;
- tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish;
- davlat organlari o'rtasida ma'lumotlar almashuvini chuqurlashtirish.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Big Data asosidagi soliq risklarini boshqarish tizimlari nafaqat fiskal samaradorlikni oshiradi, balki biznes muhitining barqarorlashuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi[10]. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash va yashirin sektorni qisqartirishda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Olingan natijalar Big Data texnologiyalarini soliq ma'murchiligida joriy etish fiskal barqarorlikni mustahkamlash, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim strategik vosita ekanini ko'rsatdi. Integratsiyalashgan ma'lumotlar manbalari va analitik modellar xalqaro riskga asoslangan nazorat yondashuvlari bilan uyg'un bo'lib, O'zbekiston sharoitida ularni keng joriy etish uchun institutsional imkoniyatlar mavjudligini tasdiqlaydi.

Big Data platformalarining samaradorligi davlat organlari o'rtasida axborot almashinuvi, ma'lumotlar sifati va standartlashtirilgan formatlarga bog'liq bo'lib, yagona integratsiyalashgan axborot makonini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash, kiberxavfsizlik, algoritmik shaffoflik va kadrlar yetishmasligi asosiy muammolar sifatida qayd etilib, huquqiy bazani moslashtirish va sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha aniq reglamentlar ishlab chiqish zarurligi asoslandi.

Xalqaro tajriba Big Data asosidagi soliq nazorati byudjet tushumlarini oshirib, biznes muhitini shaffoflashtirishini ko'rsatadi hamda riskga asoslangan tekshiruvlar orqali halol soliq to'lovchilarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

7 IMF. (2021). Digitalization and Tax Administration. Washington, DC.
8 Muallif ishlanmasi
9 Muallif ishlanmasi
10 World Bank. (2022). GovTech and Public Sector Innovation. Washington, DC.

O'zbekiston sharoitida ushbu texnologiyalar samaradorligini oshirish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish, idoralararo integratsiya, kadrlar tayyorlash va huquqiy tartibga solishni modernizatsiya qilish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi.


## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari Big Data texnologiyalaridan foydalanish soliq xavflarini aniqlash, yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish hamda iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Raqamli ma'lumotlarni integratsiyalashgan holda tahlil qilish, mashinaviy o'rganish algoritmlarini qo'llash va riskga asoslangan nazorat mexanizmlarini rivojlantirish fiskal tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida soliq xavflarining asosiy manbalari moliyaviy oqimlarning shaffof emasligi, naqd pul aylanmasining yuqori ulushi, soxta bitimlar va noqonuniy transchegaraviy operatsiyalar bilan bog'liqligi aniqlanib, ularni kamaytirishda raqamli monitoring va chuqur analitikaning muhim roli asoslandi. Big Data asosida shakllantirilgan modellar tekshiruvlarni aniq yo'naltirish, davlat resurslaridan oqilona foydalanish hamda halol tadbirkorlik muhitini rivojlantirish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida ushbu texnologiyalarni samarali joriy etish uchun idoralararo axborot almashuvini kengaytirish, ma'lumotlar sifatini yaxshilash, kadrlar tayyorlashni kuchaytirish hamda sun'iy intellektdan foydalanishni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilganda, soliq ma'murchiligida raqamli transformatsiya iqtisodiy xavfsizlikning mustahkam institutsional poydevoriga aylanishi mumkin.

Tadqiqot yakunlariga ko'ra, Big Data texnologiyalarining joriy etilishi fiskal barqarorlikni ta'minlash, byudjet tushumlarini oshirish, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda kompleks mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonlarning umumlashtirilgan modeli 5-rasmda[11] keltirilgan.




**3-rasm. Big Data asosida soliq xavflarini kamaytirishning umumlashtirilgan modeli**
Manba: muallif ishlanmasi.

5- rasm. Big Data soliq xavflarini kamaytirishning umumlashtirilgan modeli

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. OECD. (2020). Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration. Paris: OECD Publishing.
2. International Monetary Fund. (2021). Digitalization and Tax Administration. Washington, DC: IMF.
3. World Bank. (2022). GovTech and Public Sector Innovation. Washington, DC: World Bank.
4. Kitchin, R. (2014). The Data Revolution: Big Data, Open Data, Data Infrastructures and Their Consequences. London: Sage.
5. Varian, H. R. (2019). Big data: New tricks for econometrics. Journal of Economic Perspectives, 28(2), 3–28.
6. OECD. (2017). Shining a Light on the Shadow Economy: Opportunities and Threats. Paris: OECD Publishing.
7. UNODC. (2021). Financial Crime and Tax Evasion. Vienna: United Nations Office on Drugs and Crime.

11 IMF. (2021). *Digitalization and Tax Administration*. Washington, DC.

# 5-SHO'BA

# SOLIQLAR YOKI BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLARNI TO'LASHDAN BO'YIN TOVLASH JINOYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI

**Axmedov Zafar Bozorboyevich**
Soliq qo'mitasi Xalqaro soliqqa tortish ma'muriyatchiligi boshqarmasi Transfert narxlar shakllanishini tahlil qilish hamda nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining foydasiga soliq solish bo'limi davlat soliq bosh inspektori
Email: zafar.axmedov@soliq.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyatining huquqiy tabiati, uning ob'yektiv va sub'yektiv belgilari hamda mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 184-moddasi, Soliq kodeksi normalari va sud amaliyoti asosida soliqdan bo'yin tovlashning asosiy usullari, iqtisodiy oqibatlari hamda yashirin iqtisodiyotga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, 2024-yilga oid statistik ma'lumotlar asosida ushbu jinoyatlarning budjet barqarorligi, soliq intizomi va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ilmiy jihatdan baholangan.

Kalit so'zlar: soliq jinoyati, iqtisodiy xavfsizlik, yashirin iqtisodiyot, soliqdan bo'yin tovlash, Jinoyat kodeksi 184-modda, soliq nazorati, fiskal siyosat, davlat budjeti, majburiy to'lovlar, iqtisodiy jinoyatlar, soliq intizomi, raqamli nazorat.

Abstract. This article analyzes the legal nature of tax evasion and avoidance of mandatory payments, its objective and subjective elements, and its impact on national economic security. Based on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan (Article 184), the Tax Code, and judicial practice, the study reveals the main methods of tax evasion, their economic consequences, and their relationship with the shadow economy. Additionally, using statistical data for 2024, the paper evaluates the influence of these crimes on budget stability, tax discipline, and sustainable economic development.

Key words: tax crime, economic security, tax evasion, shadow economy, Article 184 Criminal Code, tax control, fiscal policy, state budget, mandatory payments, economic offenses, tax discipline, digital monitoring.

Аннотация. В статье рассматриваются правовая природа преступления уклонения от уплаты налогов и иных обязательных платежей, его объективные и субъективные признаки, а также влияние на экономическую безопасность государства. На основе анализа норм Уголовного кодекса Республики Узбекистан (статья 184), Налогового кодекса и судебной практики раскрыты основные способы уклонения от налогов, их экономические последствия и связь с теневой экономикой. Кроме того, на основе статистических данных за 2024 год дана научная оценка влияния данных преступлений на стабильность бюджета, налоговую дисциплину и экономическое развитие страны.

Ключевые слова: налоговые преступления, экономическая безопасность, уклонение от налогов, теневая экономика, статья 184 УК, налоговый контроль, фискальная политика, государственный бюджет, обязательные платежи, экономические правонарушения, налоговая дисциплина.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga muvofiq "Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashi shart. Soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmasligi kerak".[1]

Yuridik va jismoniy shaxslarning davlat tomonidan belgilangan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamasligi, foyda (daromad)ni yoki soliq solinadigan boshqa ob'yektlarni qasddan yashirishi,

1 https://constitution.uz/oz/clause/index

kamaytirib ko'rsatishi, shuningdek, soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan o'zga tarzda, jumladan, nazorat-kassa mashinalarining fiskal xotirasi xizmati dasturini noqonuniy o'zgartirish yo'li bilan qasddan bo'yin tovlashi budjet siyosati barqarorligiga putur yetkazadi. Soliqdan yashirilgan mablag'lardan, aksariyat hollarda, jamiyat manfaatlariga zid ravishda foydalanilishi soliq qonunchiligi sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavfliligini oshiradi. Bundan tashqari, soliq turlaridan bosh tortish, boshqa jinoyatlarni sodir etish yashirin iqtisodiyot shakllanishi uchun zamin yaratadi, bozor munosabatlari rivojlanishi va faoliyatiga to'sqinlik qiladi, budjet siyosatining barqarorligini buzadi, jamiyatda ijtimoiy keskinlik va siyosiy beqarorlikni vujudga keltiradi. Buning hammasi tahlil qilinayotgan qilmish iqtisodiyot sohasida sodir etilayotgan eng og'ir jinoyatlardan hisoblanishini tasdiqlaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda soliqlarni yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash muammosi iqtisodiy xavfsizlik, davlat budjeti barqarorligi hamda yashirin iqtisodiyot hajmi bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etilgan. Jumladan, amerikalik iqtisodchi James Alm soliq to'lashdan bo'yin tovlash xatti-harakatlarini iqtisodiy va institutsional omillar orqali tahlil qilib, soliq nazorati kuchayishi va jarimalar tizimi soliq intizomini oshirishda muhim rol o'ynashini asoslab bergan.[2] Shuningdek, Joel Slemrod va Shlomo Yitzhaki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda soliq to'lashdan bo'yin tovlash nazariyasi, soliq nazorati mexanizmlari hamda iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri chuqur o'rganilgan bo'lib, ular soliq siyosati va ma'muriy nazorat tizimi samaradorligi soliqdan bo'yin tovlash darajasini kamaytirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar[3]. Ushbu tadqiqotlar soliq jinoyatlari davlat iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy xavfsizligiga bevosita tahdid solishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyatining huquqiy va iqtisodiy jihatlari keng o'rganilgan. Xususan, o'zbekistonlik olim Q. Abdurasulov o'z tadqiqotlarida soliq jinoyatlarining jinoyat-huquqiy tavsifi, ularning oldini olish mexanizmlari hamda iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirini tahlil qilgan.[4] Shuningdek, Sh. Mirzayev tomonidan soliq intizomini mustahkamlash, soliq nazoratini takomillashtirish hamda soliq to'lovlaridan bo'yin tovlash holatlarining iqtisodiyotga salbiy ta'siri o'rganilgan.[5] Mazkur ilmiy ishlarda soliqdan bo'yin tovlash jinoyati davlat budjeti daromadlarining kamayishiga, yashirin iqtisodiyot kengayishiga hamda mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Jumladan, Y. Tashmukhamedova o'z ilmiy ishlarida soliq ma'muriyatchiligi samaradorligi davlat budjeti daromadlarini boshqarish va soliq intizomini ta'minlashda muhim omil ekanini ta'kidlaydi. Muallifning fikriga ko'ra, zamonaviy soliq nazorati va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish soliqdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.[6]

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyatining huquqiy tabiati hamda uning mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta'sirini o'rganish uchun kompleks ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi huquqiy, iqtisodiy va statistik tahlil usullarini uyg'unlashtirgan holda ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Shu nuqtai nazardan tahlil etilayotgan jinoyatning bevosita ob'yekti soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash yuzasidan o'rnatilgan tartibni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi 184-moddasida javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyatning predmeti - soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar hisoblanadi. Bu tushunchalarning mazmunini aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga, shuningdek, amaldagi soliq qonunchiligida qo'llanilgan ta'riflarga murojaat etamiz.

O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi.

Soliqlar deganda O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi (SK 17-m).

Boshqa majburiy to'lovlar deganda O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda

2 Alm, J. "Tax Compliance and Administration", https://doi.org/10.1016/j.jpubeco.2012.01.006
3 Slemrod, J., & Yitzhaki, S. "Tax Avoidance, Evasion and Administration", https://doi.org/10.1016/S1573-4412(00)03027-1
4 Abdurasulov Q., "Soliq jinoyatlarining jinoyat-huquqiy tavsifi", https://cyberleninka.ru/article/n/soliq-jinoyatlari
5 Mirzayev Sh., "Soliq siyosati va soliq intizomi muammolari", https://cyberleninka.ru
6 Tashmukhamedova Y., The Role of Tax Administration in Managing Budget Revenues in the Budget System of the Republic of Uzbekistan. https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58802

mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to‘lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan yig‘imlar, davlat boji tushuniladi.

Davlat boji — yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar yoki mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun undiriladigan majburiy to‘lovdir.[7]

Ko‘rilayotgan jinoyat ob’yektiv tomondan foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa ob’yektlarni qasddan yashirish, kamaytirib ko‘rsatish, shuningdek, davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlash, shunday qilmishlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin ancha miqdorda sodir etilishi bilan tavsiflanadi.

Jinoyat kodeksining 184-moddasi dispozitsiyasiga binoan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash harakatda, xuddi shuningdek, harakatsizlikda ham ifodalanishi mumkin.

Foydani, daromadni yoki soliq solinadigan boshqa ob’yektlarni yashirish, kamaytirib ko‘rsatish bu fuqarolarning yoki mansabdor shaxslarning soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash usullaridir.

Foydani, daromadni yoki soliq solinadigan boshqa ob’yektlarni yashirish deganda soliq organlariga taqdim etiladigan tegishli hisobot hujjatlarida ularni olganlik to‘g‘risida haqiqiy ma’lumotlarni qasddan ko‘rsatmaslik, shuningdek, ularning mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotni yashirib qolish maqsadida ularning kelib tushishini hisobga olish tartibini buzish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 31.05.2013 yildagi "Soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida"gi 08-son[8] qarorida foyda (daromad)ni qasddan yashirishning ayrim belgilari ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, hujjatlarni soxtalashtirish, qalbaki buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish, haqiqatda ishlamaydigan xodimlarga ish haqi yozish orqali xarajatlarni sun’iy oshirish, sotishdan tushgan tushumni keyingi hisobot davriga o‘tkazish, moddiy va energetik resurslar xarajatlarini hamda amortizatsiya miqdorini sun’iy ravishda oshirish, hujjatlarni yo‘q qilish yoki taqdim etishni rad etish, hujjatlar bilan rasmiylashtirilmagan mahsulotlarni sotish, davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan xo‘jalik faoliyatini yuritish va daromad deklaratsiyasini taqdim etmaslik kabi harakatlar daromadni yashirishning shakllari sifatida e’tirof etilgan.

Soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik bilan bog‘liq jinoyat ishlarini ko‘rib chiqishda shuni e’tiborga olish lozimki, agar soliq to‘lovchi subyektlarning noqonuniy harakatlari (yoki harakatsizligi) to‘liq ravishda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 184-moddasi dispozitsiyasi bilan qamrab olingan bo‘lsa, u holda qilmish boshqa qo‘shimcha tarkibni tashkil etmasa, ularni boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar bilan qo‘shimcha ravishda kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi.[9].

Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan jinoyatga rahbarlik qilgan yoki ushbu jinoyatni sodir etishga soliq to‘lovchi tashkilot boshlig‘i, bosh (katta) buxgalteri, boshqa xizmatchilarini undagan yoxud o‘zining maslahatlari, ko‘rsatmalari bilan jinoyatni sodir etishga ko‘maklashgan shaxslar tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi sifatida Jinoyat kodeksining 28-moddasi va 184-moddasining tegishli qismi bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.

Nazorat-kassa mashinalari fiskal xotirasi xizmati dasturiga noqonuniy o‘zgartirish kiritish yo‘li bilan daromad (foyda)ni yashirishda soliq to‘lovchiga ko‘maklashgan, shu jumladan, ushbu mashinalarni ishlab chiqargan, yetkazib bergan, ularga texnik xizmat ko‘rsatgan shaxslar ham soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlashda ishtirokchi sifatida javobgarlikka tortiladilar.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlikka qasddan ko‘maklashishga qaratilgan harakatlari jinoyatda ishtirokchilik sifatida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 28-moddasi hamda 184-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Agar mansabdor shaxslar ushbu harakatlarni g‘araz yoki boshqa shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab sodir etgan bo‘lsa yoki shu maqsadda jinoyatni yashirishga ko‘maklashgan bo‘lsa, ularning harakatlari Jinoyat kodeksining boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar, jumladan 205, 209 va 210-moddalar bilan ham qo‘shimcha ravishda kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik takroran yoki ko‘p miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, qilmish O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 184-moddasi ikkinchi qismining tegishli bandlari bilan kvalifikatsiya qilinadi.

---

7 O‘zbekiston Respublikasining "Davlat boji to‘g‘risida"gi Qonuni, 2020-yil 6-yanvar, O‘RQ-600

8 https://lex.uz/ru/docs/-2212245


9 O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 31-maydagi 8-son qarori "Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida". https://lex.uz/ru/docs/-2212245

Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan qilmishni[10] ikki yoki undan ortiq marotaba alohida qasd bilan sodir etgan shaxsning harakatlari soliq to'lashdan takroran bo'yin tovlaganlik sifatida baholanadi. Bunda shaxsning jinoyatda ijrochi yoki boshqa ishtirokchi bo'lganligi, shuningdek ilgari sodir etilgan qilmish tugallangan jinoyat yoki jinoyatga suiqasd bo'lganligi kvalifikatsiyaga ta'sir ko'rsatmaydi (1-jadval).[11]

1- jadval. Soliq va majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyatining asosiy ko'rinishlari[12]

| № | Jinoyat usuli | Qisqa tavsif | Iqtisodiyotga ta'siri |
|---|---|---|---|
| 1 | Daromadni yashirish | Hisobotlarda real tushumni ko'rsatmaslik | Budjet daromadlari kamayadi |
| 2 | Kamaytirib ko'rsatish | Xarajatlarni sun'iy oshirish yoki foydani pasaytirish | Soliq bazasi qisqaradi |
| 3 | Soxta hujjatlar | Qalbaki buxgalteriya hujjatlari tuzish | Nazorat tizimi zaiflashadi |
| 4 | Fiskal tizimga aralashish | NKM dasturini noqonuniy o'zgartirish | Raqamli nazorat izdan chiqadi |
| 5 | Ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat | Soliq organlarida hisobga turmaslik | Yashirin iqtisodiyot kengayadi |

Shaxsning harakatlarida soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan takroran bo'yin tovlash belgisi mavjudligi masalasini hal etishda Jinoyat kodeksining 32-moddasida ko'rsatilgan talablardan kelib chiqish lozim (1-rasm).




1- rasm. Soliqdan bo'yin tovlash bilan bog'liq holatlar (2024-yil)[13]

I yanvar–avgust oylarida: Soliq qo'mitasi tekshiruvlarida 388 ta korxona tomonidan yashirilgan daromad aniqlangan. Yashirilgan soliq bazasi hajmi taxminan 5,8 trln so'm atrofida bo'lgan. 2024-yilda davlat budjetiga jami 199,6 trln so'm soliq tushumlari undirilgan. Bu raqamlar sizga diagramma yoki jadval qurishda asos bo'la oladi.

Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash juda ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksi 184- moddasi uchinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Agar foyda va daromad to'g'risida ko'rinib turgan yolg'on ma'lumotli tegishli hisobot hujjatlarini soliq organiga taqdim qilish hamda soliqlarni ko'p yoki juda ko'p miqdorda (bitta, bir nechta yoki barcha soliqlar bo'yicha) haqiqatan kam to'laganlik holati mavjud bo'lsa, soliq va boshqa to'lovlarni ko'p yoki juda ko'p miqdorda to'lashdan bo'yin tovlash tugallangan jinoyat hisoblanadi.

10 O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 184-modda.
11 O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013yil 31maydagi 8son qarori.
12 O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (184-modda), O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, Oliy sud Plenumining 2003 yil 6 iyundagi 6-son qarori asosida muallif tomonidan tuzildi.
13 https://www.uzdaily.uz/en/tax-revenues-in-uzbekistan-increases-by-over-20-in-2024/

Jinoyat kodeksi 184-moddasining to'rtinchi qismiga ko'ra, qasddan yashirilgan, kamaytirib ko'rsatilgan foyda (daromad) bo'yicha soliq va boshqa to'lovlar to'liq to'langan taqdirda, aybdorga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyati davlat budjeti barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, yashirin iqtisodiyotning kengayishiga hamda iqtisodiy xavfsizlikning zaiflashishiga olib keladi. Jinoyat kodeksining 184-moddasi orqali ushbu qilmish uchun javobgarlik belgilanishi soliq intizomini ta'minlash, ijtimoiy munosabatlarni himoya qilish va iqtisodiy tizimda qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Daromadni yashirish, soxta hujjatlar tuzish yoki nazorat tizimlariga noqonuniy aralashish kabi usullar bu jinoyatning asosiy ko'rinishlari hisoblanadi.

Mazkur jinoyatga qarshi kurashishda nafaqat huquqiy choralar, balki zamonaviy soliq nazorati, raqamli monitoring tizimlari va soliq madaniyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kompleks yondashuv orqali davlat daromadlarini barqarorlashtirish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish hamda mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. O'zbekiston Respublikasi. (2023). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. https://constitution.uz/oz
2. O'zbekiston Respublikasi. (2021). O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Toshkent: Adolat. https://lex.uz/uz/docs/-111453
3. O'zbekiston Respublikasi. (2020). O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Toshkent. https://lex.uz/docs/-4674902
4. O'zbekiston Respublikasining 06.01.2020 yildagi "Davlat boji to'g'risida"gi O'RQ-600 Qonuni // https://lex.uz/docs/-4680944
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. (2024). 2024-yil yakunlari bo'yicha soliq tushumlari to'g'risida hisobot. Toshkent. https://www.lex.uz/uz/docs/-7152278
6. OECD. (2021). Tax Crime and Financial Crime Investigation Handbook. Paris: OECD Publishing. https://www.oecd.org/en/publications/designing-a-tax-crime-investigation-manual_f2870e23-en.html
7. ТАШМУХАМЕДОВ, Д., & ТАШМУХАМЕДОВА, Я. ПУТИ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ ЗА ВНЕШНЕТОРГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ. ПОЛИТЕХ-ПРЕСС КОНФЕРЕНЦИЯ: ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ ИНЖЕНЕРНАЯ ЭКОНОМИКА И ИНДУСТРИЯ 6.0 (ИНПРОМ-2025) Санкт-Петербург, 27–30 апреля 2025 года Организаторы: Санкт-Петербургский политехнический университет Петра Великого. https://labec.spbstu.ru/userfiles/files/inprom-21/sbornik_inprom_2025_2.pdf
8. Tanzi, V. (2018). The Shadow Economy and Tax Evasion. Washington, DC: International Monetary Fund. https://etco.org.br/user_file/shadowEconomy/03_Artigo_Tanzi_Shadow_Economy.pdf
9. Schneider, F., & Enste, D. (2019). Shadow Economies Around the World: What Do We Know? Journal of Economic Literature, 38(1), 77–114. https://www.imf.org/-/media/files/publications/wp/2019/wp1817.pdf
10. Tashmukhamedova, Y. (2020). THE ROLE OF TAX ADMINISTRATION IN MANAGING BUDGET REVENUES IN THE BUDGET SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. International Finance and Accounting, 2020(2), 20. https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58802
11. https://www.uzdaily.uz/en/tax-revenues-in-uzbekistan-increases-by-over-20-in-2024/

# DAVLATLARNING IQTISODIY JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDAGI XALQARO HAMKORLIGI: XALQARO TASHKILOTLAR, FATF STANDARTLARI VA AMALIY MEXANIZMLAR

**Tashmuxamedova Yayra Atxamovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD
Email: yayrusha@tsue.uz
ORCID: 0009-0002-0826-3991

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslari, asosiy institutlari va amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Xususan, xalqaro jinoyat huquqining mazmuni, davlatlar o'rtasidagi hamkorlik shakllari, shuningdek FATF, Egmont guruhi, XVF, Jahon banki va Interpol kabi xalqaro tashkilotlarning o'rni yoritilgan. Tadqiqot natijalari iqtisodiy jinoyatlarning transmilliy tus olayotgani sababli ularga qarshi kurashda milliy va xalqaro darajadagi uyg'un hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, O'zbekiston uchun xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka tatbiq etish, moliyaviy nazorat va axborot almashinuvi tizimlarini takomillashtirish muhim ekani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy jinoyatchilik, xalqaro hamkorlik, xalqaro jinoyat huquqi, FATF, Egmont guruhi, Interpol, XVF, Jahon banki, pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish, moliyaviy razvedka, iqtisodiy xavfsizlik.

Abstract. This article analyzes the legal foundations, key institutions, and practical mechanisms of international cooperation in combating economic crime. Particular attention is paid to the content of international criminal law, the forms of cooperation between states, and the role of international organizations such as FATF, the Egmont Group, the IMF, the World Bank, and Interpol. The findings show that the transnational nature of economic crime requires stronger coordinated cooperation at both national and international levels. The article also highlights the importance for Uzbekistan of implementing international standards into national legislation and improving financial control and information-sharing systems.

Key words: economic crime, international cooperation, international criminal law, FATF, Egmont Group, Interpol, IMF, World Bank, money laundering, terrorist financing, financial intelligence, economic security.

Аннотация. В данной статье проанализированы правовые основы, ключевые институты и практические механизмы международного сотрудничества в борьбе с экономической преступностью. Особое внимание уделено содержанию международного уголовного права, формам взаимодействия государств, а также роли таких международных организаций, как FATF, Группа Эгмонт, МВФ, Всемирный банк и Интерпол. Результаты исследования показывают, что транснациональный характер экономических преступлений требует усиления согласованного сотрудничества на национальном и международном уровнях. Кроме того, обоснована важность внедрения международных стандартов в национальное законодательство Узбекистана, а также совершенствования систем финансового контроля и обмена информацией.

Ключевые слова: экономическая преступность, международное сотрудничество, международное уголовное право, FATF, Группа Эгмонт, Интерпол, МВФ, Всемирный банк, отмывание денег, финансирование терроризма, финансовая разведка, экономическая безопасность.

## KIRISH

Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning huquqiy mexanizmi xalqaro jinoyat huquqining muhim elementlaridan biri, huquqiy poydevori hisoblanadi. Xalqaro jinoyat huquqi ushbu huquqiy poydevorning asosini tashkil etadi. Hamkorlikda qatnashayotgan davlatlarning ichki (milliy) jinoyat qonunchiligi xalqaro jinoyat huquqi bilan mustahkam bog'langan va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Bu murakkab jarayon kompleks huquqiy blokni tashkil etadi.

Zamonaviy sharoitda iqtisodiy jinoyatchilikning transmilliy xarakter kasb etishi davlatlarning bu muammoga qarshi kurashda hamkorlikda harakat qilishini taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan Shavkat Mirziyoyev xalqaro hamjamiyat oldida so'zlagan nutqlarida global xavfsizlikni ta'minlash, noqonuniy moliyaviy oqimlar, terrorizmni moliyalashtirish va boshqa transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashda davlatlar o'rtasida o'zaro ishonchga asoslangan hamkorlikni rivojlantirish muhimligini qayd etadi.[1]

Shu o'rinda xalqaro jinoyat huquqi tarmog'i shakllangan bo'lsada, lekin jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi xalqaro hamkorlikni tartibga solish masalasi o'zining to'liq yechimini topgani yo'q. Bundan tashqari, xalqaro jinoyat huquqi mazmuni, tushunchasini oydinlashtirish borasidagi muammolar, normalar, institutlar, davlatlarning ichki (milliy) jinoyat huquqi va xalqaro huquq tarmoqlari bilan aloqadorligini aniqlashtirish dolzarb bo'lib, u turli bahs-munozaralarga sabab bo'lgan va hozirda ham qiziqish uyg'otmoqda.

Xalqaro jinoyat huquqi konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishida XX asr bo'sa g'asida davlatlar tomonidan alohida turdagi jinoyatlarga qarshi kurash borasida (qulchilik, qaroqchilik, terrorizm, pulni qalbakilashtirish va hokazo) konvensiyalarning qabul qilinishi, jinoyatchilikka qarshi kurash masalalarida o'tkazilgan konferensiyalar, majlislar hamda xalqaro kongresslarning tavsiyalari va qarorlari katta ahamiyat kasb etdi.

Yangi xalqaro jinoyat huquqi tarmog'ini tuzishg'oyasining tashabbuskori kim: xalqaro huquq bo'yicha mutaxassislarmi yoki kriminalistlarmi? degan savolga bo'lsa haligacha aniq javob yo'q. Bizning fikrimizcha, bu borada ushbu ishda ustunlik xalqaro huquq bo'yicha mutaxassislarga tegishlidir. Aynan shuning uchun ular oldiga jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik munosabatlarida hal etilishi zarur yangi muammolar qo'yilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro jinoyat huquqini xalqaro huquqning kompleks tarmog'i, ya'ni xalqaro xarakterdagi jinoyatlarning oldini olish, ularni sodir etganlik uchun javobgarlik masalalari borasida davlatlar hamkorligini tartibga soluvchi prinsip va normalar majmui deb belgilash mumkin. Bunda ko'proq xalqaro huquqiy sub'ektivlik konsepsiyasidan kelib chiqib, xalqaro jinoyat huquqi predmetiga nafaqat jismoniy shaxslar sodir etgan, balki davlatlar sodir etgan jinoyatlarni ham qo'shish mumkin. R.A.Kalamakryan va R.A.Myullerson ham ushbu yondashuvga yaqin fikrni ilgari suradilar. Ularning fikriga ko'ra, xalqaro jinoyat huquqi shunday tarmoqki, u xalqaro huquq sub'ektlarining xalqaro huquqiy tartibotga jinoiy tajovuzlaridan himoya qilish maqsadida tuzilgan va davlatlarning xalqaro, xalqaro xarakterdagi jinoyatlari uchun javobgarlik, shuningdek, aybdor jismoniy shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish yo'lidagi prinsip va normalarni o'z ichiga oladi.

I.I. Lukashuk va A.V. Naumovning fikriga ko'ra,[2] xalqaro jinoyat huquqi davlatlarning va xalqaro tashkilotlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi hamkorligini tartibga soluvchi prinsip va normalarni o'z ichiga oluvchi xalqaro ommaviy huquqning tarmog'i hisoblanadi1.

A.X. Saidovning[3] ushbu masalada ilgari surgan nuqtai nazaricha, xalqaro jinoyat huquqi davlatlarning xalqaro hamjamiyatning hayotiy muhim manfaatlarini ta'minlash uchun asosiy ahamiyat kasb etadigan majburiyatlarini buzishini xalqaro huquqiy qilmish sifatida baholaydi.

V.P. Panov umuman boshqa fikrni ilgari suradi.[4] U xalqaro jinoyat huquqini xalqaro huquqning mustaqil tarmog'i sifatida ko'rib chiqib, xalqaro jinoyat huquqi xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorligini tartibga solib turuvchi prinsip va normalar tizimidir. Shu bilan birga, jinoyat huquqida jinoyat sub'ekti bo'lib nafaqat jismoniy shaxslar va davlatlar, balki ayrim hollarda yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin. Ammo keyinchalik u davlatlarning javobgarligini xalqaro huquq doirasidagi javobgarlikka olib keladi, degan fikrni bildiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada davlatlarning iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashdagi xalqaro hamkorligi kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini xalqaro jinoyat huquqi nazariyasi,

1 Shavkat Mirziyoyev. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/1063
2 Lukashuk, I. I., & Naumov, A. V. (1999). *Mezhdunarodnoe ugolovnoe pravo*. Moskva: Spark.
3 Saidov, A. X. (2013). *Xalqaro huquq nazariyasi*. Toshkent: Adolat.
4 Panov, V. P. (2007). *Mezhdunarodnoe ugolovnoe pravo*. Moskva: Norma

iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyalari hamda zamonaviy komparativ-huquqiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil (system approach) usuli qo'llanilib, xalqaro tashkilotlar faoliyati, normativ-huquqiy hujjatlar hamda davlatlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Shuningdek, tarixiy-huquqiy metod orqali xalqaro jinoyat huquqining shakllanish bosqichlari hamda FATF standartlari va xalqaro institutlarning evolyutsiyasi tahlil qilindi.

Maqolada qiyosiy-huquqiy metod yordamida xalqaro tashkilotlar (FATF, Egmont Group, IMF, World Bank, Interpol va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan mexanizmlar hamda turli davlatlar amaliyoti o'rganildi. Analitik va sintez usullari orqali pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish hamda transmilliy iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash tizimining asosiy elementlari umumlashtirildi. Empirik ma'lumotlar sifatida xalqaro tashkilotlar hisobotlari, konvensiyalar, rezolyutsiyalar va ilmiy manbalardan foydalanildi. Tadqiqot natijalarini shakllantirishda induktiv va deduktiv usullar qo'llanilib, nazariy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro xarakterdagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash davlatning ichki vakolatlariga kiritilgan, chunki jinoyat ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida, umuman, ushbu davlatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa omillarning umumiyligi bilan belgilanadigan milliy xususiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik ham obyektiv asosga ega, chunki zamonaviy dunyoda jinoyatchilikning sifat jihatidan o'zgarishi - uning xalqarolashtirilishi. Xorijiy va xalqaro elementlar, ya'ni ikki yoki undan ortiq shtatlar hududida jinoiy harakatlarning sodir etilishi, jinoyatchilarning chet elda adolatdan qochishga urinishlari, pul o'g'irlangan pullarni sotish, davlat chegaralari mavjud bo'lmagan axborot va kompyuter huquqlarini buzmaslik. Shunday qilib, xalqaro iqtisodiy jinoyatchilik muammosi tobora global bo'lib bormoqda. Bu jahon hamjamiyati a'zolarining ushbu muammoni hal qilishning eng samarali usullari va vositalarini birgalikda izlashga qiziqishini obyektiv ravishda belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. Shu o'rinda globalizatsiya va integratsiyalashuv jarayonlari chuqurlashayotgan, milliy qonunchilikka xalqaro-huquqiy normalar tobora ko'proq implementatsiya qilinayotgan milliy jinoiy guruhlarni baynalmilal jinoiy guruhlarga aylanish jarayonlari yuz berayotgan bir vaqtda jinoyatchilikka qarshi hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiq. Buning uchun esa jinoyatchilikni hozirgi ahvoli, xalqaro jinoyatchilik darajasi, unga qarshi kurash metodlari bilan yaqindan tanish bo'lishimiz darkor. Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkolik vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ O'zbekiston Respublikasida takomillashib borayotgan jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlik tizimining mohiyati, o'ziga xos jihatlari va unda ichki ishlar organlarining tutgan o'rni hamda yo'nalishlarini o'rganish;
- ✓ iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlikning huquqiy tartibga solinishini tahlil qilish;
- ✓ iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik faoliyatiga doir xalqaro huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va qiyosiy tahlil qilish;
- ✓ iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik mexanizmini isloh qilish jarayonida vujudga kelgan nazariy va amaliy muammolarni aniqlash va ularni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash.


FATF (Financial Action Task Force) 1989-yilda G7 davlatlari tashabbusi bilan tashkil etilgan bo'lib, pul yuvish (AML), terrorizmni moliyalashtirish (CFT) hamda ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasida xalqaro standartlarni ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini monitoring qilish bilan shug'ullanuvchi yetakchi xalqaro institut hisoblanadi. 2026-yil holatiga ko'ra FATF tarkibiga 38 ta davlat va 2 ta xalqaro tashkilot a'zo hisoblanadi. Shuningdek, FATF faoliyatida bir qator xalqaro tashkilotlar kuzatuvchi (observer) maqomida ishtirok etib, ular tashkilotning global miqyosdagi siyosatini shakllantirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashadi.

FATFning qaror qabul qilishning asosiy vositasi yiliga uch marotaba yig'iladigan Plenar yig'ilish, shuningdek FATF ishchi guruhlari hisoblanadi:

- baholandi va amalga oshirildi;
- tipologiya bo'yicha;
- terrorizmni moliyalashtirishga va pul yuvishga qarshi kurashish;
- xalqaro hamkorlik sharhi bo'yicha.

FATF XVJ, Jahon banki, BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikka katta e'tibor beradi. Ushbu tuzilmalar pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha o'z dasturlarini amalga oshiradalar. FATF tavsiyalarini milliy darajada amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri bu noqonuniy yo'l bilan olingan mablag'lar oqimini aniqlash uchun har bir muayyan mamlakat ichida moliyaviy ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun mas'ul bo'lgan Moliyaviy Razvedka Birliklari (FIU) amalga oshiradi (1-jadval).

1- jadval. FATFga a'zo davlatlar[5]

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 |  | AQSh | 14 |  | Gonkong (Xitoy) | 27 |  | Niderlandiya |
| 2 |  | Argentina | 15 |  | Hindiston | 28 |  | Norvegiya |
| 3 |  | Avstraliya | 16 |  | Irlandiya | 29 |  | Portugaliya |
| 4 |  | Avstriya | 17 |  | Islandiya | 30 |  | Rossiya Federatsiyasi* |
| 5 |  | Belgiya | 18 |  | Ispaniya | 31 |  | Saudiya Arabistoni |
| 6 |  | Braziliya | 19 |  | Isroil | 32 |  | Singapur |
| 7 |  | Buyuk Britaniya | 20 |  | Italiya | 33 |  | Turkiya |
| 8 |  | BAA | 21 |  | Janubiy Afrika Respublikasi | 34 |  | Xitoy |
| 9 |  | Daniya | 22 |  | Janubiy Koreya | 35 |  | Shveytsariya |
| 10 |  | Finlyandiya | 23 |  | Kanada | 36 |  | Shvetsiya |
| 11 |  | Fransiya | 24 |  | Lyuksemburg | 37 |  | Yaponiya |
| 12 |  | Germaniya | 25 |  | Malayziya | 38 |  | Yangi Zelandiya |
| 13 |  | Gretsiya | 26 |  | Meksika | | | |

*Rossiya Federatsiyasi 2023-yil fevraldan boshlab FATF faoliyatidan suspension (to'xtatilgan) holatda.[6]

Xalqaro tashkilotlari esa:

1. Evropa Komissiyasi,
2. Fors ko'rfazi Arab davlatlari uchun hamkorlik kengashi.

FATF hisobotlariga ko'ra, moliyaviy jinoyatlar tarkibida firibgarlik jinoyatlari eng keng tarqalgan predikat jinoyatlardan biri hisoblanadi. O'zaro baholash natijalariga ko'ra, baholangan mamlakatlarning katta qismida firibgarlik pul yuvish jinoyatlarining asosiy manbasi sifatida qayd etilgan. Bu esa global moliyaviy jinoyatchilik strukturasida firibgarlik va kiberjinoyatlar ulushi ortib borayotganini ko'rsatadi (2-jadval).

5 Muallif ishlanmasi
6 https://worldpopulationreview.com/country-rankings/fatf-countries

2- jadval. FATF global baholashlarida aniqlangan asosiy moliyaviy jinoyat risklari[7]

| Ko'rsatkich | Statistik natija | Izoh |
|---|---|---|
| Firibgarlik predikat jinoyat sifatida | 89% mamlakatlarda | O'zaro baholashlarda eng keng tarqalgan jinoyat |
| Firibgarlik pul yuvish xavfi sifatida | 156 ta yurisdiksiya (≈90%) | Ko'pchilik mamlakatlarda asosiy risk sifatida qayd etilgan |
| Virtual aktivlar bo'yicha standartlarga to'liq mos davlatlar | 40 ta davlat | Kriptovalyutalarni tartibga solish darajasi past |
| Noqonuniy kripto tranzaksiyalari hajmi | ≈51 mlrd AQSh dollari | Global noqonuniy kripto operatsiyalari |
| Stablecoin orqali noqonuniy operatsiyalar ulushi | 84% | Kriptojinoyatlarning asosiy vositasi |

2- jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, global moliyaviy jinoyatlar tarkibida firibgarlik jinoyatlari yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, raqamli moliya texnologiyalarining rivojlanishi kriptovalyutalar orqali amalga oshiriladigan noqonuniy operatsiyalar ulushining oshishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, stablecoin turidagi kriptoaktivlar noqonuniy tranzaksiyalarda eng ko'p foydalanilayotgan vositalardan biri hisoblanadi.

FATF faoliyatining yana bir muhim yo'nalishi davlatlarning AML/CFT tizimlarini monitoring qilish va ularning samaradorligini baholash hisoblanadi. Tashkilot tomonidan grey list va black list mexanizmlari orqali moliyaviy nazorat tizimlarida kamchiliklar mavjud bo'lgan davlatlarga nisbatan monitoring amalga oshiriladi (3-jadval).

3- jadval. FATF monitoring faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2023–2025)[8]

| Ko'rsatkich | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|
| Global tarmoqdagi davlatlar soni | 200+ | 200+ | 200+ |
| Baholangan yurisdiksiyalar | 130+ | 139 | 139+ |
| Grey list davlatlari | 23 | 21 | ≈20 |
| Black list davlatlari | 3 | 3 | 3 |
| Virtual aktivlar standartiga mos davlatlar | 32 | 36 | 40 |

3- jadval ma'lumotlariga ko'ra, FATF global tarmog'i 200 dan ortiq davlat va hududni qamrab olgan bo'lib, ularning aksariyati pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi tizimlar bo'yicha baholangan. Shu bilan birga, monitoring ostidagi davlatlar soni yillar davomida asta-sekin kamayib borayotgani davlatlarning xalqaro moliyaviy standartlarga moslashish darajasi ortib borayotganini ko'rsatadi (4-jadval).

4- jadval. Davlatlar kesimida aniqlangan ayrim statistik natijalar[9]

| Davlat | Aniqlangan asosiy risk | Ko'rilgan choralar |
|---|---|---|
| **Buyuk Britaniya** | Firibgarlik jinoyatlari 40% dan ortiq | AML monitoring va moliyaviy nazorat kuchaytirildi |
| **Singapur** | Kiber firibgarlik 2 yil ichida 61% ga oshgan | AML nazorat va bank monitoring tizimlari kuchaytirildi |
| **Janubiy Afrika** | Pul yuvish risklari yuqori | FATF talablari bajarilgach 2025 yilda grey listdan chiqarildi |
| **Nigeriya** | Moliyaviy jinoyatlar monitoringi yetarli emas | idoralararo hamkorlik kuchaytirildi |

Shuningdek, FATF faoliyati doirasida virtual aktivlar bozorini tartibga solish ham ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda kriptovalyutalar orqali amalga oshiriladigan noqonuniy moliyaviy operatsiyalar hajmi ortib borayotganligi sababli FATF davlatlarga virtual aktiv xizmat ko'rsatuvchilarini ro'yxatdan o'tkazish, tranzaksiyalar monitoringini kuchaytirish hamda moliyaviy shaffoflikni oshirish bo'yicha qator tavsiyalar bergan va bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Jumladan, FATF hujjatlari, xususan, 40 ta tavsiyanoma har bir mamlakatda pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishning samarali rejimini yaratish bo'yicha tashkiliy va huquqiy choralarni o'z ichiga oladi, uning murakkabligi va universalligi quyidagicha ifodalanadi:

7 https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Methodsandtrends/cyber-enabled-fraud-digitalisation-ml-tf-pf-risks.html sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

8 https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Methodsandtrends/cyber-enabled-fraud-digitalisation-ml-tf-pf-risks.html sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi


9 https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Methodsandtrends/cyber-enabled-fraud-digitalisation-ml-tf-pf-risks.html

✓ milliy va xalqaro miqyosda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashni tashkil etish bilan bog'liq masalalarni imkon qadar kengroq yoritish;

✓ Xalqaro konventsiyalar, BMT Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyalari, ixtisoslashtirilgan xalqaro tashkilotlarning jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan bog'liq masalalariga bag'ishlangan aktlari bilan chambarchas bog'liqlik;

✓ mamlakatlarga milliy xususiyatlar va huquqiy tizimni hisobga olgan holda FATFning 40 ta tavsiyalarini bajarishda bir oz moslashuvchanlikni namoyish etish.


FATFning (2023–2025-yillar) hisobotlariga ko'ra quyidagi global choralar amalga oshirilgan (1-rasm):




1- rasm. FATF hisobotlariga ko'ra 2023–2025-yillarda amalga oshirilgan global choralar[10]

FATF tavsiyalari boshqa xalqaro hujjatlarning qoidalarini takrorlamaydi yoki o'zgartirmaydi, balki ularni to'ldiradi va pul yuvish hamda terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasidagi xalqaro normalarni yagona tizimga keltirishda muhim rol o'ynaydi. FATFning 40 ta tavsiyasi ushbu sohada keng e'tirof etilgan xalqaro standartlar hisoblanadi. BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi qabul qilingan rezolyutsiyalari davlatlarni ushbu standartlarni amalga oshirishga chaqiradi.

"Egmont" guruhilari dunyodagi moliyaviy razvedka bo'linmalarining (FIU) norasmiy birlashmasidir. Egmont guruhining maqsadi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish, shuningdek, pulni legallashtirishga va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha ichki dasturlarni amalga oshirishda dunyo miqyosidagi FIU o'rtasida samarali hamkorlik qilish uchun platformani taqdim etishdir (2-rasm).




2- rasm. Moliyaviy Razvedka Birliklari (FIU) tarkibiy tuzilishi va vazifalari[11]

10 https://finreg.aoshearman.com/FATF-publishes-targeted-update-and-guidance-on-vi sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

11 https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Fatfrecommendations/Fatf-recommendations.html ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Egmont guruhi moliyaviy razvedka birligi sifatida Guruhni aniqlash mezonlariga to'la mos keladigan mamlakatlarning FIU-larini qabul qilishi mumkin. Ushbu FIUlar faoliyat ko'rsatishi va barcha sherik FIUlar bilan ma'lumot almashish tamoyillari asosida ma'lumot almashish uchun huquqiy imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak.

Xalqaro valyuta fondi (International Monetary Fund — IMF) iqtisodiy jinoyatchilikka, ayniqsa pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashda muhim o'rin tutadi. Xalqaro valyuta fondi 1944-yilda Bretton-Vuds konferensiyasi qaroriga ko'ra tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi — xalqaro moliyaviy barqarorlikni saqlash, valyuta kurslarini muvozanatlash, to'lov balansi muammolarini hal etish va global moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashdan iboratdir.

Ammo 1990-yillardan boshlab global moliyaviy tizimda noqonuniy kapital oqimlari, pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish, soliq firibgarligi va korrupsiya holatlarining ortib borishi natijasida IMF o'z mandatini kengaytirdi — endi u moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashni ham o'z faoliyatining muhim yo'nalishiga aylantirdi.

Jahon banki (World Bank Group) nafaqat a'zo davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatadi, balki xalqaro iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashda XVF bilan birgalikda ishlaydi Uning faoliyati rivojlanayotgan mamlakatlarga zarur bo'lgan tahliliy va maslahat xizmatlarini ko'rsatishga qaratilgan. Jahon bankining tarkibiga davlatlar tomonidan olib borilayotgan siyosat tahlili va mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash va aholining yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida tegishli tavsiyalar ishlab chiqish kiradi. Bank atrof-muhit, qashshoqlik, savdo va globallashuv kabi keng ko'lamli masalalar bo'yicha tadqiqotlar bilan shug'ullanadi, shuningdek, ma'lum tarmoqlar bo'yicha iqtisodiy va sanoat tadqiqotlari olib boradi. Bank mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini, shu jumladan, bank va yoki moliya sektori, savdo, qashshoqlik va ijtimoiy himoya tizimlarini tahlil qiladi.

Interpol - Xalqaro Jinoyat Politsiyasi Tashkilotining qisqartirilgan nomi (1956 yildan beri), Xalqaro Jinoyat Polisi Tashkiloti (OIPC, Ingliz Xalqaro Jinoyat Politsiyasi Tashkiloti, ICPO) - asosiy vazifasi mamlakatlarning milliy huquqni muhofaza qilish organlarining sa'y-harakatlarini birlashtirishdir. umumiy jinoyatchilikka qarshi kurash qatnashchilari. Interpolning bosh qarorgohi Frantsiyaning Lion shahrida joylashgan.

Bundan tashqari, OECD, UNODC, WCO, Basel Committee on Banking Supervision, World Economic Forum (WEF), Financial Stability Board (FSB), Asia/Pacific Group on Money Laundering (APG), EAG – Evrosiyo guruhi hamda Europol kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar iqtisodiy jinoyatchilikka, xususan, korrupsiya, pul yuvish, soliqdan bo'yin tovlash, kontrabanda, moliyaviy firibgarlik hamda kiberjinoyatlarga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashkilotlar mamlakatlar o'rtasida axborot almashuvini yo'lga qo'yish, moliyaviy shaffoflikni oshirish, bank nazoratini kuchaytirish, noqonuniy kapital oqimlarini cheklash hamda global miqyosda iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan xalqaro standartlar va mexanizmlarni ishlab chiqish orqali iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali tizimini shakllantiradilar.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash bugungi globallashuv sharoitida davlatlarning alohida sa'y-harakatlari bilan cheklanib qolmay, keng qamrovli xalqaro hamkorlikni talab etadi. Xalqaro jinoyat huquqi davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asosini yaratib, milliy qonunchilik bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. FATF, Egmont guruhi, XVF, Jahon banki hamda Interpol kabi xalqaro institutlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar, tavsiyalar va axborot almashish mexanizmlari iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa jinoyatlarning transmilliy tus olishi sharoitida huquqiy mexanizmlarni uyg'unlashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Shuningdek, iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali modeli milliy huquqiy tizimlarning xalqaro normalarga moslashuvi, moliyaviy razvedka birliklari faoliyatini takomillashtirish hamda xalqaro tashkilotlar bilan institutsional hamkorlikni chuqurlashtirishga bog'liq. O'zbekiston misolida ham xalqaro standartlarni implementatsiya qilish, jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik choralarni kuchaytirish va axborot almashinuvini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Natijada davlatlar o'rtasidagi huquqiy integratsiya va o'zaro ishonch iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Shavkat Mirziyoyev. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/1063
2. Lukashuk, I. I., & Naumov, A. V. (1999). Mezhdunarodnoe ugolovnoe pravo. Moskva: Spark.
3. Saidov, A. X. (2013). Xalqaro huquq nazariyasi. Toshkent: Adolat.
4. Panov, V. P. (2007). Mezhdunarodnoe ugolovnoe pravo. Moskva: Norma.
5. Financial Action Task Force. (2012). International standards on combating money laundering and the financing of terrorism & proliferation (FATF Recommendations). Paris: FATF/OECD. https://finreg.aoshearman.com/FATF-publishes-targeted-update-and-guidance-on-vi
6. International Monetary Fund. (2021). Anti–money laundering and combating the financing of terrorism (AML/CFT) policy framework. Washington, DC: IMF.

7. United Nations Office on Drugs and Crime. (2020). Global report on transnational organized crime. Vienna: UNODC.
8. World Bank Group. (2019). Enhancing government effectiveness and transparency: The fight against corruption. Washington, DC: World Bank.
9. Egmont Group of Financial Intelligence Units. (2018). Egmont Group principles for information exchange. Brussels: Egmont Group Secretariat.
10. Interpol. (2022). International police cooperation against financial crime. Lyon: Interpol General Secretariat.
11. Basel Committee on Banking Supervision. (2014). Sound management of risks related to money laundering and financing of terrorism. Basel: Bank for International Settlements.
12. Tashmuxamedova, Y. Yangi O'zbekiston Sharoitida Soliq Ma'muriyatchiligi Transformatsiyasi Va Uning Moliyaviy Xavfsizlikka Ta'siri. Green Economy and Development, 4(1), 668670. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/8756
13. https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Fatfrecommendations/Fatf-recommendations.html

# IQTISODIY JINOYATLARNI ANIQLASH VA ULARGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING O'RNI

**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi
Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boshqarma boshlig'i

**Tursunov Bobir Ortiqmirzayevich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasi professori, DSc.

**Tashmuxamedova Yayra Atxamovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasi katta o'qituvchi, PhD.
Email: yayrusha@tsue.uz
ORCID: 0009-0002-0826-3991

Annotatsiya. Raqamli transformatsiya jarayonlari davlat boshqaruvi, iqtisodiy faoliyat va moliyaviy nazorat tizimlarini tubdan o'zgartirmoqda. Mazkur maqolada iqtisodiy jinoyatlarni aniqlash va ularga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalar – big data, elektron hukumat tizimlari, raqamli moliyaviy monitoring hamda sun'iy intellekt asosidagi tahlil vositalarining o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2022–2024-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy jinoyatlarni aniqlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish jinoyatlarni aniqlash darajasini oshirish va moliyaviy noqonuniy operatsiyalarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: iqtisodiy jinoyatlar, raqamli transformatsiya, korrupsiya, moliyaviy monitoring, big data, sun'iy intellekt.

Abstract. Digital transformation processes are fundamentally transforming systems of public administration, economic activity, and financial control. This article analyzes the role of digital technologies—such as big data, e-government systems, digital financial monitoring, and artificial intelligence-based analytical tools—in detecting and combating economic crimes. The study examines statistical data from the Republic of Uzbekistan for the period 2022–2024. The results indicate that the use of digital technologies significantly improves the detection of economic crimes and contributes to reducing illegal financial operations.

Key words: economic crimes, digital transformation, corruption, financial monitoring, big data, artificial intelligence.

Аннотация. Процессы цифровой трансформации кардинально изменяют системы государственного управления, экономической деятельности и финансового контроля. В данной статье анализируется роль цифровых технологий — таких как большие данные (Big Data), системы электронного правительства, цифровой финансовый мониторинг и аналитические инструменты на основе искусственного интеллекта — в выявлении экономических преступлений и борьбе с ними. В исследовании были проанализированы статистические данные по Республике Узбекистан за период 2022–2024 годов. Результаты показывают, что использование цифровых технологий способствует повышению эффективности выявления экономических преступлений и снижению объема незаконных финансовых операций.

Ключевые слова: экономические преступления, цифровая трансформация, коррупция, финансовый мониторинг, большие данные, искусственный интеллект.

## KIRISH

So'nggi yillarda iqtisodiy jinoyatlar global miqyosda davlat iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Bunday jinoyatlar qatoriga korrupsiya, moliyaviy firibgarlik, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, pul mablag'larini noqonuniy o'zlashtirish va boshqa turdagi iqtisodiy huquqbuzarliklar kiradi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga iqtisodiy jinoyatlarning shakllari ham murakkablashib bormoqda. Shu sababli ularni aniqlash va oldini olishda raqamli transformatsiya texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, moliyaviy monitoringni kuchaytirish hamda davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Masalan, 2024-yilda O'zbekistonda 132 298 ta jinoyat qayd etilgan bo'lib, ularning asosiy qismini firibgarlik va o'g'rilik tashkil etgan.[1] Shuningdek, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun 7 354 nafar shaxs javobgarlikka tortilgan va davlat manfaatlariga 2,8 trillion so'm zarar yetkazilgan.[2]

Shu sababli iqtisodiy jinoyatlarni aniqlashda raqamli texnologiyalarni joriy etish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy muammo hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy jinoyatlarni aniqlash va ularga qarshi kurashishda raqamli transformatsiyalarning roli so'nggi yillarda xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. Mazkur yo'nalishda tadqiqotlar asosan raqamli texnologiyalar orqali shaffoflikni oshirish, moliyaviy monitoring tizimlarini kuchaytirish hamda korrupsion xavflarni kamaytirish mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Transparency International tomonidan e'lon qilinadigan Corruption Perceptions Index ma'lumotlari global darajada korrupsiya darajasini baholashda muhim indikator sifatida qo'llanilib, raqamli boshqaruv tizimlarining rivojlanganligi korrupsiya darajasining pasayishi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi Transparency International 2025. Ushbu yondashuv OECD tomonidan ham qo'llab-quvvatlanib, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan anti-korrupsiya islohotlarida elektron hukumat, ochiq ma'lumotlar platformalari va raqamli audit tizimlari muhim vosita sifatida baholanadi OECD 2024.

World Bank tadqiqotlarida raqamli boshqaruv tizimlari iqtisodiy jinoyatlarni oldini olishda institutsional samaradorlikni oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida ko'riladi World Bank 2023. Xususan, elektron davlat xizmatlari, blokcheyn asosidagi tranzaksiya monitoringi va real vaqt rejimidagi nazorat tizimlari korrupsion va moliyaviy jinoyatlarni aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, United Nations Office on Drugs and Crime hisobotlarida raqamli texnologiyalar ikki tomonlama xususiyatga ega ekani ta'kidlanadi: bir tomondan ular jinoyatlarni aniqlashni yengillashtirsa, ikkinchi tomondan yangi turdagi kiberiqtisodiy jinoyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi United Nations Office on Drugs and Crime 2023.

Milliy darajada olib borilgan tadqiqotlar ham ushbu yo'nalishning dolzarbligini tasdiqlaydi. O'zbekiston Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy monitoring va pul yuvishga qarshi kurash (AML) tizimlari raqamli platformalar orqali shubhali operatsiyalarni aniqlash samaradorligini sezilarli darajada oshirayotganini ko'rsatadi Central Bank of Uzbekistan 2024. Xalqaro valyuta fondi esa moliyaviy shaffoflikni ta'minlashda raqamlashtirishning ahamiyatini alohida ta'kidlab, raqamli identifikatsiya, ma'lumotlar integratsiyasi va avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlari orqali iqtisodiy jinoyatlar xavfini kamaytirish mumkinligini asoslaydi International Monetary Fund 2023.

O'zbek olimlaridan Tashmuxamedova Y. tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimi xavfsizligini ta'minlash va soliq ma'muriyatchiligini transformatsiya qilish masalalari chuqur tahlil qilingan. Muallif raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali soliq intizomini oshirish, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish va budjet tushumlarini barqarorlashtirish mumkinligini ilmiy asoslaydi Tashmuxamedova 2024. Shuningdek, uning keyingi ishlarida soliq ma'muriyatchiligi transformatsiyasi moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim instrument sifatida baholanib, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili asosida nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ko'rsatib o'tiladi Tashmuxamedova.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiyalar iqtisodiy jinoyatlarni aniqlash va ularga qarshi kurashishda nafaqat texnologik vosita, balki institutsional islohotlarning ajralmas elementi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni bilan bog'liq yangi xavflar, xususan kiberjinoyatlar va ma'lumotlar xavfsizligi muammolari ushbu sohada kompleks yondashuvni talab etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Statistik tahlil usuli – O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistik ma'lumotlari asosida iqtisodiy jinoyatlar dinamikasi o'rganildi. Unda quyidagi formuladan foydalanildi:

1 https://www.uzdaily.uz/en/the-number-of-crimes-in-uzbekistan-in-2024-exceeded-132000-cases
2 https://www.gazeta.uz/en/2025/09/21/corruption

$$Growth\ Rate = \frac{Y_t - Y_{t-1}}{Y_{t-1}} \times 100$$

Taqqoslash usuli – 2022–2024-yillar kesimida iqtisodiy jinoyatlar ko'rsatkichlari solishtirildi.

Tizimli tahlil usuli – raqamli transformatsiya vositalarining iqtisodiy jinoyatlarni aniqlashdagi o'rni tahlil qilindi.

Empirik ma'lumotlarni umumlashtirish – davlat organlari hisobotlari, ilmiy maqolalar va ochiq statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha rasmiy hisobotlar ma'lumotlari tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Quyidagi jadvalda 2022–2024-yillarda iqtisodiy jinoyatlar bilan bog'liq ayrim ko'rsatkichlar keltirilgan (1-jadval).

1- jadval. O'zbekistonda iqtisodiy jinoyatlar bilan bog'liq ayrim ko'rsatkichlar (2022–2024-yillar)[3]

| Ko'rsatkich | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|
| Jami qayd etilgan jinoyatlar | 111 082 | 124 683 | 132 298 |
| Firibgarlik holatlari | 23 112 | 26 352 | 29 252 |
| O'g'rilik holatlari | 41 203 | 44 892 | 48 375 |
| Korrupsiya uchun javobgarlikka tortilgan shaxslar | 7 414 | 6 535 | 7 354 |

Ma'lumotlarga ko'ra, iqtisodiy jinoyatlar tarkibida eng katta ulushni o'g'rilik va firibgarlik tashkil etadi. Masalan, 2024-yilda iqtisodiy jinoyatlar tarkibida o'g'rilik 58,1 %, firibgarlik esa 35,1 % ni tashkil etgan.

Bundan tashqari, 2024-yilda 7 354 nafar shaxs korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilgan va yetkazilgan zarar 2,8 trillion so'mni tashkil etgan.

Ushbu ko'rsatkichlar quyidagilarni ko'rsatadi:

- 2022–2024-yillarda jinoyatlar soni 19 % ga oshgan
- firibgarlik jinoyatlari 26 % ga oshgan
- o'g'rilik jinoyatlari 17 % ga oshgan (2-jadval).

2- jadval. Korrupsiya jinoyatlari dinamikasi[4]

| Yil | Javobgarlikka tortilgan shaxslar | Yetkazilgan zarar (so'm) |
|---|---|---|
| 2022 | 7 414 | 2.0 trillion |
| 2023 | 6 535 | 2.5 trillion |
| 2024 | 7 354 | 2.8 trillion |

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak korrupsiya jinoyatlari hali ham iqtisodiy jinoyatlar tarkibida muhim o'ringa ega ekanligini, hamda davlatga yetkazilgan zarar yil sayin oshib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Bu iqtisodiy faoliyatning kengayishi va raqamli firibgarliklarning ortishi bilan izohlanadi.

Bizning fikrimizcha, bunday vaziyatlarning yuzaga kelishida quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin:

- ✓ iqtisodiy faoliyat hajmining oshishi
- ✓ raqamli firibgarliklarning ko'payishi
- ✓ moliyaviy operatsiyalarning kengayishi

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan kiberjinoyatlar ham sezilarli darajada ko'paymoqda. Masalan, bank kartalari bilan bog'liq firibgarliklar iqtisodiy jinoyatlarning eng keng tarqalgan shakllaridan biriga aylangan. Bugungi kunda O'zbekistonda rasmiy ma'lumotlarga qaraganda 2024-yilda 58 800 ta kiberjinoyat, shundan 97,7 % bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik qayd etilgan.[5]

Aslida, kiberjinoyatlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- phishing hujumlari

3 Muallif tomonidan Statistika qo'mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va OAV ma'lumotlari asosida tuzilgan.
4 https://www.gazeta.uz/en/2025/09/21/corruption/
5 https://kun.uz/en/news/2025/02/27/crime-rate-in-uzbekistan-mia-reports-nearly-200-offenses-per-100000-people-for-2024

- bank kartalaridan noqonuniy foydalanish
- onlayn firibgarlik
- kriptovalyuta orqali pul yuvish

Shunday ekan raqamli transformatsiya bugungi kunda iqtisodiy jinoyatlarni aniqlashda ko'plab imkoniyatlarni yaratmoqda. Bularga:

1. Elektron hukumat tizimlari. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish korrupsiya xavfini kamaytiradi va inson omilini qisqartiradi.
2. Moliyaviy monitoring tizimlari. Bank operatsiyalarini avtomatik monitoring qilish orqali noqonuniy pul oqimlari aniqlanadi.
3. Big Data va sun'iy intellect. Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali shubhali tranzaksiyalar aniqlanadi.
4. Raqamli soliq nazorati. Elektron hisob-faktura, onlayn-kassa va soliq monitoring tizimlari yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy jinoyatlarning asosiy qismi moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq bo'lib, ularni aniqlashda raqamli texnologiyalarning roli tobora ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida Raqamli transformatsiyaning asosiy afzalliklari ko'rsatib beradi:

- ✓ davlat nazoratining avtomatlashtirilishi
- ✓ moliyaviy operatsiyalar shaffofligining oshishi
- ✓ korrupsiya xavfining kamayishi
- ✓ noqonuniy tranzaksiyalarni tez aniqlash

Shuningdek, mamlakatda pul mablag'larini legallashtirishga qarshi kurashish tizimi xalqaro standartlar asosida takomillashtirilmoqda. Shuningdek, xalqaro reytinglarga ko'ra O'zbekiston korrupsiya darajasi bo'yicha Transparency International indeksida 31 ball bilan 124-o'rinda qayd etilgan.[6] Bu esa korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq ayrim muammolar ham mavjud:
kiberjinoyatlar sonining oshishi;
ma'lumotlar xavfsizligi muammolari;
texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi.

Masalan, 2024-yilda mamlakatda 58 800 ta kiberjinoyat qayd etilgan bo'lib, ularning 97,7 %i bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik holatlaridir. [7]

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli ham, O'zbekistonda iqtisodiy jinoyatlarni aniqlash samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- moliyaviy monitoring tizimlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish;
- davlat organlari ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish;
- raqamli soliq nazorati tizimini takomillashtirish;
- kiberxavfsizlikni kuchaytirish.

Bu esa kelgusi rivojlanishda iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashishda raqamli platformalar, sun'iy intellekt va big data tahlili asosiy instrumentlardan biriga aylanishi kutilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Anti-Corruption Agency of Uzbekistan. (2024). *National report on anti-corruption measures*.
2. Gazeta.uz. (2025). Corruption crimes statistics in Uzbekistan.
3. Kun.uz. (2025). Crime rate in Uzbekistan statistics.
4. Statistics Agency of Uzbekistan. (2025). *Crime and justice statistics*.
5. Transparency International. (2025). *Corruption Perceptions Index*.
6. OECD. (2024). *Anti-corruption reforms in Uzbekistan*.
7. World Bank. (2023). *Digital governance and anti-corruption mechanisms*.
8. United Nations Office on Drugs and Crime. (2023). *Economic crime and digital technologies*.
9. Central Bank of Uzbekistan. (2024). *Financial monitoring and AML systems*.
10. International Monetary Fund. (2023). *Digitalization and financial transparency*.
11. Tashmuxamedova, Y. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida o 'zbekistonda soliq tizimi xavfsizligini ta'minlash. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(12).
12. Tashmuxamedova, Y. Yangi O 'zbekiston Sharoitida Soliq Ma'muriyatchiligi Transformatsiyasi Va Uning Moliyaviy Xavfsizlikka Ta'siri. Green Economy and Development, 4(1), 668670.


6 https://kun.uz/en/news/2026/02/11/uzbekistans-anti-corruption-progress-stalls-as-country-drops-in-2025-global-index
7 https://kun.uz/en/news/2025/02/27/crime-rate-in-uzbekistan-mia-reports-nearly-200-offenses-per-100000-people-for-2024

# 6-SHO'BA

# RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

**Azlarova Mushtariybegim Abror qizi**
Sarbon universiteti,
"Iqtisodiyot va servis" kafedrasi o'qituvchisi
Email: mushtariy.azlarova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonlik darajasini raqamli texnologiyalar vositasida oshirish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida 1200 nafar respondentdan anketa so'rovi o'tkazilgan bo'lib, ularning moliyaviy bilim, ko'nikma va xulq-atvor ko'rsatkichlari OECD/INFE metodologiyasi asosida baholangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilarning moliyaviy savodxonlik darajasi an'anaviy moliyaviy vositalardan foydalanuvchilarga nisbatan 34,7% yuqori ekanligi aniqlangan. Shuningdek, mobil ilovalar orqali moliyaviy ta'lim olgan guruhda budjetlashtirish ko'nikmasi 2,3 baravar oshganligi statistik jihatdan isbotlangan ($p < 0,01$). Tadqiqot yakunida raqamli moliyaviy ekotizimni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, raqamli texnologiyalar, fintech, moliyaviy inkluzivlik, mobil to'lovlar, raqamli iqtisodiyot, OECD/INFE metodologiyasi.

Abstract. This article examines the opportunities to enhance the financial literacy of the population of Uzbekistan through digital technologies. During the study, a survey was conducted among 1,200 respondents, and their financial knowledge, skills, and behavior indicators were assessed based on the OECD/INFE methodology. The results showed that the level of financial literacy among users of digital financial services is 34.7% higher compared to users of traditional financial instruments. In addition, it was statistically proven that budgeting skills increased by 2.3 times among the group that received financial education through mobile applications ($p < 0.01$). At the conclusion of the study, practical recommendations were developed for the advancement of the digital financial ecosystem.

Key words: financial literacy, digital technologies, fintech, financial inclusion, mobile payments, digital economy, OECD/INFE methodology.

Аннотация. В данной статье исследуются возможности повышения уровня финансовой грамотности населения Узбекистана с использованием цифровых технологий. В ходе исследования был проведён анкетный опрос среди 1200 респондентов, а их знания, навыки и поведенческие показатели в области финансов оценивались на основе методологии OECD/INFE. Результаты показали, что уровень финансовой грамотности пользователей цифровых финансовых услуг на 34,7% выше по сравнению с пользователями традиционных финансовых инструментов. Кроме того, статистически доказано, что у группы, получавшей финансовое образование через мобильные приложения, навыки бюджетирования увеличились в 2,3 раза ($p < 0,01$). По итогам исследования разработаны практические рекомендации по развитию цифровой финансовой экосистемы.

Ключевые слова: финансовая грамотность, цифровые технологии, финтех, финансовая инклюзия, мобильные платежи, цифровая экономика, методология OECD/INFE.

## KIRISH

Moliyaviy savodxonlik — bu shaxsning pul mablag'larini samarali boshqarish, asosli moliyaviy qarorlar qabul qilish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka erishish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma hamda xulq-atvorlar majmui sifatida shakllanib bormoqda[1]. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda ushbu kompetensiya nafaqat individual farovonlikni ta'minlashga, balki milliy iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

1 Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. Journal of Economic Literature, 52(1), 5–44.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda aholining 30 % qismi asosiy moliyaviy tushunchalarga ega bo'lgani ushbu yo'nalishda yanada keng qamrovli rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi[2]. OECD mamlakatlari o'rtacha ko'rsatkichlari bilan solishtirganda, milliy tizimni takomillashtirish va ilg'or tajribalarni joriy etish istiqbollari kengligi namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun yangi va samarali imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. 2024-yilning oxiriga kelib 28,5 million mobil internet foydalanuvchisining mavjudligi, ya'ni aholining 76 % qamrab olingani[3], raqamli ta'lim platformalarini keng joriy etish uchun mustahkam asos yaratadi. Raqamli to'lovlar hajmining 2020–2024-yillar davomida 4,8 baravar oshgani esa aholining moliyaviy xizmatlar bilan integratsiyasi ortib borayotganini ko'rsatadi[4]. Ushbu tendensiyalar asosida raqamli vositalar orqali moliyaviy ta'limni rivojlantirish, uning qamrovi va samaradorligini yanada oshirish mumkinligi prognoz qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonlik darajasini raqamli texnologiyalar vositasida oshirish imkoniyatlarini ilmiy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: (a) aholining hozirgi moliyaviy savodxonlik darajasini baholash; (b) raqamli moliyaviy xizmatlarning moliyaviy savodxonlikka ta'sirini aniqlash; (c) xalqaro tajribani o'rganish va taqqoslash; (d) raqamli ekotizimni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalar asosida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar moliyaviy bilimlarning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi o'rni, ularning shakllanish mexanizmlari hamda samarali rivojlantirish vositalarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Moliyaviy savodxonlikning nazariy asoslari va iqtisodiy ahamiyati Annamaria Lusardi hamda Olivia S. Mitchell tomonidan keng o'rganilgan. Ular moliyaviy savodxonlikni iqtisodiy barqarorlikning muhim omili sifatida baholab, aholining moliyaviy bilim darajasi past bo'lishi noto'g'ri qarorlar, qarzdorlikning oshishi va jamg'arma yetishmasligiga olib kelishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Shawn J. Huston moliyaviy savodxonlikni o'lchash metodologiyasini ishlab chiqib, uni bilim va qo'llash ko'nikmalarining uyg'unligi sifatida talqin etadi.

Moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonining hayotiy sikl bilan bog'liqligi Sumit Agarwal, John C. Driscoll, Xavier Gabaix hamda David Laibson tomonidan chuqur tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy qarorlar samaradorligi yosh, tajriba va kognitiv imkoniyatlarga bog'liq bo'lib, ayniqsa yoshlar va keksa qatlamda moliyaviy xatoliklar ko'proq uchraydi. Bu esa moliyaviy savodxonlikni uzluksiz ravishda rivojlantirish zaruratini asoslaydi.

Moliyaviy ta'lim va uning real xulq-atvorga ta'siri masalasi Daniel Fernandes, John G. Lynch Jr. va Richard G. Netemeyer tomonidan empirik jihatdan o'rganilgan. Ular moliyaviy ta'lim dasturlarining qisqa muddatli ta'siri cheklangan bo'lishi mumkinligini, ammo tizimli va uzoq muddatli yondashuvlar orqali sezilarli natijalarga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Tim Kaiser va Lukas Menkhoff moliyaviy ta'limning samaradorligi bo'yicha meta-tahlil o'tkazib, uning ijobiy, ammo o'rtacha darajadagi ta'sirga ega ekanligini ilmiy asoslab beradi.

Moliyaviy inklyuziya va ta'limning o'zaro bog'liqligi Adele Atkinson hamda Flore-Anne Messy tomonidan OECD doirasida o'rganilgan bo'lib, ular moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini kengaytirish mumkinligini ko'rsatadi. Xuddi shu yo'nalishda Leora Klapper, Annamaria Lusardi va Peter van Oudheusden global miqyosdagi tadqiqotlar asosida moliyaviy savodxonlik darajasi mamlakatlar kesimida keskin farq qilishini va rivojlanayotgan davlatlarda bu ko'rsatkich past ekanligini aniqlagan.

Moliyaviy savodxonlikning investitsion xulq-atvorga ta'siri Lei Liao, Jing Jian Xiao, Wei Zhang va Chong Zhou tadqiqotlarida aks etgan bo'lib, ular moliyaviy bilim darajasi yuqori bo'lgan shaxslar riskli aktivlarga ongli ravishda sarmoya kiritishini va portfel diversifikatsiyasini samarali amalga oshirishini asoslaydi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar raqamli texnologiyalarni moliyaviy savodxonlikni oshirish vositasi sifatida qo'llash zaruratini ham bilvosita asoslaydi. Zamonaviy sharoitda mobil ilovalar, onlayn ta'lim platformalari, sun'iy intellekt asosidagi maslahat tizimlari va fintech yechimlari moliyaviy bilimlarni keng ommaga tez va samarali yetkazish imkonini bermoqda. Shu bois, klassik moliyaviy ta'lim modellari raqamli infratuzilma bilan integratsiyalashgan holda yangi bosqichga ko'tarilmoqda va bu yo'nalish ilmiy tadqiqotlarning dolzarb mavzularidan biri sifatida shakllanmoqda.

2 World Bank. (2022). Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. Washington, DC.

3 O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. (2024). Raqamli O'zbekiston — 2030 strategiyasi: amalga oshirish natijalari.

4 CBU. (2025). O'zbekistonda raqamli to'lovlar statistikasi: 2024-yil yakunlari. Toshkent: Markaziy bank nashriyoti.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda OECD/INFE (International Network on Financial Education) tomonidan ishlab chiqilgan standart metodologiya qo'llanilgan[5]. Ushbu metodologiya moliyaviy savodxonlikni uchta asosiy komponent bo'yicha baholaydi: moliyaviy bilim (financial knowledge), moliyaviy xulq-atvor (financial behaviour) va moliyaviy munosabat (financial attitude).

2024-yil sentabr–dekabr oylarida O'zbekistonning 6 ta viloyati (Toshkent shahri, Samarqand, Farg'ona, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo) bo'yicha 1200 nafar respondentdan anketa so'rovi o'tkazilgan. Namuna stratifikatsiyalangan tasodifiy tanlash usulida shakllantirilgan (1-jadval).

1-jadval. Respondentlarning demografik tarkibi (n = 1200)

| Ko'rsatkich | Kategoriya | Soni | Ulushi (%) |
|---|---|---|---|
| **Yosh** | 18–30 yosh | 408 | 34,0 |
| | 31–45 yosh | 396 | 33,0 |
| | 46–60 yosh | 264 | 22,0 |
| | 60 yoshdan yuqori | 132 | 11,0 |
| Jinsi | Erkak | 612 | 51,0 |
| | Ayol | 588 | 49,0 |
| **Yashash joyi** | Shahar | 648 | 54,0 |
| | Qishloq | 552 | 46,0 |
| **Ta'lim darajasi** | O'rta | 276 | 23,0 |
| | O'rta maxsus | 384 | 32,0 |
| | Oliy | 540 | 45,0 |

Tadqiqot usullari: anketa so'rovi (OECD/INFE standarti bo'yicha 30 ta savol), yarim tizimli intervyu (50 nafar respondent), statistik tahlil (SPSS 27.0 dasturi). Moliyaviy savodxonlik indeksi 21 ball tizimida (bilim — 7, xulq-atvor — 9, munosabat — 5 ball) baholangan[6].

Respondentlar ikkita asosiy guruhga bo'lingan: (1) raqamli moliyaviy xizmatlardan faol foydalanuvchilar (n = 684) va (2) an'anaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilar (n = 516). Guruhlararo farqlarni aniqlash uchun Student t-testi va $\chi^2$-test qo'llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, respondentlarning umumiy moliyaviy savodxonlik indeksi o'rtacha 12,4 ballni tashkil etib, uni xalqaro ilg'or ko'rsatkichlar darajasiga yaqinlashtirish uchun qo'shimcha rivojlantirish salohiyati mavjud. Mazkur natija OECD mamlakatlarining o'rtacha 14,8 ball ko'rsatkichlari bilan solishtirilganda, ushbu yo'nalishda tizimli va maqsadli chora-tadbirlarni kengaytirish zarurligini anglatadi. Komponentlar bo'yicha batafsil tahlil 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Moliyaviy savodxonlik komponentlari bo'yicha natijalar

| Komponent | Max ball | O'rtacha | Std. og'ish | OECD o'rtacha |
|---|---|---|---|---|
| Moliyaviy bilim | 7 | 4,1 | 1,82 | 4,9 |
| Moliyaviy xulq-atvor | 9 | 5,2 | 2,14 | 6,1 |
| Moliyaviy munosabat | 5 | 3,1 | 1,23 | 3,8 |
| Umumiy indeks | 21 | 12,4 | 3,47 | 14,8 |

Raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish va moliyaviy savodxonlik o'rtasidagi bog'liqlik statistik jihatdan muhim ekanligi aniqlangan (3-jadval).

5 OECD. (2020). OECD/INFE 2020 International Survey of Adult Financial Literacy. Paris: OECD Publishing.
6 Huston, S. J. (2010). Measuring Financial Literacy. Journal of Consumer Affairs, 44(2), 296–316.

3- jadval. Raqamli va an'anaviy foydalanuvchilar guruhlarining taqqoslanishi

| Ko'rsatkich | Raqamli (n=684) | An'anaviy (n=516) | t-qiymat | p-qiymat |
|---|---|---|---|---|
| Moliyaviy bilim | 4,8 ± 1,61 | 3,2 ± 1,73 | 15,72 | < 0,001*** |
| Moliyaviy xulq-atvor | 6,1 ± 1,89 | 4,0 ± 2,07 | 17,34 | < 0,001*** |
| Moliyaviy munosabat | 3,5 ± 1,11 | 2,6 ± 1,28 | 12,18 | < 0,001*** |
| Umumiy indeks | 14,4 ± 3,12 | 9,8 ± 3,54 | 22,41 | < 0,001*** |

Izoh: *** p < 0,001 darajasida statistik muhim

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilarning umumiy moliyaviy savodxonlik indeksi (14,4 ball) an'anaviy foydalanuvchilarnikidan (9,8 ball) 46,9% ga yuqori bo'lib, bu farq barcha uchta komponent bo'yicha statistik jihatdan muhim (p < 0,001).

Yosh guruhlari bo'yicha tahlil raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi (4-jadval).

4- jadval. Yosh guruhlari bo'yicha raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish

| Yosh guruhi | Mobil bank (%) | E-hamyon (%) | Onlayn kredit (%) | MS indeksi |
|---|---|---|---|---|
| 18–30 yosh | 87,5 | 72,3 | 31,4 | 15,2 |
| 31–45 yosh | 74,2 | 58,6 | 28,7 | 13,8 |
| 46–60 yosh | 42,8 | 27,4 | 12,1 | 10,6 |
| 60+ yosh | 18,3 | 9,1 | 3,8 | 8,4 |

Izoh: MS indeksi — moliyaviy savodxonlik indeksi (21 ballik tizimda)

Spearman korrelyatsiya tahlili raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish va moliyaviy savodxonlik indeksi o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik borligini tasdiqladi (rs = 0,68; p < 0,001). Bu natija xalqaro tadqiqotlar xulosalariga mos keladi[7].

O'zbekistonda raqamli to'lovlar tizimining 2020–2024 yillardagi dinamikasi 5-jadvalda keltirilgan (5-jadval).

5- jadval. O'zbekistonda raqamli to'lovlar dinamikasi (2020–2024)

| Ko'rsatkich | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|---|---|
| Mobil bank foydalanuvchilar (mln) | 6,2 | 9,8 | 14,3 | 19,7 | 24,1 |
| Raqamli to'lovlar hajmi (trln so'm) | 48,3 | 87,6 | 134,2 | 189,5 | 231,8 |
| E-hamyon foydalanuvchilar (mln) | 3,1 | 5,7 | 8,9 | 12,4 | 16,8 |
| Onlayn kredit operatsiyalari (ming) | 124 | 387 | 892 | 1 540 | 2 310 |
| Naqdsiz to'lovlar ulushi (%) | 22,1 | 31,4 | 39,8 | 47,2 | 54,6 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2020–2024 yillarda mobil bank foydalanuvchilari soni 3,9 baravar, raqamli to'lovlar hajmi 4,8 baravar, naqdsiz to'lovlar ulushi esa 22,1% dan 54,6% gacha o'sgan. Bu tendensiya raqamli moliyaviy ekotizimning jadal rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

Shahar va qishloq aholisi o'rtasida raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish va moliyaviy savodxonlik ko'rsatkichlarida sezilarli tafovutlar mavjud (6-jadval).

6- jadval. Shahar va qishloq aholisining moliyaviy savodxonlik ko'rsatkichlari

| Ko'rsatkich | Shahar (n=648) | Qishloq (n=552) | Farq (%) |
|---|---|---|---|
| MS umumiy indeksi | 13,8 | 10,7 | +29,0 |
| Mobil bank foydalanuvchilar (%) | 78,4 | 48,2 | +62,7 |
| Moliyaviy rejalashtirish qiladi (%) | 54,2 | 31,7 | +71,0 |
| Jamg'arma mavjud (%) | 41,3 | 22,8 | +81,1 |

7 Kaiser, T., & Menkhoff, L. (2017). Does Financial Education Impact Financial Literacy and Financial Behavior? Journal of Economic Surveys, 31(4), 989–1008.

Tahlil natijalari shahar aholisining barcha ko'rsatkichlarda qishloq aholisidan ustunligini ko'rsatdi. Ayniqsa, moliyaviy rejalashtirish va jamg'arma egallash ko'rsatkichlarida farq yuqori bo'lib, bu raqamli texnologiyalarga kirish imkoniyatidagi tafovutlar bilan bevosita bog'liq[8].

Moliyaviy savodxonlik indeksiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida ko'p omilli regressiya tahlili o'tkazilgan (7-jadval).

7- jadval. Moliyaviy savodxonlik indeksiga ta'sir etuvchi omillar (regressiya tahlili)

| O'zgaruvchi | β | Std. xatolik | t-qiymat | p-qiymat |
|---|---|---|---|---|
| Raqamli xizmatlardan foydalanish | 0,412 | 0,034 | 12,12 | < 0,001*** |
| Ta'lim darajasi | 0,287 | 0,041 | 7,00 | < 0,001*** |
| Yosh (yosh = yuqori) | −0,198 | 0,028 | −7,07 | < 0,001*** |
| Daromad darajasi | 0,174 | 0,037 | 4,70 | < 0,001*** |
| Yashash joyi (shahar = 1) | 0,153 | 0,045 | 3,40 | < 0,001*** |
| Jinsi (erkak = 1) | 0,067 | 0,039 | 1,72 | 0,086 |

Izoh: $R^2 = 0,584$; $F(6, 1193) = 279,4$; $p < 0,001$. *** $p < 0,001$

Regressiya tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, moliyaviy savodxonlik indeksining eng kuchli prediktorlari raqamli xizmatlardan foydalanish (β = 0,412), ta'lim darajasi (β = 0,287) va yosh (β = −0,198) hisoblanadi. Model umumiy dispersiyaning 58,4% ini tushuntiradi ($R^2 = 0,584$).

Tadqiqot natijalari bir qancha muhim ilmiy xulosalar va istiqbolli metodik yo'nalishlarni shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonlik darajasi (12,4 ball)ni OECD mamlakatlari o'rtacha ko'rsatkichlariga yaqinlashtirish uchun tizimli islohotlar va innovatsion ta'lim yondashuvlarini keng joriy etish zarur. Mazkur holat Jahon bankining 2022-yildagi Global Findex hisobotidagi xulosalar bilan uyg'un bo'lib, milliy darajada rivojlanish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish moliyaviy savodxonlikning barcha komponentlari bo'yicha ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatishi aniqlangani ushbu yo'nalishni ustuvor rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi. Regressiya tahlilida raqamli xizmatlarning eng kuchli prediktiv omil (β = 0,412) sifatida namoyon bo'lishi, kelgusida raqamli platformalar asosida ta'lim dasturlarini kengaytirish orqali yanada yuqori natijalarga erishish mumkinligini prognoz qilish imkonini beradi. Ushbu natijalar Kaiser va Menkhoff hamda Fernandes va boshqalarning xalqaro tadqiqotlari bilan hamohangdir.

Uchinchidan, yosh guruhlari kesimidagi tahlillar raqamli texnologiyalarni yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial yondashuv asosida joriy etish zarurligini ko'rsatadi. 18–30 yosh guruhidagi respondentlarda moliyaviy savodxonlik darajasining yuqoriligi raqamli muhitga moslashuvchanlik bilan bog'liq bo'lib, bu tajribani boshqa yosh guruhlariga ham moslashtirish orqali umumiy savodxonlik darajasini oshirish mumkin. Bu natijalar Agarwal va hamkasblarining ilmiy qarashlarini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

To'rtinchidan, shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish orqali moliyaviy savodxonlik darajasini muvozanatlashtirish imkoniyati mavjud. Qishloq hududlarida mobil bank xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirishga qaratilgan infratuzilmaviy va ta'limiy chora-tadbirlar kompleks tarzda amalga oshirilsa, ushbu tafovutni sezilarli darajada qisqartirish mumkin. Xalqaro tajriba ham mazkur yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, raqamli texnologiyalar moliyaviy savodxonlikni oshirishning samarali vositasi sifatida ilmiy asoslangan bo'lib, ularni maqsadli ta'lim dasturlari bilan integratsiyalashgan holda qo'llash eng yuqori natijadorlikni ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, kelgusida raqamli va an'anaviy ta'lim yondashuvlarini uyg'unlashtirgan kompleks modelni ishlab chiqish moliyaviy savodxonlikni barqaror oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalar va istiqbolli metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonlik darajasi (12,4/21 ball)ni xalqaro ilg'or tajribalar asosida izchil oshirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlantirilishi lozim. Bu yo'nalishda kompleks va tizimli yondashuv kutilayotgan natijalarni ta'minlashi mumkin.

8 Klapper, L., Lusardi, A., & van Oudheusden, P. (2015). Financial Literacy Around the World. Standard & Poor's Ratings Services Global Financial Literacy Survey.

2. Raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilarning moliyaviy savodxonlik darajasi an'anaviy foydalanuvchilarga nisbatan 46,9% yuqori ekanligi ($p < 0,001$) raqamli platformalar orqali ta'lim berishning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Shu asosda, kelgusida moliyaviy ta'limni keng ko'lamda raqamli formatga o'tkazish natijadorlikni yanada oshirishi prognoz qilinadi.

3. Mobil ilovalar orqali gamifikatsiyalashtirilgan moliyaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish foydalanuvchilarning amaliy ko'nikmalarini sezilarli darajada mustahkamlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, interaktiv kontentdan foydalanish budjetlashtirish ko'nikmalarining 2,3 baravar oshishiga xizmat qilgani ushbu yondashuvning istiqbolliligini ko'rsatadi.

4. Shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi raqamli tafovutni bosqichma-bosqich qisqartirish maqsadida qishloq hududlarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish va hududiy xususiyatlarga moslashtirilgan moliyaviy savodxonlik dasturlarini joriy etish muhim natijalar berishi kutiladi.

5. 46 yoshdan yuqori aholi qatlamlari uchun soddalashtirilgan va amaliy yo'naltirilgan raqamli moliyaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni mahalla institutlari orqali tizimli tatbiq etish ushbu guruhning moliyaviy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

6. Davlat va xususiy sektor hamkorligida yagona raqamli moliyaviy savodxonlik platformasini shakllantirish orqali o'quv materiallari, interaktiv vositalar va amaliy mashqlarni integratsiyalashgan holda taqdim etish, umumiy ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, moliyaviy madaniyatni keng ommalashtirishga zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Agarwal, S., Driscoll, J. C., Gabaix, X., & Laibson, D. (2009). The Age of Reason: Financial Decisions over the Life Cycle and Implications for Regulation. Brookings Papers on Economic Activity, 2009(2), 51–117.
2. Atkinson, A., & Messy, F. A. (2013). Promoting Financial Inclusion through Financial Education. OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions, No. 34.
3. Fernandes, D., Lynch, J. G., & Netemeyer, R. G. (2014). Financial Literacy, Financial Education, and Downstream Financial Behaviors. Management Science, 60(8), 1861–1883.
4. Huston, S. J. (2010). Measuring Financial Literacy. Journal of Consumer Affairs, 44(2), 296–316.
5. Kaiser, T., & Menkhoff, L. (2017). Does Financial Education Impact Financial Literacy and Financial Behavior? Journal of Economic Surveys, 31(4), 989–1008.
6. Klapper, L., Lusardi, A., & van Oudheusden, P. (2015). Financial Literacy Around the World. Standard & Poor's Ratings Services Global Financial Literacy Survey.
7. Liao, L., Xiao, J. J., Zhang, W., & Zhou, C. (2017). Financial Literacy and Risky Asset Holdings: Evidence from China. Accounting & Finance, 57(5), 1383–1415.
8. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. Journal of Economic Literature, 52(1), 5–44.
9. OECD. (2020). OECD/INFE 2020 International Survey of Adult Financial Literacy. Paris: OECD Publishing.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Moliyaviy barqarorlik sharhi, 2024-yil 1-yarim yillik. Toshkent.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). O'zbekistonda raqamli to'lovlar statistikasi: 2024-yil yakunlari. Toshkent.
12. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. (2025). O'zbekiston aholisining raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'rsatkichlari (2020–2024).
13. World Bank. (2022). Global Findex Database 2021. Washington, DC: World Bank Group.

# RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINING ROLI

**Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna**
"Bank ishi" kafedrasi dotsenti i.f.d., (DSc)
Email: mohichehra89@list.ru
ORCID: 0000-0002-0779-2632

**Azlarova Aziza Axrorovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Bank ishi" kafedrasi professori, i.f.n.
Email: a.azlarova@tsue.uz
ORCID:0000-0002-4873-7998

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida plastik kartalar va raqamli to'lov operatsiyalari xavfsizligini ta'minlovchi davlat institutsional mexanizmlarining samaradorligi xalqaro standartlar — PCI DSS v4.0, NIST CSF 2.0 va PSD2 bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Legal-Institutional Compliance Index (LICI) metodologiyasi asosida O'zbekiston uchun 1.83/3.0 kompozit indeks aniqlangan. Alazzam va boshqalar 2026-yildagi empirik parametrlariga (LFA → CT: $\beta = -0.55$, $p < 0.001$) asoslanib, joriy LICI darajasida taxminan 38% kibertahdidlarni kamaytirish salohiyati mavjudligi aniqlangan. Tahlil natijalari institutsional tizimning eng zaif bo'g'inlari sifatida koordinatsiya mexanizmlarining yetarli darajada institutsionallashmaganligi hamda PCI DSS sertifikatsiyasining cheklanganligini ko'rsatadi. Maqola CERT-CBU faoliyatini kuchaytirish, maxsus qonunchilikni takomillashtirish va tokenizatsiya standartlarini majburiy joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan siyosiy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: plastik kartalar, raqamli to'lovlar, kibertahdidlar, institutsional mexanizm, PCI DSS, NIST CSF, PSD2, moliyaviy xavfsizlik, tokenizatsiya, LICI indeksi.

Abstract. This article analyzes the effectiveness of state institutional mechanisms ensuring the security of plastic cards and digital payment operations in the Republic of Uzbekistan through a comparative assessment against international standards — PCI DSS v4.0, NIST CSF 2.0, and PSD2. Based on the Legal-Institutional Compliance Index (LICI) methodology, a composite index of 1.83/3.0 was identified for Uzbekistan. Drawing on the empirical parameters of Alazzam et al. (2026) (LFA → CT: $\beta = -0.55$, $p < 0.001$), the study demonstrates that at the current LICI level there is a potential to reduce cyber threats by approximately 38%. The findings reveal that the weakest components of the institutional system are the insufficient institutionalization of coordination mechanisms and the limited implementation of PCI DSS certification. The article concludes with evidence-based policy recommendations aimed at strengthening CERT-CBU activities, improving specialized legislation, and mandating tokenization standards.

Key words: plastic cards, digital payments, cyber threats, institutional mechanisms, PCI DSS, NIST CSF, PSD2, financial security, tokenization, LICI index.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ эффективности государственных институциональных механизмов обеспечения безопасности пластиковых карт и цифровых платёжных операций в Республике Узбекистан на основе международных стандартов — PCI DSS v4.0, NIST CSF 2.0 и PSD2. На основе методологии Legal-Institutional Compliance Index (LICI) для Узбекистана определён композитный индекс на уровне 1.83/3.0. С учётом эмпирических параметров Alazzam и др. 2026 года (LFA → CT: $\beta = -0.55$, $p < 0.001$) установлено, что при текущем уровне LICI существует потенциал снижения киберугроз примерно на 38%. Результаты анализа показали, что наиболее уязвимыми элементами институциональной системы являются недостаточная институционализация механизмов координации и ограниченное внедрение сертификации PCI DSS. В заключение представлены научно обоснованные рекомендации по усилению деятельности CERT-CBU, совершенствованию специального законодательства и обязательному внедрению стандартов токенизации.

Ключевые слова: пластиковые карты, цифровые платежи, киберугрозы, институциональные механизмы, PCI DSS, NIST CSF, PSD2, финансовая безопасность, токенизация, индекс LICI.

## KIRISH

Raqamli to'lov tizimlari global iqtisodiyotning asosiy infratuzilma elementiga aylanib bormoqda. Nasdaq Global Financial Crime Report 2024 ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda moliyaviy firibgarlik zararining umumiy hajmi 485.6 milliard dollarni tashkil etdi [22] — bu ko'rsatkich global iqtisodiyot uchun strukturaviy tahdidni ifodalaydi. Kiberjinoyatchilik yillik zararining taxminiy hajmi 2018 yildagi 0.86 trillion dollardan 2024 yilga kelib 13.82 trillion dollarga yetdi; 2028 yilga borib esa 17.9 trillion dollarni tashkil etishi kutilmoqda. [6]

Plastik kartalar firibgarligi ayniqsa tez o'smoqda: ECB va EBA (2024) [9] hisobotiga ko'ra, Yevropa Ittifoqida to'lov firibgarligi 4.3 milliard evroni tashkil etdi, kartaga oid operatsiyalar eng katta ulushni egalladi. Fishing hujumlari 2024 yilda 893 million marta bloklandi — bu oldingi yilga nisbatan 26% o'sish demakdir. [10] Shu bilan birga, qorongi vebda 2.3 million bank karta ma'lumotlari tarqaldi. [10]

O'zbekistonda raqamli to'lovlar jadal rivojlanmoqda: Markaziy bank statistikasiga ko'ra [21], naqd bo'lmagan to'lovlar hajmi yil sayin o'sib bormoqda, UZCARD va HUMO milliy to'lov tizimlari va FinTech mobil ilovalar foydalanuvchilari keskin ko'paydi. Biroq bu rivojlanish bilan birga kibertahdidlar ham kengaymoqda: mobil banking kanali firibgarlik hodisalari uchun eng yuqori risk manbaiga (65%) aylandi. [6]

Ilmiy adabiyotda «texnologik o'sish va xavfsizlik infratuzilmasi etukligining noo'xshaqligi paradoksi» hozirgi kungacha asosan rivojlangan bozorlar misolida tadqiq etildi. Fetaji va boshqalar (2025) [1] o'rta hajmli bozorlar uchun ushbu paradoksni Shimoliy Makedoniya misolida ko'rsatdi, ammo O'zbekiston uchun institutsional mexanizmlar samaradorligini o'lchaydigan empirik tadqiqot hali amalga oshirilmagan — bu maqolaning asosiy ilmiy bo'shlig'ini belgilaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi — O'zbekistonda plastik kartalar kiberxavfsizligini ta'minlovchi institutsional mexanizmlar samaradorligini LICI vositasida o'lchash va xalqaro standartlar bilan qiyosiy tahlil qilish. Ilmiy yangilik: (1) birinchi marta O'zbekiston uchun maxsus LICI kompozit indeksi qurildi; (2) Alazzam va boshqalar (2026) [2] parametrlari asosida kibertahdidlarni kamaytirish salohiyati baholandi; (3) UZCARD, HUMO va xalqaro tizimlar uchun standartlashtirilgan xavfsizlik qiyosiy tahlili o'tkazildi.

Tadqiqot savollari

RQ1: O'zbekiston LICI bo'yicha qanday darajada va qaysi bo'shliqlarda xalqaro maqsad ko'rsatkichidan past?

RQ2: CERT-CBU, Markaziy bank va RTI vakolat taqsimotida koordinatsiya bo'shliqlari qaysi bo'g'inda eng yuqori?

RQ3: UZCARD/HUMO tizimlarida EMV, tokenizatsiya va SCA tatbiqi xalqaro standart talabidan qay darajada farq qiladi?

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli to'lov xavfsizligi bo'yicha adabiyot mashinali o'qitish va chuqur o'rganishga asoslangan yechimlar atrofida to'plangan. Marazqah Btoush va boshqalar (2023) [5] 181 ta tadqiqotning tizimli sharhi asosida supervised algoritmlar (Random Forest, XGBoost, SVM) ko'rib chiqilgan ishlarning 74% da qo'llanilganini aniqladi. Dastidar va boshqalar (2024) [4] esa chuqur o'qitish usullarining ko'rib chiqilgan modellarda 80–95% aniqlikka erishganini ko'rsatdi, ammo zero-day tahdidlarga qarshi ko'p qatlamli sinergiya bo'lmasa zaifliklar saqlanib qoladi. Alshameri va Xia (2024) [15] VAE yondashuvi anomaliyalarni aniqlashda yuqori sezgirlik ta'minlashini empirik jihatdan tasdiqladi.

Fetaji va boshqalar (2025) [1] FRAUD-X nomli to'rt qatlamli sinergiyali tizimni taklif qildi: AI anomaliya aniqlash, blokcheyn-daftar tekshiruvi, kiberxavfsizlik integratsiyasi va real vaqt ogohlantirish. 50,000 ta lokal BFSI tranzaksiyasi asosida o'tkazilgan eksperiment natijalari bir qatlamli AI ga nisbatan ~2–4% F1 ko'rsatkichi o'sishini va zero-day tahdidlarda ~90% recall ko'rsatkichini tasdiqladi. Bu model O'zbekistonga o'xshash o'rta hajmli bozorlar uchun bevosita tatbiq etishga yaroqli sifatida muhim. Biroq ushbu texnik tadqiqotlar algoritmik samaradorlikka qaratilgan — institutsional tartibga solish mexanizmlari ularning kibertahdidlar kamaytirish salohiyatiga ta'siri yetarli o'rganilmagan.

Alazzam va boshqalar (2026) [2] UAE va Iordaniyada 5 ta konstrukt — kiberxavfsizlik muammolari (CSC), huquqiy baza yetarliligi (LFA), kibertahdidlar (CT), e-boshqaruv etuklik (EGM) va mijoz ishonchi (CTT) — o'rtasidagi munosabatlarni Strukturaviy Tenglama Modeli (SEM) orqali tekshirdi. Natijalarda LFA kibertahdidlarni 55% ga kamaytirish imkonini berishi ($\beta = -0.55$, $p < 0.001$) va EGM bu ta'sirni moderatsiya qilishi ($\beta = -0.18$, $p = 0.014$) aniqlandi. Mijoz ishonchi LFA ga bevosita bog'liq ($\beta = 0.48$, $p < 0.001$) — bu huquqiy baza yetarliligi nafaqat xavfsizlikni, balki iqtisodiy barqarorlikni ham belgilashini ko'rsatadi.

Ruiz (2026) [3] 2023 yil OECD/INFE ma'lumotlari asosida 10 ta Yevropa mamlakatida raqamli moliyaviy xavfsizlik (DFS) ko'nikmalarining firibgarlik qurboni bo'lish ehtimolini sezilarli kamaytirishi — phishing uchun 25% gacha — ni aniqladi. Biroq kredit karta ruxsatsiz foydalanish holati uchun bu bog'liqlik topilmadi, chunki

bu turdagi firibgarlik ma'lumotlar sizib chiqishi kabi tizim darajasidagi omillardan kelib chiqadi. Bu topilma O'zbekiston kontekstida davlat institutsional himoyasi va fuqarolar savodxonligini bir vaqtda rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Broekhoff va boshqalar (2024) [17] to'lov tizimlariga ishonch va moliyaviy inklyuziya o'rtasidagi munosabatni tahlil qilib, institutsional xavfsizlik sifati ishonchning asosiy determinanti ekanligini ko'rsatdi.

Ko'rib chiqilgan adabiyot ikki asosiy bo'shliqni ochib beradi: birinchidan, texnik firibgarlikni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar keng bo'lsa ham, institutsional mexanizmlar samaradorligini o'lchaydigan empirik ishlar, xususan O'zbekiston kabi o'tish iqtisodiyotlari uchun, deyarli yo'q; ikkinchidan, O'zbekiston bo'yicha xalqaro referatli jurnallarda nashr etilgan ilmiy maqolalar soni nihoyatda cheklangan. Marazqah Btoush va boshqalar (2023) [5] bibliometrik tahlilida O'zbekiston nashr qiluvchi mamlakatlar qatorida umuman ko'rinmadi. Mahalliy manbalar orasida Vaxabov va Tuychieva (2022) [14] moliyaviy savodxonlikning nazariy asoslarini tahlil qilgan, Bobojanov (2024) [6] CERT-CBU faoliyatini taqdimotlar orqali yoritgan, ammo ikkala ish ham xalqaro ko'rsatkichlar bilan qiyosiy LICI tahlilini o'z ichiga olmagan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish mazkur maqolaning asosiy hissasini tashkil etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot aralash metodologiyani (mixed-method) qo'llaydi. Sifat komponent: normativ hujjatlarning standartlashtirilgan skoring matritsasi tahlili va qiyosiy-huquqiy tahlil. Miqdoriy komponent: LICI kompozit indeksini hisoblash, Alazzam va boshqalar (2026) [2] SEM parametrlaridan kelib chiqqan prognostik hisob-kitob va qiyosiy statistik tahlil.

Legal-Institutional Compliance Index (LICI) — ushbu tadqiqot tomonidan ishlab chiqilgan baholash vositasi bo'lib, har bir normativ hujjat uchun to'rtta mezon bo'yicha 0–3 balllik shkala orqali baholash o'tkaziladi:

(1) Xalqaro standart talabi mavjudligi: 0 = yo'q; 1 = qisman; 2 = o'rta; 3 = to'liq
(2) Texnik spetsifikatsiya aniqlik darajasi: 0–3
(3) Sanksiya va ijro mexanizmi mavjudligi: 0–3
(4) Soha-maxsus (plastik kartalar) talablar darajasi: 0–3

Barcha to'rtta mezon o'rtacha ko'rsatkichi hujjat LICI ballini beradi. Umumiy LICI kompozit indeksi barcha tahlil qilingan hujjatlar o'rtacha bali sifatida hisoblanadi. Keyin $\beta = -0.55$ parametri yordamida [2] joriy LICI darajasida kibertahdidlarni kamaytirish salohiyati quyidagi formula bilan hisoblanadi: Salohiyat = (LICI / 3.0) × 55%.

## TAHLIL VA NATIJALAR

5 ta asosiy normativ hujjat LICI metodologiyasi bo'yicha baholandi (1-jadval). Umumiy o'rtacha ball 1.75/3.0 ni tashkil etdi (1-jadval).

1- jadval. LICI Matritsasi: normativ hujjatlar va xalqaro standartlar qiyosiy baholash

| Normativ hujjat | Asosiy qoidalar | Xalqaro standart | LICI bali (0-3) | Aniqlangan bo'shliq |
|---|---|---|---|---|
| **«To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi Qonun (O'RQ-578, 2019)** | To'lov xavfsizligi majburiyatlari, MB nazorati | PCI DSS v4.0 | **1.5 / 3.0** | Tokenizatsiya va shifrlash talablari aniq belgilanmagan |
| **«Kiberxavfsizlik to'g'risida»gi Qonun (O'RQ-764, 2022)** | Kritik infratuzilma himoyasi, hodisalarga javob | NIST CSF 2.0 | **2.0 / 3.0** | Moliya sektori uchun tarmoq-maxsus profillar yetarli emas |
| **«Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonun (O'RQ-547, 2019)** | Shaxsiy ma'lumotlar qayta ishlash va himoya | GDPR / ISO 27701 | **1.5 / 3.0** | Moliyaviy ma'lumotlar alohida maxsus toifada ko'rsatilmagan |
| **«Elektron hukumat to'g'risida»gi Qonun (O'RQ-388, 2015)** | Elektron xizmatlar autentifikatsiyasi | FIPS 140-3 / eIDAS | **1.0 / 3.0** | Karta-specifik autentifikatsiya talablari qamrab olinmagan |
| **MB me'yoriy hujjatlari – firibgarlikka qarshi talablar** | 24/7 monitoring, shubhali operatsiyalar reestri | PSD2 – SCA talabi | **2.0 / 3.0** | 3D Secure v2.0 kabi standartlashtirilgan protokollar ommaviy emas |

Eng yuqori ball Prezident Farmoni PF-60 (2.5/3.0) va Markaziy bank me'yoriy hujjatlariga (2.0/3.0) to'g'ri keldi. Eng past ball «Elektron hukumat to'g'risida»gi Qonunga (1.0/3.0) berildi — bu qonun karta-specifik autentifikatsiya talablarini qamrab olmaydi. O'zbekiston LFA o'rtacha bali 1.75 ni tashkil etib, Alazzam va boshqalar (2026) [2] tadqiqotida «qisman samarali» LFA darajasiga (o'rtacha 3.21/5.0 shkala bilan) to'g'ri keladi (2-jadval).

2- jadval. O'zbekiston va taqqoslash davlatlari bo'yicha kiberxavfsizlik ko'rsatkichlari

| Ko'rsatkich | O'zbekiston | Shimoliy Makedoniya | UAE / Jordan | Xalqaro standart |
|---|---|---|---|---|
| LICI kompozit indeksi | 1.83 / 3.0 | 1.90 / 3.0 | 2.50 / 3.0 | 3.0 (to'liq) |
| PCI DSS v4.0 muvofiqlik holati | Jarayonda | Qisman | Qisman-To'liq | Majburiy (2025+) |
| EMV chip joriy etilishi | Qisman | Qisman | To'liq | EMV 4.3 to'liq |
| Kuchli autentifikatsiya (SCA) | SMS OTP | SMS OTP | 3DS v2.0 | PSD2 Art.97 |
| Tokenizatsiya qo'llanilishi | Cheklangan | Cheklangan | Apple/Google Pay | EMVCo TSP |
| CERT/CSIRT tashkiloti | CERT-CBU (2024) | MKD-CIRT | UAE-CERT | ITU-T X.1210 |
| Xalqaro a'zolik | OIC-CERT, APWG | ENISA hamkorlik | FIRST, OIC-CERT | FIRST to'liq |
| Asosiy firibgarlik kanali | Mobil banking 65% | Onlayn banking 56% | Onlayn/mobil ~60% | — |
| Kibertahdid kamayish salohiyati | ~38% | ~40% | ~52% | 55% (to'liq LFA) |

2-jadval shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston (1.83) Shimoliy Makedoniya (1.90) bilan yaqin ko'rsatkichga ega, ammo UAE/Jordan (2.50) dan sezilarli past. Ayniqsa muhim farqlar kuchli autentifikatsiya va tokenizatsiya sohasida namoyon bo'ldi: UAE 3D Secure v2.0 va EMVCo tokenizatsiyasini joriy qilgan bo'lsa, O'zbekiston va Makedoniya hali SMS OTP bilan cheklangan. Mobil banking kanali firibgarligi bo'yicha O'zbekiston (65%) global tendentsiyaga [19] to'g'ri mos keladi (3-jadval).

3- jadval. Institutsional vakolat taqsimoti va koordinatsiya matritsasi

| Institut | Asosiy vakolat | Kiberxavfsizlik funksiyasi | Koordinatsiya | Aniqlangan bo'shliqlar |
|---|---|---|---|---|
| **O'zR Markaziy banki** | Tartibga solish, litsenziyalash | Monitoring standartlari | RTI bilan hamkorlik | Sanksiya mexanizmi yetarli emas |
| **CERT-CBU** | Kibertahdidlarga javob, 24/7 | Fishing, zararli dastur bloklash | OIC-CERT, APWG (2024) | Resurs cheklovlari; to'liq integratsiya yo'q |
| **Raqamli texnologiyalar vazirligi** | Davlat raqamli infratuzilmasi | Kritik infratuzilma | MB, IIV hamkorlik | Bank sektori uchun vakolat cheklangan |
| **UZCARD / HUMO** | Milliy to'lov tizimi operatsiyalari | Tranzaksiya monitoringi | MB nazorati ostida | PCI DSS v4.0 to'liq emas; tokenizatsiya cheklangan |
| **Tijorat banklari** | Karta chiqarish, xizmatlar | Mijoz hisobi himoyasi | CERT-CBU axborot almashinuvi | Xavfsizlik darajasi notekis |
| **FinTech / MyCard** | Mobil to'lov xizmatlari | Ilova darajasida autentifikatsiya | MB talablariga muvofiqlik | Xalqaro sertifikatsiya bosqichida |

3-jadval asosida 5 ta asosiy operatsional funksiyadan 3 tasida — real vaqt koordinatsiya, birgalikda hodisalarga javob va tarmoqlararo standart tatbiqi — rasmiy belgilanmagan yoki cheklangan ekanligi aniqlandi. CERT-CBU 2024 yilda OIC-CERT va APWG ga a'zo bo'ldi [6] — bu muhim qadam, ammo amaliy koordinatsiya protokollari hali to'liq institutsionallashtirilmagan (4-jadval).

4- jadval. LICI kompozit indekslari va kibertahdidlarni kamaytirish salohiyati

| Mezon | O'zbekiston | Makedoniya | UAE/Jordan | Maqsad |
|---|---|---|---|---|
| Huquqiy baza yetarliligi (LFA o'rtacha) | 1.75 | 1.80 | 2.30 | 3.00 |
| E-boshqaruv etuklik indeksi (EGM) | 2.10 | 2.20 | 2.80 | 3.00 |
| CERT/CSIRT resurs darajasi | O'rta | O'rta | Yuqori | To'liq |
| PCI DSS muvofiqlik foizi | ~40% | ~45% | ~70% | 100% |
| Kibertahdid kamayish salohiyati (β=−0.55) | ~38% | ~40% | ~52% | 55% |
| LICI kompozit indeksi (yakuniy) | 1.83 | 1.90 | 2.50 | 3.00 |

4- jadval asosida O'zbekiston uchun kibertahdidlarni kamaytirish salohiyati ~38% ni tashkil etadi: (1.83/3.0) × 55% = 33.5%~38%. Xalqaro maqsad (3.0) ga erishilganda bu salohiyat to'liq 55% ga ko'tarilishi mumkin.

Aniqlangan 1.75/3.0 LICI bali O'zbekiston normativ bazasining qisman samarali ekanligini ko'rsatadi. Bu holat ikki asosiy omilga bog'liq: birinchidan, mavjud qonunlar umumiy kiberxavfsizlik tamoyillarini belgilaydi, ammo karta-specifik texnik talablar — tokenizatsiya, shifrlash algoritmlari, PCI DSS sertifikatsiya muddatlari — pastki darajadagi normativ hujjatlarga topshirilgan yoki hali belgilanmagan. Ikkinchidan, sanksiya mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Alazzam va boshqalar (2026) [2] tadqiqotida ham UAE va Iordaniya kabi nisbatan rivojlangan bozorlarda LFA bo'yicha zaiflik aniqlangan. Bu holat O'zbekiston muammosining mintaqaviy xarakter kasb etganini va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish ehtiyojining dolzarbligi global miqyosda umumiy ekanligini ko'rsatadi.

Vakolat matritsasi tahlili (3-jadval) shuni ko'rsatadiki, CERT-CBU, Markaziy bank va RTI o'z vakolat doiralarida samarali ishlaydi, ammo ular o'rtasida real vaqt axborot almashinuvi va birgalikda hodisalarga javob berish mexanizmlari rasmiy belgilanmagan. Fetaji va boshqalar (2025) [1] ta'kidlaganidek, yakka tekislik yechimlar ko'p qatlamli sinergiyali tizimga nisbatan sezilarli past natija beradi.

UZCARD va HUMO tizimlarida EMV to'liq joriy etilmaganlik karta klonlash hujumlariga zaiflikni saqlab turibdi. Dastidar va boshqalar (2024) [4] ta'kidlaganidek, EMV standartini to'liq joriy etmaslik karta klonlash xurujlari uchun eng katta zaiflikni saqlab qoldiradi. SMS OTP autentifikatsiyasi esa SIM-swapping va SS7 protokoli zaifliklari orqali osongina chetlab o'tilishi mumkin — bu 3D Secure v2.0 ga o'tish zarurligini belgilaydi.

Ruiz (2026) [3] topilmasiga ko'ra, karta ruxsatsiz foydalanish uchun individual DFS ko'nikmalari yetarli himoya ta'minlamaydi — bu fraud asosan ma'lumotlar sizib chiqishi kabi tizim darajasidagi zaifliklardan kelib chiqadi. Bu O'zbekiston uchun ham dolzarb: fuqarolarni o'qitish bilan birga tizim darajasida tokenizatsiya va shifrlashni majburiy standartlash zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda plastik kartalar kiberxavfsizligini ta'minlovchi normativ-huquqiy baza umumiy tamoyillar darajasida qabul qilingan bo'lsa-da, karta operatsiyalariga xos texnik talablarning aniq belgilanmaganligi LICI kompozit indeksini 1.83/3.0 darajasida ushlab turmoqda — bu xalqaro maqsad ko'rsatkichi (3.0) dan 39% past.

CERT-CBU, Markaziy bank va RTI o'rtasida real vaqt koordinatsiya mexanizmlari rasmiy institutsionallashmaganligi institutsional tizimning eng zaif bo'g'ini sifatida aniqlandi.

UZCARD va HUMO tizimlarida PCI DSS v4.0, EMV to'liq joriy etilishi va tokenizatsiya ko'lami xalqaro standartlardan sezilarli past ekanligi raqamli to'lov kanallarida kiberxavf darajasini yuqori ushlab turmoqda.

Alazzam va boshqalar (2026) empirik parametrlari asosida joriy LICI darajasida O'zbekiston ~38% kibertahdidlarni kamaytirish salohiyatiga ega; xalqaro maqsad LICI (3.0) ga erishilganda bu salohiyat 55% ga ko'tarilishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**


1. Fetaji B., Fetaji M., Hasan A., Rexhepi Sh., Armenski G. FRAUD-X: An Integrated AI, Blockchain, and Cybersecurity Framework With Early Warning Systems for Mitigating Online Financial Fraud // IEEE Access. — 2025. — Vol. 13. — P. 48068–48080. DOI: 10.1109/ACCESS.2025.3547285
2. Alazzam F.A.F. et al. Cybersecurity Challenges, Legal Framework Adequacy and Customer Trust in Financial Institutions // International Journal of Data and Network Science. — 2026. — Vol. 10. — P. 267–275. DOI: 10.5267/j.ijdns.2025.8.009
3. Ruiz J.R. Who gets scammed? The roles of financial literacy, digital financial security, and overconfidence in Europe // International Review of Economics and Finance. — 2026. — Vol. 106. — Art. 104913. DOI: 10.1016/j.iref.2026.104913
4. Dastidar K.G. et al. Machine Learning Methods for Credit Card Fraud Detection: A Survey // IEEE Access. — 2024. — Vol. 12. — P. 158939–158964. DOI: 10.1109/ACCESS.2024.3484130

5. Marazqah Btoush E.A.L. et al. A systematic review of literature on credit card cyber fraud detection using machine and deep learning // PeerJ Computer Science. — 2023. — Art. e1278. DOI: 10.7717/peerj-cs.1278
6. Bobojanov M. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki «CERT-CBU» Kiberxavfsizlik markazi. Banklar va to'lov tizimlarida firibgarlikning oldini olishni tartibga solish. — Toshkent: O'zR Markaziy banki, 2024.
7. PCI Security Standards Council. PCI DSS v4.0: Payment Card Industry Data Security Standard. — Wakefield, MA: PCI SSC, 2022. URL: https://www.pcisecuritystandards.org
8. NIST. Cybersecurity Framework 2.0. — Gaithersburg, MD: NIST, 2024. DOI: 10.6028/NIST.CSWP.29
9. European Central Bank & European Banking Authority. 2024 report on payment fraud. — Frankfurt: ECB/EBA, 2024. URL: https://www.ecb.europa.eu
10. Kaspersky. Stealer malware leaked over 2 million bank cards. — Moscow: Kaspersky, 2025. URL: https://www.kaspersky.com
11. O'zbekiston Respublikasining «Kiberxavfsizlik to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-764-son, 2022 yil 15 aprel. — Toshkent: Lex.uz.
12. O'zbekiston Respublikasining «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-578-son, 2019 yil 1 noyabr. — Toshkent: Lex.uz.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni «2022–2026 yillarga Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2022 yil 28 yanvar.
14. Vaxabov A.V., Tuychieva G.I. Moliyaviy savodxonlik tushunchasining nazariy asoslarini takomillashtirish // Iqtisodiyot va Moliya. — 2022. — No.5(153). — B. 22–30.
15. Alshameri F., Xia R. An Evaluation of Variational Autoencoder in Credit Card Anomaly Detection // Big Data Mining and Analytics. — 2024. — Vol. 7(3). — P. 718–729. DOI: 10.26599/BDMA.2023.9020035
16. Almazroi A.A., Ayub N. Online Payment Fraud Detection Model Using Machine Learning Techniques // IEEE Access. — 2023. — Vol. 11. — P. 137188–137201. DOI: 10.1109/ACCESS.2023.3339226
17. Broekhoff M.-C., van der Cruijsen C., de Haan J. Towards financial inclusion: Trust in banks payment services among groups at risk // Economic Analysis and Policy. — 2024. — Vol. 82. — P. 104–123. DOI: 10.1016/j.eap.2024.02.038
18. O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-547-son, 2019 yil 2 iyul. — Toshkent: Lex.uz.
19. Deloitte. Banking Regulatory Outlook 2025. — New York: Deloitte, 2025. URL: https://www2.deloitte.com
20. Hafez M. et al. Credit Card Fraud (CCF) Detection Based on Deep Learning // Journal of Big Data. — 2025. — Vol. 12. — Art. 6. DOI: 10.1186/s40537-024-01048-8
21. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To'lov tizimlari statistikasi 2024. — Toshkent: O'zR MB, 2024. URL: https://cbu.uz
22. Nasdaq. Global Financial Crime Report 2024. — New York: Nasdaq, 2024.

# MOLIYAVIY SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI

**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank ishi kafedrasi dotsenti, Dsc
TDIU Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi boshig'i
E-mail: m.maxmudova@tsue.uz
ORCID:0000-0002-5777-6606x

**Sattorova Nasiba G'anijon qizi**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank ishi kafedrasi katta o'qituvchisi
Email: nasiba_sg7@mail.ru
ORCID: 0000-0003-2967-9830

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy savodxonlik tushunchasining nazariy asoslari, uning tarkibiy komponentlari — moliyaviy bilim, ko'nikmalar, munosabat va xulq-atvor — ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot IMRaT (Introduction–Methods–Results–Discussion) tuzilishida qurilgan bo'lib, sistematik adabiyotlar sharhi, qiyosiy tahlil va kontent tahlili metodlari qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki: moliyaviy savodxonlik darajasi aholining jamg'arma va investitsiya faoliyatiga, kreditdan oqilona foydalanishiga hamda iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlariga bevosita va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, moliyaviy savodxonlik FinTech vositalarining samaradorligini kuchaytiruvchi zaruriy shart sifatida ishlaydi. Muhokama qismida olingan natijalar xalqaro empirik tadqiqotlar bilan taqqoslab baholanadi va O'zbekiston sharoitida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha siyosiy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, moliyaviy xulq-atvor, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy kiritish, FinTech, OECD, jamg'arma, investitsiya, kreditdan foydalanish.

Abstract. This article analyses the theoretical foundations of financial literacy — encompassing financial knowledge, skills, attitudes and behaviour — through a systematic review of international scholarly literature. Structured in the IMRaT format, the study employs systematic literature review, comparative analysis, and content analysis of international organisations' reports. Results indicate that financial literacy significantly and positively influences household savings, investment activity, responsible credit use, and overall economic stability. In particular, financial literacy functions as a necessary threshold condition that amplifies the effectiveness of FinTech tools. The discussion situates findings within the global empirical literature and derives evidence-based policy recommendations for improving financial literacy in the context of Uzbekistan.

Key words: financial literacy, financial behaviour, economic development, financial inclusion, FinTech, OECD, savings, investment, credit use.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы понятия финансовой грамотности, а также ее структурные компоненты — финансовые знания, навыки, установки и поведенческие аспекты — на основе научной литературы. Исследование построено в соответствии со структурой IMRaT (Introduction–Methods–Results–Discussion) с применением методов систематического обзора литературы, сравнительного анализа и контент-анализа. Результаты показали, что уровень финансовой грамотности оказывает прямое и статистически значимое влияние на сберегательную и инвестиционную активность населения, рациональное использование кредитов, а также показатели экономической устойчивости. В частности, финансовая грамотность выступает необходимым условием повышения эффективности инструментов FinTech. В разделе обсуждения полученные результаты сопоставляются с международными эмпирическими исследованиями, а также разрабатываются политические рекомендации по повышению финансовой грамотности в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: финансовая грамотность, финансовое поведение, экономическое развитие, финансовая инклюзия, FinTech, OECD, сбережения, инвестиции, использование кредита.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy tizimlarning tobora murakkablashib borishi natijasida aholi oldida nafaqat oddiy daromad-xarajat balansini saqlash, balki pul bozori, kredit mahsulotlari, investitsiya instrumentlari va raqamli moliyaviy xizmatlar kabi ko'p qirrali sohalarda asosli qarorlar qabul qilish zaruriyati paydo bo'ldi. Mazkur muhitda moliyaviy savodxonlik faqat individual farovonlikni ta'minlash vositasi sifatida emas, balki makroiqtisodiy barqarorlikning strukturaviy sharti sifatida ko'rilmoqda (Lusardi & Mitchell, 2023). Shu bois so'nggi o'n yilda bu sohadagi tadqiqotlar hajmi sezilarli darajada oshdi va moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy natijalarga ta'sirini o'rganuvchi keng empirik bazaga ega bo'lindi.

Biroq adabiyotlarning tanqidiy tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik tushunchasini operatsionallashtirishda tadqiqotchilar o'rtasida yagona konsensus mavjud emas. Bir qism olimlar uni asosan bilim darajasi bilan sinonimik tushunchada ishlatsa (Hilgert et al., 2003), boshqalar - xususan, OECD/INFE metodologiyasi — ko'proq to'rt o'lchovli: bilim, ko'nikma, munosabat va xulq-atvor komponentlarini o'z ichiga olgan keng doirada ta'riflaydi (OECD, 2020). Bu kontseptual tarqoqlik esa tadqiqot natijalarini qiyoslashni qiyinlashtiradi va siyosiy amaliyotda samarali dasturlar ishlab chiqishga to'sqinlik qiladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi moliyaviy savodxonlikning nazariy asoslarini tizimli tahlil qilish, uning tarkibiy komponentlarini ilmiy asosda izohlash va iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga - xususan, jamg'arma, investitsiya hamda kreditdan foydalanish xulq-atvoriga — ta'sirini empirik adabiyotlar orqali asoslashdan iborat. Maqola ushbu asosiy tadqiqot savoliga javob beradi: moliyaviy savodxonlik darajasi aholining moliyaviy xulq-atvori va iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Ushbu savolga javob berish uchun quyidagi uchta gipoteza ilgari surildi:

– H1: Moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan aholi vakillari ko'proq jamg'aradi va investitsiya faoliyatini kuchaytiradi.

– H2: Moliyaviy savodxonlik kreditlardan oqilona foydalanish va haddan ortiq qarzlanishning oldini olishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

– H3: Moliyaviy savodxonlik raqamli moliyaviy texnologiyalar (FinTech) samaradorligini kuchaytiruvchi zaruriy shart sifatida ishlaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy savodxonlikni ilmiy jihatdan kontseptuallashtirishga bo'lgan qiziqish XX asrning 80-yillarida boshlangan bo'lsa-da, bu tushunchaning ta'rifi va mazmuni hali ham bahsli bo'lib qolmoqda. Dastlabki tadqiqotlarda moliyaviy savodxonlik asosan individual moliyaviy bilim darajasiga tenglab kelindi (Hilgert et al., 2003). Lekin bu tor ta'rif zamonaviy moliyaviy qarorlarning murakkabligini to'liq aks ettira olmadi.

Keyinchalik Lusardi & Mitchell (2014) moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy ahamiyatini nazariy va empirik jihatdan asoslab, uni «foiz hisob-kitoblar, inflyatsiya va tavakkalchilikni diversifikatsiya qilishga oid fundamental moliyaviy kontseptsiyalarni tushunish qobiliyati» sifatida ta'rifladi. Ushbu yondashuv «Katta uchlik» (Big Three) savollar metodologiyasini yaratish asosiga aylandi va dunyo bo'ylab keng qo'llanildi (Lusardi & Mitchell, 2014, Journal of Economic Literature, 52(1), 5–44, https://doi.org/10.1257/jel.52.1.5).

OECD/INFE (2020) esa moliyaviy savodxonlikni yanada keng ma'noda ta'rifladi: «moliyaviy tushunchalar va xatarlar haqidagi bilim va tushuncha, shuningdek, ushbu bilimni moliyaviy farovonlikni oshirish va iqtisodiy hayotda qatnashish maqsadida samarali moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun qo'llay olish ko'nikmalari va munosabati» (OECD/INFE International Survey of Adult Financial Literacy, 2020, P. 21). Ushbu ta'rif uchta asosiy komponent: bilim, munosabat va xulq-atvorni o'z ichiga oladi.

Fürstenau et al. (2023) OECD ta'riflarini tizimli tahlil qilib, ular orasidagi kontseptual nomuvofiqliklarga — xususan, «ko'nikma» va «xulq-atvor» o'rtasidagi chegaraning noaniqligiga — e'tibor qaratdi (Walstad et al. (Eds.). Shu bois ushbu tadqiqotda moliyaviy savodxonlik quyidagi to'rt komponentli ramka asosida tahlil qilinadi (1-jadval):

1- jadval. Moliyaviy savodxonlikning to'rt komponentli tarkibiy modeli[1]

| Komponent | Mazmun | O'lchov mezonlari (OECD asosida) |
|---|---|---|
| Moliyaviy bilim | Inflyatsiya, foiz stavkasi, murakkab foiz hisob-kitoblari, diversifikatsiya tamoyillari | Test savollari; «Katta uchlik» metodologiyasi |
| Moliyaviy ko'nikmalar | Byudjetlashtirish, moliyaviy mahsulotlarni taqqoslash, xarajatlarni kuzatish | Stsenariy asosidagi baholash; amaliy mashqlar |

1 OECD/INFE, 2020 asosida muallif tomonidan tuzilgan

| | | |
|---|---|---|
| Moliyaviy munosabat | Kelajak moliyaviy rejalashtirishga yo'nalganlik; moliyaviy masalalar bilan shug'ullanishga tayyorlik | O'z-o'zini baholash shkalasi (Likert) |
| Moliyaviy xulq-atvor | Faol tejash, qarzni boshqarish, moliyaviy maqsadlarni belgilash va ularga amal qilish | Xulq-atvor savolnomalari; nazorat ma'lumotlari |

Moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi nazariy aloqa bir necha yo'nalishda ko'rib chiqilgan. Birinchidan, «moliyaviy savodxonlikning moliyaviy kiritishga ta'siri» nazariyasi (Ozili, 2025) moliyaviy savodxonlikning rasmiy moliya tizimiga kirishni osonlashtirishini va bundan jamiyatning keng qatlami manfaatdor ekanligini asoslaydi.

Ikkinchidan, insoniy kapital nazariyasi nuqtai nazaridan moliyaviy bilim va ko'nikmalar iqtisodiy unumdorlikni oshiruvchi investitsiya sifatida ko'riladi. Jappelli & Padula (2013) shuni ko'rsatdiki, moliyaviy savodxonlikka sarflangan investitsiya kelajakdagi tejash qarorlarini yaxshilaydi, bu esa uzoq muddatli boylik to'planishiga hissa qo'shadi. Lusardi & Mitchell (2023) esa moliyaviy savodxonlik sohasini mustaqil ilmiy intizom sifatida rivojlantirishni talab etib, uning daromad tengsizligi va iqtisodiy farovonlik bilan aloqasini yangi perspektiv sifatida ilgari surdi.

Uchinchidan, xulq-atvor iqtisodiyoti nazariyasi doirasida moliyaviy savodxonlikning past darajasi kognitiv noto'g'ri xulq-atvorlarni — haddan ortiq qarzlanish, xarajatlarni hisobga olmaslik, qisqa muddatli fikrlash — keltirib chiqaradi, deb hisoblanadi. Molin et al. (2025) buni sistematik sharh doirasida asoslab, ayniqsa yosh odamlarda bu ta'sirning qanchalik kuchli ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot gipotezalari yuqoridagi uchta nazariy yo'nalishga tayanib shakllantirildi. Moliyaviy savodxonlikning jamg'arma, investitsiya va kreditdan foydalanish xulq-atvoriga musbat ta'siri (H1 va H2) insoniy kapital nazariyasi va xulq-atvor iqtisodiyoti bilan, FinTech samaradorligini kuchaytiruvchi rol (H3) esa raqamli transformatsiya adabiyoti bilan nazariy asosda bog'liqdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot sifat-interpretatsion yondashuvga asoslangan bo'lib, uchta o'zaro to'ldiruvchi metoddan foydalanildi. Birinchi usul — sistematik adabiyotlar sharhi: 2020–2025 yillarda nashr etilgan, Web of Science, Scopus va Google Scholar ma'lumotlar bazalarida indekslangan, «financial literacy», «financial behaviour», «economic development», «savings», «investment» kalit so'zlari yordamida qidirilgan 47 ta maqoladan 22 tasi belgilangan mezonlarga javob berdi va chuqur tahlilga olindi. Qo'shimcha mezonlar sifatida maqolalarning empirik ma'lumotlarga asoslanishi, taniqli jurnallarda chop etilgani (IF ≥ 1.0) va metodologik aniqligi hisobga olindi.

Ikkinchi usul — qiyosiy tahlil: turli mamlakatlarda moliyaviy savodxonlik darajasi va uning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri S&P Global FinLit Survey, OECD/INFE 2020 va Jahon Banki ma'lumotlari asosida taqqoslab ko'rib chiqildi. Uchinchi usul — kontent tahlili: OECD, Jahon Banki, XVF, Yevropa Markaziy Banki va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki chop etgan hisobotlarning asosiy xulosalari tematik kodlash usuli orqali tizimlashtirildi.

Moliyaviy savodxonlik quyidagi to'rtta komponent bo'yicha tahlil qilindi: (1) moliyaviy bilim — foiz stavkasi, inflyatsiya, diversifikatsiya bo'yicha savollar bilan o'lchanadigan kognitiv darajani aks ettiradi; (2) moliyaviy ko'nikmalar — byudjetlashtirish va moliyaviy mahsulotlarni taqqoslash qobiliyatini o'z ichiga oladi; (3) moliyaviy munosabat — kelajak moliyaviy rejalashtirishga nisbatan psixologik moyillikni ifodalaydi; (4) moliyaviy xulq-atvor — tegishli jamg'arma, qarz va investitsiya xattiharakatlarini nazarda tutadi (OECD/INFE, 2020; Kadoya & Khan, 2020).

Iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari sifatida uchta o'lcham tanlandi: (a) uy xo'jaligi jamg'arma darajasi; (b) investitsiya faolligi; (c) haddan ortiq qarzlanish va kredit mahsulotlaridan oqilona foydalanish. Bundan tashqari, FinTech qabul qilish darajasi va uning moliyaviy savodxonlik bilan o'zaro ta'siri alohida o'zgaruvchi sifatida ko'rib chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari H1 gipotezasini qo'llab-quvvatladi. Basar et al. (2025) tomonidan 12 ta mamlakat bo'yicha 30 000 dan ortiq respondentni qamrab olgan keng ko'lamli tadqiqot shuni ko'rsatdiki, moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslar daromadlarining sezilarli qismini tejashga moyil bo'ladi. Moliyaviy savodxonlik va FinTech qabul qilish kombinatsiyasi eng yuqori tejash ko'rsatkichi bilan bog'liq optimal konfiguratsiya bo'lib chiqdi (konsistentlik darajasi = 0.86, qamrov = 0.42). Bundan tashqari, moliyaviy savodxonlik FinTech ta'sirini kuchaytirganda emas, balki uning ta'siri faqat ma'lum bir savodxonlik pragidan (≥ 3.5 ball, 0–10 shkalada) oshgandagina ahamiyatli bo'lishi aniqlandi.

Van Rooij et al. (2012) va Lusardi & Mitchell (2014) xulqiy moliya sohasidagi klassik ishlar asosida aniqlangan xulosaga ko'ra, moliyaviy savodxonligi yuqori bo'lgan shaxslar fond bozorida qatnashish ehtimolligi sezilarli darajada yuqori. Bu aloqa Karnavou et al. (2024) tomonidan Yevropaning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarini qamrab olgan qiyosiy tahlilda ham tasdiqlandi: moliyaviy savodxonlik ko'rsatkichi bir standart og'ish oshganda, jamg'arma ehtimolligi 1.627 barobar, qarz olish ehtimolligi esa 1.082 barobar oshdi (2-jadval).

2- jadval. Moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy natijalar: asosiy empirik topilmalar xulosasi

| Tadqiqot muallifi / yil | Namuna | Asosiy natija | Natija ahamiyati |
|---|---|---|---|
| Basar et al. (2025) | 30,000+ / 12 mamlakat | FL > 3.5: FinTech–tejash ta'siri kuchayadi | $\beta = 0.42$; $p < 0.001$ |
| Karnavou et al. (2024) | 44 mamlakat / panel | FL ↑ → tejash OR = 1.63; qarz OR = 1.08 | $p < 0.01$ (OLS va QR) |
| Zhang & Chatterjee (2023) | NFCS / AQSh | FL moliyaviy stressni kamaytiradi | $\beta = 0.29$; $p < 0.001$ |
| Lusardi & Mitchell (2023) | Ko'p mamlakat tahlili | FL kambag'allik va tengsizlikni kamaytiradi | Konseptual & meta-analiz |
| Ozili (2025) | Nazariy asos | FL → moliyaviy kiritish (inclusion) bog'liqligi | Nazariy model |

Kreditdan foydalanish xulq-atvori nuqtai nazaridan tahlil natijalari H2 gipotezasini to'liq tasdiqlamadi — moliyaviy savodxonlik kreditsiz qolmaslik yoki haddan ortiq qarzlanmaslik xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin bu ta'sir daromad darajasi, bank infratuzilmasi va mamlakat iqtisodiy rivojlanish bosqichiga qarab farqlanadi. Karnavou et al. (2024) tadqiqotida bank infratuzilmasining bir kilometrga to'g'ri keluvchi filial soni ortishi tejash ehtimolini kamaytirganligi ($\beta = -0.042$) va aholi boshiga to'g'ri keluvchi filial soni qarz olish ehtimolini oshirganligi ($\beta = 0.211$) aniqlandi, bu esa FL ta'siri kontekstual omillar bilan modulatsiyalanganini ko'rsatadi.

Lusardi & Tufano (2015) «qarz savodxonligi» konsepsiyasini alohida tahlil qilib, foiz murakkablanishi va qarzning umumiy narxini tushunmaydigan shaxslarning haddan ortiq qarzlanishga ko'proq moyilligi aniqlanganini ko'rsatdi. Molin et al. (2025) maktab dasturlari samaradorligini baholab, kredit va qarzdorlikka oid bilimni yaxshilash bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlarning faqat qisqa muddatli samarasiga ega ekanligini, uzoq muddatli xulq-atvor o'zgarishlari uchun esa qayta-qayta ta'sirga ehtiyoj borligini ta'kidladi.

FinTech va moliyaviy savodxonlikning birgalikdagi ta'siri tahlili H3 ni kuchli darajada tasdiqladi. Basar et al. (2025) ko'p darajali modellashtirish (HLM va SEM) yordamida FinTech qabul qilishning tejash xulq-atvoriga ta'siri moliyaviy savodxonlik darajasi nochiziqli ravishda 3.5 balldan oshgandagina statistik ahamiyat kasb etishini aniqladi. Bu «moliyaviy savodxonlik — FinTech katalizatori» gipotezasini empirik jihatdan tasdiqladi va siyosiy amaliyot uchun muhim xulosa berdi: raqamli moliyaviy xizmatlar yoyilishi moliyaviy ta'lim dasturlari bilan parallel olib borilmasa, kutilgan iqtisodiy natijani berishi muammoli.

Makroiqtisodiy darajada esa Zhang & Chatterjee (2023) AQShdagi 2018 yilgi NFCS ma'lumotlari asosida moliyaviy savodxonlik moliyaviy stress orqali moliyaviy farovonlikka ta'sir qilishini aniqladi — ya'ni FL moliyaviy stressni kamaytiradi, bu esa moliyaviy farovonlikka olib keladi. Bu aloqa iqtisodiy barqarorlikning mikro darajadagi asosini tashkil etadi.

Ushbu tadqiqot natijalari ko'plab xalqaro empirik ishlardagi xulosalar bilan muvofiqlashadi. Birinchidan, moliyaviy savodxonlikning jamg'arma va investitsiyaga ijobiy ta'siri — Lusardi & Mitchell (2014), Van Rooij et al. (2012) va Basar et al. (2025) ishlarida tasdiqlangan xulosalar — nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida ham qayta tasdiqlanmoqda. Bu esa iqtisodiy rivojlanish bosqichidan qat'i nazar, moliyaviy savodxonlikning universal ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Biroq H2 gipotezasi — moliyaviy savodxonlikning kredit xulq-atvoriga ta'siri — adabiyotlarda ancha kam o'rganilgan va yanada murakkabroq ko'rinishga ega. Bir tomondan, Lusardi & Tufano (2015) «qarz savodxonligi» darajasi pastligi va ortiqcha qarzlanish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladi. Boshqa tomondan, Karnavou et al. (2024) shuni ko'rsatdiki, bank infratuzilmasi va mamlakat daromad darajasi bu munosabatni modulatsiya qiladi. Demak, moliyaviy savodxonlik siyosatini ishlab chiqishda kredit sohasida kontekstual omillarni e'tiborga olish muhimdir.

Eng muhim topilma — H3 tasdiqlanishi — FinTech va moliyaviy savodxonlikning nochiziqli o'zaro ta'sirini ko'rsatadi. Bu natija Molin et al. (2025) va Ozili (2025) ning moliyaviy ta'lim dasturlari raqamli kontext bilan uyg'unlashtirilishi kerak degan tavsiyalarini empirik jihatdan kuchaytirar ekan, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli moliya sektori kengayishi sababli dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlarda moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarining samaradorligiga doir muhokamalar hali ham davom etmoqda. Kaiser et al. (2022) meta-tahlilida moliyaviy ta'limning bilim va xulq-atvorga ta'siri o'rtacha

ijobiy, ammo o'rtacha kattamasligini aniqladi. Fernandes et al. (2014) esa ta'lim olingandan keyin «xotiradan o'chib ketish» effektini ta'kidlab, ta'limning uzoq muddatli ta'siri cheklangan ekanligini ko'rsatdi.

Molin et al. (2025) ushbu bahsni tizimli sharh asosida tahlil qilib, dastur samaradorligi asosan tarkib tanlash, ta'lim muhiti va baholash metodologiyasidagi katta farqlanishlar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Ushbu tanqidiy nuqta O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham dolzarb: moliyaviy savodxonlik dasturlari qisqa muddatli bilim berish bilan cheklanmasdan, uzoq muddatli xulq-atvor o'zgarishlariga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Vaxabov & Dusmuxamedov (2022) O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik tushunchasining nazariy asoslarini takomillashtirish masalasini ilmiy jihatdan ko'rib chiqib, milliy sharoitda moliyaviy savodxonlik dasturlarini bozor iqtisodiyoti komponentlari bilan boyitish zarurligini ta'kidladi (Iqtisod va Moliya, 2022, 5(153)). Tuychieva & Soriyev (2022) esa hududiy iqtisodiy rivojlanish va aholi moliyaviy savodxonligi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, moliyaviy savodxonlikning past darajasi tadbirkorlik faolligini salbiy ta'sirlashini ko'rsatdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotdan quyidagi mustaqil ilmiy xulosalar chiqarildi:

1. Moliyaviy savodxonlik bilim, ko'nikma, munosabat va xulq-atvor kabi to'rtta o'zaro bog'liq komponentdan tashkil topgan ko'p o'lchovli tuzilma bo'lib, ushbu komponentlarni alohida-alohida o'lchash va rivojlantirish talab etiladi.
2. H1 tasdiqlanadi: moliyaviy savodxonlikning yuqori darajasi jamg'arma va investitsiya faolligini statistik jihatdan ahamiyatli darajada oshiradi, bu aloqa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bir xil kuzatiladi.
3. H2 qisman tasdiqlanadi: moliyaviy savodxonlik kredit xulq-atvorini ijobiy yo'naltiradi, lekin bu ta'sir bank infratuzilmasi, daromad darajasi va mamlakat iqtisodiy rivojlanish bosqichi kabi kontekstual omillar ta'sirida farqlanadi.
4. H3 to'liq tasdiqlanadi: moliyaviy savodxonlik FinTech qabul qilishning tejash xulq-atvoriga ta'siri uchun zaruriy shart (threshold condition) bo'lib xizmat qiladi — bu ta'sir faqat ma'lum bir minimal savodxonlik pragidan oshgandagina ahamiyatli bo'ladi. Bu topilma raqamli moliyaviy transformatsiyani moliyaviy ta'lim bilan parallel olib borish zarurligini ko'rsatadi.
5. Moliyaviy savodxonlik dasturlari samaradorligi ularda qo'llaniladigan metodologiya, ta'lim muhiti va baholash tizimiga kuchli bog'liq. Qisqa muddatli bilim berish yetarli emas — uzoq muddatli xulq-atvor o'zgarishlarini ta'minlovchi takroriy va kontekstga moslashtirilgan aralashuvlar zarur.
6. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri FinTech kengayishi bilan birgalikda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Moliyaviy ta'lim strategiyalari raqamli infratuzilma investitsiyalari va regulyatorlik islohatlari bilan muvofiqlashtirilganda samaraliroq natija beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-5841063
2. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. Journal of Economic Literature, 52(1), 5–44. https://doi.org/10.1257/jel.52.1.5
3. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2023). The importance of financial literacy: Opening a new field. The Journal of Economic Perspectives, 37(4), 137–154. https://doi.org/10.1257/jep.37.4.137
4. Lusardi, A., & Messy, F.-A. (2023). The importance of financial literacy and its impact on financial wellbeing. Journal of Financial Literacy and Wellbeing, 1(1), 1–11. https://doi.org/10.1017/flw.2023.8
5. Basar, D., Keskin, H., Esen, E., Merter, A. K., & Balcioglu, Y. S. (2025). Digital financial literacy and savings behavior: A comprehensive cross-country analysis of FinTech adoption patterns and economic outcomes across 12 nations. Borsa Istanbul Review, 25, 59–72. https://doi.org/10.1016/j.bir.2025.09.004
6. Karnavou, E., et al. (2024). The impact of financial literacy on financial inclusion. Economic Review / Ekonomické Rozhľady, 53(4), 243–267. https://doi.org/10.53465/ER.2644-7185.2024.4.243-267
7. Zhang, Y., & Chatterjee, S. (2023). Financial well-being in the United States: The roles of financial literacy and financial stress. Sustainability, 15(6), 4505. https://doi.org/10.3390/su15054505
8. Molin, F., Lipsch-Wijnen, I., Vandebeek, A., & Peters, G.-J. (2025). Financial literacy programs in school settings: A scoping review. Educational Research Review, 49, 100732. https://doi.org/10.1016/j.edurev.2025.100732
9. Ozili, P. K. (2025). Financial literacy theory of financial inclusion. MPRA Paper No. 123588. https://mpra.ub.uni-muenchen.de/123588/
10. Kaiser, T., Lusardi, A., Menkhoff, L., & Urban, C. (2022). Financial education affects financial knowledge and downstream behaviors. Journal of Financial Economics, 145(2), 255–272. https://doi.org/10.1016/j.jfineco.2021.09.022
11. Fürstenau, B., Faßhauer, U., & Kossek, B. (Eds.). (2023). Financial Literacy: Conceptual Frameworks and Empirical Evidence. Springer. ISBN 978-3-031-95690-4. https://doi.org/10.1007/978-3-031-95690-4
12. OECD/INFE. (2020). International Survey of Adult Financial Literacy. OECD Publishing. P. 21. https://www.oecd.org/financial/education/

13. Van Rooij, M., Lusardi, A., & Alessie, R. (2012). Financial literacy, retirement planning and household wealth. Economic Journal, 122(May), 449–478. https://doi.org/10.1111/j.1468-0297.2012.02501.x
14. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2011). Financial literacy around the world: An overview. Journal of Pension Economics and Finance, 10(4), 497–508. https://doi.org/10.1017/S1474747211000448
15. Lusardi, A., & Tufano, P. (2015). Debt literacy, financial experiences, and overindebtedness. Journal of Pension Economics & Finance, 14(4), 332–368. https://doi.org/10.1017/S1474747215000232
16. Fernandes, D., Lynch Jr., J. G., & Netemeyer, R. G. (2014). Financial literacy, financial education, and downstream financial behaviors. Management Science, 60(8), 1861–1883. https://doi.org/10.1287/mnsc.2013.1849
17. Hastings, J. S., Madrian, B. C., & Skimmyhorn, W. L. (2013). Financial literacy, financial education, and economic outcomes. Annual Review of Economics, 5(1), 347–373. https://doi.org/10.3386/w18412
18. Vaxabov, A. V., & Dusmuxamedov, O. S. (2022). Moliyaviy savodxonlik tushunchasining nazariy asoslarini takomillashtirish. Iqtisod va Moliya, 2022(5), 153. (O'zbekiston)
19. Tuychieva, N., & Soriyev, S. Sh. (2022). Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va hududlarni iqtisodiy rivojlantirish omili. STARS International University Conference Proceedings, 5, 435–438. https://doi.org/10.47689/STARS. university-5-pp435-438
20. Kadoya, Y., & Khan, M. S. R. (2020). What determines financial literacy in Japan? Journal of Pension Economics and Finance, 19(3), 353–371. https://doi.org/10.1017/S1474747218000379
21. Jappelli, T., & Padula, M. (2013). Investment in financial literacy and saving decisions. Journal of Banking & Finance, 37, 2779–2792. https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2013.03.019
22. Hilgert, M. A., Hogarth, J. M., & Beverly, S. G. (2003). Household financial management: The connection between knowledge and behavior. Federal Reserve Bulletin, 89, 309–322.

UDK 336.7:004.056

# AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI

**Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank ishi kafedrasi dotsenti i.f.d., (DSc)
Email: mohichehra89@list.ru
ORCID: 0000-0002-0779-2632

**Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Raqamli iqtisodiyot kafedrasi assistenti
Email: d.muzaffarova@tsue.uz
ORCID: 0009-0000-6646-624X

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan xorijiy ilmiy yondashuvlar IMRaT metodologik strukturasi asosida tizimli tahlil qilinadi. Yetakchi xalqaro tashkilotlar (OECD, World Bank, IMF) va 2020–2026 yillar davomida chop etilgan 28 dan ortiq xalqaro manbalar qiyosiy ko'rib chiqildi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, moliyaviy savodxonlik nazariyasida uchta asosiy yo'nalish shakllanmoqda: kognitiv-o'lchov yondashuvi, xulq-atvor-kasbiy yondashuvi va raqamli-integratsion yondashuv. OECD/INFE uch o'lchamli modeli (bilim, xulq-atvor, munosabat) global standart sifatida tan olingan bo'lsa-da, maktab dasturlarining metodologik xilma-xilligi va uzoq muddatli baholash vositalarining yetishmasligi hali bartaraf etilmagan muammo bo'lib qolmoqda. Raqamli FinTech muhitida moliyaviy savodxonlik endi texnik ko'nikmalar bilan uyg'unlashib, yangi kontseptual talablarni keltirib chiqarmoqda. O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribani tatbiq etishning asosiy shartlari sifatida kontekstual moslashuv, institutsional integratsiya va raqamli infratuzilmaning rivojlantirilishi belgilandi.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, OECD/INFE ko'rsatkichlari, moliyaviy xulq-atvor modeli, raqamli moliyaviy xizmatlar, FinTech, moliyaviy ta'lim dasturlari, O'zbekiston.

Abstract. This article provides a systematic analysis of foreign scientific approaches aimed at improving financial literacy among the population, based on the IMRaT methodological structure. Leading international organizations (OECD, World Bank, IMF) and more than 28 international sources published during 2020–2026 were comparatively reviewed. The analysis shows that three main directions are emerging in financial literacy theory: the cognitive-measurement approach, the behavioral-professional approach, and the digital-integration approach. Although the OECD/INFE three-dimensional model (knowledge, behavior, attitude) is recognized as a global standard, methodological diversity in school curricula and the lack of long-term assessment tools remain unresolved issues. In the context of the digital FinTech environment, financial literacy is increasingly integrated with technical skills, generating new conceptual requirements. For Uzbekistan, key conditions for adapting international experience include contextual adaptation, institutional integration, and the development of digital infrastructure.

Key words: financial literacy, OECD/INFE indicators, financial behavior model, digital financial services, FinTech, financial education programs, Uzbekistan.

Аннотация. В данной статье проводится системный анализ зарубежных научных подходов, направленных на повышение финансовой грамотности населения, на основе методологической структуры IMRaT. Проведен сравнительный анализ более 28 международных источников, опубликованных в период 2020–2026 годов, а также материалов ведущих международных организаций (OECD, Всемирный банк, МВФ). Анализ показал, что в теории финансовой грамотности формируются три основных направления: когнитивно-измерительный

подход, поведенческо-профессиональный подход и цифрово-интеграционный подход. Несмотря на то, что трехкомпонентная модель OECD/INFE (знания, поведение, установки) признана глобальным стандартом, методологическая неоднородность школьных программ и недостаток инструментов долгосрочной оценки остаются нерешенными проблемами. В условиях цифровой среды FinTech финансовая грамотность все более интегрируется с техническими навыками, формируя новые концептуальные требования. В условиях Узбекистана ключевыми условиями адаптации зарубежного опыта определены контекстуальная адаптация, институциональная интеграция и развитие цифровой инфраструктуры.

Ключевые слова: финансовая грамотность, показатели OECD/INFE, модель финансового поведения, цифровые финансовые услуги, FinTech, программы финансового образования, Узбекистан.

## KIRISH

Moliyaviy savodxonlik so'nggi o'n yilliklarda iqtisodiy siyosat va ijtimoiy barqarorlikning markaziy muammolaridan biriga aylandi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, aholining moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi kompetentligi nafaqat individual farovonlikni, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ham to'g'ridan-to'g'ri belgilaydi [1, 2]. Lusardi va Mitchell (2014) tomonidan olib borilgan fundamental tadqiqot iqtisodiy adabiyotdagi eng ko'p iqtibos keltirilgan ishlardan biri bo'lib, moliyaviy savodxonlikning pensiyaga tayyorgarlik, investitsiya xulq-atvori va qarz yuki boshqaruvidagi hal qiluvchi rolini empirik jihatdan asoslab bergan [3]. Keyingi tadqiqotlar ushbu munosabatni raqamli xizmatlar, FinTech platformalari va davlat siyosati kontekstida yanada murakkablashtirdi. Shu bilan birga, global miqyosda moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar metodologik jihatdan tarqoq holda rivojlanmoqda. Ba'zi tadqiqotlar faqat bilim o'lchovi bilan cheklanib, moliyaviy xulq-atvor va munosabatni e'tibordan soqit qiladi; boshqalari maktabgacha ta'lim dasturlarini tahlil qilsa, boshqalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan moliyaviy savodxonlikning integratsiyasiga e'tibor qaratadi [4, 5]. Ushbu ilmiy tarqoqlik holati amaliy siyosatni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan tizimli bilim bazasining shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Ilmiy muammo sifatida quyidagini aniq ko'rsatish mumkin: moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan xorijiy yondashuvlar metodologik va kontseptual jihatdan tizimli ravishda umumlashtirilmagan, ularning raqamli transformatsiya sharoitidagi holati va rivojlanayotgan mamlakatlarga, xususan O'zbekistonga moslashtirilganligi yetarli darajada o'rganilmagan. Molin va boshq. (2025) amalga oshirgan keng qamrovli ko'rib chiqish ham maktab dasturlarining mazmun, metodologiya va baholash standartlari jihatidan katta xilma-xilligini qayd etib, qiyosiy tahlilning murakkabligini yana bir bor tasdiqladi [5].

Ushbu tadqiqotning maqsadi yetakchi xorijiy olimlar va xalqaro tashkilotlarning moliyaviy savodxonlikka oid konsepsiyalari, uni baholash metodlari hamda raqamli moliyaviy xizmatlar sharoitida shakllangan yangi ilmiy yondashuvlarni IMRaT strukturasi asosida tizimli va tanqidiy tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot gipotezalari:

H1: Moliyaviy savodxonlikni o'lchash bo'yicha xalqaro yondashuvlarda uch o'lchamli model (bilim–xulq-atvor–munosabat) asosiy standart sifatida tan olingan, ammo amaliy tatbiqda metodologik izchillik ta'minlanmagan.

H2: Maktabga asoslangan moliyaviy ta'lim dasturlari qisqa muddatli bilim ko'rsatkichlarini oshirishda samarali, lekin uzoq muddatli xulq-atvor o'zgarishlarini ta'minlashda chekli imkoniyatlarga ega.

H3: Raqamli FinTech muhiti moliyaviy savodxonlik kontsepsiyasini an'anaviy kognitiv o'lchovdan kengroq, texnik-xulq-atvoriy kompetentsiyaga qarab transformatsiya qilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi so'nggi yillarda xalqaro ilmiy tadqiqotlarda keng qamrovli o'rganilib, uning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda iqtisodiy natijalarga ta'siri turli nuqtayi nazarlardan tahlil qilingan. Ushbu yo'nalishda eng muhim yondashuvlardan biri moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi o'rni va uning mikro hamda makro darajadagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.

Annamaria Lusardi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar moliyaviy savodxonlikni iqtisodiy farovonlikning asosiy determinantlaridan biri sifatida talqin qiladi. Lusardi 2019-yilda moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan jamiyatlarda noto'g'ri moliyaviy qarorlar, ortiqcha qarzdorlik va jamg'arma yetishmovchiligi kabi muammolar keng tarqalishini empirik dalillar asosida ko'rsatadi. Shu bilan birga, Lusardi va Olivia S. Mitchell 2014-yildagi tadqiqotida moliyaviy savodxonlik inson kapitalining muhim komponenti ekanligini asoslab, uning investitsiya faoliyati, pensiya rejalashtirish va risklarni boshqarishdagi rolini chuqur tahlil qiladi.

Moliyaviy savodxonlik tushunchasining mazmunini aniqlash borasida Remund 2010-yilda ushbu kategoriyani bilim, ko'nikma va xulq-atvor elementlarining integratsiyasi sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, moliyaviy

savodxonlik faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki amaliy qarorlar qabul qilish kompetensiyasini ham o'z ichiga oladi. Bu yondashuv keyingi tadqiqotlar uchun metodologik asos vazifasini bajargan.

Xalqaro tashkilotlar, xususan OECD va OECD/INFE tomonidan o'tkazilgan 2020-yilgi global tadqiqotlar moliyaviy savodxonlik darajasini baholashning standartlashtirilgan indikatorlarini ishlab chiqdi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, aksariyat mamlakatlarda aholining moliyaviy bilim darajasi o'rtacha darajada bo'lib, xulq-atvor komponenti (jamg'arma qilish, rejalashtirish) nisbatan past ekanligi aniqlangan. Bu esa moliyaviy ta'lim dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Moliyaviy ta'lim samaradorligini baholash masalasi Kaiser va Menkhoff 2017-yilda olib borgan empirik tadqiqotda keng yoritilgan. Ular moliyaviy ta'lim dasturlarining ijobiy ta'siri mavjudligini, biroq bu ta'sirning kuchi vaqt, maqsadli auditoriya va ta'lim shakliga bog'liq ekanligini aniqlagan. Ayniqsa, qisqa muddatli va amaliy yo'naltirilgan dasturlar eng samarali natijalarni berishi qayd etilgan.

So'nggi yillarda maktab ta'limi tizimida moliyaviy savodxonlikni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar ham faollashgan. Molin va hammualliflar 2025-yilda olib borgan keng qamrovli sharh tadqiqotida maktab darajasida moliyaviy ta'lim dasturlari o'quvchilarning moliyaviy bilimlari va xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Shu bilan birga, dasturlarning samaradorligi ularning interaktivligi va real hayotga yaqinligi bilan bevosita bog'liq ekani ta'kidlangan.

Schürkmann 2017-yilda ishlab chiqilgan FILS (Financial Literacy Study) konsepsiyasi orqali moliyaviy savodxonlikni kompleks baholash modelini taklif etadi. Ushbu model moliyaviy bilim, qaror qabul qilish qobiliyati va xulq-atvorni birgalikda baholash imkonini beradi, bu esa ilmiy tadqiqotlarda integratsiyalashgan yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy savodxonlikning yangi shakli — raqamli moliyaviy savodxonlik alohida ahamiyat kasb etmoqda. Başar va hammualliflar 2025-yilda o'tkazgan tadqiqotda FinTech texnologiyalaridan foydalanish darajasi va jamg'arma xulq-atvori o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Ularning xulosasiga ko'ra, raqamli moliyaviy savodxonlik nafaqat individual darajada, balki milliy iqtisodiyot barqarorligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, xorijiy ilmiy tadqiqotlar moliyaviy savodxonlikni kompleks, ko'p komponentli va dinamik tizim sifatida talqin qiladi. Ular moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun nafaqat ta'lim dasturlarini kengaytirish, balki institutsional muhitni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda aholining moliyaviy xulq-atvorini shakllantirishga qaratilgan kompleks yondashuv zarurligini asoslab beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi uchta asosiy usulga tayanadi: (1) tizimli adabiyotlar ko'rib chiqish (systematic literature review), (2) qiyosiy tahlil va (3) kontent tahlili. Manbalar quyidagi mezonlar asosida tanlab olindi: 2020–2026 yillar oralig'ida chop etilgan va Scopus, Web of Science yoki PubMed/Google Scholar ma'lumotlar bazalarida indekslangan maqolalar; OECD, World Bank, IMF rasmiy hisobotlari; O'zbekiston Markaziy banki va CERT-CBU hujjatlari. Jami 28 ta asosiy manba tanlab olindi (ulardan 22 tasi xalqaro reytingli jurnallarda chop etilgan).

Tahlil uchta yo'nalish bo'yicha tizimlashtirilib, har birida qiyosiy baholash jadvallariga asoslangan xulosalar chiqarildi (1-jadval).

1- jadval. Tahlilga jalb etilgan manbalarning tematik taqsimoti[1]

| Yo'nalish | Tahlil qilingan manbalar soni | Asosiy manbalar |
|---|---|---|
| Kontseptual ta'riflar va nazariy modellar | 9 | Lusardi & Mitchell (2014); OECD/INFE (2020); Remund (2010); Huston (2010) |
| Baholash metodlari va indikatorlar | 8 | OECD/INFE Toolkit; S&P FinLit Survey; Kadoya & Khan (2020); Ouachani et al. (2021) |
| Ta'lim va institutsional mexanizmlar | 7 | Molin et al. (2025); Kaiser & Menkhoff (2017); Salas-Velasco (2025) |
| Raqamli moliyaviy xizmatlar va FinTech | 4 | Başar et al. (2025); Chowdhury et al. (2026); Koskelainen et al. (2023) |

Qiyosiy tahlilning metodologik asosi sifatida uch o'lchamli matritsa qo'llanildi: (a) kontseptual qamrov kengligi (bilim, xulq-atvor, munosabat o'lchovlari); (b) metodologik qat'iylik (RKT dizayni, oldindan-keyindan o'lchov, nazorat guruhi); (c) amaliy tatbiq darajasi (ta'limga integratsiya, institutsional qo'llab-quvvatlash, politika

1 Jadval muallif tomonidan ko'rsatilgan manbalar asosida tuzilgan.

tavsiyalari). Ushbu matritsa asosida har bir yo'nalish uchun kuchli va zaif tomonlar aniqlanib, O'zbekiston kontekstiga nisbatan qo'llanilish imkoniyati baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy savodxonlik kontseptsiyasining nazariy bazasi bir necha avlod tadqiqotlaridan o'tib, bugungi kunda murakkab, ko'p qirrali tuzilma sifatida qaralmoqda. Lusardi va Mitchell (2014) ning klassik ta'rifi bo'yicha moliyaviy savodxonlik iqtisodiy adabiyotda ikki yo'nalishda rivojlanib keldi: bir tomondan, u bilim yoki kognitiv ko'rsatkich sifatida o'lchandi; boshqa tomondan, xulq-atvoriy iqtisodiyot nuqtai nazaridan qaror qabul qilish jarayonidagi kompetentsiya sifatida qaraldi [3]. Remund (2010) tomonidan o'tkazilgan meta-tahlil moliyaviy savodxonlikning besh tipli kontseptual ta'rifini aniqladi: bilim, kommunikatsiya ko'nikmasi, boshqaruv qobiliyati, qaror qabul qilish va rejalashtirish [6].

OECD/INFE (2020) tomonidan ishlab chiqilgan uch o'lchamli model (bilim, xulq-atvor, munosabat) global miqyosda eng keng qabul qilingan standart hisoblanadi [7]. Ushbu modelda moliyaviy bilim foiz hisobi, inflyatsiya ta'siri, risk-daromad munosabati kabi fundamental tushunchalarni o'z ichiga oladi; moliyaviy xulq-atvor byudjetlash, faol jamg'arish va mahsulot tanlovini o'z ichiga oladi; moliyaviy munosabat esa kelajakka mo'ljallangan pul munosabatini aks ettiradi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, OECD/INFE modeli rivojlanayotgan mamlakatlarda ham tatbiq etilgan, lekin madaniy-institutsional farqlar tufayli natijalarning qiyoslanishi cheklangan bo'lib qolmoqda.

Schurkmann (2017) ning FILS tadqiqoti esa moliyaviy savodxonlikni raqamli vositalar bilan aloqasida o'rganib, onlayn kalkulyatorlar va interaktiv modullardan foydalanish ko'nikmalarini moliyaviy savodxonlikning yangi komponenti sifatida taklif etdi [8]. Dastidar va boshq. (2023, iqtibos Basar et al., 2025) tomonidan amalga oshirilgan ko'p mamlakatli tahlillar FinTech dan foydalanish va moliyaviy savodxonlik darajasi o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuvni aniqlagan: moliyaviy savodxonlik raqamli vositalardan samarali foydalanishning zaruriy shart (threshold condition) sifatida ishlashi ko'rsatilgan (2-jadval) [9].

2- jadval. Moliyaviy savodxonlik nazariy modellarining qiyosiy tahlili[2]

| Muallif/Manba | Model/Yondashuv | O'lchov o'lchamlari | Kuchli tomoni | Zaif tomoni |
|---|---|---|---|---|
| Lusardi & Mitchell (2014) | Kognitiv-bilim modeli | Foiz, inflyatsiya, diversifikatsiya (3 savol) | Oddiy, keng qo'llaniladigan | Xulq-atvorni o'lchamaydi |
| OECD/INFE (2020) | Uch o'lchamli integral model | Bilim + xulq-atvor + munosabat | Global standart, qiyoslanuvchi | Madaniy moslashuv talab etiladi |
| Remund (2010) | Ko'p tipli ta'rif matritsasi | Bilim, ko'nikma, boshqaruv, qaror, rejalashtirish | To'liq konseptual qamrov | O'lchov vositasi ko'rsatilmagan |
| S&P FinLit Survey | To'rtta asosiy kontsept | Risk, inflyatsiya, hisob, murakkab foiz | Global qiyosiy imkon | Xulq-atvoriy va munosabat o'lchami yo'q |
| Başar et al. (2025) | FinTech integratsion model | Raqamli savodxonlik + FinTech qabuli + jamg'arish | Zamonaviy, ko'p mamlakatli | Rivojlanayotgan mamlakatlarda tekshirilmagan |

Moliyaviy savodxonlikni baholash metodologiyasi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va qiyoslanuvchanligi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotda bir necha asosiy yondashuv qo'llaniladi. Birinchidan, Lusardi va Mitchell tomonidan ishlab chiqilgan uch savollik «Big Three» testi (foiz hisobi, inflyatsiya, risk diversifikatsiyasi) global ko'p mamlakatli tadqiqotlarda standart vosita sifatida qo'llanilmoqda [3]. Ushbu testning soddaligi va xalqaro qiyoslanuvchanligi uni keng tarqalishiga sabab bo'ldi, lekin uni tanqid qiluvchilar yagona kognitiv o'lchovga bog'liqligini va xulq-atvoriy komponentni qamrab olmasligini ta'kidlaydi [6, 10].

Ikkinchidan, OECD/INFE (2015, 2020) asboblar to'plami kompleks baholash metodologiyasini taklif etadi: moliyaviy bilim (8–9 savol), moliyaviy xulq-atvor (9 savol) va moliyaviy munosabat (3 savol). Ushbu metodologiya 2021 yil O'zbekiston ham ishtirok etgan G-20 davlatlari bo'yicha o'tkazilgan so'rovda qo'llanildi [7]. Kadoya va Khan (2020) esa uch o'lchamli modelni rivojlantirib, moliyaviy bilimlarni o'lchash uchun hisoblash imkoniyatlari, inflatsiyani tushunish va risk-daromad munosabatlarini o'z ichiga olgan uch savollik to'plamni ishlab chiqdi [11].

Uchinchidan, Chowdhury va boshq. (2026) rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan Bangladesh kontekstida klaster tahlili asosida moliyaviy savodxonlikning beshta behavioural tipini aniqladilar, bu esa moliyaviy

2 Jadval muallif tomonidan ko'rsatilgan manbalar asosida tuzilgan.

savodxonlikni statik ko'rsatkich sifatida emas, balki dinamik profil sifatida baholash zaruratini ko'rsatib berdi [12]. Ushbu yondashuv O'zbekistonning heterogen aholi segmentlari uchun alohida ahamiyatga ega.

Molin va boshq. (2025) tomonidan amalga oshirilgan keng qamrovli skoping ko'rib chiqish yetti ma'lumotlar bazasidan 56 ta maqolani qamrab oldi va maktab muhitidagi moliyaviy ta'lim dasturlarining mazmuni, baholash metodlari va samaradorligini tahlil qildi [5]. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 43 ta tadqiqot o'lchangan barcha ko'rsatkichlar bo'yicha statistik jihatdan muhim ijobiy ta'sirni qayd etdi; faqat to'rtta tadqiqot ijobiy ta'sir kuzatmadi. Bu umumiy tendentsiya sifatida maktab dasturlarining qisqa muddatli bilim ko'rsatkichlarini oshirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Biroq, ushbu ijobiy natijalarni tanqidiy baholash zarur. Molin va boshq. (2025) ta'kidlaganidek, metodologik sifat ko'pincha past darajada bo'lib, randomizatsiya qilingan boshqariladigan tajriba (RCT) asosida amalga oshirilgan tadqiqotlar soni cheklangan [5]. Kaiser va Menkhoff (2017) tomonidan amalga oshirilgan meta-analiz ham ta'lim intensivligi (o'qitishga sarflangan soatlar soni) va dastur natijasi o'rtasida ijobiy korrelyatsiyani aniqladi [4]. Bu esa dastur uzunligi va tizimli integratsiyaning ahamiyatini ko'rsatadi.

Salas-Velasco (2025) Ispaniyada eksperimental bo'lmagan metodologiya (propensity score matching) yordamida maktab moliyaviy ta'limi ta'sirini baholab, statistik jihatdan muhim ijobiy ta'sirni aniqladi. Muhimi, ushbu tadqiqot maktabdagi ta'limning oila va tengdoshlar ta'siridan mustaqil ravishda ham moliyaviy savodxonlikni oshirishga hissa qo'shishini ko'rsatdi (3-jadval) [13].

3- jadval. Moliyaviy ta'lim mexanizmlarining qiyosiy tahlili[3]

| Mexanizm | Misol mamlakat/ dastur | Asosiy xususiyat | Samaradorlik darajasi | Manba |
|---|---|---|---|---|
| Maktab o'quv dasturiga integratsiya | AQSH, Belgiya | Milliy standart qabul qilingan | Yuqori (bilim o'sishi) | Molin et al. (2025) |
| Alohida moliyaviy savodxonlik dasturlari | Niderlandiya, Avstraliya | Mustaqil modul, tashqarida | O'rta (xulq-atvor o'zgarishi cheklangan) | Kaiser & Menkhoff (2017) |
| Institutsional moliyaviy ta'lim (banklar) | Ekvador, Janubiy Afrika | Bank tuzilmalari orqali | O'rta-yuqori (maqsadli guruhlar) | Mendez-Prado et al. (2023) |
| Raqamli/mobil ta'lim platformalari | Keniya, Singapur, Bangladesh | Mobile-first, personalized | Perspektivali (tekshirilmoqda) | Chowdhury et al. (2026) |
| Qiyosiy moliyaviy ta'lim (PISA) | Ko'p mamlakat (65+) | Standartlashtirilgan baholash | O'rta (kross-mamlakat) | Salas-Velasco et al. (2021) |

Raqamli transformatsiya moliyaviy savodxonlik kontsepsiyasiga yangi o'lchamlar qo'shdi. Başar va boshq. (2025) 12 mamlakatni qamrab olgan 30,000 dan ortiq respondent bilan o'tkazilgan ko'p darajali tahlil asosida moliyaviy savodxonlik FinTech dan samarali foydalanishning minimal shart sifatida ishlanishini aniqladi. Muhimi, qishloq hududlarida raqamli infratuzilma mavjud bo'lsa, FinTech ta'sirining shaharga qaraganda kuchliroq ekanligini ko'rsatdi [9]. Bu rivojlanayotgan mamlakatlar uchun alohida ahamiyatga ega xulosa.

Chowdhury va boshq. (2026) Bangladesh misolida moliyaviy savodxonlik darajasini beshta klasterga ajratdi: moliyaviy jihatdan kuchsiz, o'tish bosqichidagi, asosiy, rivojlanayotgan va ilg'or guruhlar. Taklif qilingan resurslarga ajratish matritsi: 60% kuchsiz guruhlarga qo'llab-quvvatlash, 30% o'tish dasturlari, 10% ilg'or xizmatlar [12]. Ushbu segment-asosli yondashuv O'zbekistonning heterojen ijtimoiy-demografik tuzilmasi uchun metodologik model sifatida qo'llanilishi mumkin.

Koskelainen va boshq. (2023, iqtibos Başar et al., 2025) raqamli asr uchun moliyaviy savodxonlik tadqiqot kundaligini aniqlab, ikkita asosiy bo'shliqni ajratib ko'rsatdi: birinchisi, raqamli moliyaviy savodxonlikning an'anaviy moliyaviy savodxonlikdan farqlanuvchi spetsifik tarkibi; ikkinchisi, platformalar bo'yicha xulq-atvoriy ta'sirlarning o'lchov metodologiyasi [9]. Bu FinTech muhitida moliyaviy savodxonlikni o'lchash uchun yangi instrumentlar zarurligini ko'rsatadi.

Gandelman va boshq. (2025) Uruguay misolida moliyaviy kiritish dasturining (bank hisobiga ish haqi o'tkazish) ta'sirini baholab, bank hisobini ochish debit karta egaligini oshirganini, ammo qisqa muddatli kreditlash yoki jamg'arish xulq-atvori ustida sezilarli ta'sir ko'rsatmagnini aniqladi [14]. Ushbu topilma moliyaviy kiritishning moliyaviy savodxonlikdan mustaqil ravishda avtomatik ravishda moliyaviy xulq-atvorni o'zgartirmasligini ko'rsatadi.

Tadqiqot gipotezalarini tekshirish natijalari: H1 to'liq tasdiqlandi — OECD/INFE uch o'lchamli modeli keng e'tirof etilgan, ammo tatbiqda metodologik farqlar saqlanmoqda. H2 qisman tasdiqlandi — maktab dasturlari

3 Samaradorlik darajasi tadqiqotlarda qayd etilgan effect size va uzoq muddatli ta'sir ma'lumotlari asosida muallif tomonidan sintetik baholangan.

bilim o'sishida samarali, lekin uzoq muddatli xulq-atvor o'zgarishi yetarlicha hujjatlashtirilmagan. H3 to'liq tasdiqlandi — FinTech muhiti moliyaviy savodxonlik kontsepsiyasini an'anaviy bilim o'lchovidan kengroq kompetentsiyaga kengaytirmoqda.

Tahlil qilingan xorijiy ilmiy yondashuvlarning umumiy kuchi shundaki, ular moliyaviy savodxonlik konseptsiyasini statik bilim ko'rsatkichidan dinamik, ko'p komponentli kompetentsiyaga aylantirgan. OECD/INFE (2020) modeli bu yo'ldagi muhim qadam bo'ldi. Biroq, bir qancha metodologik zaifliklar saqlanmoqda.

Birinchi zaiflik uzoq muddatli baholashning yetarli emasligi bilan bog'liq. Molin va boshq. (2025) ning ko'rib chiqishida 56 ta tadqiqotdan atigi 9 tasi dastlabki o'lchov vaqtidan keyingi kuzatuvlarni amalga oshirgan [5]. Bu moliyaviy ta'lim dasturlarining uzoq muddatli samaradorligini hujjatlashtirish imkonini cheklaydi va moliyaviy savodxonlik qanchalik vaqt davomida saqlanishi haqidagi savolga javob berish qiyin.

Ikkinchi zaiflik madaniy-institutsional kontekstning yetarli darajada hisobga olinmaganligidir. Başar va boshq. (2025) Hofstede's madaniy o'lchovlari asosida ta'kidlaganidek, nobeqarorlikdan qochish (uncertainty avoidance) kabi madaniy omillar FinTech qabuli va, binobarin, raqamli moliyaviy savodxonlikning tarqalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [9]. OECD/INFE standartlari ko'pincha G-7 mamlakatlarida sinovdan o'tkazilgan bo'lib, markaziy Osiyo kabi hududlarda ularning bevosita qo'llanilishi metodologik ko'rishni talab etadi.

Uchinchi zaiflik o'lchov vositalarining ishonchlilik va validlik ko'rsatkichlari kamdan-kam e'lon qilinishidir. Molin va boshq. (2025) tahlilida RCT dizayniga asoslangan va o'z ishonchlilik tahlilini ham o'tkazgan tadqiqotlar soni jami 3 ta bilan chegaralangan [5]. Bu esa tadqiqot natijalarining robustligiga shubha uyg'otadi.

To'rtinchi zaiflik moliyaviy savodxonlikni moliyaviy inkluziyani kontseptual jihatdan ajratmaslik muammosidir. Gandelman va boshq. (2025) ko'rsatganicha, moliyaviy kiritish va moliyaviy xulq-atvor o'rtasidagi munosabat avtomatik emas [14]. Moliyaviy xizmatga ruxsat berish (access) va ulardan to'g'ri foydalana olish (capability) o'rtasidagi farq ko'pincha e'tibordan soqit qilinadi, bu esa dasturlarni noto'g'ri maqsadga yo'naltirish xavfini tug'diradi.

Birinchidan, OECD/INFE uch o'lchamli baholash metodologiyasini O'zbekiston uchun moslashtirilgan versiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. 2021 yilda o'tkazilgan G-20 / OECD moliyaviy savodxonligi so'rovida O'zbekiston ham ishtirok etdi, ammo natijalarning to'liq tahlili hali akademik nashrlarda yetarli darajada qayta ko'rilmagan. Basnayake va boshq. (2024) Asia-Pacific mintaqasi bo'yicha o'tkazilgan tahlilda O'zbekiston shimoliy va markaziy Osiyo guruhiga kiritilgan bo'lib, raqamli moliyaviy kiritish ko'rsatkichlarining hali pastligi qayd etilgan [15].

Ikkinchidan, Bangladesh misolidagi klaster-asosli segment yondashuvi (Chowdhury et al., 2026) O'zbekistonning shahar/qishloq, yoshi katta/yosh avlod, rasmiy/norasmiy sektor bo'yicha demografik segmentlarga nisbatan qo'llanilishi maqsadga muvofiq [12]. Moliyaviy savodxonlik darsliklari va modul dasturlari yagona shaklda emas, balki maqsadli guruh xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur.

Uchinchidan, raqamli moliyaviy xizmatlar kontekstida FinTech va moliyaviy savodxonlik o'rtasidagi "threshold effect" (Başar et al., 2025) O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega [9]. MyCard kabi platformalarning keng tarqalishi va mobil bank xizmatlaridan foydalanish ko'lamining ortishi bilan bir qatorda raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish ushbu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda maktab o'quv dasturlarining tizimli isloh qilinishi va bank institutlari tomonidan mijozlarga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

To'rtinchidan, O'zbekistonda moliyaviy ta'lim dasturlarining samaradorligini baholash uchun RCT yoki kvazieksperimental dizaynlarni qo'llash ilmiy zaruriyat bo'lib qolmoqda. Hozirgi holda aksariyat dasturlarning natijasi anekdotal dalillar yoki qisqa muddatli bilim testlari asosida baholanadi. Salas-Velasco (2025) tomonidan taklif qilingan propensity score matching yondashuvi an'anaviy tajriba o'tkazish mumkin bo'lmagan hollarda ham kauzal xulosalar chiqarish imkonini berishi mumkin [13].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan natijalar va muhokama asosida quyidagi mustaqil ilmiy xulosalar shakllantiriladi:

1. Xorijiy tadqiqotlarda moliyaviy savodxonlik kontseptsiyasi evolyutsiyasi bir yo'nalishli emas: kognitiv o'lchov asosidagi yondashuvdan xulq-atvor va munosabatni ham qamrab oluvchi integral modelga o'tish hali to'liq yakunlanmagan. OECD/INFE modeli standart sifatida qabul qilingan bo'lsa-da, uning tatbiqida metodologik xilma-xillik davom etmoqda.

2. Maktabga asoslangan moliyaviy ta'lim dasturlari qisqa muddatli bilim ko'rsatkichlarini oshirishda samarali ekanligi keng tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Biroq, uzoq muddatli xulq-atvor va munosabat o'zgarishlari bo'yicha dalillar yetarli emas. Bu ikki qatlami o'rtasidagi tuzilmaviy farq — bilim o'sishi bilan xulq-atvor transformatsiyasi o'rtasidagi «gap» — moliyaviy ta'lim nazariyasining eng dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda.

3. FinTech muhitida moliyaviy savodxonlikning funksional tarkibi o'zgarmoqda: raqamli platformalardan xavfsiz foydalanish ko'nikmasi, ma'lumotlarning maxfiyligini tushunish va real vaqtda moliyaviy qaror qabul qilish qobiliyati klassik bilim test savollariga qo'shimcha ravishda zarur kompetentsiyalar sifatida ilmiy asoslangan.

4. O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribaning tatbiqi uchta asosiy shart talab etadi: (a) OECD/INFE yoki shunga moslashtirilgan standartlarga asoslangan milliy baholash tizimining joriy etilishi; (b) aholi demografik segmentlari asosida maqsadli ta'lim dasturlarining ishlab chiqilishi; (c) moliyaviy savodxonlik dasturlari samaradorligini o'lchash uchun kauzal dizaynlardan foydalanish.

5. Raqamli moliyaviy savodxonlik va an'anaviy moliyaviy savodxonlik o'rtasidagi munosabatni tushunish O'zbekistonning MyCard kabi platformalariga bog'liq siyosatni ilmiy asosda shakllantirishning zaruriy shartini tashkil etadi. Aholining raqamli moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanishi uchun ikki tomonlama sarmoya zarur: infratuzilma (platforma) va kompetentsiya (moliyaviy savodxonlik).

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**


1. Lusardi, A. (2019). Financial literacy and the need for financial education: Evidence and implications. Swiss Journal of Economics and Statistics, 155(1), 1–8. https://doi.org/10.1186/s41937-019-0027-5
2. OECD. (2020). OECD/INFE 2020 International Survey of Adult Financial Literacy. OECD Publishing. https://www.oecd.org/finance/oecd-infe-2020-international-survey-of-adult-financial-literacy.pdf
3. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. Journal of Economic Literature, 52(1), 5–44. https://doi.org/10.1257/jel.52.1.5
4. Kaiser, T., & Menkhoff, L. (2017). Does financial education impact financial behavior, and if so, when? World Bank Economic Review, 31(3), 611–630. https://doi.org/10.2139/ssrn.2753510
5. Molin, F., Lipsch-Wijnen, I., Vandebeek, A., & Peters, G.-J. (2025). Financial literacy programs in school settings: A scoping review. Educational Research Review, 49, 100732. https://doi.org/10.1016/j.edurev.2025.100732
6. Remund, D. L. (2010). Financial literacy explicated: The case for a clearer definition in an increasingly complex economy. Journal of Consumer Affairs, 44(2), 276–295. https://doi.org/10.1111/j.1745-6606.2010.01169.x
7. OECD/INFE. (2020). OECD/INFE 2020 International Survey of Adult Financial Literacy. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/1f5d8ade-en
8. Schürkmann, S. (2017). FILS: Financial literacy study. De Gruyter Oldenbourg. https://doi.org/10.1515/9783110555622
9. Başar, D., Keskin, H., Esen, E., Merter, A. K., & Balcıoğlu, Y. S. (2025). Digital financial literacy and savings behavior: A comprehensive cross-country analysis of FinTech adoption patterns and economic outcomes across 12 nations. Borsa Istanbul Review, 25, 59–72. https://doi.org/10.1016/j.bir.2025.09.004
10. Ouachani, S., Belhassine, O., & Kammoun, A. (2021). Measuring financial literacy: A literature review. Managerial Finance, 47(2), 266–281. https://doi.org/10.1108/MF-04-2019-0175
11. Kadoya, Y., & Khan, M. S. R. (2020). Financial literacy in Japan: New evidence using the method of dealing with endogeneity. International Journal of Financial Studies, 8(1), 1–17. https://doi.org/10.3390/ijfs8010014
12. Chowdhury, T. A., Chowdhury, M. A. H., Rahman, M. T., Ahmed, I., Ahmed, N., Tuhin, M. A. I., & Kafy, A. A. (2026). Financial literacy profiling in developing economies. Computers in Human Behavior Reports, 21, 100926. https://doi.org/10.1016/j.chbr.2025.100926
13. Salas-Velasco, M. (2025). Non-experimental impact estimates of school financial education exposure on financial literacy outcomes. Economia Politica, 42, 379–403. https://doi.org/10.1007/s40888-025-00368-z
14. Gandelman, N., Lluberas, R., & Misail, D. (2025). Financial inclusion and its impact on payment, savings, and credit. International Review of Economics and Finance, 100, 104112. https://doi.org/10.1016/j.iref.2025.104112
15. Basnayake, D., et al. (2024). Digital financial inclusion and economic growth: Evidence from Asia-Pacific. International Review of Financial Analysis, 96, 103596. https://doi.org/10.1016/j.irfa.2024.103596
16. Kaiser, T., Lusardi, A., Menkhoff, L., & Urban, C. (2022). Financial education affects financial knowledge and downstream behaviors. Journal of Financial Economics, 145(2), 255–272. https://doi.org/10.1016/j.jfineco.2021.09.022
17. OECD. (2022). OECD/INFE Toolkit for measuring financial literacy and financial inclusion 2022. OECD Publishing.
18. Salas-Velasco, M., Moreno-Herrero, D., & Sánchez-Campillo, J. (2021). Teaching financial education in schools and students' financial literacy: A cross-country analysis with PISA data. International Journal of Finance & Economics, 26(3), 4077–4103. https://doi.org/10.1002/ijfe.2005

# MAHALLIY OLIMLAR TADQIQOTLARIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA BANK XIZMATLARI MASALALARI

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mehnat iqtisodiyoti kafedrasi professori, Dsc
TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
E-mail: g.abdurakhmanova@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-5735-899X

**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank ishi kafedrasi dotsenti, Dsc
TDIU Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi boshig'i
Email: m.maxmudova@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-5777-6606x

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston olimlari tomonidan moliyaviy savodxonlik va bank xizmatlari masalalarini o'rganishdagi ilmiy yondashuvlar tizimli va tanqidiy ravishda tahlil qilinadi. IMRaT metodologiyasi asosida mahalliy ilmiy adabiyotlarda «moliyaviy savodxonlik» tushunchasining talqin etilishi, bank plastik kartalaridan foydalanish madaniyati hamda kiberxavfsizlik bilan bog'liq masalalar o'rganiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mahalliy tadqiqotlar nazariy-uslubiy jihatdan boy bo'lsa-da, empirik miqdoriy baholash usullari qo'llanilishi hali yetarlicha rivojlanmagan. Maqola moliyaviy savodxonlik va bank xizmatlari sohasidagi kelajak tadqiqotlar uchun nazariy-amaliy yo'nalishlar taklif etadi.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, bank xizmatlari, plastik karta, kiberxavfsizlik, CERT-CBU, O'zbekiston, moliyaviy xulq-atvor, tizimli tahlil.

Abstract. This article provides a systematic and critical analysis of the scientific approaches of Uzbek scholars in studying financial literacy and banking services. Based on the IMRaT methodology, the interpretation of the concept of "financial literacy" in local academic literature, the culture of using bank plastic cards, and issues related to cybersecurity are examined. The results indicate that although local studies are rich in theoretical and methodological aspects, the application of empirical quantitative assessment methods remains insufficiently developed. The article proposes theoretical and practical directions for future research in the field of financial literacy and banking services.

Key words: financial literacy, banking services, plastic card, cybersecurity, CERT-CBU, Uzbekistan, financial behavior, systematic analysis.

Аннотация. В данной статье проводится системный и критический анализ научных подходов узбекских ученых к изучению финансовой грамотности и банковских услуг. На основе методологии IMRaT рассматриваются интерпретации понятия «финансовая грамотность» в отечественной научной литературе, культура использования банковских пластиковых карт, а также вопросы, связанные с кибербезопасностью. Результаты показывают, что, несмотря на богатую теоретико-методологическую базу, применение эмпирических количественных методов оценки остается недостаточно развитым. В статье предлагаются теоретико-практические направления для дальнейших исследований в области финансовой грамотности и банковских услуг.

Ключевые слова: финансовая грамотность, банковские услуги, пластиковая карта, кибербезопасность, CERT-CBU, Узбекистан, финансовое поведение, системный анализ.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotning murakkablashib borishi sharoitida aholining moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyati iqtisodiy barqarorlik va insoniy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylandi. Lusardi va Mitchell (2014) ta'kidlaganidek, moliyaviy savodxonlikning pastligi nafaqat shaxsiy farovonlik darajasini pasaytiradi, balki makroiqtisodiy barqarorlikka ham to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatadi [1]. Shu sababli, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida moliyaviy savodxonlikni oshirish masalasi ilmiy tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlamoqda.

O'zbekistonda bank sektori islohotlari va raqamli to'lov infratuzilmasining jadal rivojlanishi (jumladan, Payme, Click kabi mobil to'lov platformalari keng joriy etilishi) aholining bank xizmatlari bilan o'zaro munosabati sifatini tubdan o'zgartirib yubordi. Biroq texnologik imkoniyatlarning kengayishi bir vaqtning o'zida yangi tahdidlarni ham keltirib chiqardi: bank plastik kartalaridan noqonuniy foydalanish, fishing hujumlari va ijtimoiy muhandislik usullari orqali moliyaviy firibgarlik holatlari ko'paydi (CERT-CBU, 2024) [2]. Bu holat moliyaviy savodxonlikning kiberxavfsizlik madaniyatiga singib ketganini ko'rsatadi va ikki soha o'rtasidagi ilmiy chegara tobora noaniq bo'lib bormoqda.

Mahalliy ilmiy muomalada moliyaviy savodxonlik masalasi nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, uning sistematik o'rganilishi asosan 2010-yillardan boshlanadi. Vaxabov, Toshmatov va Xaydarov (2013) «Moliyaviy savodxonlik asoslari» o'quv qo'llanmasi bilan amaliy bazani yaratgan bo'lsa [3], keyinroq Vaxabov va Dusmuhamedov (2022) tushunchaning nazariy asoslarini yanada chuqurlashtirdi [4]. Tuychieva va Soriyev (2022) esa moliyaviy savodxonlikni hududiy iqtisodiy rivojlanish kontekstida ko'rib chiqqan [5]. Biroq ushbu tadqiqotlar bank xizmatlari va plastik kartalardan foydalanish bilan moliyaviy savodxonlik o'rtasidagi bog'liqlikni qanchalik o'rganganini tanqidiy baholash zarurati saqlanib qolmoqda.

Xalqaro adabiyotda Basnayake va boshq. (2024) raqamli moliyaviy inkluziya ko'rsatkichlarini an'anaviy ko'rsatkichlar bilan solishtirib, Osiyoning 30 davlatida tahlil o'tkazgan [6]. Gandelman va boshq. (2025) esa bank hisobi egalligi, to'lov vositalari tanlovi va jamg'arish xulq-atvori o'rtasidagi aloqalarni empirik tarzda o'rganib, moliyaviy inkluziya dasturlarining ta'siri cheklangan bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan [7]. Broekhoff va boshq. (2024) raqamlashish sharoitida zaif aholiga nisbatan bank tizimiga ishonch masalasini tahlil qilgan [8]. Ushbu xalqaro tadqiqotlar bilan mahalliy ilmiy ishlar o'rtasidagi metodologik farqlarni aniqlash ushbu maqolaning asosiy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi: mahalliy olimlarning ilmiy ishlari asosida moliyaviy savodxonlik va bank xizmatlaridan foydalanish bo'yicha shakllangan ilmiy qarashlarni tizimli, qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish.

Tadqiqot gipotezalari:

G1: Mahalliy olimlar moliyaviy savodxonlikni kontekstual kategoriya sifatida talqin qilib, milliy iqtisodiy sharoitni hisobga olgan holda ta'riflaydi.

G2: Bank plastik kartalaridan foydalanish madaniyatini oshirish moliyaviy savodxonlikni takomillashtirish bilan uzviy bog'liq.

G3: Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda miqdoriy baholash usullari yetarli darajada qo'llanilmagan, nazariy tahlil ustunlik qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida moliyaviy savodxonlik va bank xizmatlari masalalari so'nggi yillarda tobora kengroq qamrovda o'rganilib, ushbu yo'nalishda nazariy yondashuvlar, institutsional mexanizmlar hamda amaliy muammolar kompleks tarzda tahlil qilinmoqda. Ushbu ilmiy izlanishlar, asosan, aholining moliyaviy bilim darajasini oshirish, bank xizmatlaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish bilan bog'liq masalalarga qaratilgan.

Mahalliy ilmiy maktabda moliyaviy savodxonlik tushunchasining nazariy asoslarini shakllantirishda Vaxabov A. V., Toshmatov Sh. A. va Xaydarov N. X. tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma muhim o'rin tutadi. Mualliflar moliyaviy savodxonlikni shaxsning moliyaviy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va xulq-atvori integratsiyasi sifatida talqin etib, uning tarkibiy elementlarini tizimli ravishda yoritadi. Ushbu yondashuv keyinchalik Vaxabov A. V. va Dusmuhamedov O. S. tomonidan rivojlantirilib, moliyaviy savodxonlikning nazariy modeli takomillashtiriladi hamda uni zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish zarurligi asoslab beriladi. Xususan, mualliflar moliyaviy savodxonlikni uch qatlamli tizim — bilim, ko'nikma va xulq-atvor orqali izohlab, uning iqtisodiy qarorlar sifatiga bevosita ta'sirini ta'kidlaydi.

Mahalliy tadqiqotlarda moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik masalasi ham alohida e'tibor markazida turadi. Tuychieva N. va Soriyev S. Sh. tadqiqotlarida moliyaviy savodxonlik darajasi hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi asoslab berilib, aholining bank xizmatlaridan foydalanish faolligi oshishi investitsion muhit va tadbirkorlik faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. Bu

yondashuv moliyaviy savodxonlikni nafaqat individual, balki hududiy iqtisodiy o'sish omili sifatida ham ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Bank xizmatlari va moliyaviy savodxonlikning o'zaro bog'liqligi masalasi, ayniqsa, zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bobojanov M. tomonidan olib borilgan tadqiqotda bank va to'lov tizimlarida firibgarlikning oldini olish mexanizmlari tahlil qilinib, aholining moliyaviy savodxonligi darajasi kiberxavfsizlik bilan bevosita bog'liqligi asoslab beriladi. Muallifga ko'ra, foydalanuvchilarning moliyaviy bilimlari past bo'lgan sharoitda raqamli bank xizmatlaridan foydalanish xavflari ortadi, bu esa tizimli xavfsizlik choralarini kuchaytirish bilan birga moliyaviy ta'limni rivojlantirish zarurligini yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotlar xalqaro ilmiy yondashuvlar bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanmoqda. Lusardi A. va Mitchell O. S. tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qarashlar moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi hal qiluvchi rolini asoslab bergan bo'lib, bu yondashuv mahalliy tadqiqotlarda ham metodologik asos sifatida qo'llanilmoqda. OECD/INFE tomonidan o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlar esa moliyaviy savodxonlikni baholashning standart indikatorlarini taklif etib, mahalliy ilmiy izlanishlar uchun muhim empirik asos vazifasini bajaradi.

So'nggi yillarda xorijiy tadqiqotlarda moliyaviy inklyuziya va raqamli bank xizmatlarining kengayishi bilan bog'liq masalalar chuqur o'rganilmoqda. Basnayake D. va hammualliflar raqamli va an'anaviy moliyaviy inklyuziya shakllarini solishtirib, raqamli xizmatlarning kengayishi moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi. Gandelman N. va hammualliflar esa moliyaviy inklyuziyaning to'lovlar, jamg'armalar va kreditlash jarayonlariga ijobiy ta'sirini empirik jihatdan asoslab beradi. Broekhoff M.-C. va hammualliflar tadqiqotida esa ishonch omili va raqamli to'lov tizimlari o'rtasidagi bog'liqlik ochib berilib, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini belgilovchi muhim omil sifatida ko'rsatiladi.

Raqamli moliyaviy savodxonlik masalasi ham zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda alohida o'rin egallaydi. Basar D. va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotda FinTech texnologiyalaridan foydalanish darajasi va jamg'arma xulq-atvori o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Ushbu natijalar moliyaviy savodxonlikni oshirishda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mahalliy olimlar tadqiqotlarida moliyaviy savodxonlik va bank xizmatlari masalalari asosan nazariy asoslarni shakllantirish va ularni milliy sharoitga moslashtirishga qaratilgan bo'lsa, xorijiy tadqiqotlar ushbu sohani empirik va raqamli yondashuvlar asosida chuqurroq tahlil qiladi. Bu esa kelgusida mahalliy ilmiy izlanishlarda empirik metodlardan kengroq foydalanish, raqamli moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish hamda bank xizmatlari bilan bog'liq xulq-atvorni kompleks o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi uch asosiy usulga tayanadi: (1) tizimli adabiyot tahlili, (2) qiyosiy tahlil va (3) kontent tahlili. Tizimli adabiyot tahlilida mahalliy ilmiy nashrlar, o'quv qo'llanmalar va rasmiy hujjatlar ko'rib chiqildi; xalqaro ma'lumotlar bazalari (Scopus, Web of Science) bilan birga O'zbekiston Milliy universiteti va STARS International University nashriyot fondlari ham qamrab olindi. Tanlov mezoni sifatida: (a) 2013–2024 yillar oralig'idagi nashrlar, (b) to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy savodxonlik yoki bank xizmatlari mavzusiga bag'ishlanganligi, (c) o'zbek yoki rus tilida chop etilganligi belgilandi.

Kontent tahlili usuli orqali mahalliy mualliflarning «moliyaviy savodxonlik» kategoriyasiga bergan ta'riflarini o'rganish uchun ularning qaysi komponentlarni alohida ajratganligi va qaysi xalqaro ta'riflarga yaqin turishi aniqlandi. Vaxabov va Dusmuhamedov (2022) maqolasidagi muallif ta'rifi maxsus tahlil qilindi [4], chunki ushbu ish mahalliy ilmiy adabiyotda tushunchani qayta kontseptualizatsiya qilgan birinchi asarlardan biri hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotlarda bank plastik kartalaridan foydalanish, shaxsiy hisob raqamlarini boshqarish va elektron to'lov vositalari bilan bog'liq ilmiy yondashuvlar Bobojanov (2024) CERT-CBU hisobotlari asosida tahlil qilindi [2]. Shuningdek, O'zbekiston Markaziy bankining 2021–2024 yillardagi firibgarlikka qarshi regulyatorlik talablari tizimlashtirilib, ular xalqaro PCI DSS v4.0 va NIST CSF v2.0 standartlari bilan taqqoslandi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali mahalliy tadqiqotlarda qo'llanilgan uslubiy yondashuvlar OECD/INFE (2020) metodologiyasi bilan solishtirild [9]. Basar va boshq. (2025) tomonidan 12 mamlakatda o'tkazilgan so'rovnoma asosidagi tadqiqot metodologiyasi ham taqqoslash uchun asos bo'lib xizmat qildi [10]. Ushbu qiyos mahalliy tadqiqotlardagi metodologik bo'shliqlarni aniqlashga yordam berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'rib chiqilgan mahalliy ishlar ichida eng yuqori nazariy puxtalikni Vaxabov va Dusmuhamedov (2022) namoyish etadi [4]. Mualliflar xalqaro adabiyotdagi yetakchi ta'riflarni (Weber, Drucker, Kiyosaki, Lee, Staxovich kabilarning yondashuvlarini) tahlil qilib, ularning cheklovlarini ko'rsatgan va milliy sharoitga moslashtirilgan

muallif ta'rifini ishlab chiqqan. Ular taklif etgan ta'rifda «moliyaviy resurslarni qisqa va uzoq muddatli rejalashtirish tajribasi» alohida komponent sifatida ajratilgani e'tiborli: bu Lusardi va Mitchell (2014) ta'rifida mavjud emas [1]. Shu jihat mahalliy tadqiqotning kontekstual ahamiyatini oshiradi.

Vaxabov, Toshmatov va Xaydarov (2013) qo'llanmasi [3] tushunchaning amaliy-ta'limiy talqinini bergan: moliyaviy bilim (depozit, kredit, sug'urta, inflyatsiya bo'yicha ma'lumotlar), moliyaviy ko'nikma (byudjetlashtirish, shartnomachilik, mahsulotlardan foydalanish) va moliyaviy kompetentlik (kundalik qarorlar) uch qatlam sifatida tizimlashtirilib, o'quv jarayoniga moslashtirilib taqdim etilgan. Bu Basar va boshq. (2025) ta'kidlaganidek [10], moliyaviy savodxonlikning FinTech bilan o'zaro ta'siri masalasini qamrab olmaydi — bu esa 2013-yildagi ishning tarixiy cheklovi sifatida hisoblanadi.

Tuychieva va Soriyev (2022) [5] moliyaviy savodxonlikni hududiy iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liqlikda ko'rib chiqib, aholi iste'mol madaniyatidagi an'anaviy xulq-atvor naqshlarining moliyaviy qarorlar qabul qilishga salbiy ta'sirini ko'rsatgan. «Ahmadboy» moliyaviy firibgarligi hodisasini misol sifatida tahlil qilishlari mahalliy sharoitga oid o'tkir tanqidiy kuzatish bo'lib, bu holat Broekhoff va boshq. (2024) [8] ta'kidlagan «raqamli to'siqlar» (digital divide) muammosining mahalliy ko'rinishidir.

Bobojanov (CERT-CBU, 2024) taqdimoti [2] bank va to'lov tizimlari kontekstida moliyaviy savodxonlikning operatsion jihatlarini ochib berishi bilan boshqa mahalliy ishlardan farq qiladi. Ushbu hujjatda Markaziy bank tijorat banklari va to'lov muassasalaridan quyidagilarni ta'minlashni talab qilishi belgilangan: bank kartalar, hisoblar, mobil ilovalar va e-hamyonlar bo'yicha shubhali operatsiyalar reyestrini yuritish; firibgarlikka qarshi avtomatlashtirilgan tizimlarning majburiy tatbiqi; 24/7 rejimidagi monitoring. Bu talablar aholining moliyaviy savodxonligi va raqamli ehtiyotkorlik madaniyatini oshirmasdan bajarib bo'lmaydi (1-jadval).

1- jadval. Mahalliy mualliflar tadqiqotlarining qiyosiy tahlili[1]

| Muallif (yil) | Asosiy yo'nalish | Moliyaviy savodxonlik ta'rifi / konsepsiyasi | Bank xizmatlari bilan bog'liqligi |
|---|---|---|---|
| Vaxabov A.V., Dusmuhamedov O.S. (2022) | Tushunchaning nazariy asoslarini takomillashtirish | Moliyaviy savodxonlik — ijobiy moliyaviy xulq-atvorga, bazaviy bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish hamda moliyaviy resurslarni samarali boshqarish tajribasi | Tijorat banklari moliyaviy savodxonlik markazlari tashkil etishi tavsiya etilgan |
| Tuychieva N., Soriyev S. (2022) | Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish va hududlarni rivojlantirish | Shaxsiy moliyaviy boshqaruv, budjetlashtirish va investitsiyalarni o'z ichiga olgan ko'nikmalarni tushunish va samarali ishlatish qobiliyati | Moliyaviy institutlarga ishonch va bank mahsulotlaridan samarali foydalanish muhimligi ta'kidlangan |
| Vaxabov A.V., Toshmatov Sh.A., Xaydarov N.X. (2013) | Moliyaviy savodxonlik asoslari (o'quv qo'llanma) | Moliyaviy bilim, ko'nikma va malakaning bir-biri bilan chambarchas bog'liq uch qatlami sifatida taqdim etilgan | Bank kredit, depozit va to'lov xizmatlari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish asosiy o'rin egallagan |
| Bobojanov M. (CERT-CBU, 2024) | Bank va to'lov tizimlarida firibgarlikka qarshi kurash tartibga solish | Aholi moliyaviy xulq-atvori kiberxavfsizlik madaniyatiga bevosita bog'liq ekanligi ko'rsatilgan | Markaziy bank bank kartalar, mobil ilovalar va hisoblar bo'yicha shubhali operatsiyalarni kuzatish talablarini belgilagan |

CERT-CBU tahlillariga ko'ra, firibgarlik hodisalari eng ko'p sodir bo'ladigan kanallar quyidagicha taqsimlangan: onlayn banking (59%), mobil banking (56%), bankomat (19%), aloqa markazi (12%), filial (11%) — Deloitte (2025) global ma'lumotlariga mos tarzda. Ushbu ko'rsatkichlar mahalliy sharoitda ham onlayn va mobil kanallar asosiy xavf manbai ekanini tasdiqlaydi [2]. Aholining ushbu kanallardan xavfsiz foydalanishni bilmasligi bevosita moliyaviy savodxonlik darajasining pastigini ko'rsatadi.

OIC-CERT va APWG tashkilotlariga 2024-yil oktabrda a'zo bo'lish Markaziy bankning kiberxavfsizlik choralarini xalqaro standartlarga moslashtirishga intilishini ko'rsatadi [2]. Biroq bu regulyatorlik chora-tadbirlari bilan birga aholi ommaviy moliyaviy ta'limi ham parallel ravishda kengaytirilishi zarurligini Vaxabov va Dusmuhamedov (2022) alohida ta'kidlagan edi (2-jadval) [4].

1 Muallif tomonidan ko'rib chiqilgan asarlar asosida tuzilgan.

2- jadval. Tadqiqot yo'nalishlarining tizimlashtirilishi: mahalliy va xalqaro qiyos[2]

| Yo'nalish | Mahalliy tadqiqotlarda aks etishi | Xalqaro adabiyot bilan qiyosi |
|---|---|---|
| **Tushunchaviy-nazariy** | Vaxabov va Dusmuhamedov (2022) «moliyaviy bilim – ko'nikma – kompetentlik» uch qatlami modelini taklif etgan; Vaxabov va boshq. (2013) amaliy o'quv bazasini yaratgan | Lusardi & Mitchell (2014) bilim, munosabat va xulq-atvor triada modeliga mos; biroq mahalliy mualliflar kontekstual moslashuvga ko'proq urg'u bergan |
| **Amaliy-uslubiy** | Tuychieva va Soriyev (2022) mahalla va ish joylari asosidagi treninglarni tavsiya etgan; davlat dasturlari va milliy strategiyalarning ustuvor yo'nalishlari tizimlashtirilgan | OECD/INFE (2020) yondashuviga mos, ammo mahalliy tadqiqotlarda miqdoriy baholash usullari cheklangan |
| **Kiberxavfsizlik va bank xizmatlari** | CERT-CBU (Bobojanov, 2024) firibgarlikka qarshi avtomatlashtirilgan tizimlar va 24/7 monitoring talablarini belgilagan; bank kartalar va mobil ilovalar bo'yicha aniq tartibga solish mexanizmlari joriy etilgan | Fetaji va boshq. (FRAUD-X tizimi) bilan qisman mos; ammo mahalliy mualliflar texnik yondashuvdan ko'ra regulyatorlik yondashuvni ustun ko'rgan |

Mahalliy mualliflar taklif etgan uslubiy yondashuvlarni umumlashtirganda uchta asosiy yo'nalish ajralib chiqadi: (1) ta'lim tizimiga integratsiya (yoshlarning moliyaviy savodxonligini bosqichma-bosqich oshirish); (2) noformal ta'lim va amaliy trening (ish joylarida, mahallalarda mutaxassislar bilan trening o'tkazish); (3) ommaviy axborot vositalari orqali kommunikatsiya (telesho'u, viktorina, radio dasturlari). Ushbu tavsiyalar Lusardi va Mitchell (2014) [1] va OECD/INFE (2020) [9] ko'p kanalli yondashuviga mos keladi, biroq mahalliy mualliflar raqamli kanallar orqali moliyaviy ta'limni yetkazib berishni yetarlicha ishlab chiqmagan.

Vaxabov va Dusmuhamedov (2022) tijorat banklari huzurida «mijozlarning moliyaviy savodxonligini oshirish markazlari» tashkil etishni tavsiya etgan [4] — bu taklif metodologik jihatdan ahamiyatli bo'lsa-da, ushbu markazlarning samaradorligini baholash mexanizmi taklif etilmagan. Basnayake va boshq. (2024) [6] ta'kidlaganidek, raqamli moliyaviy inkluziya va moliyaviy savodxonlikning o'zaro ta'siri empirik jihatdan ham o'rganilishi zarur (3-jadval).

3- jadval. Tadqiqot gipotezalarining tasdiqlanish holati[3]

| № | Gipoteza | Tasdiqlash holati | Asosiy dalil |
|---|---|---|---|
ORCID: 0000-0002-0779-2632

**Mashrapova Sabina Turobjonovna**
Mustaqil tadqiqotchi
Email: sabina.turobjonovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ilg'or xorijiy fintech platformalari — Aura, myFICO, Credit Karma, CreditWise, IDShield, Credit Sesame, Zogo, Ficy va Your Juno — tomonidan qo'llanilayotgan plastik kartalar kiberxavfsizlik mexanizmlarini IMRaT strukturasi asosida qiyosiy tahlil qiladi va ularni O'zbekistondagi MyCard mobil ilovasi imkoniyatlari bilan solishtiradi. Tadqiqot kontent tahlili, funksional klassifikatsiya va qiyosiy tahlil metodlari asosida amalga oshiriladi. Natijalar ko'rsatishicha, xorijiy platformalar to'rt asosiy yo'nalishda — sun'iy intellekt asosidagi anomaliya aniqlash, dark web monitoring, identifikatsiya himoyasi va gamifikatsiyali moliyaviy savodxonlik — MyCarddan sezilarli darajada oldinda. Muhokama qismida tadqiqot gipotezalari empirik adabiyotlar bilan taqqoslanib, MyCard uchun olti qatlamli integratsiyalashgan xavfsizlik modeli — MyCard-SafeLayer konseptual modeli — taklif etiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston tijorat banklari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: plastik karta xavfsizligi, kiberxavfsizlik, fintech ilovalar, fraud detection, sun'iy intellekt, dark web monitoring, gamifikatsiya, MyCard, O'zbekiston.

Abstract. This study provides a comparative analysis of cybersecurity mechanisms used in plastic card protection by advanced foreign fintech platforms — Aura, myFICO, Credit Karma, CreditWise, IDShield, Credit Sesame, Zogo, Ficy, and Your Juno — based on the IMRaT structure, and compares them with the capabilities of the MyCard mobile application in Uzbekistan. The research is conducted using content analysis, functional classification, and comparative analysis methods. The findings reveal that foreign platforms significantly outperform MyCard in four key areas: AI-based anomaly detection, dark web monitoring, identity protection, and gamified financial literacy. In the discussion section, the research hypotheses are compared with empirical literature, and a six-layer integrated security model for MyCard — the MyCard-SafeLayer conceptual model — is proposed. The results of the study have practical significance for commercial banks in Uzbekistan.

Key words: plastic card security, cybersecurity, fintech applications, fraud detection, artificial intelligence, dark web monitoring, gamification, MyCard, Uzbekistan.

Аннотация. Данное исследование проводит сравнительный анализ механизмов кибербезопасности пластиковых карт, применяемых ведущими зарубежными финтех-платформами — Aura, myFICO, Credit Karma, CreditWise, IDShield, Credit Sesame, Zogo, Ficy и Your Juno — на основе структуры IMRaT, а также сопоставляет их с возможностями мобильного приложения MyCard в Узбекистане. Исследование выполнено с использованием методов контент-анализа, функциональной классификации и сравнительного анализа. Результаты показывают,

что зарубежные платформы значительно превосходят MyCard по четырём ключевым направлениям: выявление аномалий на основе искусственного интеллекта, мониторинг dark web, защита идентификации и геймифицированная финансовая грамотность. В разделе обсуждения исследовательские гипотезы сопоставляются с эмпирической литературой, а также предлагается шестислойная интегрированная модель безопасности для MyCard — концептуальная модель MyCard-SafeLayer. Результаты исследования имеют практическое значение для коммерческих банков Узбекистана.

Ключевые слова: безопасность пластиковых карт, кибербезопасность, финтех-приложения, выявление мошенничества, искусственный интеллект, мониторинг dark web, геймификация, MyCard, Узбекистан.

## KIRISH

Raqamli moliya tizimlarining jadal rivojlanishi bir tomondan moliyaviy inklyuziyani kuchaytirsa, boshqa tomondan yangi va murakkab kiberxavflarni vujudga keltirmoqda. Ma'lumot olish qiyinligidan qat'i nazar, karta savdosi fraud yo'qotishlari global miqyosda 2024-yilgi ma'lumotlarga ko'ra 4,3 milliard yevroga (EU doirasida) yetdi, bunda kartali tranzaksiyalar ulushi eng katta qismni tashkil etdi (European Central Bank & European Banking Authority, 2024). Jumladan, kartali fraud holatlarining 71 foizi chegaralararo tranzaksiyalarda qayd etilgan, bu esa muammoning xalqaro o'lchamini ko'rsatadi. Ushbu raqam konventsional himoya tizimlari yetarli emasligini va yangi texnologik yechimlar zarurligini ochiq namoyon etadi.

O'zbekistonda raqamli to'lovlar bozori keskin o'sish ko'rsatib, Fintech mobil ilovalar millionlab foydalanuvchilarni xizmat qamroviga olgan. Biroq, CERT-CBU hisobotlari asosida baholash natijalarida mahalliy tijorat banklarida kiberxavfsizlik monitoringi hali ham asosan reaktiv yondashuvga — ya'ni fraud sodir bo'lganidan keyin choralar ko'rishga — suyanishi aniqlanmoqda. Bu tendentsiya proaktiv himoya arxitekturasiga o'tish zarurligini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda faqat texnik vositalar yetarli emasligini zamonaviy adabiyotlar ham tasdiqlamoqda. Ruiz (2026) tomonidan OECD/INFE 2023 ma'lumotlari asosida 10 ta Yevropa mamlakatida o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli moliyaviy xavfsizlik (DFS) ko'nikmalari an'anaviy moliyaviy savodxonlikka nisbatan har bir standart og'ish uchun phishing qurboni bo'lish ehtimolini 25 foizga kamaytiradi. Bu topilma foydalanuvchi kompetensiyasini rivojlantirish yo'nalishini texnik himoya bilan parallel ravishda olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Kaspersky (2025) ma'lumotlari bo'yicha, 2024-yilning o'zida stealer zararli dasturlari orqali 2,3 milliondan ortiq bank kartasi ma'lumotlari dark webga sizib chiqqan, dunyo bo'ylab esa 893 million phishing urinishi bloklangan. Bunday tahdidlar fonida fintech ilovalarining kredit monitoringi, dark web kuzatuv va moliyaviy ta'lim kabi funksiyalari strategik zaruratga aylanmoqda.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — ilg'or xorijiy fintech platformalari qo'llayotgan plastik kartalar xavfsizlik mexanizmlarini funksional jihatdan tizimlash va O'zbekiston tijorat banklariga amaliy ahamiyatga ega bo'lgan yechimlarni asoslab berish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kredit kartalar fraudini aniqlash bo'yicha adabiyotlar uch avlod yondashuvini o'z ichiga oladi. Birinchi avlod – qoida-asosli tizimlar – statik belgilar to'plami yordamida anomaliyalarni aniqlagan, lekin yangi fraud sxemalariga moslasha olmagan (Marazqah Btoush et al., 2023). Ikkinchi avlod – klassik mashina ta'limi – qaror daraxti, tasodifiy o'rmon, SVM kabi modellarni qo'llagan. Dastidar et al. (2024) tomonidan tahlil qilingan IEEE Access maqolasi shuni ko'rsatdiki, ensemble modellar kredit karta axborot tizimlarida 99,1 foizgacha aniqlik ko'rsatkichiga erishgan, ammo kontseptual siljish muammosi yechilmagan holda qolmoqda.

Uchinchi avlod yondashuv – chuqur o'rganish va gibrid arxitekturalar – hozirgi kunda eng ilg'or natijalar bermoqda. Fetaji et al. (2025) tomonidan taqdim etilgan FRAUD-X tizimi AI anomaliya aniqlash, blockchain daftar va kiberxavfsizlik jurnallarini bitta sinergiya konveyeriga birlashtirgan: tizim kredit karta axborot tizimida F1=85,9 foiz va nol-kun tahdidlariga nisbatan 90 foizlik samaradorlik ko'rsatkichiga ega, tranzaksiya boshiga o'rtacha kechikish esa 15,6 ms ni tashkil etgan. Bundan farqli o'laroq, Karnavou et al. (2025) Gretsiya bankining 6,9 million tranzaksiyasi bo'yicha o'tkazgan tadqiqot autoencoder modelining individual kartochilik xulq-atvoriga asoslangan tranzaksiya anomaliyalarini Isolation Forest va One-class SVM ga nisbatan aniqroq aniqlashini isbotladi. Alshameri va Xia (2024) esa Variatsion Avtoenkoder (VAE) ning anomal ma'lumotlar kam bo'lgan muvozanatsiz axborot tizimlarda yaxshi natijalarga erishishi mumkinligini ko'rsatdi.

Moliyaviy savodxonlik va fraud himoyasi o'rtasidagi munosabat ham so'nggi tadqiqotlarda yanada chuqurlashtirildi. Ruiz (2026, International Review of Economics and Finance) ishida an'anaviy moliyaviy savodxonlik kredit karta fraudiga nisbatan himoya omili sifatida statistik ahamiyatga ega emasligini, aksincha

raqamli moliyaviy xavfsizlik ko'nikmalari Ponzi (17% past ehtimol), phishing (25% past ehtimol) uchun kuchli himoya ta'minlashi empirik jihatdan isbotlandi. Chowdhury et al. (2025) Hindistondagi 499 ta respondent o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotda raqamli moliyaviy savodxonlik moliyaviy xulq-atvor va moliyaviy barqarorlikni 50,9 foiz darajasida tushuntirganini aniqladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uch bosqichli metodologik sxema asosida amalga oshirildi: (1) kontent tahlili, (2) funksional klassifikatsiya va (3) qiyosiy tahlil. Tahlil birliklari sifatida 9 ta xorijiy fintech ilova — Aura, myFICO, Credit Karma, CreditWise (Capital One), IDShield, Credit Sesame, Zogo, Ficy, Your Juno — va MyCard mobil ilovasining rasmiy saytlarida e'lon qilingan funksional imkoniyatlar olingan. Har bir ilova funksiyalari beshta kategoriyaga tasniflangan: (a) fraud detection texnologiyalari, (b) tranzaksiya monitoring tizimlari, (c) identifikatsiya va ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlari, (d) kredit monitoringi xizmatlari va (e) moliyaviy savodxonlik platformalari.

1- jadval. Xorijiy fintech ilovalarining plastik karta xavfsizligi funksiyalari bo'yicha qiyosiy tasnifi[1]

| Ilova | Asosiy funksiya | Xavfsizlik kategoriyasi | Texnologik mexanizm | MyCard uchun moslik |
|---|---|---|---|---|
| **Aura** | Moliyaviy fraud himoya | Fraud detection, identifikatsiya himoyasi, VPN | AI asosidagi tranzaksiya monitoringi, real-vaqt ogohlantirishlari | Yuqori (5 ta funksiya) |
| **myFICO** | Kredit monitoring | 3-byuro kredit monitoring, skor simulyatsiyasi | FICO® skoring algoritmlari, prognozlash modellari | O'rta (kredit tahlili) |
| **Credit Karma** | Bepul kredit monitoring + firibgarlik ogohlantirishlari | Fraud ogohlantirish, moliyaviy savodxonlik | ML asosidagi anomaliya aniqlash, kontent tavsiyalar | Yuqori (4 ta funksiya) |
| **CreditWise (Capital One)** | Dark web monitoring + kredit kuzatish | Dark web monitoring, ma'lumotlar sizib chiqishi | Dark web scanning texnologiyasi, real-vaqt alert | Yuqori (dark web) |
| **IDShield** | Identifikatsiya o'g'irlanishidan himoya | ID himoyasi, firibgarlikni tiklash, sug'urta | Multi-byuro monitoring, Identity Restoration Protocol | O'rta (ID sug'urta) |
| **Credit Sesame** | Kredit sog'lom holat bahosi | Kredit monitoring, moliyaviy savodxonlik | AI kredit skor tahlili, darajali baholash tizimi | O'rta (moliyaviy savodxonlik) |
| **Zogo / Your Juno / Ficy** | Gamifikatsiya asosidagi moliyaviy ta'lim | Moliyaviy savodxonlik, xavfsizlik ko'nikmasi | Gamifikatsiya, coin tizimi, interaktiv kontent, community | Yuqori (ta'lim + gamifikatsiya) |

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalariga ko'ra, barcha tekshirilgan xorijiy ilovalar ichida Aura va Credit Karma eng ko'p qirrali fraud aniqlash yechimlarini taklif etgan. Aura foydalanuvchilarning barcha kartalarini yagona hisobga ulash, belgilangan summadan oshgan har bir tranzaksiya haqida bildirishnoma va shubhali tranzaksiyalar uchun fraud-aniqlash xabarlari kabi funksiyalarni birlashtiradi. Shu bilan birga, ilova har bir tranzaksiya uchun individual limit o'rnatish imkonini beradi — bu foydalanuvchi tomonidan boshqariladigan proaktiv himoya shakli sifatida baholanadi.

Ilmiy adabiyotlar bilan qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ushbu funksiyalarning texnologik negizini AI asosidagi tranzaksiya monitoring tizimlari tashkil etadi. Dastidar et al. (2024) tomonidan 284,807 ta tranzaksiya bo'yicha tahlil qilingan IEEE Access tadqiqoti DNN asosidagi modellar qoida-asosli tizimlardan F1 ko'rsatkichi bo'yicha o'rtacha 15-20 foizga ustun ekanini isbotladi. Marazqah Btoush et al. (2023) sistematik adabiyot sharhi 2019-2021-yillar orasida nashr etilgan 181 ta maqola asosida chuqur o'rganish usullarining — xususan, LSTM va autoencoder — kredit karta fraud aniqlashda yuqori samaradorligini ko'rsatdi.

Eng muhim empirik natija FRAUD-X tizimidan olingan: Fetaji et al. (2025) ablatsion tajribalar orqali faqat AI qatlami mavjud bo'lganida F1 taxminan 2 foizga tushishini, kiberxavfsizlik jurnaligini olib tashlasa esa nol-kun

1 Jadval tahlil uchun foydalanilgan rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (2025).

tahdidlari bo'yicha recall 4-5 foizga kamayishini aniqladi. Bu topilma ko'p qatlamli sinergiyaning har bir alohida komponentdan ustunligini eksperimental tarzda isbotlaydi.

CreditWise (Capital One) ilovasining dark web tekshiruvi funksiyasi xorijiy ilovalar ichida eng noyob xavfsizlik vositasi sifatida ajralib turadi: foydalanuvchi karta ma'lumotlari va shaxsiy identifikatsiyaga oid axborot (SSN, email, telefon) dark webda paydo bo'lsa, ilova darhol ogohlantirish yuboradi. IDShield ilovasi esa bu imkoniyatni yanada kengaytirib, shaxsiy ma'lumotlar ulangan barcha manbalarni ko'rsatish, firibgarlikdan zarar ko'rilgan taqdirda mutaxassislar yordami va moliyaviy sug'urta kabi qatlamlarni qo'shgan.

Kaspersky (2025) hisoboti bu funksiyalarning dolzarbligini son jihatdan tasdiqlaydi: 2024-yil davomida 2,3 milliondan ortiq bank kartasi ma'lumotlari stealer dasturlari yordamida dark webga sizib chiqqan. ECB/EBA (2024) hisobotida esa kartali fraudning katta qismi merchant platformalarida yuzaga kelgan ma'lumotlar sizib chiqishi orqali amalga oshirilgani ta'kidlangan. Demak, dark web monitoring foydalanuvchiga o'z ma'lumotlari buzilganligini karta bloklash zarur bo'lguncha aniq bir necha soat oldin bilish imkonini beradi.

Aura ilovasi bir qadam oldinga borib, shaxsiy hujjatlar, mol-mulk va parollar boshqaruvini ham qo'shgan. Bu yondashuv Ruiz (2026) tadqiqotidagi DFS ko'nikmalari — jumladan, shaxsiy ma'lumotlarni onlayn bo'shliqda oshkor etmaslik, parollarni muntazam yangilash, sayt xavfsizligiga e'tibor berish — bilan to'liq mos keladi. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, DFS indeksidagi bir standart og'ish phishing qurboni bo'lish ehtimolini 25 foizga kamaytirgan.

myFICO, Credit Karma va Credit Sesame ilovalari kredit monitoringining uchta muqobil modelini taqdim etadi. myFICO eng keng qamrovli yondashuv bo'lib, foydalanuvchilarga uchta asosiy byuro — Equifax, Experian, TransUnion — ma'lumotlari asosida FICO® ballarning real ko'rinishini beradi. Kredit ball simulyatori foydalanuvchiga turli moliyaviy qarorlarning — yangi karta ochish, qarz to'lash — kelajakdagi skor ko'rsatkichlariga ta'sirini oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Bu funksiya xavf baholashning noyob vositasi sifatida CreditWise bilan birga eng ko'p baho ko'rsatgan.

Kredit skor monitoringi kiberxavfsizlik bilan bevosita bog'liq: agar kimdir foydalanuvchi nomida kredit ochsa yoki karta chiqarsa, bu o'zgarish kredit hisobotida darhol aks etadi va monitoring ogohlantirish yuboradi. Bu mexanizm identifikatsiya o'g'irligi holatlarini erta aniqlashning eng ishonchli usullaridan biri sifatida ilmiy adabiyotlarda ham tan olingan (Ruiz, 2026; ECB/EBA, 2024).

Zogo, Ficy va Your Juno ilovolari moliyaviy savodxonlikka bag'ishlangan maxsus platformalar bo'lib, xavfsizlik mavzulari ularda to'liq qamrab olingan. Ushbu ilovalar o'xshash tarkibiy model — axborot berish, interaktiv testlar, rag'batlantirish tizimi va hamjamiyat — asosida ishlaydi. Zogo va Your Juno da foydalanuvchilar testlarni muvaffaqiyatli yechganlarida coinlar to'playdi va ularni sovg'alarga almashtirish imkoni bor. Ficy esa individual xato tahlili asosida har bir foydalanuvchiga moslashtirilgan maslahat beradi.

Ruiz (2026) tadqiqotida DFS indeksi o'lchovlari ichida ayniqsa plastik karta xavfsizligiga bevosita tegishli uchta ko'rsatkich – onlayn moliyaviy ma'lumotlarni oshkor etmaslik, parollarni muntazam yangilash va tranzaksiya oldidan sayt xavfsizligini tekshirish – yuqori himoya ta'siri ko'rsatdi. Gamifikatsiya yondashuvi foydalanuvchilarda ushbu xulq-atvorlarni o'rgatishda an'anaviy to'g'ridan-to'g'ri ta'limdan ko'ra samarali ekanligi behavioral economics adabiyotlarida ham asoslangan.

Tahlil jarayonida aniqlangan bog'liqliklar asosida quyidagi tadqiqot gipotezalari shakllantirilib, empirik asoslar va kutilayotgan natijalar bilan birga 2-jadvalda keltirildi (2-jadval):

2- jadval. Tadqiqot gipotezalari va ularning empirik asoslari[2]

| № | Gipoteza | Empirik asos | Kutilayotgan natija |
|---|---|---|---|
| H1 | AI asosidagi fraud detection tizimlari oddiy qoida-asosli tizimlardan fraud aniqlashda statistik jihatdan yuqori samarador | FRAUD-X: F1=85.9% vs qoida-asosli F1~70% (Fetaji et al., 2025); Karnavou et al., 2025 — autoencoder ML modellaridan ustun | MyCard-da DNN/XGBoost integratsiyasi false negative ko'rsatkichni >15% kamaytiradi |
| H2 | Raqamli moliyaviy xavfsizlik ko'nikmalari an'anaviy moliyaviy savodxonlikka nisbatan fraud qurboni bo'lish ehtimolini ko'proq kamaytiradi | Ruiz, 2026 — OECD/INFE 10 Yevropa mamlakati ma'lumotlari: DFS har bir standart og'ish uchun phishing qurboni bo'lish ehtimolini 25% kamaytiradi | MyCard-da gamifikatsiyali ta'lim moduli plastik karta xavflarini tushunishni oshiradi |
| H3 | Ko'p qatlamli xavfsizlik sinergiyasi (AI+blockchain+kiberxavfsizlik) har bir alohida komponentdan samarali | FRAUD-X ablation: blockchain olib tashlansa F1 2% tushadi; kiberxavfsizlik olib tashlansa recall 4-5% tushadi (Fetaji et al., 2025) | MyCard uchun integrated security pipeline zero-day tahdidlarga 90%+ coverage ta'minlaydi |

2 Gipotezalar tahlil natijalari va nazariy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqot natijalarini ilmiy adabiyotlar bilan solishtirish shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlardagi fintech ekosistemasi — davlat regulyatori, tijorat banklari va foydalanuvchi — uchligining hamkorligiga asoslanadi. Xususan, AQShda CFPB (Consumer Financial Protection Bureau) tomonidan qo'yilgan talablar tijorat banklarni fraud monitoring va foydalanuvchi xabardorligini saqlab turishga majbur qilgan. Shu asosda Credit Karma, CreditWise kabi platformalar bepul kredit monitoringini ommaga taqdim eta oldi. Yevropa Ittifoqida esa PSD2 direktivi open banking mexanizmi orqali uchinchi tomon ilovalariga banklardagi ma'lumotlarga kirish huquqini berdi, bu esa xavfsizlik funksiyalarini yanada boyitdi.

CERT-CBU (Bobojanov, 2024) materiallari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Markaziy banki banklardan fraud monitoring va shubhali operatsiyalar reyestri yuritishni talab qiladi, lekin foydalanuvchi ilovasi darajasida dark web monitoring, AI asosidagi individual risk skoring yoki gamifikatsiyali ta'lim uchun alohida me'yoriy talablar yo'q. Bu bo'shliq, bir tomondan rivojlantirish uchun erkinlik bersa, boshqa tomondan standartlashtirish zarurligini ko'rsatadi (3-jadval).

3- jadval. MyCard va xorijiy fintech ilovalarining kiberxavfsizlik funksiyalari bo'yicha solishtirma tahlili[3]

| Xavfsizlik yo'nalishi | Xorijiy ilovalar yechimi | MyCard kutilayotgan holati | Tavsiya |
|---|---|---|---|
| **AI fraud detection** | Aura, Credit Karma — real-vaqtda AI anomaliya aniqlash, tranzaksiya skor | Elementar tranzaksiya monitoring | Transformer-BDI yoki DNN integratsiyasi |
| **Dark web monitoring** | CreditWise — karta ma'lumotlari dark webda topilsa darhol xabar beradi | Mavjud emas | Dark web scanning moduli joriy etish |
| **Identifikatsiya himoyasi** | Aura, IDShield — shaxsiy ma'lumotlar manbalarini nazorat qilish, sug'urta | Foydalanuvchi autentifikatsiyasi | ID breach monitoring va sug'urta tizimi |
| **Kredit skor monitoringi** | myFICO, Credit Sesame — FICO® ball, simulyator, 3-byuro monitoring | Kredit tarix ko'rinishida | Kredit skor simulyatori va tahlil dashboardi |
| **Gamifikatsiya asosidagi ta'lim** | Zogo, Ficy, Your Juno — quiz, coin, leaderboard, community, referal tizimi | Mavjud emas yoki minimal | Gamifikatsiyali moliyaviy xavfsizlik moduli |
| **Blockchain audit trail** | FRAUD-X — tamper-proof tranzaksiya daftari (Fetaji et al., 2025) | Mavjud emas | Permissioned blockchain pilot |

Yuqoridagi qiyosiy tahlil va empirik adabiyotlar asosida biz MyCard uchun olti qatlamli integratsiyalashgan xavfsizlik modeli – MyCard-SafeLayer - ni taklif etamiz. Ushbu model FRAUD-X arxitekturasining O'zbekiston kontekstiga moslashtirish prinsiplariga suyanadi (4-jadval):

4- jadval. MyCard-SafeLayer konseptual model: qatlamlar va funksiyalar[4]

| Qatlam | Modul nomi | Funksional tavsif | Xorijiy analog |
|---|---|---|---|
| **1** | AI Fraud Engine | DNN/XGBoost asosida real-vaqt tranzaksiya anomaliyasini aniqlash, risk skoring | FRAUD-X AI module (Fetaji et al., 2025); Aura fraud detection |
| **2** | Dark Web Monitor | Foydalanuvchi karta ma'lumotlari dark webda paydo bo'lsa darhol xabar berish | CreditWise dark web tekshiruvi (Capital One) |
| **3** | ID Breach Shield | Shaxsiy ma'lumotlar sizib chiqishi monitoringi, zudlik bilan bloklash protokoli | IDShield identity monitoring; Aura identity protection |
| **4** | Blockchain Audit Trail | Tranzaksiyalar tarixini o'zgarmas daftarda saqlash, qarama-qarshi isbotlar | FRAUD-X blockchain layer — Hyperledger Fabric (Fetaji et al., 2025) |
| **5** | EduSec Gamification | Quiz, coin, leaderboard asosida plastik karta xavfsizlik ko'nikmalarini oshirish | Zogo, Your Juno, Ficy gamifikatsiya platformalari |
| **6** | Credit Health Dashboard | Kredit skor simulyatori, o'zgarishlar ogohlantirishlari, tahlil ko'rsatkichlari | myFICO kredit simulyatori; Credit Sesame sog'lom holat bahosi |

3 Tahlil muallif tomonidan ochiq manbalar asosida tuzilgan (2025). "Mavjud emas" belgisi rasmiy sayt va ilovalar tekshiruvi asosida belgilangan.

4 Model FRAUD-X (Fetaji et al., 2025) va xorijiy fintech platformalari tahlili asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Birinchi qatlam — AI Fraud Engine — Fetaji et al. (2025) FRAUD-X tizimidagi DNN/XGBoost asosidagi anomaliya aniqlash modulini model sifatida oladi. O'zbekiston kontekstida bu modul mahalliy BFSI tranzaksiya ma'lumotlari (bayramlar, raqamli to'lovlar spezifik naqshlari, valyuta o'zgarishlari) bilan tayyorlash zarur. Tizim CERT-CBU talablariga ko'ra shubhali operatsiyalarni 24/7 rejimida aniqlash va real-vaqt ogohlantirish yuborishi lozim.

Ikkinchi va uchinchi qatlamlar - Dark Web Monitor va ID Breach Shield — CreditWise va Aura/IDShield modellariga asoslanadi. O'zbekistonda CERT-CBU OIC-CERT va APWG bilan hamkorlik o'rnatganligi ushbu monitoring infratuzilmasi uchun xalqaro ma'lumot bazalaridan foydalanish imkonini beradi. Foydalanuvchi karta ma'lumotlari qorong'i internetda topilsa, 5-30 soniya ichida bildirishnoma va darhol bloklash taklifi yuborilishi lozim.

To'rtinchi qatlam — Blockchain Audit Trail — FRAUD-X ning Hyperledger Fabric asosidagi lojistik mexanizmiga tayanadi: har bir tranzaksiya o'zgarmas daftarda qayd etiladi, bu firibgar hujjat qalbakilashtirish va qaytarib olinmaydigan pul o'tkazmalarining oldini oladi. Beshinchi qatlam — EduSec Gamification — Zogo/ Your Juno modeliga asoslanib, foydalanuvchilarga plastik karta xavfsizligi bo'yicha quiz, coin va leaderboard orqali raqamli xavfsizlik ko'nikmalarini o'rgatadi.

Oltinchi qatlam — Credit Health Dashboard — myFICO va Credit Sesame yondashuviga asoslanadi. O'zbekiston sharoitida bu qatlam mahalliy kredit byurosi ma'lumotlari bilan integratsiyani talab qiladi, bu esa tijorat banklari va kredit byurolaori o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlikni zarur qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot ilg'or xorijiy fintech platformalari 9 ta ilovasi tahlili asosida quyidagi asosiy xulosalarga keldi:

- AI asosidagi tranzaksiya monitoringi xorijiy ilovalar uchun standard komponent bo'lib qolmoqda; FRAUD-X (Fetaji et al., 2025) empirik tadqiqot singari ko'p qatlamli sinergiya yondashuvi oddiy qoida-asosli tizimlardan 15-20 foiz yuqori samaradorlik ko'rsatadi.
- Dark web monitoring va identifikatsiya himoyasi MyCard ilovasida hozircha yo'q, lekin global tendentsiya bo'yicha bu funksiyalar kredit karta foydalanuvchilari uchun zaruriy minimal standartga aylanmoqda.
- Raqamli moliyaviy xavfsizlik ko'nikmalari (Ruiz, 2026) an'anaviy moliyaviy savodxonlikdan 25 foizgacha ko'proq fraud himoya ta'minlaydi — bu gamifikatsiya asosidagi ta'lim moduliga sarmoya kiritishni ilmiy jihatdan asoslaydi.
- Taklif etilgan MyCard-SafeLayer olti qatlamli modeli xorijiy tajriba va mahalliy regulyator talablarining uyg'unlashuviga asoslanib, O'zbekiston tijorat banklarining plastik kartalar kiberxavfsizligini prinsipial yangi darajaga ko'tarishi uchun amaliy yo'l xaritasini taqdim etadi.

Kelgusi tadqiqotlar uchun uch yo'nalish tavsiya etiladi: (1) MyCard-SafeLayer modelini amalga oshirish imkoniyatlarini baholash uchun pilot loyiha dizaynlash; (2) O'zbekiston kontekstida DFS ko'nikmalari va plastik karta fraud qurboni bo'lish o'rtasidagi empirik munosabatni tekshirish; (3) CERT-CBU xalqaro hamkorlik tizimini dark web monitoring ma'lumot almashinuvi uchun standartlashtirish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:


1. Fetaji, B., Fetaji, M., Hasan, A., Rexhepi, S., & Armenski, G. (2025). FRAUD-X: An integrated AI, blockchain, and cybersecurity framework with early warning systems for mitigating online financial fraud: A case study from North Macedonia. IEEE Access, 13, 48060–48081. https://doi.org/10.1109/ACCESS.2025.3547285
2. Karnavou, E., Cascavilla, G., Marcelino, G., & Geradts, Z. (2025). I know you're a fraud: Uncovering illicit activity in a Greek bank transactions with unsupervised learning. Expert Systems with Applications, 288, 128148. https://doi.org/10.1016/j.eswa.2025.128148
3. Ruiz, J. R. (2026). Financial literacy, digital financial security, and financial fraud in Europe. International Review of Economics and Finance, 106, 104913. https://doi.org/10.1016/j.iref.2026.104913
4. Dastidar, K. G., et al. (2024). Machine learning methods for credit card fraud detection: A survey. IEEE Access, 12, 158938–158965. https://doi.org/10.1109/ACCESS.2024.3488354
5. Marazqah Btoush, E. A. L., Zhou, X., Gururajan, R., Chan, K. C., Genrich, R., & Sankaran, P. (2023). A systematic review of literature on credit card cyber fraud detection using machine and deep learning. PeerJ Computer Science, 9, e1278. https://doi.org/10.7717/peerj-cs.1278
6. Alshameri, F., & Xia, R. (2024). An evaluation of Variational Autoencoder in credit card anomaly detection. Big Data Mining and Analytics, 7(3), 718–729. https://doi.org/10.26599/BDMA.2023.9020035
7. Chowdhury, N. [va boshq.] (2025). Exploring the role of digital financial literacy and personal financial behavior in shaping financial stress and well-being in the digital age. Acta Psychologica, 259, 105308. https://doi.org/10.1016/j.actpsy.2025.105308
8. Başar, D., Keskin, H., Esen, E., Merter, A. K., & Balcıoğlu, Y. S. (2025). Digital financial literacy and savings behavior: A comprehensive cross-country analysis of FinTech adoption patterns and economic outcomes across 12 nations. Borsa Istanbul Review, 25, 59–72. https://doi.org/10.1016/j.bir.2025.09.004

9. European Central Bank & European Banking Authority. (2024). 2024 report on payment fraud. ECB/EBA. https://www.ecb.europa.eu/press/intro/publications/pdf/ecb.ebaec
10. Kaspersky. (2025). Stealer malware leaked over 2 million bank cards. Kaspersky Press Release. https://www.kaspersky.com/about/press-releases/kaspersky-stealer-malware-leaked-over-2-million-bank-cards
11. Bobojanov, M. (2024). O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklari va to'lov tizimlarida firibgarlikning oldini olishni qanday tartibga soladi [Taqdimot]. CERT-CBU, Toshkent.
12. Vanini, P., Rossi, S., Zvizdic, E., & Domenig, T. (2023). Online payment fraud: From anomaly detection to risk management. Financial Innovation, 9, 1–25. https://doi.org/10.1186/s40854-022-00344-5
13. Ali, A., et al. (2022). Financial fraud detection based on machine learning: A systematic literature review. Applied Sciences, 12, 9637. https://doi.org/10.3390/app12199637
14. Isaia, E., Oggero, N., & Sandretto, D. (2024). Is financial literacy a protection tool from online fraud in the digital era? Journal of Behavioral and Experimental Finance, 44, 100977. https://doi.org/10.1016/j.jbef.2024.100977
15. OECD/INFE. (2021). 2021 OECD/INFE toolkit for measuring financial literacy and financial inclusion. OECD Publishing. https://www.oecd.org/finance/financial-education/

# AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA INDIKATORLARI

**Eshpulatova Muazzam Barnoyevna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik kafedrasi tayanch doktoranti
Email: opencompanyuz@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi moliyaviy savodxonligini oshirishda YouTube, Telegram, Instagram, TikTok va Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarning samaradorligi empirik so'rovnoma ma'lumotlari asosida tahlil qilinadi. 234 respondent ishtirokida o'tkazilgan kvantitatif tadqiqot IMRAT metodologiyasi (Introduction–Methods–Results–Analysis–Conclusion) asosida tuzilgan. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining 76.4% moliyaviy qarorlarda mazkur platformalardan foydalanishini, ammo kontent ishonchliligini tekshirish zarurati mavjudligini ko'rsatadi. Jamg'arma xulq-atvoridagi ziddiyatlar – bir tomondan yuqori nazariy bilim (97.0% inflyatsiyani to'g'ri tushuntira oladi), ikkinchi tomondan past amaliy xulq-atvor (33.6% umuman jamg'armaslik) – axborot-xulq-atvor bo'shlig'ini (knowledge-behaviour gap) tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, ijtimoiy tarmoqlar, moliyaviy xulq-atvor, digital moliyaviy ta'lim, moliyaviy inklyuziya, axborot-xulq-atvor bo'shlig'i, O'zbekiston.

Abstract. This article analyzes the effectiveness of social media platforms such as YouTube, Telegram, Instagram, TikTok, and Facebook in improving financial literacy among the population based on empirical survey data. The quantitative study, conducted with the participation of 234 respondents, is structured according to the IMRAT methodology (Introduction–Methods–Results–Analysis–Conclusion). The results indicate that 76.4% of social media users rely on these platforms for financial decision-making, although the need to verify the reliability of content remains significant. Contradictions in saving behavior—high theoretical knowledge (97.0% correctly understand inflation) alongside low practical behavior (33.6% do not save at all)—confirm the presence of a knowledge–behaviour gap.

Key words: financial literacy, social media, financial behaviour, digital financial education, financial inclusion, knowledge–behaviour gap, Uzbekistan.

Аннотация. В данной статье анализируется эффективность социальных сетей, таких как YouTube, Telegram, Instagram, TikTok и Facebook, в повышении финансовой грамотности населения на основе эмпирических данных опроса. Количественное исследование, проведённое с участием 234 респондентов, построено на основе методологии IMRAT (Introduction–Methods–Results–Analysis–Conclusion). Результаты показывают, что 76.4% пользователей социальных сетей используют данные платформы при принятии финансовых решений, однако сохраняется необходимость проверки достоверности контента. Выявлено противоречие в сберегательном поведении: при высоком уровне теоретических знаний (97.0% правильно объясняют инфляцию) наблюдается низкий уровень практического поведения (33.6% вовсе не осуществляют сбережений), что подтверждает наличие разрыва «знания–поведение» (knowledge–behaviour gap).

Ключевые слова: финансовая грамотность, социальные сети, финансовое поведение, цифровое финансовое образование, финансовая инклюзия, разрыв «знания–поведение», Узбекистан.

## KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy savodxonlik tushunchasi sezilarli evolyutsiyani boshdan kechirmoqda va endilikda u faqat individual qaror qabul qilish vositasi sifatida emas, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi tizimli omil sifatida qaralmoqda. Global moliya tizimining murakkablashuvi, raqamli

moliyaviy xizmatlarning kengayishi hamda aholining kredit, investitsiya va jamg'arma instrumentlariga keng jalb qilinishi moliyaviy bilim va ko'nikmalarga bo'lgan talabni keskin oshirmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi nafaqat shaxsiy farovonlikni pasaytiradi, balki butun iqtisodiyotda resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga, ortiqcha qarzdorlikka va moliyaviy beqarorlik xavfining ortishiga olib keladi.

So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar moliyaviy axborotning asosiy manbalaridan biriga aylanib, moliyaviy ta'limning yangi ekotizimini shakllantirmoqda. YouTube, Telegram, Instagram va TikTok kabi platformalar orqali moliyaviy kontentning keng tarqalishi aholining turli qatlamlari uchun bilim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda an'anaviy moliyaviy ta'lim infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan sharoitda ijtimoiy tarmoqlar muqobil va tezkor bilim manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq ushbu jarayon bilan bir qatorda moliyaviy dezinformatsiya, noto'g'ri maslahatlar va firibgarlik sxemalarining keng tarqalishi xavfi ham ortib bormoqda.

O'zbekiston sharoitida bu masala alohida dolzarblik kasb etadi. Aholining katta qismi ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanayotgan bo'lsa-da, moliyaviy savodxonlik darajasi hali ham nisbatan past darajada qolmoqda. Bu esa ijtimoiy tarmoqlar orqali olingan axborotning real moliyaviy xulq-atvorga qanday ta'sir ko'rsatayotganini chuqur ilmiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Mavjud tadqiqotlar asosan rivojlangan mamlakatlarga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston kabi o'tish iqtisodiyoti sharoitida mazkur bog'liqlikni empirik baholash yetarli darajada o'rganilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqot ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va moliyaviy savodxonlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash, uning bilim va xulq-atvor darajasiga ta'sirini baholash hamda milliy sharoitga mos ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

XXI asr iqtisodiyotida moliyaviy savodxonlik yakka shaxs darajasidan tashqarib chiqib, makroiqtisodiy barqarorlikning muhim omillaridan biriga aylandi. Lusardi va Mitchell [1] o'zlarining keng miqyosli tadqiqotlarida moliyaviy savodxonlik darajasi past aholining nafaqat shaxsiy farovonligi, balki umumiy iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari uchun ham xavf tug'dirishini isbot qildi. Xususan, mualliflar ko'rsatadiki, past moliyaviy savodxonlik pensiya jamg'armalarini noto'g'ri boshqarishga, yuqori qarzga botishga va aktivlarni samarasiz taqsimlashga olib keladi [1, s. 497–521].

Morgan va Long [2] Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bo'yicha o'tkazgan qiyosiy tadqiqotlarida moliyaviy savodxonlik va moliyaviy inklyuziya o'rtasidagi statistik jihatdan muhim musbat korrelyatsiyani aniqladi ($r = 0.61$, $p < 0.001$). Bu aloqa ayniqsa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda – O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun – amaliy siyosat ishlab chiqishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qilishi mumkin [2].

Klapper, Lusardi va van Oudheusden [3] tomonidan 148 mamlakatni qamrab olgan Global Financial Literacy Survey natijalariga ko'ra, dunyo aholisining atigi 33 foizi moliyaviy savodxon hisoblanadi, O'rta Osiyo mintaqasida esa bu ko'rsatkich sezilarli darajada pastroq bo'lishi taxmin qilinmoqda [3]. O'zbekistonda o'tkazilgan mahalliy tadqiqotlar ham shu tendensiyani tasdiqlaydi: Tuychieva [4] Bank-moliya akademiyasida o'tkazgan so'rovnoma asosida o'zbek aholisining moliyaviy savodxonlik darajasi 5 pog'onali Likert shkalasida o'rtacha 2.8 ball ekanligini aniqladi [4].

Raqamli kommunikatsiya texnologiyalari moliyaviy ta'limni demokratlashtirishning yangi yo'llarini ochar ekan, ijtimoiy tarmoqlar bu jarayonda eng dinamik kanal sifatida e'tirof etilmoqda. Arrondel, Debbich va Savignac [5] tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, moliyaviy kontent iste'mol qiluvchi foydalanuvchilar bir yil davomida moliyaviy bilim testlarida o'rtacha 18–22% ko'proq natija ko'rsatdi [5]. Biroq ushbu ta'sir platforma turiga qarab sezilarli farq qiladi: video formatdagi kontent (YouTube, TikTok) matnli formatga (Twitter/X) qaraganda 2.3 baravar samaraliroq deb topildi [5, s. 12].

Chen, Li va Wang [6] ChatGPT va ijtimoiy media orqali moliyaviy savodxonlikni tarqatish mexanizmlarini o'rganib, 'virality effect' hodisasini aniqladi – ya'ni moliyaviy kontent bir respondentdan boshqa respondentlarga zanjir usulida tarqalib, nazariy jihatdan eksponensial o'sish ko'rsatadi. Ammo mualliflar bu effektning sifat masalasini ham ko'tarib, moliyaviy dezinformatsiyaning ham xuddi shunday tez tarqalishi mumkinligi haqida ogohlantirdi [6].

O'zbekiston kontekstida Telegram platformasi alohida o'rin tutadi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi [7] ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yil boshiga kelib O'zbekistonda 18 milliondan ortiq Telegram foydalanuvchisi mavjud bo'lib, mazkur platforma axborot tarqatishning de-facto asosiy kanaliga aylangan. Moliyaviy kontent nishidagi Telegram kanallar soni 2021–2024 yillarda 340% ga oshganligi qayd etilgan [7].

Ilmiy adabiyotni tahlil qilish natijasida muhim bo'shliq aniqlandi: mavjud tadqiqotlar asosan rivojlangan iqtisodiyotlarda olib borilgan bo'lib, O'zbekiston kabi o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ijtimoiy tarmoqlarning moliyaviy savodxonlikka ta'sirini sistematik baholash metodologiyasi ishlab chiqilmagan. Fernandes, Lynch va

Netemeyer [8] meta-tahlilida moliyaviy ta'lim tadqiqotlarining 88% OECD mamlakatlarida o'tkazilganini ko'rsatdi – bu esa O'rta Osiyo kontekstida yangi empirik dalillar zarurligini belgilaydi [8].

Bundan tashqari, mavjud tadqiqotlarda aksariyat hollarda samaradorlik faqat bilim o'sishi (knowledge gain) orqali o'lchanadi. Holbuki Atkinson va Messy [9] ta'kidlaganidek, moliyaviy savodxonlikning haqiqiy natijasi bilim emas, xulq-atvor o'zgarishi (behavioural change) dir. Ushbu tadqiqot aynan ushbu konsepsual tafovutni hisobga oladi [9].

Tadqiqot maqsadi: O'zbekiston aholisi orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va moliyaviy savodxonlik o'rtasidagi bog'liqlikni empirik ravishda baholash hamda samaradorlikni o'lchash uchun ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot savollari:

– TS1: Respondentlar qaysi ijtimoiy tarmoqlardan moliyaviy kontent uchun ko'proq foydalanadi va bu qanchalik tez-tez?

– TS2: Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi va moliyaviy bilim ko'rsatkichlari o'rtasida statistik jihatdan muhim musbat korrelyatsiya mavjudmi?

– TS3: Ijtimoiy tarmoqlar orqali olingan moliyaviy axborot amaliy moliyaviy xulq-atvorga – jamg'arma, investitsiya, kredit qarorlari – ta'sir ko'rsatadimi?

– TS4: Kontent ishonchliligini baholashda respondentlar qanday mezonlardan foydalanadi?

Tadqiqot gipotezalari:

– H1: Ijtimoiy tarmoqlardan moliyaviy kontent uchun doimiy foydalanadigan respondentlar moliyaviy bilim testlarida statistik jihatdan muhim tarzda yuqori natija ko'rsatadi ($p < 0.05$).

– H2: Moliyaviy kontent iste'mol chastotasi va moliyaviy xulq-atvor (jamg'arma xulq-atvori) o'rtasida musbat korrelyatsiya mavjud bo'lib, bu bog'liqlik o'rta kuchda bo'ladi ($r \geq 0.30$).

– H3: Ijtimoiy tarmoqlardagi moliyaviy maslahatga ishonch darajasi platforma turiga ko'ra farqlanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot positivistik paradigma doirasida kvantitativ yondashuvga asoslanadi. So'rovnoma metodologiyasi tanlanganligi Babbie [10] tomonidan asoslangan: strukturaviy so'rovnoma katta namuna doirasida qiyosiy tahlil imkonini beradi va o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsion munosabatlarni aniqlashga moslashgan usul hisoblanadi [10]. Tadqiqot chiziqli bo'lmagan dizaynga asoslangan.

## TAHLIL VA NATIJALAR


So'rovnomada qatnashgan 234 respondentning demografik tarkibi 1-jadvalda keltirilgan. Respondentlarning aksariyat qismi – 117 kishi yoki 49.8% – 26–35 yosh guruhini tashkil etdi. Jins nisbatida erkaklar sezilarli darajada ustunlik qiladi: 205 kishi (87.2%). Bu nisbat bir tomondan maqsadli auditoriyaning demografik xususiyatlarini aks ettirsa, ikkinchi tomondan onlayn so'rovnomada ayollar qamrovi etarlicha ta'minlanmaganligini ko'rsatadi va namuna vakillilik cheklovlaridan biri sifatida baholanishi lozim (1-jadval).

1- jadval. Respondentlarning demografik tavsifi (n=234)[1]

| Ko'rsatkich | Kategoriya | Soni (n) | Ulushi (%) |
|---|---|---|---|
| **Yosh oralig'i** | 18–25 | 38 | 16.2 |
| | 26–35 | 117 | 49.8 |
| | 36–45 | 74 | 31.5 |
| | 46 va undan yuqori | 5 | 2.1 |
| **Jins** | Erkak | 205 | 87.2 |
| | Ayol | 29 | 12.3 |
| **Oylik daromad** | 3 mln so'mgacha | 19 | 8.1 |
| | 3–7 mln so'm | 67 | 28.5 |
| | 7–15 mln so'm | 73 | 31.1 |
| | 15 mln so'mdan yuqori | 75 | 31.9 |
| **Daromad manbai** | Ish haqi | 166 | 70.6 |
| | Biznes daromadi | 51 | 21.7 |
| | Boshqa | 17 | 7.2 |


1 Manba: Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari (2025).

Respondentlarning qaysi platformalardan moliyaviy kontent uchun foydalanishi 1-Diagrammada aks ettirilgan. YouTube eng mashhur platforma sifatida 68% respondent tomonidan qayd etildi. Telegram (61%) ikkinchi o'rinda turib, O'zbekiston aholisi uchun ushbu platforma ayniqsa muhim axborot kanali ekanligini tasdiqlaydi. Instagram 47% bilan uchinchi o'rinda keladi; TikTok (31%) va Facebook (18%) esa nisbatan kam foydalaniladigan platformalar hisoblanadi. Bu natija Zhu, Li va Chen [14] Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bo'yicha o'tkazgan tadqiqoti bilan qisman to'g'ri keladi – mazkur tadqiqotda ham YouTube barcha demografik guruhlarda moliyaviy kontent uchun birinchi tanlov ekanligi aniqlangan (1-rasm) [14].




1- rasm. Moliyaviy kontent uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ulushi (%)[2]

Eng muhim topilmalardan biri - respondentlarning 66 nafari (28.2%) moliyaviy qarorlarda ijtimoiy tarmoq ma'lumotlaridan doim foydalanishini, 113 nafari (48.2%) esa ba'zan foydalanishini ta'kidladi. Umumiy ijobiy munosabat (doimiy + ba'zan) 76.4% ni tashkil etadi. Bu son O'zbekiston aholisining ko'p qismi uchun ijtimoiy tarmoqlar moliyaviy axborot manbai sifatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatadi (2-rasm).




2- rasm. Moliyaviy qarorlarda ijtimoiy tarmoq ma'lumotlaridan foydalanish (n=234)[3]

Shu bilan birga, respondentlarning 51 nafari (21.8%) ijtimoiy tarmoqlardagi moliyaviy ma'lumotlarga ishonmasligini bildirdi. Bu guruh moliyaviy maslahatni rasmiy manbalar (bank veb-saytlari, davlat portallari) orqali tekshirishni afzal ko'rishi bilan bog'liq.

Moliyaviy bilim ko'rsatkichlari bo'yicha natijalar Jadval 2 da tizimli ravishda taqdim etilgan. Nazariy bilim sohasida respondentlar yuqori natija ko'rsatdi: inflyatsiyani to'g'ri izohlash (97.0%), bank foizini hisoblash (91.5%), mobil banking foydalanish (90.6%). Biroq amaliy moliyaviy xulq-atvorga o'tilganda, salbiy tendensiyalar yaqqol ko'zga tashlanadi (2-jadval).

2- jadval. Asosiy moliyaviy bilim va xulq-atvor ko'rsatkichlari (n=234)[4]

| Savol (qisqacha) | Eng ko'p javob | n | % | Talqin |
|---|---|---|---|---|
| Inflyatsiyani tushunish | Pul qadrsizlanishi va narxlar oshishi | 228 | 97.0 | Yuqori |
| **Kredit olishda omillar** | Barchasi (foiz, muddat, jadval) | 163 | 69.4 | O'rta+ |
| **Foiz hisoblash bilimlari** | 1,100,000 so'm (to'g'ri javob) | 215 | 91.5 | Yuqori |
| **Jamg'arma holati** | Umuman jamg'armayman | 79 | 33.6 | Xavfli |
| Mobil banking foydalanish | Ha, doimiy foydalanaman | 213 | 90.6 | Yuqori |
| **Ijt. tarmoq ma'lumotlaridan foydalanish** | Ba'zan foydalanaman | 113 | 48.1 | O'rta |
| **Moliyaviy maslahat ishonchliligi** | Rasmiy manbalar orqali tekshirish | 193 | 82.1 | Ijobiy |
| **Moliyaviy reja tuzish** | Ba'zan moliyaviy reja qilaman | 123 | 52.3 | O'rta |
| **Moliyaviy savodxonlik ahamiyati** | Ha, moliyaviy bilimlar muhim | 200 | 85.1 | Yuqori |
| **Moliyaviy firibgarlikdan xabardorlik** | Ba'zi sxemalar haqida eshitganman | 107 | 45.5 | O'rta |

2 Manba: Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari (n=234, 2025)
3 Manba: Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari (n=234, 2025)
4 Manba: Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari (2025).

Xulq-atvor ko'rsatkichlari sezilarli tashvish uyg'otadi: respondentlarning 33.6% umuman jamg'armasligini, 30.0% esa faqat bir oylik xarajatlarini qoplash imkoniyatiga egaligini bildirdi. Bu natijalar OECD/INFE [15] belgilagan minimal moliyaviy barqarorlik mezonlari (kamida 3 oylik favqulodda fond) ga nisbatan qabul qilib bo'lmaydigan darajada pastdir [15].

Moliyaviy reja tuzish sohasida ham shunga o'xshash tafovut kuzatildi: 52.3% ba'zan reja qilsa, atigi 32.0% har oylik byudjet rejasini olib borishini ta'kidladi. 15.4% esa hech qachon rejalashtirmaganligini bildirdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning eng muhim topilmasi shundaki, respondentlar orasida nazariy bilim darajasi va amaliy moliyaviy xulq-atvor o'rtasida keskin ziddiyat mavjud. Bu hodisa ilmiy adabiyotda "knowledge-behaviour gap" yoki 'financial literacy paradox' nomi bilan tanilgan [16]. Mazkur tafovutni tushuntirish uchun bir nechta nazariy yondashuv mavjud.

Birinchi yondashuv – Ajzen [17] tomonidan ishlab chiqilgan rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi (Theory of Planned Behaviour, TPB) – bilimning xulq-atvorga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmasligini, balki sub'yektiv normalar, qabul qilingan nazorat va niyat orqali vositlanganligini ko'rsatadi [17]. Ushbu tadqiqot ma'lumotlari bu nazariyani qo'llab-quvvatlaydi: respondentlarning 91.5% bank foizini to'g'ri hisoblasa-da, 33.6% umuman jamg'armaslik faktiga dalolat beradi. Bu shunchaki bilim etishmasligi emas, balki xulq-atvor motivatsiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy to'siqlarning mavjudligi bilan izohlanadi.

Ikkinchi izoh – daromad darajasi bilan bog'liq strukturaviy omillar. Respondentlarning 8.1% oylik daromadi 3 mln so'm dan past. Bu segment uchun jamg'armaslik ratsional tanlov bo'lishi mumkin: daromad yashash xarajatlarini zo'rg'a qoplasa, ortiqcha mablag' yo'q. Shu nuqtai nazardan, Cude va boshq. [18] ta'kidlaganidek, moliyaviy savodxonlik dasturlari faqat bilim berishdan tashqari, iqtisodiy imkoniyatlarni oshirishga ham yo'naltirilishi zarur [18].

Platforma bo'yicha farqlanishlar tadqiqotning muhim topilmasini tashkil etadi. YouTube va Telegram o'rtasidagi farq (68% vs 61%) statistik jihatdan muhim emas, biroq ushbu ikki platformaning umumiy ustunligi funksional sabablarga ega: YouTube video kontent formati moliyaviy konsepsiyalarni vizual tarzda tushuntirish imkonini bersa, Telegram kanallar sinxron kommunikatsiya va guruhiy muhokama uchun muhit yaratadi.

Kaiser va boshq. [19] Germaniyadagi o'smirlar orasida o'tkazgan tadqiqotida YouTube-dagi moliyaviy kontent iste'molchilari standartlashtirilgan moliyaviy bilim testlarida nazorat guruhiga nisbatan 14.3% ko'proq natija ko'rsatganligini aniqladi [19]. Ushbu tadqiqotda o'rta kuchli korrelyatsiya (r = 0.487) xuddi shu yunalishdagi tendensiyani O'zbekiston kontekstida tasdiqlaydi, biroq korrelyatsiya sabab-oqibat munosabatini anglatmasligini ta'kidlash zarur: moliyaviy savodxonroq kishilar ijtimoiy tarmoqlardagi moliyaviy kontentni ko'proq iste'mol qilishlari ham ehtimoldan holi emas (reverse causality).

Respondentlarning 82.1% ijtimoiy tarmoqlardagi moliyaviy maslahatlarni rasmiy manbalar orqali tekshirishini ta'kidlaganligi ijobiy tendensiya sifatida baholanadi. Biroq shuni ta'kidlash kerakki, bu javob ijtimoiy jihatdan ma'qullangan javob bo'lib, amaliy xulq-atvordan farq qilishi mumkin. Faqat 4 nafar respondent mashhur blogerlarning maslahatlariga ko'r-ko'rona ishonishini tan oldi – bu aslida past raqam hisoblanmaydi, chunki ijtimoiy e'tibor effekti bu raqamni sun'iy ravishda pasaytiradi.

Papadimitriou, Pavlidis va Karypis [20] o'z tadqiqotlarida ijtimoiy mediaadagi moliyaviy dezinformatsiyaning uzoq muddatli ta'sirini o'rganib, bir marta qabul qilingan noto'g'ri moliyaviy ma'lumot foydalanuvchida bir necha yil davomida saqlanib qolishini aniqladi – bu holat psixologiyada 'anchoring bias' deb ataladi [20]. O'zbekiston kontekstida bu xavf ayniqsa dolzarb: moliyaviy piramida sxemalar va kriptovalyuta firibgarligi kabi sohalar aktiv tarzda ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilinmoqda.

OECD mamlakatlarining moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tajribalari bilan qiyoslash muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. AQSh da Jumpstart Coalition va Consumer Financial Protection Bureau (CFPB) ijtimoiy mediadan maqsadli foydalangan holda yoshlar orasida moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini amalga oshirdi. Cho va Trent [21] ushbu dasturlarni baholab, Instagramdagi moliyaviy kontentning 18–24 yoshdagi auditoriyada investitsiya haqida ma'lumot izlash faolligini 34% ga oshirganini aniqladi [21].

Проведённое исследование подтверждает, что конкурентоспособность субъектов электронной коммерции в Узбекистане формируется как результат комплексного взаимодействия нескольких взаимосвязанных факторов. К ключевым из них относятся финансовая устойчивость предприятий, уровень технологической зрелости цифровых платформ, эффективность логистической инфраструктуры

и качество клиентского опыта, функционирующих при поддержке институциональных механизмов развития цифровой экономики. Совокупное действие данных факторов формирует основу для устойчивого развития электронной коммерции и позволяет предприятиям формировать долгосрочные конкурентные преимущества на рынке.

Разработанная модель индикаторов цифровой зрелости и предложенный пилотный индекс IDZ позволяют осуществлять первичную диагностику уровня развития предприятий электронной коммерции и проводить сравнительный анализ их конкурентных позиций на основе доступных открытых данных. Применение индикаторного подхода демонстрирует, что даже при ограниченности публичной корпоративной информации возможно формирование аналитического профиля цифровой зрелости компаний, отражающего их способность эффективно функционировать в цифровой среде. В частности, использование показателей, связанных с цифровым охватом пользователей, развитием логистической сети, интеграцией финтех-сервисов и скоростью исполнения заказов, позволяет выявлять сильные и слабые стороны бизнес-моделей предприятий электронной коммерции.

Результаты пилотной апробации указывают на то, что наиболее высоких значений цифровой зрелости достигают экосистемные платформы, обладающие развитой сетью пунктов выдачи и интегрированными финансово-технологическими сервисами. Наличие встроенных платёжных решений, сервисов рассрочки, а также развитой инфраструктуры «последней мили» способствует повышению уровня пользовательского сервиса и ускорению исполнения заказов, что непосредственно усиливает конкурентное позиционирование предприятий на рынке электронной торговли. Таким образом, конкурентоспособность компаний электронной коммерции всё в большей степени определяется не только ценовыми параметрами предложения, но и способностью предприятия обеспечивать высокий уровень цифровой интеграции процессов, удобство взаимодействия с клиентами и устойчивость логистической инфраструктуры.

В дискуссионном аспекте результаты исследования позволяют сделать вывод о том, что цифровая зрелость предприятий электронной коммерции выступает важным промежуточным звеном между цифровизацией бизнеса и его экономической результативностью. Иными словами, уровень внедрения цифровых технологий и инфраструктуры сам по себе не гарантирует повышения конкурентоспособности компании, однако формирует необходимую основу для повышения эффективности операционной деятельности, расширения рынка сбыта и улучшения качества обслуживания клиентов. В этом контексте цифровая зрелость может рассматриваться как один из ключевых факторов трансформации бизнес-моделей предприятий в условиях развития цифровой экономики.

Дополнительное значение в формировании конкурентных преимуществ предприятий электронной коммерции имеет институциональная среда. Государственная политика в области цифровой трансформации экономики, развитие нормативно-правовой базы электронной торговли, а также функционирование специализированных инновационных экосистем создают благоприятные условия для роста цифрового предпринимательства. В условиях Узбекистана активное развитие цифровой инфраструктуры, высокий уровень проникновения интернет-технологий и поддержка технологических компаний формируют устойчивую основу для дальнейшего расширения электронной коммерции.

Практическая значимость предложенной модели заключается в возможности её использования для формирования аналитических инструментов мониторинга развития электронной коммерции и разработки стратегий цифровой трансформации бизнеса. Предприятия могут применять модель цифровой зрелости для оценки собственной конкурентоспособности, выявления узких мест в развитии цифровой инфраструктуры и определения приоритетных направлений инвестиций. В свою очередь, государственные органы могут использовать подобные индикаторы для оценки эффективности программ цифровизации экономики и разработки механизмов поддержки электронной торговли.

Перспективным направлением дальнейших исследований является расширение базы эмпирических данных за счёт использования управленческой отчётности предприятий электронной коммерции, что позволит повысить точность расчётов и глубину аналитических выводов. Дополнительный интерес представляет проведение эконометрических исследований, направленных на выявление статистической взаимосвязи между уровнем цифровой зрелости предприятий, их финансовой устойчивостью и динамикой рыночной доли. Реализация подобных исследований позволит сформировать более точную методологию оценки влияния электронной коммерции на конкурентоспособность субъектов предпринимательства и расширить научное понимание процессов цифровой трансформации бизнеса в условиях современной экономики.

**Список использованной литературы:**

1. UNCTAD. Digital Economy Report 2024. – Geneva: United Nations Conference on Trade and Development, 2024. URL: https://unctad.org/publication/digital-economy-report-2024

2. UNCTAD. Business E-commerce Sales and the Role of Online Platforms: Technical Notes on ICT for Development No. 1. – Geneva: United Nations Conference on Trade and Development, 2024. URL: https://unctad.org/system/files/official-document/dtlecde2024d3_en.pdf
3. KPMG Uzbekistan. E-commerce in Uzbekistan. – Tashkent: KPMG, 2023. URL:https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/uz/pdf/2023/Ecommerce%20in%20Uzbekistan_to-upload.pdf
4. KPMG Uzbekistan. Overview of E-commerce Market in Uzbekistan. – Tashkent: KPMG, 2023. URL: https://kpmg.com/uz/en/home/insights/2023/08/e-commerce-market.html
5. National Committee on Statistics of the Republic of Uzbekistan. Internet Users Share Reached 94.2% of the Population (January–August 2025). – Tashkent, 2025. URL: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/64211-zbekiston-a-olisining-94-2-foizi-internetdan-fojdalanadi-2
6. Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-792. On Electronic Commerce. – Tashkent, 2022. URL: https://lex.uz/ru/docs/6213428
7. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-6079. Strategy "Digital Uzbekistan – 2030". – Tashkent, 2020. URL: https://lex.uz/uz/docs/5031048
8. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 885. On Measures for Further Development of Electronic Commerce. – Tashkent, 2024. URL: https://lex.uz/ru/docs/7284840
9. IT Park Uzbekistan. Tax Incentives for Startups and Foreign Investors in Uzbekistan's IT Sector. – Tashkent, 2026. URL: https://it-park.uz/ru/itpark/news/nalogovye-lgoty-dlya-startapov-i-inostrannyh-investorov-v-it-sektore-uzbekistana
10. OECD. Key Issues in Digital Trade Review. – Paris: OECD Publishing, 2023. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2023/01/key-issues-in-digital-trade-review_5a91f9a0/b2a9c4b1-en.pdf
11. World Bank Group. Accelerated by COVID and AI: Global Digital Landscape Remains Uneven. – Washington: World Bank, 2024. URL: https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2024/03/05/accelerated-by-covid-and-ai-global-digital-landscape-remains-uneven
12. McKinsey & Company. LLM to ROI: How to Scale Generative AI in Retail. – McKinsey Global Institute, 2024. URL: https://www.mckinsey.com/industries/retail/our-insights/llm-to-roi-how-to-scale-gen-ai-in-retail
13. Singh J. Meet Uzbekistan's First Unicorn: E-commerce Startup Uzum. – TechCrunch, 2024. URL: https://techcrunch.com/2024/03/25/uzbekistan-unicorn-uzum-series-a-funding/
14. Government Portal of the Republic of Uzbekistan. Digital Technologies and Transport: Strategy "Digital Uzbekistan – 2030". – Tashkent, 2026. URL: https://gov.uz/ru/activity_page/digital_technology

# MOLIYAVIY INKLUZIYADA KIBERXAVFSIZLIKNING O'RNI VA UNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: BANK MOBIL ILOVALARI MISOLIDA

**Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi**
1-bosqich tayanch doktorant (PhD), TIU

Annotatsiya. Bugungi kunda bank mobil ilovalarining jadal rivojlanishi moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish bilan bir qatorda, kiberxavfsizlik masalasini iqtisodiy barqarorlikning fundamental shartiga aylantirmoqda. Mazkur jarayonlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik raqamli moliya bozorida nafaqat texnologik qulaylikni, balki mijozlar ishonchiga asoslangan yangi iqtisodiy tendensiyalarni shakllantirmoqda. Tadqiqotda bank mobil ilovalari shunchaki xizmat ko'rsatish kanali emas, balki bankning strategik aktivi va mijozlar ishonchini shakllantiruvchi ekotizim sifatida baholanadi. Statistik ma'lumotlar asosida "multi-banking" hodisasi va kiberxavfsizlik choralarining moliyaviy inkluzivlikka ta'siri yoritib berilgan. Muallif tomonidan foydalanuvchilarning "raqamli immun tizimi"ni yuksaltirish va kiber-bardoshli "aqlli interfeys"larni joriy etish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: bank mobil ilovalari, raqamli transformatsiya, kiberxavfsizlik, moliyaviy inkluzivlik, multi-banking, raqamli ishonch, aqlli interfeys.

Abstract. Today, the rapid development of mobile banking applications, alongside the expansion of financial inclusion, is transforming cybersecurity into a fundamental prerequisite for economic stability. The intrinsic link between these processes shapes not only technological convenience but also new economic trends in the digital financial market based on customer trust. The study evaluates mobile banking applications not merely as service delivery channels but as strategic banking assets and ecosystems that foster customer trust. Based on statistical data, the phenomenon of "multi-banking" and the impact of cybersecurity measures on financial inclusion are highlighted. The author proposes practical recommendations for enhancing the "digital immunity" of users and implementing cyber-resilient "smart interfaces".

Key words: mobile banking applications, digital transformation, cybersecurity, financial inclusion, multi-banking, digital trust, smart interface.

Аннотация. На сегодняшний день стремительное развитие мобильных банковских приложений наряду с расширением финансовой инклюзивности превращает вопросы кибербезопасности в фундаментальное условие экономической стабильности. Тесная взаимосвязь между этими процессами формирует на рынке цифровых финансов не только технологическое удобство, но и новые экономические тенденции, основанные на доверии клиентов. В исследовании мобильные приложения банков рассматриваются не просто как каналы обслуживания, а как стратегические активы и экосистемы, формирующие доверие клиентов. На основе статистических данных освещаются феномен «мульти-банкинга» и влияние мер кибербезопасности на финансовую инклюзивность. Автором выдвинуты практические предложения по повышению «цифрового иммунитета» пользователей и внедрению киберустойчивых «умных интерфейсов».

Ключевые слова: мобильные банковские приложения, цифровая трансформация, кибербезопасность, финансовая инклюзивность, мульти-банкинг, цифровое доверие, умный интерфейс.

## KIRISH

Zamonaviy global moliya bozori jadal raqamli tarzida rivojlanib borayotganligini inobatga olgan holda, so'nggi o'n yillikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi an'anaviy tijorat banklari faoliyat yuritish modelini tubdan o'zgartirib kelayotganini sezishimiz mumkin. Bugungi kunda bank xizmatlarining jismoniy filiallardan mobil qurilmalarga ko'chib borayotgani shunchaki innovatsiya emas, balki global iste'molchi xulq-atvorining o'zgarishi natijasi hamdir. Raqamli texnologiyalarning hayotimizga kirib borish darajasi yuqori

ko'rsatkichlarni qayd etib kelayotgan bir zamonda moliyaviy inklyuzivlik va kiberxavfsizlik ahamiyati ham ortib bormoqda. Eng yaxshi mobil ilovalar yartuvchisi BuildFire kompaniyasi tadqiqotlariga ko'ra, so'nggi olti yilda smartfon foydalanuvchilari soni 36 foizga ortib, 1,14 milliardga yetgani[1] moliyaviy inklyuziya uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar eshigini ochdi. Foydalanuvchining o'z qurilmasini kuniga o'rtacha 180 martadan ko'p tekshirishi orqali yuzaga kelgan "raqamli faollik" an'anaviy bank filiallari o'rnini bosuvchi asosiy platformaga aylandi. Biroq, moliya institutlari va mijoz o'rtasidagi muloqotning ushbu raqamli maydonga ko'chishi, bir vaqtning o'zida tizimning kiberxavfsizlikka bo'lgan ehtiyojini ham keskin oshiradi. Zero, foydalanuvchining mobil qurilmaga bo'lgan bunday yuqori bog'liqligi raqamli tranzaksiyalar xavfsizligini ta'minlashni barqaror iqtisodiy o'sishning fundamental shartiga aylantirib kelmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham bank tizimini transformatsiya qilish, masofaviy xizmatlar qamrovini oshirish va aholining barcha qatlamlarini moliya bozoriga jalb qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda mobil ilovalar inkluzivlikni ta'minlovchi asosiy ko'prik vazifasini o'tamoqda. Biroq, moliyaviy xizmatlarning desentralizatsiyasi (hududiy cheklovlardan chiqishi va raqamli qurilmalar orqali universal ommaviylashuvi) kiber-tahdidlar maydonini kengaytirmoqda. Shu sababli, kiberxavfsizlik choralari shunchaki texnik himoya emas, balki barqaror iqtisodiy o'sishni kafolatlovchi strategik zaruratdir. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot davomida bank mobil ilovalari tizimidagi kiber-tahdidlar tahlili, aholining raqamli ishonchini oshirish mexanizmlari va ularning iqtisodiy samaradorligi ko'rib chiqiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy inkluziyani ta'minlashda an'anaviy bank modelidan bank mobil ilovalariga o'tish jarayoni zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bank mobil ilovalari moliyaviy inkluziyani ta'minlashning eng samarali vositasi ekanligi ko'plab xalqaro tadqiqotlarda o'z isbotini topgan. Xususan, Demirguc-Kunt va boshqalar (2018) o'zlarining "Global Findex" hisoboti asosida tayyorlagan maqolasida mobil banking tranzaksion xarajatlarni o'rtacha 80-90% gacha qisqartiradi va bu esa o'z navbatida bank xizmatlaridan foydalanuvchilar qamrovini keskin oshirishini keltirib o'tganlar[2].

Biroq, moliyaviy inklyuzivlik o'sish jarayonining muvaffaqiyati "raqamli ishonch" bilan chambarchas bog'liq. Sahay va boshqalar (2020) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kiberxavfsizlik choralari kuchsiz bo'lgan mamlakatlarda aholining raqamli moliya tizimiga integratsiyalashuvi sekin kechadi va bu barqaror iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiladi[3].

Loko va Yang (2022) tadqiqotlarida esa, bank mobil ilovalari kabi fintech yechimlari an'anaviy moliya institutlariga kirish imkoniyati cheklangan qatlamlar (xususan, ayollar va kichik biznes) uchun moliyaviy to'siqlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi[4].

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida bank mobil ilovalari orqali moliyaviy inkluziyani kengaytirishning ham imkoniyatlari, ham tizimli to'siqlari tahlil qilingan. Xususan, Karimov A. (2022) raqamli transformatsiya jarayonlarini banklar raqobatbardoshligini oshirishning fundamental omili sifatida baholaydi[5]. Uning fikricha, bank mobil ilovalari nafaqat innovatsion xizmatlar yaratish, balki mijozlar bilan "interaktiv aloqa" o'rnatish orqali moliya bozorida iste'molchi faolligini oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, aholining keng qatlamlarini moliya tizimiga integratsiya qilish (inkluziya) uchun mustahkam zamin yaratadi. Biroq, mobil banking orqali erishiladigan iqtisodiy samaradorlik muayyan cheklovchi omillarga ham ega. Abdullayev B. (2024) O'zbekiston bank sektorida raqamli xizmatlar evolyutsiyasiga to'sqinlik qilayotgan kritik muammolarni o'rganib, axborot xavfsizligi tizimlarining sustligi va texnologik infratuzilmaning hududiy jihatdan notekis rivojlanishini alohida qayd etadi[6]. Muallifning ushbu xulosasi shuni anglatadiki, kiberxavfsizlik choralari texnologik infratuzilma bilan parallel ravishda rivojlanmasa, moliyaviy inkluziya jarayoni sezilarli darajada sekinlashishi va iqtisodiy o'sishga kutilgan samarani bermasligi mumkin.

Tahlil qilingan xalqaro va mahalliy adabiyotlar natijasida shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, bank mobil ilovasi moliyaviy inkluzivlik va kiberxavfsizlik uzviyligini ta'minlovchi, vaqt va makon samaradorligi nuqtai nazaridan xavfsiz axborot almashinuvi hamda tranzaksiyalar algoritmini kafolatlovchi mijozning qo'l ostidagi aqlli interfeys bo'lib, bankning foydalanuvchilari qamrovini kengaytiruvchi asosiy aktiv ekotizimi hisoblanadi.


1 https://buildfire.com/app-statistics/
2 Demirgüç-Kunt, A., et al. (2018). The Global Findex Database 2017: Measuring Financial Inclusion and the Fintech Revolution. World Bank Group.
3 Sahay, R., et al. (2020). The Promise of Fintech: Financial Inclusion in the Post-COVID-19 Era. IMF Departmental Paper.
4 Loko, B., & Yang, Y. (2022). Fintech, Female Employment, and Gender Inequality. IMF Working Paper No. 22/108.
5 A. Karimov, "Digital Transformation in Uzbekistan Banking Sector," TDIU Journal of Economics, 2022.
6 B. Abdullaev, "Cybersecurity Challenges in Digital Banking," Finance and IT Review, 2024.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi bank mobil ilovalarining moliyaviy inkluzivlikni kengaytirishdagi ahamiyatini o'rganish hamda ularning kiberxavfsizlik bilan bog'liq iqtisodiy samaradorligini aniqlashga qaratilgan kompleks yondashuvdan iborat. Tadqiqot jarayonida bank mobil ilovasi nafaqat texnik vosita, balki xavfsiz axborot almashinuvi va tranzaksiyalar algoritmini ta'minlovchi "aqlli interfeys" hamda "asosiy aktiv ekotizimi" sifatida tushunchaviy va mantiqiy tahlil metodlari yordamida o'rganildi. Jahon banki (World Bank), Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy hisobotlari kabi ikkilamchi ma'lumotlar yordamida nazariy-statistik baza shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida davlat siyosatining huquqiy asosi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi" bu borada fundamental poydevor bo'lib xizmat qiladi[7]. Mazkur hujjatda nafaqat texnologik transformatsiya, balki aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish va hududiy qamrovni ta'minlash asosiy vazifa etib belgilangan. E'tiborli jihati shundaki, ushbu strategik maqsadlarni amalga oshirishda davlatning yondashuvi institutsional barqarorlikka tayanadi. Xususan, "Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki" AJ, "Agrobank" ATB va "Mikrokreditbank" ATB kabi yirik moliya institutlarining ustav kapitallarida davlat ulushining saqlab qolinishi moliyaviy inkluziyani ta'minlashdagi "ijtimoiy drayver" mexanizmini shakllantirdi. Bu esa "Loyihalar fabrikasi" kabi platformalar orqali mobil ilovalarning oddiy to'lov vositasidan tadbirkorlikni moliyalashtiruvchi yaxlit ekotizimga aylanishiga zamin yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat nazoratidagi ushbu banklar uchun kiber-bardoshlilik strategik islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshishidagi eng muhim filtr bo'lib xizmat qiladi. Mazkur strategik islohotlarning amaliy natijalari bank raqamli xizmatlari bozorining jadal kengayishida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlariga ko'ra, bank tizimida masofaviy xizmatlar ko'rsatish qamrovi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2024-yil holatiga ko'ra, bank mobil ilovalari va raqamli hamyonlar orqali ochilgan hisobvaraqlar hamda yuklab olingan ilovalarning umumiy soni 40 milliondan ortiq birlikni tashkil etgan[8]. Ushbu ko'rsatkich aholining iqtisodiy faol qatlami orasida bank xizmatlaridan foydalanishda "multi-banking" (bir vaqtning o'zida bir necha bank ilovalaridan foydalanish) madaniyati shakllanganligini ko'rsatadi. Bu esa bank mobil ilovasining "asosiy aktiv ekotizim" sifatidagi qarashimizni amaliy jihatdan tasdiqlaydi: ya'ni ilovalar shunchaki to'lov vositasi emas, balki mijozning moliyaviy resurslarini boshqaruvchi ko'p funksiyali tizimga aylangan. Shu bilan birga, raqamli hisobvaraqlar sonining bu qadar yuqoriligi kiberxavfsizlik masalasini iqtisodiy barqarorlikning muhim sharti sifatida belgilaydi. Tranzaksiyalar hajmi va ilovalar sonining ortishi bank tizimi uchun nafaqat inkluzivlik imkoniyatini, balki kiber-tahdidlar maydonining kengayishini ham anglatadi. Shuning uchun ham, banklar tomonidan joriy etilayotgan xavfsizlik algoritmlari va biometrik identifikatsiya tizimlari foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish orqali raqamli moliya bozorida tizimli xatarlarni kamaytirishga xizmat qilishi muhim ahamiyatlidir.




1-rasm. O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni (2021-2024, mln birlikda)[9]

7 https://lex.uz/ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son
8 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimining sharhi va statistik ko'rsatkichlari (2020-2024). cbu.uz.
9 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik hisobotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi grafikda aks etganidek, O'zbekiston bank tizimida masofaviy xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari so'nggi to'rt yil ichida keskin o'sish dinamikasini namoyon etgan. Agar 2021-yilda foydalanuvchilar soni 21,5 mln birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning birinchi yarmi yakuniga kelib bu ko'rsatkich 41,2 mln birlikka yetgan. Ushbu miqdoriy ko'rsatkichning mamlakat aholisi sonini emas bank tizimidagi faol ulanishlar va ochilgan raqamli hisobvaraqlar soni aks etganligini anglatadi. Bu holat raqamli moliya bozoridagi ikki muhim tendensiyani ochib beradi, ya'ni O'zbekistonda "multi-banking" (ko'p banklilik) madaniyati shakllanganligidan dalolat berad. Bu shuni anglatdiki, bitta iqtisodiy faol fuqaro o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq bankning mobil ilovasidan foydalanmoqda (masalan, ish haqi loyihasi uchun davlat banki ilovasi, keshbek va onlayn to'lovlar uchun xususiy raqamli bank ilovasi). O'z navbatida, statistika har bir alohida bank ilovasini mustaqil foydalanuvchi birligi sifatida qayd etadi. Shuningdek, ushbu raqamlar bank mobil ilovalarining shunchaki to'lov vositasidan yaxlit iqtisodiy ekotizimga aylanganini namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan, grafikdagi o'sish trayektoriyasi miqdoriy qamrov jihatidan yuqorilagani endilikda banklar uchun asosiy strategik vazifa — foydalanuvchilar sonini oshirish emas, balki mavjud "aqlli interfeyslar" orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalarning kiberxavfsizligini va sifatini ta'minlash ekanligini anglatadi.

Raqamli qamrovning 41 million birlikdan ortishi bank tizimida nafaqat keng imkoniyatlarni, balki "kiber-tahdidlar maydoni"ning ham transformatsiyalashuviga sabab bo'ladi. Tadqiqot doirasida zamonaviy himoya mexanizmlarining bank mijozlar faolligiga ta'sirini tahlil qilish natijasida tijorat banklarining mobil ilovlari biometrik identifikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellektga asoslangan Anti-frod (Anti-fraud) tizimlari, ma'lumotlarni shifrlashning zamonaviy protokollari, ilova ichidagi proaktiv kiber-ta'lim modullari kabi xavfsizlik tizimiga ega bo'lishlari maqsadga muvofiqligini keltirishimiz mumkin[10]:

Biometrik identifikatsiya texnologiyalari (Face ID, Touch ID) masofaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili bilan bog'liq xatoliklarni minimallashtiradi. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu texnologiyaning joriy etilishi bank mobil ilovalariga bo'lgan mijozlar ishonch indeksini o'rtacha 35 foizga oshirgan. Bu esa, o'z navbatida, bank bo'limiga bormasdan masofaviy hisobvaraq ochish dinamikasining o'sishiga asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Sun'iy intellektga asoslangan Anti-frod (Anti-fraud) tizimlari raqamli moliya bozorining xavfsizlik filtri hisoblanadi, ya'ni ushbu tizimlar shubhali operatsiyalarni real vaqt rejimida aniqlash va bloklash orqali kiber-firibgarlikdan ko'riladigan iqtisodiy zararlarni 60 foizgacha qisqartirish imkonini beradi. Bu ko'rsatkich aholining raqamli to'lovlarga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmining ortishiga zamin yaratadi.

Ma'lumotlarni shifrlashning (End-to-end encryption) zamonaviy protokollari foydalanuvchilarning shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlari daxlsizligini kafolatlamoqda. Aynan ma'lumotlar himoyasining yuqori darajasi mamlakatda "multi-banking" foydalanuvchilari sonining 1,5 barobarga o'sishiga sabab bo'ladi. Ya'ni, mijozlar bir nechta ilovaning xavfsizligiga ishonch hosil qilgan holda, o'z mablag'larini turli bank ekotizimlarida parallel ravishda boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ilova ichidagi proaktiv kiber-ta'lim modullari mijozlarning kiber-muhitda shaxsiy ma'lumotlarini ongli ravishda himoyalashini anglatadi. Foydalanuvchilarni fishing va ijtimoiy muhandislik hujumlaridan muntazam ogohlantirib borish tizimdagi "xatarli" amaliyotlar ulushini sezilarli darajada kamaytiradi va inkluzivlikning sifatli o'sishini ta'minlaydi.

Zamonaviy bank ekotizimlarining rivojlanishi foydalanuvchilar orasida nafaqat texnik qulaylik, balki "raqamli ishonch" tushunchasining fundamental ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, biometrik himoya va intellektual monitoring tizimlari kabi kiber-bardoshlilik drayverlari moliyaviy inkluzivlikni kengaytiruvchi asosiy filtr vazifasini o'taydi. Shu jumladan, bank mobil ilovalarining raqobatbardoshligi endilikda ularning funksional imkoniyatlari bilan emas, balki mijozning raqamli xavfsizlik tizimini qanchalik samarali himoya qila olishi va tizimli kiber-xatarlarga bardoshliligi bilan belgilanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi va foydalanuvchilar faolligining dinamik o'sishi sharoitida mobil bank ilovalari shunchaki xizmat ko'rsatish vositasidan mijoz va bank o'rtasidagi raqamli ishonchni shakllantiruvchi fundamental ekotizimga aylanib bormoqda. Tadqiqot davomida aniqlangan "multi-banking" hodisasi va kiber-tahdidlarning murakkablashishi shuni ko'rsatadiki, endilikda banklarning barqarorligi ularning texnik infratuzilmasi bilan emas, balki kiber-bardoshli "aqlli interfeys"lar orqali mijoz kapitalini qanchalik himoya qila olishi bilan belgilanishini bilishimiz mumkin.

10 McKinsey & Company. "The value of digital trust: How institutions can win through cybersecurity and privacy". Global Report, 2022-2023.

Tahlillar natijasida quyidagi konseptual xulosalar va amaliy takliflarni shakllantirishimiz mumkin:

- Bank mobil ilovalarini shunchaki operatsion kanal emas, balki bankning raqamli reputatsiyasini belgilovchi va bozor ulushini ta'minlovchi strategik aktiv sifatida baholash lozim. Ushbu yondashuv banklar uchun mijozlar bazasini saqlab qolishning eng samarali mexanizmi bo'lib xizmat qiladi;
- Kiber-bardoshlilik tizimi moliyaviy inklyuzivlik yo'lidagi to'siq emas, balki uning sifatli va barqaror o'sishini ta'minlovchi fundamental filtr ekanligi isbotlandi. Aynan xavfsizlik darajasining yuqoriligi aholining raqamli moliya tizimiga bo'lgan ishonchini oshiruvchi asosiy drayver ekanligini bilgan holda bank mobil ilovalarining faoliyati takomillashtirilishi maqsadga muvofiqdir;
- Foydalanuvchilarning "kiber-madaniyatini" yuksaltirish masalasi nafaqat banklarning, balki davlat miqyosidagi raqamli iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishi deb hisoblanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bank sektorida "kiberxavfsizlik — ishonch — inkluzivlik" zanjirining mustahkamlanishi O'zbekiston moliya bozorining xalqaro standartlar asosida raqamli transformatsiyalashuviga va aholining moliyaviy farovonligi oshishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. https://lex.uz/ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son
2. https://buildfire.com/app-statistics/
3. Demirgüç-Kunt, A., et al. (2018). The Global Findex Database 2017: Measuring Financial Inclusion and the Fintech Revolution. World Bank Group.
4. Sahay, R., et al. (2020). The Promise of Fintech: Financial Inclusion in the Post-COVID-19 Era. IMF Departmental Paper.
5. Loko, B., & Yang, Y. (2022). Fintech, Female Employment, and Gender Inequality. IMF Working Paper No. 22/108.
6. Karimov, "Digital Transformation in Uzbekistan Banking Sector," TDIU Journal of Economics, 2022.
7. Abdullaev, "Cybersecurity Challenges in Digital Banking," Finance and IT Review, 2024.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimining sharhi va statistik ko'rsatkichlari (2020-2024). cbu.uz.
9. McKinsey & Company. "The value of digital trust: How institutions can win through cybersecurity and privacy". Global Report, 2022-2023.


# SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATANING FARMATSEVTIKA SOHASIDAGI INSON RESURSLARINI BOSHQARISH JARAYONLARIGA TA'SIRI


Annotatsiya. Maqolada sun'iy intellekt (AI) va Big Data texnologiyalarining farmatsevtika sohasidagi inson resurslarini boshqarish (IRB) jarayonlariga ta'siri tahlil qilingan. Yetakchi kompaniyalar tajribasi asosida AI vositalari kadr tanlash tezligini 60–75%, retention'ni 25–30%, o'qitish samaradorligini 40–50% ga oshirishi isbotlangan. O'zbekistonda AI/Big Data'ni joriy etish yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.



Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, Big Data, HR-analitika, farmatsevtika sanoati, bashoratli tahlil, raqamli HR, avtomatlashtirish.



Аннотация. В статье проанализировано влияние технологий искусственного интеллекта (ИИ) и Big Data на процессы управления человеческими ресурсами (УЧР) в фармацевтической отрасли. На основе опыта ведущих компаний доказано, что ИИ-инструменты повышают скорость подбора персонала на 60–75%, retention на 25–30%, эффективность обучения на 40–50%. Разработаны рекомендации по внедрению ИИ/Big Data в Узбекистане.



Ключевые слова: искусственный интеллект, Big Data, HR-аналитика, фармацевтическая промышленность, предиктивная аналитика, цифровой HR, автоматизация.



Abstract. The article analyzes the impact of artificial intelligence (AI) and Big Data technologies on human resource management (HRM) processes in the pharmaceutical industry. Based on leading companies' experience, it is proven that AI tools increase recruitment speed by 60–75%, retention by 25–30%, and training efficiency by 40–50%. Recommendations for implementing AI/Big Data in Uzbekistan have been developed.



Key words: artificial intelligence, Big Data, HR analytics, pharmaceutical industry, predictive analytics, digital HR

## KIRISH

XXI asrning uchinchi o'n yilligida sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalari inson resurslarini boshqarish (IRB) sohasida inqilobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. McKinsey Global Institute 2024-yil hisobotiga ko'ra, yetakchi jahon kompaniyalari o'zlarining IRB jarayonlarining 45 foizidan ortig'ini AI va Big Data vositalari yordamida avtomatlashtirgan.

Farmatsevtika sanoati o'zining o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan yuqori texnologik tarmoq sifatida AI va Big Data joriy etishda alohida yondashuvni talab qiladi. GMP, GLP, GDP standartlari, uzoq muddatli R&D jarayonlari, klinik tadqiqotlar va farmakovigilyansiya masalalari maxsus kompetensiyalarga ega mutaxassislarni taqozo etadi. Tadqiqotning maqsadi – AI va Big Data'ning farmatsevtika sohasidagi IRB jarayonlariga ta'sirini tahlil qilish va O'zbekiston sharoitida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kontent-tahlil, case-study, bibliometrik tahlil, ekspert intervyusi, benchmarking va statistik modellashtirish metodlari qo'llanildi. Ma'lumotlar manbalari: Scopus va Web of Science bazasidan 60+ ilmiy maqolalar; farmatsevtika kompaniyalarining (Pfizer, Novartis, Roche, AstraZeneca, Sanofi) raqamli transformatsiya hisobotlari; Gartner, IDC, Forrester tahliliy hisobotlari; McKinsey Digital, Deloitte AI Institute materiallari; "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari AI va Big Data'ning IRB jarayonlariga qo'llanish yo'nalishlarini olti asosiy guruhga tasniflash imkonini berdi (1-jadval).

**1-jadval. AI va Big Data vositalarining IRB jarayonlariga qo'llanish yo'nalishlari**

| Yo'nalish | AI/Big Data vositalari | Farm. sohasiga xos qo'llanishi |
|---|---|---|
| Kadr tanlash | HireVue, Pymetrics, Eightfold AI | R&D va GMP mutaxassislarini skrining |
| Bashoratli tahlil | IBM Watson Talent, Visier | Xodimlar aylanmasi va burnout prognozi |
| Adaptiv o'qitish | Cornerstone, Degreed, EdCast | GMP/GLP sertifikatlash shaxsiy trening |
| HR-chatbotlar | Leena AI, Espressive, Talla | Xodimlar so'rovlariga 24/7 javob |
| Sentiment tahlili | Culture Amp, Peakon, Glint | R&D jamoalar motivatsiyasini kuzatish |
| Kompensatsiya | PayScale, Compa.io, Salary.com | Raqobatbardosh ish haqi tizimi |

O'zbekistonda AI/Big Data qo'llanilishi dinamikasi 1-rasmda aks ettirilgan.




**1-rasm. O'zbekiston farmatsevtika sohasida AI/Big Data yechimlarini qo'llayotgan korxonalar ulushi (2020–2024, %)**

**MUHOKAMA**

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, yetakchi farmatsevtika kompaniyalari AI/Big Data'ni to'rt bosqichli strategiya asosida joriy etadi: audit va tayyorgarlik → pilot loyihalar → kengaytirilgan joriy etish → AI-first HR ekotizimi. O'zbekiston sharoitidagi holat 2-jadvalda SWOT-tahlil orqali baholangan.

**2-jadval. O'zbekistonda farmatsevtika sohasi IRB'da AI/Big Data joriy etish SWOT-tahlili**

| **S — Kuchli tomonlar** | **W — Zaif tomonlar** |
|---|---|
| • "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi<br>• PF-104-son AI-siyosati<br>• IT-Park va texnoparklar faoliyati<br>• Yosh IT-mutaxassislar salohiyati | • AI-mutaxassislar tanqisligi<br>• HR-tech platformalar narxi yuqori<br>• Data governance standartlari yo'q<br>• Rahbariyat AI-savodxonligi past |
| **O — Imkoniyatlar** | **T — Tahdidlar** |
| • Xalqaro HR-tech kompaniyalar bilan hamkorlik<br>• Mahalliy AI-startaplar rivoji<br>• Bulutli yechimlar arzonligi<br>• Xorijiy grantlar va sarmoyalar | • Ma'lumotlar xavfsizligi tahdidlari<br>• Algoritmik xolislik (bias) muammosi<br>• Kadrlar AI'dan cho'chishi<br>• GDPR-ga muvofiqlik murakkabligi |

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: 1) 3–5 yillik AI-strategiyani ishlab chiqish; 2) data governance framework'ini joriy etish; 3) HR-mutaxassislar uchun data literacy dasturlarini rivojlantirish; 4) xalqaro HR-tech platformalarga (SAP SuccessFactors, Workday, Oracle HCM) integratsiyalash; 5) mahalliy AI-startaplar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish; 6) AI-etikasi va Explainable AI (XAI) prinsiplariga rioya qilish; 7) change management dasturlari orqali xodimlarning raqamli qo'rquvini bartaraf etish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

1. AI va Big Data texnologiyalari farmatsevtika sohasidagi IRB jarayonlariga inqilobiy o'zgarishlar olib kirmoqda; ular kadr tanlash, o'qitish, retention, samaradorlik boshqaruvi va ish haqi optimallashuvi jarayonlarini o'rtacha 30–50% ga oshirish imkonini beradi.

2. Eng samarali yo'nalishlar qatoriga AI-asosidagi rekrutment, bashoratli HR-analitika, adaptiv o'qitish, HR-chatbotlar, sentiment tahlili va kompensatsiya optimallashuvi kiradi; ushbu yo'nalishlarning integratsiyalashgan qo'llanilishi maksimal samara beradi.

3. O'zbekistonda AI/Big Data joriy etilishi so'nggi besh yilda 5 barobarga oshdi (5% → 25%), biroq global ko'rsatkichlardan (45%) sezilarli farq mavjud; AI-mutaxassislar tanqisligi va data governance masalalari ustuvor muammolar.

4. Ishlab chiqilgan tavsiyalar "Raqamli O'zbekiston – 2030" va "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish" konsepsiyalarida belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-iyundagi PF-104-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish choralari to'g'risida"gi Farmoni. // Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. // Lex.uz.
3. Bersin J. HR Technology 2024: The Definitive Guide. – Deloitte Development LLC, 2024. – 128 p.
4. Marler J.H., Boudreau J.W. An evidence-based review of HR Analytics // International Journal of HRM. – 2021. – Vol. 28(1). – P. 3–26.
5. Davenport T.H., Ronanki R. Artificial Intelligence for the Real World // Harvard Business Review. – 2023. – Vol. 96(1). – P. 108–116.
6. Tambe P., Cappelli P., Yakubovich V. Artificial Intelligence in Human Resources Management // California Management Review. – 2022. – Vol. 61(4). – P. 15–42.
7. Chowdhury S., Dey P., Joel-Edgar S. et al. Unlocking the value of AI in HR management // Human Resource Management Review. – 2023. – Vol. 33(1). – P. 100893.
8. Rogers D.L. The Digital Transformation Playbook. – New York: Columbia Business School Publishing, 2020. – 296 p.
9. Deloitte Global Human Capital Trends 2024. – Deloitte Insights, 2024. – 92 p.
10. McKinsey Global Institute. The State of AI in 2024. – McKinsey & Company, 2024. – 68 p.
11. PwC. AI Analysis 2024: The AI-powered organization. – PricewaterhouseCoopers, 2024. – 76 p.
12. Gartner. HR Technology Market Guide 2024. – Gartner Research, 2024. – 82 p.

# BANK FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYA, TEXNOLOGIK ARXITEKTURA VA SAMARADORLIK MODELLARI

Sagdiyeva Maxbubaxon Rustamovna

"Agrobank" ATB Qashqadaryo viloyat boshqarmasi

Xodimlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i

Annotatsiya. Ushbu tezesda bank faoliyatini raqamlashtirishning institutsional va texnologik jihatlari chuqur tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya jarayonida sun'iy intellekt, blokcheyn, Big Data va API iqtisodiyotining o'rni ilmiy asoslangan. Shuningdek, bank samaradorligiga raqamlashtirishning ta'siri ekonometrik yondashuvlar asosida baholangan va O'zbekiston bank tizimi uchun amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

*Kalit so'zlar:* **:** raqamli transformatsiya, fintex ekotizim, Open Banking, API, Big Data, AI, bank samaradorligi, neo-bank.

## KIRISH

Global raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimidagi transformatsiya jarayonlari a'anaviy modellardan platformaviy bank modellariga o'tish bilan xarakterlanadi. Raqamlashtirish faqat texnologiya emas, balki institutsional o'zgarishlar, biznes modellar transformatsiyasi va mijozlar xulq-atvorining o'zgarishi bilan bog'liq kompleks jarayondir.

Zamonaviy banklar "Bank-as-a-Service (BaaS)" konsepsiyasi asosida ishlab, moliyaviy xizmatlarni API orqali tashqi platformalarga integratsiya qilmoqda.

**1.Nazariy-metodologik asoslar.**

**1.1. Raqamli transformatsiya konsepsiyasi**

Raqamli transformatsiya – bu tashkilotning barcha biznes jarayonlari, korporativ madaniyati va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarini raqamli texnologiyalar asosida qayta shakllantirish jarayonidir.

Ilmiy adabiyotlarda quyidagi yondashuvlar ajratiladi:

- Resource-based view (RBV) –raqamli resurslar raqobat ustunligini ta'minlaydi.
- Dynamic capabilities- texnologiyalarga tez moslashish qobiliyati.
- Platform economy- banklarning platformalashuvi.

**1.2. Banklarda raqamli arxitektura modeli.**

Zamonaviy bank arxitekturasi 4 qavatdan iborat:

1. Front-office- mobil ilovalar, UX/UI
2. Middleware (API layer)- integratsiya platformasi
3. Back-office – asosiy bank tizimlari (core banking)
4. Data layer- Big Data va analitika

Bu model banklarning moslashuvchanligi va masshtablanishini ta'minlaydi.

**2. Raqamli texnologiyalarning chuqur tahlili.**

**2.1. Big Data va prediktiv analitika.**

Big Data banklarga mijozlarni segmentlash, kredit xavfini baholash va shaxsiylashtirilgan xizmatlar yaratish imkonini beradi.

Matematik ifodalash:

Kredit xavfi modeli:

$PD= f (X1,X2,.....Xn)$

**2.2. Sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilish.**

AI algoritmlari quyidagilarni ta'minlaydi:

- rial-time skoring
- fraud detection (anomaliyalarni aniqlash)

- chat-botlar orqali xizmat ko'rsatish.

**2.3. Blokcheyn va DeFi**

- Blokcheyn texnologiyasi:
- tranzaksiya xarajatlarini 30-50%ga kamaytiradi
- settlement vaqtini qisqartiradi
- smart-kontraktlar orqali avtomatlashtirishni ta'minlaydi.

**2.4. Open Banking va API iqtisodiyoti.**

Open Banking – bu bank ma'lumotlarini uchinchi tomonlarga API orqali taqdim etish tizimi.

Bu:

- raqobatni oshiradi
- innovatsiyalarni tezlashtiradi
- fintex ekotizimni shakllantiradi.

**3. Bank samaradorligiga ta'sir tahlili.**

$$Efficiency = \alpha + \beta 1 Digitalization + \beta 2\ Innovation + \beta 3$$

Tadqiqotlar ko'rsatishicha:

- рақамлаштириш харажатларни 20-40%га камайтиради
- хизмат кўрсатиш тезлиги 2-3 баробар ошади
- мижозлар қониқиши сезиларли даражада ўсади.

**4. Risklar va kiberxavfsizlik**

Raqamli banklarda asosiy xavflar:

- kiberhujumlar
- ma'lumotlar o'g'irlanishi
- algoritmik xatolar.

Zero Trust Security модели энг самарали ёндашув сифатида қаралади.

**5.Xalqaro tajriba (tahliliy yondashuv)**

**Yevropa-** PSD2 direktivasi orqali Open Banking joriy qilingan.

**AQSH-** Neo-banklar va fintex kompaniyalar banklar bilan raqobatda.

**Xitoy-** Super-app model (WeChat Pay, Alipay) orqali moliyaviy xizmatlar integratsiyalangan.

**6.O'zbekiston bank tizimi uchun ilmiy takliflar.**

Quyidagi innovatsion yechimlar taklif etiladi:

**1.AI-driven credit scoring tizimi**

An'anaviy skoringdan farqli ravishda:

-noformal ma'lumotlar (telefon, tranzaksiya) asosida baholash

**2.Milliy Open Banking platformasi**

- barcha banklar uchun yagona API standarti
- fintex startaplar uchun ochiq muhit

**3.Digital-only bank modelini joriy etish**

Filialsiz banklar:

- xarajatlarni keskin kamaytiradi
- tezkor xizmat ko'rsatadi.

**4.Regulatory sandbox kengaytirish**

Innovatsiyalarni xavfsiz muhitda sinovdan o'tkazish.

**7. Ilmiy yangilik (Novelty)**

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- banklarni raqamlashtirish samaradorligining ekonometrik modeli ishlab chiqildi
- raqamli arxitekturaning integratsiyalashgan modeli taklif etildi
- O'zbekiston uchun moslashtirilgan Open Banking konsepsiyasi asoslandi.

## XULOSA

Bank faoliyatini raqamlashtirish- bu strategik zarurat bo'lib, u banklarning uzoq muddatli raqobatbardoshiligini ta'minlaydi. Samarali raqamli transformatsiya uchun texnologiya, institutsional muhit va inson kapitali uyg'unligi talab etiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Vial,G.(2019). Digital transformation A review
2. Gomber et al. (2018). Fintech and the transformation of banking
3. World Bank Digital Economy Reports.
4. IMF Fintech Notes.
5. OECD Digital Finance Outlook.

# RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT

## Ilmiy elektron jurnal

## (MAXSUS SON)

**Bosh muharriri:** Mo'minov Baxodir Boltaevich

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Nasimov Rashid

**Muharrir:** Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

**Musahhih:** Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

**Dizayner:** Egamberdiev Elyor

"Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt" jurnali 23.10.2020-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1124 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027


DATA